

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**



**АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ПЕДАГОГИКА ФАКУЛЬТЕТИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ  
МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ОНА ТИЛИ, МАТЕМАТИКА  
ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ – АМАЛИЙ  
АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**IX ЧИҚИШ**

**Андижон 2020**

Ушбу тўплам Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Андижон давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедраси томонидан ташкил этилган “Бошланғич таълимда она тили, математика ўқитишнинг долзарб муаммолари” мавзусида ўтказилган республика илмий-амалий анжумани материалларидан ташкил топган (IX чиқиш).

Тўплам материалларидан бошланғич таълим муассасалар, она тили, математика, психология, педагогика фани ўқитувчилари ҳамда магистратура ва бакалаврият талабалари фойдаланишлари мумкин. (Мақоланинг илмий савияси ва техник хатолари учун муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар).

Бош муҳаррир:

А.С.Юлдашев – биология фанлари доктори, профессор, АДУ ректори.

Тахрир хайъати аъзолари:

Б.М.Расулов, тарих фанлари доктори, илмий ишлар ва инновация бўйича проректор.

М.У.Тўраев, техника фанлари номзоди, доцент.

Д.А.Нурманова, филология фанлари номзоди, доцент. (масъул муҳаррир)

К.Б.Мамадалиев, физика-математика фанлари номзоди, доцент.

Ф.М.Юнусов, педагогика фанлари номзоди, доцент.

Т.Т.Ғаниев, педагогика фанлари номзоди.

З.А.Джурабаева, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Н.Ғ.Жўраева, катта ўқитувчи

С.А.Жўрахонова, катта ўқитувчи

И.Абдуллаев, катта ўқитувчи

Н.Абдуллаева, катта ўқитувчи

Г.Тешабоева, ўқитувчи

А.Ў.Мирзаев, ўқитувчи

Д.А.Собирова, ўқитувчи

А.Х.Акбаров, ўқитувчи

Л.Мўйдинов, ўқитувчи

Б.Исроилова, ўқитувчи

# 1-ШЎБА: БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ОНА ТИЛИ ВА МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ.

## POYDEVOR MUSTAHKAM BO‘LSA, BINOLAR BOQIY YASHAYDI

**A.Sh.Sobirov, filologiya fanlari doktori, rofessor  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

*Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish yo‘llari, interfaol usullar yordamida ularda Vatanga, xalqqa muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish, darslarda bilim va malakalar hosil qilish ustida bahs yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv, interfaol usul, bilim, ko‘nikma, savod o‘rgatish, dars, mashg‘ulot.*

XX asr boshlarida yashagan atoqli yozuvchilarimizdan Abdulhamid Cho‘lpon ta‘lim-tarbiya jarayoniga “hayot-mamot masalasi” sifatida qarab, boshqa joylarda “birinchi maydon xo‘jalik maydoni bo‘lib, maorif ikkinchi yo uchinchi maydon bo‘lsa, bizning Turkistonda bu maydon birinchi bo‘lmog‘i kerak”, – degan fikrni o‘rtaga tashlagan edi [1]. Bu gaplar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Zamon shiddat bilan ilgarilayotgan, millatlar va mamlakatlar orasidagi munosabatlar keskinlashayotgan, mustaqil O‘zbekistonimiz dunyo xalqlari orasida o‘z o‘rnini topish uchun astoydil urinayotgan hozirgi davrda yoshlarga munosib ta‘lim-tarbiya berish, ularni har tomonlama barkamol avlod etib voyaga yetkazish masalasi mamlakatimizda ustuvor vazifalardan biridir. Shu maqsadda ta‘lim sohasini isloh qilishga astoydil kirishildi.

Ma‘lumki, XXI asr – raqobat asri. Bunda juda ko‘p qirrali, cho‘ng ma‘no bor. Ota-onalarga ham da‘vat bor. Nega desangiz, biz dunyoning eng rivojlangan davlatlariga qatoriga chiqib boryapmiz. Bu ishni tezlashtiruvchi eng muhim shartlardan biri bu – tarbiya [2].

Tarbiyani ta‘limdan, ta‘limni esa tarbiyadan ajratib bo‘lmaydi. Mazkur jarayondagi eng muhim bosqich bu – boshlang‘ich ta‘limdir. Boshlang‘ich ta‘lim shaxs kamolotida poydevor vazifasini o‘taydi. Bu davrda o‘quvchida unga kelgusi hayotida kerak bo‘ladigan eng muhim bilim va ko‘nikmalar shakllantirilishi, rivojlantirilishi darkor. Bola ongli ravishda jamiyatga moslashishi, bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiylashuvi lozim. O‘zgalar bilan kirishib keta olmaydigan, tortinchoq va uyatchan, atrofdagilarga loqayd boladan kelajakda yaxshi mutaxassis yetishib chiqishi mushkul. Boshlang‘ich ta‘limning vazifasi bolada chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, uni hayotga tayyorlashdan iborat. Agar boshlang‘ich ta‘limda poydevor mustahkam bo‘lmasa, bola, kelajakda kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynaladi. Boshlang‘ich ta‘limda olinmagan bilim va tajriba har qadamda unga pand beradi.

Sharqda, jumladan, bizda boshlang‘ich ta‘limda ish jarayonlarining silliq ketishiga halaqit beradigan jiddiy bir qusur bor. Bu bolaga munosabat masalasi. Aksariyat hollarda bola tarbiyasiga avtoritar pozitsiyadan turib yondashamiz. Kattalarning gapi gap, kichiklar unga quloq solishi va bo‘ysunishi shart deb o‘ylaymiz. Bolaning fikrlashi, dunyoqarashi bilan mutlaqo qiziqmaymiz. Holbuki, u ham inson, u ham murg‘ak vujud, uning ham istak va xohishlari, maqsadlari bor. Bola atrofdagi hamma narsani bilishga intiladi va olamni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Bizning vazifamiz mana shu qarichning to‘g‘ri qo‘yilganini aytish va xatosi bo‘lsa to‘g‘rilashdan iborat. Bu jarayonda bizga bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan biri bo‘lgan interaktiv (interfaol) usullar yaqindan yordam beradi. Bu usulda ta‘lim oluvchilar, ya‘ni bolalar bilish jarayoniga jalb etilgan bo‘ladi, ularga bilishi kerak bo‘lgan narsalar o‘zaro hamkorlikda o‘rgatiladi, o‘quvchilarga dunyoni tushinishi va fikrlashi uchun imkoniyatlar yaratiladi [3].

Tajribalardan ma‘lumki, boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolalarda notekis rivojlanish kuzatiladi. Kimdir ta‘lim-tarbiya jarayoniga puxta tayyorlangan, ya‘ni maktabgacha ta‘lim

jarayonlaridayoq alifboni to'la o'zlashtirgan, savodi chiqqan holda kelgan bo'lsa, yana birovi hech qanday yozish va o'qish malakasiga ega bo'lmaydi. Bu o'z-o'zidan guruhda ichki bo'linishlarni yuzaga keltiradi. Boshlang'ich ta'limning eng katta muammolaridan biri mana shu vaziyatga to'g'ri baho bermaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi boshlang'ich ta'limning tamal toshi sanalgan savod o'rgatish jarayonida hammaga bir xil munosabatda bo'ladi. Allaqachon alifboni o'zlashtirib bo'lgan bola uchun darslar zerikarli bo'ladi, undagi yangilikka o'chlik hissi o'z-o'zidan so'nadi. Interfaol usulning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, bilim beruvchi (muallim) ta'lim oluvchi (o'quvchi)larning har birini ko'zdan qochirmasligi, ularga individual yondashishi kerak. Bolaga berilgan shaxsiy topshiriq va uning ijrosi ustidan nazorat muvaffaqiyatning yagona kalitidir.

Boshlang'ich ta'limdagi yana bir muammolardan biri o'quvchilarning ruhiy holatini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. Bolalar oilada buvasi, bobosi; yosh ota-onasi; amaki, tog'asi, ammasi, xolasi yoki katta yoshdagi amakivachchalari, tog'avachchalari ta'sirida ulg'aygan bo'ladi. O'qituvchi aynan bolalardagi mana shu nozik jihatni nazardan qochirmasligi kerak. Bola kimning ta'sirida bo'lsa, o'sha inson bilan hamkorlik o'rnatish katta samara berishi mumkin.

Maktabda bolalar jamoa bo'lib yashashning keyingi sifat bosqichini o'zlashtiradilar. Bungacha ular oilada, yaqinlari orasida yashashdan saboq olgan edilar. Oilada hammaning o'rni aniq bo'ladi, kichiklar kattalarning gapiga quloq soladi, ulardan o'rnak oladi.

Ta'lim-tarbiya bosqichi o'quvchilarni mutlaqo yangi bosqichga – tengdoshlari davrasiga olib kiradi. Mana shu joyda ijtimoiy munosabatlar (ijtimoiylashuv)ning ilk shakllari kurtak yozadi. Bunda o'quvchilar tomonidan og'zaki hamda yozma nutq malakalarining qay darajada o'zlashtirgani mezon vazifasiga aylanadi. O'quvchilar o'rtasida raqobat paydo bo'ladi. Maktabning vazifasi sog'lom raqobatni yo'lga qo'yishdan iborat. Bu jarayonda muallim quyidagilarni e'tiborda tutishi lozim bo'ladi:

- dars va mashg'ulotlarda, darsdan keyingi paytlardan ham o'quvchilarning barchasiga birdek qarashi, ularning xatti-harakatlarini nazardan qochirmasligi zarur;

- bolalarning mustaqil fikrlashiga, berilgan topshiriqlarni yoki vazifalarni bajarishda ijodiy yondashuviga alohida diqqat qaratish talab etiladi;

- o'quvchilarni muntazam ravishda izlanishda bo'lishiga erishish kerak;

- bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini sira so'ndirmaslik, ularni doimiy ravishda rag'batlantirib borish darkor;

- o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish, yuzaga kelgan tortishuvlar, bahs va munozalarda xolislikni ta'minlash kerak;

- o'quvchilarda o'z fikrini og'zaki bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Bunda muallim bolalarga so'z tanlashni, so'zlardan o'rinli foydalanishni o'rgatishi zarur bo'ladi. Masalan, O'zbekiston haqida og'zaki matn tuzish topshirilganda “mamlakat”, “yurt”, “o'lka”, “diyor”, vatan” kabi so'zlardan mosini tanlab, “O'zbekiston – mening vatanim”, “O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati”, “O'zbekiston – buyuk allomalar yurti”, “Jonim fido senga, ozod diyorim” ko'rinishida gaplar tuzishga o'rgatish o'quvchilarning so'z boyligini kuchaytiradi, fikrlashini kengaytiradi. O'qituvchi fikrlashning tafakkur qilish va uning amaliy shakli sanalgan so'z orqali yuzaga chiqishini aslo unutmazligi kerak. O'quvchining ongini rivojlantirimasdan turib, uning nutqini to'g'rilab bo'lmaydi. Narsa va hodisalarning mohiyatini to'la anglab yetgan, ulardan o'zi uchun kerakli yoki keraksiz jihatlarni ajrata olgan o'quvchigina to'g'ri gap tuza oladi.

Bunga sezgi a'zolari vositasida olamni to'g'ri idrok etish, narsa va hodisalarni solishtirish, qiyoslash orqali kerakli xulosalar chiqarish yo'li bilan erishiladi.

Boshlang'ich ta'limdagi yana bir muammo “Alifbo”, “O'qish”, “Matematika”, “Rasm”, “Musiqqa”, “Atrofimizdagi olam”, “Ingliz tili”, “Rus tili” kabi fanlarning bir-biridan ayricha olib borilishiga borib taqaladi. Mazkur fanlar o'zaro integratsiyada bo'lishi, bir-birini to'ldirishi, o'quvchiga jamiyat va tabiat qonunlarini o'zlashtirishiga yaqindan ko'mak berishi kerak bo'ladi.

Eng muhimi, o'quvchilarda odob-axloq ko'nikmalari shakllantirish, ularni ona Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalash, bolalarda vatanparvarlik hislarini, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish, mehnatsevarlikka, shirinsuxanlikka, xushmuoamlalikka o'rgatish talab etiladi.

Bunday mas'uliyatli va sharaflı vazifa boshlang'ich ta'lim mundarijasiga kirgan barcha fanlarning zimmasidagi muqaddas burch sanaladi.

Zero, mamlakatimizda uzluksiz ta'limdan ko'zlangan bosh maqsad ham vatanparvar, millatparvar, jismonan baquvvat, ma'nan yuksak, raqobatbardosh yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulhamid Cho'lpon. Hayot-mamot masalamiz ustida/Asarlar. 4 jildlik. – 4-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 81-bet.

2. Quronov M., Daminov I., Bozorov O., Akramova Sh. Milliy tarbiya va yoshlar. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 86-bet.

3. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 15-bet.

### **МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА МАНТИҚИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАР ЕЧИШ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

**Б.С.АБДУЛЛАЕВА, ТДПУ, профессор  
Б.К.МАМАДАЛИЕВ, АДУ, катта ўқитувчи**

*Аннотация:* Ушбу мақолада амалий масалалар ечиш усуллари ишлаб чиқилди ва бу усуллардан фойдаланиб мисол ва масалалар ечишнинг креатив қобилиятли ўқувчилар тайёрлашдаги аҳамияти очиб берилди.

*Калит сўзлар:* креатив, математик креатив, амалий масала, мантиқий масала, оғзаки ҳисоблаш.

Мамлакатимизда таълим-тарбия самарадорлигини ривожланган хорижий давлатлар қаторида замон талаблари даражасида мунтазам ошириб бориш, юксак маънавий ва билимли, етук, баркамол шахсни вояга етказиш учун юксак педагогик маҳоратга эга бўлган ўқитувчиларни тайёрлаш, уларнинг интеллектуал, касбий, креатив, маънавий-ахлоқий сифатларини уйғунликда ривожлантиришни амалга ошириш учун кўплаб ислохатлар амалга оширилмоқда. Узлуksiz таълим кадрлар тайёрлаш тизимининг асоси бўлиб, уни ташкил этиш ва ривожлантириш принципларидан бири ижодкор ёшларни аниқлаш, уларга таълимнинг энг юқори даражасида, изчил равишда фундаментал ва махсус билим олишлари учун шарт-шароитлар яратишдан иборат.

Республикамизда амалга оширилаётган ижтимоий - сиёсий, иқтисодий ўзгаришлар таълим ва тарбия назарияси ва амалиётига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Таълим тизими олдида инсоннинг қобилиятларини ҳар томонлама ривожлантириш, қобилиятларнинг юқори даражада намоён бўлишини таъминлаш, ижодий етук, ўз-ўзини намоён эта олишга қодир шахсни шакллантириш каби глобал вазифаларни кўймоқда. Ватанимиз мустақиллиги даврида таълим тизимида рўй бераётган улкан ўзгаришлар креатив қобилиятли ўқувчиларга бўлган муносабатни ҳам тубдан ўзгартирди.

Давлатимиз раҳбари Президентлик фаолиятининг дастлабки кунларидан бошлаб юртимизда инновацион ва креатив фикрлайдиган замонавий кадрлар тайёрлаш, ёшларни ватанпарварлик руҳида, юксак маънавий эгалари этиб тарбиялаш, шу мақсадда таълим тизимини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Креатив қобилиятли ёшлар Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини ҳамда уни жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллашини таъминловчи омил ва миллатимиз зийнати ҳисобланади. Шунинг учун ҳам умумий ўрта таълим мактаб ўқувчилари орасидан креатив қобилиятли, математика фанидан тезкор ва мантиқан фикрлай оладиган ўқувчиларни аниқлаш, уларнинг қобилиятларини ривожлантириш каби жараёнларнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш педагогика фанининг долзарб муаммоларидан бирига айланди.

Қуйида биз амалий масалалардан баъзи бирларини келтирамиз.

**1-масала.** Ҳовуздан 5л (литр) ва 9л лик идиш ёрдамида 3л сув олиш мумкинми[2.78.Б].

Ечиш: 1-қадам. 9л идишда сув олиб 5л идишга қуямиз. 2-қадам. 5л идишдаги сувни ҳовузга тўкиб юборамиз. 3-қадам. 9л идишда қолган 4л сувни 5л идишга қуямиз. 4-қадам. 9л идишда яна сув олиб 5л идишга қуямиз. 9л идишда 8л сув қолди. 5-қадам. 5л идишдаги сувни тўкиб юборамиз. 6-қадам. 9л идишдан 5л сув олиб ташласак, 9л идишда 3л сув қолади. Демак 5л ва 9л идишлар ёрдамида 3л сув олиш мумкин экан.

Агар 7л сув олиш керак бўлса, у ҳолда 9л идишдаги 3л сувни бўшатиш билан 5л идишга қуямиз, кейинга қадамда 9л идишга тўла сув олиб, бу сувни ичида 3л сув бўлган 5л идишни тўлдирамиз, у ҳолда 9л идишда 7л сув қолади.

Агар 6л сув олиш керак бўлса, у ҳолда 5л идишдаги сувни тўкиб, 9л идишдаги қолган 7л сувнинг 5л ни 5л идишга қуямиз ва 5л идишдаги сувни тўкиб, 9л идишда қолган 2л ни қуямиз. Кейин 9л идишни тўлдириб, бу сув билан 2л суви бор 5л идишни тўлдирсак, 9л идишда 6л сув қолади. Бу масалани 1л, 2л ва 8л сув олиш учун ҳам ечиш мумкин. Бу масаладаги идишларнинг ҳажмини ва идишлар сонини ўзгартириш ҳисобига ўқувчиларнинг креатив қобилиятини ривожлантирувчи кўплаб масалалар тузиш мумкин. Масалан 5л ва 9л идишлар орнига 3л ва 5л идишлардан фойдаланиб 1л, 2л, 4л, 6л, 7л, 8л, ... сиғимдаги сувларни ўлчаш мумкинми деб яна ҳар хил масалалар тузиш мумкин. Бундай масалалар асосан оғзаки ечилгани учун ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятини тез ривожлантиради.

Ўқитувчи ўқувчилар олдида бу масалани бошқа усулда ечиш мумкинми деб муаммоли вазият яратса ўқувчилар масалани бошқа усулда ечишга ҳаракат қиладилар. Креатив қобилиятли ўқувчилар масала ечишнинг бошқа усуллари топишга ҳаракат қиладилар ва бу билан ўзларининг фикрлаш қобилиятини ривожлантириб борадилар. Креатив қобилиятли ўқувчилар масала ечишнинг қуйидаги усулини таклиф қилиб, муаммоли вазиятни тез ҳал қилишлари ҳам мумкин.

Ечиш: 5л ва 9л идишлар ёрдамида 6л сув олиш учун:

1. 5л идишда тўла сув олиб уни 9л идишга қуямиз;
2. 5л идишда сув олиб 9л идишни тўлдирамиз, бу ҳолда 5л идишда 1л сув қолади;
3. 9л идишни бўшатиб унга 5л идишда қолган 1л сувни қуямиз;
4. 5л идишда тўла сув олиб 9л идишга қуямиз, натижада 9л идишда 6л сув ҳосил бўлади.

Агар 7л сув олиш керак бўлса юқоридаги жараёни давом эттирамиз:

5. 5л идишдан сув олиб, ичида 6л сув бўлган 9л идишни тўлдирамиз. Бу ҳолда 5л идишда 2л сув қолади;
6. 9л идишдаги сувни тўкиб ташлаб, бу идишга 5л идишдаги 2л сувни қуямиз;
7. 5л идишда тўла сув олиб, уни 9л идишга қуямиз. Шундан сўнг 9л идишда 7л сув ҳосил бўлади.

Агар 3л сув олиш керак бўлса, 5л идишда сув олиб ичида 7л сув бўлган 9л идишни тўлдирамиз. У ҳолда 5л идишда 3л сув қолади. Демак, 5л ва 9л идишлар ёрдамида ҳовуздан 1л, 2л, 3л, 4л, 6л, 7л, 8л сиғимдаги сувлар ажратиш олиш мумкин экан. Бу масаладаги 5л ва 9л идишларни бошқа идишларга, сувни сутга, ҳовузни бирор ҳажмдаги идишга алмаштириш ҳисобига ўқувчиларнинг креатив қобилиятини ривожлантирувчи кўплаб амалий масалалар тузиш мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1.Н.Муслимов ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент.: Илм зиё, 2015.-210б.

2.Мирзаахмедов М.А. Алгебрадан масалалар ва тестлар тўплами. Тошкент.: Ғофур Ғулом, 2017.-176б.

3.Мирзаахмедов М.А., Исмаилов Ш.Н. Математикадан қизиқарли ва олимпиада масалалари. Ўқув қўлланма.-Тошкент.: Турон-икбол, 2017.-128б.

## ЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНИ

М.Жумаев  
Низомий номидаги ТДПУ профессори

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8-декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора тадбирлари тўғрисида” 997 - сонли қароридаги PISA (The Programme for International Student Assessment)– 15 ёшли ўқувчиларнинг ўқиш, математика ва табиий йўналишдаги фанлардан саводхонлик даражасини баҳолашга тайёргарлик бўйича қатор вазифалар белгиланган.

**Таянч сўзлар:** PISA халқаро тадқиқоти, математик саводхонлик.

“Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да таълим сифатини ошириш, ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш масалалари алоҳида ўрин эгаллайди. [2].

Ёшларнинг билим ва иқтидорини чуқурлаштириш, уларнинг келгусида малакали кадрлар бўлиб Ўзбекистонни янада ривожлантиришдаги иштирокини таъминлаш мақсадида таълим жараёнига замонавий ёндашувлар жорий этилмоқда, шунга жавобан натижавийликка эътиборни қаратмиз. [1]

*“Математик саводхонлик - шахснинг математикани турли контекстларда формализация қилиш, қўллаш ва талқин қилиш қобилиятидир. У ҳодисаларни тушуниш, тушунтириш ва башорат қилиш учун ўз ичига математик мулоҳазаларни юритиш, математик тушунчаларни, усулларни, фактларни ва воситаларни қўллаш каби жиҳатларни олган. Математик саводхонлик инсонларга дунёда математиканинг ўрнини тушуниш, конструктив, фаол ва фикрлайдиган фуқарога зарур бўлган мулоҳазаларни юритиш ҳамда қарорларни қабул қилишга ёрдам беради.*

Математик саводхонликни баҳолашни ташкил қилиш

Математик саводхонликни баҳолашни ташкил қилишнинг асосида қуйидаги учта ўзаро боғлиқ жиҳатлар туради:

- топшириқларда ишлатиладиган математик тушунчалар мажмуи (мазмун),
- муаммони тақдим этадиган контекст
- бу контекстни қўйилган муаммни ечишга зарур бўлган математика билан боғлаш учун ўқувчи фаолиятини тасвирлайдиган математик ақлий жараёнлар. Натижада масалалар ечишда фаолиятни тасвирлаб бериш учун қуйидаги учта феълни ишлатиш таклиф қилинган: *ифодалаш, қўллаш ва талқин қилиш*. Улар ўқувчиларнинг масалалар ечишда вужудга келган фикрлашнинг учта жараёнини ифодалайди:

- вазиятни математик тарзда ифодалаш ;
- математик тушунчаларни, фактларни, фикрлаш усулларини қўллаш;
- математик натижаларни шарҳлаш, ишлатиш ва баҳолаш.

Қуйида PISA- 2012 баҳолашнинг муаллифлари томонидан қабул қилинган таърифларини келтирамиз [4] .

*Вазиятни математик тарзда ифодалаш (formulating situations mathematically) – математикани тадбиқ қилиш имкониятларини аниқлаш ҳамда вазиятни математик ишлов бериш учун қўлай шаклда ифодалаш, вазиятнинг муҳим жиҳатларини акс эттирадиган математик модель тузиш каби қобилиятларни ўз ичига олган.*

*Математикани қўллаш (employing mathematics) ўз ичига ечимни ёки ҳулосаларни ҳосил қилишда математик тушунчаларни, фактларни, усулларни, фикр юритиш қоидаларни ва воситаларни қўллаш қобилиятларни ўз ичига олган. Реал дунё контекстда берилган масала.*

**Математика мазмунига оид соҳалар:** Сонлар ва катталиклар, маълумотлар ва аниқмаслик, ўзгариш ва бағланишлар, фазо ва шакллар

**Реал дунёнинг контекстлари:** шахсий ҳаёт, таълим / касбий фаолият, ижтимоий ҳаёт ва илмий фаолият.

**Математик мулоҳазалар юритиш ва фаолият**

**Математик тушунчалар, билим ва кўникмалар**

**Фундаментал математик қобилиятлар:** Маълумот бериш; тақдим қилиш; стратегияларни ишлаб чиқиш; математиклаштириш; мулоҳаза юритиш ва аргументация қилиш; символик, формал, техник тилларни ва амалларни қўллаш; математик ускуналардан фойдаланиш

**Когнитив жараёнлар:** ифодалаш, қўллаш, талқин қилиш ва баҳолаш

**Контекстлар.** PISA тадқиқотининг мақсади – ўқувчиларда кундалик ҳаётда математикани қўллашга тайёр бўлиш – алоҳида турдаги топшириқларни ишлаб чиқишни тақозо этади. Ўқувчиларга аънанавий баҳолашда қўлланиладиган типик ўқув топшириқлар ўрнига реал муаммоли вазиятларга яқин бўлган ҳамда ўқувчи математик тайёргарлигига мос бўлган топшириқлар таклиф қилинади. *Масала контексти* – атроф-муҳитнинг белгиланган вазиятга мос элементлари ва хусусиятлари. Бу вазиятлар ҳаётнинг турли жиҳатлари билан боғлиқ бўлиб, у ё бу даражаги математикалашни талаб қилади. PISA тадқиқотида асосан ўқувчиларда қизиқишни уйғотадаган ҳамда уларнинг шахсий дунёсига яқин бўлган вазиятлар қаралади. Жумладан, ўқувчиларнинг шахсий турмуши ва мактабдаги таълим-тарбияси, сўнг касбий фаолият, маҳаллий жамиятнинг ва бутун инсониятнинг ҳаёти профессионал фаолият, маҳаллий жамоа ва бутун инсониятнинг кундалик ҳаёти реал дунёнинг энг яқин қисми сифатида олинган. [6]

Фан билан боғлиқ бўлган вазиятлар реал дунёнинг энг узок вазиятлардир. Шундай қилиб, топшириқларни тузишда контекстнинг 4 тоифаси қўлланилади: *шахсий ҳаёт, таълим / касбий фаолият, ижтимоий ҳаёт ва илмий фаолият*. Бу контекстларда берилган муаммолар ўқувчиларнинг ҳаётий тажрибалари ёки амалиётининг қисмидир.

Шунинг учун математикани шундай қўлланишга эътибор қаратиш PISA топшириқларини режалаштириш ва таҳлил қилишнинг асосий жиҳати ҳисобланади.

Математик саводхонликни баҳолаш учун фан мазмуни соҳалари [6]

Баҳолашда фан мазмуни куйидаги тўрта бўлим бўйича тақсианган: фазо ва шакл, ўзгариш ва бағланишлар, сонлар ва катталиклар, маълумотлар ва аниқмаслик: - ўзгариш ва бағланишлар - турли жараёнларда ўзгарувчилар орасидаги муносабатлар математик талқинига оид топшириқлар, яъни алгебраик материал ( "PISA", "Автомобилда саёҳат " топшириқлари);

- маълумотлар ва аниқмаслик – тасодифий ва статистик ҳодиса ва қонуниятларга оид топшириқлар, яъни стастика ва эҳтмоликлар назарияси материали (қаранг "Маиший чиқиндилар " топшириғи ).

Фан мазмунига оид билим ва кўникмалар[6]

**Функциялар:** функция тушунчаси, бунда асосий урғу чизиқли функцияларга қаратилган. Айтиш жойизки, бошқа функциялар хоссалари, уларнинг берилишининг турли шакллари (асосан сўзлар ёрдамида, символик, жадваллар ва график) ҳам қаралмоқда.

Бундан ташқари , математик саводхонликни муваффақиятли намоиш қилиш математикани ўқитишда ривожлантириладиган мантқий ва алгоритмик характердаги универсал когнитив компетенцияларга боғлиқ

### **Адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016 йил, 56 бет.

2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.



3. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

4. OECD (2013), PISA 2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy, OECD Publishing.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 997-сон қарори (*Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.12.2018 й., 09/18/997/2289-сон*)

## **ФОНЕТИК ТРЕНАЖЁРЛАР НУТҚ ЎСТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА**

**Д. А. Набиева. ф.ф.д., проф.**

**Д. А. Нурманова. ф.ф.н., доц.**

**Аннотация:** *ишда тил ўйинлари, хусусан, фонетик тренажёрлар ва уларнинг болалар нутқини ўстириш жараёнидаги ўрни ҳақида сўз боради.*

Кейинги йилларда дунё тилшунослигида тилнинг ижодий функциясига қизиқиш сезиларли даражада кучайди. Тилнинг ижодий функциясини акс эттирувчи омиллардан бири тил ўйинларидир. Тил ўйинларининг фалсафий, психологик, эстетик, ижтимоий ва лингвистик табиатга эгаллиги уларнинг кўп аспектли мураккаб жараён эканлигини кўрсатади. «Тил ўйини» терминини тилшуносликда биринчи бўлиб немис олими Людвиг Витгенштейн “Философские исследования” номли асарида қўллайди. Унда олим тил ўйинларини конвенционал қоидалар системаси сифатида баҳолайди ва жараён иштирокчиси фақат сўзловчи бўлишини таъкидлайди. У тил ўйинларига *тил ва у билан чамбарчас боғлиқ бўлган фаолият кўринишларининг бутунлиги, маънолар плюралиزم*и сифатида қарайди. Бундай талқин тил ўйинлари тушунчасини тил маҳорати ёки лингвистик компетенция тушунчалари билан яқинлаштиради ҳамда илмий нуқтаи назардан қаралганда, ўзига хос витгенштейнча йўналишни ташкил қилади.

Тил ўйинларининг прагматик-операционал концепцияси А.Гридина томонидан ишлаб чиқилган. А.Гридина тил ўйинларининг лингвокреатив назарияси ҳақида фикр юритар экан, бу усул нутқ ўстириш ва тил ўзлаштиришнинг энг самарадор усулларидан бири эканлигини таъкидлайди. Шу билан бирга, у тил ўйинларини торроқ маънода, яъни тил қонунларига риоя қилмайдиган ходиса сифатида қараган ҳолда, уларни тил ва нутқ “потология”си деб эмас, балки “асистемавийлик орқали системавийликнинг намоён бўлиши” деб баҳолаш лозимлигини таъкидлайди. [1;7]

Тил ўйинларига тилнинг поэтик функциясини реаллаштирувчиси сифатида ҳам қараш мумкин. Е.А.Земская хабар бериш тил поэтик функциясининг характерли хусусияти бўлишига қарамай, ўйин жараёнида сўзловчи асосий фикрини нутқ шаклига қаратишини айтади. [2;172] Муаллифлар тил ўйинларига энгил ҳазил, троп(метафора, перифраза...)ларни ҳам киритадилар.

Тил бирликларининг семантик ва прагматик қонунларининг бузилиши (Арутюнова), нутқда турли сатҳ бирликлари ўртасидаги синтагматик ва парадигматик каби системавий муносабатларнинг бузилиши (Норман) каби ҳолатлар тил ўйинларида ўйин эффектнинг яратилиш механизмини ташкил қилади. [3;9] Н.Л.Уварова тил ўйинларини тил бирликлари ўртасидаги семантик муносабатлар деформациясига олиб келувчи шундай жараёнки, бунинг натижасида сўзлар ўзининг “қўшничилигидан” хайрон қолади, деб баҳолайди.

Тил ўйинларининг ўрганилиши тилшуносликда лингвофольклористика йўналишининг вужудга келишига сабаб бўлди. Н.М.Мельников, В.П.Аникин, С.Г.Лазутин каби тилшунослар бу йўналишни фақат кичик фольклор жанрларининг тил хусусиятларини ўрганувчи соҳа деб қарайдилар. Новицкая, И.Л.Муль каби олимлар эса ҳар қандай фольклор жанрлари лингвофольклористиканинг ўрганиш объекти бўлиши мумкинлигини таъкидлайдилар. Юқоридаги фикрлардан хулоса қилган ҳолда, биз

тезайтишлар, топишмоқлар, аския, лапар каби ўзбек фольклор жанрлари билан бир қаторда тил ўйинларига бўғин ва товуш ўйинларини ҳам киритиш тарафдоримиз. Айрим муаллифлар бундай ўйинларни фонетик тренажёрлар деб атайдилар.

Фонетик тренажёрлар, одатда, журналистлар, нотиклар, юристлар, ўзга тилларни ўрганувчилар, нутқида нуқсонли бор болалар учун, ва ниҳоят, бошланғич синфларда савод ўргатиш жараёнида қўллаш учун тавсия этилади.

Савод ўргатишнинг замонавий усулларидан бири товушларни аналитик-синтетик таҳлил қилиш усули бўлиб, у фонемалар ҳақидаги таълимотга таянади. Бошланғич синфларда фонетика ва графикани ўргатиш ўқувчиларда нутқнинг энг кичик бирлиги бўлган товушлар ҳақидаги, тилнинг асосий функционал бирлиги бўлган фонема ҳақидаги, асосий ёзув бирлиги бўлган ҳарф ҳақидаги ҳамда тўғри ёзув ва тўғри талаффуз меъёрлари ҳақидаги тасавурларни шакллантиришга қаратилган. Бошланғич синфларда фонетика ва графикани ўргатиш орқали ўқувчиларда ўқиш ва ёзиш кўникмалари шаклланади. Бу жараёнда, биринчи навбатда, асосий эътибор сўзнинг товуш, ҳарф ва бўғин таркибини аниқлашга қаратилади.

Фонетик тренажёрларни яратишда:

- сўздаги товушлар ва ҳарфларнинг сонини ва уларнинг мувофиқлигини аниқлаш;

- сўзни бўғинларга ажратиш ва бўғинлар сонини аниқлаш;

- урғу қайси бўғинга тушишини аниқлаш;

- сўздаги унли ва ундошлар сонини аниқлаш;

- сўздаги пайдо бўлиш ўрни, усули ҳамда овоз ва шовқиннинг иштирокига кўра ўзаро зидликни ҳосил қилувчи ундошларни аниқлаш;

- лабнинг иштироки, тилнинг ҳаракатига кўра унлилар ўртасидаги зидланиш белгиларини аниқлаш каби ҳолатларга эътибор қаратиш лозим бўлади. Маълум белгилари билан ўзаро зидланувчи унли ёки ундошлар ёнма-ён келганда талаффузда қийинчиликни юзага келтиради. Талаффуздаги ана шундай муаммоларни бартараф этиш мақсадида фонетик тренажёрлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Масалан, кичик ёшдаги болалар кўпинча “л” ва “р” ундошлари ёнма-ён келганда, талаффуз қилишга қийналадилар. Масалан, Дилрабо исмини ё “дилабо”, ё “дирабо” тарзида талаффуз қиладилар. Сабаби, биринчи ва иккинчи бўғинлар чокидаги л ва р ундошлари иккаласи ҳам сонор ундошлардир. Бундай бир гуруҳга мансуб бўлган ундошлар кетма-кет келганда, талаффузда қийинчилик туғдиради. Болалар нутқидаги ана шундай “қийинчиликлар” вақтида бартараф қилинмаса, у аста-секин нуқсонларни келтириб чиқаради. Бунинг олдини олиш учун эса айрим белгиларига кўра зидланувчи товушлар иштирокидаги бўғин ёки сўзларни такрорлаш машқлари фойдалидир. Масалан, “дилрабо” сўзини талаффуз қилолмайдиган болалар учун ўша сўзни то талаффузи “силлиқланмагунча” қайтартириш яхши натижа беради.

Демак, болалар нутқидаги ана шундай нуқсонларнинг олдини олишда фонетик тренажёрларнинг ўрни бекиёсдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Гридина Т.А. Языковая игра: стереотип и творчество. Екатеринбург, 1996
2. Земская Е.А., Китайгородская М.А., Розанова М.М. Языковая игра//Русская разговорная речь. –М.1983.
3. Муль И.Л. Механизмы языковой игры в малых фольклорных жанрах (на материалах скороговорок и частушки) автореф.дисс.канд.филол.наук. Екатеринбург, 2000.

## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ЛИСОНИЙ ОНГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ш.Х.Шаҳобиддинова – филол.фанл.доктори, проф. АДУ.  
Ш.Х.Юлдашева-Миралимова – АДУ чет тиллари факультети талабаси

Бошланғич синф ўқитувчилари фаолиятидаги асосий вазифалардан бири ўқувчилар нутқини ўстириш ҳисобланади. Кейинги таълим ва тарбиянинг, шунингдек, ҳаётий позицияларнинг сифати кўп жиҳатдан уни амалга оширишнинг муваффақиятига боғлиқ.

Гегель таълимда хусусийликларгагина асосланиш болани ҳамма нарсага писандсизлик билан қарашга ўргатади дейди.<sup>1</sup> Шунинг учун таълимни бола онги қабул қилиши мумкин бўлган мавҳумотларга асослаш тўғри бўлади. Бола онгига энг яқин мавҳумот, албатта, тилдир. “Тил уни билиш бола руҳини хусусийликлар ва яккаликлардан умумийликка томон, онгга томон кўтариб борадиган ўша ҳаво янглиқ ҳиссий-ноҳиссий ҳилқатдир”<sup>2</sup>. Она тилини инсоният тарихининг ўзига хос феномени сифатида тавсиф этиш тил фалсафасининг янги гумбольдчилик йўналишининг ўзагидир. Немис тилшунос файласуфи Вайсгербер икки жаҳон уруши оралиғида айнан она тили феноменининг лисоний ва фалсафий тадқиқотлар учун асосий тадқиқ предмети бўлиб қолиши сабаблари борасида фикр юритар экан, айнан тил - халқ яратувчи куч (народосозидающая сила – volksbildende Kraft)дир деган хулосага келади.<sup>3</sup>

Нутқ ўстириш бошланғич она тили курсининг асоси ҳисобланади. Тилни ўрганиш, она тили дарсини сеvimли ва қизиқарли қилиш учун нима қилиш мумкин? Бу муаммо, айниқса, бошланғич синфларда долзарбдир. Бу ерда болалар биринчи бўлиб тилни ўрганиш(билиш эмас) оламига кирадилар. Бошланғич мактабда тил маданияти асослари қўйилади.

Шу билан бирга боланинг ички мотивлари орасида билишга қизиқиш жуда катта ўрин эгаллайди. Ўқитувчининг вазифаси болаларнинг қизиқишларини тан олиш, қўллаб-қувватлаш ва шакллантиришда тилдан фойдаланишдир. Болаларнинг ижодий тасаввурлари доимо ривожланиб бориши, гапираётган ёки ёзаётган нарсаларни тасаввур қилишга ўргатилиши керак. Боланинг нутқини ривожлантириш, уни ҳар доим гапиришга ундаш, гапиришга чақириш керак. Болалар она тилини нутқ фаолияти орқали ўрганадилар. Шу сабабли ўқувчилар нутқини ривожлантириш билан шуғулланиш, доимий ва мақсадга мувофиқ шуғулланиш жуда муҳимдир. Бола нутқи ривожланишида мулоқотга бўлган эҳтиёж етакчи омилдир. Шунинг учун болаларга мулоқот намуналари берилиши ёки мулоқот муҳитини яратиш керак. Бола нутқининг бойлиги ва хилма-хиллиги кўп жиҳатдан унинг мулоқот муҳитига боғлиқ. Тил болага нафақат бошқа одамлар билан мулоқот қилишга, балки дунёни ўрганишга ҳам ёрдам беради. Нутқни эгаллаш воқеликни билишнинг алоҳида усулидир. Бола нутқининг бойлиги кўп жиҳатдан уни турли ғоя ва тушунчалар билан бойитишга, уларнинг ҳаётий тажрибасига боғлиқ. Бошқача айтганда, ривожланаётган нутқ нафақат тилга, балки ҳақиқий материалга ҳам муҳтож. Бу муваффақиятли нутқ ривожланишининг шартидир. Тил бойликлари қанчалик тўлиқ ўзлаштирилса, инсон улардан шунчалик эркин фойдаланади, табиатдаги ва жамиятдаги мураккаб боғланишларни шунчалик муваффақиятли ўрганади. Бола учун яхши нутқ муваффақиятли ўрганиш ва ривожланишнинг калитидир. Ҳеч кимга сир эмаски, нутқи кам ривожланган болалар доимо орқада қолади, кўпинча турли соҳаларда муваффақиятсизликка учрайди. Бошланғич таълимда тил ўзлаштиришнинг қуйидаги вазифаларини кўрсатиш мумкин: биринчидан, адабий тилни ўзлаштириш, адабий тилни шева ва жаргонлардан фарқ қила олишдир. Иккинчидан, ўқувчилар ўқиш ва ёзишни

<sup>1</sup> Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения. т. III. -М., 1956. – С 93.

<sup>2</sup> Қаранг. Ўша асар. – С 93.

<sup>3</sup> Радченко О.Я. Язык как мирозидание. – Москва: URSS, 2006. – С 105.

ўзлаштириш. Учинчидан, болалар мулоқот малакаларини шакллантириш бўлиб, унинг ривожланишида учта объект бор:

- сўз устида ишлаш;
- ибора ва гап устида ишлаш;
- боғланишли нутқ устида ишлаш.

Бу уч жиҳатнинг барчаси бир вақтда равишда ривожланиши лозим. Мулоқотни ривожлантириш узоқ давом этадиган ва машаққатли ишдир. Нутқни ривожлантириш бўйича тизимли ишлар албатта натижа беради. Алоҳида эътибор талаб этиладиган соҳалар тоборо кенгайиб боради: оила, дўстлар, қариндошлар, таълим, жой, санъат, маълумот воситалари, ўйин-кулги, ҳис-туйғулар, ватан, табиат ҳодисалари, ижтимоий муносабатлар. Бошланғич синф ўқувчисининг лисоний шахсини шаклланганлик даражаси сўзнинг мазмуний тузилишини қай даражада англашида, сўз танлашга муносабатда, грамматик категориялардан тўғри фойдаланишда, синтактик қурилмаларни тўғри шакллантиришда намоён бўлади.

## **КўРСАТИШ ОЛМОШЛАРИ АСОСИДА ҲОСИЛ ҚИЛИНАДИГАН ФОРМАЛАРНИНГ АНАФОРИК АМАЛЛАРИ**

**М.А.ҲАМРАЕВ, Низомий номидаги ТДПУ  
Бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти,  
филология фанлари номзоди**

Кўрсатиш олмошлари асосида ҳосил қилинадиган формаларнинг анафорик амалларидан бири бўлмиш **-дай** қўшимчаси билан ясалган сўз формалари алоҳида ўрин тутлади. Улар анафорик вазифада фаол иштирок этади. Бу анафорик система ҳам ўз хусусиятларига кўра турличадир. Ясама форманинг (дейктик белгининг) қандай позициядаги реализаторга ишора қилишига кўра анафорик қўлланиш икки хил бўлади:

**1) контакт анафорик қўлланишда** дейктик белги ўзига максимал даражада яқин турган реализаторга ишора қилади, аниқроғи, маъноси реаллашади. Бунда бу анафорик қўлланиш ўзаро қўшни предикатив синтактик бирлик доирасидаги анафорик қўлланишдир. Масалан: *Жамиятимизда мадҳини дoston қилса арзийдиган ажойиб оилалар ҳад-ҳисобсиз. Бундай* *ширин* *аилаларни кўрганингда ё мақтовини эшитганингда севиниб, терингга сизғмой кетасан киши.* (М. Исм.) Бу мисолда реализатор ва ДБ ёнма-ён турган гаплар таркибида иштирок этган.

Баъзан ДБ киритма гап таркибида келиб, шу киритма гап киритилган гапдаги реализатор томонидан маъноси ойдинлаштирилади: *Кулумат (оти шундай эди) кўзларидан соғинч билан овули, колхози, тўғрисида сўзлади.* (О.)

Айрим ўринларда ДБ ва реализатор битта содда гап таркибида қатнашадилар: *Аҳмадjon бир сакраб немисни бўйнидан сиқиб олди ва шундайича судраб пастга олиб тушди.* (А.Қ.)

**2) дистант анафорик қўлланишда** ДБ билан реализатор ўртасига бошқа гап киритилиши мумки: *Баъзи нодон ота-оналар ўзларининг қолдирадиган меросларига ишониб, болаларини тизгинсиз қўйиб юбордилар. Дунёда бундан ҳам буюк нодонлик йўқдир. Тизгинсиз болалари охирида қандай қийин ҳолга тушишларини, маишат майдонида ҳайрон ва саргардон бўлиб юришларини эсламайдилар. Шундай ота-оналарнинг фарзандлари ҳоли войдир.* ("Оз-оз ўрганиб...") Кўриняптики, реализатор иштирок этган гап билан ДБ қатнашган гап ўртасида иккита гап мавжуд.

Дистант анафора матннинг мазмунан шаклланишида катта роль ўйнайди ва тема-рематик муносабатларини ўзида акс эттирувчи восита сифатида майдонга чиқади.

Анафорани реализатор иштирокига кўра ҳам турларга ажратамиз.

**1) реализатор иштирок этувчи анафора.** Бунда реализатор дистант ёки контакт позицияда ДБ билан муносабатга киришади: *Сен ўз отанга нисбатан нима яхишлик қилдинг, шундай яхишликни ўзлингдан кутасан.* ("Оз-оз ...")

**2) реализатор иштирок этмайдиган анафора.** Бунда реализатор алоҳида нутк бирлиги сифатида анафорик система таркибида қатнашмайди, лекин унинг мавжудлиги мазмун жиҳатидан сезилиб туради: *Сиз ҳам заводга киришг. Бундай юришдан фойда йўқ.* (О.Ё.) Бу ерда аниқ кўриниб турган (имплицит) реализатор қатнашмаяпти, аммо нутк вазиятидан шу нарса сезиладики, гап *"ишламасдан бекор юриш"* ҳақида кетяпти.

Ясама формалар ҳам анафорик қўлланишда ДБ вазифасини икки хил кўринишда бажаради:

**1) субстантивлашган ҳолда реализатор бўлиб келадиган ДБ.** Бунда ясама форма отлашган ҳолда унта хос хусусиятларни ўзида акс эттиради ва дейктик белги вазифасини бажаради: *Шундай оилалар бўладики, ўзлари алоҳида турсалар ҳам шовқинлари бутун маҳаллани тутуди, бундайлар дастидан маҳалла-кўй ҳам ҳаловатидан айрилади.* (М. Исм.)

**2) ишора гуруҳлари билан ифодаланган ДБ.** Бунда ясама формалар турли сўзлар билан боғланиб, ишора гуруҳларини ҳосил қилади ва анафорик системада ДБ вазифасини бажаради: *Троллейбусда одам тиқилиб кетди. игна ташласангиз ерга тушмайди. Бундай ҳолларда йўловчиларнинг бир-бирларига уринишлари, туртинишлари, сиқилишлари табиий.* (М. Исм.)

Ишора гуруҳлари ҳам таркибига кўра икки хил бўлади:

**а) таркибида реализатор такрорланиб қатнашувчи ишора гуруҳи.** Бунда реализатор форма жиҳатидан ўзгарган ёки ўзгармаган ҳолатда ишора гуруҳи таркибида такрорланиб қатнашади: *Эй кўзимнинг нури ўғлим, богинг жуда ҳам зебо ва дилкушо богдир, аммо давлати, бойлиги бор бир киши бундай богни бунёдга келтира олади.* ("Оз-оз ўргашиб..")

**б) реализатор маъносини турли йўсинда ифодалайдиган сўз қатнашувчи ишора гуруҳи.** Бунда реализатор маъносини акс эттирувчи турли сўзлар ясама форма билан биргаликда ишора гуруҳини ҳосил қилади: *Қачон қариб эшитмоқ, кўрмоқ, эсламоқ, маза топмоқ каби лаззатлардан маҳрум бўлиб қолсанг, ундай турмушдан ўзинг ҳам шодлана олмайсан, бошқаларни ҳам шод қилолмайсан.* ("Оз-оз ўрганиб")

Ишора гуруҳлари маъносига кўра қуйидаги турларга бўлинади:

**а) шахс ифодаловчи ишора гуруҳи** реализатор томонидан ифодаланган шахсга (ёки шахсларга) ишора қилади; *Худди шунга ўхшаши, катта ёшли кишилар кичиклар олдида бировни сўкса ё оғзига бемаъни сўз олса, ундай одам ёшлар назаридан қолади.* (М.Исм.)

**б) предмет маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи** маълум предметга ишора қилади: *Довуд совут, зирҳли кийим тайёрлаш билан машигул экан, Луқмон ҳаким у вақтгача бундай бир кийимни кўрмаганди.* ("Оз-оз...")

**в) мавҳум предмет маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Кўшим ўзимизнинг маҳалламиздагина эмас, бутун шаҳарда ҳурматли одам. Бундай катта ҳурматга сазовор бўлишига, аввало унинг ўзи, одоби, айниқса, одамишавандалиги сабаб бўлди.* (М.Исм.)

**г) ҳаракат маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Демак, укаларини ўйлаши, онаси пинжига кириши керак. Бундай қилмади, аксинча, текин еди, текин ичди, укаларини урди.* (М.Исм.)

**д) пайт, вақт маъноларини ифодаловчи ишора гуруҳи.** *Ёши элликларга бориб қолган, институтда ўқитувчилик қилаётган бу салабатли одам баъзан ёш болага ўхшаб кетар, арзимаган нарсадан хафа бўлаверарди. Шундай пайтларда менинг унга раҳмим келарди.* (О.Ё.)

**е) тўсиқсизлик маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Қиз Мирзакаримбой остонасини босишни истамайди, холос ... шундай бўлса ҳам, Гулнорни ҳар хил мулоҳазалар, андишалар, гумонлар босади.* (О.)

**ё) шарт маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *"Сулун" дегая сўз бир одамнинг исмими? Агар шундай бўлса, у одам сенга нима яхшилик қилган эди? ("Оз-оз ўргашиб...")*

**ж) хулоса маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Мағлубнинг шуҳрати зса у енгилган заҳоти голибга кўчади, ана шундай қилиб, Насриддиннинг шуҳрати мамлакатга тарқалиб, ҳатто ундан ҳам ҳатлаб кетганди. (З.Аълам)*

**з) инкор маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Мен қизининг бетамизлигидан фижони чиқяпти деб уйлабман. Йўқ, ундай эмас экан. (М.Исм.)*

**и) предикат маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *У Бадиани кўриши билан жонланиб кетарди. Бу сафар ҳам шундай бўлди. (Мирм.)*

**й) ҳолат маъносини ифодаловчи ишора гуруҳи:** *Унинг ҳолини кўриб жуда қайғурдим, Шундай ҳолида унинг кўнглини маломат тирноғи билан тирнашни, кўнгли ярасига туз сепишни ўзимга эп кўрмай, индамай ўтиб кетдим. ("Оз-оз ўрганиб...")*

Реализатор **ҳажм** жиҳатидан қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

**а) алоҳида гап бўлагига тенг реализатор:** *Ахлоқсизлик тугма иллат эмасиғини юқорида айтиб ўтдик. Шунингдек, бундай ёмон хулқ-атворлар табиий офат сингари осмондан ҳам ёғилмаслиғини биламиз. (М. Исм.)*

**б) кенгайтирилган гап бўлагига тенг реализатор:** *Бепарволик билан қадам ташлаб, кишиларнинг оёқларини босиб олиш ёки туртиб юбориш, шундай бежо ҳаракатлар орқали бошиқаларга озор бериш яхши эмас. ("Оз~оз ўрганиб".)*

**в) содда гапга тенг реализатор:** *Кўшимизнинг уйида ҳеч қачон бўрон турмайди. Онда-сонда фақат ел эсармиш. Шундай пайтларда бир томон ўзини босиб, мулойим муомаласи билан бўрон йўлини тўсармиш. (М. Исм.)*

**г) кўшма гапга тенг реализатор:** *Ғужурлашиб юрганни ёки улар учун эгилиб ишлашни ўйласам, ... ўзимнинг жанозам аъло кўринади... Хуллас, шунақаман-да. (З. Аълам)*

**д) микромаатнга тенг реализатор:** *Троллейбусда одам тиқилиб кетди. Игна ташласангиз ерга тушмайди. Бундай ҳолларда йўловчиларнинг бир-бирига уринишлари, туртинишлари, сиқилишлари табиий. (М. Исм.)*

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Ашнин Д. Указательные местоимения и их производные в азербайджанском, турецком и туркменском языках. - М., 1958, АКД. - С.7.
2. Вольф Е.М. Грамматика и семантика местоимений.- М., 1974, - С.6.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М., 1969, - С. 161.
4. Падучева Е.М. Выказывание и его соотносительность с действительностью. -М 1985.- С.158.
5. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. - Ташкент, 1989,- С.9.

## **ОНА ТИЛИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР**

**Б.Қурбонова, ФарДУ доценти.**

**Анотация:** *Мақолада она тили ўқитиш методикасини такомиллаштиришга замонавий ёндашувлар ҳақида сўз юритилади.*

**Калит сўзлар:** *таълим жараёни, метод, педагогик технологиянинг интерфаол усуллар*

Таълим жараёнида қўлланиладиган воситалар таълим самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади. Ахборотларни тезкор суръатда қабул қилиб олиш, уларни таҳлил этиш, қайта ишлаш, назарий жиҳатдан умумлаштириш, хулосалаш ҳамда тингловчига етказиб беришни йўлга қўйиш таълим тизими олдида турган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Таълим-тарбия жараёнига педагогик технологияни тадбиқ этиш юқорида қайд этилган долзарб муаммони ижобий ҳал этишга хизмат қилади. Ўз моҳиятига кўра педагогик технология вақт тақсимотига мувофиқ дастурланиб, илмий жиҳатдан асосланган ҳамда кутилган натижага эришишни таъминловчи педагогик жараённинг барча босқич ва қисмларининг вазифалари аниқ белгиланган тизимни

ифодалайди. Таълим жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланишнинг самарадорлигини баҳолаш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Педагогик технологияларнинг имкониятидан келиб чиққан ҳолда уларни амалиётга татбиқ этишнинг самарадорлигини бир қатор мезонлар билан аниқлаш мумкин. Ўқитиш тизимида педагогик технологияларини самарали қўллаш педагогнинг касбий компетентлигига ҳам боғлиқ. Шу сабабли педагогик технологияларнинг самарадорлигини педагог томонидан уларнинг қўлланилишига кўра ҳам баҳолаш мумкин. Восита муайян ўқитиш методи ёки усуллардан муваффақиятли фойдаланиш учун зарур бўлган ёрдамчи ўқув материалidir. Таълим воситалари асбоб-ускуналар, лаборатория жихозлари, ахборот ва техник воситалар (қурилмалар), кўрсатмалар, рамзий белгилар, дарслик, ўқув қўлланмалари, радио, телевидение ва компьютер ва ҳоказолардан иборат.

“Метод” атамаси юнонча сўздан олинган бўлиб, йўл, ҳақиқатга интилиш, кутилаётган натижага эришиш усули маъносини англатади. Ўқитувчи метод танлашда биринчидан, ўқитиш усули, ўқиш фаолияти усуллари билан чамбарчас боғлиқ бўлишига; иккинчидан, мақсадларга эришишда ўқитувчи ўқувчи ҳамкорлиги ўз аксини топиши шарт эканлигига; учинчидан ўқувчиларнинг ёш, индивидуал психологик хусусиятига; тўтинчидан, мавзуларнинг изчиллиги ва тизимлилигини ҳисобга олганликка эътибор беради. Юқорида кўрсатиб ўтилган талаблар педагогик технологиянинг интерфаол усулларида ўз аксини топган. “Ақлий Хужум”, “Ялпи фикрий Хужум”, “Қарорлар шажараси”, “Зиг-заг”, “6х6х6”, “Қора кути”, “Биламан. Билишни хоҳлайман. Билиб олдим”, “Кластер”, “Шляпа”, каби методларни таълим жараёнида қўллаш ўқувчининг муайян назарий билимларни пухта ўзлаштиришга, вақтнинг тежалишига, ҳар бир ўқувчи фаолликка ундалишига, ўқувчининг эркин ва мустақил фикрлаш лаёқатини шаклланишига, ўқувчида ўзгаларнинг фикрини тинглай олиш кўникмасини ҳосил бўлишига, ўқувчининг ўз фикрини ҳимоя қила олишига, ўқувчида билдирилган фикрларни умумлаштира олиш кўникмасини шаклланишига, ўқувчининг қизиқиши (мативи) ортишига, ўқувчини изланувчанликка ижодкорликка чорлашига олиб келади. Шундай қилиб таълим жараёнига интерфаол усулларни қўллашда ўқитувчи таълим жараёнининг бошқарувчиси вазифасида бўлиб, бунда бошқарув мақсади таълимнинг объекти ва субъекти сифатида ўқувчига йўналтирилади. Демак, педагогик технология таълим мазмуни усул, шакл ва воситалар асосида юзага келади. Ушбу жараён қафолатланган натижага эришишга йўналтирилади. Таълим тизими – ёш авлодга таълим-тарбия бериш йўлида давлат тамойиллари асосида фаолият юритаётган барча турдаги ўқув-тарбия муассасалари мажмуи. Республика узлуксиз таълим тизими– шахсга таълим бериш, унда маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантиришга йўналтирилиб, ўзаро мантиқий изчиллик асосида, оддийдан мураккабга томон ривожланиб борадиган бир-бири билан боғланган босқичларни ифодаловчи таркибий ва ташкилий элементлар мажмуаси ҳисобланади. Бошланғич таълим 6-7 ва 10-11 ёшли болаларда умумий ўрта таълим олиш учун зарур бўлган саводхонлик, билим ва кўникма асосларини шакллантириш мақсадини амалга оширишга йўналтирилган.

Ибн Сино таълим жараёнида қуйидаги қоидаларга амал қилиш лозим деб ҳисоблайди: ўқитишда оддийдан мураккабга қараб бориш; боланинг қобилият ва майлларини эътиборга олиш; болага кучи етадиган машқларни бажартириш; таълимни жисмоний машқлар билан қўшиб олиб борилиши. Болага таълим ва тарбия бериши учун саховатли, доно, иймонли, ахлоқий ва ақлий тарбия усулларини яхши биладиган, иродаси кучли муаллим ва тарбиячини танлаш зарур. Муаллим соғлом, пок, ҳалол, хушмуомала киши бўлмоғи лозим. «Бошланғич таълим концепцияси»да бошланғич синф ўқитувчиси қиёфаси қуйидагича таърифланади: «...энг муҳими болаларда ўқиш, ўрганишга чинаккам хавас, иштиёқ уйғотувчи, эътиқод ҳосил қилувчи устоз сифатида алоҳида ўрин тутади.....Ўзбекистон келажаги буюк давлат эканига ишонадиган миллий ифтихорли бўлиши; болаларни халқ педагогикаси дурдоналари ҳамда миллий кадриятларимиз асосида тарбиялай олиши; нутқи равон, халқ тили бойлиги ифода усули ва тасвир воситаларини адабий тил услуби ва меъёрини тўла эгаллаган бўлиши» зарур. Узоқ йиллар мобайнида қайд

этилган педагогик категориялар жамият ижтимоий талаби даражасидаги мақсадларни рўёбга чиқариш учун етарли бўлиб келган. Муайян даврларда бир гуруҳ педагоглар томонидан барча даврларда амалга оширилган педагог фаолиятнинг даражаси қониқарсиз дея баҳолаганлар. Улар, хусусан, педагогик тушунчаларга берилган таъриф ва тавсифларнинг ноаниқлиги, таълим жараёнларини тавсифловчи баъзи категорияларнинг етишмаслиги, таълим мақсади, мазмуни, шакли, услуби ва ўқитиш воситалари ўртасида ўзаро узвийликнинг мавжуд эмаслиги каби ҳолатларни доимий равишда танқид қилиб келганлар. Улар томонидан «методика» тушунчаси юқори даражадаги субъективликка эга эканлиги таъкидланади. Ҳақиқатда эса таълим натижалари ўқувчининг педагогик жараёнларидан муваффақиятли «ўтганлиги» билан белгиланади. Педагогик жараённинг моҳияти - ўқитувчи ҳамда ўқувчининг биргаликдаги фаолияти мазмунида акс этади, мазкур жараёнда педагог ўқувчига юзага келган қийинчиликларни енгишга ёрдам беради. Педагогик ёрдамнинг асосий моҳияти педагогик жараённинг тавсифи, унинг маълум мақсадга йўналтирилганлиги, шунингдек, шахсни шакллантириш ва тарбиялаш борасида ҳал этиладиган вазифалар билан ифодаланди. Педагог ахборотларни эълон қилиш, кўрсатиш, эслатиш, тушунча ёки маслаҳат бериш, йўналтириш, ҳаққонийлаштириш, кенгашиш, бартараф этиш, ҳамдардлик қилиш, илҳомлантириш, қизиқиш ва ҳурматни изҳор қилиш, талабчанликни кўллаб-қувватлаш каби кўринишларда ёрдам беради. Ўқитиш жараёнига фаолият нуқтаи назаридан ёндашиш концепциясига асосланиб, уни ташкил этиш куйидаги мантикий кетма-кетлигини асослаш мумкин: дастлаб ўқув материали мазмунининг тавсифи, уни ўрганишдан кўзланган мақсад (ўзлаштириш даражалари), шунингдек, педагогик вазифанинг қўйилиш шартлари таҳлил этилади. Сўнгра, ўқитишнинг мос равишдаги методлари ҳамда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини бошқариш тизими ишлаб чиқилади. Шу асосда ўқитиш воситаларининг рўйхати тузилади. Ушбу усул билан ҳосил қилинган метод ва таълим воситаларининг яхлит тизими Замонавий ўқитиш технологиялари - мажмуавий интеграл (бутун, узвий боғлиқ) тизим бўлиб, унда таълим мақсадлари асосида белгиланган кўникма ва малакалар ўқувчилар томонидан назарий билимларни ўзлаштириш, уларда муайян маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялашга йўналтирилган педагогик фаолият элементларининг маълум тартибга солинган тўплами сифатида акс этади.

Хулоса қилиб айтганда, таълимнинг кафолатланганлик натижаси самарадорликни ва мақсадга эришишни белгилайди. Бундан кўринадики, натижа мақсадга қанча яқин бўлса, ўқув-тарбия жараёни шунча самарадор ҳисобланади ва бу таълимнинг замонавий техник воситалари ва илғор технологияларни амалга оширишнинг муҳим жиҳатларидан бўлиб, иккинчи талқин, таълим-тарбия жараёни мақсади, воситаси, натижасини олдиндан ўрганиш, қайд этиш йўллари билан ўқитувчининг кафолотланган натижага эришишини таъминлайди.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуқодиров А., Ишмухамедов Р., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: Истеъдод, 2008.

2.Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.-Т.: “Нихол нашрети, 2013 йил 278 бет.

3. Жумаев М.Э., Юлдашева М.Ю., Мингбаева Б.У., Маматова Г.А. “Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар” методик услубий қўлланма – Т.: 2017 й.



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI MATN TUZISHGA O'RGATISH

Z.A.Djurabayeva, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada "Ona tili" darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish, matn va uning turlari, matn tuzish orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining tafakkurini o'stirish yo'llari ustida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'quvchilar, tafakkur, fikrlash, matn, tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni.

Ta'lim-tarbiya jarayonining bosh vazifasi mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bu jarayonda ona tili ta'limining o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki, narsalarni idrok etish, atash va ulardan nutq jarayonida unumli foydalanish nutq birliklari, aniqrog'i, so'z orqali amalga oshiriladi.

Hammaga ma'lumki, o'quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga o'rgatish boshlang'ich ta'lim bosqichida boshlanadi. Alifbo darslarida o'quvchilarning savodi chiqarilgach, "Ona tili" fanida so'zlar, ularning xususiyatlari, so'zlarni bir-biriga bog'lash, gap va matn tuzishga o'tiladi. Mazkur fan doirasida o'quvchilar so'zlar dunyosiga sayohat qiladilar, so'zlarning bir-birlaridan farqini topishga o'rganadilar, ular o'rtasidagi o'xshashlik, qarama-qarshilik, shakldoshlik munosabatlariga diqqatini qaratadilar. Eng keraklisi, nutq jarayonida qaysi so'zdan foydalanish kerakligini topishga odatlanadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda so'zlarni boshqa so'zlar qurshovida, ya'ni matn ichida ishlata olish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish ularning hodisalarni kuzatish, anglash, analiz va sintez qilish, tanlash, guruhlash kabi qobiliyatlarini takomillashtirish uchun xizmat qiladi [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnda nazarda tutiluvchi quyidagi to'rt narsani o'rgatish kerak.

1. Gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak.
2. Gaplar ketma-ketligi ta'minlangan bo'lishi shart.
3. Matn yaxlit birlikdan iborat bo'ladi.
4. Matnlar og'zaki yoki yozma ko'rinishda qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, matnlarning turlari haqida ham dastlabki tasavvurlarni uyg'otish o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Boisi matn turlari o'quvchilarning tevarak olam, unda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabati, ulardan olgan taassurotlari, xulosalari asosida shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matnidan yaxshi xabardor bo'lgan taqdiridagina o'zaro aloqa-aralashuvlarda faol qatnasha oladilar va o'z fikrlarini boshqalarga erkin yetkazish malakasiga ega bo'ladilar.

Masalan, Rauf Tolibning "Qora dog'" hikoyasida shunday tasvir bor. "Ufq qizarib, tog'lar osha ko'tarilgan quyosh butun borliqni oltin shu'lalariga ko'mib yubordi. Qorli cho'qqilar yaraqlab ketdi. Maysa va gul yaproqlarida shabnam injudek yaltillar, ming xil anvoyi chechaklar quyosh shu'lalarida rango-rang tovlanardi" [2].

Ko'rinib turibdiki, matn kuzatishga asoslangan. Tabitani kuzatganing sari uning sirlari birma-bir ochila beradi. Mana shu hikmatni o'quvchilarga singdirish orqali ularning qalbini go'zallashtirish, tabat go'zalliklaridan bahra olishga chorlash mumkin. Ikkinchi tomondan esa bu kabi matnlarda qo'llagan sifatlashlar, o'xshatishlar, jonlantirishlar va hokazolarga e'tiborni qaratib, o'quvchilarni so'z tanlashga odatlantirish, so'zning qadrini bilishga undash mumkin. Aslida, har bir o'quvchida bolalarga xos kuzatish imkoniyati yashiringan bo'ladi. Kattalar ilg'amagan jihatlarni ular osongina topishi va o'zlari tuzgan matn orqali suhbatdoshlariga

yetkazishi mumkin. Shunga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiat hodisalarini kuzatishga va ular asosida tasviriy matn yozishga da‘vat etish darkor.

Nosir Fozilovning “Insho” asaridan olingan “Juman akam otiga minib keldi. Olapar ham uning ketidan ergashdi. Qo‘zi-uloqlarga bir o‘zim qarab qoldim” [3] ko‘rinishidagi matnlar hikoya matni sanaladi. O‘quvchilarga bu kabi matnlarni o‘rgatish ularning og‘zaki nutqini shakllantirishda qo‘l keladi. O‘quvchilar o‘zlari guvoh bo‘lgan yoki hayotida ko‘rgan-bilgan voqealarni hikoya qilishga hamisha urinib ko‘radilar. Faqat ularning hikoyalarini eshitish, so‘zlarni qo‘llashdagi xatoliklarni ilg‘ash va to‘g‘ri yo‘lga olib turish kerak. Shundagina o‘quvchilarning nutqi barkamol bo‘lib boradi.

“Ona tili” darslarida muhokama ko‘rinishidagi matnlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlar o‘rtaga tashlangan mavzuning dolzarbligi, ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Maslan, O‘ktam Usmonovning “Chumchuq bola” hikoyasida keltirilgan quyidagi gap asosida o‘quvchilarning tabiatga munosabatini muhokama qilish mumkin. “Boboxon chumchuq bolani rosa qiynadi: suvga solib suzdirdi, ikki qo‘li bilan qanotlarini yoyib, hilpiratdi...” [4]

Hikoyada tasvirlangan Boboxonning xatti-harakati to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini o‘rtaga tashlash va o‘quvchilardan fikrlar olish kerak. Qushlarni va hayvonlarni tutish, qiynash, nobul etishning yomon illat ekanligini tushuntirish lozim. Bunday muhokamalar yordamida ham o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati o‘stiriladi, ham ularda ekologik madaniyat shakllantiriladi.

Umuman olganda, o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatish ona tili darslari samaradorligiga jiddiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent: Fan, 2008. – 8-bet.
2. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 2. Toshkent: Qaldirg‘och, 2019. – 95-96-betlar.
3. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 3. Toshkent: Qaldirg‘och, 2019. – 21-bet.
4. Kitobim – oftobim. Sinfdan tashqari o‘qish. 1. Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2019. – 89-bet.

#### **ПРИМЕНЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ**

**Ф.М. Юнусов к.п.н., доц. АГУ,**

**Ф.Халилов магистр АГУ**

***Аннотация:** В данной статье освещаются некоторые особенности и возможности применения творческих заданий на уроках математики.*

***Ключевые слова:** творческое задание, урок, обучение, творческая деятельность, способность, склонности, дифференцированный подход, обратная задача, занимательность, теория, творческое, воображение.*

Как справедливо отметил, наш Президент Ш.Мирзиёев, развивающиеся страны достигли настоящего уровня развития за счет воспитания талантливых людей, на что мы не уделяли достаточного внимания. [1.]

Одним из возможностей воспитания талантливых людей является развитие творческих способностей учащихся начальных классов на уроках математики.

Величие нации зависит от ее образованных граждан. Завтрашние граждане формируются в сегодняшних классных комнатах. Творческие студенты - один из самых ценных активов нации. В развивающейся стране существует большая потребность в творческих учениках. [2. С.8]

Необходимо организовать обучение так, чтобы учащиеся не только овладевали системой научных знаний, получали и отрабатывали учебные умения и навыки, но и развивали свои познавательные способности, накапливали опыт творческой деятельности, развивали творческое воображение.

Актуальны и сейчас слова Л. Н. Толстого, который считал, что если ученик в школе не научился творить, то в жизни он будет только подражать, копировать.

Сообразительность, способность с ходу схватывать основное, сокращать рассуждения, раскрывать связи и отношения между различными математическими понятиями, характеризуют ученика с богатым опытом творческой деятельности. Такие учащиеся проявляют творческую самостоятельность, они выполняют задания не только по готовым образцам, по аналогии, а вносят в этот процесс что-то новое. Пользуются более совершенными методами решения поставленных вопросов, высказывают новые стороны изучаемых явлений и т. д.

Каким же образом возможно обучение творчеству? Как можно развивать творческое воображение на уроках математики? Попробуем ответить на эти вопросы.

Любой человек, обладающий специальными знаниями и навыками выполнения определённой деятельности (в том числе творческой), способен осуществить её. Поскольку нет принципиальных различий между деятельностью вообще и творческой деятельностью, то любой субъект, обладающий достаточной подготовленностью способен осуществить творческую деятельность. Таким образом, несмотря на то, что творческая деятельность есть сложный процесс, включающий в себя цели, интересы и средства их достижений, она не является уделом только избранных, талантов, гениев.

Творческая деятельность и творчество учащихся в учебном процессе – несколько разные вещи, поскольку последних творчеству всё-таки обучают. Поэтому в процессе творческой деятельности учащемуся нужна помощь. Она может быть реализована через творческие задания, через совместную деятельность педагога и учащихся. Творческие задания представляют собой логически взаимосвязанные с друг другом задания, которые предлагаются учащимся в определенной последовательности, от простого к сложному.

Итак, под творческим заданием мы понимаем вид учебной деятельности, в которой учащиеся при непосредственном участии педагога усваивают знания, приобретают умения и навыки, которые используются в создании нового,

Применение творческих заданий способствует формированию убеждённости учащихся в том, что они не только успешно усваивают теоретический курс математики, но и сами создают нечто новое, несущее учебную нагрузку.

1. Определим место творческих заданий на уроках математики:

- организация выполнения творческих заданий должна соответствовать основным целям и задачам обучения;
- творческие задания должны сочетаться с другими видами учебной деятельности учащихся на уроке;
- необходимо учитывать индивидуальные особенности учащихся, уровень их подготовки, их интересы и склонности, а также уровень самостоятельности;
- необходимо учитывать возрастные особенности;
- работа по выполнению творческих заданий на уроке математики может быть различной длительности по времени (от 5 минут до 45 минут);
- отличительной творческих заданий на уроке должен являться уровень новизны;
- творческие задания позволяют самим ученикам дифференцированно подходить к их выполнению;
- на первоначальном этапе применения творческих заданий учитывать желание учащихся, их мотивы;
- оценка выполнения творческих заданий должна желательно носить позитивный характер.

Среди регулярно применяемые заданий можно выделить следующие:

- составление задач по изученным темам с определённой целевой установкой на их содержание - экологическое, нравственное и пр.;
- сочинение сказок, рассказов;

- сочинение стихотворений на изученное правило или закон;
- творческие практические задачи на геометрический материал программы (придумывание фигур, названий фигурам, составление рассказов и сказок по графикам и диаграммам) и др.;
- написание сочинений – высшая форма письменной работы, которая отражает опыт учащихся, их умение наблюдать, видеть, представлять, систематизировать, ясно излагать свои мысли, фантазировать.

Как же, не перегружая учебный план, выполнить эти задания? Основную часть творческих заданий предлагается классу для домашнего выполнения, После чего результаты творческих заданий просматриваются учителем, анализируются школьниками.

Следует отметить, что если в начале нашей работы творческие задания выполнялись около трети учащихся класса, то в дальнейшем это число возрастает почти вдвое, причём активное участие в такой творческой работе принимают и слабоуспевающие ученики. Как видим, резко повышается мотивация творческой познавательной деятельности. На заключительных этапах работы почти все учащиеся класса активно подключаются к творческой деятельности.

2. Рассмотрим виды творческих заданий:

- 1) творческие задания, несущие новую информацию; творческие задания, знакомящие учащихся с новым для них методом решения;
- 2) творческие задания, в которых происходит создание нового;
- 3) творческие задания, которые выполнены разными способами;
- 4) творческие задания на нахождение закономерностей и составление своих закономерностей;
- 5) творческие задания, которые подразумевают организацию практической познавательной деятельности: нарисовать, составить, разрезать, зашифровать, начертить, заполнить таблицу и др.;
- 6) творческие задания занимательного характера, на смекалку;
- 7) творческие задания, содержащие игровой момент;
- 8) творческие задания с элементами тренинга;
- 9) творческие домашние задания.

Проводить весь учебный процесс, на уроке только используя задания творческого характера невозможно, необходимо чередовать творческую деятельность с деятельностью алгоритмической, стереотипной. В связи с этим в творческих заданиях предусмотрены тренинги, которые способствуют многократному повторению заданий одного типа для лучшего закрепления материала и быстрой наработки навыка.

Более подробно остановимся на заданиях, в которых требуется создать нечто новое. В нашем случае это составление задач. Составление задач учащимися имеет большое значение не только для проверки усвоенных ими знаний, но также способствует развитию творческой активности учащихся. Умение учащихся критически подходить к условию задания, анализировать данные в условии задания и отношения между ними является одной из черт творческой активности. Составление задачи требует от ученика актуализации образов прошлого опыта, применения ранее полученных знаний, умений и навыков в иных связях и отношениях.

Вначале учащиеся выполняют на уроках серию задач по определённой теме, причём с нарастанием сложности (8–10 мин.). Также предусмотрены задачи с разнообразным интересным и занимательным содержанием, чтобы стимулировать более разнообразный выбор темы при составлении новой задачи.

3. Составление задач возможно

- по краткой записи
- по формулам и уравнениям
- по указанной зависимости между величинами составляемой задачи

- по задаче аналогичной решенной в классе
- по числовым данным, собираемыми самими учащимися
- составление задачи путем видоизменения данной, решенной в классе
- составление задачи на применение изученной теории в ситуациях, близких к окружающей ученика жизни
- составление задачи на применение изученной теории в ситуациях далеких от окружающей ученика жизни (фантастический, сказочный сюжет)
- по график и диаграмма
- составление задачи, обратной данной
- составление задачи, продолжающей данную задачу
- по заданному вопросу

Составление задач учащимися по различным темам курса математики наиболее продуктивно способствует развитию творческого воображения,

Таким образом, применение творческих заданий способствует формированию нового типа учащегося, обладающего набором умений и навыков самостоятельной творческой работы.

### **ЛИТЕРАТУРА**

1. Обращение Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиева в Олий Мажлис от 24 января 2020 г.
2. A.A.Alashaal. The effects of duration of exposure to the reaps model in developing students' general creativity and creative problem solving in science. Teaching and Learning Forum 2000, Curtin University of Technology. <https://dougiamas.com/archives>.
3. Белошистая А.В. Методика обучения математике в начальной школе. Курс лекций. – М., «Гуманитар. Изд. центр Владос», 2011. - 455 с.
4. С.Бурханов, У.Худаяров, К.Наркулова и др. Математика. Учебник для 3 класса. – Т.: «ШАПК», 2019. – 208 с.

### **ODIL YOQUBOV ASARLARIDA QO'LLANGAN TERMINLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**D.M. Jamoliddinova**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

**Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti, f.f.n.**

Odil Yoqubov o'zining asarlari bilan adabiyotshunoslikda o'z o'rniga ega bo'lgan adiblardandir. Uning "Diyonat" asari o'z vaqtida "voqea" bo'lgan asarlar sirasiga kiradi. Ushbu roman hayotning muhim qirralarini o'zida jamlay olganligi bilan ham qadrlidir. Yozuvchi asarda terminlardan ham juda mohirlik bilan foydalangan. Asardagi terminlarni ko'rib chiqamiz:

1) Otaqo'zi bu shirinsuxan, hushchaqchaq odam bilan ilk bor tanishgandayoq u ham o'ziga o'xshagan "tanti yigit" ekaniga amin bo'lsa ham tog'asining ta'sirida bo'lsa kerak, ko'nglining bir chetida uni yengiltakroq- quruqroq bir olim deb o'ylardi.

Yengiltak- oqibatini o'ylamay ish qiladigan yengiltabiat.

Asarda yengiltak termini olim, professor Vohid Mirobidovga nisbatan qo'llangan. Otaqo'zi Vohid Mirobidovni shunday inson deb o'ylaydi. Vohid Mirobidov odatda ilm-fan to'g'risida kam gapirib, o'yin-kulgu, dilkashlik, maishat to'g'risida o'ylashlari, ziyofat va o'tirishlarda g'azal o'qib, dutorni eshib chalishlari, olimlik salobatini yig'ishtirib qo'yib, raqsga tushib ketaverishlari, ilmiy muammolardan ko'ra har xil tesha tegmagan latifalarga zo'r berishlari ham Otaqo'zining shu qarorga kelishiga sabab bo'lgandi. U ilm bobida ham yengiltakroq olim edi.

2) Qoshlari bir-biriga tutashgan, qisilgan ko'zlari to'rda surat bo'lib qolgan Fazilatga qadalgan, lunjlari ichiga botib ketgan qoramtir yuzida g'azab emas, yo'q, qandaydir cheksiz bir alam muxrlangan. Surat- ko'rinish, timsol, tasvir, tasavvur, shakl, nusxa.

1. Rassom tomonidan chizilgan tasvir, rasm.

2. Bosma tasvir, kitob, jutnal va shu kabilarda bosilgan rasm, illyustratsiya.

Asarda Jabbor va Fazilatning otashin sevgisi hikoya qilingan. Ular bir-birini shunchalik sevishadiki, go‘yo ularni hech kim ajrata olmaydigandek edi. Lekin qayerdandir Jamol Bo‘ribojev paydo bo‘ldi-yu, bu ikki sevishganning boshiga qora kunlar keldi. Jabbor Vatanni himoya qilish uchun frontga ketadi. Fazilat buning orqasidan zor yig‘lab qoladi. Keyinroq Fazilat Jamol Bo‘ribojevga turmushga chiqadi. Vaqt o‘tib Jabbor Frontdan qaytadi. Fazilat Jabborni ko‘rganda huddi surat kabi qotib qoladi. Yozuvchi bu yerda tushuncha va termini tashqi tomondan bir xilligini inobatga olib qo‘llagan. Chunki tasvirlar doim o‘zgarishsiz qotib turadi va bizga shu holatda ko‘rinadi. Fazilat ham huddi surat va uning tasvirlari kabi qimirlamay, kiprik qoqmay Jabborga tikilib turadi.

3) Otaqo‘zi qandaydir boshqacharoq, murakkabroq bir odam, yechilishi qiyin bo‘lgan bir ko‘r tugun edi.

Tugun- arqon, ip, lenta va shu kabi narsalarning bog‘lab ulangan, tugilgan joyi. O‘rab, bog‘chalab bog‘langan narsa, bog‘cha.

Otaqo‘ziga nisbatan ko‘r tugun termini ishlatilgan. Tugunni yehsa bo‘ladi. Lekin ko‘r tugun yechilmaydigan tugundur. Otaqo‘zining xarakteri ham qandaydir boshqacharoq, murakkabroq, yechilishi qiyin bo‘lgan bir ko‘r tugun kabidir.

4) Ayang kuyib ketgan paytlarida aytganidek, "ho‘kizfe‘l odam" qizishib ketib, yana qo‘rslik qilib qo‘ymay deb, bir-birimizning tilimizga yaxshi tushunolmay o‘rtada yana o‘t chiqib ketmasin deb xat yozib qo‘ya qoldim.

Ho‘kiz- ikki yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan erkak qoramol. Olim professor Normurod Shomurodovga " ho‘kizfe‘l odam" termini ishlatilgan. Ho‘kiz tabiatan baquvvat, badjaxl hayvonlar turiga kiradi. Uni jaxlini chiqarsangiz juda qo‘rqinchli tusga kiradi. Hatto suzib mayib qilishdan ham toymaydi. Normurod Shomurodov ham adolatli, prinsipial insondir. U adolat yo‘lida hatto o‘z qarindoshlarini ham tanimaydi. Agar uning qarshisida biror nohaqlik yoki adolatsizlik bo‘lsa, u shunday qarab tura olmaydi. Adolat o‘rnatish yo‘lida hech narsadan toymaydi. Shuning uchun unga nisbatan ho‘kizfe‘l termini ishlatilgan.

5) Kecha hammasini obko‘mga chaqirtirib, yana bir dumlarini burattirdim.

Dum- hayvon tana qismining a‘zosi.

Otaqo‘zi juda katta ishlarni amalga oshirayotgan edi. U sahroda yer ochib yangi qishloq qurish niyatida. Lekin ba‘zi tashkilotlar o‘zlarini paysalga solib ishni orqaga tortmoqdalar. Otaqo‘zi bundan jaxli chiqib majlis chaqiradi. Majlisda katta-katta lavozimda ishlaydiganlar ham qatnashadi. Otaqo‘zi ishni paysalga solayotganlarning hamma ayblarini agtib ularning dumlarini burattiradi ya‘ni qattiq tanbeh beradi.

6) Tog‘ va qir etaklariga tikilgan minglarcha rang-barang chodirlardan, to‘nkarilgan kosasimon o‘tov tuynuklaridan tutun burqsir emish.

Kosa- piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish.

Tog‘li hududlarda istiqomat qiladiganlar va cho‘ponlar o‘tovda yashashadi. O‘tov tashqi ko‘rinishidan to‘ntarilgan kosaga o‘xshaydi. Bu yerda yozuvchi o‘tovni kosaga judayam mohirlik bilan o‘xshatgan.

Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, Odil Yoqubov "Diyonat" romanida terminlardan o‘z idiolekti bilan bog‘liq holda ustalik bilan foydalangan. Bu esa o‘z navbatida asarning badiyatini ta’minlashga xizmat qilgan.

## **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАТЕМАТИКА МАЗМУНИГА ОИД УМУМИЙ КОМЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ТИМСС ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ**

**М.И.Тошпулатова, PhD  
Низомий номидаги ТДПУ**

**Калит сўзлар:** касбий тайёргарлик, такомиллаштириш, халқаро талаблар, кометнция, бутун сонлар, каср, номаълум сон, гометрик шакллар, ўлчашлар, ясси ва фазовий шакллар.

**Аннотация:** Ушбу мақлада hozirgi кунда энг долзарб муаммолардан бири халқаро баҳолаш дастурлари доирасида бўлиб, унда TIMSS дастури доирасидаги ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган фанга оид компетенциялар доирасида тестларни тузиш келтириб ўтилган.

**Ключевые слова:** профессиональная подготовка, усовершенствование, международные требования, комета, целые числа, десятичное число, неизвестное число, гемометрические формы, измерения, плоские и пространственные формы.

**Аннотация:** В этой статье одна из наиболее актуальных проблем современности находится в рамках международных программ оценки, которые включают создание тестов в рамках научных комитетов, которые студенты должны иметь возможность пройти в рамках программы TIMSS.

**Keywords:** vocational training, improvement, international requirements, comet, integers, decimal, unknown number, hemometric forms, measurements, flat and spatial forms.

**Abstract:** In this article, one of the most pressing problems of our time is within the framework of international assessment programs, which include the creation of tests in the framework of scientific committees, which students should be able to pass through the TIMSS program.

Маълумки, ўзгаришлар даврида таълим тизими ижтимоий жараёнлардан келиб чиққан ҳолда шиддат билан ривожланишни тақозо этади. Таълим орқали жамиятда келажакдаги вазифаларни бажаришга қодир бўлган янги авлод шакллантирилади.

Шуни инобатга олган ҳолда умумтаълим мактаблари ва мактабгача таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, ёш авлоднинг ҳар томонлама пухта билим олиши учун зарур шароит ва имкониятлар яратишга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган бундай ислохотлар натижасида улкан иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришилмоқда бу ҳолат малакали кадрлар ва етук мутахассиларга бўлган талабнинг янада ошиб боришига туртки бўлмоқда.

Бундай талабнинг қондирилиши ўз навбатида ёшлар ўртасида китобхонлик ва дарсларга қизиқиш хусусиятини ошириш ва ўқитувчиларнинг ҳар томонлама таълим тарбияга эътиборини кучайтиришнинг замонавий ижтимоий инновациялар орқали амалга ошириш эҳтиёжини вужудга келтирмоқда.

Фуқаролик жамияти шаклланишини мониторинг қилиш мустақил институти мутахассислари айнан мана шундай талабларнинг бугунги кун таълим тизими учун жуда муҳим эканлигини инобатга олган ҳолда аксарият хорижий давлатларда таълим ва фан соҳалари ривожланишини баҳолаш ва мониторинг қилиш орқали таълим сифатини оширишга қаратилган айрим илғор тажрибаларни ўрганиб чиқди.

Хусусан, дунёда бошланғич синф ўқувчиларининг таълим сифати, савияси ва даражасини аниқлаб берувчи PIRLS (Матнни ўқиш ва тушуниш даражасини аниқловчи халқаро тадқиқот), TIMSS (Мактабда математика ва аниқ фанлар сифатини тадқиқ қилувчи халқаро мониторинг) каби бир қатор халқаро дастурлар мавжуд бўлиб, улар ривожланган давлатлардаги таълим сифатини янада оширишдаги мезон сифатида кенг қўлланилиб келинмоқда.

PIRLS - тадқиқотида 50 дан ортиқ давлатлар иштрок этиб келмоқда. Мазкур халқаро тадқиқотнинг мақсади турли хил таълим тизимидан иборат бўлган давлатлардаги бошланғич мактаб ўқувчиларининг матнни ўқиш ва қабул қилиш бўйича тайёргарлиги ҳамда ўқувчиларнинг ҳар хил ютуқларга эришишга сабаб бўлувчи таълим тизимидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш ва баҳолашдан иборат. Албатта бундай тадқиқот халқ таълими соҳасидаги ишчилар, олимлар, методистлар, ўқитувчилар, ота-оналар ва жамоат вакиллари учун катта аҳамиятга эгадир.

TMSS - ҳам жаҳон мамлакатлари таълим тизимида кенг тадбиқ этилмоқда. TMSS дастури Таълим соҳасидаги ютуқларни баҳолаш халқаро ассоциацияси IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) томонидан ташкил этилган бўлиб,

ушбу тадқиқот 4 ва 8 синф ўқувчилари орасида математика ва ижтимоий фанлар бўйича таълимнинг сифати, даражаси, фанга бўлган муносабати, қизиқишини аниқлайди. Ҳар 4 йилда бир маротаба олиб борилади. Ушбу тадқиқот PIRLS тадқиқотига ўхшаб, ўқувчилар, мактаб маъмурияти ва ўқитувчилари орасида қўшимча сўровномалар ўтказилади ва фан соҳасида тўсқинлик қилаётган асосий омилларни аниқлайди. Бу эса ўша мамлакатда ишлаб чиқилган таълим стандартларини ва таълим самарадорлигини бошқа давлатлар билан солиштириб кўриш имконини беради. 2015 йил TIMSS тадқиқотлари натижаларига кўра АҚШ, Сингапур, Гонконг, Корея Республикаси, Япония, Россия, Буюк Британия каби давлатларнинг таълим тизими энг юқори кўрсаткичларни эгаллаган.

TIMSS дастури доирасидаги ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган компетенциялар икки қисмдан иборат бўлиб, фанга оид ва когнитив компетенцияларга бўлинади

Компетенция – касбий тайёргарликнинг янги бир сифати бўлиб, компетентлик инсоннинг билимлари тезкор ва маслашувчан бўлади, мунтазам янгиланиб туради. Компетентлик мазмунли (билимлар) ва касбий (кўникмалар) таркибий қисмлардан ташкил топган бўлиб, энг мақбул ечимни танлай олиш, танловни асослаш, танқидий тафаккурни назарда тутати. [[Карлыбаева Г.Е. Бўлажак физика ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш. Док.дисс. авт.58бет. 16 бет]

Компетентлик – фақатгина билиш категорияси сифатида эмас, балки шахсият категорияси сифатида ҳам қаралади. Шунга кўра: зарурий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш; қандайдир фаолиятни бажариш қобилиятини аниқловчи шахс хусусиятлари; касбий хусусиятлар тўплами ҳамда шахснинг тегишли компетенцияларни эгаллаши каби таркибий қисмларидан иборат бўлиши кераклиги таъкидланади. [Усаров Ж.Э Таянч ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини такомиллаштириш ва ўқувчилар компетентлигини ривожлантириш. Док. дисс.автор. Тошкент 2019, -31 бет., 15 бет. ]

Бошланғич синфларда математика мазмунига оид умумий компетенциялар қуйидагича:

#### **A1**

берилган сонларни ва энг содда касрларни ўқийди, ёзади, таққослай олади, тартибга солиб, турли кўринишларда тасвирлай олади;

содда сонли ифоданинг қийматини оғзаки ва ёзма ҳисоблай олади;

содда амалий, матнли ва мантиқий масалаларни еча олади;

текислик ва фазодаги содда геометрик фигураларни тасаввур қилади, танийди ва тасвирлай олади;

объектларни хоссалари бўйича тартиблайди ва содда комбинациялар туза олади;

содда амалий ҳолатларда тайёр жадвалларга маълумотлар кирита олади, энг содда диаграммалар шаклида тасвирлай олади.

#### **A1+**

арифметик ҳисоб-китоб техникасига ва жуфт-тоқликка оид қизиқарли, ностандарт ва матнли масалаларни еча олади;

бўяшлар, қоплашлар, қирқишлар, симметрияга оид содда геометрик масалаларни еча олади;

содда амалий вазиятларда комбинаторик ва мантиқий масалаларни еча олади;

электрон ахборот манбаларидан турли кўринишдаги содда математик маълумотларни излаб топади, фойдалана олади.

**Коммуникатив компетенция** — ижтимоий вазиятларда она тилида ҳамда бирорта хорижий тилда ўзаро мулоқотга кириша олишни, мулоқотда муомала маданиятига амал қилишни, ижтимоий мослашувчанликни, ҳамкорликда жамоада самарали ишлай олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутати.

**Ахборотлар билан ишлаш компетенцияси** — медиаманбалардан зарур маълумотларни излаб топа олишни, саралашни, қайта ишлашни, сақлашни, улардан самарали фойдалана олишни, уларнинг хавфсизлигини таъминлашни, медиа маданиятга эга бўлиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутати.



**Ўзини ўзи ривожлантириш компетенцияси** — доимий равишда ўз-ўзини жисмоний, маънавий, руҳий, интеллектуал ва креатив ривожлантириш, камолотга интилиш, ҳаёт давомида мустақил ўқиб-ўрганиш, когнитивлик кўникмаларини ва ҳаётий тажрибани мустақил равишда мунтазам ошириб бориш, ўз хатти-ҳаракатини муқобил баҳолаш ва мустақил қарор қабул қила олиш кўникмаларини эгаллашни назарда тутати.

**Ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси** — жамиятда бўлаётган воқеа, ҳодиса ва жараёнларга дахлдорликни ҳис этиш ва уларда фаол иштирок этиш, ўзининг фуқаролик бурч ва ҳуқуқларини билиш, унга риоя қилиш, меҳнат ва фуқаролик муносабатларида муомала ва ҳуқуқий маданиятга эга бўлиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутати.

**Миллий ва умуммаданий компетенция** — ватанга садоқатли, инсонларга меҳр-оқибатли ҳамда умуминсоний ва миллий кадриятларга эътиқодли бўлиш, бадиий ва санъат асарларини тушуниш, ораста кийиниш, маданий қондаларга ва соғлом турмуш тарзига амал қилиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутати.

**Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси** — аниқ ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда шахсий, оилавий, касбий ва иқтисодий режаларни туза олиш, кундалик фаолиятда турли диаграмма, чизма ва моделларни ўқий олиш, инсон меҳнатини енгиллаштирадиган, меҳнат унумдорлигини оширадиган, қулай шарт-шароитга олиб келадиган фан ва техника янгиликларидан фойдалана олиш лаёқатларини шакллантиришни назарда тутати. Мазкур компетенциялар умумтаълим фанлари орқали ўқувчиларда шакллантирилади.

Бошланғич синф ўқувчиларининг билими ва фанга оид компетенцияларини аниқлаш мақсадида математикадан топшириқларни тайёрлаш ва синовларни ўтказишда юқоридаги таксимот доирасида ўтказилса мақсадга мувофиқ бўлади.

#### **Адабиётлар рўйхати**

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлар // Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. – Т.; “Адолат”, 2004, –Б 19-62.
2. 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» ПФ-5847-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон [Фармони](#).

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OMONIMIYANI O‘QITISHNING AHAMIYATI**

**D.T.Aytbayev - Nizomiy nomidagi TDPU**

**“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasi dotsenti, f.f.n.,**

**B.G‘anibayeva - 1-kurs magistranti**

*Аннотация. Ushbu maqolada ta‘lim qozoq va o‘zbek tilida yuritiladigan maktablarning boshlang‘ich sinf “ona tili” darslaridagi omonimiya (shakldosh) mavzusining qiyosiy tahlili yoritilgan.*

Hayotimizdagi barcha holatimiz bizning boshlang‘ich faoliyatimizga bog‘liq. Har qaysi jarayonning boshlanishi mukammal bo‘lsa shu ishning cho‘qqisiga yetish imkoniyatimiz juda yuqori bo‘ladi. Shu sababdan ham boshlang‘ich ta‘limda bilim, tarbiya berish va uni rivojlantirish juda muhimdir. Boshlang‘ich talim sohasini yanada rivojlantirish va takomallashtirish uchun Hukumat qarori (132-son, 09.03.2020-y) qabul qilindi. Unga binoan 2019-2020- o‘quv yilidan boshlab Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlari va Toshkent shahrida bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bepul 1 yillik tayyorlash tizimi to‘liq joriy etildi. Bu, albatta, boshlang‘ich o‘quvchilarning bilim saviyasiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilimni oshirish orqali ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish mumkin. O‘zbekistonda ta‘lim 7 tilda olib boriladi. Bilimni oshirish va yosh avlodni barkamol shaxs bo‘lib rivojlanishi uchun bizning mamlakatimizda yetarlicha sharoyitlar yaratilgan. Har bir

tilda o'quv dasturlari yaratilgan va barchasining asosiy maqsadi fanni mukammal o'rgatishga yo'naltirilgan. Barcha fanlarni, shu bilan bir qatorda ona tilini o'qitishning ahamiyati beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda ona tili bo'limlarining barcha asosiy qismlari tushintirib o'tiladi. Birinchi sinfda fonetika bo'limi ya'ni tovushlar va uning belgilanishi (harflar), unli va undosh harflar tasnifi bilan to'liq tanishtiriladi. Ikkinchi sinfda leksikologiyaning asosiy edinitsasi – so'z, bo'g'in va gapni ham qisman o'rganadilar. Uchinchi sinfda esa birinchi va ikkinchi sinfda o'tilgan so'z, bo'g'in, gap haqidagi bilimlari chuqurlashtirib boriladi. Shu bilan bir qatorda “Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar”, “Shaxs va narsa harakatini bildirgan so'zlar” va shu singari mavzular ya'ni so'z turkumlari bilan qisman tanishadilar. To'rtinchi sinfda so'z turkumlari chuqurlashtirib o'tiladi. So'z turkumlarini o'rganish orqali o'quvchilar morfologiya bo'limiga kirish qiladilar. Morfologiya ham leksikologiya ham so'zlarni o'rganuvchi bo'limdir. So'zlar bizning hayotimizda ham oddiy, ham ilmiy, ham badiiy jihatdan muhim o'rinni egallashi shubhasiz. Shu bilan birga so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini (omonim, sinonim, antonym, paronimlar) o'rgatish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini o'shishga hamda leksikologiya bo'limini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Omonim – talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo turli atash ma'nolarini bildiradigan so'zlardir. Omonimni o'rgatish orqali, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrni aniq va ustamonlik bilan yetkaza olish qobiliyati shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda she'riyatga, adabiyotga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi, so'z boyligi oshadi, fikrlash qobiliyati kengayadi, so'zlarning barcha ma'no tomonlarini o'ylab, tafakkurida shakllantiradi. Tajnis san'atining qiziqarli qirallaridan qisman bo'lsa ham xabardor bo'lishadi. Omonimlarni qo'llash, so'zlarni shakldosh qilishdan iborat badiiy san'at turi tajnis deb ataladi. Tajnis esa tuyuq janrida keng qo'llaniladi. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan sinflarda afsuski omonim so'zlar deyarli uchramaydi. Faqatgina 4-sinfning “Ona tili” darsligida “Ot – so'z turkumi” mavzusining ichida mashq tariqasida kiritilganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: 263-mashq. Birikmalarni o'qing.

ko'm-ko'k o't, ariqdan o't.

minishli ot, koptokni ot.

Bir xil shakldagi so'zlarni ma'nosini ayting. Nimasi bilan farq qiladi?

Lekin ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda 2-sinf “Ona tili” darsligida shu mavzular uchun alohida dars soatlari ajratilgan. Darslikga bu mavzular shakldosh sozlar, ma'nodosh so'zlar va zid ma'noli so'zlar deb kiritilgan. Shakldosh so'zlarni ya'ni omonimni tushuntirish uchun quyidagicha ta'rif bergan.

Tilimizda bir xil talaffuz qilinadigan, ma'nolari har xil so'zlar bo'ladi. U ma'nolarining bir-biriga bog'liqligi yo'q: jua (piyoz), jua ( idish yuvish).

Mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun yettita mashq berilgan. Mashqlar asosan she'riy shaklda berilgan va bitta 256-mashq topishmoq, 258- mashq rasm asosidagi qiziqarli topshiriq shaklda ko'rsatilgan.

Bu barcha mashqlar o'quvchilarga so'zning asl mohiyati nimadan iborat ekanligi, turli xil shakllari va ma'nolarini o'rgatishga xizmat qiladi. Qozoq xalqining boy tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular ko'chmanchi xalq bo'lib yashaganlar. Shu sababdan ham ularning og'zaki ijodi rivojlangan. So'zga ustamonlikni rivojlantirish uchun ular do'mbira bilan “aytishuv” aytganlar. Bu yerda asosan ta'lim-ta'rbiyaga taalluqli masalalar ko'tarilgan. “Aytishuv” musiqa janri hisoblanishi bilan birga, bu yerda ikki raqib qisqa vaqt ichida ham mazmunan ham shaklan uyg'unlashgan qo'shiqni do'mbira jo'rligida aytishi kerak. Bu albatta ishtirokchilardan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini ham bilishlarini talab qilgan. Fikrni go'zal va benuqson aytish asosiy qoidalardan biri hisoblangan.

Demak, o'quvchilarning “ona tili”ga bo'lgan qiziqishini oshirish, hamda o'z fikrlarini aniq ifodalash, kerakli jummalarni tuza olishlari uchun ham “so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari” mavzusi boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'tilishi kerak. Shu orqali o'quvchilarning o'ylash qobiliyati rivojlanadi, fikr doirasi kengayadi, hamda ona tilining leksikologiya bo'limi bilan tanishitirib o'tiladi. Bu esa o'quvchilarning yuqori sinflarga o'tganda yangi mavzuni osonlik bilan egallashlariga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R.Ikromova, X.G‘ulomova va b. 4-sinf “Ona tili” Toshkent. 2007.
2. I.Kenesbayev, G‘. Musabayev. Hozirgi qozoq adabiy tili. Almati. 2006.
3. M.Omaruli. 2-sinf “Ona tili” Toshkent. “O‘ZBEKISTON”. 2016.
4. <http://uzedu.uz/>

### **КЕЛИШИКЛИ ВА КЎМАКЧИЛИ КОНСТРУКЦИЯЛАР СИНОНИМИЯСИ**

**Т. Ғаниев ф.ф.н., АДУ**

Келишиклар нутқда сўзларни ўзаро боғлаб сўз бирикмалари ҳосил қилади ва гап қурилишида асосий грамматик восита бўлиб хизмат қилади. Шунинг учун келишик кўшимчаларига сўзларни ўзаро синтактик муносабатга киритувчи, сўзларнинг нутқдаги бошқа сўзларга муносабатини, алоқасини ифодалайдиган синтактик шакл ясовчилар деб таъриф берилди.

Келишиклар ифода қиладиган муносабатларнинг умумлашган маънолари сўзлар парадигмасида эмас, сўз бирикмасида шаклланади, яъни бундай маънолар синтагматик характерда бўлади.

Келишик аффикслари сўз негизига сон категорияси, эгалик категорияси шаклидан кейин қўшилади. Сўз негизига келишик аффиксларининг қўшилиб ўзгариши турланиш бўлиб, аффикслар эса турловчи деб аталади.

Келишиклар отларга хос категория ҳисобланади. Лекин олмошлар от ўрнида ўрнида қўлланилиши сабабли унинг барча турлари келишик кўшимчаларини қабул қилиш хусусиятига эга. Шунингдек, феълнинг ҳаракат номи шакли, сон, отлашган сифат ва сифатдошлар ҳам келишик кўшимчалари билан турланади.

Қаратқич келишиги, асосан от билан отни (шунингдек, отлашган сўзни) мослашув йўли билан грамматик алоқага киритса, тушум ва ўрин келишиклари от билан феълни, отлашган сўз билан феълни бошқарув йўли билан боғлаш учун хизмат қилади.

Нутқда сўзларнинг синтактик муносабатини шакллантиришда келишик билан бирга кўмакчилар ҳам иштирок этади. Айрим ўринларда келишиклар ўрнига кўмакчилар қўлланса, айрим ўринларда келишик кўшимчалари билан кўмакчилар бирга ишлатилади. Гапда восита, мақсад, сабаб каби синтактик муносабатларни ифодалаш учун келишик ўрнида кўмакчилар қўлланади.

Келишикларнинг маънолари ва функциялари кўмакчиларнинг маънолари ва функциялари билан бир хил бўлиши мумкин. Бу ҳам асосан, ўрин келишиклари ва айрим кўмакчилар муносабатида юзага келади. Бу нутқда келишикли ва кўмакчили конструкциялар синонимиясини вужудга келтиради.

онамга олдим – онам учун олдим

сўқмоқдан юрдим – сўқмоқ орқали юрдим

телефонда гаплашдим – телефон орқали гаплашдим

адирга бурилдим – адир томон бурилдим

Бу ҳол ўрин келишиклари – жўналиш келишиги, ўрин-пайт келишиги ва чиқиш келишиклари ўрнида оғзаки ва ёзма нутқда учун, орқали, томон, сари, сайин каби кўмакчиларнинг қўлланиши натижасида содир бўлади. Жўналиш келишиги маъносини унинг морфологик кўрсаткичи –га (-ка,-қа) функциясини бажарувчи учун кўмакчиси билдиради. Бундай шаклланган синонимик конструкция куйидаги ҳолларда амалга ошади. Кўмакчи ёки жўналиш келишиги аффикси билан келган от аниқ ёки мавҳум от бўлишидан қатъий назар, нимага?, нима учун?, нима билан? Сўроқларига жавоб бўлиб гапда тўлдирувчи вазифасида қатнашади.

Расмларнинг айримлари қалам билан чизилган эди.

Расмларнинг айримлари қаламда чизилган эди (С. Анорбоев).

Бу совғаларни укам учун олдим (С. Анорбоев) – Бу совғаларни укамга олдим. Инсон гўзаллик учун интилади (Ж. Абдуллахонов). – инсон гўзалликка интилади.

Баъзи кўмакчили конструкциялар таркибида кўмакчи билан бирга жўналиш келишиги аффикси ҳам иштирок этиши мумкин: Сайёра йигитларни фонтан томон бошлаб кетди (Ў. Умарбеков). Йигит истар-истамас чодир томон кета бошлади (С.А.). Машина чодир томон бурилиб кетди. Бу гаплардаги келишикли ва кўмакчили конструкциялар ўрин холи вазифасида иштирок этади.

Айрим ўринларда кўмакчили конструкция келишикли конструкция билан ёки бошқа бир кўмакчили конструкция билан маънодош бўлиши, яъни синонимия ҳосил қилиши мумкин:

телефонда гаплашмоқ – телефон орқали гаплашмоқ – телефон билан гаплашмоқ;  
тўқайдан ўтилади – тўқай орқали ўтилади – тўқай билан ўтилади.

Кун сайин, йил сайин каби кўмакчили конструкциялар эса чиқиш ва жўналиш келишигида турланган битта отнинг жуфтлашишидан ҳосил бўлган жуфт сўзнинг маъноси билан синонимия ҳосил қилади:

Кун сайин – кундан – кунга

Йил сайин – йилдан – йилга

Гарчи келишикли ва кўмакчили конструкциялар ўзаро синонимия ҳосил қилса-да, синоним сўзлар сингари маъно оттенкаларида фарқ сезилиб туради: Машина адир томон бурилиб кетди – Машина адирга бурилиб кетди. Биринчи гапда машина адир атрофидаги бирор жойга бурилганини, иккинчи гапда машина адирга бурилганини тушуниш мумкин.

Кўмакчили конструкциялар баъзида аниқловчи аниқланмиш муносабатли сўз бирикмалари билан ҳам маънодош бўлади.

она каби меҳрибон (мактаб) – онадай меҳрибон (мактаб)

ота каби улуғ инсон – отадек улуғ инсон.

## **БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТАЪЛИМИЙ МАШҚ БАЖАРИШ ЖАРАЁНИДА БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ БАЪЗИ ЙЎЛЛАРИ**

**Т. Ғаниев ф.ф.н., АДУ**

Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш масаласи бўйича кўплаб тадқиқотлар қилинди, илмий-методик мақолалар ва қўлланмалар яратилди. Бу тадқиқот ва методик изланишларда тил материалларини таққослаш йўли билан ўрганиш, дарсда дидактик ўйинларни қўллаш, кўрсатмалилик ва техника воситаларидан фойдаланиш, муаммоли таълим каби билиш фаоллигини оширишнинг турли йўллари ҳақида фикр юритилган. Дарс жараёнида таълимий машқ бажариш давомида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш масаласи илмий изланишларда ҳали тўла ёритилмаган.

Дарсликдаги таълимий машқлар мавзу ва бўлимлар юзасидан ўқувчи олган билимларни мустаҳкамлаш ва амалий кўникма ҳосил қилиш, оғзаки ва ёзма нутқни ўстириш, мантиқий ва ижодий фикрлашни ривожлантириш тил материалларини мустақил таҳлил қилишга ўргатиш, мавзулараро ва предметлараро боғланишни ташкил қилиш ҳамда лингвистик материалларни кузатиш, таққослаш, умумлаштириш ва тизимлаштириш каби логик-лингвистик операцияларни бажариш ва онгли ўзлаштиришни таъминлашнинг энг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Таълимий машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш юқорида санаб ўтилган операцияларнинг шу жараёнда муваффақиятли амалга оширилишидир.

Таълимий машқ бажариш жараёнида билиш фаоллигини ошириш, аввало, ўқувчиларнинг машқ бажаришга бўлган қизиқиши ва интилишига боғлиқ. Ўқувчи машқни қанчалик қизиқиб ва ҳаракатчанлик билан бажарса, дарслик машқларининг самараси шунчалик юқори бўлади. “Машқ тил ўқитиш жараёнининг таркибий қисми саналади. Улар систематик равишда бажарилганда, исталган эффектни беради”, - деб уқтиради. О.Розиқов. Демак, машқлардан системали ва самарали фойдаланиб, ўқувчининг билиш фаоллигини ошириш учун ўқитувчи дарслик машқларини уларнинг содда-мураккаблигига кўра таҳлил

қилиши, ҳар бир машқдан дарснинг қайси этапида қандай мақсадда фойдаланиш ва қайси йўл билан бажариш қулайлигини олдиндан белгилаб олиши зарур.

Таълимий машқларни турли йўллар билан бажариш орқали ўқувчиларнинг кизиқиши ва билиш фаоллиги оширилади:

1. Таълимий машқни мустақил ишлаш
2. Таълимий машқни кўрсатмалилик асосида бажариш
3. Таълимий машқни техника воситалари ёрдамида бажариш
4. Таълимий машқлар асосида турли дидактик ўйинлар ташкил қилиш.

Таълимий машқларни мустақил ишлаш нима?

Умумий таълим предметларидан бири саналган она тили ўқувчиларда мустақилликни ривожлантириш учун жуда бой имкониятларга эга. Она тили дарсларида дарслик машқлари асосида ўтказиладиган мустақил ишлар ўқувчиларнинг тил ходисаларини кузатиш, анализ ва синтез қилиш, индуктив ва дедуктив хулосалар чиқариш каби малакаларни ўстиради.

Мустақил ишлар ўқувчилар томонидан маълум муддат ичида ўқитувчиларнинг бевосита ёрдамисиз, аммо унинг кўрсатмалари ва раҳбарлигида бажариладиган, ўқувчининг онгли равишда актив фаолият кўрсатишини таъминлайдиган жараёнлардир. Мустақил ишлаш эса шу жараёнларни маълум муддат ичида амалга оширадиган фаолиятдир.

Ўқувчиларда мустақил ишлаш қобилияти бошланғич синфларда бошлаб тарбияланади. Мустақил ишларнинг илк даврида содда топшириқлар берилиб, улар ўқувчи ёшига ва ҳаракатига қараб мураккаблаштириб борилади. 3-ва 4-синфда қуйи синфларга нисбатан ўқувчининг мустақиллик даражаси анча юқори бўлади. Агар 1-2-синфда ўқувчилар кўпроқ кўрган ёки кузатган нарсалари ҳақида фикр юритсалар, 3-4-синфда ўзлари шахсан кузатмаган, кўрмаган, аммо бошқалардан эшитган воқеа-ходисаларни кўшиб, уни баён қилишга ўрганадилар. Ўқувчилар бу ёшда фақат расмда акс эттирилган воқеалар ҳақида фикр юритиш билан чегараланмай, акс эттирилмаган, аммо мавзуга бевосита алоқадор бўлган фикрларни ҳам баён этишга ҳаракат қиладилар.

4-синф ўқувчиларида мустақилликка интилиш кучаяди, унда сабот, дадиллик билан ўзига ишонч каби шахснинг таркиб топишига хос илк хислатлар пайдо бўлади. Агар кичик ёшдаги ўқувчиларда ижодий фикр кўпроқ конкрет воқеа-ходисалар натижасида ҳосил бўлса, ўсмирлик даврига ўтган сари бу фикр масштаб жиҳатидан кенгаяди, бола идрок қилган нарсасини тушуниб, англаб олишга интилади, у нарса ва ходисаларни таҳлил қилади, ўзаро таққослайди. Уларнинг муҳим ўхшаш ва фарқ қиладиган белгиларини излайди ва хулосалар чиқаради. Юқори синф ўқувчиларида мустақиллик актив ижодий фаолиятга ўта бошлайди. Улар берилган мустақил топшириқлар, юзасидан таққослаш, фикрлаш ва хулосалаш билан бирга маълум мавзулар асосида иншо, ҳикоя, хатто шеър ёзиш қобилиятига эга бўладилар.

Таълимий машқ бажаришда мустақил ишлашнинг муҳим белгиларидан бири машқни берилган маълум муддат ичида мустақил бажариб улгуришдир. Мустақил ишлашга бериладиган муҳлат машқнинг содда-мураккаблиги, мавзу ва бўлимлараро боғланиши ҳамда ҳажмига қараб ўқитувчи томонидан белгиланади.

Мустақил ишлашнинг яна бир муҳим белгиси фикрни бир жойга тўплаш ва ижодийлик элементидир. Айнан кўчириб ёзишга доир, ифодали ўқишга доир, шунингдек, ўқувчидан фикрлаш ва мулоҳаза қилишни талаб қилмайдиган машқларни мустақил бажариш мақсадга мувофиқ бўлмайди, чунки улар алоҳида ақлий фаолият талаб қилмай, балки уларга диққат ва тартибнинг ўзи етади.

Бу тўғрида В.А.Кустарева шундай дейди. “Ўқувчиларга мустақил ишлаш учун мулоҳаза юритиш керак бўлган машқлар берилиши зарур”. Масалан, бирор мавзу асосида ҳикоя, расмга қараб баён ёзиш, нукталар ўрнига орфограммалар қўйиш, сайлаб ёзиш, оғзаки ёки ёзма таҳлил қилиш ва ҳоказо.

Шунинг учун ўқувчиларга бажарилиш мазмунига кўра сайлаб ёзишга доир, нуқталар ўрнига орфограммалар қўйиб бажаришга доир, нуқталар ўрнига мос сўз ёки гап қўйиб бажаришга доир, берилганлар асосида сўз яшаш ёки гап тузишга доир ҳамда альтернатив, эвристик ва ижодий характердаги машқларни мустақил ишлашга бериш мумкин. Чунки бу типдаги машқлар ўқувчини ўйлашга, фикрлашга мажбур қилади ва қизиқишини оширади.

Ўқувчиларнинг билим даражаси ва индивидуал психик хусусиятлари бир-биридан фарқ қилади. Шунинг учун машқларни мустақил бажариш давомида уларнинг ана шу хусусиятларини ҳисобга олиш ва дифференциаллаш усулидан фойдаланиш машқлар самарадорлигини оширади, тил материалларини пухта ва онгли ўзлаштиришни таъминлайди.

Таълимий машқларни мустақил ишлашнинг характерли усулларида бири вариантлар асосида бажаришдир. Бунда ўқувчилар гуруҳларга ажратилади. Бажариладиган машқ гуруҳлар сонига қараб вариантларга бўлинади. Машқ бажарилгандан сўнг, гуруҳлар бир-бирининг бажарган ишини текшириб чиқадилар. Шу усулда сайлаб ёзишга доир, нуқталар ўрнига орфограммалар қўйиб ёзишга доир, нуқталар ўрнига мос сўз ёки гаплар қўйиб ёзишга доир, альтернатив, эвристик ва ижодий характердаги машқларни ҳам бажариш яхши натижалар беради.

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING TEKNOLOGIK XARITASI**

**H.Zakirova – ADU, dotsent**

**S.Nazarova – ADU, magistr**

*Annotatsiya: maqolada boshlang‘ch sinflarda ona tili darslarining texnologik xaritasini tuzish haqida fikr bildirilgan. Texnologik xarita maktab mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan. Unda dars mashg‘uloti uch bosqichga bo‘linib rejalashtirilgan.*

*Kalit so‘zlar: texnologik xarita, rejalashtirish, loyihalash, dars jarayoni.*

Texnologik xaritaning tuzilishi o‘qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining barcha qirralari o‘z aksini topgan. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchiga ijodiy ishlash uchun imkon beradi.

Ona tili fani bo‘yicha dars modulini rejalashtirish uchun texnologik xaritani tuzib olishimiz zarur. Texnologik xaritani tuzish har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilishga, tasavvur etishga imkon beradi, ya‘ni bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtiriladi.

Texnologik xaritani tuzish uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘qitayotgan fanining har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzgan texnologik xaritasi, uni fanga yaxlit holda yondashishga, tushunishga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko‘ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xarita o‘quvchilarni shaxs sifatida ta‘limning markaziga olib chiqishga va bu bilan o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinishda tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi kerak. Texnologik xarita dars bosqichlarga bo‘lib olinadi.

Bizga ma‘lumki, maktablarda bir soat mashg‘ulot 45 daqiqani tashkil etadi. Shuni hisobga olib, texnologik xaritani shunga moslashtirishimiz kerak. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olishimiz zarur. Dars mashg‘ulotlari uchun darsni 4 bosqichga bo‘lib olish maqsadga muvofiqdir.

Tayyorgarlik bosqichida dars mavzusi e‘lon qilinadi

1-bosqich da‘vat bosqichi bo‘lib, o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilimlar aniqlanadi;

2-bosqich anglash bosqichi bolib, unda asosiy tushunchalar, dars shakli, metod va usullar ifodalanadi;

3- bosqich fikrlash bosqichi bo'lib, unda til kompetentligi shakllanadi.

Texnologik xarita dars mashg'ulotini modullashtirishga, loyihalashga, umumlashtirishga, umumlashtirishga xizmat qiladi, ushbu mashg'ulotdan kutilayotgan, kafolatlangan natijalarini ko'rsatadigan dars ishlanmasining rejasini ko'rsatsdi.

“Son yuzasidan takrorlash” mavzusining ta'lim texnologiyasi va texnologik xaritasini quyidagicha rejalashtirish mumkin:

**“Son yuzasidan takrorlash” mavzusidagi mashg'ulotning  
texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	1.1. Dars mavzusini (Son yuzasidan taktotlash) e'lon qilish.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar.
<b>1-bosqich. (Da'vat bosqichi) (5 daqiqa)</b>	<b>Metod.</b> Aqiliy hujum, suhbat. O'quvchilarning son yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash.	1.1. Muhokama uchun savol-topshiriqlarga o'quvchilar javob beradilar.
<b>2-bosqich. (Anglash boshqichi) (30 daqiqa)</b>	2.1. Mashqlarni ishlash 2.2. Kontseptual jadvalni to'g'rilab yozish. 2.3. Muhokama uchun savollar.	2.1. Darslikdagi mashqlarni bajaradilar. 2.2. Kontseptual jadvallarni to'g'rilab yozadilar. 2.3. Muhokama uchun berilgan savollarga javob beradilar.
<b>3-bosqich. (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)</b>	3.1. Mavzu bo'yicha javoblar umumlashtiriladi. TEST ishlanadi yoki diktant yoziladi. Uyga vazifa topshiriladi	Til kompetentligi shakllanadi

Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kundagi zamonaviy boshlang'ich ta'limda ham shaxs rivojlanishining boshlang'ich masalalari e'tiborga olingan holda tadqiq etiladi. Har jihatdan, barkamol inson sifatida rivojlanganlikning asosiy mezonlaridan biri – bu boshlang'ich sinfdan boshlab mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir.

Adabiyotlar

1. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар / Маърузалар матни. Туз.: А.Х.Қосимов, Ф.А.Ҳоликова. – Тошкент: ТАТУ, 2004. – Б.23.
2. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Йўлдошев Ж., Йўлдошева Ф., Йўлдошева Г. Интерфаол таълим – сифат кафолати - 2008 й. Тошкент 12-бет.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH**

**G.G.Ismanova, katta o'qituvchi, ADU**

**S.Sh.Ilhombekova, talaba, ADU**

*Annotasiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish va noodatiy usullar bilan ishlash yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** mantiq, tafakkur, qoidalar, mashqlar, masala, faoliyat.

Boshlang'ich sinf o'quchilarining mantiq tafakkurini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim qismidir. Ta'lim maskanlarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning qobiliyatini to'liq rivojlantirish, tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam berishdir.[1,15]

Zotan, boshlang'ich sinflarda bolalar mantiqiy amallar: taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish elementlarini o'zlashtirishlari lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bolalarni bir-biriga mantiqan bog'liq bo'lgan xulosa chiqarishi, dalil bayonotlar keltirishi kabi faoliyatlarga yo'naltirish. Mantiqiy mashqlar bolalarga hayot tajribasiga asoslangan holda mavjud bo'lgan matematik materialdan foydalanish, mantiq qonunlari va qoidalarini oldindan nazariy ishlab chiqmasdan to'g'ri xulosalar chiqarish imkonini beradi. Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, o'quv jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bu:

- O'quvchilarga o'tilayotgan fanlarning umumiy xususiyatlarini solishtirish va farqlashni o'rgatish.
- Fanlarning muhim xossalari aniqlash va ularning nomutanosibliklarini farqlash qobiliyatlarini shakllantirish.
- O'quvchilarni har bir tarkibiy qismni va ajratilgan fanlarni tahlil qilishga o'rgatish.
- O'quvchilarning o'z fikrlarini to'g'ri ekanligini isbotlash va yolg'on xulosalarni rad etish ko'nikmasini rivojlantirish.
- O'quvchilarning fikrlarini aniq, izchil va oqilona bayon etilganligiga ishonch hosil qilish.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri-bu davrda yosh o'quvchi uchun asosiy bo'lgan ko'rgazmali tafakkurdan og'zaki-mantiqiy, konseptual tafakkurga o'tishga ko'maklashishdir.

Aqliy tafakkurni shakllantirish tamoyili matematika darslarida quyidagicha amalga oshiriladi:

- O'zaro birgalikda va bir vaqtda o'rganiladigan tushunchalar va operatsiyalarni o'rganish.
- Teskari masala usulidan keng foydalanish.
- Deformatsiyalangan mashqlarni qo'llash.
- Bir masalani har xil yo'llar bilan o'quvchiga yetkazib berish.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun asosan nostandart mantiqiy masalalar bilan ishlash lozim. Zero, har qanday masala mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Nostandart mantiqiy masalalar bunday rivojlanish uchun ajoyib vosita.

Yaxshi natijalarga erishish uchun masala ustida ishlashning turli shakllaridan foydalanish mumkin .Masalan:

1. Yechilgan masala ustida ishlash . Ko'pchilik o'quvchilar faqat takroriy tahlildan so'ng masalani yechishni tushunib oladilar. Albatta, tahlilni takrorlash uchun vaqt talab etiladi,lekin bu usul o'zini oqlaydi.

2. Masalalarni turli usullar bilan yechish. Bu usulga, asosan, vaqt yetishmasligi sababli kam e'tibor beriladi. Ammo, bu usul juda yuqori matematik rivojlanishni ko'rsatadi. Bundan tashqari, boshqa yechimlarni topish odati kelajakda ham katta ahamiyatga ega.

Matematika darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriqlardan foydalanish yosh o'quvchilarning matematik dunyoqarashini kengaytiradi va atrofdagi voqelikning eng oddiy qonunlarini yanada ishonch bilan farq qilish va kundalik hayotda matematik bilimlardan foydalanish imkonini beradi. Nostandart masalalardan foydalanish yosh o'quvchilarning matematika tafakkurini kengaytiradi, matematik rivojlanishni ta'minlaydi va matematik tayyorgarlik sifatini oshiradi. Qiziqarli masalalarni ishlash quyidagi maqsadlarga ko'ra bajariladi:

- Bolalar tafakkurini rivojlantirish, analiz va sintez, taqqoslashlar, o'xshatishlar va umumlashtirishlar.



- Umumiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish va tarbiyalash.
- Mavzuga, oquv faoliyatiga qiziqishni oshirish. Ko'ngil ochar vazifalarning o'ziga xosligi o'quv faoliyatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.
- Bilim darajasini oshirish, qat'iyatlilik, maqsadga erishish, mustaqillik kabi ijodiy shaxs sifatlarini rivojlantirish. Masalan:

1-sinflar uchun: Sarvinozda 3 tadan ko'p, lekin 5 tadan kam yong'oq bor. Sarvinozda nechta yong'oq bor? Javob: 4 ta yong'oq bor.

2-sinflar uchun: Arqonning uchlari erkin qolgan holda 4 ta tugun bog'landi. Arqon nechta qismga bo'lindi? Javob: Arqon 5 qismga bo'lindi.

3-sinflar uchun: Sardor 50 ta urug' ekdi. Har o'ntalikdan 2 tadan urug' o'sib chiqmadi. Nechta urug' o'sib chiqmadi. Javob: 10 ta urug' o'sib chiqmadi.

4-sinflar uchun: 5 sonining o'ng va chap tomoniga yana 5 soni yozildi. Berilgan son nechta martaga ko'paydi? Javob: 111 martaga oshdi.

Amaliy mashqlarni echishning turli xil usullaridan foydalanish, o'quvchilarni faollashtiradi, ularning diqqatini oshiradi, o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi, hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishni ta'minlaydi. [2,36] Boshlang'ich sinflarda bolalarni aqliy faoliyat metodlarini o'zlashtirish va umumlashgan harakatlar, matematik tushunchalar, atamalar, ya'ni nazariy bilimlar dunyosi bilan asta-sekin tanishtirish imkonini beradi va shu bilan birgalikda ham amaliy, ham nazariy tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish tushunchalari yanada ko'proq o'rganish va qonunlarini turli talqinlarda tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2008-2011 yy.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent. 2009 y.

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASH**

**N.Jo'rayeva - ADU, BTM kafedrası**

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar lug'atini boyitishda ma'nodosh so'zlar ustida ishlash usullari ifodalangan.

Kalit so'zlar: ma'nodosh so'zlar, lug'at, so'z boyligi, ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'no.

Ma'nodosh so'zlar (sinonim so'zlar) shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim, ya'ni ma'nodosh so'zlar bir xil predmetlarni (ovqat, osh, taom), predmetning bir xil belgisini (ishchan, harakatchan, tirishqoq), bir xildagi harakatni (asramoq, saqlamoq) bildiradi.

Ma'nodosh so'zlar, ya'ni sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil bo'lgan bir umumiy tushuncha (ma'no) ifodalaydigan so'zlardir. "Ma'nodoshlik tilshunoslikda sinonimiya atamasi ostida izohlanadi. Bu hodisa go'zal va nafis, ta'sirli va mazmundor nutqning yuzaga kelishini ta'minlaydigan lisoniy hodisalardandir". {1} Sinonimlar bir-biridan qo'shimcha ma'no o'ttenkasi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi jihatidan o'zaro farqlanadi. Sinonimiyada lisoniy birliklar shaklan farqli bo'lsa-da, ma'no jihatdan umumiylikka ega bo'ladi, lekin ma'no jilosi, nozikligi, bo'yog'i bilan ajralib turadi. Bu hodisaning yuzaga chiqishi so'zlar doirasida yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Masalan, kekxa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid kabi so'zlar "yoshi o'tgan" ma'nosi bilan umumiylik kasb etsa-da, lekin ma'no nozikligi bilan nutqda farqlanadi. Chunki "qari "

soʻzida salbiy maʼno nozikligi boʻlsa, “oqsoqol”, “moʻysafid”, “nuroniy”, “keksa “ soʻzlarida ijobiy maʼno nozikligi bor. Shuning uchun nutqda birining oʻrnida ikkinchisini qoʻllash gʻalizlikka olib keladi. Ammo bu soʻzlarning oʻz oʻrni va ishlatilish doirasi bor. Yuqoridagiga oʻxshash soʻzlarning oʻz joyida ishlatilishi nutqiy goʻzallikni taʼminlaydi yoki taʼsirchanlikni yuzaga keltiradi.

Maʼnodosh soʻzlarda umumiy va xususiy maʼnolar farqlanadi. Umumiy maʼno bir necha soʻzni birlashtiruvchi maʼno: *odobli, boodob, aqlli, esli, esli- hushli* soʻzlarining umumiy maʼnosi “tarbiya koʻrgan, tarbiyali”dir. Lekin har bir soʻzda xususiy maʼno ham mavjud. *Odobli, boodob* soʻzlari insonga nisbatan ishlatilsa, *aqlli* soʻzi hayvonlarga nisbatan ham qoʻllaniladi. Masalan, *it – aqlli jonzot*.

Maʼnodosh soʻzlar ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi maʼnosi betaraf boʻlgan, koʻp qoʻllanadigan soʻz asosiy soʻz (dominanta, bosh soʻz) deb ataladi: *chiroyli, goʻzal, suluv, barno, dilbar, koʻhlik, sohibjamol, latofatli* sinonimik qatorida *chiroyli* soʻzi bosh soʻz hisoblanadi.

Koʻp maʼnoli soʻzlar koʻchma maʼnosida boshqa soʻzlar bilan sinonim boʻlishi mumkin:

*Shirin bola – yoqimtoy bola; Shirin orzular – ezgu orzular;*

*Shirin gap – yoqimli, insonning kayfiyatini koʻtaradigan gap.*

Sinonim soʻzlar nutqning taʼsirchan boʻlishini taʼminlaydi. Ular bir xil soʻz turkumiga oid boʻladi: *hayoli, andishali, oriyatli, iboli (sifat); gapirdi, soʻzladi (feʼl), yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol (ot).*

Demak, maʼnodosh soʻzlar, yaʼni sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil boʻlgan, bir umumiy tushuncha (maʼno ) ifodalaydigan soʻzlardir.

Sinonimlar bir-biridan qoʻshimcha maʼno ottenkasi, emotsional boʻyogʻi, qoʻllanishi jihatidan oʻzaro farqlanadi.

*Hushyor, sezgir, tuygʻun, ziyrak* kabi soʻzlar bitta sinonimik qatorni tashkil qiladi, bu sinonimik qatordagi soʻzlar ichidan *ziyrak* soʻzi boshqalariga nisbatan keng tushunchani ifodalaydi hamda hamma uslublarda ishlatilaveradi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, lugʻatda sinonimlar qancha koʻp boʻlsa, tilning ifodaliligi shuncha ortadi.

Boshlangʻich sinflarning ona tili darslarida maʼnodosh soʻzlar, yaʼni sinonimlar haqida nazariy maʼlumotlar berilmaydi. Ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashqlar yordamida shakllantiriladi, juda koʻp mashqlarda aynan “**maʼnodosh**” degan soʻz tez- tez takrorlanadi.

Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfдан boshlanadi. 1- sinf “Ona tili ” darsligida berilgan grammatik mashqlardan namunalar keltiramiz.

136-mashq. Topishmoqni o‘qing. Javobini toping. Topishmoqning javobini topishda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi?

O‘zi shirin, tukligina,

Mazasi bor totligina. (shaftoli )

Topishmoqni javobi bilan yozing. Qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga to‘liqlik chiziq chizing.

Totli so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.

Bu so‘zga ma‘nodosh so‘z topish uchun topishmoqning javobini topish va shaftolining xususiyatlari va belgilarini aytish zarur. Shaftoli yoz va kuz oylarida pishadigan, tukli yoki tuksiz, sariq, qizil yoki pushti rangli, dum-dumaloq, xushbo‘y, shirin meva hisoblanadi. Topishmoqda narsaning mazasi to‘g‘risida so‘z borayotganligini hisobga olib, yeyiladigan paytda sezish mumkin bo‘lgan belgisi – yoqimlilik, shirinligi, mazaliligi ifodalangan. Demak, totli so‘zining ma‘nodoshlari – shirin, mazali so‘zlaridir.

O‘quvchilarning lug‘atini boyitishda o‘zlari unib-o‘sayotgan, yashayotgan jamiyat bilan, oilasi, atrof-muhiti, maktabi, sinfi, ustozlari va o‘rtoqlari bilan munosabati juda katta ahamiyatga ega. Chunki til biologik hodisa bo‘lmay, ijtimoiy hodisadir, til odamlar bilan o‘zaro munosabatda shakllanadi, o‘sadi, rivojlanadi, bolalarda nutq madaniyati shakllanib, takomillashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K va b. ona tili o‘qitish metodikasi. T.:”Noshir”, 2009. 186-bet.
2. Каримова Ф. Сўз ва унинг маъно таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. Т., 2016 йил, 6-сон, 101-бет.

### **ДАРСДА ЎТКАЗИЛАДИГАН ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ**

**А.Сотволдиев, М.Саттаров, АДУ, катта ўқитувчилари.**

*Аннотация: Бу мақолада дидактик ўйинларнинг кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларга ўқув материалларини пухта, тез ҳамда маълум бир топшириқларни мустақил эгаллашга ўргатиш йўллари айтиб ўтилган.*

*Калит сўзлар: дидактик ўйинлар, таълим жараёни, таълим берувчи усул*

Таълим жараёнида дидактик ўйинлар родини чуқурроқ ва аниқроқ тасаввур қилиш мақсадида биз бу ишимизда қўллайдиган таълим, ўйин, дидактик топшириқ, ўйин топшириқлари сингари тушунчаларнинг таърифи ва уларнинг маъносини очиб беришга тўхталиб ўтишимиз зарур.

Таълим - ўқитувчининг болаларга билим, кўникма ва малакалар беришининг, бу билим, кўникма ва малакаларни ўқувчилар уқиб олиши, эгаллаб олиши ва уларни мустақамлаб олишининг режали суратда ўтадиган жараёнидир.

Таълим жараёни - болалар хотирасининг бойиши, уларнинг нутқ ва тафаккурининг ўсиш жараёнидир; турли хил метод ва усуллар ёрдамида содир бўладиган жараёнидир.

Ўйин - болаларнинг суяк-суягига сингиб кегган фаолиятдир, уларнинг бу фаолияти, ўйин турларига қараб, объектив воқеликни, ҳаётни муайян даражада ўзида акс эттиради.

Тажрибада шу нарса исботланганки, ўйин кичик ёшдаги ўқувчи болаларнинг зарур эҳтиёжидир.

Дидактик ўйин — таълим берувчи усул бўлиб, бу усул муайян таълимий мақсадларга эришувга, яъни ўтилган ўқув материални аниқлашга, мустаҳкамлашга ва уни чуқурлаштиришга қаратилган бўлади. ҳар бир дидактик ўйинни ўтказишда муайян мақсад, масалан, бирор ҳаракатни, бирор ҳисоблаш усулини, яъни маълум дидактик топшириқни мустаҳкамлаш вазифа қилиб олинади. Масалан, «Театр» ўйинига қўйиладиган дидактик топшириқ болаларнинг олдинги дарсларда танишган 5 сони ҳақидаги тушунчаларини мустаҳкамлашдан иборат. «Доиравий мисоллар» ўйинида эса икинчи ўнлик ичида ҳисоблаш малакаларини мустаҳкамлашдан иборат бўлган дидактик топшириқ қўйилади.

Тажриба шуни кўрсатадики, дидактик ўйинлар болаларда дўстлик, биродарлик, меҳнатқашлик ҳиссини тарбиялаш ва тараққий эттиришга ёрдам беради. “Ким турган саф яхшироқ”, “Занжирча”, “Нарвонча”, “Билган киши санашни давом эттираверсин” сингари ўйинлар ўтказилаётганда болалар ўз ўртоқлари, ўзи турган саф ва ўз синфларининг шарафи учун курашадилар.

Дидактик топшириқ дарсга қўйиладиган умумий мақсаднинг бир қисмини ташкил қилади.

Ҳар бир дидактик ўйиннинг ҳам ҳар қандай ўйиндаги сингари қоидалари бўлади. Ўша қоидаларга амал қилинмаса, ўйиннинг ўйин сифатидаги аҳамияти, ўйиннинг таълим-тарбиявий ва психологик аҳамияти йўқолади. Ўйин қоидалари ўйин топшириғига киритилади. Ўйин топшириғи—ўқитувчининг болаларга ўйиннинг қандай ўйналишини, ким қолиб чиққан ҳисобланишини ва ҳоказоларни тушунтириш тарзида берадиган топшириғидир.

«Жимжитлик» ўйинида болаларга бериладиган топшириқ ўқитувчи кўрсатган белги, сонни «хаёл»да ечиш ва сон натижасини топишдир. Ўйин қоидаси — овоз чиқармасдан ҳаракат қилишдир.

Дидактик материал: суратлар, жадваллар, плакатлар, санок жадваллари, стол устида кўрсатиладиган театр-ширма, абак (санок асбоби), ўйинчоқлар, чўтлар; ҳар бир болага бериладиган санок материали: геометрик шакллар, халтачаларга солинган дуб ёнғоқлар, чўплар, қўлда ясалган буюмлар (ғоз, қайиқча ва шапкача); геометрик шакллар чизилган жадваллар, картондан ясалган шакллар, схемалар солинган конвертлар; санок материаллари солинган индивидуал яшиқлар; геометрик шакллар солинган конвертлар ва ҳоказо.

“Дўконча” типидagi ўйинда ўйинчоқлар “сотиб олиш” нинг ўзи билан иш битмайди, балки бир неча ўйинчоқлар нархини ҳисоблаб (қўшиб) чиқишга, неча пул “қайтариб” бериш кераклиги ҳақида ўйлаб кўришга ҳам тўғри келади. Болалар “Қизиқарли квадратлар” ўйинида мураккаб математик амалларни бажарадилар. Бунда ўқувчиларга бир йўла бир неча амалларни бажаришга, чиққан натижаларни таққослашга, эришилиши мумкин бўлган натижалар тўғрисида ўйлаб кўришга ва нотўғри ҳисобдан воз кечишга тўғри келади. Буларнинг ҳаммаси тез, зўр қизиқиш ва ақлий фаолият билан ўтади. Катта, чиройли тўпни кўрган ўқувчиларда тортинчоқлик йўқола бориб, улар дастлаб кўрка-писа, кейинчалик эса дадиллик билан сонларни ўйлаб топишга киришадилар. ўйин жараёнида болаларда теварак-атроф ҳақида тўғри тушунча пайдо бўларди, бу эса болаларга топшириқ мазмунини (мустақил ўйлаб топиш пайтида) хилма-хил қилишга ёрдам беради. “Дўконча”, “Нимани тақиллатдим?”, “Театр”, “Болалар боғчасида меҳмондорчиликда” сингари ўйинларда болалар теварак-атрофдаги ҳаётни, нарсаларнинг сифатини, оғирлик ўлчови, нарх-наволар ва бошқаларни билиб олардилар, Уларда фазовий тасаввурлар мустаҳкамланади.

Дидактик ўйинлар, айниқса болалар ҳам, ўқитувчи ҳам ўйиннинг қандай ўтишига қизиққан пайтларида ўқитувчини болаларга яқинлаштиради. Ўқитувчи болалар назарида тарбиячигина эмас, балки чинакам дўстга ҳам айланади. Бу эса айниқса дастлабки кунларда юз берадиган ётсираш ҳолларига барҳам беради.

Шундай қилиб, ўйинлар болаларда ўқитувчи ва ўқишга нисбатан ижобий муносабатни пайдо қилади.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHDA TOPISHMOQLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

I.Ubaydullayev, katta o'qituvchi, ADU

*Annotatsiya:* Bu maqolada biz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy taffakurini oshirishda topishmoqlarning ahamiyatini ochib berishga harakat qildik va o'zbek xalq topishmoqlarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda topishmoqlarning muhim ekanligini o'rgandik.

**Kalit so'zlar:** folklor, topishmoq, kichik janr, og'zaki nutq.

Ma'lumki, o'quvchiga boshlang'ich ta'limda berilgan bilim uning butun hayoti davomida yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki aynan shu davrda bolalar o'zlarini o'rab turgan olam haqida keng tasavvurlarni shakllantira boshlaydi. Yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti asrida o'qituvchilar bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, bolalarning yoshiga munosib va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kerakli ta'lim-tarbiyani berib borish, ma'naviyati yuksak, har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar. Ayniqsa bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda "Maktab ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha mutaxassislariga yanada ma'suliyatli vazifa yuklaydi. Shunday islohotlarni inobatga olgan holda hozirgi kun o'qituvchisi ta'lim jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos kreativ tomonlarini aniqlash va ularni yanada rivojlantirishi zarur. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularning tafakkur qobiliyatlarini o'stirish eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda eng samarali usullardan biri xalqimiz ijodida uzoq davrlardan buyon rivojlanib kelayotgan topishmoqlarning ahamiyati ham katta hisoblandi.

Topishmoqlar xalqimiz og'zaki ijodining kichik janrlaridan biridir. Bu janr ko'proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka, og'zaki nutqini rivojlantirishga o'rgatadi. Folklorshunos olimlarning ma'lumot berishicha topishmoq aytish bizning xalqimizga azaldan xos bo'lgan. O'tgan zamonlarda topishmoqlarni qish faslida uzoq kechalarni zerikmay o'tkazish maqsadida, bayramlar, tadbirlarda bolalarning topqirligini, zukkoligini oshirish maqsadida kattalar tomonidan aytilgan. Bolalar tomonidan aytilgan topishmoqning javobi topilsa, topishmoqni aytgan bola musobaqada yutqazgan, topilmasa g'olib chiqqan hisoblangan. Topishmoqlar xalq orasida jumboq, topmacha, top-top, cho'pchak, matal, masal, ushuk atamalari bilan atab kelingan.

Xalqimiz orasida bolalarga atab aytiladigan topishmoqlar juda ham ko'p va rang-barangdir. Masalan, tabiatni sevishga o'rgatish maqsadida quyidagi topishmoqlarni ko'rsatish mumkin:

1. Ko'kka chiqib olov shar, bizga ziyo ulashar. (quyosh)
2. Osmondan par tushadi, par emas, zar tushadi. (qor)

Bolalarni hayvonlar bilan do'stlashtirish uchun quyidagi topishmoqlarni keltirish mumkin:

1. Emaklagan toshni ko'rdim, toshdan chiqqan boshni ko'rdim. (toshbaqa)
2. To'rtta uning oyog'i, temir mixli tuyog'i

Manzilga yetishtirar, toshday qattiq tuyo'gi. (ot)

Ba'zan bolalarni topqirligini sinash maqsadida bitta narsaga atab bir necha topishmoqlarni aytish mumkin:

1. Ongimizda nur sochar, sirlar eshigin ochar
2. Suhbati shirin do'stim, turgani bilim do'stim.
3. Ilmga kon, mazmunga makon,  
So'zi serhikmat, bizga do'st-ulfat.

Bu topishmoqlarning hammasida topilishi lozim bo'lgan narsa **kitobdir**. Matnlarni diqqat bilan o'qisak, ularning mohiyati jihatidan bir-biriga juda o'xshash ekani aniq sezilib turibdi. Bolalar bu topishmoqning javobini topish uchun matnda ishora qilingan so'zlarga diqqat bilan

nazar solishi kerak. So'zlarning mohiyatini tushunish orqali har uchala topishmoqning javobi bitta ekanligini anglab olishadi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning matn bilan ishlashdagi e'tiborlarini oshirishdir. Shuningdek, yana bir turdagi topishmoqlar matnida bitta jumboqqa bir nechta javob bo'lish ham mumkin. Masalan: "Uzun terak ichi kovak" topishmog'ining javobi aslida **qamish** hisoblanadi, ammo bu topishmoqqa ba'zan **kuva**, ba'zan **miltiq**, ba'zan **mo'ri** javob sifatida qabul qilinaveradi: qamishning ichi kovakligi kuvaga, miltiqqa, mo'riga o'xshaydi. Lekin bari bir "Uzun terak, ichi kovak"ning haqiqiy javobi **qamishligicha** qoladi. Chunki **kuva**, **miltiq**, **mo'ri**ning ichi kovak bo'lgani bilan o'quvchilar matndagi "Uzun terak" so'ziga e'tiborini qaratib to'g'ri javob qamish ekanligini anglashadi.

Bunday topishmoqlarning ahamiyati katta ekani sababli ular quyi sinf o'quvchilari uchun ham tavsiya etildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish va rivojlantirishda topishmoqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalansa, darslarga bog'lay olsa o'quvchilarning o'ziga xos qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga erishadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2009.
2. G'ulomov A., B. Qobilov. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent."O'qituvchi", 1995.
3. Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyati. Toshkent. "O'qituvchi", 2002.

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**И.Н.Эргашев, старший преподаватель, АГУ**

**Г.И.Иномжонova, студентка, АГУ**

***Аннотация.** В тезисе освещаются сущность понятия культура чтения и ее польза. Рассматриваются основные пути формирования интереса к чтению учеников младшего школьного возраста.*

***Ключевые слова:** культура чтения, становления личности, развитие, художественное произведение, уроки чтения, внеклассное чтение, библиотека, игра, методы, стимул.*

Как известно, глава нашего государства Ш. Мирзиёев выдвинул 5 важных инициатив по организации социальной, духовно-просветительской работы с молодежью по новой системе. И одной из этих 5 важных инициатив является повышение духовности молодежи, широкая пропаганда культуры чтения. И сегодня актуальным вопросом являются организация содержательного досуга молодежи, привитие интереса к чтению.

Культура чтения – это процесс, включающий восприятие текста, его понимание и интерпретацию произведения, причем уровень восприятия определяется читательским опытом ученика, его литературным развитием.

Под читательской культурой понимается:

- 1) определенный уровень развития культурного общения ребёнка с книгой;
- 2) полноценное восприятие прочитанного;
- 3) наличие литературных знаний, характерных возрасту.

В связи с этим развитие культуры чтения художественного текста является важной ступенью в достижении главной цели образования – саморазвития личности и формирования базовых общечеловеческих ценностей.

Русский социолог С.Н. Плотников выделил основные отличия в интеллектуальном развитии читающего ученика. По его мнению, активно читающие ученики способны мыслить в категориях проблем, схватывать целое и выявлять противоречивые взаимосвязи явлений; более адекватно оценивать ситуацию и быстрее находить правильные решения; имеют больший объем памяти и активное творческое воображение; лучше владеют речью: она выразительнее, строже по мысли и богаче по запасу слов; точнее формулируют и

свободнее пишут; легче вступают в контакты и приятны в общении; обладают большей потребностью в независимости и внутренней свободе, более критичны, самостоятельны в суждениях и поведении.

Перед школой стоит задача освоения обучающимися полноценного чтения. Культуру чтения необходимо начинать формировать в начальной школе.

Научить детей читать и воспринимать художественное произведение, подходить к нему как к искусству слова – задача уроков чтения. На уроках чтения дети учатся не только читать, но и посредством слова приобщаются к художественной литературе, развивается эмоционально-эстетическое восприятие произведений; обогащая эмоциональную сферу нравственными, интеллектуальными, эстетическими чувствами. Здесь и рождается внутренний стимул общения, возникает цель – рассказать так, чтобы взволновать, вовлечь слушателя в круг образов и представлений.

Для формирования читательской культуры младших школьников большое значение имеет и внеклассная работа по литературному чтению. Она открывает большие возможности для развития детского творчества, познавательного роста детей. Занятия должны быть построены таким образом, чтобы детям было интересно не только читать, но и высказывать собственное мнение.

Оптимальными методами формирования читательской культуры являются беседа о прочитанном, обмен мнениями, чтение-рассматривание, пересказ прочитанного, собственное сочинение сказок и историй.

Овладение читательскими интересами осуществляется, в основном, благодаря различным видам литературных игр: инсценировка книги, викторины, шарады, кроссворды, ребусы, литературная игра-путешествие, представляющая собой мероприятие в игровой форме на литературную тематику, интеллектуальные игры на усвоение понятий, игры для расширения читательского кругозора, игры, направленные на первичное восприятие произведения, игры на расширение обогащения читательского опыта, игры на углубленное восприятие художественного произведения.

Важную роль в формировании читательской культуры ученика играет школьная библиотека. Когда учитель и библиотекарь единомышленники и работают вместе, это даёт ощутимые результаты. Для учащихся начальных классов должны быть организованы походы в школьную библиотеку.

Успех развития читательского интереса у детей зависит и от участия в решении этой задачи родителей. Если чтение входит в образ жизни взрослых членов семьи, ребёнок это улавливает и впитывает. Детям требуется «читающая» среда, книжное окружение. Только на этой основе возникает желание читать, перерастающее в глубокую духовную потребность. «Читающая» среда должна быть создана, прежде всего, в семье.

Бесспорно, значение книги и чтения как незаменимого средства образования, воспитания и развития личности. Чтение - это источник приобретения знаний для духовного и умственного развития.

#### Литература:

1. Андропова Е.М. Метод проекта как средство формирования культуры работы с книгой у младших школьников // Творческое чтение в системе литературного образования (художественное образование и эстетическое воспитание в профильной школе): сб. науч. тр. - М.: ИХО РАО, 2011. - 145 с;
2. Богданова О.Ю., Маранцман В.Г. Методика преподавания литературы: в 2 ч. Ч.1. – М., 2008, С. 594-560;
3. Зобнина М.А. Как пробудить у младшего школьника интерес к чтению? Начальная школа. - 2007. - № 8;
4. Лазарева В.А. Литературное чтение в современной школе: сборник статей. М.: Педагогический университет «Первое сентября», 2005г.
5. Никифорова Е.П. Методическая разработка. Формирование читательской культуры у школьников как составная часть учебно-воспитательного процесса. - 2018;

6. Чернышова С. А., Тарасова А. И. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения // Молодой ученый. — 2015. — №22.1. — С. 72-74;

## Л.Н. ТОЛСТОЙ, ПРОИЗВЕДЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ.

О.А. Хайдарова  
старший преподаватель АГУ

*Аннотация.* Эта статья о творчестве и о значительном вкладе Толстого в развитии детской литературы.

**Ключевые слова:** чтение, жанр, рассказ, сказка, басня, пословица, поговорка, зачин, концовка.

Одна из главных задач учителя начальных классов, - прививать любовь детей к книгам.

Чтение - это окошко, через которое дети видят и познают мир и самого себя. Чтение - это и то, чему обучают младших школьников, посредством чего их воспитывают и развивают.

Чтение художественных произведений русских, узбекских, зарубежных писателей, научно – познавательных статей расширит представление школьников об окружающей жизни, научит наблюдать за природными явлениями, разовьет стремление детей к нравственному совершенствованию к творчеству.

Л.Н.Толстой внёс значительный вклад в развитие детской литературы. «Азбука» и «Новая азбука» с четырьмя «Русскими книгами для чтения», написанные в 70-е гг., относятся к той части литературного наследия писателя.

Произведения Л.Толстого введены в учебные книги для начальной и средней школы. Маленькие рассказы, сказки и басни – название говорит само за себя – о доброте, о справедливости, о честности, о труде, о дружбе, о любви, и других качествах, которые характеризуют высокую личность человека.

Л.Толстой наблюдал удивительную талантливость крестьянских ребят. Он писал об этом: «Мне и страшно, и радостно было, как искателю клада, который бы увидел цвет папоротника: радостно мне было потому, что вдруг, совершенно неожиданно, открылся мне тот философский камень, которого я тщетно искал два года – искусство учить выражению мыслей ...»

Толстой начал работать над «Азбукой» в 1859 г. Он переработал для неё рассказы, напечатанные в приложении к журналу «Ясная Поляна», и рассказы учеников народной школы в Ясной Поляне. Жанр короткого рассказа характерен для «Азбуки», так как Толстой учитывал специфику детского восприятия.

«Рассказы, басни, написанные в книжках, есть просеянное из в 20 раз большего количества приготовленных рассказов, и каждый из них был переделан по 10 раз и стоил мне большего труда, чем какое бы то ни было место из всех моих писаний», - писал он о работе над книгой.

В «Азбуке» отразился многолетний опыт работы Толстого в Яснополянской школе и напряжённый творческий труд писателя. Л.Н.Толстой в период работы над «Азбукой» изучал арабскую древнегреческую и индийскую литературу. Отбирая лучшие произведения, которые можно было бы использовать для пересказа детям. Он вводил в «Азбуку» самый разнообразный материал из сокровищницы устного народного творчества: лучшие из сказок, басен, былин, пословиц, поговорок. Не были оставлены писателем без внимания и современные ему учебные книги.

В 1875 году появляется второе издание «Азбуки» под названием «Новая азбука». Несколько позже были изданы четыре тома «Русских книг для чтения»

В «Новой азбуке» Толстой сюжетно обрабатывает народные пословицы, оформляя их как рассказы миниатюры или басни. Например, на основе поговорки «Собака на сене лежит сама не ест и другим не даёт» написана басня «Бык, собака и сено».



Для «Новой азбуки» и «Русских книг для чтения» Толстого характерно многообразие жанров: рассказы, очерки, басни, сказки.

В период переработки «Азбуки» было написано более 100 новых сказок рассказов, например: «Три медведя», «Косточка», «Котёнок», «Ноша», «Филиппок», «Ёж и заяц». Новое издание было одобрено критикой и рекомендована для народных школ как учебник и книга для чтения.

Последующие издания «Новой азбуки» печатались совместно с русскими книгами для чтения» под общим названием и «Русская книга для чтения».

Композиция «Новой азбуки» учитывает возрастные особенности детей. Вначале даются небольшие рассказы, всего несколько строк.

Предложения в них простые, без усложняющих обособлений и придаточных конструкции, например «Спала кошка на крыше, сжала лапки. Села подле кошки птичка. Не сиди близко, птичка кошки хитры». (Произведения чередуются, чтобы не утомлять ребёнка.) Постепенно содержание произведений расширяется; попеременно даются то научно-познавательный рассказ, то басня, то сказки, то быль.

«Новая азбука» решала важные педагогические задачи: она обучала родному языку, развивала художественный вкус, знакомила с бытом людей, жизнью природы; помогала нравственному воспитанию.

Большинство рассказов, повестей, сказок, басен для «Новой азбуки» Лев Толстой создавал сам. В некоторые разделы были включены переработанные произведения различных жанров народного творчества или русских и зарубежных писателей.

Учебные книги Толстого отличаются хорошо подобранным материалом для чтения. Дети сразу же приобщаются к богатствам устного народного творчества.

Пословицы, поговорки, загадки, сказки, былины составляют значительную часть учебных книг Толстого: «Сказанное слово серебряное, а не сказанное золотое». «Капля мала, а по капле море». «Конец делу венец». «Глупой птице свой дом не мил». «Один льёт, другой пьёт, третий растёт». (Дождь, земля, трава.) В рассказах для самого первого чтения, состоящих из одного предложения, даются сведения познавательного характера или советы, как себя вести: «Небо выше, море ниже», «Суши сено на доме».

В каждом рассказе и сказке Толстой ставит конкретные задачи воспитания, образования и обучения.

**Басни писателя.** Свои басни Л. Толстой создавал на основе эзоповских, но они воспринимаются как оригинальные произведения, потому что максимально приближены к детскому восприятию, содержат цепь динамичных художественных картин, изложены лаконичны и просто («Дуб и орешник», «Наседка и цыплята», «Осёл и лошадь»).

Мораль басен Толстого доступна детям, действие развёртывается драматично, остро. Так в басне «Осёл и лошадь» нежелание лошади помочь ослу оборачивается против неё же. Осел не выдержал тяжёлой ноши и упал мёртвым, а лошади пришлось везти и поклажу, и ослиную шкуру».

Басни Л.Толстого воспитывают трудолюбие, честность, смелость, доброту («Муравей и голубка», «Отец и сыновья», «Лгун», «Два товарища», «Старый дед и внучек»). Доброта и самоотверженность голубки, спасшей муравья, вызывают ответное стремление помочь, и когда она попадает в сеть муравей спасает ее; «Муравей подполз к охотнику и укусил его за ногу; охотник охнул и уронил сеть».

В басне «Отец и сыновья» отец наглядно показал, не послушным сыновьям, что нужно жить в согласии, приказав сломать веник. Оказалось, что целиком веник сломать невозможно, а по пруту очень легко: «Так-то и вы: если в согласии жить будете, никто вас не одолеет, а если будете ссориться да все врозь – вас всякий легко погубит».

**Сказки** Толстого. Значительное место в учебных книгах Л.Толстого занимают сказки - русские и зарубежные (народные и литературные).

Сказка «Три медведя» была написана Толстым в 1872 г. для «Новой азбуки». Повествование её предельно приближено к реалистическому рассказу: в ней нет

традиционных для народных сказок зачина и концовки. События развёртываются с первых фраз: «Одна девочка ушла из дома в лес. В лесу она заблудилась и стала искать дорогу домой, да не нашла, а пришла в лесу к домику».

С выразительными деталями запоминающимися повторами изображаются комнаты медведей, обстановка в их домике, сервировка стола. Кажется, будто детским глазами неторопливо и с любопытством просматриваются все эти бытовые подробности: три чашки – чашка большая, средняя и маленькая.

Повествование ведётся неторопливо; маленькие слушатели и читатели могут спокойно насладиться полной свободой действий маленькой героини и вообразить себя сидящими вместе с нею у чашек с похлёбкой, качающимися на стульчике, лежащими на кровати. Сказочная ситуация настолько насыщена динамикой и напряжённым ожиданием развязки, что не ощущается отсутствия диалога в первых двух частях сказки. Диалог проявляется в последней, третьей части и, нарастая, создаёт кульминацию сказки: медведи увидели девочку: «Вот она! Держи, держи! Вот она! Ай – я – ай! Держи!»

Сразу за кульминацией следует развязка: девочка оказалась находчивой – она не растерялась и выпрыгнула в окно.

В сказке писатель создал реалистический образ русской девочки –крестьянки, храброй, любопытной и шаловливой. Сказка Толстого «Три медведя» до сих пор очень популярна среди детей дошкольного возраста.

Особенной поэтичностью отличаются рассказы Л.Толстого о животных («Лев и собачка», «Мильтон и Булька», «Булька» и др.) Они оказывают наибольшее воспитательное воздействие на маленьких детей. Писатель учит детей дружбе и преданности на примерах из жизни животных. Действие в рассказах полно драматизма, эмоциональности, образности.

Незабываемое впечатление на детей производит рассказ «Лев и собачка». Реалистичность картины смерти собачки и глубокий драматизм поведения льва отразились в психологически точном и лаконичном повествовании: «...он обнял своими лапами мёртвую собачку и так лежал пять дней. На шестой день лев умер».

Произведения Л.Н.Толстого для детей разрабатывают важные нравственные проблемы, дают проникновенный анализ внутреннего мира героев, отличаются художественным совершенством формы, поэтической ясностью и лаконизмом языка.

#### Литература

1. Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н., Методика обучения родному языку в начальных классах. – М., «Просвещение» 2000г.
2. Тохтаходжаева М.Х., Вейцман Н.М., Белова В.А. Программа обучения грамоте и развития речи учащихся. – Т. «Шарк», 1997
3. Архипова Е.В. Развитие речи. Учебное пособие для учителей начальных классов. –М. «Просвещение», 1995
4. Оморокова М.И. Построение уроков чтения в начальных классах. М., 1995

## РАЗВИТИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.

**О.А. Хайдарова**  
старший преподаватель АГУ

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития диалогической речи младших школьников.*

***Ключевые слова:** речь, внешняя речь, внутренняя речь, диалог, реплика, беседа, дискуссия.*

Помимо воспитания и обучения детей младшего возраста, важно развивать их речь.

Овладение языком, речью – необходимое условие формирования социально-активной личности. Научить хорошо и правильно выражать свои мысли в устной и

письменной форме, уметь убедительно, ярко говорить и писать необходимо каждому. Поэтому одной из главных задач на современном этапе обучения учащихся считается развитие речи.

Речь в первую очередь подразделяется на внешнюю и внутреннюю. Внешняя речь – это речь, облеченная в звуки или в графические знаки, обращенная к другим; внутренняя речь – это не произнесенная и не написанная, «мысленная» речь, она обращена как бы к самому себе. Внутренняя речь лишена четких грамматических форм, она оперирует главным образом понятиями – отдельными знаменательными словами и целыми блоками, сочетаниями слов. На уровне внутренней речи протекает усвоение новых знаний, решение задач, обдумывание материала и подготовка к устным высказываниям и особенно к письму.

Школа развивает не только внешнюю, но и внутреннюю речь учащихся. Детей учат читать про себя и на уровне внутренней речи усваивать материал, про себя решать различные задачи (в том числе по языку), а главное – подготавливать свои высказывания, как устные, так и письменные (так называемый упреждающий синтез высказываний).

Внешняя звучащая, произносимая речь бывает монологическая и диалогическая.

Диалог – это разговор двух или нескольких человек. Каждое отдельное высказывание зависит от реплик собеседника, от ситуации. Диалог не нуждается в развернутых предложениях, так как их содержание дополняется мимикой, жестами, интонациями, а также ситуацией, обстановкой, всеми предшествующими репликами. Поэтому в диалоге много неполных и номинативных предложений, часты вопросительные и восклицательные предложения, обращения, частицы, междометия; значительное место занимает разговорная лексика; сложные предложения встречаются реже, чем в монологе.

В развитии диалога большое значение приобретает речевая активность детей: умение быстро сориентироваться, найти правильный, а если нужно – меткий, остроумный ответ, умение начать диалог – задать вопрос. Некоторые дети не проявляют активности из-за недочетов произносительных умений; поэтому очень важна, особенно в I классе, логопедическая работа, а также работа над дикцией.

Если дети в значительной степени овладевают диалогом в до школьном периоде, то монологу их обучает школа. Школьные монологи – это пересказ прочитанного или услышанного, рассказ по картине, на основе жизненного опыта, сообщение результатов наблюдений, выступление, письменное сочинение.

Развитие речи учащихся включает в себя: обогащение словарного запаса (увеличение активного словаря, работа над употреблением синонимов, антонимов); развитие связной речи (обучение построению различных типов текста).

Можно выделить следующие разновидности диалога:

1. Ситуативный диалог (диалог – расспрос, диалог – сообщение, диалог – побуждение). Ситуативный диалог копирует естественные коммуникативные ситуации или подражает им.

2. Диалог – беседа (тематическая беседа).

3. Диалог – дискуссия.

Ниже приведем несколько упражнений обучению устной речи, в частности устной диалогической речи. Например:

**Упражнение 1. Выразительно прочитайте диалог. Назовите реплики диалога.**

– *Что ты делал в прошлое воскресенье?*

– *Ходил кататься на лыжах.*

Ученики читают диалог и выделяют реплику-стимул (в данном примере: «Что ты делал в прошлое воскресенье?») и реплику-реакцию («Ходил кататься на лыжах.»). выполняя подобные упражнения ученики практически усваивают структуру диалога. Обращают внимание на то, что диалог обычно состоит из вопросов и ответов.

Для усвоения навыков правильного интонирования диалогов учащиеся тренируются в выразительном чтении диалогов, в том числе по ролям.

**Упражнение 2. Выразительно прочитайте диалог по ролям. Воспроизведите его устно.**

- *Что ты умеешь делать?*
- *Я умею читать, писать, считать, играть в шахматы.*
- *А рисовать ты умеешь?*
- *Нет не умею. А ты что умеешь?*
- *А я еще умею играть в футбол.*
- *А в хоккее умеешь играть?*
- *Нет, а ты?*
- *Я умею.*

Учитель обращает внимание учащихся на вопросительное предложение с частицей *А*, которая дает возможность переводить внимание с одного предмета на другой. Например в нашем примере это фразы «А рисовать ты умеешь?», «А ты что умеешь?», «А в хоккее умеешь играть?», «А ты?»

**Упражнение 3. Прочитайте диалог. Составьте диалог по данному образцу.**

- *Мама, ко мне приходил кто-нибудь?*
- *Твой друг приходил.*
- *Он что-нибудь просил передать?*
- *Просил передать, что зайдет позже.*

Ученики читают приведенный диалог и подражая ему составляют свой диалог. Например:

- *Бабушка, ко мне приходил кто-нибудь?*
- *Маша приходила.*
- *Что ей было нужно?*
- *Не знаю, она ничего не сказала.*

**Упражнение 4. Восстановите недостающие реплики диалога и выразительно прочитайте его.**

- *У вас есть в библиотеке произведения Пушкина?*
- ...
- *Какое из его произведений вы посоветовали бы мне прочитать?*
- ...
- *Я могу взять до следующей пятницы?*
- ...
- *Спасибо.*

Ученики восстанавливают диалог и выразительно читают его:

- *У вас есть в библиотеке произведения Пушкина?*
- *Да.*
- *Какое из его произведений вы посоветовали бы мне прочитать?*
- *Я советую его сказки.*
- *Я могу взять до следующей пятницы?*
- *Конечно.*
- *Спасибо.*

Подобные упражнения выполняются с целью накопления в памяти учащихся готового языкового материала, необходимого для участия в диалогической речи.

Литература

1. Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н., Методика обучения родному языку в начальных классах. – М., «Просвещение» 2000г.
2. Тохтаходжаева М.Х., Вейцман Н.М., Белова В.А. Программа обучения грамоте и развития речи учащихся. – Т. «Шарк», 1997
3. Архипова Е.В. Развитие речи. Учебное пособие для учителей начальных классов. – М. «Просвещение», 1995

4. Львов М.Р. Речь младших школьников и пути её развития. –М, «Просвещение», 1985г.
5. Федоренко Л.П. Методика развития речи детей. М., «Просвещение» 1994.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR LUG‘AT BOYLLIGINI OSHIRISH**

**S.Ismoilova, katta o‘qituvchi, ADU  
Sh.Sobirova, G.Oripova, talabalar, ADU**

*Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar lug‘at boylligini oshirish haqida ma‘lumot berdik. Boshlang‘ich sinf uchun yaratilgan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturida ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi va vazifasi haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tdik.*

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, muassasa, muloqot, nutqiy kompetensiya, grammatika, fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslubi ko‘nikma, fikr-mulohaza, ijtimoiy muhit, o‘quvchilar lug‘atini boyitish.

Umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ona tili fanini o‘qitishning maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin va ta‘sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizni, milliy an‘analarimizga, boy ma‘naviyatimizga mehr muhabbat ruhida tarbiyalashga o‘rgatishdir.

Boshlang‘ich sinf uchun yaratilgan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturida “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida (1-9-sinf) ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘z g‘aralar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi: o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘z g‘aralar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” deb ko‘rsarilgan.

Ona tili boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘quv predmetlaridan biridir. Kichik yoshdagi o‘quvchilar tildan muhim tushunchalar tizimini o‘zlashtiradilar, o‘qish, yozish, nutqqa oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

Ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olish, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkazishni o‘rgatishdan iborat. Ona tili darslari o‘quvchilarga qoidalarni yodlatish, takrorlatish yoki mavzu yuzasidan berilgan 3-4ta mashqlarni bajartirishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. O‘quvchi ona til darslarida so‘zdan foydalanish, muloqot odobini o‘rgansin, mantiqiy fikrlasin hamda o‘z og‘zaki va yozma nutqlarida tushunarli ifodalash yo‘llarini egallasin, nazariy qurollansin.

O‘quvchilarga tilning yaxlit bir belgilar tizimidan iborat ekanligini tushuntirib, til tuzilishi haqida ma‘lumotlar berish, ularni til va nutqni bir-biridan farqlashga o‘rgatish, zukkolik, so‘zni to‘g‘ri tanlashga, nutqda sinonim, omonim, antonimlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, til uslublarini to‘la o‘zlashtirish o‘qituvchining asosiy maqsad bo‘lmog‘i zarur.

O‘quvchilar nutqining go‘zalligi, izchilligi, ta‘sirchanligi asosan ularning lug‘at boylligi bilan bog‘liq. O‘quvchining lug‘at boylligi deganda o‘quvchi biladigan va yangi o‘zlashtirgan so‘zlar nazarda tutiladi. O‘quvchining lug‘ati qanchalik boy bo‘lsa, u o‘z fikr-mulohazalarini va qarashlarini shunchalik mukammal va tushunarli ifodalaydi. O‘quvchilar lug‘at boylligini boyitib borish faqatgina ona tili darslarida emas, faoliyatning barcha jabhalarida dastlab oilada, ko‘chada,

maktabda, boshqa fanlarni o'qitish jarayonida so'zlarni egallab boradi. Radio eshittirishlar, teleko'rsatuvlar, badiiy adabiyot, umuman bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit – hamma-hammasi o'quvchining so'z boyligini oshiruvchi manbalar bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilar lug'atini boyitishda bir qator xususiyatlar e'tibrga olinadi:

1) so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar;

2) so'zlarning nutqiy jarayonida qo'llanishi, uning muntazam yoki alohida holatlardagina qo'llanishi;

3) so'z ma'nosining to'la tushunishi, o'rinli foydalanish va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

O'quvchilar so'z boyligining kamligi ular so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilmasligi. Buning oldini olish dastlab boshlang'ich sinflarda so'z turkumini o'rganish jarayonida olib borilishi zarur. Shunday so'zlar borki, masalan, **almisoq, anduh, bemavrid, vido, girdob kalom, suluv, ulus** kabi so'zlar hozirda umumxalq iste'molida emas. Shuning uchun bu so'zlarni o'quvchilar nutqida umuman uchratish mumkin emas. Bu holatni bartaraf etish uchun esa so'z turkumlarini o'rganish jarayonida so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish zarur.

O'quvchilar nutqini so'z va uning ma'nodoshlari bilan boyitish, bu so'zlardan nutqiy faoliyatda to'g'ri va o'rinli foydalanish yaxlit bir metodik tizimni tashkil etmaydi. O'qituvchilar ona tili ta'limi jarayonida so'z va uning ma'nodoshlari ustida ishlashga faqat "Leksika" bo'limini o'qitishda e'tibor qaratadilar. Bizning fikrimizcha, so'zning ma'nodoshlari ustida ishlash ona tilining barcha bo'limlarini o'qitishda shu bo'limlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, u samarali bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, ularning nutqini o'stirish muammosi olimlarimiz K.Qosimova, Q.Abdullayeva, T.Ashrapova, M.Xudoyberdiyeva, M.Yusupov, A.G'ulomov, B.Qobilova, O.Roziqov, B.Yo'ldoshyev kabilarning xizmatlari beqiyos bo'lib, ular tomonidan yaratilgan ilmiy-metodik qo'llanmalar, shuningdek matbuot sahifalarida e'lon qilingin ilmiy maqolalarda nutq o'stirish bilan chambarchas bog'liq holda so'z boyligini oshirishning ayrim samarali yo'llari xususida ham fikr yuritiladi.

Metodist olim Q.Abdullayeva o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, sinash, bilish maqsadida diktantlardan, asosan, ta'limiy diktant turi bo'lgan lug'at diktantlaridan foydalanishni tavsiya etadi. "Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib, ishda aniqlikka e'tibor berish, soddadan murakkabga borish muhim. Lug'at diktantlar asosan o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida o'tkaziladi", - deya ta'kidlaydi.

Professor A.G'ulomov "Bolalar lug'atini bu boy xazina bilan boyitishning o'ziga xos xususiyat shundaki, u faqat ona tili mashg'ulotlarida emas, balki faoliyatning barcha jabhalarida – oilada, ko'chada, maktabda, boshqa fanlarni o'qitish jarayonida bu so'zlarni egallab boradi", - deb ta'kidlaydi va u bir qancha yo'llar bilan amalga oshirish haqida tavsiyalar beradi.

Lekin o'quvchilar so'z xazinasining qay darajada ekanligini aniqlamay turib, uni boyitish chora-tadbirlarini belgilab bo'lmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqlarini o'stirishga, so'z zahirasini ko'paytirishga, til materiallaridan amaliy foydalanish ko'nikmasini hosil qilish mohiyatini tashkil qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. ТОШКЕНТ. ЎЗБЕКИСТОН. 2016.

2. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi respublika ta'lim markazi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi boshlang'ich ta'lim ona tili, o'qish, matematika, tabiiyot (1-4-sinf). Toshkent. 2017.

5. Абдуллаева Қ. Диктант – саводлилиқ синови. // Бошланғич таълим. 1993, 5-6-сон. – Б. 16.

6. Фуломов А., Қобулова Б. Нутқ ўстириш машғулоти: (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). – Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б 132.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI SHE‘RIY ASARLARNI IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISH**

**S.Ismoilova, katta o‘qituvchi, ADU**

**M.Abduvaliyeva, talaba, ADU**

***Anotatsiyasi.** Maqolada boshlang‘ich sinf boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini she‘riy asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdik.*

***Kalit so‘zlar:** ifodali o‘qish, ijrochilik janr xususiyati va kompozitsion tuzilishi, nutq vositalari, nafas, ovoz, intonatsiya (ohang), talaffuz me‘yorlari, asar g‘oyasi, she‘riy asarlar.*

Bugungi kunda respublikamizda ta‘lim sifatini yanada oshirish bo‘yicha ulkan ishlar olib borilmoqda. Bunday islohotlar har bir fan oldiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bu mas‘uliyatli vazifani ado etish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga ulkan vazifalar qo‘ymoqda.

O‘quvchilar badiiy asarlarni yoki ulardan olingan parchalarni to‘g‘ri ifodali o‘qisalar, ularning ko‘z oldilarida alohida yangi manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo‘ladi.

Buning uchun ifodali o‘qish darslarini to‘g‘ri tashkil qilish o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham o‘qituvchidan adabiy asarning badiiy xususiyatni aks ettirib emotsional zavq beradigan qilib o‘qish talab qilinadi. Agar o‘qituvchi matnni yuqorida qo‘yilgan talab asosida o‘qiy olsa, unda asarning badiiy ta‘sir kuchini, yozuvchining maqsad va ruhiy holatini, tasvirlanayotgan hayot manzarasini tinglovchining ko‘z o‘ngida to‘g‘ri gavdalantira oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari she‘rni o‘g‘iyotgan birmuncha ifodali o‘qishga qiynaladilar. Ifodali o‘qishlarini ta‘minlash uchun o‘qituvchi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ayrim talaffuzi qiyin so‘zlarni yod oldirishga o‘rgatishi lozim.

O‘quvchi she‘riy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin, uning matni bilan yaxshilab tanishib chiqishi, yozuv va asar qahramonining kechinmalarini chuqur his etib, she‘r mazmuni va mantiqini to‘la tushunishi lozim.

Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi tinglovchiga asarning g‘oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazishdan iborat. Shu maqsadda har bir o‘qituvchi ifodali o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlarini mukammal o‘rganishi kerak. Uni puxta o‘zlashtirgan kishining nutq ravon, shirali bo‘lib, o‘z fikrini tinglovchiga to‘g‘ri va izchil yetkaza oladi.

Har qanday asarni ifodali o‘qish uning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishiga ko‘ra belgilanadi. O‘qituvchi asarni ifodali o‘qishga kirishishdan oldin uning g‘oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o‘rganishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari she‘rni o‘g‘iyotgan birmuncha ifodali o‘qishga qiynaladilar. Ifodali o‘qishlarini ta‘minlash uchun o‘qituvchi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ayrim talaffuzi qiyin so‘zlarni yod oldirishga o‘rgatishi lozim.

O‘quvchi she‘riy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin, uning matni bilan yaxshilab tanishib chiqishi, yozuv va asar qahramonining kechinmalarini chuqur his etib, she‘r mazmuni va mantiqini to‘la tushunishi lozim.

Quyidagi she‘rni ifodali o‘qishga namuna sifatida berib o‘tamiz.

1-sinf O‘qish kitobidan Dilshod Rajabning **Yurt qalqonlari** she‘ri.

### **Yurt qalqonlari**

*Dilshod Rajab*

O‘zbekiston – hur Vatan,  
Baxtimiz ayvonidir.  
Armiyamiz mustahkam,

Ona yurt qalqonidir.  
Harbiy xizmat faxrimiz –  
Bu mardlar maydonidir.  
Jasur askar akalar  
Ona yurt qalqonidir.

Shori bu she'rida har bir yigit kishining orzu va maqsadi Ona Vatanni himoya qilish ekanligini, Vatanni qanchalik mo`tabligini, yosh yigitchalar kelgusida vatan himoyachilari, vatan posbonlari bo`lib, uni himoya qilishlarini oddiy, bola tilidan ifodalagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. МИРЗИЁЕВ Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. ТОШКЕНТ. ЎЗБЕКИСТОН. 2016.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq. 1997.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq. 1997.

4. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi respublika ta'lim markazi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi boshlangich ta'lim ona tili, o'qish, matematika, tabiiyot (1-4-sinf). Toshkent. 2017.

5.Boymurodova G., Sattarova X., Muslimova Sh., Saydullayeva G., Kabilova Z., Vosiqova Sh., Karimova F. O'qish 1-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni amalga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent. 2016.

6. Орипов Қ., Обидова М. Ифодали ўқиш. Олий ўқув юртлари учун. Тошкент. Ўқитувчи. 1994.

7. G'afforova T., SHodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitiobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. SHARQ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.2017.

8. www. ziyouz.com kutubxonasi.

### **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЛУҒАТ БОЙЛИГИНИ ОШИРИШДА ЭРТАКЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ**

**С.Исмоилова, АДУ, катта ўқитувчи**

***Анотацияси:** Бизга маълумки, бошлангич синф ўқувчилари эртак ўқишни, эртак эшитишни яхши кўради. Эртак ўқиш дарсларининг муҳим вазифалари, дарсни қандай ташкил этиши керак, назмий ва насрий усулда берилган эртаклар ўқилиши ҳақида ўқитувчи қисқача маълумот ҳам бериб ўтиши керак.. Хулоса қилиб айтдганда ушбу мақола орқали бошлангич синф ўқитувчилари қандай усул ва метод билан ўқувчиларни эртакни ифодали ўқишига ўргатиши кераклиги ҳақида назарий ва амалий-услубий маълумотларни бериб ўтишни жоиз деб топдик.*

***Калит сўз:** илм-маърифат ва технология, миллий қадрият, анъана, маданий мерос, умуминсоний қадриятлар, Ватанга муҳаббат, миллий истиқлол, миллий мафкура.*

Президент Шавкат Мирзиёев Олий Мажлиснинг Сенати ва Қонунчилик палатасига навбатдаги Мурожаатномасида илм-маърифат ва технологиялар ривожига алоҳида аҳамият қаратди:

«Шарқ донишмандлари айтганидек, «Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, Энг катта мерос – бу яхши тарбия, Энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!»

Шу сабабли, ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш, узлуксиз ҳаётини эҳтиёжга айланиши керак.



Имом Бухорий бобомиз ўз китобларида келтирган муборак ҳадисда айтилганидек, **“Барча амаллар ниятга қараб бўлади”**.

Дарҳақиқат, пок ниятлар билан бошланган хайрли ишлар, албатта ижобат бўлади. Бугун биз ҳам танти, сабр-қаноатли ва меҳнаткаш халқимиз билан бирга улуғ мақсадларни белгилаб, маррани баланд олмоқдамиз.

Олдинда бизни улкан вазифалар, катта имкониятлар кутмоқда.

**Бир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмайлик: биз буюк тарих, буюк давлат, буюк маданият яратган халқимиз. Биз – ҳеч қачон меҳнатдан қочмайдиган, қийинчиликдан қўрқмайдиган, адолатни қадрлайдиган, азму шижоатли, буюк халқимиз.** [1]

Ёш авлодга таълим-тарбия беришнинг йўллари ва усуллари хилма-хил бўлиб, улардан болаларнинг миллий қадрият, анъаналар руҳида тарбиялаш алоҳида ўрин туради.

Ҳозирги вақтда ўқувчиларда юксак маънавий фазилатларни, миллий ва моддий қадриятларни, бой маданий меросимиз, тарихимиз, умуминсоний қадриятларга ҳурмат, Ватанга муҳаббат, миллий истиқлолга, миллий мафкурага садоқат руҳида тарбиялаш муҳим талаблардан бири. Бунинг учун эса таълим тизимининг барча бўғинларида – умумий ўрта таълим мактабларида, ўрта махсус ҳамда олий таълимда халқимизнинг азалий анъаналарига, удумларига, тилига, динига, руҳиятига асосланиб келажакка ишонч, меҳр-мурувват, инсоф, сабр-тоқат, адолат, инсонпарварлик, имон, эътиқод туйғуларини ҳар бир ўқувчи онгига сингдириб боришимиз керак. [3]

Эртақлар жуда қадим замонларда дунёга келган. Улар халқ оғзаки ижодининг “жонли суви” ҳисобланади. Ўзбек халқ эртақлари ўзининг тузилиши, шакли билан турлитумандир. Улар бошқа халқ оғзика ижоди маҳсуллари билан бадиийлиги, фантазияларга бойлиги билан ажралиб туради. Эртақларда хасислик, дангасалик ва бошқа ёмон иллатлар кулги остига олинади.

Ўзбек халқ эртақларидан “Йигитга етмиш ҳунар ҳам оз” эртаги болалар тарбиясида меҳнатга бўлган ҳурмат ва муҳаббатни ривожлантирса, “Сусанбул”, “Овчи, Кўкча ва Доно” эртақлари эса жамоа, дўстлик, биргаликда ҳаракат қилишни шакллантиради.

Илм бахт калитидир. Дононинг илми бўлса, у олган илмини яхшилик тарафга буриб, ўзига ва эл фойдасига ишлатиб, илмига илм қўшиб, иззат ҳурматга сазовор бўлиши ўқувчиларга тушунтирилади.

Ўқитувчи ўқувчиларни янги мавзу билан таништиради. Ўқувчилар бугун биз сизлар билан **“Илм афзал”** эртагини ўқиймиз. Дастлаб ўқувчиларнинг ўзлари ўқиган эртақлари юзасидан савол-жавоб ўтқизилиб, ўқувчиларнинг сўз бойлиги, эрткани қанчалик тушуниб ўқиганлиги, мазмунини сўзлаб беришидан аниқланади. Янги матнни бошлашдан олдин ўқитувчи ўқувчиларга илмнинг қадр-қиммати, унинг инсонга бахт келтириши ҳақида тушунча беради. Эртақ ўқиб бўлингач, унинг мазмунига мос мақоллар келтирилади: **“Дарё сувини баҳор тоширар, одам қадрини меҳнат”, “Илми йўқнинг кўзи юмук”** мақолларини боғлаб ўргатиш яхши натижалар беради.

Эртақ мазмуни асосида бир нечта саволлар ўқувчиларга берилади:

*Илм нима учун инсонга керак?, Ота нима учун ўғилларидан хафа бўлди?, Ота ким билан маслаҳатлашди?, Қизи отаси қандай маслаҳат берди?* [4.42].

Ўқитувчи жавобларни тинглайди ва ўзи қўшимча қилиб тўлдирди.

Эртақдаги ўқувчиларга нотаниш бўлган сўзларнинг изоҳини “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” ёрдамида изоҳланади:

Афзал – энг фозил, энг фазилатли. Яхши, аъло, ортиқ. [2.117].

*Илм афзалми ёки давлатми?*

Аҳвол – ҳолат. Муайян вақт ва шароитдаги ҳолат; вазият. . [2.129].

*Акаларингни аҳволи шу бўлса.*

Аввало – энг аввал, даставвал. Аввали шуки, биринчи.

*Сиз аввало улардан:...*

Падари бузруквор – ота.

-Эй, падари бузрукворим, ...

Мижжа қокмай – ухламай, бедор ётиш.

*Онанг раҳматлик кечалари мижджа қокмай ёнигда ўтириб чиқарди.*

Хулоса қилиб айтганда, ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялашда халқ оғзаки ижоди билан таништириш, нафосат ва гўзалликка интилиши, уни ҳис этиши ва бу жараёндан завқланиши, миллий бадиий қадриятларни кадрлаши ва ўзидан кейинги авлодга уни етказиши учун шахсий масъул эканлигини ҳис қилдирмоғимиз керак. Ана шу комил инсонни тарбиялаш, таълим жараёнида уларни фаоллаштириш йўллари ҳал қилиниши лозим бўлган долзарб масалалардан биридир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. president.uz
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, Т.: 2006.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov.
5. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent «Yangiyo'l poligraf servis» 2017.

### **BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O`RGATISH**

**S.A.Jo`raxonova, o`qituvchi, ADU**

**M.Jo`raqo`ziyeva, talaba, ADU**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang`ich sinflarda husnixatga o`rgatish usullari va xunuk yozadigan o`quvchilar xatini ijobiy tarafga o`zgartirish muammolari haqida ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o`z ifodasini topgan.*

***Kalit so`zlar:** boshlang`ich sinf, husnixat, chiroyli yozuv, o`quvchilar, o`qituvchi, ruchka, harf.*

Ta`lim-tarbiya masalasi tarixdan to hozirgi davrga qadar hayotimizda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Boshlang`ich ta`lim –insonning butun umr saqlanib qoladigan tarix kitobi, hayotida egallaydigan bilimlari olamining poydevori bo`lib, kelajakda o`zlashtirib boradigan fanlarga, umuman o`qishga qiziqishi ilk o`qituvchisiga, boshlang`ich sinfdagi egallagan savodxonligiga bog`liq. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: „Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr - boshlang`ich sinf davridir,“ - degan g`oyalari fikrimning yaqqol namunasi. [1,58]

Bir necha zamonlardan mobaynida san`at darajasiga ko`tarilgan, hatto Alisher Navoiy bobomizning asarlarida o`ttiz olti turi qayd etilgan husnixat, chiroyli yozuvning o`rni juda muhim. Yurtimizning moziy tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, Zariddin Muhammad Boburning o`z davrida yaratgan “Xatti Boburiy”ni kashf etishi ham katta ahamiyatga ega edi. Yozuv zamon va makon, masofa jihatidan og`zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Shu bilan birgalikda chiroyli yozishga o`rgatish sifatli ta`limga, xalqona til bilan aytganda, malakali, savodxon o`qituvchiga bog`liq.

Yoshlikda olingan bilim toshga o`yilgan naqsh kabidir. Naqsh o`yish oson ish emas. Maktabga ilk qadam qo`ygan bolaga husnixatni o`rgatish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to`g`ri va aniq yozishga o`rgatish ancha mashqqat talab etadi. Yozishga o`rgatishning ilk bosqichi ruchka ushlab qoidasi hisoblanadi. Ruchka bosh va ko`rsatkich barmoq bilan tutilishi kerak. O`quvchilarga husnixatni o`rgatishning muallim sinf doskasiga harflarni qiya holatda yozib berishi lozim. O`qituvchi o`quvchilar qo`ygan xato-kamchiliklarni o`z vaqtida payqashi va tuzatishi kerak. Dunyo psixologlarini fikricha: “Insonlarning xunuk yozishiga 90% ilk ta`lim

murabbiylari aybdor. Chunki ular vaqtida harflarning qing`ir qiyshiqiligiga e`tabor berishmaydi.”[2] Menimcha, bunda ota-onaning ham o`rni bor, 45minutlik dars jarayonida har bir o`quvchiga husnixatni o`rgatishga oz vaqt hisoblanadi. Hamkorlikda faoliyat olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Sinfda chiroyli yozadigan bilan birgalikda xunuk yozadigan o`quvchilar ham topiladi, albatta. Bunday o`quvchilarning yozuvini ijobiy tomonga o`zgartirish maqsadida sinfda ichki guruhni tashkil etish ya`ni chiroyli yozadigan o`quvchilarni xunuk yozadigan o`quvchilar bilan birlashtirgan bo`lardim. Chunki tengdoshlar o`rtasida bir-biridan o`rganish ham ijobiy tomonga hal bo`ladi. Sinf burchagida “Kim chiroyli yozadi?” taxtasini tashkil etish o`quvchilarda husnixatga bo`lgan bo`lgan qiziqishini orttiradi. Sababi ushbu taxtada har hafta chiroyli yozadigan o`quvchilar ro`yxati almashadi, o`quvchilar u yerda o`z ism-familyalarini ko`rish uchun ham husnixatda yozishga harakat qilishadi. Yozishni o`rgatishda ko`rgazmali qurollardan foydalanish ham samarali usul deb o`ylayman. Chunki boshlang`ich sinfda tahsil oladigan bolalar yoshida xotira eng rivojlanayotgan pallada bo`ladi. Ko`rgazmali qurollaridagi elementlar o`uvchi xotirasida saqlanib qolinishi ancha yuqori bo`ladi.

Harflarni uzmasdan yozish, daftarning belgilab qo`yilgan qizil chiziqdan chiqib ketmaslik, o`quvchi bilan daftar orasidagi masofa aniq 30sm bo`lishi, harflarni chapdan o`ngga qiyalatib yozish husnixatning asosiy qoidalari hisoblanadi. [3,24]

Boshlang`ich sinflarda husnixat qoidasi bilan birgalikda imloviy savodxonlik ko`nikmasi ham singdirilib boriladi. Dars mashg`ulotlarida bolalar ba`zan tez zerikib qolishlari, toliqishlari mumkin. Shunday vaqtlarda dam olish daqiqalarini o`tkazish ham ta`lim sifatini oshiradi. Uni qanday o`tkazish muallimning fantaziyasiga bog`liq.

Men kelajakda o`quvchilarim bilan „Pirr etdi” harakatli o`yini bilan o`tkazmoqchiman. O`yin jarayonida barcha o`quvchilar tik turgan holda bo`ladilar. O`qituvchi uchadigan jism yoki qushlar nomini aytganda o`quvchilar „Pirr etdi, pirr etdi” deb qo`llariniko`taradilar. O`qituvchi uchadigan jism yoki qush nomini emas boshqacha aytganda „Ketdi, ketdi” deb qo`llarini harakatlantirishadi. Bu o`yin fikrimcha, diqqatni to`plash va qo`l muskullarini charchog`ini chiqarishda qo`l keladi.[4,6]

Hozirdi kunda biz axborot asrida yashayapmiz. Zamonaviy texnika qurilmalari hayot yashash tarzimizni yengillashtirayotgani hech kimga sir emas. Germaniyalik olimlar boshlang`ich sinflarda tog`ri va bexato yozishni o`rgatish maqsadida „Lernstift pen” deb nomlanga aqlli ruchkani kashf etishdi. Ushbu g`aroyib ruchka ichida mini kompyuter, uning ichida esa harakat ko`rsatuvchi matorcha mavjud. Eng qizig`i shundaki, orfografik xatoni sezsa, ruchka titrashni boshlaydi.[5.2]

Chiroyli va xunuk yozish har kimning o`z ishi. Ammo bir parcha qog`ozdagi yozuv ko`p ma`lumotdan ogoh etadi. Biroq o`quvchilarga husnixatni sidqidildan o`rgatish, chiroyli yozish san`atining zavqini tuya bilish hissini uyg`otish pedagogning mahorati. Zero, chiroyli yozish kishining o`ziga, balki jamiyatga ham katta ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Barkamol avlod - O`zbekiston kelajagining poydevori. (T., “Ma`naviyat”, 1997.)
2. Psixologik bilimlar. (t.me./uz.)
3. X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva, G.Mamatova, H.Boqiyeva, A.Sobirova. Husnixat va uni o`qitish metodikasi. (Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2017.)
4. Boshlang`ich sinflarda harakatli o`yinlar. (Library.ziyo.net.uz.)
5. Isroil Jo`rayev. Husnixat kerakmi? (Boshlang`ich ta`lim jurnali. 2-bet. 2018,1-son.)

## MATN TUZISHGA O`RGATISHDA TA`LIMIY O`YINLARDAN FOYDALANISH

S.Jo`raxonova, katta o`qituvchi, ADU

D.Ne`matova, talaba, ADU

**Annotatsiya.** Bu maqolada boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarni matn tuzishga o`rgatishda ta`limiy o`yinlardan foydalanish jarayoni o`yinlar misolida bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** ona tili darslari, matn tuzish, didaktik oʻyinlar, oʻyin turlari.

Taʼlimiy oʻyinlar oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malaka darajasini tekshirishda qoʻllaniladi.

Ona tili darslarida oʻquvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qoʻllaniladigan usullar, mashqlar va variantlar juda koʻp. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarini mustahkamlash, nutqiy malakalarni mukammal shakllantirishda ona tili fanidan belgilangan mashqlar qatorida taʼlimiy oʻyinlar muhim oʻrin tutadi.

Didaktik va taʼlimiy oʻyinlar taʼlimning koʻrgazmaliligini, oʻquvchilar nutqi harakatini oʻz ichiga oladi, buning natijasida idrok etishda mushtaraklik vujudga keladi. Bu oʻquvchilar oʻqituvchidan eshitgan maʼlumotlarni va bilimlarni zexn bilan oʻylab olishga va oʻsha aytilganlarni ifodalab berishga, yaʼni taʼlimiy oʻyin qoidalarini oʻzlari bajarishga imkon beradi. Taʼlimiy oʻyinlarning bu tarzda tuzilishi xususiyatlari oʻquvchilarning faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini tugʻdiradi, shu bois ular oʻyin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladi.

Ona tili mazmuniga koʻra taʼlimiy oʻyinlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Fonetik-grafik oʻyinlar.
2. Soʻz yasalishi boʻyicha oʻyinlar.
3. Grammatik oʻyinlar.
4. Orfografik oʻyinlar.
5. Nutq oʻstirish tusidagi oʻyinlar

Taʼlimiy oʻyinlar oʻtkazilishi xarakteriga koʻra quyidagi turlarga ajraladi:

1. Ogʻzaki oʻyinlar.
2. Indamas oʻyinlar.
3. Yozma oʻyinlar.

Taʼlimiy oʻyinlar tashkil qilinishi boʻyicha quyidagi turlarga ajraladi:

1. Guruhlararo musobaqa tarzidagi oʻyinlar.
2. Tarqatma materiallar yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.
3. Qoʻl barmoqlar yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.

Oʻyinlar til materialini qoʻllashga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Harflar yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.
2. Boʻgʻinlar yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.
3. Soʻzlar yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.
4. Soʻz birikmalari yordamida oʻtkaziladigan oʻyinlar.

Oʻyinni tashkil qilishda oʻqituvchi quyidagi tamoillarga amal qilishi kerak:

- oʻyin qiziqarli, sodda, tushunarli, aniq boʻlsin ;
- oʻyin mavzuga mos, chuqur mazmunli boʻlsin;
- oʻyinda iloji boricha koʻproq oʻquvchi ishtirok etsin ;
- oʻyinda qiziqarli narsa koʻp boʻlsin;
- oʻyin oʻtkazilishi muddati, tartibi aniq boʻlsin;
- oʻyin oʻquvchilarning muayyan malakalarini shakllantirsin;
- oʻyin gʻoliblari ragʻbatlantirilib borilsin.

Darslarda oʻquvchilarni matn tuzishga oʻrgatishda koʻplab taʼlimiy oʻyinlardan foydalanish mumkin. “Safar” taʼlimiy oʻyini bunga misoldir. Oʻyinning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Oʻquvchilarga maktabdan yoki oʻz uylaridan maʼlum bir joygacha boʻlgan yoʻni tasvirlash topshiriladi. Oʻquvchilar bir yoki bir necha kun kuzatadilar va yoʻlni ogʻzaki tasvirlab beradilar.

Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat- eʼtibor talab etiladigan bu oʻyin vositasida Vatanga eʼtiqod, tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari oʻquvchilarning nutqi rivojlanadi, lugʻat boyligi ortadi. Ona tili darslarida olgan grammatik tushunchalarini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birgalikda oʻquvchilarning yoʻl harakati qoidalarini qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin.

“Safar” o‘yinidan mustahkamlash darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

*1-variant:* Uydan maktabgacha bo‘lgan yo‘l.

Men maktabga borish uchun uydan chiqib, o‘ng tarafga yo‘l olaman. Ko‘chaning oxirigacha borib, yana o‘ng qo‘l tomonga boraman. Oziq-ovqatlar do‘koniga yetib, chap tomonga burilaman. Biroz yurgach maktabimiz oldidan chiqaman.

*2-variant:* Uydan sport majmuasigacha bo‘lgan yo‘l.

Men sport majmuasidagi kurash to‘garagiga qatnayman. U yerga borish uchun uydan chiqib, chap qo‘l tarafga qarab yuraman. Ko‘chaning oxirigacha borib, o‘ng qo‘l tomonga qarab markaziy yo‘lgacha boraman. Katta yo‘ldan o‘tish uchun piyodalarga ajratilgan yo‘lak bo‘ylab borib, svetoforning qizil chirog‘i yonganda maxsus ajratilgan joydan yurib katta yo‘ldan o‘tib olaman. Yoidan o‘tgach to‘g‘rida sport majmuasi ko‘rinib turadi.

*3-variant:* Maktabdan buvimnikigacha bo‘lgan yo‘l.

Buvim maktabga yaqin turadilar. Maktabimizning katta darvozasidan chiqib o‘ng qo‘l tomonga qarab yuraman. To‘g‘riga boraverib, o‘ng tomonga burilib ketgan qator ko‘chalaming uchinchisiga burilaman. Bu ko‘chaning nomi Al-Forobiy. Ko‘chadagi 21-xonadonda buvim yashaydilar.

O‘quvchilar og‘zaki hikoyadan so‘ng tuzgan matnlarini yozishlari mumkin. Oqituvchi ulardan tuzgan gaplaridan darak mazmunini bildirgan gaplarni belgilash naqida topshiriq beradi.

“Jonli hikoya” o‘yining qisqacha mazmuni quyidagicha:

O‘qituvchi so‘zlar yozilgan qog‘ozlarni o‘quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga hikoya o‘qib beradi. (Qog‘ozlarda yozilgan so‘zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.)

O‘qituvchi hikoyani ikkinchi marta o‘qib berganda o‘quvchilar qo‘llaridagi qog‘ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog‘ozlarga yozilgan so‘zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o‘yinni o‘tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

*1-variant:* Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko‘kara boshlaydi.

*2-variant:* Olimjon ko‘chada yig‘layotgan bolani ko‘rib qoldi. U koptogini ariqqa tushiribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

*3-variant:* O‘rmon shohi sher yig‘in o‘tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo‘yniga oldi.

O‘quvchilar tuzgan gaplarini o‘qiydilar. O‘qituvchi ularga grammatik topshiriq beradi, yani tuzgan gaplarining darak gap ekanligini aytadilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzishga o‘rgatish ularda nutqni to‘g‘ri o‘stirish, gap va matn tuzishda grammatik qoidalarga rioya etishga yordam beradi. Bu jarayonni noan‘anaviy tarzda tashkil etish o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, ijodkorligini rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

- 1.Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.42-bet.
- 2.Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009
- 3.Roziqov O., Maxmudov M. Ona tili didaktikasi. Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2005

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MASALALAR YECHISH REJASINI IZLASH USULLARI VA UNI BAJARISHGA O'RGATISH

I.Abdullayev, ADU BTM kafedrası

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada masalalar yechish rejasini izlash va uni bajarish ishlari tavsiflanasi*

**Kalit so'zlar** *reja, usul, yechim, jadval*

Arifmetik usullar bilan masalani yechish reja izlashning eng ko'p tarqalgan usullarida biri matn bo'yicha masalani tahlil qilishdir.

Matn bo'yicha masalani tahlil qilish masaladagi berilganlardan ham uning savollaridan ham boshlash mumkin bo'lgan mulohazalar zanjiri ko'rinishida o'tkazilishi mumkin.

Masalani berilganlardan savolga tomon tahlil qilishda masala matnida ikkita ma'lumotni ajratish va ular orasidagi bog'lanishga oid bilimlarga asoslangan holda bu berilganlar bo'yicha qanday noma'lum topilishi va qanday arifmetik amal yordamida topilishi mumkinligini aniqlash kerak. Buni noma'lumni berilgan ma'lumot deb hisoblab yana o'zaro bog'langan ikkita ma'lumotni ajratish, uning yordamida topilishi mumkin bo'lgan noma'lumni va shuningdek, mos arifmetik amalni aniqlash kerak va hokazo. Bu jarayon bajarilishi izlanuvchini hosil qilishga olib keluvchi amalni aniqlaguncha davom ettiriladi. Quyida masala tahlili keltiramiz:

“Turist tezligi 56 km/soat bo'lgan poyezdda 6 soat yurdi. Shundan so'ng unga yurganidan 4 marta ko'p yo'l yurish qoldi. U hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurishi kerak edi?”. Masalaning qayta ifodalangan ko'rinishi “Turist 56 km/soat tezlik bilan 6 soat yurdi. Yurganidan 4 marta ko'p yo'l qoldi. Butun yo'lni topish talab etiladi.”

Mulohazani berilganlardan savolga tomon olib boramiz: “Turist 56 km/soat bilan 6 soat yurgani ma'lum. Bu ma'lumotlar asosida turist o'tgan masofani topish mumkin. Buning uchun tezlikni vaqtga ko'paytirish yetarli. O'tilgan masofani va qolgan masofa o'tilgan masofadan 4 marta ko'p qolganini bilgan holda qolgan masofa qancha ekanini topish mumkin. Buning uchun o'tilgan masofani 4 ga ko'paytirish kerak. Turist necha kilometr yurganini u yana qancha yurish kerak ekanini bilgan holda yo'lning topilgan qismlarini, butun yo'lni topish mumkin. Shunday qilib birinchi amal bilan turist poyezdda o'tgan masofani topamiz; ikkinchi amal bilan turist o'tishi kerak masofani; uchinchi amal bilan butun yo'lni topamiz.

Masalani savoldan berilganlar tomon tahlil qilishda savolga e'tibor berish va masala savoliga javob berish uchun nimani bilish yetarli ekanini aniqlash kerak. Masala shartiga e'tibor berish va uning uchun zarur ma'lumotlar bor-yo'qligini aniqlash kerak. Agar bunday ma'lumotlar yo'q bo'lsa yoki faqat bittagina ma'lumot bo'lsa, u holda yetishmayotgan ma'lumotni topish uchun nimani bilish kerakligini aniqlash kerak. Keyin reja tuziladi. Bunday holda mulohazani teskari tartibda o'tkaziladi.

Mulohazalar zanjirini savoldan berilganlar tomon qurib, ayni shu masalaning quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Masala yechimini izlash birinchi bosqichda tuzilgan chizma va sxematik yozuv bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Sxema bo'yicha yechimni izlash quyidagicha o'tkaziladi.

“Bidonda sut bor edi. Dastlab uning yarmi va yana 5 l keyin esa qolganining 1/3 qismicha sut quyib olindi. Shundan so'ng bidonda 10 l sut qoldi. Bidonda necha litr sut bo'lgan?”

AB kesma izlanuvchi qiymatni ifodalasin. Chizmadan bu kesma ikkita teng qismga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin.  $AO=OB$  AO kesma bir necha qismlardan tashkil topgan. Bunda 10 l ni tasvirlovchi kesma uchta teng qismlardan ikkitasini o'z ichiga olishi ko'rinib turibdi. U holda ulardan biri (10:2) l ni ya'ni 5 l ni tasvirlaydi. Endi butun kesmaning bu yarmi har biri 5 l ni tasvirlovchi to'rtta teng qismdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi. U holda masalaning savoliga javob berish uchun 5 ni 4 ga va 2 ga ko'paytirish yetarli. Ko'zda tutilgan rejani bajarib ushbuga ega bo'lamiz.  $10:2=5$  l  $5*4*2=40$  l

Quyidagi masalani yechish rejasi masala matnini jadval yordamida yozgandan so'ng oson topiladi.

Masala. Agar 12 kg metaldan 8 ta detal chiqsa, 36 kg metaldan nechta detal chiqadi.

1 ta detalning massasi	Detallar soni	Hamma detallar massasi
	8	12 kg
Bir xil	?	36 kg

Yechishning uchinchi bosqichi ko'zda tutilgan rejani amalga oshirishdir.

1. Masala sharti bo'yicha ifodalar tuzish.

Yechimning bunday shakldagi yozuvi bosqichma – bosqich amalga oshiriladi. Dastlab natijada ifodaga olib keluvchi alohida qadamlar yoziladi, shundan so'ng ifodaning qiymati topiladi va yozuv tenglik ko'rinishini oladi. Bu tenglikning chap qismi masala sharti boyicha tuzilgan ifodadan , o'ng qismi esa uning qiymatidan iborat. Shuning o'zi masala talabining bajarilishi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Quyida shunday shaklda yozishning namunalarini ko'rsatamiz:

$56 \cdot 6$ (km)- turist poyezdda o'tishi kerak bo'lgan masofa.

$56 \cdot 6 \cdot 4$  (km) – turist o'tishi kerak edi.

$56 \cdot 6 + 56 \cdot 6 \cdot 4 = 1680$  (km)

Javob : 1680 km.

Amallarga doir tushuntirishlarni yozmasdan ularni og'zaki formada berish mumkin.

$56 \cdot 6 + 56 \cdot 6 \cdot 4 = 1680$  (km)

II .Amallar bo'yicha bajarilgan har bir amalni tushuntirish bilan yozish.

Masalan :  $56 \cdot 6 = 336$  (km) –turist poezdda 6 soatda o'tgan yo'l.

$336 \cdot 4 = 1344$  (km) – turist o'tishi kerak bo'lgan qolgan yo'l.

$336 + 1344 = 1680$  (km) – turist o'tishi kerak bo'lgan butun yo'l.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATN TUZISHNING BIRLAMCHI VOSITALARINI O'RGATISH**

**D.A.Nurmanova, f.f.n., ADU  
Sh.Xusanboyeva ADU magistri**

***Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatishning birlamchi vositalari haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** matn tuzish, leksik vositalar, sintaktik vositalar, stilistik vositalar.*

Har qanday so'zlarni biriktirib so'z birikmasi yoki gap hosil qilib bo'lmaganidek, har qanday gaplarni biriktirib, matn hosil qilib bo'lmaydi. Matnda gaplar o'zaro mazmuniy aloqaga kirishgan bo'lishi, kichik bir mavzu bir gap doirasida emas, bir necha gaplar orqali yoritilishi shart.

Matnlarda gapga xos belgilar bilan birga, alohida o'ziga xos xususiyatlar ham kuzatiladi. Uning komponentlari orasidagi aloqalar tekshirilganda, shuni ko'rish mumkinki, matnni tashkil etuvchi mustaqil gaplar faqat odatdagi sintaktik aloqa vositalari – bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamidagina emas, balki boshqa turdagi sintaktik aloqa vositalari (masalan, olmoshlar, sinonimlar) orqali ham bog'lanishi mumkin.

Matn gapga nisbatan to'liq tugallangan nutq ko'rinishi hisoblangani uchun, u o'zida ma'lumotlarni mujassam etadi, gapda esa ana shu ma'lumotlardan bittasi ifodalangan bo'ladi.

O'zbek tilida nisbiy mustaqil gaplarni bog'lovchi – bog'liq nutq – matnni shakllantiruvchi vositalar tizimi haqida M.To'xsonov va M.Hakimovlarning yuqorida nomlari keltirilgan nomzodlik dissertatsiyalaridan ma'lumot olish mumkin.

O'zbek tilida matnlarni shakllantiruvchi vositalar doirasi ancha keng bo'lib, ular orasida eng unumdorlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin.

- ✓ Leksik vositalar
- ✓ Sintaktik vositalar
- ✓ Stilistik vositalar.

Matn shakllanishida muhim funktsiya bajaruvchi **leksik** vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari.

Matnlarni shakllantirishda olmoshlarning roli naqadar kattaligini e'tiborga olib va ta'kidlab, ayrim tilshunoslar ularni "biriktiruvchi yagona vosita" deb baholaydilar.

Olmoshlar yordamida shakllanish matnni tashkil etuvchi komponentlarning birinchisi tarkibida qo'llangan ot turkumiga xos so'zning keyingi komponentlarda olmosh bilan almashtirilishi natijasida yuzaga chiqadi.

## 2. Kontekstual sinonimlar.

Kontekstual sinonimlar yordamida shakllanadigan matn komponentlarining sintaktik aloqasi bir xil so'z takrori orqali ifodalanmay, balki ana shu so'zning sinonimlari yordamida yuzaga chiqadi. Sinonim so'zlar leksik ma'nosining yaqinligi bilan matn tarkibidagi komponentlar semantikasi, strukturasi jihatidan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatan holda, bir narsa-hodisa haqidagi tafsilotlarni umumlashtirishga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu o'rinda sinonimiya hodisasi keng ma'noda tushunilib, bir so'zni boshqa bir so'z bilan uning asosiy-yetakchi ma'nosiga putur yetmagan holda almashtirish imkoniyati mavjudligi nazarda tutiladi.

Sinonimiya hodisasi asosida shakllanadigan matnlar silliq, qaytariq so'zlardan holi bo'lib, turli ekspressiv-emotsional ottenkalarni ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

## 3. Bir gap doirasida ma'nosi oydinlashmagan so'zlar.

Nutq jarayonida narsa-hodisa haqidagi fikr bir gap doirasida nisbatan tugallanmay, oydinlashmay qolishi mumkin. Ana shunday holatlarda muallif yoki so'zlovchi o'sha narsa-hodisa haqidagi fikr-mulohazasi, ma'lumotlarini to'laroq ifodalash uchun yana qo'shimcha nisbiy mustaqil gaplardan foydalanadi – bir narsa-hodisa to'g'risidagi semantik jihatdan bir mavzu atrofida jipslashgan gaplarni ketma-ket qo'llaydi. Natijada yangi bir gaplar guruhi – matn shakllanadi

Matn shakllanishida ishtirok etuvchi **sintaktik** vositalar sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi:

### 1. Mustaqil gaplar kesimlarining shakl va mazmuniy birligi.

Narsa va hodisalarning xususiyatlarini bir mazmuniy planda tasvir etishda, asosan, fe'l kesimlarining bir xil zamon shakllaridan foydalaniladi. Bular, ko'pincha, o'tgan zamon fe'lidan iborat bo'ladi. matn tarkibiga kiruvchi nisbiy mustaqil gaplarning shu sintaktik konstruktsiya komponenti bo'la olishining eng birinchi sharti fe'l-kesimlarining bir xil zamon ko'rinishida bo'lishi hisoblanadi. Shuning uchun ham, fe'l-kesimlarning shakl va mazmuniy birligi matnning sintaktik qurilishida eng muhim vosita sanaladi. Agar matn komponentlaridan birining kesimi shakli jihatidan o'zgartirilsa, matnning semantik va struktural birligiga putur yetadi

### 2. Mazmunan izoh talab qilinadigan bir sostavli gaplar.

Matnning shakllanishida bir sostavli gaplar, ayniqsa, nominativ (atov) gaplarning roli kattadir. Ma'lumki, nominativ gaplar narsa va hodisalarning zamon va makonda mavjudligini tasdiq etish yo'li bilan ko'rsatuvchi bir yoki birdan ortiq so'zlarning birikmasidan tashkil topadi. Bir sostavli gaplar nisbiy tugal mazmun va tugal intonatsiyaga ega. Shunga qaramay, ular mazmunan kengayish-izohni talab etadi. Izohlash funktsiyasini esa kamida bir yoki undan ortiq gaplar bajarishi mumkin

### 3. Kirish bo'laklar, kirish birikmalar, kirish gaplar.

Mavjud adabiyotlarda kirish bo'laklar gap bilan hech qanday sintaktik aloqaga kirishmaydi degan fikrlarni uchratamiz. Bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ma'lum bir ma'noda kirishlar ham gapning bir bo'lagi. Aks holda, gap tarkibida qo'llanilmasligi kerak edi. Kirish bo'lak va kirish konstruktsiyalar nutq – matnning shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi, grammatik vosita vazifasini bajaradi. Kirish bo'laklardagi bu xususiyat tilshunoslar tomonidan ta'kidlab ko'rsatilgan

Matnlarning shakllanishida kirish bo'laklarning, umuman, kirish konstruktsiyalarning qo'llanilishi alohida xususiyatga ega. Bu, ayniqsa, ilmiy va ilmiy-ommabop nutq matnlari uchun xarakterlidir. Muallif o'z fikrini bayon etar ekan, nimanidir inkor etadi, nimanidir tasdiqlaydi – voqelikka o'z munosabatini bildiradi. Demak, nutq jarayonida kirishlarning qo'llanishi zaruriyatga



aylanadi. Ularning qo'llanishi matn tarkibidagi nisbiy mustaqil gaplarning ham grammatik, ham semantik jihatdan yaxlitligini ta'minlab turadi.

Matn shakllanishida turli til va nutq birliklari maxsus **stilistik** vosita sifatida faol ishtirok etadilar. Tilshunoslar tomonidan matn shakllanishida ishtirok etuvchi stilistik vositalar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

*1. Leksik-grammatik takror.*

Matnlarning shakllanishida uning birinchi komponentida fikr qaratilgan predmet ma'nosini ifodalovchi so'zning keyingi komponentlarda leksik materiali jihatdan o'zgaragan, ammo grammatik shakli jihatidan o'zgarishi mumkin bo'lgan holda takroran qo'llanishi alohida ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, bunday usulda shakllanadigan matnlarda komponentlarning har birida bir leksemaning u yoki bu grammatik shaklda takror qo'llanilishi kuzatiladi.

*2. Poetik figuralar.*

Tilimizda badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirib, emotsionallik hosil etadigan, o'ziga xos intonatsion yaxlitlik ifodalovchi shunday vositalar borki, ular uslubshunoslikda poetik vositalar – figuralar atamasi ostida o'rganilib kelinadi. Bunday vositalar nutqni ta'sirli va jozibali qilish bilan birga, fikrni tinglovchiga tez, qulay va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Fikrni tinglovchiga tez, qulay va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Ana shunday uslubiy vositalar-figuralardan matnlarni shakllantirishda ham ozmi-ko'pmi foydalaniladi.

Xulosa qilish mumkinki, matnning yaxlitligini ta'minlovchi, uni mustaqil sintaktik konstruktsiya sifatida shakllantiruvchi formal (kogeziyon) vositalar tizimi mavjud. Bu vositalar matn qismi (komponent)lari hisoblangan nisbiy mustaqil gaplar orasidagi aloqadorlikni ta'minlab turuvchi vositalar sifatida ahamiyatlidir. Bu formal vositalarning har biri matn tarkibida o'ziga xos funktsiya bajaradi. Ularning matn tarkibida qo'llanishi tasodifiy hol bo'lmay, ma'lum lingvistik qonuniyatlar talabi asosida yuzaga chiqadi. Shunisi ahamiyatliki, tarkibida bunday vositalar ishtirok etgan nisbiy mustaqil gaplar mazmunidan ham matn tarkibida o'zidan oldin yoki keyin kelgan gap mazmunidan kelib chiquvchi aloqadorlik sezilib turadi. Nisbiy mustaqil gaplar orasidagi mana shu aloqadorlik evaziga bog'liq nutqning ifoda vositalari – matn va uning eng yirik birligi matn shakllanadi. Matnning istalgan ko'rinishida shakllantiriladigan vositalarning u yoki bu turi ishtirok etadi. Shuning uchun ham sintaktik konstruktsiyalarning boshqa turlari – so'z birikmasi, gap va uning turlarida bo'lgani kabi matnlar tarkibida ham, uning shakllanishida ham ma'lum sintaktik qonuniyatlar amal qiladi. Bu esa matnning tilshunoslikning sintaksisi sathining yuqoridagi bosqichida o'rganiluvchi murakkab sintaktik konstruktsiya ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1.Silman T.N. Sintaksiko-stilisticheskie osobennosti mestoimeniy – Voprosy yazykoznaneya, 1970, № 4, str. 81.

2.Abdurahmonov G'. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1979, 97-bet.

**MENTAL ARIFMETIKANING BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
MATEMATIKANI O'ZLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**G.G`Ismanova – ADU, Boshlang`ich ta`lim  
metodikasi kafedrasida katta o`qituvchisi,  
N.M.Rustamjon qizi –ADU talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik o`quvchilarning og`zaki hisoblash texnikalarini rivojlantirishning mental arifmetikasi orqali yondashish usullari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Mental arifmetika, informatika, cho`t, arifmetik amallar, formula, aylana, doira, kvadrat.

Mental arifmetika bu - turli xil matematik amallarni, asosan, qo`shishdan boshlab, asta sekinlik bilan keyin ayirishga undan keyin esa, ko`paytirish, bo`lish kabi goh sodda, goh murakkab amallarni oz fursatda miyada hisoblashni anglatadi. Nafaqat miyada, balki barmoqlar

yordamida, cho'tlar yordamida ham osonlik bilan ma'lum formulalar yordamida hisoblash demakdir.

Mental arifmetika dastlab Xitoy va Yaponiyada o'ylab topilgan bo'lib, amalga joriy etilgan. Keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham kirib kelgan. O'zbekistonning bir qancha viloyatlarida mental arifmetikasi o'rgatiladigan maktablar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Masalan, Andijon shahrining bir qancha o'quv markazlarida o'quvchilar ulkan natijalarga erishishmoqda. Bu narsa bolalarni va ularning ota-onalarning qiziqishlariga sabab bo'lib kelmoqda. Bu albatta, yaxshi. Negaki bu bilan ham o'quvchilar ham o'qituvchilar foyda ko'rishlari mumkin, albatta, natijasi zo'r bo'lsagina.

Mental arifmetikaga, asosan, 3-4yoshdan boshlab qatnashish, o'rganish maqsadga muvofiq. Negaki bu yoshda bolalarning ko'p narsalarni qabul qilishlari kuchli bo'ladi. Oxirgi boshqich 12-14 yoshlargacha davom etadi, ya'ni o'rgatish bosqichi.

Mental arifmetikani o'rgatishda bir qancha o'quv qo'llanmalari mavjud bo'lib, ularda, asosan, bolaning yoshidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan, ya'ni ular bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Avval turli xil shakllar bilan ifodalanadi, keyin esa raqamlar, formulalar aks etadi.

Misol uchun: Artur Benjamin va Mixail Shermerlarning "Mental arifmetikaning sirlari" kitobi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu kitoblarning inglizcha va ruscha variantlari bo'lib. Ular sodda, tushunarli qilib, misollar yordamida keltirib o'tishgan.

Bundan tashqari ko'plab kitoblarda turli xil rangli rasmlar keltirilgan bo'lib, bolalarning ranglarni, shakllarni farqlay olishlariga yordam beradi

Hamma fanlarda bo'lganidek, mental arifmetikada ham o'rgatish metodlari mavjud. Xattoki, mental arifmetika husnihatni ham yaxshilashga yordam bera olar ekan.

To'g'ri, ko'pchilik ota-onalar mental arifmetikaga boshida qiziqishadi-da, keyinchalik, turli xil formulalar bilan o'rgatishiga qarab, farzandlarining ma'lum bir qolibga tushib qolishlaridan qo'rqishib fikrlarini o'zgartirib. Bolalarini kurslardan chiqarib ham olishlarini ko'ryapmiz. Lekin nima bo'lganda ham bolada tez fikrlash, dunyoqarashining o'sishiga ham foyda beradi-ku. Asosiysi, ming formulalar yordamida hisoblasa ham tezda natijaga erishadi-ku. Og'zaki hisob-kitoblarda ham yaxshi natija beradi. Masalan: do'konda ham bola o'zini erkin tuta oladi va olayotgan narsaning narxlarini og'zaki, tezda hisoblab harid qila oladi.

Nafaqat yuqoridagi vaziyatda, balki nazorat ishlarida ham hisoblash talab qilinadigan misollarni bemalol og'izaki hisoblab, berilgan muddatda bajaradi.

Davlat imtihonlarida ham vaqtdan yutishi mumkin, ya'ni misolni yozib o'tirmasdan og'zaki ishlab, yechim topa oladi.

Hamma narsaning salbiy, ijobiy tomonlari bo'lganidek, bolalarda mental arifmetikani o'rganish jarayonida, albatta, zerikish tug'ilishi mumkin. Axir hamma bolalar ham bir xil bo'lavermaydi-ku. Ular ko'proq o'yinga qiziqishadi. Shuning uchun bolalarga iloji boricha o'yinlarga bog'lagan holda o'rgatish samaralidir.

Misol uchun: qandaydir musoboqa shaklidami, xullas, bolalarga har tomonlama foydali jihatlarini hisobga olgan holda o'rgatilsa yaxshi samaradorlikka erishilsa bo'ladi.

Har bir oila ham farzandini mental arifmetikaga bera olmasligi mumkin. Bunga bir necha sabablar mavjud. Shuning uchun men bu ta'limni bolalarning o'zlari o'qiyotgan maktabda boshlang'ich sinflar uchun hech bo'lmaganda matematika fanining bir qismi shaklidami yoki matematikani mental arifmetikaga bog'lagan holdami yoki bo'lmasam darsdan tashqari to'garak hisobidanmi o'tilishini tarafdori bo'lardim. Shunda bolalarda qiziqish ortib, bir-birlariga qarab ham o'rganishadi deb o'ylayman. Faqat matematikani o'zlashtirishdagina emas, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham mental arifmetikaning roli bor. O'zi matematikani yaxshi biladigan bola boshqa fanlarni o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi. Agar mental arifmetika bilan uyg'unlashgan holda o'rganilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Men ushbu maqoladan shunga xulosa qildimki, garchi mental arifmetikani o'rganishimga kech bo'lsa ham, lekin o'rgatish metodlarini o'rganib, kelajakdagi o'quvchilarimga matematika

darsi bilan birgalikda qo'limdan kelganicha ularni zo'riqtirmasdan, zeriktirmasdan o'tishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

## ГЕОМЕТРИК ХОССАЛАРНИ ЎРГАНИШДАН - ҲИСОБЛАШГА, ЯСАШГА ВА ЎЛЧАШГА, ҚЎЛДА ЯСАЛАДИГАН АСБОБЛАРГА ЎТИШ

*Н.Абдуллаева АДУ катта ўқитувчиси,  
О.Сатторова Андажон шаҳар 49-умутаълим мактаби ўқитувчиси.*

**Аннотация:** ушбу мақолада геометрик материални ўргатиш методикаси кўриб чиқилган. Бошланғич математика курсида бериладиган геометрик шакллар, уларнинг хоссалари ва ҳисоблашга, ясашга, чизишга оид масалаларнинг аҳамияти ёритилган.

**Калит сўзлар:** шакл, хосса, ҳисоблаш, ясаш, чизиш, нуқта, кесма, тўғри чизиқ, ўлчаш, чизгич.


Агар асбобларнинг тузилиш тамойилига диққат билан қаралса, агар уларнинг тузилишлари асосида ётган геометрик хоссалар аниқланмоқчи бўлса, бу асбобларни ясашга доир геометрик масалалар билан қанчалик боғлиқлигига ишонч ҳосил қилиш қийин эмас. Геометрия ўқитишда асбоблардан фойдаланиш ғояси жуда самарали бўлади, у геометрик хоссаларни ўқувчиларга амалда кўрсатади.

Бунинг аксинча ўтиш, яъни бу хоссаларни юзага чиқара оладиган инструментларга ва асбобларга ўтишнинг аҳамияти ҳам кам эмас. Абстракт математик материални жонлантира олиш, уни ҳаётий масалалар ва муаммоларга яқинлаштира билиш санъати, ана шундай геометрик хоссалардан асбобларга ўтиш йўлини тўғри белгилаб ола билишдадир. Қуйида геометрия курсини унинг турмушда татбиқ қилинишга боғлашга доир бир неча мисол келтирамиз, бу мисолларни дарсда кўриб чиқиш билан ўқитувчи ўқувчиларнинг одат бўлиб қолган: «бу қаерда қўлланилади?» деган саволнинг олдини олган бўлади.

1-мисол. *Кесмаларни қўйиши.*


Дарсликда баён қилинган усул ёрдами билан турли тўғри чизиқларда ётган икки кесма бўйича, уларнинг бир кесмадан иборат бўлган йиғиндисини ясаш мумкин. 1-синф Математика дарслигидаги қуйидаги масалани кўришимиз мумкин:

3. Anvar 6 sm, akasi esa undan 2 sm uzun kesma chizdi. Akasi chizgan kesmaning uzunligi necha santimetr?



Кесмалар йиғиндисининг узунлигини ўлчашда бу хосса ўлчашни соддалаштиради; берилган кесмалар йиғиндисини топиш учун ҳар бир кесманинг узунлигини айрим ўлчаш ўрнига, олдин берилган кесмалар йиғиндисини ясаб, сўнгра, унга чизгични бир марта қўйиб ўлчаймиз, холос.

4. 1) Daftarga quyidagi siniq chiziqni chizing:




- 2) siniq chiziqda nechta bo'g'in borligini aniqlang;
- 3) barcha bo'g'in uzunliklarining yig'indisini toping.

Кесмалар қанча кўп берилса, бу қулайлик шунча кўпроқ сезилади; шунинг учун кесмалар йиғиндисини ясашнинг бу усули синиқ чизиқ узунлигини, учбурчаклар ва кўпбўрчаклар периметрларини топишда мустаҳкамланади.


## KO'PBURCHAK PERIMETRI

Bu to'rtburchaklarning hamma burchaklari to'g'ri burchak:





Ko'pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisi uning perimetridir.

To'rtburchakning perimetrini toping:



Ikkinchi sinf ўқувчилари периметр мавзусини тўла ўргандилар. Ўқувчилар шаклнинг периметрини топиш учун шаклнинг томонлари узунликларини аниқ билишлари шарт. Шаклнинг барча томонлари узунликларини қўшиб чиққанимизда ҳосил бўлган натижа яъни йиғинди берилган шаклнинг периметри эканлигини тушуниб оладилар.

Shakllarning nechtdan tomoni bor, ularning nomini ayting. Har bir shaklning perimetrini toping:



Ясаш ва ўлчашнинг аниқлиги ҳақида гап борган вақтда бу усулда хатонинг ҳам камайишини кўрсатиш мумкин. Бунга ўқувчилар иккала усулни қўлланиб, ҳосил қилинган натижаларда 1 - 2 мм фарқ бўлишига ишонч ҳосил қилсинлар. Дарҳақиқат ҳар бир кесмани айрим ўлчанганда ўлчаш хатоси 0,5 мм га етиши, кесмалар қўшилганда бу хатолар ҳам қўшилиши мумкин. Ўқувчилар геометрик шаклларни ўзлари чизишса, рангли қоғозлардан ясаसा, ўлчов асбоблари ёрдамида ўлчовларини ўлчаса хоссалари билан ҳам мукамал танишадилар.

Adabiyotlar:

1. А. М. Пышкало, Использование диафильма «Прямоугольник его периметр и площадь» при изучении геометрического материала в II—IV классах «Начальная школа», 1966, № 6.

2. Н.У.Бикбаева ва бошқалар. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. “Ўқитувчи” нашриёти. Т.: 1996, 281-bet.

## KASR KO'RINISHIDA BERILGAN UZUNLIK O'LCHOV BIRLIKLARINI HISOBLASH USULLARI

N.Abdullayeva ADU o'qituvchi, K.Fozilova ADU talaba,  
D.Toshmurodova Buloqboshi tumani o'qituvchi

*Annotatsiya:* ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan kasr tushunchasi, miqdorlarni o'rgatish usullari ko'rib chiqilgan. Kars sonlar bilan berilgan miqdorlarga oid misollarni ishlashning amaliy ahamiyati yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* o'lchov birligi, km, dm, sm, mm, kasr, butun, ta'limiy o'yin.

Hozirgi kun talabidan kelib chiqib boshlang'ich matematika kursi mazmuniga oid bir qancha o'zgarishlar olib borildi. Darsliklarga geometrik hamda algebraik materiallarga oid qo'shimcha yangi tushunchalar kiritildi. Kasr tushunchasi mazmuni ham yangi qo'shimchalar bilan boyitildi. Kasr tushunchasi o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun miqdorlarga oid misollarni yechishda ham ularni qo'llashimiz mumkin.

Bir uzunlik o'lchov birligini ikkinchi uzunlik o'lchov birligiga quyidagicha aylantiriladi:

$$1\text{km}=1000\text{m} \quad 1\text{dm}=10\text{sm} \quad 1\text{sm}=10\text{mm}$$

Mana shu o'lchov birliklarini topishda berilgan qiymat kasr ko'rinishida berilgan bo'lsin. Bunday holat o'quvchilarga biroz qiyinlik qilishi mumkin. Ushbu kasr ko'rinishida ifodalangan misollarni ko'rib chiqamiz:

Bizga  $\frac{1}{2}$  km ni metrda ifodalash sharti berilgan bo'lsin. Bu erda  $\frac{1}{2}$  kasr soni. Bu son butunning yarmini ifodalaydi. Birinchi navbatda bir kilometrni metrga aylantirib olamiz va natijani  $\frac{1}{2}$  ga ko'paytiramiz.

$$1\text{km}=1000\text{m} \quad \frac{1}{2} * 1000\text{m}=500\text{m}$$

Demak,  $\frac{1}{2}$  km 500m ga teng ekanligi ko'rinadi.

Shu kabi misollarni o'rganishda "Bilag'on bolajon" ta'limiy o'yinidan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Masalan quyidagi misol berilgan bo'lsin.  $\frac{1}{4}$  m,  $\frac{2}{5}$  m,  $\frac{3}{5}$  m,  $\frac{7}{10}$  dm larni santimetrda ifodalang.

Sinf doskasiga shu tartibdagi misollar hamda ularning javoblari chalkash tarzda beriladi. O'quvchilar ushbu misollarni ishlab berilgan javoblar bilan taqqoslashlari kerak bo'ladi. Misolni bexato ishlagan o'quvchilar bilog'on o'quvchilar deb topiladi va rag'batlantiriladi.

Mana shu tartibda berilgan misollarni turli ta'limiy o'yinlardan foydalangan holda ishlash o'quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga, to'g'ri va tez ishlashga, yuqori sinflarda o'tiladigan algebra, geometriya va fizika fanlarining mohiyatini anglab etishga yordam beradi. Bu esa o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini va darsdagi faolligini oshiradi. Ta'limiy o'yinlarni mavzuga mos tarzda tanlash dars samaradorligini oshirishning eng samarali yo'lidir.

Adabiyotlar:

1. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (Oliy o'quv yurti talabalari uchun) — T.: «O'qituvchi», 2004-yil.

2. Н.У. Бикбаева ва бошқалар. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. "Ўқитувчи" нашриёти. Т.: 1996, 281-bet.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI

N. Abdullayeva ADU kata o'qituvchi,  
N. Olimova ADU talaba.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish usullari, ularning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, musobaqa, munozaralilik, ko'rgazmali qo'llanmalar, ertak –sarguzasht.

Bugungi kun talabi bilan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni bilimlarini oshirish, mustahkamlash hamda qiziqishlarini oshirishda interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Bunday metodlar bolani fikrlash tezligini hamda jamoaning oldida o'zini boshqara olish qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Interfaol metodlarning ko'rgazmaliligi, qiziqarli musobaqa va munozaralilikka asoslangan tarzda o'tkazilishi, yorqin ya'ni o'quvchilarni o'ziga jalb etadigan ranglardan foydalanilgan ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanilganligi dars samaradorligini yanada oshiradi. Interfaol metodlarga quyidagilarni ko'rib o'tishimiz mumkin: ertak –sarguzasht, bayroqcha, akvarium, svetafor, baliq ovi, sehrli quticha metodlari.

Ertak – sarguzasht metodidan boshlang'ich sinf matematika darslarida quyidagicha foydalanishimiz mumkin:

O'qiyuvchi : -Bir bor ekan bir yo'q ekan bir ayolni 4 nafar farzandi bor ekan. Doimo birga o'ynar ekan. Kunlardan bir kuni kenja singlisi o'ynab yurib uylari-dan uzoqqa ketib qolibdi. Lekin qaytishida uyini topa olmabdi. Opalari qizchani izlab yo'lga tushibdi. Ular yo'lda bir bog'bonga duch kelibdi. Bog'bondan qizchani so'rashibdi. Ko'chat ekayotgan bog'bon ulardan 1dan 10 gacha sonlarni sanab berishlarini so'rabdi . Qizchalardan biri sanab beribdi.

Bog'bon esa qizchani ko'rganini aytib u ketgan tomonni ko'rsatibdi. Opa –singillar bog'bon ko'rsatgan yo'nalishda yo'lga tushdilar. Qizchalar yo'lda o'rmonga, u yerdagi daraxtlarga, turfa gullarga, o'rmon hayvonlariga duch kelishibdi. Ular yana yo'lda davom etibdilar. Oldilaridan olma daraxti chiqibdi. Olma daraxtidan singillarini so'rashibdi. Olma daraxti ko'rganini aytibdi. Olma daraxti olmalari pishib ketganligini, terib olishga yordam berishlarini so'rabdi. Opa – singillar olma daraxtiga yordam berishibdi. Olma daraxti minnardorchilik sifatida opa – singillarga kichik singillarining qaysi tomonga ketganini aytib beribdi [o'quvchilar olmalar orqasidagi misollarni yoki masalalarni yechadilar]. Opa – singillar yo'lida davom etildilar. Yo'lda qopqonga tushib qolgan tulkiga duch kelishibdi. U opa – singillardan qutqarishlarini so'rabdi. Opa – singillar uni qopqondan qutqaribdar. O'quvchilar qopqon orqasidagi misollarni yechadilar. Opa – singillar kichik singillarini izlab yana yo'lida davom etishibdi. Ulardan biri kabutardan singlisini so'ragan ekan, u ko'rganini aytibdi. Qizcha mehribon parining uyida yashayotganini aytibdi. Lekin oldin to'rdan xalos qilishlarini so'rabdi. O'quvchilar to'ring iplariga yopishtirilgan savollarga javob berishadi. Kabutar qizlarni mehribon parining uyiga olib boribdi. Ular pariga raxmat aytib xursand bo'lib yuga qaytishibdi.ular yana ahil bo'lib yashay boshlashibdi. Singlisi ota – onasiga hech qachon yidan uzoqqa ketmaslikka so'z beribdi. Shu bilan ertak nihoyasiga yetibdi. Ertak asosidagi dars ham yakunlanadi. O'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Boshlang'ich sinflar matematika darslarida Quticha metodini quyidagi tarzda amalga oshirishimiz mumkin. Bunda 3 ta quticha va xaltachada misollar yozilgan shakllar bo'ladi. O'quvchilarni 3 guruhga ajratamiz va har bir qutichaga bittadan quticha beriladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib xaltadagi misolni og'zaki ishlaydi,agar ishlay olmasa guruh qitisiga shakl solinmaydi. Xaltadagi misollar tugagach g'olib qator aniqlanadi va ularga rag'bat kartochkalari beriladi. Shu tariqa o'quvchilar o'tgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganini bilishimiz mumkin.

Poyezd metodidan quyidagicha foydalanishimiz mumkin. Bu metoddan uzunlik o'lchov birliklari yoki sonlarni o'sish tartibida joylashtirish maqsadida foydalanishimiz mumkin. Poyezd vagonlariga uzunlik o'lchov birliklari yoki sonlar aralash holatda yozib qo'yiladi. O'quvchilar esa ularni to'g'ri joylashtirib poyezdni yurgizishlari kerak bo'ladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish matematikaga turg'un qiziqishlari bo'lmagan o'quvchilarni ham qiziqitirishda samarali natija beradi. Dars samaradorligini ham oshiradi. Buning natijasida esa o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishadi.

Adabiyotlar:

3. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (Oliy o'quv yurti talabalari uchun ) — T.: «O'qituvchi», 2004-yil.
4. Н.У.Бикбаева ва бошқалар. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. “Ўқитувчи” нашриёти. Т.: 1996, 281-bet.

## **BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI MAKTABDA EGALLASH**

**I.Xoldarova, FarDU, katta o'qituvchi**

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

SHunga ko'ra, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari:

- har bir o'quv fanidan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- har bir o'quv fanidan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga sharoit yaratish;
- iqtidorli o'quvchilarning intellektual potentsiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;
- ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish;
- jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarni elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Bu davr esa, "Savod o'rgatish davri" deyiladi.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

Bu davrda bolalar nutqini o'zlashtirish asosiy ish turi hisoblanib, o'zbek tilining izohli lug'atida nutqqa shunday "tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi" deb ta'rif berilgan. Shunday ekan boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridagina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Pilla – bizning milliy boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Bunday fikrning tug'ilishi *pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini* yuzaga keltirdi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi.

1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1.K.Qosimova va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi, Toshkent – 2009

2.O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild, Toshkent – 2006, 67-bet

3. M.G'ulomov., Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish, Toshkent - 2001

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSIDA MATEMATIK DIKTANTNING ROLI**

**M.Kodirova, ADU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi**  
**O.To'xtamurodova, ADU talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda matematik diktant yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni sinash samaradorligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** o'qitish, boshqarish, arifmetik, bilim, ko'nikma, hisob, diqqat, matematik diktant.

Hozirgi zamon maktabi oldida turgan ustuvor vazifalar o'quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni har tomonlama rivojlantirish hamda yangiliklar yaratishdan iboratdir. Bunda umumiy boshlang'ich ta'lim zimmasiga o'quvchilarni aqliy rivojlantirishda, bilimlarni mustaqil egallash va ularning bilish vazifalarini hal etishda, o'qish motivlari va xohish-istaklarini shakllantirishda matematik diktantning ahamiyati katta deb o'ylayman.

Matematik diktant-bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi taniqli aloqa vositasidir. Og'zaki hisoblash bosqichida matematik diktantni o'tkazish nafaqat hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki matematik madaniyatni yaxshilashga ham yordam beradi. Og'zaki hisoblashning foydalari juda katta. Og'zaki arifmetik amallarni bajarib, bolalar nafaqat arifmetika qoidalarini takrorlaydilar, ularni tuzatadilar, balki eng muhimi, uni mehanik emas,



mazmunli o`rganadilar. Og`zaki hisoblashda e`tibor, konsentratsiya, chidamlilik, zukkolik, mustaqillik kabi muhim fazilatlar rivojlanadi.

Matematik diktantning samaradorligi nafaqat boshlang`ich sinflarning hajmi va mazmunini to`g`ri aniqlashga, balki ularni tashkil etishga ham bog`liq bo`lgan vazifa va so`rovlarni to`g`ri shakllantirish, o`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini hisobga olishni oqilona o`tkazish, og`zaki va yozma hisoblarni to`g`ri almashtirishga ham bog`liqdir. Ko`pincha topshiriqlar og`zaki ravishda taqdim etiladi. Mashg`ulotlarni tashkil etishning bu shakli muhimdir, chunki o`quvchilarning diqqat-e`tiborlari va xotiralari rivojlanadi. Bu yerda o`quvchilar ko`pincha quloq bilan idrok etilgan raqamlar bo`yicha harakat qilishlari zarur. Biroq bu shakl juda ko`p aqliy stressni talab qiladi va shuning uchun bolalarni, ayniqsa, ko`rish xotirasi ustun bo`lgan bolalar nisbatan tez charchaydi.

Matematik diktantlarning asosiy maqsadi-o`qituvchiga bolalar e`tiborining barqarorligi, tasodifiy kirish xotirasi va diqqatini jamlash qobiliyatini samarali o`rgatishdan iboratdir.

Matematik diktantlarni o`tkazish shakllari:

Snayper ( an`anaviy "Matematik diktant")

a) O`qituvchi diktantning vazifalarini ovoz chiqarib o`qiydi. Notalar yoki daftarlarga yozilganlarning javoblarini o`quvchilar yozadilar. O`qituvchi darhol to`g`ri javoblarni ko`rsatishi, individual topshiriqlarning yechimini muhokama qilishi kerak. To`g`ri yozuv bilan javob aylantiriladi (nishonni bosib)

1. 10-7 va yana qancha?

2. 5 dan 7 gacha bo`lgan sonni qanday songa bo`lish kerak?

3. 15 va 9 raqamlari orasidagi farqni toping.

4. 7ga 5 ni ko`paytiring.

5. 12 ga kamaygan ajratilgan son 8. Farqni toping.

6. Aka-ukaning 5 ta daftarchasi bor, aka-singillarniki ham shuncha. Aka-uka va opa-singillarning daftarlari nechta?

b) O`qituvchi diktantning vazifalarini ovoz chiqarib o`qiydi. O`quvchilar (stolga vertikal ravishda joylashtirilgan tor qog`ozlarga) javobni yozadilar va qog`ozning chetini o`rab qo`yadilar. Keyingi javob o`raglan parcha ostida yoziladi va hokazo. Ishni tekshirish oxirgi javob bilan amalga oshiriladi.

"Rost yoki yolg`on" o`yini.

Vaqt-vaqti bilan sinfda barcha o`quvchilarga ular bilan mustaqil ishlash uchun diktantlar matnlarini berish foydalidir (diktatsiya matnini doskaga yozib, slayd orqali). Bu matematik atamalarning imlosini eslab qolish uchun muhimdir.

Javoblar harflar bilan (va agar bayon to`g`ri bo`lsa) yoki L (noto`g`ri bo`lsa) bilan yoziladi.

1. Agar siz 14 raqamini 7 ga qo`shsangiz, 21 ni olasiz.

2. 87 va 3 raqamlari orasidagi farq 90 ga teng.

3. 34 raqami 40 dan 6 gacha bo`lgan raqamdan katta.

4. Qo`shish misolini har doim ko`paytirish misoli bilan almashtirish mumkin.

5. Agar 97 raqami 8 ga kamaytirilsa, 89 ni olasiz.

6. 56 va 2 raqamlarining yig`indisi 76 ga teng.

7. 68 raqami 100 raqamidan 32 ga kam.

8. Ikki raqamli raqamlarning barchasi 100 dan kam.

9. Agar kamayish 24 bo`lsa va ayirish 4 bo`lsa, farq 28 ga teng.

10. 37 raqamida 7 o`nlab va 3 birlik mavjud.

Matematik diktantlar uchun majburiy talab ularning tizimli ravishda amalga oshirilishidir va holatlardan holatlarga emas, balki natijaga bog`liq bo`lishidir.

Yuqoridagilarni xulosa qilib, ushbu muammoning barcha tomonlarini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, darsda bunday ish shakli diktant sifatida juda ko`p ijobiy tomonlarga ega. Agar o`qituvchi ushbu ish shaklidan to`g`ri foydalansa, uning barcha xususiyatlarini hisobga oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арутюнян Е.Б. «Математические диктанты», Москва, Просвещение, 1997 г.
2. Белошистая А.В. Формирования устных вычислительных умений // Начальная школа. – 2001. – №7. – С. 44-49.
3. Манвелов С.Г. Конструирование современного урока математики // – М: Просвещение, 2005. – 175 с.
4. Минаева С. Формирование вычислительных умений в основной школе // Математика в школе. – 2006. – №2. – С. 3-6.
5. Филиппов Г. Устный счет – гимнастика ума // Математика. – 2001. – №3. – С. 25-27

### XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARINING FONETIK XUSUSIYATLARI.

G.Teshaboyeva, ADU o'qituvchisi

E.Tojiyeva, Xo'jaobod tuman 4-umum ta'lim maktabi o'qituvchisi.

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada, Xudoyberdi To'xtaboev asarlarida fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarishi va Xudoyberdi To'xtaboev asarlarining fonetik xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Fonetik vositalar, talaffuz, undosh tovushlar, badiiy adabiyot.

Xudoyberdi To'xtaboev asarlarida fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarib, matnning emotsional ta'sirchanligini oshirishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tovushlarni cho'zib talaffuz qilish, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash orqali ma'no kuchayishi, ta'kid, ajablanish, hayajon, kinoya kabi turlari ma'no nozikliklarini ifodalashi mumkin.

Avvalo, yozuvchi hajviy asarlari va romanlaridagi ohang xarakteri haqida fikr yuritishi kerak bo'ladi. Boisi, adib asarlarida nasriy bayon poeziya bilan shu darajada yaqinlashadiki, "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Shirin qovunlar mamlakati", "Jannati odamlar" kabi asarlarida ritm, ohangdorlik eng muhim omillardan biri bo'lib qoldi. Yozuvchi she'riy asarlarga xos bo'lgan texnik vositalar – ritm, vazn, turoq kabilardan foydalanadi. Masalan,

Taka tum-tum, tum taka tum,  
Har yonlarni kezib yurdim.  
Yaxshi yomon barin ko'rdim,  
A'lo o'qiyman deb keldim.

Keltirilgan she'riy misralar singari nasriy bayon ham ohangli tarzda voqelanadi. E'tibor berilgan bo'lsa, Yaxshi yomon(ning) barin(ni) ko'rdim tarzida ifodalanmoqda. Bu yerda qaratqich hamda tushum keligi qo'shimchalari tushib qolgan.

Yoki: Bu voqeaga bir yuzu yigirma yetti yil bo'ldi.

O'shanda men yetti yoshli bola edim.

Pastki qishloqda Rahim o'tinkash degan bir chol yashar edi.

Matnda poeziyadagi kabi har bir gapni alohida qatorga yozish orqali ham ohangni ifodalash maqsad qilib olingan, ya'ni har bir qator pauza bilan o'qilsa, asarning musiqiyliigi, emotsional-ekspressivligi ortadi.

Badiiy adabiyotda undosh tovushlarning cho'zib tallafuz qilinishidan uslubiy vosita sifatida foydalanish holatlari ham kuzatiladi. Bunda ham his-tuyg'uning ortiqqligi, kuchaytirish, ta'kidlash, so'roq, taajjub kabi ma'nolar ifodalanadi. Masalan, - Sadinsa, ke, quvlashamiz! – dedim shu payt shavqim oshib.

- Iy – e, Hoshim sen ham shu yerdamisan? – deb negadir kulimsirab qo'ydi.

- Obbo o'g'lim – ey, shunday dedimi – a? – deb so'radi.

Temir taxtachaga: "Marhum usto Akrom bobo nomidagi sartorashxona" deb yozdirib, shundoqqina peshanasiga osib qo'ydim.

Badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik o'zgachalikni uslubiy vosita sifatida qo'llash asar qaramonining emotsional holatiga badiiy bo'yoq berish, tasvirning ta'sirchanligini oshirishda asar badiiyligini ta'minlovchi fonostilistik asoslardan biri hisoblanadi. Yuqorida

keltirilgan birinchi gapda “ ke “ l undosh tovushining tushib qolishi , ikkinchi gapda “iy –e “ ye unli tovushini cho’ziq aytilishi,uchinchi gapda “dedimi –a” a unli tovushinining cho’ziq aytilishi , to’rtinchi gapda usta so’zining” usto” tarzida yozilishi personaj nutqining boshqalardan ajralib turishini ko’rsatadi.

Yoki : Hali nima deyotgan edim ,ha,hamshira palataga kiring deb qistadi ,deyotgan edim ,shekilli.Bu gapda “deyotgan” so’zida ya unli tovushing tushib qolishi shevaga xos bo’lgan o’ziga xoslikni anglatadi.Adabiy til me’yoriga ko’ra deya yotgan tarzida ifodalani.Bunday so’zlarning adib asarlarida qo’llanish doirasi keng:

Har kuni fotihaga o’rganib o’rganib qolgan emasmanmi , qayerda o’tirganimni ham unitib men ham ovozimni cho’zib :

-Oblovhu akbar ! –deb yuboribman.

...Oyim Hoshimga qo’shilsang , odam bo’lmaysan , -deyapti...

Mana , Orifga qo’shilib odam bo’p qoldim.

-Juni hurpaymay o’lsin eshagingni !.. Anvar aka, -deb yonidagi turgan yigitga murojaat qildi qiz , -Siz ayting ,jo-o-on Anvar aka.

Keltirilgan birinchi misolimizda “oblovhu akbar” so’zi tarkibida”l” tovushi o’rnida “b “ tovushi qo’langan “ v” tovushi orttirilgan.Bu holat og’zaki nutqqa xos bo’lib ,badiiy til uchun adabiy me’yorning buzilishi hisoblanadi. Uchinchi misoldagi “odam bo’p” birkmasida Andijon,Farg’ona shevalari so’zlashuv uslubiga xos bo’lgani sababli ham ,adib undan o’z holicha adabiy me’yorga keltirmasdan foydalanganiki ,bu bilan adib og’zaki nutq shakli bilan badiiy asar mazmunini boyitishga ,badiylikni oshirishga erishgan.Keyingi misolda “ jo-o-on” so’zida bir”o “ unlisini ortirilishi erkalanish ,emotsianallik ruhini beradi.

Xulosa qilib aytganda ,X.To’xtaboev asarlarining fonetik xususiyatlarini tekshirar ekanmiz, adib tomonidan juda ko’p hollarda so’zning fonetik strukturasi adabiy til me’yorlariga rioya qilinmagan holda qo’llanganini ko’ramiz.Ba’zi hollarda unli tovushlar ham , undosh tovushlar ham muallif tomonidan ataylab o’zgartilishi yoki ma’lum bir maqsadda so’zning fonetik strukturasi o’zgartirib qo’llanishini guvohiga aylanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.To’xtaboev X. Qasoskorning oltin boshi. Tarixiy sarguzasht roman. -G’G’ O’rta va katta yoshdagi maktab bolalari uchun. -T.: O’qituvchi. 1983. -320.

2. To’xtaboev X. Jonginam shartingni ayt. Qissa va hikoyalar. –T.: Yosh gvardiya. 1978. -208

3. To’xtaboev X. Sariq devni minib. Uch qismli sarguzasht roman. T.: F.Fulom nomidagi adabiyot va san`at nashryoti. 1977. -268.

4. Safarova R. Leksik -semantik munosabatning turlari.T., O’qituvchi,1996.

### ***O’QISH DARSLARIDA SO’ZLARNING MA’NO VA SHAKL MUNOSABATLARIGA KO’RA TURLARINI O’RGANISH***

*G.Teshaboyeva, ADU o’qituvchisi*

*F.Temirova, ADU talabasi*

*M.Xoliqova, Buloqboshi tuman 14-IDUM o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, so’zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko’ra turlari ustida ishlash va ma’nodosh so’zlar guruhlarini o’rganish yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Ma’nodosh so’zlar, shakliy ma’no,ma’no munosabat ma’nodosh so’zlar guruhlari.

Tilimizda ayrim so’zlar o’zlariga xos xususiyatlariga ko’ra ma’noviy, shakliy, ma’no jihatdan o’xshash yoki zidlanishni bildiradi. SHunga ko’ra ular shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli va paronim so’zlar kabi guruhlarga bo’linadi.

So’z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko’pqirrali. SHunga erishish lozimki, o’quvchi yangi va notanish so’zga e’tiborsiz bo’lmasin. Uning ma’nosini anglashga harakat qiladigan bo’lsin.

Ma’nodosh so’zlar ustida ishlash usullari.

Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlariga koʻra turlari ustida ishlashda maʼnodosh soʻzlar guruhlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maʼnodosh soʻzlar tilimizning leksik boyligi. Undan qancha oʻrinli foydalanilsa, fikrni ravon, goʻzal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, soʻzdan toʻgʻri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Ogʻzaki hamda yozma nutqni maʼnodosh soʻzlar bilan boyitishda quyidagi leksik maʼno guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Istamoq, kengashmoq, soʻramoq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, fikrlashmoq, orzu qilmoq, sogʻinmoq, koʻrishmoq, omonlashmoq, ahdlashmoq, salom-alik qilmoq kabi maʼnodosh soʻzlarni leksik maʼno guruhlariga ajrating:

- istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, sogʻinmoq;
- maslahatlashmoq, kengashmoq, fikrlashmoq, ahdlashmoq;
- salomlashmoq, soʻrashmoq, koʻrishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilmoq...

2-topshiriq. Maʼnodosh soʻzlarni maʼlum bir belgining oshib yoki kamayib borishi (soʻzning maʼno darajalari) boʻyicha tartib bilan joylashtiring:

- hujra, xona, kulba, uy, koshona, saroy, qasr, qalʼa;
- tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib, aʼlo...

YOshlarni mustaqil fikrlashga, leksik maʼno belgilarini farqlashga yoʻnaltiradigan bunday topshiriqlarni bajarish gapda soʻzning oʻrnini aniqlashni osonlashtiradi, sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyatni yaratadi.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarga leksik maʼnosi yaqin soʻzlardan qator hosil qiling: gulzor, gumon, sezgi... Ularni maʼno darajalanishiga qarab joylashtiring: gulzor, gulbogʻ, guliston, gulshan, chaman, chamanzor, bogʻ-u boʻston va h.k. Har bir soʻzga namunadagidek qatorlar hosil qilingach, soʻzlarning oshib borayotgan maʼno koʻlami quyidagicha tasnif qilinadi:

- «gulzor» soʻzining maʼno darajasi (koʻlami)dan torroq, chunki «gulzor» deganda, gul ekilgan joy maʼnosi anglashilsa, gulbogʻ deganda, gul va manzarali boʻtalar ekilgan joy tushuniladi. «Gulbogʻ» soʻzida maʼno kengayishi hodisasi koʻrinadi;

- «guliston» soʻzining maʼno koʻlami gulzor va gulbargdan koʻra kengroq, yaʼni unda gullar vatani (diyori, mamlakati) maʼnosi bor. Lekin mazkur soʻz umumisteʼmoldagi soʻz boʻlib, gulistonda chaman soʻzida anglashiladigan badiiy boʻyoqdorlik koʻrinmaydi.

SHuning uchun guliston soʻzi gulshan, chaman soʻzlaridan pastroqda turadi.

4-topshiriq. Gapdagi maʼlum bir soʻzni uning maʼnodoshi bilan almashtiring.

Namuna: Oʻzbekistonimiz (Respublikamiz, yurtimiz, oʻlkamiz, diyorumiz, mamlakatimiz...) kun sayin chiroyli (koʻrkam, obod, goʻzal, suluv...) boʻlib bormoqda.

5-topshiriq. Berilgan gap yoʻmatnda ajratilgan soʻzlarga maʼnodosh, uyadosh, zid maʼnoli soʻzlar topib, ularni oʻzgartiring.

...Kulgi-yu tabassum Ollohning insonga bergan betakror marhamitidirki, bu hislat na hayvonot dunyosida, na paranda-yu darandalarda uchraydi. Inson qiyofasidagi shodmonlik belgisi faqat insongagina xos.

Kulgi-yu tabassum bebaho gavhardir, inson qalbining yuzdagi inʼikosidir, u yurak sogʻinchlarini izhor etib turadi... (Mirmuhsin)

-Matndagi yangi yoki sizga tanish boʻlmagan soʻzni belgilang, uning maʼnosini izohlang.

-Matnda ajratilgan oʻz va koʻchma maʼnodagi soʻzlarning uyadosh va maʼnodoshlarini toping.

-Maʼnodosh soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan maʼnoni belgilang.

-Maʼnodosh soʻzlarning maʼno nozikliklarini aniqlang.

-Ulardan foydalanib, matn yarating. oʻquvchilarning bu sohadagi bilim va malakalarini kengaytirishda qator usullardan foydalanish mumkin:

-Maʼnodosh (sinonim) soʻzlar qatorini tuzing.

Bunda darslikdagi muayyan mashqda berilgan soʻzga oʻquvchilar maʼnodosh sinonim soʻz izlashadi. Bunday mashq materiali sifatida adabiyot darsligiga murojaat etish mumkin.

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashning shakl va usullari ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Ularning eng keng tarqalganlarini eslatish joiz.

Bunday amaliy ishlar nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov M. Yoshlarning boshlang'ich sinf o'qish darslarining o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent. "O'qituvchi", 1992 yil
2. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.
3. Qosimova Q. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1995 yil

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH**

**D.A. Sobirova, Boshlang'ich ta'lim  
metodikasi kafedrası o'qituvchisi. ADU.  
G.B.Jo'rayeva, ADU talabasi.**

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda matn ustida ishlashning samarali usullari haqida bahs yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** matn ustida ishlash, nutq o'stirish, boshlang'ich ta'lim, o'qish darsi, tafakkur, lug'at, test, matn mazmuni.*

O'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish til ta'limda muhim ahamiyatga ega. Chunki og'zaki va yozma nutqni yaxshi egallagan o'quvchi barcha fanlarni oson va to'liq o'zlashtiradi, unda bilim olishga va yangiliklarga intilish tobora kuchayadi. Hozirgi zamon pedagogikasida o'quvchilar nutqini o'stirishga muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi. Zero, o'quvchilar nutqini o'stirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchil, doimiy ravishda o'tkazib borilmasa, ta'limning yaxshi, sifatli bo'lishiga, o'quvchilarning madaniy nutqini egallashlariga erishib bo'lmaydi.

Matn ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish eng maqbul usullardan bo'lib, bu jarayonda quyidagi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi: bilim olish; to'g'ri, ravon va ifodali o'qish; ijodiy va mustaqil fikrlash; tahlil qilish va kerakli xulosa chiqarish; odob-axloqli bo'lish; nutq madaniyatini egallash.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirishga harakat qilish lozim. Chunki har ikkala nutq shakli bir-birining o'sishi hamda takomillashib borishi uchun xizmat qiladi. Asar matni ustida ishlashda ham bu talablarga amal qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari yuqori sinflardagi adabiyot darslarining tarkibiy qismi bo'lib, ulardagi asosiy ish turi matn ustida ishlashdir. Asar matni ustida ishlash orqali ham og'zaki, ham yozma nutq o'stirishni o'qish darslarida o'rganiladigan matnlar misolida ko'rsatish mumkin. Lug'at ustida ishlash orqali nutq o'stirishda o'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, undagi notanish so'zlarni aniqlaydilar va o'qituvchi yordamida ularni tushunib oladilar. Matn mazmunini qayta hikoya qilish orqali nutq o'stirishda o'quvchilar matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib, obrazlarni o'zgartirib, o'z fikillarini bildirib qayta hikoya qiladilar. Qayta hikoyalashda, albatta, matndagi so'zlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Matnga oid savol-javoblar ustida ishlash orqali nutq o'stirishda faqat darslikdagi savol va topshiriqlar bilangina cheklanib qolmay, balki har bir darsda o'quvchilarni o'ylashga, mulohaza yuritishga chaqiruvchi yangi savollar tuzish va o'quvchilar hukmiga havola etish lozim. Test topshiriqlari ustida ishlash orqali nutq o'stirish usulida o'quvchilarni har tomonlama o'ylashga, matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga, matndagi har bir so'zga alohida ahamiyat berishga o'rgatadi. Test usuli o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ular berilgan topshiriqlarni bajonidil bajaradilar.

Yuqoridagi usullardan o'rinli va unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning lug'at boyligi har jihatdan boyib boradi.

Matndagi iboralar, so'z va so'z birikmalari o'quvchilar nutqiga ko'chib, ular nutqining jozibador bo'lishiga olib keladi. Qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berib kelingan. Misol uchun Kaykovus o'zining "Qobusnoma" nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: "...Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har ne so'z desang yuzi bila degil. To suhangoy bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsankim, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas". So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdur. Qay bir so'zni bilsang joyini o'tkarmay aytgil, vaqtni zoye qilmagil, yo'q ersa donishga sitam qilg'on bo'lg'oyson. Har so'z desang rost degil va bema'nilikni da'vo qilg'uvchi bo'lmag'il".

Shunday ekan, nutq o'stirish ishining qulay, samarali va yangicha usullaridan foydalanib, bolalarimizga nutq madaniyatini o'rgatish, imloviy savodxon bo'lishiga ko'maklashish eng muhim vazifalardandir. Bu ishlarni amalga oshirishda esa matn ustida ishlash texnologiyalaridan unumli foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARGA SHE'RIY ASARLARNI O'RGATISHNING AHAMIYATI**

**D.A. Sobirova, Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi. ADU.**

**S.B.Jo'rayeva, BTSTI ta'lim yo'nalishi talabasi. ADU.**

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni o'rgatish mazmuni va ahamiyati, she'riy asarlar orqali o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish haqida bahs yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** she'riy asar, boshlang'ich ta'lim, o'qish darsi, tafakkur, mantiqiy fikrlash.*

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari bolalarning ongli, to'g'ri, ravon, ifodali va tushunib ta'sirli o'qishlarini ta'minlaydi. Tevarak - atrofdagi voqealarga ongli munosabatda bo'lish kabi zarur, malakalarni hosil etishda yetakchi rol o'ynaydi. O'quvchilarni axloqiy, estetik ruhda tarbiyalashda, nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini farqlashga yaxshi ishlarga ergashish, illatlardan yiroq bo'lishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"da o'rgatiladigan har bir she'r bolalarda yaxshi taassurot qoldirishi, estetik zavq uyg'otishi va ularning yodida uzoq vaqt saqlanib qolishi, shu bilan birga, asardagi timsollar va asarning tili bolalarda emotsional ta'sirchanlikni tarbiyalashi kerak. Bolalarning estetik didini o'stirib, uni ravon va ta'sirli nutq egasi bo'lishga o'rgatish kerak. O'qish kitoblariga kiritilgan har bir mavzu oxiridagi maxsus savol – topshiriqlar asar tilini o'rganishda juda zarurdir. Shu savollarga o'xshash, qo'shimcha savollar tuzishga o'rgatish, topshiriq turlarini xilma – xil qilish va ularni mustaqil bajartirish, tushunilishi qiyin so'zlarni alohida izohlab berish kerak.

O'qish darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini izchillik bilan bayon etishlarini ta'min etish, har bir bolaning o'qish tezligini kun sayin oshirish, uni she'r ustida ishlashga o'rgatish va undash ko'zda tutiladi. O'quvchining tafakkuri va tasavvurini o'stirish, og'zaki va yozma nutqi shuningdek, lug'at boyligini rivojlantirish, o'quvchilarda ma'naviy va ma'rifiy axloqiy did va farosatni tarkib toptirish kabi muhim masalalarga jiddiy e'tibor beriladi.

1-sinf o'qish darslarida bolalar diqqat- e'tibori o'qilayotgan she'r mazmunini ochib berishda, ayniqsa, muhim bo'lgan so'z va iboralarni, fikrlarni ajratishga, so'roq, undov va darak gaplarning ohiridagi intonatsiyaga rioya qilish zarurligiga talab etiladi, ularni dialogli gaplarini o'qish malakasini egallashda o'rgatiladi.

Dars jarayonida o'quvchilarda narsa va voqealar haqida muayyan tasavvurlarni tarkib toptirish va o'stirish bilan bir vaqtda ular tez va ravon o'qishga va she'r bilan muntazam ishlashga o'rgatiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'rganiladigan har bir mavzusining asosiy mazmuni va g'oyasini tushunib olishlariga, mavzu voqealari orasida ichki bog'lanishlarni to'g'ri anglab olishlariga erishmog'i lozim.

O'quvchilarning o'qituvchi yordamida o'qitilayotgan asar mazmunini va g'oyasini tushunib olishlarida she'rning tili, undagi obrazli ifodalar va ayrim iboralarga ularning diqqatini tortish hamda bu obrazli ifodalar va iboralarni o'z nutqlarida o'rinli ishlatishga o'rgatish muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarning she'r o'qish jarayonida tushunmaydigan so'zlarni avval o'zlaridan so'rab aniqlashi va izohlashi lozim yoki tushunish lozim bo'lgan so'zlar she'r o'qilmasdan oldin izoh berilish kerak.

O'qituvchi she'r matnini ifodali o'qib tugatgach, mazmuni so'zlatiladi. O'quvchi oldiga matn ustida ishlash vazifasi qo'yiladi. O'qituvchi o'qilayotgan gaplarning mazmunini ohang yordami bilan bilib olishi, mantiqiy urg'uni qanday farqlashi kerakligini o'quvchilarga har bir o'qish darsida tushuntirib borishi kerak.

O'qish darslarida bola she'rni ongli, to'g'ri, ravon, tushunib ifodali o'qigan taqdiridagina uning mazmunini yaxshi o'zlashtiradi va yod oladi. O'qish darslarida o'quvchilarda badiiy asarni muntazam mutoala qilib, yod olib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda badiiy asarni, she'riy asarni mustaqil holda mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asardagi jozibali tomonlarni ko'ra olish, tushunish va his etishga bog'liqdir. Bu o'quvchida bilim va tajribaning kengligini, badiiy mushohada qobiliyatlarining rivojlanishini talab etadi. O'quvchida she'riy asardagi voqealar rivojini, uning ichki bog'lanishini, qahramonlarning ruhiy holatini aniq tasavvur etishi asosida badiiy mushohada shakllanadi.

Mushohada yurita olgan o'quvchigina she'rni tushunib, undan ma'naviy oзуqa oladi.

O'quvchilarda she'riyatga qiziqish, o'qishga, yod olishga havas uyg'otish maktab ta'limi sohasida olib boriladigan umumiy ishning uzviy qismi hisoblanadi.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA FE'LNING GRAMMATIK BELGILARI USTIDA ISHLASHDA MUAMMOLI TA'LIM VA KO'RGAZMALILIKDAN FOYDALANISH**

**D.A. Sobirova BTM kafedrası o'qituvchisi. ADU.**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'lning grammatik belgilari ustida ishlashda muammoli ta'lim va ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim mazmuni, muammoli vaziyat, fe'l zamonlari, fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi, ko'rgazmalilik, rasm asosidagi insho.

Ta'lim mazmuni o'quv fani sifatida ona tili oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab belgilanadi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarni aqliy va nutqiy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga va axloqiy tarbiyalashga, oddiy lisoniy bilimlarni o'zlashtirishga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

O'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish muammoli ta'limdir. O'quv mashg'ulotlari davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, bolani izlanishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga da'vat etadi. O'rganiladigan material o'quvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U esa vujudga keladigan muammoni hal qilish uchun o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tutishga kirishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarni shakllanishi, ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnlilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga har qanday o'quv muammosini emas, balki faqat ular tushuna oladigan va ob'ektni muammo sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'yishi kerak.

Muammoli didaktik savol aqliy faollikni oshirishda eng muhim vositalardan biridir. Bunday savolning javobi kamchiliklarni to'ldiradi, noma'lumini aniqlaydi, o'xshashlik va farqini topadi, xususiy fikrni ifodalaydi, shuningdek, sxema yoki simvol bilan tushunilgan narsalarning ma'nosini anglatadi.

Didaktiv savollar o'quvchilarga ma'lum bilish harakatlarini bajarishni taklif qiladi va tabiiy bilish vaziyatini yaratadi. O'qituvchi o'quvchini yangi faktlarga, voqea hodisa yoki

jarayonlarga ro'baro qiladi. O'qituvchi bunda nimani aniqlash kerakligini oldindan biladi. Shu bois o'qituvchi sinfda tayyor natijani e'lon qilmaydi. O'quvchilarni o'zlariga ma'lum va izlanishlar natijaga olib boradigan mustaqil bilish yo'lidan harakat va bilimlarni qo'llash bilan yo'naltiriladi.

Fe'lning grammatik belgilari, xususan, "Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi" va "Fe'l zamonlari" mavzulari ustida ishlashda muammoli ta'lim usulidan ham foydalanish mumkin. Muammo sifatida quyidagi kabi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Siz bugun qanday ishlar qildingiz, gapirib bering.
2. Tuzgan gaplaringizdagi fe'llarni ayting. Fe'llardan qanday fikrlarni uqdingiz?
3. Fe'llarning zamonini ayting, ma'nosini izohlang, ko'rsating.
4. Shaxs-son va zamon qo'shimchalari nimalarni ko'rsatadi?

Savollar shu tariqa davom etishi mumkin. O'quvchilar bu kabi savollarga javob berish orqali grammatik qoidalarni ham amalda mustahkamlaydilar.

Ona tili darslarining samaradorligini oshirishda ko'rgazmalilikning ham ahamiyati katta. Ko'rgazmalilikda grammatikadan ko'pgina mavhum tushunchalar mohiyati aniqroq ochiladi, o'quvchilar ularni puxta o'zlashtirib oladilar. Konkret faktlardan umumlashgan xulosalar, qoida va ta'riflar yaratilib, shu asosida o'quvchilar ongida grammatika, orfografiya va punktuatsiya bo'yicha tushuncha hosil qilinadi. O'quvchilar jadval, sxema va grafik vositalar bilan ishlash davomida bog'lanishli nutq malakalarini ham takomillashtirib boradilar. O'quvchilarning darsga qiziqishlari ortadi, tabiat va jamiyat hodisalarini bilish faoliyatining asosiy bosqichlari: jonli kuzatish, tahlil etish, qiyoslash va umumlashtirish haqida dastlabki tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida ko'rgazmali qurollarning quyidagi turlari qo'llanadi: rasmlar, maket va modellar, albomlar, bukletlar, jadvallar, sxemalar, matnli plakatlar. Ko'rgazmali qurollar ustida ishlashda o'qituvchining so'zi yangi bilimlarning boshi hisoblanmaydi, chunki, o'quvchilar ko'rgazmali vositadan mustaqil ravishda bilib oladilar. Shuningdek, ko'rgazmalilik til hodisalarini aniq ifodalashga yordam berishi shart.

Ma'lumki, turli mavzularda ishlangan mazmunli rasmlar bolalarning narsa va voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi va zehnlarni o'tkirlashishiga yordam beradi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida rasm mazmunini hikoya qilishga o'rganadilar. Bundan tashqari, tadbir o'quvchilar lug'atini boyitadi, ifodali nutq malakalarini egallashlarida yordam beradi.

"Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi" va "Fe'l zamonlari" mavzulari ustida ishlashda rasm asosidagi insholardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga dastlab rasm ko'rsatilib, umumiy tushunchalari aniqlanadi. Keyin esa rasm mazmuni yuzasidan savollar berib, o'quvchilar javobi eshitiladi va o'qituvchi tomonidan to'ldirilib, qayta hikoya qildiriladi. Rasm asosidagi ishlar asta-sekin murakkablashtirilib, o'quvchilar rasm asosida mustaqil hikoya tuzishga o'rgatiladi. Hikoya tuzib bo'lingach, ulardagi fe'l yasovchi qo'shimchalar, fe'l zamonlari, fe'llarning shaxs-son qo'shimchalarini belgilash mumkin. Masalan, anhor tasviri berilgan rasm asosida quyidagi gaplar qatnashgan matn yoki hikoya tuzish mumkin: Anhor suvlari guvillab oqmoqda. Oyim suvga sakrama dedilar.

Shu singari gaplar tuzib bo'lingach, o'quvchilar bilan quyidagi savollar asosida suhbat o'tkazish mumkin:

1. Fe'l deb nimaga aytiladi? Fe'lning so'rog'ini ayting?
2. Gapdan fe'llarni toping?
3. Ularga so'roq bering.
4. Qo'shimchalarni ko'rsating. Ular qanday qo'shimchalar?
5. Qo'shimchalar ishtirokida so'z tuzing.
6. So'zlar yordamida gaplar tuzing.



Savollar shu tarzda davom etishi mumkin. O'quvchilarga rasmlar asosida gap tuzdirish ularning nutqini ham o'stiradi. Savollarga javob berish orqali esa grammatik bilimlari ham mustahkamlanadi.

## XX ASRGACHA O'RTA OSIYO MADRASALARIDA MATEMATIKA FANINING O'QITILISHI

L.A.Muydinov ADU BTM kafedrası o'qituvchisi  
F.S. Xakimov Asaka tumani 16–umumiy o'rta ta'lim  
maktabi matematika o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Maskur maqolada O'rta Osiyo madrasalarida matematika fanining o'qitilishini o'rganish orqali hozrgi zamon matematika darslarida yuksak natijalarga erishishga bag'ishlangan

**Kalit so'zlari.** Madrasa, Matematika, Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg'oniy, Ali Qushchi, Al-Koshiy, Ibn Sino, Ulug'bek, tibbiyot, geografiya, astronomiya, induksiya va deduksiya.

Matematika fani qadimiy va doimiy navqiron fandir. U kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Hozirgi kunda biron bir soha yo'qki, unga matematika kirib bormagan bo'lsin. Matematikaning bu darajada yuksalib borayotganligida, albatta, o'tmish ajdodlarimizning, shu jumladan Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg'oniy, Ali Qushchi, Al-Koshiy, Ibn Sino, Ulug'bek va x.k. larning ham xizmatlari buyuk ekanli'ini e'tirof etamiz. Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilmiy boyliklar, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan asrab avaylanib, saqlanib o'rganilib kelinayotganligini kelajagimiz vorislari bo'lgan o'quvchilarimizga ham aytish, allomalarning ilmiy meroslari bilan ularni muntazam tanishtirib borishimiz shartdir. Zero, A.Kasiriy aytganidek, -*“Moziyga qaytib ish ko'rishlik xayrlikdir”*.

Matematika fanining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoq davrlarga borib qadalsa, ushbu fanni o'rganish, uni o'qitilish tarixi ham shu qadar uzoqdir. XV asrdan XX asrgacha O'rta Osiyo hududi madrasalarida matematikani o'qitish qanday amalga oshirilgan? Bu savolga S.A.Axmedovning —O'rta Osiyoda matematika tarakkiyoti va uni o'qitish tarixidan (“O'qituvchi”- 1977 y) nomli kitobida ma'lum darajada javob berilgan. Unda keltirilishicha Madrasa o'sha davrning oliy diniy maktabi hisoblangan. Madrasada diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham berilgan ekan. Madrasada, qat'iy dastur va o'quv rejasi bo'lmasada, mavzular uzoq yillik tartib asosida o'qitilgan. Unda arab tili grammatikasi, arab tilidagi diniy kitoblar, tibbiyot, geografiya, astronomiya va xisob nomi bilan arifmetika, algebra hamda geometriya ham o'qitilgan. O'rta asr sharq matematiklarining ilmiy asarlari takomillashgan ko'rinishida madrasada dastur (o'quv-reja) tariqasida qo'llanilgan. Masalan, Xorazmiy o'zining asarlarida sonlarni yozishning o'nli sistemasini bayon etgandan keyin sonlarni ikkilantirish va yarimlatishdan boshlab, ildiz chiqarish amali bilan tugatgan bo'lsa, madrasada ham shu tartibda o'qitilgan. Qolgan mavzular ham Xorazmiy va undan keyingi o'rta asr matematiklari yozgan asarlar tartibida bayon etilgan. Madrasalarda matematikaning o'qitilishi keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan. Madrasada o'qitilgan matematikaning oxirgi qismi arifmetika, algebra va geometriya fanlarini amaliyotda tatbiq qiluvchi katta xajmda —Meros taqsim qilishdan iborat bo'lib, bu o'rta asr sharq matematiklarining asarlari asosida tuzilgan, shariat normalariga qarab, merosxo'rlar o'rtasida mulkni taqsimlashga doir turlicha nomlar bilan aniq xarakterdagi murakkab masalalar hal qilinadi. Madrasada matematika o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri meros taqsimlashning ilmiy va amaliy nazariyasini biluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir, bunday mutaxassis —Faroziyxonl (Meros bo'luvchi) nomi bilan ataladi. Tayyorlangan faroziyxonlar mahalliy sud (qozixona) organlarida meros taqsimlash bilan shug'ullangan.

O'z davrida oliy tipdagi o'quv yurti hisoblangan madrasada matematika o'qitish formasi, asosan, dars bo'lgan. O'qituvchi talabalarga yangi mavzuni bayon etgandan so'ng, ularga shu mavzu yuzasidan Madrasa xujrasida ma'lum muddatga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Uning bajarilganligi o'qituvchi tomonidan tekshirilib, baho qo'yiladi, so'ngra yangi mavzu o'tiladi. Mustaqil ishlar ko'proq amaliy xarakterga ega bo'lib, talabalar uchun zerikarli: va ularning ko'p vaqtini olgan. Masalan, birni ketma-ket ikkilantirish bilan 264 gacha davom ettirib, buning teskarisi 264 dan boshlab ketma-ket yarimlanishni bir chiqquncha davom ettiriladi. Yoki, 20 va undan ortiq xonali sonlardan aniq va taqribiy (ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va istalgan ko'rsatkichli) ildiz chiqarishga doir juda ko'p miqdorda misollar yechiladi.

Matematika o'quvchilarda iroda, diqqatni to'plab olishni, qobiliyat va faollikni, tasavvurini, shaxsning axloqiy sifatlarini (qat'iyatli, aniq maqsadga intilish, ijodkor, mustaqil, ma'suliyatli, mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikrlash) hamda o'zining qarash va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Matematikani o'rganish jarayonida inson tafakkurining usul va metodlari qatoriga induksiya va deduktsiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, analiz va sintez, abstraktsiyalash, analogiya, tasniflash va sistemalashtirish kabilar qo'shiladi. Matematikani o'rganishda o'quvchilar o'zlarining fikr, mulohazalarini aniq va tugal, lo'nda va mazmunli bayon qilishga, matematik yozuvlarni tushunarli, batartib, bajarish malakalarini egallaydilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil.
2. Farberman V. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil.

### O'QUVCHILARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIK EKSPERIMENTLARNING ROLI.

**M. Toshpo'latov matematika kafedra o'qituvchisi, ADU  
G. Nosirova Marhamat tumani XTB ga qarashli  
16-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'quv jarayonida eksperimentlarning qo'llanilishining afzalliklari va sabablari o'rganilgan. Eksperimentlarning darslarda keng qo'llanilishi o'quvchilarning o'zlashtirishini yangi bosqichga olib chiqishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Eksperiment, ta'lim jarayoni, muammoli ta'lim, gipoteza.

Ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar ta'lim sifati samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Ta'lim sifatini oshirishda yangicha dars o'tish usullarini joriy qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish, pedagoglarning bugungi kun talablariga to'la javob berishi eng muhim jihatlar bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf davri-bu bolani boshlang'ich bilimlarini rivojlantirishni eng qulay vaqti hisoblanadi. Chunki bola bu paytda berilgan bilimlarni juda yaxshi o'zlashtiradi. Uning sezgi va hislari o'tkir, hayollari faol va qiziquvchan bo'ladi.

Ba'zi bolalarning intellektual passivligining asosiy sababi uning cheklangan tasavvurlari va qiziqishlariga asoslanadi. Misol uchun ular matematikadan berilgan eng oddiy o'quv vazifasini bajara olmay qolishi ham mumkin. Lekin berilgan vazifa amaliy faoliyat yoki o'yinga aylantirilsa u tezda bajariladi. Shu munosabatdan o'quv jarayonida eksperimental faoliyat ya'ni tajribalardan keng foydalanish yaxshi natijalar taqdim qilishi mumkin. Tajriba faoliyati boshlang'ich sinflar yoshidagi o'quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirishda yordam beradi.

Matematika darslarida eksperimentlarning keng qo'llanilishi bolalarning matematik tasavvurlarini kengaytirishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Matematika fanida eksperiment birmuncha tor tushunchaday ko'rinishi mumkin. Eksperimentlar matematikada juda kam qo'llaniladi. Informatika fanining rivojlanib ravnaq topib borishi natijasida kompyuter eksperimentlaridan foydalanish imkoniyati ortib bormoqda.

Eksperimentga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ma'lum bir muammoni o'rganishda kutilayotgan maqsadlarga yetaklovchi, ularni to'g'ri yoki noto'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatuvchi tajriba. Eksperiment quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'rganish obyektini tanlash, zarur sharoitlarni yaratish, kuzatish va tahlil qilish.

Eksperimental faoliyat davomida boshlang'ich sinf o'quvchisi kuzatishni, predmetlarni solishtirishni, savollarga javob berishni, xulosa chiqarishni va sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishni o'rganadi. O'quvchining aqliy salohiyatini rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud, ammo eksperimental faoliyat shubhasiz eng samarali usul hisoblanadi.

Eksperiment-boshlang'ich sinf davridagi yetakchi faoliyat kasb etishi lozim. O'quvchining yangi taasurotlarga bo'lgan ehtiyoji fanni tushunishga qaratilgan eksperimental faoliyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonidagi eksperimentni quyidagicha ta'riflash ham mumkin. Bolaga o'z kuzatuvlari, tajribalari, o'zaro bog'liqlik, naqsh va hokazolar asosida uning ongida fanni modellashtirishga imkon beradigan o'rganish usuli hisoblanadi.

Bolalar eksperimentining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu birinchi navbatda majburiyatdan ozodlik hisoblanadi. Eksperiment davomiyligini qat'iy tartibga solish mumkin emas. Shu bilan bir qatorda bolalar o'rtasidagi individual tafovutlarni ham hisobga olish zarur. Eksperiment natijalarini belgilash ham me'yorida bo'lishi zarur, bolaning xato qilish huquqini inobatga olish va ayniqsa hali ko'nikmalari rivojlanmagan ishlarga jalb etishda tegishli usullarni qo'llash lozim.

Har qanday yoshda ham o'qituvchining yetakchilik roli saqlanib qolaveradi. Busiz tajribalar xulosalar bilan to'ldirilmagan va kognitiv ahamiyatga ega bo'lmagan obyektlarni maqsadsiz boshqarishga aylanib qolgan bo'lar edi. O'qituvchi bolalar bilan ishlayotganda hayot va o'qish o'rtasidagi aniq bir chiziqni chizmaslikka harakat qilishi zarur, chunki eksperiment tajriba o'z-o'zidan emas, balki ular o'zlashtirayotgan fan orqali dunyo bilan tanishish usulidir. Agar bolalar tajriba-tadqiqot jarayonlarini tuzilishini kuzatib borsak u yoshi katta izlanuvchi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar singari quyidagi aniq bosqichlarni o'z ichiga olganligini ko'rish mumkin.

1. Muammolarni ajratish.
2. Gipoteza
3. Mumkin bo'lgan yechimlarni izlash va taklif qilish
4. Material to'plash
5. Ma'lumotlarni umumlashtirish.

Boshlang'ich sinf kursida matematika haqli ravishda salmoqli o'rinni egallaydi. Matematika fani mantiqni o'rgatadi, bolaning ongiga ijobiy tomondan ta'sir qiladi, fikrlash imkoniyatlarini o'stiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisini atrof-muhit haqida fikrlari va matematika faniga qiziqishi juda kuchli bo'ladi. Asta-sekin obyektlar, ularning maqsadi, xususiyatlari, hajmi, soni haqida; obyektlar bilan bajarilishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida g'oyalar shakllantiriladi, kamayadi, bo'linadi, hisoblanadi, o'lchanadi.

Bola eksperimental jarayonni obyektlarini eshitadi, ko'radi va o'zi bajaradi. Bu bolalar eksperimentlarini amaliyotda ko'proq qo'llash uchun asosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Пуанкаре.А. О науке – М.: Физматлит,1983.
2. Falsafa asoslari. ( Tuzuvchi va mas'ul muharrir: Q. Nazarov)-Toshkent., «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
3. Громаковская.Л.А. Экспериментальная математика как одно из средств развития потребности в логическом доказательстве, Труды ПГУ. Математика, 2002, выпуск 9, 54-61

## ONA TILI O'QITISH METODIKASINING ASOSIY O'RGANISH OBYEKTI

M.Bekiyeva  
mustaqil tadqiqotchi, ADTI

*Annotatsiya.* Maqolada til o'qitish metodikasi va uning asosiy o'rganish obyekti, tamoyillari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** metodika, xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish, predmeti va vazifasi

Boshlang'ich ta'lim barcha ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi: bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi. Shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi. Shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik fan, amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni o'qish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordami-dagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbiquan (muvofiq ravishda) o'rgatadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Львов, М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах [Текст]: учебное пособие для студ. Учреждений высш. Проф. образования/ М.Р. Львов, В.Г. Горещкий, О.В. Сосновская. – 8-е изд., стер. – М.: Академия, 2013.с-8.

2. Ciliberti A Grammatica, pedagogia, discorso, Firenze:La Nuova Italia, 1991.

#### **GEOMETRIK SHAKLLARNI BOSHLANG'ICH SINFLARGA O'RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI AHAMYATI**

**R. Kazimirova ADU o'qituvchisi,  
O.Salimboyeva ADU 2-kurs talabasi.**

Maqolada geometrik shakllarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda duch keladigan qiyinchiliklarni axborot texnologiyalari orqali bartaraf etish to'g'risida tavsiyalar va takliflar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** geometrik shakllar, axborot texnologiyalari, bevosita isbotlash, boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish.

The article contains recommendations and suggestions on how to overcome the difficulties encountered in teaching geometric shapes to primary school students through the use of information technology.

**Keywords:** geometric shapes, information technology, direct proof, formation of basic concepts

Статья содержит рекомендации и предложения о том, как преодолеть трудности, возникающие при обучении геометрических фигур ученикам начальной школы с помощью информационных технологий.


**Ключевые слова:** геометрические фигуры, информационные технологии, прямое доказательство, формирование базовых понятий.

Geometrik shakllarni boshlang'ich sinflarda o'rgatish o'quvchilarni boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish asosiy o'rin tutadi. Biroq boshlang'ich sinflarga geometrik shakllarni o'rgatishda o'qituvchilarga va boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda boshlang'ich sinflarda geometrik shakllarni axborot texnologiyalari yordamida tushuntirishni yo'lga qo'yish kerak va bu o'qituvchiga bir muncha qulayliklarni tug'diradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllar haqida ma'lumot berish va ularni hayotiyat misollar bilan o'rgatish kerak.


Shuningdek geometrik shakllarni o'rgatishda bir muncha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Xulosani quydagi uchta usul bilan isbotlash mumkin.

- aytilgan fikrning xulosa ekanligini bevosita isbotlash;
- xuddi shunday xulosani isbotlash;
- maxsus munosabatlarni isbotlash;

Axborot texnologiyalari yordamida o`quvchilarga tushuntirish va ularning farqiga boorishni o`rgatish kerak. Masalan Kvadrat va to`g`ri to`rtburchak shakllarini bir biridan farqini axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan har xil audio va rasmlar orqali tushuntirish o`quvchilarni tezda shakllarni o`rganib olishda qo`l keladi.



**Kvadrat**



**To`g`ri to`rtburchak**

Geometrik shakllarni o`rgatishda uchta bosqichga ajratish mumkin: kirish, o`zlashtirish, mustahkamlash.

Kirish bosqichdan shunday holat yaratiladiki, unda yoki o`quvchilarning o`zlari geometrik shakllarni o`rganadilar yoki uni tushunishga tayyorgarlik ko`radilar.

Geometrik shakllarni misollar orqali yechishda qo`llash. Agar misollar o`rganilayotgan ta`rif va qonunlarga asoslangan holda yechilsa u holda yangi materialni ongli tushinishga erishiladi, mustahkam ko`nikma va malakalar shakllanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ikromov J. Geometrik isbotlash metodlari. O`qituvchi, Toshkent. 1970.
2. Mirzayev Ch. O`rta va o`rta maxsus o`quv yurtlarida matematika o`qitish metodikasi muommolari. Guliston, 2006.
3. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi: oliy o`quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2005.

### **БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ САВОД ЎРГАТИШГА КАСБИЙ-МЕТОДИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ Н.Нормуродова – Термиз давлат университети ўқитувчиси**

**Аннотация:** Мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг савод ўргатишга касбий-методик компетентлигини ривожлантириш масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** компетентлик, универсал компетентлик, махсус компетентлик, савод ўргатиш.

Компетенция – инсоннинг касбий ва касбий бўлмаган фаолиятининг муайян вазифаларини унинг ички ва ташқи ресурслардан фойдаланиш асосида ечишга тайёргарлигида ифодаланувчи таълим натижаси.

Касбий компетенция – мутахассиснинг маълум касбий вазифаларни ички ва ташқи ресурслардан фойдаланиши асосида амалга оширишга тайёргарлигида ифодаланувчи касб таълими натижаси.

Махсус компетенция – маълум мутахассиснинг касбий фаолиятининг функционал ўзига хослигини тавсифловчи касбий компетенция кўриниши.

Махсус компетенциялар бошланғич синф ўқитувчисини бошқа педагоглардан фарқлайди ва кўшимча ўрганишни талаб этади. Биз унинг мазмунини қуйидагича белгиладик:

а) фанга оид компетенция – бошланғич таълим курси мазмунининг илмий асосларига оид билимларини қўллашга тайёрлик, ўқув фанига ижобий муносабат, ўқув материали мазмуни билан ўзаро алоқадорликда зарур ҳажмдаги махсус атамаларни онгли эгаллаганлик, фан бўйича илмий ахборотни тушуниш ва тизимлаштириш малакаси; ўқув фани мазмунини ўқувчиларнинг имкониятларига мослаштириш малакаси.

б) методик компетенция – ўқув фани бўйича ўқув материални режалаштириш, танлаш, синтезлаш ва куришга тайёрлик, ўқув фани бўйича машғулотларнинг турли шакллари ташкил этишга тайёрлик, таълим олишга фаолиятли ёндашувларни амалга

оширишга тайёрлик ва бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув ишларини ташкил этиш малакаси, ўқитишнинг инновацион технологияларини қўллашга тайёрлик, ўқитишнинг соғлиқни сақлаш технологияларини малакали қўллаш.

Бошланғич синф ўқитувчисининг кўплаб турли хил ўқув фанларини ўқитишни (она тили, математика, табиатшунослик, технология, жисмоний тарбия...) камраб олган педагогик фаолияти хусусиятининг таҳлили асосида фанга оид ва методик компетенциялардан ташкил топган бошланғич синф ўқитувчиси махсус компетенцияларининг умумий структураси таклиф этилди.

Бошланғич синф ўқитувчиси махсус компетенцияларининг умумий структураси куйидагича изоҳланади. Бошланғич синф ўқитувчиси касбий компетентлигининг таклиф этилган структураси талабанинг бўлажак касбий фаолияти тўғрисидаги ифодали ва мақсадга мувофиқ тасаввурини ҳосил қилиш ва унга касбий тайёргарликнинг самарали технологияларини лойиҳалаш учун асос бўлиб хизмат қилиши керак.

Мазкур компетенцияларнинг аҳамиятини ошириш ва мазмунини ўзгартириш умумижтимой ва педагогик характердаги омилларнинг мажмуи билан боғлиқ, жумладан: аҳолининг оммавий компьютердан фойдаланиши катта инсонлар ва айниқса ёш авлоднинг босма ташувчилардаги ахборотлардан фойдаланишдан электрон ташувчилардаги ахборотлардан кўпроқ фойдаланишга қайта йўналганликларига олиб келди. Компьютер яқин йилларда телевизордан кўра ҳам кўпроқ китобни четга чиқарди, клавиатурада ишлаш эса – ёзувни ҳам четлаштирди. Кичик ёш давриданок компьютерга одатланган болалар ёзма нутқ ва ёзув техникасини ривожлантиришда катта қийинчиликларни ҳис этадилар;

Демак, инсоннинг лингвистик компетенцияларига, жумладан унинг ёзма нутқига талабларнинг ортиши ва уни бошланғич таълимда сифатли ривожлантириш имкониятларининг пасайиши ўртасидаги зиддиятлар яққол намоён бўлмоқда. Бу бошланғич синф ўқитувчиси касбий компетентлигининг умумий структурасида биринчи синф ўқувчиларини ёзувга ўргатишни таъминловчи махсус компетенцияларнинг устувор аҳамиятини ифодалайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. -М.: Просвещение, 1990. - 139 с.
2. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя: Монография. - Красноярск: Красноярский гос. ун-т, 1998. - 309 с.
3. Адольф В.А. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя // Педагогика, 1998, № 1. - С. 72-75.

## **THE COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PROVERBS**

**D.A. Qodirova, master student, KSPI**

The article is dedicated to the analyzing comparativeness to the study of proverbs and develop criteria for distinguishing different types of proverbs used in English, Russian and Uzbek languages.

Статья посвящена анализу сравнительности изучения пословиц и разработке критериев различения пословиц разных типов, используемых в английском, русском и узбекском языках.

Maqola maqollarni o'rganishda qiyosiy solishtirishga va ingliz, rus va o'zbek tillarida ishlatiladigan turli xil maqollar turlarini ajratish mezonlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Proverbs and sayings have been passed from generation to generation primarily by word of mouth. Nevertheless, there are many sources of proverbs and sayings appearing. To become a proverb the saying must be popular and well known among the society. When a saying starts to be a proverb it becomes the part of common mind.

When speaking about the systems of English, Russian and Uzbek proverbs it becomes clear that they are essentially distinct, because they developed under different historic, social and economic conditions. We can say that they differ in the same way as the circumstances of development of the three countries: from their geographical positions and climate to the differences in their national characters, tempers, mentality and the languages themselves, in which these discrepancies are reflected.

In translation of English proverbs into Russian or Uzbek we should pay attention to the meaning of the proverb in general and shouldn't always translate them literally. It is also important to remember that in different languages people use different images for the expression of the same or similar thoughts. For example, the well-known proverb "Every man to his taste". The literal translation of this proverb is "У всякого свой вкус" and the Russian equivalent of this proverb is "На вкус и цвет товарищей нет" and Uzbek equivalent is "Har kimning didi boshqa, har gulning hidi". One more example is "Good clothes open all doors" (literally "Хорошая одежда открывает все двери") which corresponds to the Russian proverb "По одежке встречают, по уму провожают".

We should note that many English, Russian and Uzbek proverbs and sayings are polysemantic, which makes them very difficult for interpretation, explanation and comparison. When choosing the best Russian and Uzbek equivalents for an English proverbs we should be guided by such a criterion as correspondence at least in the main meaning of the unit.

Thus, we may divide English, Russian and Uzbek proverbs into several categories:

**Full equivalents (when English proverbs correspond completely to their Russian variants):**

1. Appearances are deceptive-Внешность обманчива; Tashqi ko'rinish aldar;
2. As you sow, shall you mow-Что посеешь, то и пожнешь; Nima eksang, shuni o'rasan;
3. Better late than never-Лучше поздно, чем никогда; Hech bo'Imagandan kech bo'lgani yaxshi;
4. Health is better than wealth-Здоровье дороже денег; Sog'lik boylikdan afzal;

**2. Partial equivalents (when English proverbs are a bit different in their meaning from Russian ones):**

1. Better an egg today than a hen tomorrow — Домашний теленок лучше заморской коровы; Keyingi quyuqdan, hozirgi o'pka yaxshi;
2. A man is known by the company he keeps-Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты; Har kimning oshnasi-o'zining oynasi;
3. Measure thrice before you cut once-Семь раз отмерь, один раз отрежь; Yetti o'lchab bir kes;
4. No pain, no gain-Без труда не вытащишь и рыбку из пруда; Toqqa chiqmasang do'lana qayda, Jon chekmasang jonona qayda;
5. Pen is mightier than the sword-Перо сильнее меча; Qalam qilichdan o'tkir;

**English proverbs which do not have corresponding variants in the Russian language and need some special search and explanation:**

1. Too many cooks spoil the broth — У семи нянек дитя без глаза; Qo'uchivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'lar;
2. After meat mustard-После драки кулаками не машут; Hayitdan keyin xinani ketingga qo'y;
3. All tarred with the same brush-Одним мирром мазаны; Oq it, qora it, bari bir it;
4. Every dog has his day-Будет и нашей улице праздник; Omadi kelsa, sichqon filni yengadi;
5. The grass is always greener on the other side of the fence-Хорошо там, где нас нет; Qo'shning tovug'i g'oz ko'rinar, Kelinchagi-qiz;

The comparison of English, Russian and Uzbek proverbs and sayings has shown that people of these countries have much in common but at the same time there are some peculiarities



in the perception and further translation of one and the same proverb. In order to understand English proverbs it is better to study their meaning with the use of examples. The language without proverbs and sayings would be dull and unexpressive. Proverbs are the part of any culture and it is very interesting to translate them because in different languages proverbs and sayings have different semantic peculiarities.

#### References:

1. Karamatova K.M., Karamatov H. S. (2000), Proverbs-Maqollar-Posloviцы-Tashkent, Mehnat Press, p. 124
2. Duval, J. (1996) "Proverbs", Translation Review, 50:1

### **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**O'.Mamajonov, M.Nasriddinov ADU o'qituvchilari**

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlar muhim ahamiyatga ega: o'yin orqali o'qitish jiddiy tarbiya shaklidir. Mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan o'rganilgan materialni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi.

Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinflar o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa muhimdir.

Mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtai nazaridan mazmunan o'rganilgan materialni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi. Bolalarni 6-7 yoshdan o'qitishning mazmuni va usullarida muammolar yuzaga keladi. Sanoqni o'rganish, qo'shish va ayirishni birinchi bosqichda o'rgatish (yuz ichida) boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Biroq, bu yagona vazifa bo'lib qolmasdan, balki u bolalarni matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama sanoqqa tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi. U ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi: pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash va matematika yo'li ya'ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarini, eng avvalo, natural son va geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash orqali.

Bolalarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechimni taqozo etadi. Matematikani „jiddiy“ o'rganish uchun bolalarni partaga o'tqizishdan oldin balki ular bilan „matematik o'yin“ o'tkazish lozimdir.

Matematik tayyorgarlikda didaktik o'yinlardan foydalaniladi, biroq bu o'yinlar, birinchidan, mantiqiy va matematik mazmun bilan boyitilgan bo'lmog'i, ikkinchidan, ular mashg'ulotning o'zida emas, balki undan oldin yoki keyin o'tkazilishi lozim.

Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, „Doiraviy misollar“ o'yinida hamma bolalar masala yechadi, „Zanjircha“da 10, „Do'koncha“da 8-12 bola, „Narvoncha“da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar vositasida qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kirib necha marta taqillatganini tinglaydilar, „Eng yaxshi hisobchi“, „Kim aniqroq va tezroq?“ o'yinlarida o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

O'yin bolalarni bir-biriga juda ham yaqinlashtirib yuboradi va ularda o'yinga bo'lgan qiziqish ortib boradi. O'qituvchi esa o'yin jarayonida bolalar xotirasi qanchalik taraqqiy etganligini, kimda eslab qolish xotirasi o'sgan yoki o'smaganligini aniqlab olishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N. U. Bikbayeva, R. I. Sidelnikova, G. A. Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., „O'qituvchi“, 1996.

2. M.E.Jumayev matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T...O'qituvchi 2004.

#### **PAYT MA'NOLI SO'ZLAR HAQIDA (TAFSIRI HILOL MISOLIDA)**

**G.Shermatova,  
ADU 2-kurs magistranti**

Annotatsiya: Ushbu ishda o'zbek tilidagi Qur'oni Karim tafsiri misolida sintaktik zamon ma'nosini ifodalashda vaqt ma'noli sozlarning ahamiyati va tafsir mazmunida temporal ma'noning ifodalanishi haqida fikr yuritilgan.

Zamon moddiy olamdagi narsa - hodisalar mavjud bo'lishining ajralmas qismi hamda inson turmush tarzi va ongining muhim tarkibiy qismidir. Shu jihati bilan borliqning universal kategoriyasi sifatida turli soha olimlarida, shu jumladan, tilshunoslarda ham doimiy qiziqish uyg'otib kelgan. Mana shu sabab hozirgacha ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib qolmoqda.

Zamonga turli fan nuqtai nazaridan berilgan ko'plab tariflar mavjud bo'lib, ular o'sha fanlar bilan bog'liq holda nomlanadi. Masalan, falsafiy zamon fizik zamon psixologik zamon sotsiologik zamon fazoviy zamon nisbiy zamon kabi.

Rus olimi N.M.Shanskiy zamoni „abadiylik, davomiylik, yo'naltirilganlik, uzluksizlik, o'ziga xoslik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan fizik-falsafiy tushuncha“<sup>4</sup> sifatida e'tirof etadi.

Tilshunoslikda ham olimlarning zamon tushunchasiga bergan ta'riflari ahamiyatlidir. Masalan, o'zbek tilshunosi A. G'ulomov o'zining „Fe'l“ nomli kitobida „grammatik zamon kategoriyasi obyektiv mavjud bo'lgan vaqt hodisasining tilda aks etish formalaridan biridir“<sup>5</sup> deya ta'rif beradi.

Tilimizda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik, fonetik kabi ifoda tizimlariga ega temporal maydon mavjud. Vaqtning sintaktik sathda ifodalanishida tarkibida temporal semantikaga ega bo'lgan leksik va morfologik vositalar ishtirok etadi. Masalan: kun, vaqt, payt, on, chog', muddat, lahza, avval, so'ng, ora, burun, ilgari, keyin, sayin, sari, oxirat kabi. Bu vositalarni birqancha turlarga ajratish mumkin. Shulardan biri turkumlar bo'yichadir. Payt bildiruvchi mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar. Mustaqil so'zlar: otlar (on, lahza, kecha, kun, tun, muddat, muhlat), ravishlar (oldin, so'ng, keyin, yaqinda, tezda, endi, hozir, hamisha, doim), sifatlar (doimgi, hozirgi, boqiy, foniy), olmoshlar (qachonki, qachon, o'shanda, shunda), fe'llar (kutmoq, ibodat qilmoq); yordamchi so'zlar: ko'makchilar,(so'ng, oldin, burun, bo'yi, sayin, sari, qadar, bilan, muqaddam, ora), yuklamalar (-u, -yu, -da, -oq, -yoq,), bog'lovchilar( goh...,goh; dam...,dam; ba'zan..., ba'zan) Ushbu vosita va sintaktik omillar asosida gaplarga yaxlit tarzda xos bo'lgan bir vaqtlilik (on, payt, lahza, chog', vaqt), ketma-ketlik, bir gap (ergash gap) semantikasi asosida boshqa gap (bosh gap) hodisasi (Har qachon bir ummatga Payg'ambari kelsa, uni yolg'onchi qildilar. Tafsiri Hilol. 4-juz Mu'minun surasi 44-oyat. 75-bet.) bajarilish vaqtining belgilanishi kabi sintaktik vaqtlar shakllanadi.

Zamonning universal kategoriya ekanini ta'kidlagan edik shu jihatdan olsak dunyoviy zamon (maishiy zamon) va diniy zamon (muqaddas zamon) tushunchalari ham mavjud. Har ikki zamon yushunchasi tilda o'z aksini topadi. Dunyoviy zamon va abadiylik turli dunyolarga tegishli

<sup>4</sup>Shanskiy N.M. Etimologicheskiy slovar russkogo yazika. V2 -XT.,T.1,vip.3.-M.1965-s.212

<sup>5</sup> G'ulomov.A. Fe'l. Fan. Toshkent. 1984. 19-bet

bo'lgani holda maishiy zamon va muqaddas zamon tilda semantik jihatdan farqlanadi. Masalan, Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi tafsiridan olingan quyidagi misolga e'tibor qarataylik:” Biz har ummatning oyatlarimizni yolg'onga chiqarganlaridan bir guruhini to'plagan kunda ular jamlanib tizilishib turishar (Tafsiri Hilol 4-juz. Naml surasi 83-oyat 355-bet).

Kun so'zi vaqtning sintaktik sathdagi ifodalanishiga xizmat qilayotgan temporal semantikaga ega leksik birlik bo'lib aslida maishiy zamoni ifodalaydi. Biroq shuni ham aytish kerakki bu so'z ma'no taraqqiyoti tufayli muqaddas zamoni ham anglatadi. Yurtim senga she'r bitdim bu kun. Ushbu misolda kun so'zi dunyoviy zamon ma'nosini bildirib aniq paytni ifodalagan. Yuqoridagi tafsirdan olingan misolda esa noaniq payt ma'nosi ifodalangan. Kun so'zi muqaddas zamon ma'nosida kelganda, odatda, noaniq payt ma'nosida bo'ladi. Ya'ni kun so'zining qiyomat kuni ma'nosida ishlatilayotganiga e'tibor qilsak bu kunning bo'lishligi aniq lekin qachon ekanligi noaniq. Shu jihatdan olsak bu so'zning muqaddaslik ma'nosi e'tibori bilan noaniq zamoni anglatadi deyishimiz mumkin. Qur'oni Karim tafsiridagi muqaddas zamon haqida fikr yuritarkanmiz, alohida kundalik, dunyoviy zamon, undan ayrilish va muqaddas, abadiy zamonga o'tishni ifodalaydigan ko'plab so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: kun, soat, yaqinda, yil, vaqt, oldin, endi, tezda, kechasi, muhlat, tun, hayot, payt kabi. Bundan tashqari tafsirda zamon kategoriyasini ifodalovchi so'zlar orasida o'ziga xos muqaddaslik semasiga ega bo'lgan azon, bomdod, peshin, asr, shom, xufton, idda, ramazon, xaj, ro'za, qiyomat, oxirat kabi so'zlar ham borki bu so'zlar uning markerlovchi belgilari sifatida xizmat qiladi .

Tafsirda qayd qilingan zamonga oid tushunchalar diniy amallarni bajarish vaqti sifatida kishilar ongida o'ziga xos muqaddaslik mazmunini ifoda etadi. O'zbek tilidagi vaqt bildiruvchi so'zlarda o'tmish (azal, ibtido), hozir, kelajak (g'ayb, kun, soat, oxirat, qiyomat), doimiylik (sabr, ibodat), davomiylik (sabr, hayot), qaytmaslik ( g'animat, umr), uzluksizlik (hamisha, doim, har vaqt), o'lchanuvchan (muddat, muhlat), galma-gallik (tug'ilish, voyaga yetish, kamolga yetish).

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORFOGRAFIK MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH**

**G. Q. Isakova – ADU magistranti**

*Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida orfografik malakalarni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish xususida fikr yuritilgan, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali o'quvchilar savodxonligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.*

*Kalit so'zlar: orfografiya, imlo qoidalari, orfografik malaka, imloviy hushyorlik, bilish faolligi.*

“Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tilini o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- 1.Savod o'rgatish, nutq o'stirish.
- 2.Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.”{1}

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi: Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad bolalarning og'zaki va yozma nutqini, tafakkurini va qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirishdan beriladigan boshlang'ich ma'lumotlar o'rta maktablarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot sistematik kurslarining

materiallari bilan organik bog‘lanadi va o‘zbek tilining turli tomonlariga taalluqli keng tushunchalarini qamrab oladi.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda fonetik, leksik, grammatik, sintaktik tushunchalar bilan bir qatorda ayrim to‘g‘ri yozuv qoidalari bilan tanishadilar.

Ona tili o‘qitish metodikasi fanida orfografik (imloviy) malaka hosil qilishning asosiy tamoyillari sanab berilgan. Tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda orfografik malaka hosil qilishda o‘qituvchi muayyan tamoyillarga amal qilsagina, o‘quvchilarda orfografik hushyorlik yetarli darajada shakllanadi.

Orfografiya tilimizdagi so‘zlarning yozilish shaklini belgilab beradi. Tilimizdagi ko‘pgina so‘zlarning yozma shakli ularning talaffuziga mos keladi: suv, non, ota, ona, opa, uka, vatan, mamlakat, madaniyat kabi. Demak, boshlang‘ich sinflardan boshlab orfografik malaka hosil qilish uchun bolalarni, avvalo, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish lozim. So‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi har vaqt ham ularning yozma shakliga mos kelavermaydi. Buning uchun so‘zlarning yozma shaklini, yozuvdagi har xil belgilarning talaffuzdagi o‘rnini bolalarga puxta singdirib borish talab qilinadi. Masalan, qattiq va qatiq, yalla va yala, qal‘a va qala, sur‘at va surat kabi so‘zlarni bolalarga qiyoslab ko‘rsatish, ularning leksik (lug‘viy) ma’nosidagi farqlarni bolalarga tushuntirib borish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish lozim. Biroq bolada hosil bo‘lishi zarur bo‘lgan orfografik malaka birgina talaffuz vositasidagina shakllanmaydi. O‘zbek tilidagi ko‘pgina so‘zlarning imlosi qabul qilingan amaldagi orfografik qoidalarga bog‘liqdir.

Ma’lum bir so‘zning imlosini bolalarga singdirish uchun shu so‘zning imlo qoidalarini bolalarga o‘rgatish, bu qoida yuzasidan turli mashqlar ishlash yo‘li bilan orfografik malaka hosil qilinadi. Chunonchi, boshlang‘ich sinflarda egalik qo‘shimchalari (- **im**, -**ing**, -**i** kabilar) ning imlosini o‘rgatish uchun, avvalo, so‘z o‘zagini va o‘zak tarkibidagi tovush ( harf ) bilan bolani tanishtirish zarur. So‘ng o‘zak oxiridagi harfga bolaning diqqati tortilib, unga o‘zak –k yoki -q undoshi bilan tugasa, o‘zak tarkibidagi –q **g** ga (qishloq+im - qishlog‘im, o‘rtoq+im - o‘rtog‘im); **k** undoshi bilan tugasa, **g** ga (ertak+im - ertagim) aylanishi va shunday yozilishi uqtiriladi. Lekin bu holat hamma so‘zlarga taalluqli emasligi (o‘q+i - o‘qi, miltiqning o‘qi, nok+imiz – nokimiz, nokimiz pishdi) ham uqtirib o‘tladi.

Shu bir qoida bilan so‘zlarning egalik qo‘shimchalarida turlanishi bolalarga singdiriladi. Egalik qo‘shimchalari imlosini o‘rgatish uchun yuqoridagi imlo qoidani puxta o‘zlashtirib olish va bu yuzasidan turli mashqlar, ta’limiy o‘yinlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek ilida shunday so‘zlar ham borki, ularning imlosini biror orfografik qoidaga ham, to‘g‘ri talaffuzga ham bog‘lab bo‘lmaydi. Bunday so‘zlarni bolalar turlicha talaffuz qiladilar. Faol lug‘atimizda uchraydigan *mehnat, ham, maqsad, soat, xalq, savol, javob, ozod* kabi so‘zlarni yozishda bolalar turli orfografik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Aslida esa bu so‘zlarni bola yillar davomida bir necha marta ishlatgan va yozma mashq qilgan bo‘ladi. Bu xil so‘zlar imlosini o‘rgatishda bolalarning ko‘ruv sezgisiga suyanish hamda ularda imloviy hushyorlikka e’tiborni tarbiyalash, bilish faolligini ta’minlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo‘l polygraph service”, 2010. 16-bet.
2. Qosimova K va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T.: “Noshir”, 2009.

## **ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISH**

**S.Nazarova – ADU magistranti**

*Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik tahlil ustida ishlash xususida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida lingvistik tahlil usullarini qo‘llashning o‘quvchilar savodxonligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.*

*Kalit so‘zlar: lingvistik tahlil, grammatik-orfografik tahlil, fonetik-orfografik tahlil, morfologik-orfografik tahlil, leksik-orfografik tahlil*

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik tahlil turlaridan foydalanish o'quvchilarning tilga oid bilimlarni egallashlarida muhim hisoblanadi. Lingvistik tahlilni boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladigan orfografik mashqlarning quyidagi turlari misolida o'tkazish mumkin: *grammatik-orfografik tahlil, ko'chirib yozuv, diktantlar, leksik-grammatik tahlil, bayonlar* kiradi.

Grammatik-orfografik tahlil quyidagicha guruhlanadi:

**1. Fonetik-orfografik tahlil**

**2. Morfologik-orfografik tahlil**

**3. Leksik-orfografik tahlil**

**Fonetik-orfografik tahlil** oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

➤ Aytilishi va yozilishida farqlanadigan tovush va harflarni belgilash ("Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularni harflar bilan ifodalash" mavzusi). *Dil – til, gul – kul, ziyrak – siyrak, joy – choy, bol – pol.*

➤ Aytilishida tushib qoladigan undosh tovush va harflarni belgilash ("Aytilishda tushib qoladigan undoshlar" mavzusi"). *Toshkent, Samarqand, do'st, rost, past, sust, xursand, go'sht*

➤ Qo'sh undoshlarni belgilash ("Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar" mavzusi). *Tilla, katta, hassa, jizza, ikki, yetti, gramm.*

➤ Qator undoshlarni belgilash ("Ketma-ket kelgan har xil undoshlar" mavzusi). *Samarqand, do'st, rost, past, sust, xursand, go'sht*

➤ Tutuq belgili so'zlar imlosi bo'yicha orfografik tahlil:

*A'lo: 3 ta harf, 3 ta tovush, 2 bo'g'in, 1 ta belgi.*

*Sa'va: 4 ta harf, 4 ta tovush, 2 bo'g'in, 1 ta belgi.*

➤ Ayrim harf birikmali so'zlar imlosi bo'yicha orfografik tahlil:

*Mosh – 2 ta harf, 1 ta harfiy birikma, 3 ta tovush (m, o, sh).*

**Morfologik-orfografik tahlil** o'zak va qo'shimchalardagi o'zgarishlarni aniq belgilab beradi. Bu tahlil yordamida o'quvchilar o'zakka qo'shilgan qo'shimchalar qo'shilishi natijasida so'zning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi farqlarni ongli ravishda tushunib oladilar.

O'quvchilar ayrim fe'l o'zaklariga (3-sinf. "**Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar**" mavzusi) bo'lishsiz fe'l yasovchi –ma qo'shimchasi qo'shilganda, bormadi fe'lini bomadi, kelmadi fe'lini kemadi, somadi, omadi, temadi tarzida aytishadi va shunday yozib qo'yishadi. Shuning uchun bunday so'zlarni quyidagicha morfologik-orfografik tahlil qildirib borish yaxshi samara beradi.

*Olmadi: Ol – o'zak; -ma – bo'lishsizlik shaklini yasovchi qo'shimcha; -di – qo'shimcha.*

Morfologik-orfografik tahlil (4-sinf. "**Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi**" mavzusi) namunasi: *O'rtog'im – o'rtoq –im – q – g'; yuragim – yurak –im – k – g.*

Yuqoridagi so'zlarda otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, o'zakdagi jarangsiz undoshlarning jaranglilashishi kuzatildi. Bu jaranglilashish faqat og'zaki talaffuzda emas, balki yozma nutqqa ham ta'sir ko'rsatadi va so'zlar fonetik tamoyil asosida yoziladi. Ayrim so'zlarda esa o'zakda unli tovushning tushib qolishi kuzatiladi. *Shahar, bag'ir, ko'ngil, singil, og'iz, burun, o'g'il* kabi so'zlarda ikkinchi bo'g'indagi a, i, u unli tovushlari tushib qoladi va bu so'zlar ham fonetik tamoyil asosida yoziladi: *shahar – shahrim, bag'ir – bag'rim, ko'ngil – ko'nglim, singil – singlim, og'iz – og'zim, burun – burnim, o'g'il – o'g'lim* kabi.

4-sinfda "Kishilik olmoshlari" va "Kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi" mavzulari asosida olmosh yuzasidan fikr yuritiladi. Men, sen kishilik olmoshlari qaratqich (-ning) va tushum (-ni) kelishigi qo'shimchalarini qabul qilganda, odatda bitta n talaffuzda ham, yozma nutqda ham tushib qoladi. Masalan: *men – meni, men – mening, sen – seni, sen – sening.*

U kishilik olmoshiga jo'nalish (-ga), o'rin-payt (-da), chiqish (-dan) kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda esa talaffuzda ham, yozma nutqda ham bitta n ortadi.

Masalan: *u – unga, u – unda, u – undan* kabi. Bu holatlar o'zbek orfografiyasi qoidalarida e'tirof etilgan. Bu qoidani o'quvchilarga o'rgatish va ularning olmosh so'z turkumi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun darslikdagi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchi o'zlashtirgan qoidani amalda tatbiq etib borsagina, u turli o'rinlarda, turli shakllarda qoidaga oid birliklarni (orfogrammalarni) ko'ra olsa va maxsus berilgan shart asosida muayyan vazifani izchil

bajarib borsagina, qoida uning xotirasidan mustahkam joy oladi. Demak, qoidani shunchaki yodlash yoki bilish kifoya qilmaydi, balki uni mashq orqali to'la o'zlashtirish, shaxsiy nutq faoliyatining tarkibiy bir elementiga aylantirish kerak.

Orfografik tahlil og'zaki va yozma ravishda o'tkaziladi. Og'zaki orfografik tahlilda imlosi mustahkamlanadigan so'zning qanday yozilishi tahlil qilinadi.

**Leksik-orfografik tahlilda to'g'ri yozish bilan bog'liq vazifalar bajariladi.**

1. Rus tili va rus tili orqali kirib kelgan so'zlarni shakily yozuv asosida yozish. Masalan, stol, stul, shkaf, stakan, kompyuter, stadion, televizor.

2. Paronim (talaffuzdosh so'zlar) sozlarni qo'llashda ularning ma'nosiga e'tibor berish orqali bir-biridan farqlash. Masalan, ahl (odamlar jamoasi) – ahil (inoq, totuv), asr (vaqt o'lchovi – 100 yil) – asir (mahbus, tutqun) kabilar.

Yozma orfografik tahlilda imlosi mustahkamlanadigan so'zlar turli belgilar va sxemalar bilan izohlanadi. Uning ahamiyati shundaki, o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalarini o'stirib boradi. Yozma orfografik tahlilning yana bir qulay tomoni shuki, o'qituvchi undan o'quvchilarning yozgan matnlarini tekshirib, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini atroflicha baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar). T.: 2017. 16-bet.

2. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Noshir", 2009.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**G. N.O'ktamova, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
boshlang'ich ta'lim metodisti**

**N.K.Isaqova, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
1-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, ona tili fanini o'qitishning maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, kitobxonlik, nutq madaniyati nutqiy kompetensiya, grammatika, boshlang'ich sinflar.

Ona tili fanini o'qitishning maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi esa o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi o'quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o'quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so'z turkumlari, ularning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

**O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan qaysi yo'nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O'quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'qituvchisidan mohirlikni, o'ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta xotiralashga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim.**

## **Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi.**

Ta'limning samaradorligini ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. "Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T. Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi bo'lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o'rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalarning aks etish jarayonidir".

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo'lib, u maktabda o'qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur qilishadi. Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma'lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo'lishini qayd qiladilar:

- 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur;
- 2) ijodiy tafakkur.

Reproduktiv tafakkur o'quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og'zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o'quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'rni kelganda reproduktiv tafakkurga, o'rni kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko'radi.

Ta'limning samaradorligi o'quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashg'ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so'z va qo'shimchalarni, gap qurilishlarini o'zaro qiyoslash; ularning o'xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so'z va qo'shimchalar ro'yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, avvalo, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ekti (faol ishlovchisi) ga aylantirishni taqozo etadi. O'quvchi ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab yetadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib hukm va xulosalar chiqara oladi. O'quvchining ta'lim jarayonining sub'ektiga aylanishi, o'qituvchini bu jarayondan chetda qoldirilmaydi, aksincha, uning ta'sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o'qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, bevosita o'quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim. Toshkent. 1999. № 4.
2. Bekmurodov A. Ta'lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. № 5.

3. G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari Toshkent, 2006.

## MATEMATIKA DARSLARIDA BILISHNING TURLARI VA XULOSA CHIQUARISH METODLAR

M.Yusupov  
TATU FF KIF talabasi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada matematika darslarida bilishning turlari va xulosa chiqarish metodlar haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** faoliyat, dastur, tasavvur, mantiqiy bilish, akslantirish, ko'pburchak, parallelogramm, kvadrat, romb, trapetsiya.

Matematika metodikasi fani matematik ta'limning maqsadi, mazmuni, formasi, uslubi va uning vositalarini dars jarayoniga tatbiqiy qonuniyatlarini o'rganib keladi. Matematika fani fizika, chizmachilik, kimyo va astronomiya, psixologiya fanlari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

Ta'lim deganda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi ongli va maqsadga tomon yo'naltirilgan bilishga doir faoliyat tushuniladi. Har qanday ta'lim o'z oldiga ikkita maqsadni qo'yadi:

- 1) o'quvchilarga dastur asosida o'rganilishi lozim bo'lgan zarur bilimlar sistemasini berish;
- 2) matematik bilimlarni berish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Ta'lim jarayonidagi ana shu ikki maqsad amalga oshishi uchun o'qituvchi har bir o'rgatilayotgan tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushuntirishi kerak. Buning natijasida o'quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi.

Bizga falsafa kursidan ma'lumki, bilish jarayoni «jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga demakdir». Bundan ko'rinadiki, bilish jarayoni tafakkur qilishga bog'liq ekan.

«Tafakkur- inson ongida obyektiv damning aktiv aks etishi demakdir»

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda bilish jarayoni ikki xil bo'ladi:

- 1) Hissiy bilish (sezgi, idrok va tasavvur).

Insonning hissiy bilishi uning sezgi va tasavvurlarida o'z ifodasini topadi. Inson sezgi a'zolari vositasida real dunyo bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Bilish jarayonida sezgilar bilan birga idrok ham ishtirok etadi. Sezgilar natijasida obyektiv olamning subyektiv obrazi hosil bo'ladi, ana shu subyektiv obrazning inson ongida butunicha aks etishi *idrok* deb ataladi.

Tashqi olamdagi narsa va hodisalar inson miya po'stlog'ida sezish va idrok qilish orqali ma'lum bir iz qoldiradi. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach, ana shu izlar jadallashishi va biror narsa yoki hodisaning obyektiv obrazi sifatida qayta tiklanishi mumkin. Ana shu obyektiv olamning obyektiv obrazining ma'lum vaqt o'tgandan keyin qayta tiklanish jarayoni tasavvur deb ataladi.

- 2) Mantiqiy bilish (tushuncha, hukm va xulosa).

Har qanday mantiqiy bilish hissiy bilish orqali amalga oshadi, shuning uchun ham har bir o'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalar seziladi, abstrakt nuqtayi nazardan idrok va tasavvur qilinadi, so'ngra ana shu o'rganilayotgan obyektidagi narsa to'g'risida ma'lum bir matematik tushuncha hosil bo'ladi. Matematik obyektidagi narsalarning asosiy xossalarini aks ettiruvchi tafakkur formasiga matematik tushuncha deyiladi. Har bir matematik tushuncha o'zining ikki tomoni, ya'ni mazmuni va hajmi bilan xarakterlanadi.

**Tushunchaning mazmuni deb, ana shu tushunchani ifodalovchi asosiy xossalar to'plamiga aytiladi.**

Masalan, to'g'ri to'rtburchak tushunchasini olaylik. To'g'ri to'rtburchak tushunchasining mazmuni quyidagi asosiy xossalar to'plamidan iboratdir:

- 1) to'g'ri to'rtburchak diagonalini ikkita uchburchakka ajratadi.



- 2) ichki qarama-qarshi burchaklarining yig'indisi  $180^\circ$  ga teng.
- 3) diagonallari bir nuqtada kesishadi va shu nuqtada teng ikkiga bo'linadi.

**Tushunchaning hajmi deb, ana shu tushunchaga kirgan barcha obyektlar to'plamiga aytiladi. Masalan, to'rtburchak tushunchasining hajmi shu to'rtburchak tushunchasiga kirgan barcha to'rtburchak turlaridan, ya'ni parallelogramm, kvadrat, romb va trapetsiyadan iborat bo'ladi. Bundan to'rtburchak tushunchasining hajmi tomonlari uzunliklarining kattaligi turlicha bo'lgan barcha katta-kichik to'rtburchaklar tashkil qilishi ko'rinadi.**

Bizga hajm jihatidan keng va mazmun jihatidan tor bo'lgan tushunchani jins tushunchasi, aksincha esa hajmi tor va mazmuni keng bo'lgan tushunchani tur tushunchasi deb yuritilishi psixologiya fanidan ma'lum.

*1-misol.* Akslantirish tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan ikkita, ya'ni qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari kelib chiqadi. Bu yerda akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi, qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirishlar esa akslantirish tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari bo'ladi. Bu mulohazalardan jins tushunchasi tur tushunchalariga nisbatan hajm jihatidan keng va mazmun jihatidan tor tushuncha ekanini ko'rinadi.

*2-misol.* Ko'pburchak tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan ikkita qabariq va botiq ko'pburchak tushunchalari kelib chiqadi. Ko'pburchak tushunchasi bu tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi deb yuritiladi, chunki uning hajmi qabariq va botiq ko'pburchaklar hajmlaridan kattadir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yu.M. Kolyagin. «Matematika o'qitish metodikasi, M., 1980-y, 57-bet.
2. S. Alixonov. «Matematika o'qitish metodikasi, T., 2011-y, 77-bet.

#### **МУМТОЗ МЕРОСНИНГ МАСИХАЛФОЗ МИСРАЛАРИ**

**Д. Ўрмонова, Г. Фахриддинова**  
**Андижон шаҳар Муҳаммад Юсуф номли**  
**иждо мактаби ўқитувчилари**

**Анотация:** Мақолада ўқувчиларга мумтоз мероснинг масиҳалфоз мисралари ҳақида қисқача тўхталдик.

**Калит сўзлар:** Масих, талмех, адабиёт, миллий тарбия, кадрият, комил инсон, ақл-заковат, ахлоқ-одоб, гўзаллик.

Кўнглида адабиётга, хусусан, шеърятга меҳри бўлган кишилар орасидан машҳур авар шоири Расул Ҳамзатовнинг: “Жонимга Масихдур бу она тилим” мисраларини билмайдиган киши кам топилса керак. Мазкур шеърнинг адабий таълим дастур ва дарсликларига ҳам киритилгани бизга унинг ўқувчилари адади ҳақида яна ҳам аниқроқ тасаввур беради. Бу мисраларнинг мазмун-моҳиятини чуқурроқ англаб етиш учун эса, албатта, “Масих”нинг маъносини билмоқ лозим бўлади. Шоир нима учун она тилини “жонимга Масих” демоқда? Масих ким? Умуман, шеърятда бот-бот ишлатилувчи “Масих анфослик”, “Масихосо”, “Масиҳалфоз”, “Масиҳойин”, “Масиҳовар” каби сўз ва бирикмалар қандай маъноларни англатади? Шоирнинг уларни ишлатишдан муроди нима? Бу каби саволлар, албатта, барча адабиёт ихлосмандларини, хусусан, ўқувчи ва талабаларни ҳам қизиқтириши табиий. Агар мана шу саволларга жавоб топсак, юқоридаги каби мисралар қатига яширинган маъно қатламларининг қанчалик кенгайганидан ҳайратимиз ошиб, “кашфиёт”имиздан завқланиб, ўз бағрида не-не ҳикматомуз ҳақиқатларни яширган бадиий адабиётнинг, хусусан, шеърнинг санъат эканлигига яна бир қарра имон келтирамиз.

Шарқ шеърятда матнни санъат ҳодисасига айлантирувчи шундай воситалар борки, айтиш пайтда уларнинг “шеърый санъатлар” номи билан юритилиши урф бўлган. Мана шундай бадиий воситаларидан бири ва, айтиш мумкинки, мумтоз шеърятимизда энг кўп қўлланиладиган, ўқувчига ўзига хос завқ берадиганларидан бири талмех (баъзи

манбаларда талмих) номи билан юритилади. Луғавий жиҳатдан “чакмоқ чақиши, кўз кирини ташлаш, назар солмоқ” маъноларини англатувчи талмехга профессор Д.Қуроноов ва бошқалар ҳаммуаллифлигида яратилган “Адабиётшунослик луғати”да шундай таъриф берилган: “Шеърда машхур тарихий воқеа, шахслар, бадий асарларга ишора қилиш. Талмех шоирни кўзда тутилган фикрни батафсил айтиш, ҳолатни батафсил тасвирлаш заруратидан ҳалос этиб, кўзланган самарага ўша фикр ёки ҳолатга мос келадиган бошқа бирор ҳаётий ёки бадий фактга ишора қилиш биланоқ эришиш имконини беради. Натижада оз сўз билан кўп маъно ифода қилиш мумкин бўлади, зеро, талмех қўлланган байт мазмуни ишора қилинаётган тарихий воқеа ёки бадий асар мазмуни билан бойийди. Талмехдаги ишора тарихий воқеа ёки бадий асар номини келтириш, улар билан боғлиқ бирор лафзни тилга олиш орқали очик ёки яширин тарзда амалга оширилиши мумкин.” Таърифдан кўриняптики, ишора қилинаётган машхур тарихий воқеа, шахслар, бадий асарлар ҳақида хабардор бўлган ўқувчи талмех қўлланган байтдан ундаги сўзлар миқдорига нисбатан кўпроқ завқ олади, кенгроқ маъно-мазмунни “кашф этади”. Демак, юқоридаги каби Масих сўзи билан боғлиқ ишораларни англаш учун ҳам ўқувчи махсус тайёргарликка, мазкур тушунча билан боғлиқ маълум билим ва тасаввурларга эга бўлиши лозим бўлади.

Маълумки, диний қиссаларга кўра, барча пайғамбарларга мўжиза кўрсатиш қудрати берилган. Шунингдек, Исо (а.с.)га ҳам Аллоҳ томонидан бир неча мўжизалар берилган. Масалан, чақалоқлик пайтидаёқ бийрон тил билан гапириши, мутлақо давосиз деб ҳисобланган шапкўр, туғма кўр каби касалликларнинг у зотнинг назорати ёки қўллари билан силашлари натижасида тузалиб кетиши, у кишининг буйруқлари билан ёки силашлари билан ҳатто ўликларнинг тирилиши ва бошқалар. Мана шундай мўжизакор хусусиялари туфайли ҳам Исо (а.с.)га “Масих” (силовчи) лақаби берилган. Шулардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, юқорида санаб ўтилган Масих анфослик (Исо нафасли), Масихосо (Исога ўхшаш), Масихалфоз (сўзи Масих нафасидек шифобахш), Масихойин (Масих одатли, Масих табиатли), Масиховар (Масихдек) каби сўз ва бирикмалар ҳам мумтоз шеърятда Масих сўзининг мазкур маъноси билан боғлиқдир. Яъни Масих сўзи турли даврларда турлича – ошиққа ўз нафаси, ширин сўзи билан қайта жон бағишловчи ЁР, лирик қаҳрамонни қайта тирилтирувчи СЎЗ, табиатни уйғотувчи, сувларнинг шилдираб оқиши-ю кушларнинг чуғур-чуғурига сабаб бўлувчи БАҲОР, миллатни, халқни ғафлат уйқусидан уйғотувчи, залолатдан, қабоҳатдан ҳалос этувчи ТАБИБ, ўлиб бораётган тилга қайта умр берувчи МЎЪЖИЗА каби маъноларда ишлатиб келинган.

Ҳазрат Навоийда ўқиймиз:

Турфа кўрким, сўз била ҳам ўлтурур, ҳам тиргузур,  
Чун очар муҳлик сўз айтурға Масиховар оғиз.

Байтда лирик қаҳрамоннинг ҳайратига сабаб бўлаётган нарса ўзига хос парадокс ҳолатидир. Масиховар – Масих каби тирилтирувчи нафасга эга бўлган ёр бир пайтда муҳлик – ўлдирувчи, ҳалок қилувчи ҳамдир. Ёрнинг ҳар бир сўзи ошиқни ўлдиради, бироқ ўша сўз Масиховар – жон бағишловчи оғиздан чиқяпти. Шунинг учун ҳам бу сўз ошиқни бир пайтда ҳам ўлдириб, ҳам тирилтириши ҳайратланарли.

Замонавий тиббиёт, руҳшунослик каби соҳаларда амалга оширилган тадқиқотлар натижасида сўзнинг инсон руҳиятига кучли таъсир кўрсатиши аниқланган. Шулар натижасида ҳозирги пайтда стресс, тушкун кайфият ва бошқа турли касалликларнинг сўз воситасида даво топаётгани ҳам сўзнинг шифобахшлигига, Масихдек тирилтирувчи хусусиятга эга эканлигига далолат қила олади. Демак, ҳеч шубҳасиз айтиш мумкинки, халқимизнинг бадий тафаккури маҳсули бўлган “Яхши сўз жон озиғи, ёмон сўз бош оғриғи” каби юзлаб пурҳикмат мақолларда ҳам ўзига яраша асос бор.

Мумтоз адабиётимиздаги Навоийдан баҳра олган ижодкорларнинг деярли барчасида “Масих”нинг турли маънолари билан боғлиқ гўзал бадийят намуналарини учратиш мумкин. Жумладан, Огаҳий бир ўринда Масихнинг тирилтирувчилик сифатини Баҳорга нисбатан қўллайди:

Тоза жон еткурди сар-тосар раёҳин жисмиға,

Жонфизо ел эстуруб ҳар ён Масихосо баҳор.

Қишда бутун табиат, жонзотлар, ҳашаротлар, дов-дарахтлар, ўсимликлар гўё уйқуга кетади, яъни маълум маънода ўлади. Масих (р.а) ўлик таналарга жон бахш этгандек Баҳор бутун табиатни уйғотади, сувлар шилдираб оқади, дарахтлар қийғос гуллайди, қушларнинг чуғур-чуғури оламни ва дилларни, атрофни яшнатади, гўё барча нарсалар қайта тирилади.

XIX асрнинг охири - XX аср бошларида жамият, тузум ўзгарди, бу эса инсониятнинг ўзгаришига, инсонларнинг эҳтиёжлари ўзгаришига, инсон тафаккурининг янгиланишига сабаб бўлди. Инсонга хос, миллатга хос янги-янги муаммолар пайдо бўлди. Миллат оғриқларини ҳис қилган, миллатни “Рухсиз тан” дея атаган Ҳамза ва унинг замондошларига ҳам Исо Масих (р.а.)нинг илоҳий мўжизаси сув ва ҳаводек зарур бўлиб қолди. “Масих”нинг ҳам янги маъно қатламлари очила бошлади. Бу сўз энди илм тимсолида намоён бўлди.

Бизни Туркистон эли дардига дармон истамас.

Зулмат ичра кечган умри, моҳитабон истамас.

Мисраларида Туркистон элининг дарди бор бўлса ҳам, умри зулмат ичра бўлса ҳам дардига дармон истамаслиги, яъни қоронғу зулматда қолиб, залолат ботқоғига ботган эрсада йўллари яритувчи ойни истамаслиги, ишашга қодир эмаслигини куюнчаклик билан баён этаётган шоир илмни элнинг дардига дармон бўлувчи, зулматни ёритувчи ой дея таърифлайди. “Келди даври душди осмондан Масихойи илм” мисраларида Масих сўзи энди элнинг йўлини ёритувчи илм маъносида қўлланмоқда.

Ривоятга кўра, Исо Масих ўлмаган, тирик ва у осмонга чиқиб кетган. Муддат келганда (қиёматдан олдин) ерга тушади. Демак, Ҳамзанинг тарифича, Туркистондаги залолат шу қадар кучлики, гўёки қиёмат келгандек. Бу залолат, қабоҳатнинг ечими сифатида Исо Масих каби табиб, яъни илм зарур. Дарҳақиқат, илмнинг икки дунё саодат эшикларини очувчи калит эканлиги ортиқча изоҳ ва исбот талаб этмайди.

Энди, юқоридаги фикрга қайтсак. XX асрнинг 80-90 йилларида маънавий таназзул юзага келди. Мустабид тузум миллатларнинг ўзлигига, урф-одатларига, энг ачинарлиси ва дахшатлиси, миллатларнинг тилига тажовуз қилди. Миллатнинг виждони бўлмиш шоирлар, ижодкорлар бунга қарши бонг урди. Шоирнинг миллати йўқ. У башар фарзанди. Шунинг учун Абдулла Орипов машҳур “Она тилим” шеърида ўз она тилини булбул сингари куйга солишини, агар она тили йўқолса, тўтининг тақлидчилик – забун холига тушушини ўша замон таҳдидларига қарамай дадил айта олди. Унинг замондоши бўлган авар шоири Расул Ҳамзатовнинг “Она тилим” шеърида ҳам худди шу муаммо қаламга олинган. Шеърдаги лирик қаҳрамон ҳаётдан кўз юмди. Афсуски, олдида “на онаси, на ёри, на дўсти, на йиғичи йўқ”. Демак, унга ҳам Масих – тирилтирувчи керак. Бу сафар Масих бўлиб она тили намоён бўлди. Ўлик танага авар яъни, шоирнинг она тили жон бахш етди. Дарҳақиқат, миллатнинг ўзлигини намоён қилувчи муҳим хусусият унинг тилидир. Тилини йўқотган миллат ҳалокатга маҳкумдир.

Адабиёт – сўз санъати ҳамиша инсоният билан ёнма-ён яшайди, ҳамиша инсоният дардига малҳам бўлади. Минг йиллардан буён шоирларнинг қудратли ва мўжизакор, Масихосо сўзларининг минг бир жилоси бутун башариятни ҳайратга солиб келади. Уларнинг ҳар галги мутолааси худди Масих каби кўнгилларда янги-янги туйғулар, янги-янги орзу-умидлар, эртанги кунга ишонч пайдо қилиб бораверади.

## **ONA TILI O‘QITISH METODIKASINING TEKSHIRISH USULLARI**

**I.Yoqubboyeva –Toshkent shahar  
Mirobod tumani 110- IDUM ning  
ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish usullari haqida so‘z yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar. Tekshirish metodlari, eksperiment va empirik metod, pedagogika va psixologiya, didaktika.*

Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili o'qitish metodikasi ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari. U quyidagi hollarda tatbiq etiladi:

a) biror hodisaning metodik asosini, unga bog'liq boshqa fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilashda;

b) masala tarixi, xorijiy maktab tajribalari va mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, masalaning isbotlanmagan va hal qilinmagan o'rinlarini aniqlash, ilgari tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda;

d) bir-biriga yaqin fanlar (psixologiya, lingvistika, sotsiologiya) ning tekshirish metodlarini, olimlarning tekshirish ishlari tajribasini o'rganish, qulay metodlarni tanlash, o'zining yangi eksperimental metodikasini yaratish, materiallarni tayyorlash maqsadida;

e) empirik tajriba yo'li bilan olingan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, eksperiment natijasini tahlil qilish, amaliy tavsiyanomalarni shakllantirishda.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarni tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnoma orqali tekshirish;

d) eksperiment (tajriba) metodidan foydalanish. Hozirgi kunda keng tarqalgan bu usulda deduktiv yo'ldan boriladi, ya'ni gipoteza qo'yiladi, mavzuga asosan eksperiment uchun material (o'quv material) tayyorlanadi. Eksperiment bir necha marta takrorlanadi, bir necha sinf va bir necha guruhlarda o'tkaziladi. Eksperimentda 2 ta sinf tanlanadi. Biri tajriba sinfi, ikkinchisi taqqoslash uchun tanlangan tekshiruv sinfi. Tajriba sinfida yangi metod, yangi darslik, yangi ishlanmadan foydalanilsa, tekshiruv sinfida amaldagi metod, darslik, ishlanmadan foydalaniladi. Ikkinchi marta sinflar almashtiriladi, bu chaprost deb nomlanadi. Har ikki holda ham natija yuqori bo'lsa, demak, ish usuli foydali sanaladi.

Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim metodik usullarni tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, ammo yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tuman, viloyat jalb qilinadi.

Eksperiment vazifasiga ko'ra quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) yangi metod, yangi darslikning muvofiqligini tekshirishda;

2) metod yoki qo'llanmaning qay darajada foydaliligini tekshirishda;

3) metod yoki qo'llanmaning muvofiqligini va samaradorligini aniqlashda.

Eksperiment natijasini chiqarishda belgilangan baho me'yoriga amal qilinadi. Bunday me'yor aniq, barcha holatlar uchun ham bir xil bo'lishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, ma'lum bir vaqtda o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izchilligi me'yoridan foydalaniladi.

Ona tili o'qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma'lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi,

mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olibborishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Львов, М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах [Текст]: учебное пособие для студ. Учреждений высш. Проф. образования/ М.Р. Львов, В.Г.

Горецкий, О.В. Сосновская. – 8-е изд., стер. – М.: Академия, 2013.с-8.

2. Волошина А.П. Методика обучения русскому языку в начальной школе (для школ с украинским языком обучения): Пособие для студентов и учителей начальных классов. – Умань, 2011. С-5.

### BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHLARIDA "MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI" FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

**M.Z.Mirzayeva, Andijon shahar 4-maktab o'qituvchisi.**

**D.P.Yoqubaliyeva, Andijon shahar 3-maktab o'qituvchisi.**

Insoniyat o'z rivoji davrida yosh avlodga bilimlar berar ekan asosiy e'tiborni o'z faoliyati va taraqqiyot talablarini hisobga olib, fanlar asoslarini o'rgatishga harakat qiladi. Shu sababli o'quvchilarga barcha bilimlar qatori matematikadan chuqur bilimlar berish vazifasi va uni ilmiy amalga oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda matematika o'qitish metodlari kursi asosiy o'rinlardan birida turadi.

Metodika so'zi yunoncha metod - usul so'zidan olingan bo'lib, shunga ko'ra Matematika o'qitish metodlari fani jamiyat tomonidan qo'yilgan ta'lim maqsadlariga mos ravishda matematikani o'qitish qonuniyatlarini, uning ma'lum rivojlanish darajasida o'rganadigan va tadqiq etadigan pedagogikaning bo'limiga aytiladi.

Matematika o'qitish metodikasi fani matematika pedagogikasi sifatida ta'limning umumiy qonuniyatlarini matematika sohasida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganadi.

Matematika o'qitish metodikasi fani avvalo o'zaro bir-biriga bog'liq to'rtta savolga javob berishi lozim.

Birinchi- nima uchun matematikani o'rgatish kerak?

Bu savolga javobni ta'lim va tarbiyaning umumiy vazifalariga asoslanib topish mumkin, o'z navbatida bu vazifalar jamiyat rivojlanishining maqsad va vazifalari bilan aniqlanadi.

Ikkinchi- kimni matematikaga o'rgatish kerak?

Bir tomondan bu savol yosh haqida bo'lib, qachondan boshlab bolalarni matematikaga o'rgatish maqsadga muvofiq va qachon barcha uchun majburiy dastur o'rganishni tugatish zarurligini ifoda etadi. Ikkinchi tomondan, umumiy o'rta ta'lim maktabidan keyingi matematik ta'lim akademik litsey va kasb- hunar kollejlari davom ettirish va ular orasida uzviylikni o'rnatishni ifoda etadi.

Uchinchi- o'rganiladigan matematika mazmuni qanday bo'lishi kerak? Yoki nimani o'rgatish kerak?

Bu savol matematikani o'qitish maqsadlari haqidagi savol bilan mustaxkam bog'liq. Umuman olganda: Matematika fanida juda ko'p tushunchalar, terminlar, ob'ektlar mavjud. Ana shulardan umumiy o'rta ta'lim maktabi "Matematika kursida", shuningdek akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari matematika kursida uni o'qitish va o'rgatish uchun qanday xajmda va qanday ma'lumotlar olish haqida masalani hal qilish juda muhimdir.

To'rtinchi- matematikani qanday o'rgatish kerak?

Bu savolga javob matematika o'qitish metodikasi fanining muhim qismi bo'lib, ilg'or va qulay o'qitish usullari bilan birga ijodiy yondoshishni talab etadigan usullar tizimini asoslash va targ'ib qilish talab etiladi.

Matematika o'qitish metodikasi uchta bo'limdan iborat:

1) Matematika o'qitishning umumiy metodikasi (masalan, o'qitish usullari, tamoyillari va hokazo );

2) Matematika o'qitishning xususiy metodikasi: umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika kursining ayrim bo'limlari yoki tushunchalarini o'rganish usul va yo'llarini yoritish masalan; elementar funksiyalarni o'rganish metodikasi, ayniy almashtirishlarni o'rganish metodikasi, to'rtburchaklarni o'rganish metodikasi va hokazo);


3) Matematika o'qitishning konkret metodikasi (masalan, chiziqli funktsiyani o'rganish metodikasi, ikki son yig'indisining kvadratini o'rganish metodikasi, to'g'ri to'rtburchakni o'rganish metodikasi va hokazo).

Matematika o'qitish metodikasi fani o'z oldida turgan vazifalar ko'lamiga ko'ra boshqa fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Avvalo matematika fanining o'zi bilan mustahkam bog'liq bo'lib, shu asosida uzluksiz talim tizimida o'qitish mazmuni va usullari takomillashib boradi.

Matematika o'qitish metodikasi pedagogik fan bo'lganligi uchun tabiiy ravishda ushbu fanning yutuqlariga tayanadi. Bundan tashqari u psixologiya qonuniyatlari asosida matematika o'qitish qonuniyatlarini ochib beradi. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'lum guruhi va xatto ayrim o'quvchilar xususiyatlariga e'tibor berish, ularning qiziqish va diqqat-e'tiborlari, xotiralarini xisobga olish, o'zlashtirish bosqichlari, aql, xulqi, xususiyatlari va x.k. larni xisobga olish talab etiladi.

Umumiy o'rta talim maktablarida matematika o'qitish metodlari mantiqqa ham tayanadi. Bunga sabab bir tomondan matematika o'qitish bir vaqtning o'zida mantiqiy matematik tilga o'rgatish xisoblansa, ikkinchi tomondan, fan sifatida matematikaning o'zi mantiq qonunlari asosida qurilgandir.

Umuman, umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika o'qitishda o'qituvchining maxorati asosiy bo'lib, u hech qanday ta'rif va tavsifga muxtoj emas. O'qituvchining pedagogik mahoratni egallashdagi birinchi va zarur bosqichlardan biri matematika o'qitish metodikasini o'rganish xisoblanadi.



Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitishni to'g'ri tashkil etish uchun matematika o'qitishning metodik sistemasi komponentlari va ular orasidagi bog'lanishni to'g'ri tushunishimiz talab etiladi. Matematika o'qitishning metodik sistemasini quyidagi graf shaklida ifodalash mumkin.

Matematika o'qitishning metodik sistema komponentlari orasidagi o'zaro bog'liqlik bu grafda strelkalar bilan ko'rsatilgan.

Matematika o'qitish metodikasi fani ana shu komponentlar mazmunini aniqlash va ular orasidagi bog'liqliklarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

#### Adabiyotlar.

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol" 2016 yil. 426 b.

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun o'quv qo'llanma ) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

## 1-SINF "ALIFBE" DARSLIGIDA O'QUVCHILAR UCHUN TUSHUNARSIZ SO'ZLARNI IZOHLASH

**D.P.Yoqubaliyeva, Andijon shahar 3-maktab o'qituvchisi.**

**M.Jo'rayeva, Andijon davlat universiteti**

**pedagogika fakulteti BTSTI yo'nalishi**

**2 – bosqich talabasi**

***Annotatsiya:** "Alifbe" darsligida o'quvchilar uchun tushunarsiz yoki yetarlicha anglashilmagan so'zlarni "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga tayangan holda tushuntirish, o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, nutqini o'stirish.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ilm, millat, tabib, tabiat, tarbiya.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan qiziquvchan, atrofda voqea-hodisalarga nisbatan ta'sirchan bo'ladilar. Ular tez hayratga tushadilar, o'zlarini ajablantirgan narsalar haqida gapirib berishni yoqtiradilar. Q.Sodiqov, S.X. Aripova, G.A. Shahmurova muallifligidagi "Yosh fiziologiyasi va gigiyena" kitobida ta'kidlanishicha, 3-5 yoshli bola ayrim she'rlarni harakatlar bilan yodlaydi. 5-6 yoshida tashqi dunyoning ko'pgina hodisalarini so'z bilan umumlashtirish qobiliyati ortadi. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda so'z orqali fikrlarini bayon qilish kuchayadi.

Bolaning so'z boyligi ko'paya borgani sari mavhum tushunchalar haqida bilishga intilishi ortadi, shunday ekan 6-7 yosh (1-sinf)da bolalar so'z boyligini oshirish hamda lug'at boyligini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar so'z boyligini savod o'rgatish davridan boshlab boyitib borish zarur. Bunda, avvalo, "Alifbe" darsligiga tayanamiz.

Kichik kuzatishlar asosida shuni angladimki, bugungi kunda 1-sinf o'quvchilari o'qib savodi choqayotgan amaldagi R. Safarova, M.Inoyotova, M. Shokirova, L.Shermamatova muallifligidagi "Alifbe" darsligini o'rganib chiqish jarayonida berilgan ba'zi tovush- harflarga oid so'z va matnlarda o'quvchi uchun mazmunan tushunarsiz bo'lgan jumalarga duch kelamiz. Darslikda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan izohlab o'tilishi zarur bo'lgan so'zlar ko'p. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ilm, tola, millat, marmar, tabib, tabiat, orol, o'lka, tantana, ko'mak, tarbiya, tarang, angla, palak, ziyrak, gulxan.

O'qituvchi dars jarayonida yuqoridagi so'zlarga izoh berishi zarur bo'ladi. Chunki bu o'quvchilar nutqini boyitish, dunyoqarashining kengayishi hamda fikrini ishonch bilan erkin ifodalashiga muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

"Tantana- (arabcha "jaranglash, jarang; shovqin, g'o'ng'illash") muhim voqea, hodisa va shu kabilar munosabati bilan o'tkaziladigan o'yin- kulgi, xursandchilik ruhida davom etadigan yig'in, marosim". ("O'zbek tilining izohli lug'ati", III jild 667- bet)

"O'zbek tilining izohli lug'ati "tantana so'zining 4 ma'nosi berilgan. Albatta, bu 1-sinf uchun murakkab ma'lumotlar. Lekin bu so'zning eng maqbul hamda oson ma'nosi bilan tanishtirish mumkin. Ya'ni ushbu so'zni xursandchilik o'yin -kulgi bo'ladigan bayram deb izohlash o'rinni bo'ladi. Misol tariqasida "yangi yil tantanasi, Navro'z tantanasi" va shu kabilar.

"Tabiat- (arabcha borliq, tabiiy xislat odattiylilik) butun mavjudodni o'z ichiga olgan olam, borliq. Ushbu so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 9 ta ma'nosi izohlab o'tilgan. Ulardan biz yuqorida keltirgan ma'nosini anglatish qulay. Ya'ni, bizni qurshab turgan olam o'simliklar, qir-adirlar o'rmonlar- tabiat. Biz barchamiz uning bir bo'lagimiz.

"Tabib- (arabcha - shifokor, davolovchi) bemorlarni davolovchi mutaxassis "Demak tabib shifokor so'zining eski nomi. ("O'zbek tilining izohli lug'ati "III jild, 627- bet)

Albatta, "O'zbek tilining izohli lug'ati "da berilgan izohlar murakkab, lekin o'qituvchi uchun muhim ilmiy manbadir. Shu manbaga tayangan holda o'qituvchi eng soda va maqbul ko'rinishini tushuntirib o'tishi maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchi savod o'rganish davrida so'z, gap va matn mazmunini anglashga emas, ularni o'qishga ko'p kuch sarflaydi. O'quvchi ongida

soʻz haqidagi tasavvurlar aniqroq akslanishi uchun koʻrgazmali vositalar yaʼni, multimediyali ilova hamda rangli suratlardan foydalanish samarali natijaga erishishga yordam beradi.

Zero, boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitishning vazifasi, avvalambor, oʻquvchilarni keng mushohada yuritadigan va fikrlarini erkin bayon qila oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1. “Alifbe” darsligi: R. Safarova, M. Inayatova, M.Shokirova, L. Shermamatova “Maʼnaviyat “-2017
2. “Yosh fiziologiyasi va gigienasi”, Q.Sodiqov, S.X.Aripova, G.A. Shaxmurova
3. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”- “Oʻzbekiston milliy estiklopediyasi davlat ilmiy nashiryoti”- 2006-2008

## **BOSHLANGʻICH SINF MATEMATIKA KURSIDA GEOMETRIK MATERIALNI OʻRGATISHDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH.**

**G.A.Sobirova, Andijon shahar 48-umumiy oʻrta taʼlim maktabi**

Fazoviy tasavvurlari chuqur shakllangan insongina mukammal goʻzallikni yarata olishi mumkin. Kichik yoshdagi oʻquvchilarning fazoda figuralarni farqlash va idrok qilish munosabatlari, yaʼni obʼektlarning shakli, oʻlchami, fazoviy yoʻnalishlari, fazoda joylashgan oʻrni, hajmi, boʻyi, eni, balandliklari kabi masofalarining hammasi har xil fazoviy tushunchalardir, bu tushunchalarni toʻgʻri, oʻrinli ishlata olishini oʻrgatish matematika mashgʻulotlarining asosiy vazifasi sanaladi.

Boshlangʻich sinflar oʻquvchilarining geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

I bosqich (tayyorlov) - Bolalarda boʻlgan geometrik figuralar haqidagi umumiy tasavvurlarni aniqlash (bolalarning hayotiy tajribasi, model figuralardan foydalanib, amaliy ishlarni bajarish).

II bosqich – Oʻquvchilar bilan amaliy ishlar asosida ularda geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

III bosqich – Oʻrganilgan materialni xotirada mustahkam saqlab qolish uchun figuralar yasashga oid maxsus tanlangan mashq va masalalarni bajarish.

Bunday sharoitda geometrik figuralarning nomlari va talaffuziga diqqat qaratiladi. «Kesma» haqida gap borganda, oʻqituvchi yaqin atrofdagi predmetlar – (qalam, chizgʻich) dan foydalanib, kesmani qogʻozda qanday tasvir etish lozimligini koʻrsatadi.

Geometrik sanoq materialidan foydalanib, bolalar bir-biridan juda farq qiladigan yoki mutlaqo bir xil boʻladigan figuralarni bemaol taqqoslaydilar. Biroq tajriba shuni koʻrsatadiki, bolalar “figuraning yuzi” mavzusi materialini qiyinchilik bilan oʻzlashtiradilar. Masalan, turli shakldagi narsalarni taqqoslash koʻpincha uning chiziqli oʻlchamlarini taqqoslashga keltiriladi.

Bolalar koʻpincha yuzni oʻlchash tushunchasini uni ratsional hisoblash usuli bilan aralashtirib yuboradilar. “Toʻgʻri toʻrtburchakning yuzini oʻlchash nimadan iborat?” degan savolga bolalar koʻpincha bunday javob beradilar: “bu uning boʻyini va enini oʻlchab, ularni koʻpaytirish demakdir”. Biroq toʻrtburchakning yuzini topish degan soʻz unda yuz birligi ( $sm^2$ ,  $m^2$ ) necha marta joylashshini aniqlashdir.

Mazkur mavzuni oʻrganishda oʻqituvchi tilga oid qiyinchilikka duch keladi, chunki u geometriyadagi “tekislik” tushunchasiga tayana olmaydi. Shu sababli yuz tushunchasini shakllantirish boʻyicha birinchi darslar juda muhimdir. Ular bolalarning yuz tushunchasining aniq maʼnosini tushunishlarini taʼminlashga qaratilgan boʻlishi kerak. Oʻquvchilarni yuz atamasi bilan va yuzlarni dastlabki taqqoslash bilan tanishtirishni yaxshi amaliy mashqlarni oʻtkazish maʼqul.

Boshlangʻich sinflarda geometriya elementlarini oʻrganishning asosiy maqsadlaridan biri oʻquvchilarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish boʻlib, bu narsa hayolda qayta tiklangan



shakllarni ajratib olishga va boshqatdan ulardan kombinatsiya qilgan holda tiklashga yordam beradi. Biroq ajratib olingan shakllarni qayta kombinatsiyalashga (birlashtirish) faqat geometrik shakllarni ajratib olishnigina emas, balki ular orasidagi turli-tuman munosabatlarni bilishni ko`zda tutadi. Chunki yangi figuralar hosil qilish ular elementlari orasida ba'zi munosabatlar to'plamining mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshlang'ich geometrik tushunchalarni o'zlashtirish poydevorini yaratish va ularni o'rganish metodikasini o'zlashtirish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining yetakchi rolini, uning shaxsi, bilimi, ishga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati, metodik mahorati masalaning muvaffaqiyatli yechilishida katta ahamiyatga ega.

Fazoviy munosabatlar haqida tasavvurlar hosil qilish va ularda boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'rganishda foydalanish geometrik tushunchalar mazmunini o'zlashtirishga imkon beradi, atrof muhitni butun rang-barangligi bilan his qilishga olib keladi, real mavjud dunyo haqida bilimlardan asta-sekin abstrakt-geometrik dunyoga, fazoviy tafakkur rivojiga, o'quvchilarining umumiy rivojlanish darajasining yuksalishiga olib keladi. Shu bilan birga shunga e'tibor berish kerakki, bunda geometrik figuralar ustida amallar bajarish mumkin bo'lgan ob'ektlar ekanligini nazarda tutish va o'quvchilar tomonidan uning qanday qabul qilinishiga e'tibor berish kerak hamda o'quvchilarini mantiqiy bog'lovchilar bilan tanishtirishni unutmazlik kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Jumaev M.E. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (*Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik*) — T.: «Fan va texnologiya», 2005-yil.
2. Oliy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2003 121 bet.

## **UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O`RGATISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH**

**N.K.Razokova<sup>1</sup> G.B.Kuzmanova<sup>2</sup>**

**Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti**

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berishda, ularga fanga doir tushunchalarni beribgina qolmasdan, amaliyotga tadbiiq qilishni, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, qobiliyatini rivojlantirish, hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash har bir fan o'qituvchisining asosiy maqsadi bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarni ilmiy va nazariy tafakkurini shakllantirishda tarixiy materiallardan foydalanishga e'tibor kuchaytirilsa, o'quvchi bilimi, ichki dunyosi boy, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatlari yanada kengayadi. Bugungi kundagi xalqlar va millatlarning integrallashuvi jarayoni jadal tus olmoqda. Bu jarayonda o'zimizning boy ilmiy merosimizni o'rganish, o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Bog'doddagi "Boytul-hikma" va Xorazm ma'mun akademiyasida olib borilgan tengsiz kashfiyotlar tarixda o'chmas iz qoldirgan. Jumladan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino kabi ko'plab allomalarimizni keltirishimiz mumkin. Ular o'z asarlarida ustoz shogirt orasidagi munosabatlarni yuqori darajaga ko'targan shuning bilan birga shaxsni aql zakovatiga ta'sir qilish kabi masalalarga alohida e'tibor berganlar.

Matematika fani rivojida Ibn Sino asarlarida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Ibn Sino arifmetika va sonlar nazariyasiga doir "Donishmand", "Bilim" va "Ash-shifo" hisobida natural sonlar ustidagi amallar diqqatga sazovordir. Kitobning arifmetikaga tegishli bo'limida natural sonlar qatoridagi barcha sonlar alohida alohida kvadratga ko'tarilganda hosil bo'lgan sonlarning birlar xonasida hamma vaqt 1,4,5,6,9 raqamlaridan biriga teng son hosil bo'ladi deyilgan. Haqiqatdan ham

$$11^2=11 \times 11=121$$

$$12^2=12 \times 12=144$$

$$13^2=13 \times 13=169$$

$$14^2=14 \times 14=196$$

$$15^2=15 \times 15=225$$

$$16^2=16 \times 16=256$$

Keyin Ibn Sino sonlar kvadratini 9 raqami bilan hind hisobi usulida tekshirish masalini quyidagi qoidalar bilan ifodalaydi.

1) Agar son 9 ga bo`linib, qoldiqda 1 yoki 8 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo`linib, qoldiqda 1 qoladi. Berilgan sonlar M va N bo`lsin. Qoidaga ko`ra

$$M=9n+1, M^2=(9n+1)^2=81n^2+18n+1=9(9n^2+2n)+1$$

9 ga bo`linadi, qoldiq 1 bo`ladi.

$$N=9k+8: M^2=(9k+8)^2=81k^2+72k+64=81k^2+72k+63+1=9(9k^2+8k+7)+1$$

9(9k<sup>2</sup>+8k+7) 9 ga bo`linadi, qoldiq 1 bo`ladi.

2) Agar son 9 ga bo`linib, qoldiqda 2 va 7 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo`linib, qoldiq hamisha 4 qoladi.

3) Agar son 9 ga bo`linib, qoldiqda 4 va 5 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo`linib, qoldiq hamisha 7 qoladi.

4) Agar son 9 ga bo`linib, qoldiqda 3,6 va 9 qolsa, u holda bunday sonlarning kvadrati 9 ga bo`linib, qoldiq hamisha 8 qoladi.

Matematika darslaridagi “Natural sonlarni ko`paytirish” mavzusida ko`p xonali songa ko`paytirish ustun shaklida o`rgatiladi.

Masalan; 8324x234 ga ko`paytirishni bajaring:

$$\begin{array}{r} \times 8324 \\ \hline 254 \\ +33296 \\ +24972 \\ \hline 16648 \\ \hline 1947816 \end{array}$$

Ko`paytirishning “jadvalda ko`paytirish” usulini o`rta Osiyolik olim Abu Jafar Muhammad ibn Muhammad Masriddin at-Tusiy (1201-1274) o`ylab topgan.

	8	3	2	4	
1	6	6	4	8	2
2	4	9	7	2	3
3	3	2	9	6	4

Masalan: 8324 ni 234 ga ko`paytirsak jadvalda ko`rsatilgan. “jadvalda ko`paytirish” usulida to`gri to`rtburchakni kvadratlarga ajratib, o`ngdan bitta kvadrat tashlab, 1- ko`paytuvchini yuqoridan eniga, 2- ko`paytuvchini esa o`ngdan bo`yiga yoziladi. Amalda hozirgi usulda ko`paytuvchilarning birlar xonasidan boshlab bajariladi. Har doim xususiy ko`paytmaningb raqamlari teng xonali bo`yicha yozilmasdan, o`ngdan boshlab gorizantal chiziq bo`yicha birining tagiga ikkinchisi yoziladi. Tusiy izlangan ko`paytmaning raqamlarini hosil qilishda teng xonalari bo`yicha qo`shish lozim ekanligini o`qitiladi. Izlanayotgan ko`paytma o`ngdan boshlab kvadratlarning diogonal bo`yicha xususiy ko`paytmalar raqamlarining yig`indisini hisoblashdan hosil bo`ladi. Bu ko`paytmaning raqamlari jadval tagida o`ngdan boshlab yoziladi. Natija: 1947816

## MATEMATIK SOFIZMLAR

<sup>1</sup>Qarshiyev F. <sup>2</sup>Razokova N. <sup>3</sup>Ergashev N.

<sup>1</sup>Baxmal tumani 41-o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi

<sup>2,3</sup>Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute

Sofizm deb odatda oldindan xato qilib tuzilgan, yuzaki qaraganda to'g'ri bo'lib ko'rinadigan, lekin yanglish natijaga olib keladigan xulosaga aytiladi.

Ko'p hollarda matematik sofizmlar matematik qonun va qoidalarni noto'g'ri yoki to'liq boimagan holda tatbiq qilish, mantiqning ma'lum normalarini buzish asosida tuziladi. Sofizmni ochish — bu da'voni isbotlashda muhokamada yo'l qo'yilgan xatoni ko'rsatishdir. Sofizmlarni ochishni o'rganish tanqidiy muhokamani

rivojlantirishga imkon yaratadi, matematik tasdiqning har bir natijasini tekshirish va isbotlashning qanchalik zarurligini ko'rsatadi. Yechimlarida birinchi qarashda sezib bo'lmaydigan xatolar bo'lgan bir necha sodda sofizm va niasalalarni ko'rib chiqamiz.

### Ortiqcha bir soat qayerdan paydo bo'lib qoldi?

Arava 336 km yurishi kerak edi. Yo'ning birinchi yarmida u yuksiz soatiga 8 km tezlik bilan, ikkinchi yarmida esa yuk bilan soatiga 6 km tezlik bilan yurdi. Shunday qilib, aravaning o'rtacha tezligi  $\frac{6+8}{2} = 7$  (km/soat) ga teng va u butun yo'lni  $336:7 = 48$  soatda bosib o'tishi kerak.

Boshqacha mulohaza yuritib, yo'ning birinchi qismiga  $168:8 = 21$  soat, ikkinchi qismiga esa  $168:6 = 28$  soat, hammasiga  $21 + 28 = 49$  soat sarf qilinganini ko'ramiz. Ortiqcha bir soat qayerdan kelib qoldi?

*T u s h u n t i r i s h.* Xato aravaning o'rtacha tezligini noto'g'ri hisoblashda. Agar arava yo'ning birinchi va ikkinchi qismini ayni bir xil vaqt ichida yurgandagina o'rtacha tezlikni biz qo'llagan usul bilan topsa bo'lar edi. Biroq arava soatiga 8 km tezlik bilan yurgandagi vaqt arava soatiga 6 km tezlik bilan yurgandagi vaqtga qaraganda kam bo'lgani uchun o'rtacha tezlik soatiga 7 km dan

kam bo'ladi.

$$336: (21 + 28) = 6 \frac{42}{49} \text{ (km/soat).}$$

Haqiqatan, arava soatiga 7 km tezlik bilan 42 soat yurgan. Bu vaqtda u  $7 \cdot 42 = 294$  km yurgan, qolgan  $336 - 294 = 42$  km ni soatiga 6 km tezlik bilan 7 soatda ( $42:6$ ) bosgan. Shunday qilib, arava  $42+7 = 49$  soat yo'lda bo'lgan.

**2·2=5 mashhur sofizim**, bu sofizimni isbotlashning ko'plab usullari mavjud ulardan biri:

Demak,  $2 \cdot 2 = 5$

**Isbot:**  $16 - 36 = 25 - 45$

Tenglikning ikkala qismiga  $\left(\frac{9}{2}\right)^2$  ni qo'shamiz, ya'ni

$$16 - 36 + \frac{81}{4} = 25 - 45 + \frac{81}{4}$$

Bundan,

$$\left(4 - \frac{9}{2}\right)^2 = \left(5 - \frac{9}{2}\right)^2,$$

Ikkala tomon musbat, kvadrat ildiz chiqarsak,

$$4 - \frac{9}{2} = 5 - \frac{9}{2}.$$

Tenglikni ikkala tomoniga  $\frac{9}{2}$  ni qo'shsak,

$$4 = 5 \text{ yoki } 2 \cdot 2 = 5$$

isbot bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “От задачек к задачкам” М. А. Евдокимов Москва-2004.
2. “Qiziqarli matematika va Olimpiada masalalari” A.S. Yunusov, D.I. Yunusova “O'qituvchi”-2007.
3. Internet materiallari.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALGEBRA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI

N.Raxmonqulova, Qo'qon davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası matematika fani o'qituvchisi

Boshlang'ich sinflar dasturida algebra materiali mustaqil bo'lim sifatida ajratilmagan. Boshlang'ich matematika kursida algebra elementlarini o'rganish arifmetikani o'rganish masalalari bilan uzviy bog'langandir. hozir amal qilinayotgan dasturga muvofi? o'quvchilar matematik ifodalar, sonli tengliklar va tenglamalar haqidal boshlang'ich ma'lumotlar olishlari kerak, xarfiy simbolika, o'zgaruvchi bilan tanishishlari, eng sodda tenglama va tengsizliklarni echishni o'rganishlari kerak. Avvalo sonli ifoda tushunchasining mazmunini ko'raylik. Sonli ifoda tushunchasi boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan tushunchasidir. Algebra elementlariga kiradigan ifoda tushunchasini quyidagicha tariflash mumkin.

A) har bir son sonli ifodadir.

B) Agar A va V sonli ifodalar bo'lsa, u holda  $A + V$ ,  $A - V$ ,  $A \cdot V$ ,  $A : V$  ham sonli ifoda bo'ladi.

Ko'rsatilgan amallarni bajarib, sonlar orasiga qo'yilgan amallarni bajarib, sonli ifodaning qiymatini topamiz.

Masalan:  $30 : 5 = 6$ ,  $6 : 3 = 2$ ;  $(7 - 1) = 6$  bular sonli ifodalardir.

Matematik ifoda tarkibidagi sonlar orasiga qo'yilgan amal belgisi ikki xil ma'noga egadir. U bir tomondan sonlar ustida bajarilishi kerak bo'lgan amalni bildiradi, ikkinchi tomondan amal ishorasi ifodani aniqlash uchun xizmat qiladi.

Masalan:  $7 + 5$ , 7 ga 5 ni qo'shish kerak.  $7 + 5$  bu 7 va 5 sonlarining yig'indisi.

Dastur talabiga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari ifodalarni o'qishni va yozishni o'rganib olishlari kerak. Ikki va undan ortiq amallarni o'z ichiga olgan ifodalardagi amallarni bajarish qoidalarini o'zlashtirishlari, arifmetik amallarning xossalaridan foydalanilgan holda ifodalarni almashtirishlar va tanishishlari kerak. Eng sodda sonli ifodalar yig'indi va ayirma bilan o'quvchilar

I-sinfda, II-sinfda esa ular yana ikkita sodda ifodalar ko'paytma va bo'linma bilan tanishadilar.

3 sonini o'rganishdayo? bolalar (+,-) qo'shish va ayirish so'zlarini belgilashni tushunib oladilar.

Masalan: O'qituvchi bolalarga 2 ta cho'p va so'ngra yana bitta cho'pni qo'lga olishni va cho'plar nechta bo'lganini aytishni taklif qiladi va "ikkiga birni qo'shib 3 hosil qilindi" deb yakun yasaydi.

3 ni qo'shish va ayirish mavzusini o'rganishda bolalar yig'indi terminini bu masalan.  $3 + 4 = 7$  ko'rinishdagi ifoda qiymati nomini bildiradi. 3-qo'shiluvchi; 4-qo'shiluvchi; 7-yig'indi. 7 soni bunda qo'shishi natijasini bildiradi. Bu misolda 7 sonigina yig'indi bo'lmay balki 4 Q 3 ham yig'indi ekanini aytadi. 3 qo'shiluvchi + 4 qo'shiluvchi = 7 yig'indi terminining qo'sh ma'nosini o'zlashtirishlari maqsadida masalan: 7 va 2 sonlarining yig'indisini toping. 6 sonini 2 sonning yig'indisi bilan almashtirib, birinchi qo'shiluvchi 4, ikkinchi qo'shiluvchi 5 yig'indini toping kabi mashqlar beriladi. Ayirma tushunchasini kiritishda ham bu terminning ikki ma'nosi ochib beriladi, ya'ni bir tomondan u ifoda qiymatini bildiradi, ikkinchi tomondan esa ifodaning o'zini bildiradi.

Masalan: 9 kamayuvchi-6 ayriluvchi q 3 ayirma

Ko'paytma va bo'linmalar ustida ishlash ham shu kabi bo'ladi. 4 ko'paytuvchi  $\cdot$  3 ko'paytuvchi q 12 ko'paytma ;  $20 : 4 = 5$  bo'linma. So'ngra o'quvchilar murakkab ifodalar bilan tanishadilar.

Masalan: I sinfda  $3 + 1 + 1$ ,  $5 - 1 - 1$ ,  $7 - 3 + 2$ ,  $10 - (2 + 3)$ ,  $(6 - 3) + 2$

Bu ko'rinishdagi ifodalar o'quvchilarni arifmetik amallar xossalarini va ulardan kelib chiqadigan qoidalarni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Bolalar berilgan ifodalarni o'qish va ularning qiymatini topishga o'rgatiladi. Ifodalarni yozish va uni o'qishga o'rgatishga tayyorgarlik mashqlaridan.

Masalan: 10 soni plyus ishorasi va  $4 + 3$  yig'indidan foydalanib ifoda tuzishni taklif qiladi, bunda bolalar  $10 + 4 + 3$  yoki  $4 + 3 + 10$  ifodani tuzishadi. O'qituvchi misolni o'qishni taklif qilib uni uchta alohida sondan emas balki 10 soni hamda 4 va 3 sonlarining yig'indisidan tuzilganini ko'rsatadi.  $10 + (4 + 3)$ . So'ngra bolalarga  $10 - (5 + 2)$ ,  $5 + (7 - 3)$ ,  $(6 - 3) + 5$ ,  $6 - (5 - 3)$  ifodalar yuqoridagiga o'xshab tuzilishi o'rgatiladi va bolalar tomonidan o'qitiladi. Masalan:  $10 - (5 + 2)$  10 dan 5 va 2 sonlari yig'indisini ayiring.  $5 + (7 - 3)$ , 5 ga 7 va 3 sonlarining ayirmasini qo'shish  $(6 - 3) + 5$ , 6 bilan 3 ni ayirmasiga 5 ni qo'shish. II-sinfda ikkita sodda ifodalardan iborat.

Ifodalar masalan:  $(7 + 3) - (4 + 2)$ ;  $(6 + 2) + (1 + 2)$  so'ngra 2 sonning ko'paytmasi va bo'linmasini o'z ichiga olgan ifodalar o'rgatiladi.  $3 \cdot 4 - 6$ ;  $16 : 4 + 5$  so'ngra ifodaning qiymati terminlari kiritilib, ifodalarni yozing va ularni qiymatini taqqoslang, ifodalarni taqqoslang kabi topshiriqlar beriladi, hamda amallar tartibi qoidalari o'rgatiladi.

## **O`QUVCHILARNI GEOMETRIYADAN MASALALAR YECHISH JARAYONIDA KONSTRUKTIV BILIM BERISHGA O`RGATISH**

**G.A.Ergasheva, SamDU huzuridagi  
XTXQT va ularni MO hududiy markazi**

*Annotasiya. Ushbu ishda perimerga doir masalalar ishlab chiqilgan va o'qu jarayonida kommunikativ kompetettsiya elementlarini shakllanishi isbotlangan.*

**Tayanch so'zlar:** Ko'pburchak, uchburchak, perimetr.

Shunday qilib, o'quvchilar figuralarni teng bo'laklarga bo'lish yo'li bilan ulushlarni taqqoslaydi. Ulushlarni amaliy taqqoslashda turli burchakli paloskalar bilan bir qatorda doiralardan ham, boshqa geometrik figuralardan zarur. Turli ulushlarni faqat qirqish bilangina emas, balki bo'yash orqali ham hosil qilish mumkin. Yoki geometrik masalalarni quyidagicha yechish zarur.

Uchburchakning perimetri 174 sm

a) agar shu uchburchakning uchchala tomoni o'zaro teng bo'lsa, bitta tomonini toping.

*Berilgan.*

$$P = 174 \text{ sm}, \quad a = ?$$

$$\text{Yechish: } a = b = c \quad P = a + b + c$$

$$a + b + c = 174 \quad a + a + a = 174$$

$$3a = 174, \quad a = 174 : 3 = 58 \text{ sm}$$

*Javob:*  $a = 58 \text{ sm}$ .

b) agar shu uchburchakning ikkita tomoni o'zaro teng va uchinchi tomoni 56 sm bo'lsa, qolgan tomonini toping.

*Berilgan.*  $P = 174 \text{ sm}$ .  $a = b$   $c = 56 \text{ sm}$

$$a = ? \quad b = ?$$

$$\text{Yechish: } P = a + b + c$$

$$a + a + c = 174 \quad 2a + 56 = 174$$

$$2a = 174 - 56, \quad 2a = 118$$

$$a = 118 : 2 = 59 \text{ sm}$$

*Javob:*  $a = b = 59 \text{ sm}$ .

Tomoni 50 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi taxtachalardan kub yasashmoqchi. Bitta taxtachaning yuzini toping.

$$S = a \cdot a = 50 \cdot 50 = 2500$$

*Javob:*  $2500 \text{ sm}^2$ .

Uchburchakning perimetri 40 sm, bir tomoning uzunligi 15 sm, ikkinchi tomoni 12 sm, uchinchi tomonini toping.

*Berilgan.*  $P = 40 \text{ sm}$ ,  $a = 15 \text{ sm}$ ,  $b = 12 \text{ sm}$ ,  $c = ?$

$$\text{Yechish: } P = a + b + c$$

$$12 + 15 + c = 40$$

$$27 + c = 40, \quad c = 40 - 27$$

$$c = 13. \text{ Javob: } c = 13 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning perimetri 64 sm, bir tomoni ikkinchi tomonidan 3 marta uzun.

Uning tomonlarini toping.

$$\text{Berilgan. } P = 64 \text{ sm, } a = 3b \text{ sm, } a = ? \quad b = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot (3b + b) = 64$$

$$2 \cdot 4b = 64, \quad 8b = 64, \quad b = 64 : 8 = 8, \quad a = 3 \cdot b = 3 \cdot 8 = 24$$

$$\text{Javob: } a = 24 \text{ sm, } b = 8 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning perimetri 36 sm, bir ikkinchi tomonidan 2 marta qisqa. Uning tomonlarini toping.

$$\text{Berilgan. } P = 36 \text{ sm}$$

$$a = b : 2 \text{ sm, } a = ? \quad b = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot (a + 2a) = 2 \cdot 3a = 6a$$

$$6a = 36, \quad a = 36 : 6 = 6, \quad b = 2a = 2 \cdot 6 = 12$$

$$\text{Javob: } a = 6 \text{ sm, } b = 12 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning bir tomonining uzunligi 10 sm. Ikkinchi tomoni esa 2 sm uzun.

Uning perimetrini toping.

$$\text{Berilgan. } a = 10 \text{ sm, } b = a + 5 \text{ sm} = 10 + 5 = 15 \text{ sm. } P = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot (10 + 15) = 2 \cdot 25 = 50, \quad \text{Javob: } P = 50 \text{ sm.}$$

Tomon uzunligi 4 sm bo'lsa, kvadrat yonida yana shunday 2 ta kvadrat qo'ying. Hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini hisoblang.

$$\text{Berilgan. } a = 4 \text{ sm, } b = 3a = 3 \cdot 3 \cdot 4 = 12 \text{ sm, } P = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot (4 + 12) = 2 \cdot 16 = 32, \quad \text{Javob: } P = 32 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning tomonlari uzunligi 9 sm va 15 sm. Perimetri shu to'g'ri to'rtburchak perimetriga teng bo'lgan kvadrat toping.

$$\text{Berilgan. } a = 9 \text{ sm, } b = 15 \text{ sm, } P = ? \quad a_1 = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot (9 + 15) = 2 \cdot 24 = 48$$

$$P = 4a_1 = 48, \quad a_1 = 48 : 4 = 12, \quad \text{Javob: } a_1 = 12 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning asosining uzunligi 9 sm 5 mm, balandligi 2 sm 5 mm. Uning perimetrini toping.

*Berilgan*

$$a = 3 \text{ sm } 5 \text{ mm}$$

$$b = 2 \text{ sm } 5 \text{ mm}$$

$$P = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b)$$

$$P = 2 \cdot (3 \text{ sm } 5 \text{ mm} + 2 \text{ sm } 5 \text{ mm}) = 2 \cdot 6 = 12 \text{ sm}$$

$$\text{Javob: } P = 12 \text{ sm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning qo'shni tomonlari uzunliklari 10 sm 8 mm. Uning perimetrini toping.

$$\text{Berilgan. } a + b = 10 \text{ sm } 8 \text{ mm, } P = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b) = 2 \cdot 10 = 21 \text{ sm } 6 \text{ mm}$$

$$\text{Javob: } P = 21 \text{ sm } 6 \text{ mm.}$$

To'g'ri to'rtburchakning perimetri 48 sm. Tomonlaridan biri 8 sm. Uning yuzini toping.

$$\text{Berilgan. } P = 48 \text{ sm, } a = 8 \text{ sm, } S = ?$$

$$\text{Yechish: } P = 2 \cdot (a + b), \quad 2 \cdot (8 + b) = 48, \quad 8 + b = 48 : 2, \quad 8 + b = 24$$

$$b = 24 - 8, \quad b = 16, \quad S = a \cdot b = 8 \cdot 16 = 128, \quad \text{Javob: } S = 128 \text{ sm}^2.$$

Shundan keyin o'quvchilarni har xil ko'pburchaklarning perimetrlarini topish bo'yicha mashq qildirish kerak. Ko'pburchaklar orasida teng yonli va teng tomonli uchburchaklar va boshqa

figuralar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan har xil ko'pburchaklar perimetrlarini topishga doir masalalarni hal etishda tegishli amallarni ongli tanlashlariga sharoitlar yaratiladi.

O'quvchilar o'lchash malakalari va chizmachilik fanida o'lchash asboblardan foydalanib, geometrik figuralarni yasash malakalari bilan qurollantirish, ko'z bilan chamalab o'lchashlar, qo'lda chizish va hokozolar; bu malakalar hayotiy va muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarni nazariy va amaliyot orasidagi bog'lanishlarni murakkabligini anglab olishlariga chizish va yasash darslari yordam beradi. Chizish va yasash darslari o'quvchilarni geometriya elementlarini puxta o'rganib olishlariga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun o'quv qo'llanma ) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

2. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (O O'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil.

3. Jumaev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun ) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2005 yil.

4. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Turon-iqbol" 2012 yil.

#### **BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA KUNDALIK HAYOTIDA UCHRAYDIGAN RASMLI VA AMALIY MASALALARDAN FOYDALANISH.**

**M.K.Akbarova, S.A.Akbarova**  
**Paxtaobod tumani 25-umumiy o'rta ta'lim**  
**maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi,**  
**J.Dehqonova Andijon shahar 34-umumiy o'rta**  
**ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi**

Bilamizki, barcha narsalar soddadan murakkabga tomon yo'naltiriladi. Shunday ekan boshlang'ich sinf matematika darslarida ham dastlab sodda tushunchalar berib boriladi va bu tushunchalar orqali o'quvchilar matematika fani haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'ladilar. Matematika darslarida arifmetik amallar bilan bir qatorda o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mulohaza qilishga undovchi masalalar ham berib boriladi. Masalarda berilgan ta ko'p, ta kam, marta kam, marta ortiq kabi tushunchalarni o'rganadilar.

Boshlang'ich maktab matematika kursida masalalarni yechish, bir tomonda, bizni o'rab turgan borliqni matematik modellarini qurishning dastlabki malakalarini shakllantirish bosqichi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, o'zlari bo'lgan ishonch, sabr qanoat, qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o'tish va kelajakdagi faoliyatlarida uchraydigan muammolarni yechishga dastlabki qadamlar bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki masalalarni yechish bu – uning shartida bevosita yoki bilvosita ko'rsatilgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida arifmetik amallar va operatsiyalarning mantiqiy ketma-ketligi orqali masala talabini bajarish demakdir.

O'qituvchi o'quvchilarga masalalarni tushuntirishda ularning kundalik hayotida uchraydigan misollar orqali amalga oshirishi ularning masalani mohiyatini tushinishga yordam beradi.

Masalan:

Mushtariyning to'rtta mushukchasi bor edi. U dugonasi bittasini va singlisiga bittasini berdi unda nechta mushukcha qoldi?



O'quvchilar tasavvurida masala to'g'risida tushuncha hosil qilganimizdan keyin sodda masallar yechishga tayorgarlik bosqichini amalga oshiradilar.

Bu bosqichda ko'proq ularning kundalik hayotida uchraydigan rasmi masalalardan foydalanish o'quvchilar masalalarni tushinishiga kata yordam beradi. Chunki masalalar og'zaki so'z bilan ifodalaganimizda o'quvchilarning masala sharti va talabini bir butun deb idrok qiladi natijada masalalarni yechishda qaysi arifmetik amallardan foydalanish kerakligini aniqlay olmaydilar.

Tayorgarlik jarayonida o'quvchilarga kundalik hayotida uchraydigan rasmi masalalardan foydalanib tushintirish va o'zlariga mustaqil masala tuzish va ularni yechish qobiliyatlarini shakllantirish ularni yuqori sinflardagi ikki va undan yuqori amalli masalalarni yechishda qiyinchiliklar tuqdirmaydi.

Masalalar nazriy hamda amaliy tarzda ishlab chiqiladi. Amaliy masalarini ishlash o'quvchilarni yodida mustahkamroq qolishiga yordam beradi. Masalan: to'rtburchakning perimetirini toping, tarzidagi masala berilgan bo'lsa, to'rtburchakni chizib uni perimetirini topish bilan bir qatorda o'quvchilar chizg'ich orqali o'zlarining to'rtburchak shakldagi o'quv qurollaridan, geometrik figuralardan foydalanib, amaliy ravishda to'rtburchakning tomonlari o'lchab, perimetrini topsa, o'quvchining xotirasida bu masala mustahkamroq qoladi. Vaqt birliklariga oid masalar berilgan bo'lsa, masalan; o'quvchi ertalab  $7^{30}$  uydan chiqib  $8^{00}$  da maktabga yetib keldi. O'quvchi uydan maktabga qancha vaqt mobaynida yetib keldi. Bu masalani yechishda o'qituvchi soatning maketidan foydalanib o'quvchilarga masalani amaliy tarzda ishlab tushintirish mumkin. Bu orqali o'quvchilar soat bilan ishlashga vaqt birliglarini ham o'rganishga uni mustahkamlashda yuqori samara beradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Jumaev M.E. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (*Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik*) — T.: «Fan va texnologiya», 2005-yil.

2. Oliy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2003 yil.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIGA QIZIQTIRISHDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

**M.K.Akbarova, S.A.Akbarova**

**Paxtaobod tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi,**

**J.Dehqonova Andijon shahar 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi**

Maktab ta'limida boshlang'ich ta'lim asosiy tayanch ta'lim bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. O'quvchi mana shu ta'lim jarayonida haqiqiy savodxonlik darajasiga ega bo'ladi, bu davrda ular o'qish va yozuv malakasiga ega bo'ladilar, ularning matematik tasavvurlari kengayadi, atrof-muhit haqida fikrlar shakllanadi.

Boshlang'ich maktabda matematika ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq qilish hamda ta'limning ikkinchi bosqichiga o'tishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf odatlarni o'ziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Matematika bo'yicha standart ko'rsatkichlari bolalarda natural sonlar va nol to'g'risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlar va arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish, eng soddagina geometrik



shakllar, ularni tekislikda tasvirlash xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilishdan iboratdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'rta maktabda matematika o'qitish butun sistemasida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi. Maktab oldiga prinsipial yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Matematika boshlang'ich kursida ham kattagina o'zgartirishlar qilindi.

Biz bilamizki, boshlang'ich sinflarning matematik darslarida, matematikadan sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda va boshqa matematik tadbirlarning mazmuniga o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini kengaytirish ishiga imkon beruvchi amaliy ishlar, ularning tafakkurlarini, mustaqil fikrlarini rivojlantiruvchi ularning matematika darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi qiziqarli o'yinlar kiritish katta ahamiyatga ega.

Qiziqarli o'yinlar o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularda tez hisoblash ko'nikmalarini shakllantiradi, ularning kundalik hayotlarida yuzaga kelgan muammoli iqtisodiy muammoli masalalarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf matematika materiallarini o'quvchilar ongiga singdirishda biror ta'limiy maqsadga bo'ysundirilgan o'yinlar – qiziqarli o'yinlarning ahamiyati juda kattadir.

Masalan. O'qituvchi qo'shni parallel sinfdan shifrlangan xat kelganligini, bu shifrnı ochish bilan xat mazmuni ma'lum bo'lishini va agar berilgan bir qancha sonli misollar to'g'ri yechilib, javoblardagi raqamlar o'rniga kerakli mos harflar qo'yilsa shifr ochilishi va xatning mazmuni kelib chiqishini aytadi.

O'quvchilar xatning mazmunini bilish uchun juda qiziqadilar. O'quvchilar amallarni qiziqish bilan to'g'ri va tez ishlashga harakat qiladilar, chunki ular aqalli bitta misol noto'g'ri yechilsa, shifr ochilmasligini biladilar.

Bunda, ular misollarni ishlash davomida bir-birlarini kuzatib, misollarning to'g'ri ishlanganligini nazorat qilib boradilar.

Misollarni bunday jamoa bo'lib ishlashi ularda bir-biriga nisbatan uyushqoqlik, birdamlilik va hamjihatlik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Matematik mashg'ulotlar uchun o'yin tanlanganda, uning qanday didaktik madsadga bo'ysundirilayotganiga katta e'tibor berish kerak, o'yin bolalar uchun faqat ermakka, befoyda vaqt o'tkazishga aylanib qolmasligi kerak.

O'yinda bosh maslahatchi sifatida qatnashayotgan–o'qituvchining o'yinni biror didaktik maqsadga bo'ysundirishi, uni boshqara olish mahorati ishning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich matematikadan bolalarning miqdoriy, fazoviy tasavvurlarini rivojlantiruvchi ko'p miqdorda o'yinlar yaratilgan. Ushbu o'yinlar yaxshi ma'lum: "Arifmetik loto", "Doiraviy misollar", "Zinacha", "Jim", "Tirik raqamlar", "Magazin" va boshqalar.

Bir xillarini top?

Javobi berilgan misollarni kim tez va to'g'ri topa oladi?

Har qaysi o'ynovchi misollar yozilgan 6 ta kartochkadan iborat to'plam oladi: 1-to'plam — sahifaning yuqori qismi, 2-to'plam — sahifaning pastki qismi. Kim o'z to'plamidan javobi berilgan misollarni tez va to'g'ri topa olsa, o'sha g'olib bo'ladi.

Misollardagi bo'sh joylarni kim tez va to'g'ri to'ldira oladi (10 ichida qo'shish va ayirish).

Har qaysi o'ynovchi bittadan katta kartochka oladi. Har bir ramkaga darslik ilovasidan olingan kerakli raqamni tez va to'g'ri qo'ygan o'ynovchi yutadi.

Qiziqarli o'yinlar o'quvchilarning darsdagi faoliyatini oshiradi, uzoq vaqt esda saqlash xotiralarini rivojlantiradi, matematik amallarni tez va to'g'ri ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, eng muhimi o'yin yordamida bajarilgan ishlar o'quvchilarni zeriktirmaydi, ularni charchatmaydi. Matematik materiallarning ta'limiy va tarbiyaviy xarakteriga qarab o'qituvchilar tomonidan didaktik o'yinlar tanlanadi yoki o'ylab topiladi.

## Adabiyotlar

1. Jumaev M.E. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (*Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik*) — T.: «Fan va texnologiya», 2005-yil.

2. Oliy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash istiqbollari. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2003.

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

D.P.Sayfutdinova, ADU o'qituvchisi,  
M.N. Xalilova, BTSTI ta'lim yo'nalishi talabasi, ADU

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning samarali usullari va ularning ahamiyati haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, sinfdan tashqari ishlar, tafakkur, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, komil insonni shakllantirish, tashabbuskorlik, a'limiy va tarbiyaviy ishlar.

Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil va ijodiy fikr olaydigan, nutqiy va madaniy muloqot salohiyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Farzandlarimiz Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'sha olaydigan, salohiyatli yoshlar bo'lib tarbiyalanishi kerakligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir nutqida buni alohida ta'kidlab o'tadilar. Quyidagi fikr va mulohazalar ham bevosita ta'lim tizimiga taalluqlidir: “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi”.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maktab ta'limida yetakchi o'quv fanlaridan hisoblangan ona tili o'quv faniga bevosita va bilvosita daxldordir. Ona tili mashg'ulotlari tilning butun go'zalligi, sehrini o'rganishga qiziqish uyg'otishi, hech qanday dastur bilan belgilab berib bo'lmaydigan qonuniyatlari bilan tanishtirishi zarurki, bu istiqbolli ta'limni yo'lga qo'yishdagi eng asosiy va eng muhim omil vazifasini o'tashi lozim. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish shu kunning muhim talablaridan biridir.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali usullarini ishlash va ularni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'alarimizga – qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh omilidir.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab-mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir qiladi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib, joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, xohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning ijobiy natijasi bu – ishlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olish, samarali o'tkazish usullarini topa olish, o'quvchilarda o'tkaziladigan tadbirga havas paydo etishdan iboratdir.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga tadbir etishi, huquqiy - demokratik jamiyatga munosib, o'z fikrini erkin bayon eta olaydigan insonni tarbiyalash, uni ruhan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishi jamiyatimiz taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shishga tayyorlashdan iboratdir.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta'lim ishlariga maktabda ma'lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to'garaklar, bilimlar bellashuvi kiradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar qobiliyatini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug'diradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. O'quvchilar turli sohalarda ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi Vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ixtiyoriy xarakterga ega. Bolalar bunday ishlarga o'z xohishlari bilan ishtirok etishadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin.

Darsdan tashqari ta'limiy va tarbiyaviy ishlar maktab o'quvchilari hayotida katta o'rin egallaydi. Shuning uchun bunday ishlarni to'g'ri va mazmunli tashkil etish maqsadga muvofiqdir, chunki o'quvchilar bo'sh vaqtlaridan dam olish, sevimli ishlari bilan shug'ullanish, aqliy, axloqiy, estetik sifatlarini yanada rivojlantirish uchun to'la foydalansinlar. Sinfdan tashqari ishlarga majburiy mashg'ulotdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar kiradi. Maktabdan tashqari ishlarni asosan bolalar va o'smirlar tashkilotlari o'tkazadilar. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar darsda hamma uchun majburiy bo'lgan o'quv dasturiga muvofiq ravishda o'tkaziladigan ta'lim va tarbiya ishlarining davomi va yanada rivojlantirilishidir. Shu asosda sinfdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning darsdagi ishlari takrorlanmaydi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning umummilliy va maxsus bilimlarini kengaytirish, turli xil ijodiy qobiliyatlarini, iste'dodlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi, ularda tashabbuskorlik va mustaqillik sifatlarini tarbiyalaydi.

Maktabda tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish bilan birga, ularni axloq-odob, estetik ruhda tarbiyalaydi, ma'naviyatini shakllantiradi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish vositasidir. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga grammatik ertaliklar, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, chiroyli yozuv musobaqasini tashkil qilish, adabiy-badiiy kechalar tashkil qilish, kitobxonlar burchagi tashkil qilish, badiiy asarlarni sahnalashtirish kabilarni kiritish mumkin.

Savol-javob kechasida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1-1,5 oy oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatdan har xil bo'lishi mumkin.

Ko'rik tanlovlar ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlarida biridir. Bu tadbir vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, boshlang'ich sinflarda "Kimning xati chiroyli?", "Matn mazmunini kim tez va to'g'ri tushunadi?" kabi mavzular tanlanishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad o'tkaziladigan har bir ish mazmuniga vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislarini singdirishga oid ma'lumotlarga e'tiborini kuchaytirish; o'quvchilarni o'z hududida, o'lkasi, xalqiga mehr va sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalashga oid ma'lumotlar berish, o'quvchilardagi odobli bo'lish, mehnatsevar bo'lish kabi insoniy sifatlarini shakllantirish ham boshlang'ich ta'limning mazmun-mohiyatini tashkil etishi lozim; boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafosat tarbiyasi ham o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar vositasida o'quvchi qalbida xalqqa, ona-Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'usini tarkib toptirishga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an'analarimizga – qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh omilidir. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab-mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib, joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, xohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, unda dasturning rang- barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, hayot bilan bog'liqligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda, dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarning nechog'li ahamiyatga molik ekanligi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotga pok, vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xulosa chiqarish, o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

## **РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В МЛАДШИХ КЛАССАХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ СКАЗОК**

**Д.П.Сайфутдинова, преподаватель кафедры МНО, АГУ  
Ш.Н.Якубова, студентка 1-курса направления НОСВР, АГУ**

***Аннотация:** данная статья посвящена актуальным проблемам возможностей развития творчества младших школьников при изучении сказок на уроках литературного чтения.*

***Ключевые слова:** творчество, мышление, проблемы, методы, анализ*

«Ребенок, испытавший радость творчества даже в самой минимальной степени, становится другим, чем ребенок, подражающих актам других».

Б.Асафьев.

Развитие творческих способностей учащихся является одной из основных целей современной педагогической науки, в частности, предметов художественно - эстетического цикла. Широкое развитие в этом направлении по достоинству должно получить приобщение учащихся начальной школы к национальной культуре, народному фольклору через создание иллюстраций к народным сказкам на уроках изобразительного искусства.

Сегодня вопрос о развитии творческих способностей, учащихся в теории и практике обучения стоит особенно актуально, так как исследования последнего времени выявили у школьников значительно больше, чем предполагалось ранее, возможности усваивать как в привычной, так и в нестандартной ситуации.

Итак, творчество - это деятельность, результатом которой являются новые материальные и духовные ценности; высшая форма психической активности, самостоятельности, способность создавать что-то новое, оригинальное. В результате творческой деятельности формируются и развиваются творческие способности.

Что же такое "творческие способности", или "креативность"? Так, П. Торренс под креативностью понимал способность к обостренному восприятию недостатков, пробелов в знаниях, дисгармонии. В структуре творческой деятельности он выделял:

- ❖ восприятие проблемы;
- ❖ поиск решения;
- ❖ возникновение и формулировку гипотез;

- ❖ проверку гипотез;
- ❖ их модификацию;
- ❖ нахождение результатов.

Отмечается, что в творческой деятельности важную роль играют такие факторы, как особенности темперамента, способность быстро усваивать и порождать идеи (не критически относиться к ним); что творческие решения приходят в момент релаксации, рассеивания внимания.

### **Сказки – прекрасное творение искусства и материал для творчества.**

Несмотря на разнообразные задания к сказкам, их можно дополнить игровыми моментами, театрализацией, письменными заданиями, творческими заданиями, групповыми формами работы, что, и предполагается ввести в систему уроков, для развития творческих способностей учащихся.

Приведём методы и приёмы работ со сказкой из системы уроков.

Одним из использованных приёмов является *объединение двух коротких сказок в одну с новым сюжетом*. В данном случае активную роль играют и речь, и воображение ребенка. Ученик изобретает, то есть придумывает что-то новое не в буквальном смысле этого слова, а в мыслях. А изобретать можно и нужно разнопланово, например, придумывать старые предметы в новых вариантах (будильник хватает спящего за уши, в нем заложены мелодии завтрака, гигиенических процедур и т. д.).

Следующий метод в общей системе развития творческих способностей – *«Постановка проблемного вопроса»*. В системе мы использовали вопросы поискового характера (почему, зачем, каким образом, а если бы, всегда ли). К примеру: «А если бы людоед не превратился в мышку, как бы Кот в сапогах оказался победителем?» – дети начинают искать свои варианты, то есть решать поставленную проблему.

Еще один метод – *метод шифров*. Можно шифровать название сказок, имена их героев или отдельные слова из произведений. Шифровать можно по-разному: перевернуть слово слева направо («Путаница» – «Ацинатуп»); изобразить вверх ногами всего две буквы («Путаница» – «цубаница»).

*Сказка от смешного стишка*. Смешные стишки, как правило, короткие, помогают детям сочинять невероятные сказки. Во-первых, они помогают развить в детях чувство юмора, а во-вторых, текст стишка служит ребенку отправной точкой для сочинительства. Мы с улыбкой читаем стишок и предлагаем завязку сказки.

Оценивая детское творчество, и, высказывая своё суждение о нём, взрослый должен быть предельно деликатным, бережно относиться к восприятию мира маленькими авторами, не подменяя непосредственный детский взгляд на окружающее своим пониманием тех или иных явлений.

Развитию воображения и связной речи младших школьников на уроках чтения способствуют творческие работы, которые проводятся на основе изучаемого художественного произведения.

Для развития творческого воображения и логического мышления можно научить ребят додумывать середину сказки или рассказа (где, в основном, и развивается сюжет). А в качестве помощи ребятам предлагается затейливое начало и видимый, с результатом, конец.

В процессе обучения дети через предложенную систему уроков последовательно овладели умениями: осознавать комический и драматический характер сказочных событий; видеть специфическое начало сказки – зачин, концовку; давать элементарную оценочную характеристику поведения персонажей; выделять противопоставленных персонажей по их поступкам; определять сказочное время и место действия; умение рассказывать и сочинять сказки с определенной оригинальностью сюжета, гибкостью изложения и идейной законченностью.

Таким образом, гипотеза исследования нашла своё практическое подтверждение.

Пробудить заложенные в каждом ребенке творческое начало, научить трудиться, помочь понять и найти себя, сделать первые шаги в творчестве для радостной, счастливой и наполненной жизни – к этому и стремимся мы в меру своих сил и способностей, организуя наши уроки. Конечно, эту задачу не под силу решить одному педагогу. Но если каждый из нас задается этой целью и будет стремиться к нему, то выиграют, в конечном счете, наши дети, наше будущее.

#### **Список литературы:**

1. Алексина А.А. Методика преподавания детской литературы / А.А. Алексина. – М., 2002. – 158 с.
2. Львов М.Р. Методика обучения русскому языку в начальных классах / М.Р. Львов, Н.Н. Светловская. – М., 1987. – 416 с.
3. Петунина Е.С. Анализ текста художественного произведения и развития речи учащихся / Е.С. Петунина. – М., 1962. – 63 с.
4. Рез З.Я. Методика преподавания литературы / З.Я. Рез. – М., 1989. – 215 с.

### **БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ГЕНДЕР МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИ**

**З. Т.Холматова, Фарғона ДУ ўқитувчиси**

***Аннотация.** Мақолада гедер муносабатларининг ижтимоийлашуви ўқитишида интеграциялашган таълимни амалга ошириш омиллари ҳақида фикр юритилади.*

***Калим сўзлар:** ахлоқий тушунчалар, қад-қиммат, ўқитиш, билим, кўникма, малка, маҳорат, шахс маънавияти.*

Буни Ўзбекистон Республикаси маънавий ҳаётида ўқитувчилар фаоллигини ошириш модели (намуна) сифатида куйидагича кўсатиш мумкин

Фаоллик – бу инсондаги энг муҳим хислатлар, шахсий талаблар, қарашлар асосида ижтимоий воқеликни ўзгартириш қобилияти сифатида эътироф этилади. Шахсинг ўзига хос хусусияти сифатида фаоллик унинг меҳнати, ўқиши, ижтимоий-маиший фаолиятининг барча турларида кўринади. Инсон фаолиятидаги рағбатлантириш, ғоявий йўналганлик, мақсадга интилиш фаолликнинг асосий йўналишларидир.

Юқорида қайд этилган фикрлардан аён бўладики, шахс фаоллиги ижтимоий муносабатлар маҳсули сифатида айнан шу жараёнда намоён бўлади ҳамда шахсинг жамият, шунингдек, халқаро майдонда рўй бераётган ўзгаришлар, воқеликларга нисбатан муносабати, яъни, фаолиятида акс этади.

Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, фаоллик – бу шахсинг ижтимоий ўзгаришлар моҳиятини англай олиши, уларга нисбатан муносабат билдириши ҳамда мавжуд воқеликни ўзгартиришга йўналтирилган ижтимоий ҳаракатда иштирок этиш даражасидир. Ўқитувчилар фаоллиги эса уларнинг ижтимоий тараққиёти, шахсий ҳаёти, оилавий муносабатларни ташкил этиш жараёнида муҳим ўрин тутувчи субъект фаолиятининг маълум даражаси, сифат кўрсаткичидир.

Ҳозирги иқтисодий шароитда ўқитувчилар фаоллиги энг юқори маънавий-ахлоқий, фуқаролик фаолияти мотивларини шакллантириш, яъни масъулиятни хис этиш, ўз виждони, химоя қилиш, оилада, меҳнат фаолиятида, шунингдек, ижтимоий ҳаётда ўзлигини намоён этишдан иборатдир.

Ўқитувчилар фаоллиги уларнинг жамиятда рўй бераётган ўзгаришлар, ташкил этилаётган ижтимоий муносабатларнинг маънавий асосга эгаллиги билан тавсифланадиган фаолият кўрсаткичи саналади ва уларнинг ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларидаги иштироки билан белгиланади. Улар фаоллигини ошириш – аниқ мақсадга йўналтирилган педагогик жараён сифатида юзага келади, ривожланади ва такомиллашиб боради.

Аёллар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш жараёнининг илмий асослари қуйидагиларни ўз ичига олади:

- аёллар ижтимоий фаоллиги ижтимоий-маънавий муносабатлар жараёнида таркиб топди ва уларнинг ижтимоий ҳаётга ёндошуви асосида намоён бўлади;
- аёллар ижтимоий фаоллиги маънавий-ахлоқий талаблар асосида ташкил этилган фаолият сифатида уларнинг маънавий камол топишларида муҳим омил ҳисобланади;
- аёллар маънавий фаоллиги улар мансуб бўлган жамиятнинг маънавий ижтимоий муносабатлар мазмуни ҳамда мафкураси, йўналишлари ва қамровига мутаносибдир;
- аёллар фаоллигини ривожлантириш улар ўртасида амалга ошириладиган тарбиявий-ташкилий ишларнинг самарали йўлга қўйилишига боғлиқ;
- аёллар фаоллигини ривожлантириш жамият тараққиётининг истиқболлини олдиндан башорат қила олиш даражасига ҳам боғлиқ бўлади.

Аёллар фаоллигини ривожлантириш қуйидаги вазифаларни ҳал этади: аёлларнинг ижтимоий онгини шакллантириш; аёллар фаоллигини оширишнинг педагогик шарт-шароитларини аниқлаш, улар ўртасида соғлом психологик муҳитни яратиш; аёлларни жамиятда рўй бераётган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий ўзгаришлардан узлуксиз хабардор этиб бориш; аёлларга уларга доир давлат сиёсатининг мазмуни, моҳияти ва аҳамиятини тушунтириб бориш; аёллар фаоллигини оширишга доир тадбирларни белгилаш ва уларнинг самарадорлигини таъминлаш учун зарур шароитларни яратиш; миллий истиқлол ғояси асосида жамият маънавиятини ривожлантиришга доир ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий йўналишларда аёллар иштирокини қўллаб-қувватлаш ва мувофиқлаштириш.

Мазкур вазифаларни бажаришда қуйидаги тамойилларга риоя этилади: онг ва фаолият бирлигига эришиш орқали улар фаоллигини онгли ташкил этиш; аёллар фаоллигини оширишда узвийлик, узлуксизлик ва тизимлиликка риоя этиш; чуқур ғоявийлик ва илмийликка асосланиш; аёллар фаоллигининг инсонпарварлик ва инсонийлик тамойилига риоя этиш, умумжамият манфаатини шахсий манфаати билан уйғунлик касб этишига эришиш; аёллар фаоллигини ошириш жараёнига яхлит, мажмуавий ёндошув; аёллар фаоллигини ошириш борасидаги фаолиятининг аниқ мақсадга йўналтирилганлиги.

Ўқитувчилар касбий-ижодий меҳнат фаолиятлари асосидаги йўналишлардан келиб чиққан ҳолда улар фаолликларини ташкил этиш билан изоҳланади:

- ўқитувчилар фаоллигини оширишда уларнинг мустақил фикрлари ва фаолият юритишларига эришиш (бу тамойил уларнинг мустақил, эркин иш юритишларини таъминлайди);

- Ўқитувчилар иштимоий фаоллигини шакллантиришда демократик тамойилларнинг устунлиги (ўқитувчи шахси, ҳуқуқ ва бурчларини ҳурмат қилиш, уларнинг қарашлари, фикрлари ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш зарур ҳисобланади).

Бу тамойиллар асосида Ўқитувчилар фаоллигини оширишда маълум шарт-шароитлар яратиш талаб этилади. Жумладан:

- жамиятда маънавий жихатдан янгилашиш харакати ташкил этилган бир шароитда миллий истиқлол ғояси ва мафкурасини шакллантириш, давлатнинг ўқитувчилар масаласидаги сиёсати, халқаро миқёсда муаммосининг қўйилишини ўқитувчилар ўртасида кенг тағиб қилиб бориш;

- ўқитувчилар фаоллигини оширишда жамиятдаги соғлом ижтимоий-маънавий муҳит ↔ ўқитувчи ↔ жамият ↔ шахс манфаатларининг уйғунлиги; жамиятда ўқитувчи ↔ давлат ва нодавлат ташкилотлари ↔ жамият ўртасидаги ҳамкорликка эришиш;

- ижтимоий-моддий омиллар ↔ жамиятнинг ижтимоий иқтисодий ривожланиш даражаси ↔ фан ва техника тараққиёти аёллар бандлиги ўртасидаги алоқани уйғун ҳолда йўлга қўйиш ва бошқалар.

Жамият маънавиятини шакллантиришда аёллар фаоллиги ўзига хос хусусиятга эга. Бу хусусиятлар уларнинг физиологик, рухий, жисмоний ҳолатларида намоён бўлади ва куйидаги тизимда шаклланади: **маънавий муҳит ↔ маънавий муносабатлар ↔ рағбат, қизиқиш ↔ маънавий-рухий тайёргарлик ↔ мақсад ↔ фаолият ↔ фаоллик.**

Ўқитувчилар фаоллиги даражаси куйидаги мезонлар асосида белгиланади: дунёқарашни бойитувчи ва касб-корга оид билимларга эга бўлиш; маънавий-ижтимоий муносабатларни ташкил этиш жараёнида иштирок этиш; маънавий фаолият кўлами ва мазмуни; маънавий-ижтимоий вазиятларни баҳолай олиш; маънавий-ижтимоий фаолиятни ташкил этишда онглилик, ғоявийлик, ватанпарварлик, мустақиллик, ташаббускорлик, тадбиркорлик, ишбилармонлик, инсонпарварлик, байналминаллик, ишчанлик, тезкорлик, эркин фикр юритиш, ижодкорлик, масъулиятни ҳис этиш каби хислатларни намоён этиш ва бошқалар ифодаланади.

Хозирги даврда илмий тадқиқотлар эса мазкур муаммони қайта кўриб чиқишни тақозо этади. Шу муносабат билан мазкур ишда аёлларнинг жамият маънавий ҳаётидаги фаоллигини ошириш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти, ўз-ўзини англаши, турмуш даражаси, моддий фаровонлиги, касбий бандлиги, соғлигини мустахкамлаш ва бошқа муаммолар билан боғлиқ равишда тадқиқ этилмоқда. Шунингдек, тадқиқотчиларнинг маълум гуруҳи уларнинг ёш авлод тарбияси, оила демографияси, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий ҳаётда тутган ўрни, турли жамғарма ва жамоалардаги фаолият масалалари билан боғлиқ ҳолда тадқиқ этмоқдаларки, бунда жамият маънавий ҳаётида аёллар фаоллигини оширишда катта имкониятлар мавжудлиги ёрқин намоён бўлмоқда. Улар асосида аёлларни ижтимоий жиҳатдан фаоллаштиришнинг объектив йўллари белгилаб олинмоқда.

Айни вақтда педагогика олий таълим муассасаларида мазкур фан асосида талабаларни ижтимоий-педагогик фаолиятни ташкил этишга тайёрлаш йўлида амалий ҳаракатлар олиб борилмоқда.

#### **Адабиётлар**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 997-сон қарори (*Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.12.2018 й., 09/18/997/2289-сон*)

4. [хтг://www.gov.uz/](http://xtg://www.gov.uz/) - Ўзбекистон Республикаси ҳукумати саҳифаси. Расмий ахборот, Олий мажлис қарорлари ҳақида маълумот беради;

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA FONETIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILARNI TO'G'RI TALAFFUZGA O'RGATISH**

**D.M.Halilova, Andijon tumani,  
54-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida fonetik tushunchalar ustida ishlashda o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, to'g'ri talaffuz, fonetik bilim, savod o'rgatish davri, nutq tovushlari.

Ona tili darslarida o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish fonetik va grammatik tushunchalar ustida ishlash jarayonida olib boriladi.



Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: 1) fonetika bilishga asoslangan holda 1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davrida o'qish va yozishni bilib olgan bo'ladilar; 2) fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish (talaffuzlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uni, bo'g'inni ajratish) asosini tashkil etadi; 3) fonetik bilim morfologik va so'z yasashiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator orfografik malakalar (jarangli va jarangsiz undoshlarning yozilishi)ni shakllantirish uchun zamin bo'ladi; 4) fonetik bilim gapning ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, so'z, urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga, rioya qilish uchun zarur; 5) so'zning tovush tomonidan tahlil qilish, uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir. Hozir va hozir, atlas va atlas so'zlarni ma'nosidagi farq faqat urg'u orqali ajratiladi. So'zning tovush tomonini aniq tasavvur qilish, so'zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qo'llash uchun zarurdir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomondan tashkil qilishdan foydalaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalarni egallaydilar: tovushlar va harflar unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. Shunga qaramay, o'quvchilarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. **Masalan:** aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil leksik ma'noni ifodalaydi.

So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridanoq belgilanadi. O'quvchilar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so'z tovushlardan tuzilishini bilib oladi. Ular so'zni tovush tomonidan tahlil qilishga o'rganadi, ya'ni so'zni bo'g'inlarga bo'ladilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytadi. Bunda tovush tomonidan tahlilni harf tomonidan tahlil bilan aralastirmaslikka alohida ahamiyat beradi. **Masalan:** kel so'zida k, e, l, tovushlari, elak so'zida e, l, a, k, tovushlari borligini aytishlari zarur.

So'zning tovush tartibini to'g'ri talaffuz etish undagi harflarni tushurib, qoldirmay yoki o'rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun savod o'rgatishdan so'ng ham, 2-3-sinfda ham so'zni tovush tomonidan tahlil qilish mashqlari yordamida so'zdagi tovushlar tarkibini aniqlash ko'nikmasini takomillashtirish uchun ishlab olib boriladi. Ma'lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilarni hisobga olinadi:

1) Talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda, havo oqimi og'iz bo'shlig'ida erkin ravishda o'tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);

2) Ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat tovushdan iborat);

3) Bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi).

O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksincha, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini tuzatish ko'nikmasini o'stirib borish kerak. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom etiladi va umumiy lashtiriladi. Tovushlarni o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harf bilan ifodalanadi. 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari kerak: tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz. O'zbek tilida 30 ta tovush bor; harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz. O'zbek tilida 29 ta harf bor; harf-tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi. O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfni almashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar. O'quvchilar bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun tovushlar yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Masalan: chizmani kuzating, bu so'zda nechta tovush

bor? Bu so'z oila a'zolaridan birini bildiruvchi so'z.

--	--	--

Qaysi soʻz ekanini kim topadi? (Ona). “Ona” soʻzida nechta tovush bor? Shu soʻzdagi ikkinchi tovushni boshqasi bilan almashtiring. (Ota). “Ona” va “Ota” soʻzlarining maʼnosini qaysi tovushlar farqlab beryapdi? (N va T tovushlari). Aka soʻzida neshta tovush bor? (3 ta). Birinchi tovushini oʻzgartirib yangi soʻz hosil qiling. (Uka). Soʻzlarining maʼnosi nega oʻzgardi? (Tovushlar oʻzgargani uchun). Demak, tovushlar soʻzning nimasini oʻzgartiradi? (Maʼnosini).

Oʻquvchilar ushbu soʻzlarni ketma-ket aytadilar. Ularni aralashtirmay toʻgʻri talaffuz qilganiga ishonch hosil qilib, mashqni yukunlaydi. Toʻgʻri talaffuzga oʻrgatishning bunday usulini birinchi sinf oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkazish mumkin.

Oʻquvchilar maktabga kelgunga qadar ham nutqni tovush qurilishini amaliy oʻzlashtiradilar, ammo ular maxsus oʻqiganlariga qadar ham soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishni, soʻzdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf oʻquvchilarida soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, boʻgʻinlarga boʻlish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish koʻnikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, oʻz navbatida analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati soʻz tarkibida bir-biriga taʼsiri kabi ayrim elementlar bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi. 1-sinfda fonetika va grafikani oʻrgatishga katta eʼtibor beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqishi va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda, asosan mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

## **MANTIQUIY VA QIZIQARLI MASALALAR YORDAMIDA OʻQUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

**M.Mamadaliyeva, magistrant, ADU**


***Annotatsiya:** ushbu maqolada mantiqiy va qiziqarli masalalar yordamida oʻquvchilarning matematika faniga boʻlgan qiziqishi, ular yordamida ushbu fanni oʻqitish qulayliklari va oʻquvchilarning fikrlash tafakkurini rivojlantirish haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit soʻzlar:** mantiqiy va qiziqarli masalalar, fanning dolzarbligi, fikrlash tafakkuri va mantiqiy va qiziqarli masalalarning afzalliklari.*


Hammamizga ayonki, 2020- yildan boshlab matematika faniga eʼtibor yana ham kuchaytirilmoqda. Shaxsan prezidentimiz oʻzi ham bu fanni kuchaytirishni, taʼkidlab, kerakli koʻrsatma va buyruqlarni berib oʻtdi. Xaqiqatdan ham avval matematika, keyin qolgan fanlar. Chunki barcha fanlar negizida matematika yotadi. Misol uchun: fizika raqamlar va hisob-kitobdan iborat, shuning uchun fizikani matematikasiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Kimyo bu – murakkab masalalar, hisob – kitoblar va formulalar fanidir, murakkab masalalarni yechish bu – matematika. Biologiya tabiat haqidagi fandır, tabiatni raqamlarsiz tushinishning iloji yoʻq. Raqamlar esa bu – matematika. Informatika asosida sanoq sistemalar yotadi. Sanoq sistemalar esa bu shubhasiz matematika. Geografiyaning asosida oʻlchamlar yotadi: balandlik, kenglik, uzunlik va h.k. Bu esa – matematika. Tarixning asosida yillar, sanalar, raqamlar va ularning hisob – kitoblari yotadi. Albatta ular ham matematika. Demak, qanday kasbning egasi boʻlishimizdan qatʼiy nazar matematikani oʻrganishimiz kerak ekan.

Aynan shuning uchun ham bolalarga matematika fanini oʻrgatishda biz mantiqiy va qiziqarli masalalardan foydalansak, ularda birinchi navbatda fanga boʻlgan qiziqish paydo boʻladi va fanni osonroq oʻrganadilar. Mantiqiy va qiziqarli masalalarni matematika fanida “ong gimnastikasi” deb aytish ham mumkin. Bunday masalalarni yechish bolalarni fikrlashga va mulohaza yuritishga oʻrgatadi. Shuning uchun ham biz ularni fikrlash tafakkurini yanada ochish uchun shunday qiziqarli boshqotirmalardan foydalanishimiz kerak. Bular misolida quyidagi namuna masalalarni koʻrishimiz mumkin.

1. Masala: Suv bilan toʻlatilgan stakanning vazni 400 grammga teng. Boʻsh stakanning vazni esa 100 grammga teng. Yarmigacha suv bilan toʻldirilgan stakanning ogʻirligini aniqlang?



400 g



100 g



? g

Bu masalaning yechimi shunday: suv bilan to'lgan idish 400 g, bo'sh idish esa 100 g, demak biz birinchi to'la idishdan bo'sh idishning og'irligini ayrimiz, shunda bizda suvning og'irligi chiqadi.

1)  $400 - 100 = 300$  (g) – suvning og'irligi

Endi biz yarim to'ldirilgan suvni o'g'irligini o'lchashimiz kerak. Uchinchi idishimizda yarim suv bor. Bundan kelib chiqadiki unda 150 g suv bor, chunki bizda jami suvning og'irligi 300 g edi, uning yarmi 150 g bo'ladi. Bo'sh idishning og'irligi 100 g, ulani qo'shamiz natijada bizda uchunchi idishimizning grammi chiqadi:

2)  $100 + 150 = 250$  (g) – yarimigacha suv bilan to'ldirilgan stakanning og'irligi.

2. Masala: Har bir shakl turli qiymatga ega. Har uchta sonning yig'indisi qatorning o'ng tomonida ko'rsatilgan. ★ qaysi sonni ifodalaydi?



15



12



16

Bu masalada aylana shaklidagi figuramizga e'tibor berishimiz kerak. Chunki uchalasining ham qiymati teng va ularning yig'indisi teng. Demak qiymatlar yig'indisini 3 ga bo'lishimiz kerak.

1)  $12 : 3 = 4$  – doiraning qiymati.

Doira, yulduzcha va yurak shakllarining qiymati 15 ga teng edi, demak doiraning qiymatini ayirib yuboramiz.

2)  $15 - 4 = 11$  – bu yulduzcha va yurak shakllarining qiymati.

Ikkita yurak va bitta yulduz 16 ga teng, demak yurak 5 ga teng. Yulduzcha esa 6 ga teng.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunday masalalar bolalarda fikrlash qobilyati, xotira, tasavvur va miyani tez ishlashiga yordam beradi. Bunday masalalarni yechadigan bolalarning tafakkuri rivojlanib, ular matematika fanini yanada osonroq o'zlashtiradilar va boshlang'ich sinfda o'qigan matematikani emas balki, algebra geometriya fanlarini ham oson o'zlashtiradilar. Matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar esa boshqa fanlarni ham tez va oson o'rganadilar.

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZID MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASHDA TA'LIMIY O'YINLARIDAN FOYDALANISH

M.M.Mahmudova, Andijon tumani,  
54-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida zid ma'noli so'zlar ustida ishlashda ta'limiy o'yinlardan foydalanish haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, zid ma'noli so'zlar, ta'limiy o'yinlar.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va

muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nutqai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samarasini oshiradi. Didaktik o'yinlar oldindan rivojlantirilgan o'z ichiga qirrali o'yinlarni qamrab olgan bo'lishi kerak. O'yinlarga asoslangan bunday texnologiyalarni ta'limdagi o'rni, axamiyati avvalo o'yin elementlarning funktsiyalarini o'qituvchi o'quvchilarga qanday tushuntirishga va qanday yetkaza olishga bog'liq. Bolalar hayoti rang - barang faoliyat va voqelik dunyosida bevosita aks etib boradi. Bunda mazmunli didaktik o'yinlar mustaqil faoliyat qoidalari asosida tashkillansa, u o'quvchini pirovard natijasida chuqur bilish olishga, mazmuni mukammal va oson tushunishga, fan asoslarini mahorat bilan egallashga undaydi.

Olamdagi narsa va hodisalarni kuzatsangiz, ular taraqqiyotining asosida mumtazam qarshiliklar, ziddiyatlar yotganligining guvohi bo'lishingiz mumkin. Qarama-qarshiliklar qonuni dunyo taraqqiyotining asiy mezonlaridan biri sanaladi. Turgan gapki, bu qarama-qarshiliklar tilda ham o'z aksini topgan. Yaxshilik bilan yomonlik, oqlik bilan qoralik, yorug'lik bilan qorong'ilik o'rtasidagi ziddiyatlar asosida son – sanoqsiz qarama – qarshiliklar yuzaga kelganki, ularni ifodalash uchun har bir holatda alohida til birikmalari jalb qilingan. Bu esa o'z navbatida tilda yangi bir hodisaning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu til hodisasi antoniymiya, qarama – qarshi ma'noli so'zlar esa antonimlar atamasi bilan yuritiladi.

Antonimlar belgi bildiradigan so'zlarda ko'p uchraydi. Antonimik munosabat so'z bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari zid ma'noli so'zlar bilan amaliy tanishtiriladi. Antonimlar ustida ishlash matndan antonimni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi.

Gaplardagi zid ma'noli so'zlarni o'quvchilar oson topadilar. Mashqlarni bajartirar ekan, o'qituvchi bor narsani faqat qayt etish bilan chegaralanib qolmasligi darkor.

1. Berilgan so'zlarga antonim tanlash.

“Ot” mavzusi o'tilganda: azob - ..., do'stlik..., rostgo'y-..., dono- ...

“Fe'l” mavzusi o'tilganda: kasallanadi- ..., yondi- ..., boshladi- ... kabi beriladi.

O'quvchilar berilgan otga rohat, dushmanlik, qora, qarilik; sifatga mehnatkash, hushyor, yolg'onchi, nodon, sog'; fe'lga sog'ayadi, o'chdi, tugatdi antonimlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

2. Zid ma'noli so'zlarni qatnashtirib gap tuzish. Bunda o'qituvchi gap tuzish uchun so'z beradi, o'quvchilar berilgan so'zga zid ma'noli juftini tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

3. Berilgan gapga antonim topib qo'yish. O'qituvchi

“To'g'ri odam ...so'zdan or qilur.

Yosh kelsa ishga, ... kelsa oshga.

Yaxshi gap – moy. ...gap – loy.

Gapni oz so'zla, ishni ... ko'zla”

kabi maqollardan ham foydalanish mumkin. O'quvchilar gap mazmuniga mos zid ma'noli so'zni topib gapni o'qiydilar yoki yozadilar.

O'quvchilar lug'atini ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bilan boyitish o'z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash “Mantiqiy” ta'limiy o'yinidan foydalanish mumkin. O'yin quyidagicha tashkil qilinadi:

O'qituvchi o'tilayotgan mavzuga oid narsa nomini tariflovchi 3-4 ta tarif aytiladi. O'quvchilar topadilar. Masalan: zid ma'noli so'zlar yuzasidan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan aytiladi. Bunda quyidagi kabi ma'lumotlar aytilishi mumkin bo'ladi:

1. Ular har xil shaklda bo'ladi.

2. Ularning ma'nosi ham har xil.

3. Ular eng ko'p sifat so'z turkumiga mansub bo'ladi.

O'quvchilar aytigan ta'riflarga ko'ra bu zid ma'noli so'zlar ekanligini topishga harakat qiladilar. Agar o'quvchilar topa olmasalar, qo'shimcha belgilar ham aytilishi mumkin bo'ladi.

Zid ma'noli so'zlar ustida ishlashda "Tez javob" ta'limiy o'yinidan ham foydalanish mumkin. O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu so'zga zid so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi. Bu o'yindan dars davomida dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin. Masalan:

O'qituvchi: Yaxshi.

O'quvchi: Yomon.

O'qituvchi: Oq.

O'quvchi: Qora

Demak, zid ma'noli so'zlar ustida ishlashda "Tez javob" ta'limiy o'yinidan foydalanish ham o'quvchilarning xotirasini mustahkamlab, so'z boyligini oshiradi.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASH**

**M.N.O'Imasova, Andijon tumani,  
54-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida ma'nodosh so'zlar ustida ishlash haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ma'nodosh so'zlar, so'z turkumlari, ona tili darslari, sinonimik qator.

Ma'nodosh so'zlar talaffuzi, yozilishi har xil bo'lmagan bir umumiy tushuncha ifodalaydigan so'zlardir. Sinonimlar bir – biridan qo'shimcha ma'no qirrasini, emotsional bo'yog'i qo'llanishi jihatidan o'zaro farqlanadi. Katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant sinonimik qatorini tashkil qilgan so'zlardan katta so'zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ulug', buyuk, zo'r, azim, ulkan so'zlari hajmi ancha katta bo'lgan narsalarga, bahaybat, haybatli so'zlari esa o'lchovi juda katta bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yirik kam ishlatiladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo'lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo'llanadi.

Boshlang'ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar berilgan so'zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2- 3- sinflarda esa berilgan so'zning 2 - 3 sinonimini topib aytishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni tanishtirish, ular haqidagi bilimlarini mustahkamlash yuzasidan turli mashqlar beriladi.

Berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash. Bunda bir so'z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so'zlar ichiga bir-ikkita boshqa so'z kiritib beriladi. O'quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so'zlar quyidagi kabi berilishi mumkin: vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt.

Berilgan so'zga sinonim tanlash. O'qituvchi o'z o'tganda osmon, sifatni o'tganda mazali, fe'lni o'tganda ko'nikmoq so'zlarni aytadi. O'quvchilar bu so'zlarga sinonim tanlaydilar: osmon – ko'k, samo, falak; mazali – lazzatli, laziz, totli; ko'nikmoq – o'rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.

Tushirib qoldirilgan sinonim so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, matnni ko'chirish. Bunda yozilishi kerak bo'lgan sinonim so'zlar ro'yxati tekshirish uchun beriladi. O'quvchilar sinonimlarni o'rniga qo'yib, ularning qo'llanilishidagi farqni tushuntiradilar.

Ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish. Buning uchun sinonim so'zlar qatori qavs ichida beriladi, o'quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko'chiradi: Daryo

suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o't, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi Birlashgan (yov, dushman)ni qaytarar.

Sinonim so'zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to'rtta sinonimik qatordagi so'zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. O'qituvchi shu katakchalardagi bir so'zni aytadi. Masalan, chiroyli. O'quvchilar shu so'zga yaqin ma'noli so'z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: go'zal, dilbar, sohibjamol, husndor. Sinonim so'zlar qatori bilan so'z birikmasi tuzadilar: chiroyli shahar, go'zal manzara, sohibjamol malika va hokazo.

Sinonimlar haqidagi tushuncha o'quvchilarga amaliy mashqlar orqali singdirilishi kerak. Keyingi paytlarda sinonimlarga amaliy murojaat etish zaruriyati kuchaydi. Tabiiyki, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar. Shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda sinonimlar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

Lekin kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarimiz so'z turkumlarini o'rgatishda sinonimlardan imkon qadar ko'proq foydalanishlari darkor. Ular o'z nutqlarida sinonim qatordagi so'zlardan faqat bosh so'znigina qo'llashga o'rganib qolmasliklari kerak. Masalan: "Ot" so'z turkumiga oid so'zlar: yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra sinonim qatoridan "yuz"so'zni; sovg'a, hadiya, tuhfa, tortiq, armug'on sinonim qatoridan "sovg'a" so'zini qo'llashadi. Bu esa o'quvchilar nutqining sekin rivojlanishiga va o'z fikrlarini to'g'ri, ravon tarzda bayon qila olmasligiga olib keladi.

So'z turkumlari haqida amaliy bilim berish 2-sinf dan boshlangani uchun amaliy tushuncha berish ham shu sinf dan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Ot" so'z turkumi mavzusini o'tishda ma'nodosh so'zlarini guruhlash kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Deylik, quyosh, uzr, kech, kechirim, oftob, tun, avf, oqshom, kun. O'quvchilar bu so'zlarning ma'nosiga qarab guruhlashlari va sinonimik qator hosil qilishlari kerak.

3-sinf da berilgan so'z turkumidagi so'zga sinonim tanlash, tushurib qoldirilgan ma'nodosh so'zlarni o'z o'rniga qo'yish kabi mashq turlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Berilgan so'zga ma'nodosh tanlash har bir so'z turkumi o'rganilganda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan o'quvchi sinonimlarni so'z turkumlariga bog'lab o'rganadi, bu esa keyingi sinflarda shu mavzuni mustahkamlashda zamin bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarga kichkina bog'lanishli matn berib, tushurib qoldirilgan sinonim so'zlarini o'z o'rniga qo'yish topshirilsa ham bo'ladi. Masalan: Gulnora 8-mart "Xotin-qizlar bayrami"da onasiga nima ..... qilishni bilmadi. U bir oz o'ylab turib, so'ng onasiga chiroyli gullarni ..... qildi. Onasi Gulnora ..... uchun rahmat aytdi. Qo'yish uchun so'zlar : sovg'a, hadiya, tuhfa.

4-sinf da ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish, sinonim so'zlar qatoridan foydalanib, didaktik material tuzish kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin. Yaqin ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib ko'chirish mashqida gaplar bilan birga sinonimik qator ham beriladi. O'quvchilar ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib ko'chirishadi. Bunday mashq turlarida ko'proq xalq maqollari tanlansa, o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati ham katta bo'ladi.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LAB O'QITISH METODIKASI**

**D.G. Qodiroxunova, Paxtaobod tumani 37-DIM  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika fani va uning amaliyotdagi ahamiyati, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlikdan foyalanish va ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanish qilgan olimlar haqida a'lumotlar keltirilgan. Matematika fanini fanlararo aloqadorlikka asoslangan matnli arifmetik muammolarni o'qitish usuli boshlang'ich maktabning ta'lim amaliyotiga joriy etilish to'g'risida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** fanlararo aloqadorlik, boshlang'ich sinf, integratsiya, funktsional savodxonlik.

Ta'lim sohasini rivojlantirish va takomillashtirishda fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhim hisoblanadi. Fanlarning bir-biriga bog'liqligi bir qancha muammolarning yechilishini osonlashtiradi. Fanlararo aloqadorlik bo'yicha juda ko'p ilmiy-amaliy ishlar olib borildiki, bular o'z navbatida amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini o'rgatish yuzasidan jula ko'p tajribalar to'plangan, bu yo'nalishda ayrim ijobiy yechimlar topilgan.

Boshlang'ich sinflarda matematikani zamonaviy ta'lim asosida o'qitish turli bilim guruhi va har bir fan oz mantig'iga ega. Ilm-fan, boshlang'ich sinfda fanlararo ulanishlar matematikaning integratsiyasi usullarini ilmiy asoslash, xususan, fanlararo usullarini ilmiy asoslash zamonaviy maktab ta'lim kontseptsiyasida o'z aksini topgan. Boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitishda o'zaro aloqalarni amalga oshirish turli ilmiy yo'nalishlardan savollarni birlashtirish va turli sohalaridagi muayyan bir vazifa ma'lumotlarini birlashtiradigan to'g'ri uslubga muhtoj.

O'qituvchi fanlararo aloqadorlikdan foyalanish uchun hayotiy bilimlar, texnik usullardan foydalanish va boshqa fanlardan bilimni boyityib borish kerak. Talabalarni turli fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lgan tabiat va jamiyat turli mavzularda ular uchun umumiy bo'lgan tushunchalarni shakllantirish muammosini hal etishda yordam beradi. Ta'limni rivojlantirishning yana bir yetakchi tendentsiyasi - o'quvchilarning funktsional savodxonligini shakllantirish orqali ta'minlanadigan o'rganishga qodir bo'lgan yondashuvni amalga oshirishdir.

Matematika uchun funktsional savodxonlik — asoslangan matematik hukm, izhor va tabiiy, ijodiy tasavvurlarni aniqlash hozirgi va kelajak ehtiyojlarini qondirishda matematikadan foydalanish, dunyoda matematikaning rolini tushunish uchun matematikadan foydalanish qobiliyatini deb tushuniladi. O'quvchini bilim olishga qiziqtirilmasa uning bilimiga befarq qaralsa, o'quvchining o'qitilishi muvaffaqiyatli yakunlanmaydi. Shuning uchun talabalarning manfaatlari shakllanishi va rivojlanishi kerak. Bunday faoliyat uchun muayyan maqsadlarni belgilash orqali erishish mumkin.

Boshlang'ich maktabda ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiya qilish muammolari nazariya va amaliyot uchun muhim va zamonaviydir. Maktabga yuklatilgan yangi ijtimoiy talablar bilan o'qitish, mos ilm-fan va sanoat sohasidagi o'zgarishlar ta'lim va tarbiya jarayonini integratsiya qilishning dolzarbligini ifoda etadi. Integratsiyalashgan darslar bolalar, umuman olganda, tabiat, jamiyat hodisalari va dunyo o'rtasidagi aloqalarni aqliy, dunyoviy, izchillikda o'rganishga hissa qo'shadi. O'quv jarayonini o'rganishda psixologlar bir vaqtning o'zida olingan ma'lumotlarni foydalanish imkoniyati bor, bir necha yildan buyon bu holda g'oyalari va tamoyillar o'xshash integratsiyalashgan ta'lim turli fanlar o'qitilgandanki ra yaxshiroq kuzatilishi mumkinligini aniqlashdi. Asosiy maqsad — matematikaning integratsiyalashgan darsini o'rganishdir. Ayni paytda talabalarning kommunikativ malakasini shakllantirish vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Professor E. Polat kommunikativ yondoshuvni shakllantirish shartli aloqa muammosini hal qilish uchun imkon beradi kommunikativ mashqlar saboq to'ldirish uchun yetarli emas, deb hisoblaydi. Bu diqqat markazida o'z bayonotlari mazmuniga e'tibor berish uchun, fikrni bu muammolarni hal etish yo'llarini muhokama qilish uchun, muammolarni hal qilishda talabalarga o'ylash imkonini berish uchun muhim ahamiyatga ega, ularning to'g'ridan-to'g'ri vazifasi bu fikrni shakllantirish va ifodalash.

Arifmetik muammolarni hal qilishda yosh o'quvchilarni o'qitish faoliyatini takomillashtirishda matematika fani integratsiyasining muhim jihatidir. Agar matematika fani integratsiyasiga asoslangan matnli arifmetik muammolarni o'qitish usuli boshlang'ich maktabning ta'lim amaliyotiga joriy etilsa:

- matematika yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan atrofdagi haqiqatda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash uchun ko'nikmalar yaratish;
- matematik modellashtirish qobiliyatlarini o'zlashtirish;
- bilim va qiziqishning rivojlanishi.

Ushbu maqsadga erishish va shakllangan gipotezasini tekshirish uchun quyidagi ilmiy muammolarini hal qilish kerak:

1) boshlang'ich maktabda matnli arifmetik muammolarni hal qilishni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash, o'quvchilarda funktsional matematik savodxonlikni rivojlantirish;

2) o'rta maktab o'quvchilarini matnli arifmetik muammolarni hal qilishga o'rgatish jarayoniga matematika fani integratsiyasini amalga oshirishning afzalliklari va imkoniyatlarini tahlil qilish;

3) boshlang'ich maktabda matnli arifmetik muammolarni hal etishni dasturlararo integratsiya asosida, vakolatli yondoshuvni tatbiq etish bo'yicha uslubiyatni ishlab chiqadi;

4) ishlab chiqilgan metodologiyaning samaradorligini eksperimental tekshirish.

Matematika va boshqa fanlarning integratsiyasini rivojlantirish, ta'limda uzviylikni ta'minlash ilm fan texnologiyalarining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova, B.S.Abdullayeva, N.U.Aslova. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent 2016.

2. M. Jumayev, M. Sultanov, G.Ergasheva. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik topshiriqlar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematikadan metodik qo'llanma. Toshkent-2014.

3. M.E. Jumayev. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent, Turon-Iqbol. 2016.

### **SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARIDA TABIATNI ASRASH HAQIDAGI HIKOYALARIDAN FOYDALANISH**

**Z.Sh. Ismoilova, Andijon tumani,**

**54-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinfda ona tilidan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida tabiatni asrash haqidagi hikoyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning ekologik bilimlarini shakllantirish haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, sinfdan tashqari ishlar, ekologik ta'lim-tarbiya, sinfdan tashqari o'qish.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab-mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozalar bevosita ta'sir qiladi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib, joriy etishdir. Zero, bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, xohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, unda dasturning rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, hayot bilan bog'liqligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda, dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarning nechog'li ahamiyatga molik ekanligi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotga pok, vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xulosa chiqarish, o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi. Ekologik tarbiya tushunchasi mavjud bo'lmagan davrlarda ham sharqning yetuk olimlari tarbiyaning bu jihatiga alohida e'tibor



qaratishgan. Jumladan, oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muxammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qoʻshganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, oʻsimlik va xayvonot dunyosi, tabiatni eʼzozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ekologik bilimlarini mustahkamlashda sinfdan tashqari oʻqishning ham ahamiyati katta hisoblanadi.

Bolalar adabiyotining taniqli vakili Mahmud Murodovning “Olma”, “Sohiba kimdan hafa?”, “Yaxshi amaki”, “Eng maza joy”, “Bogʻcha bola”, “Koʻprik”, “Kim eng kuchli” kabi kitoblari bolalarga atab yozilgan. Yozuvchining talay asarlari shaklining ixchamligi, syujetining qiziqarli voqealar asosiga qurilishi, tasvir uslubining badiiy soddaligi bilan diqqatni tortadi.

“Oʻzbek bolalar adabiyoti antologiyasi” da “Yaxshi amaki”, “Dala hunuk boʻlib qoladi”, “Sening galing”, “Kapalak”, “Hira”, “Baroq”, “Guldor”, “Qoʻshnilar”, “Boʻlib yeyishdi” hikoalari berilgan. Yozuvchining bu hikoyalarning koʻpchiligi bolalar jurnallaridan ham oʻrin olgan.

Hikoyalarning ustida ish olib borish orqali shuni bilish mumkinki, ularning koʻpchiligida tabiatni asrash gʻoyasi ilgari suriladi. Sinfdan tashqari mashgʻulotlarda bunday asarlardan foydalanish oʻquvchilarda tabiatni sevish tuygʻusini shakllantirishda ahamiyatlidir. Shunday hikoyalardan biri “Kapalak” hikoyasidir. Bu hikoyani sinfdan tashqari oʻqish darslarida oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Hikoya dastlab ifodali qilib oʻqitiriladi. Oʻquvchilar hikoya matni bilan tanishadilar. Hikoyada Bahromjon ismli bolakay yaralangan chumchuqbolani kapalak, deb oʻylab akasi Bahodirga koʻrsatishi, Bahodir va uning doʻsti yaralangan qushchaga yordam berib asrab qolganliklari tasvirlangan.

Hikoya oʻqib boʻlinganidan soʻng mazmuni yuzasidan quyidagi savollar beriladi:

1. Bahromjon nima uchun Bahodir akasining qoʻlidan tortqiladi?
2. Chumchuq bolaga nima boʻlgan ekan?
3. Bolalar chumchuq bolani qanday davoladilar?
4. Chumchuq bolani nimaga joyladilar?
5. Bolalar chumchuqchani qanday ovqatlantirdilar?
6. Bahromjon chumchuq bolani nima deb atadi?
7. Bahodir oʻz ukasiga nimani hikoya qilib berdi?
8. Bolalar chumchuq bolani qanday uchirib yubordilar?

Oʻquvchilar savollarga javob beradilar. Ularning javoblari xulosalanadi. Bu hikoya orqali ular tabiatga qanday munosabatda boʻlishni oʻrganadilar. Xususan, hayvonlar, parrandalarni asrash, ularga mehribonlik qilishni oʻrganadilar.

Demak, sinfdan tashqari oʻqish darslarida bunday hikoyalardan foydalanish orqali oʻquvchilarga ekologik bilim va tarbiya ham berish mumkin. Hikoya yuzasidan sinfdan tashqari oʻqish mashgʻuloti tugagach, uy inshosi yozib kelishni ham topshirish mumkin.

## ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM ROʻLI

**D.A.Abdullayeva, Andijon viloyati Jalaquduq tumani 38-  
maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchisi**

*Annotatsiya.* Maqolada ona tili darslarini ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish orqali oʻquvchilarda fanga oid kompetensiya, xususan, lingvistik kompetensiyaning shakllanishida haqida bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Nutq, tilning lugʻat boyligi, lingvistik kompetensiya, pedagogic texnologiya, metodlar.

Kompetensiya (lotincha soʻz boʻlib, erishaman, toʻgʻri kelaman maʼnolarini bildiradi) – subyektning maqsadini qoʻyish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bogʻliq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetensiya – maʼlum bir sohada samarali ijodiy faoliyat uchun zarur boʻlgan oʻquvchining avvaldan belgilangan taʼlimiy tayyorgarligiga qoʻyiladigan ijtimoiy talablar (meʼyorlar)dan ham oʻzib ketishidir.

Ona tili boʻyicha kompetentli shaxs deganda, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi. Shuning uchun jamiyat ona tili taʼlimi oldiga oʻquvchi shaxsida fikrlash, oʻzgalar fikrini anglash va fikr mahsulini ogʻzaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, yaʼni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qoʻyadi. Chunki yosh avlodni tarbiyalashda oʻz ona tilida aniq, tushunarli, taʼsirchan, chiroyli soʻzlashga oʻrgatish masalasi asosiy oʻrinda turadi.

Oʻquvchilarni savodli, oʻz fikrini toʻgʻri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlangʻich taʼlim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, oʻz tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan oʻquvchi, albatta, boshqa oʻquv predmetlarini ham ancha oson va toʻliq oʻzlashtiradi. Boshlangʻich taʼlimda, asosan, orfoepik va imlo savodxonligini oshirish, soʻz va uning maʼnolari ustida ishlash, nutq sharoitiga mos ravishda soʻzdan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida eʼtibor beriladi. Darslarda oʻquvchilarning ona tiliga nisbatan boʻlgan muhabbatini oshirish, fanning mazmun-mohiyatini anglash, oʻz yurtining ona tili tarixi, oʻziga xos tomonini bilish, davlat tili sifatida undan toʻlaqonli foydalanish imkoniyatlarini singdira olishlari, til taʼlimiga innovatsiyalarni olib kirishni talab etadi. Taʼkidlash joizki, inson hayotida taʼlim butun umr davom etuvchi va faqat oʻrganish bilan chegaralanmaydigan jarayon hisoblanadi. Inson farzandi dunyoga kelib, sezgi aʼzolari yordamida hayotni bilish, oʻrganishni boshlaydi. Borgan sari uning bilim va tajribasi oshib, tasavvur doirasi kengayib boradi. U tafakkur vositasida ayon va noayon haqiqatlarni ham idrok etishni oʻrganib oladi. Dars jarayoniga toʻgʻri tanlangan metod oʻquvchilarning aqliy va amaliy faoliyatining yuqori darajasini yaratishga sharoit yaratadi, mashgʻulotning ilmiynazariy darajasini oshiradi.

Oʻquvchilarda fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirish uchun taʼlim texnologiyalarini tanlashda fan oʻqituvchisi oʻrganilishi zarur boʻlgan mavzu va shakllantiriladigan kompetentsiyalarni hisobga olgan holda darsni oʻtish metodi va usulini tanlaydi. Masalan, “Davra suhbat, metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan taʼlim oluvchilar tomonidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan oʻqitish metodidir. Davra suhbat, metodi qoʻllanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir taʼlim oluvchining bir-biri bilan -koʻz aloqasi,ni oʻrnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va taʼlim oluvchilardan ushbu savol boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraydi va aylana boʻylab har bir taʼlim oluvchi oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan taʼlim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng muhokama qilinadi. Bu esa taʼlim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu metod orqali taʼlim oluvchilar berilgan mavzu boʻyicha oʻzlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Ushbu metod oʻquvchilarda lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishda hamda kommunikativ kompetentsiya elementlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, ona tili darslarini yuqoridagi ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish orqali oʻquvchilarda fanga oid kompetensiya, xususan, lingvistik kompetensiyaning shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, oʻz ona tillarini chuqur oʻrganishga sharoit yaratadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻquvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari. - T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015.

2. Inoyatov U., B. Xodjayev. Umumtaʼlimiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari// Xalq taʼlimi jurnali. 2016- yil, 2-son.

## O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.

H. S.Azimova, Andijon tumani 23-umumta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ifodali o'qish bolalarning nutq faoliyatlarini oshirish, adabiy estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikirlashga o'rgatishning muhim omilidir. Ifodali o'qish mashg'ulotlarini o'kazish jarayonida matn va kitob ustida ishlash o'quvchilarning bog'lanishi nutqini o'zgartirish, nutqi madaniyatini rivojlantirishini nazarda tutadi.*

***Kalit so'zlar:** Ifodali o'qish, to'g'ri o'qish, ongli o'qish, lug'at, gap, so'z, bo'g'in,*

Ma'lumki savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talafuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o'quvchilar lug'ati boyitish, muhim ahamiyatga egadir. Tayorgarlik davrida o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlanadi. Bu davrda bolalarda o'zgarar nutqni eshitish diqqatini to'plash, til birikmalarini farqlash ajratish kabi hususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun eng avvalo tovush va harf bilan tanishtirish lozim. Demak, ifodali o'qish o'qiganlari o'lashtirishga yo'naltirilgan bo'lish lozim. Shundagina matindagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchilarni bo'lib qoladi. O'qishning ongligini va ta'sirchanligini taminlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning tasurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida ifodali o'qishga o'rganishga qiziqish ortadi. Ongli o'qishni, ifodali o'qishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: Uvol, rizq-ro'z so'zlari bor. Ularning ma'nosi ustida to'xtash mumkin. Birinchidan fikrni oyidinlashtirilsa, ikkinchidan tarbiyalashga ham xizmat qiladi. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishining oshiradi. Ifodali o'qish malakasini takomillashtiradi, hotirani mustahkamlaydi. O'qish darslarida ko'proq ifodali o'qishga o'rgatish kerak. Umuman olganda, har bir o'qish darsda albatda bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasini takomillashuviga yordam beradi. O'qishga o'rgatishga so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishiga, tez fikirlashga yo'naltiradi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina o'zida shunday hislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shunig uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim.

Masalan: Rasmni kuzating? Rasmda nima tasvirlangan? Yoki bolalar qayerga bordilar? Qizni ismi nima? Bolaning ismichi?

Boshlang'ich ta'limda har bir sinfnig o'ziga xos o'qish me'yori, ko'nikmalari bor. Birinchi sinfda bo'g'inlab o'qishdan so'zni butun o'qishga, ikkinchi sinfda o'qish tezligini oshirishga, uchinchi sinfda tezlikda qiroat bilan yetarli mantiqiy urg'uga e'tibor bergan xolda o'qishga, IV- sinfda esa abadiy til qoidalarga rioya qilgan holda o'qishga e'tibor qaratiladi.

III-IV-sinfda o'qish sifati ustida ishlanadi. II-IV-sinflarda o'qish darslarida ta'sirchan usullardan foydalanishga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinflarda o'qishga qiziqtirishning birinchi omili ifodali o'qishdir. O'quvchilarning ifodali o'qish kitobxon qalbini sehrlaydi. Ifodali o'qish o'quvchining ma'naviy va jo'shqin hissiyatini rivojlantiradi. Ifodali o'qish oxangida shodlik, quvnoqlik, xursanchilik, jilmayish, ularga qarama-qarshi badjaxillik, qaxrlilik darg'azablilik, xafalik, yovuzlik, musubatli xarakterlarining ifodlanishi qiroatli o'qishni yuzaga chiqaradi. To'g'ri tanlangan ohang muallifning aytmoqchi bo'lgan g'oyasini tushuntirishga yaqindan yordam beradi.

Ifodali o'qish II-sinfning ikkinchi yarmida boshlanib III-IV- sinflarda takomillashadi. Ifodali o'qish suxondonlik san'atidir. Ikkinchi sinfnig ikkinchi yarmida ifodali o'qish mashqlari

boshlanadi. Sinfni guruxlarga bo'lib ifodalash o'qish musobaqasi o'tkaziladi. G'oliblar o'rni aniqlanadi.

Ma'lumki 1-sinfda o'quvchilar matnni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni o'rganadilar 2-sinfda o'quvchilarda so'larni butunicha o'qish malakasi shakillanadi. O'qishning to'g'ri va ifodali o'qishga erishiladi, o'qish su'rati tezlashadi.

3- sinfda so'larni butunicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakillanadi. Bu esa o'quvchilarning ongli va ifodali o'qishga qo'yilgan talablarni o'stirish imkonini beradi. Bunda albatta maqollardan, hikmatli so'z va iboralardan foydalanishga, sozlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidagi so'zlardan to'g'ri foydalanishga e'tibor berilad. 4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a, o'qishlari, matnni tez, to'g'ri ongli, ifodali o'qishlari kerak. Ifodali o'qish, to'g'ri o'qish, ongli o'qish orasida farqlar mavjud. O'qishda juda ko'p xato qiladigon va qiynalib o'qiydigon bolalar o'qiganlarini tushunmaydilar. 1-2- sinflarda ko'pincha ana shunday holatni kuzatish mokin 3-4 sinflarda o'quvchilarning o'qiganlarini tushunishlari ancha oson bo'ladi. Ifodali, ongli o'qish uchun o'quvchilar faqat ayrim so'zlar ma'nosigina emas, balki gaplarni ham tushunishlari kerak.

Ifodali va to'g'ri o'qish uchun gapdagi so'zlarning tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi ma'nosiga tushungan so'zlarini to'g'ri o'qiydi. Tushunadigan so'zi boshqa so'z bilan bog'lanib kelganida esa u so'z birikmasini hato o'qiydi. Bunday xato o'qishga asosiy sabab so'z birikmalarining ma'nosi murakkabligidadur. Bundan tashqari, so'zning uzunligi, so'zning notanish bo'lishi va gapda so'zlarni bog'lanishini eslay olmaslik ham xato o'qishga sabab bo'ladi. O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish ularning o'qish sur'atini oshirish, ongli o'qish elementlarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarova M . 3- sinfga o'qish darslari , T.: O'qituvchi. 2004 .
2. R.Safarpva va boshqalar. Savod o'rgatish drslari . T. : 2012 .

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR BILAN ISHLASH VA TAHLIL QILISHGA O'RGATISH USULLARI.**

**D.A.Aliqulova, Buloqboshi tumani 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya: O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqyealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy asar, obrazlilik, ifodalilik, adabiy tushunchalar, g'oya, izohlash, o'xshatish, jonlantirish, syujet, idrok qilish.*

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ertak, hikoya, masal, she'r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o'qish orqali ularda ifodalangan voqyea-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar, o'qigan asarlariga baho berishni o'rganadilar; ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo'llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O'quvchilar asar mazmunini o'zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o'rtasidagi bog'lanishni belgilashga o'rganadilar. Badiiy asarni o'qish bilan bolalarda o'zlarini o'rab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo'ladi.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqyealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atining bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Asar tahlilida o'quvchilarning hayotiy taassurotlari va asarni o'rganish natijasida ularda paydo bo'lgan estetik his-tuyg'ular hisobga olinadi. Aks holda, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi susaya boradi.

Maktabda bolalar adabiyotini o'qitishda aniq ma'lumotlarga, badiiy asarni o'rganish natijasida o'quvchilarda tug'iladigan his-tuyg'ularga suyanib ish ko'riladi. Bu esa o'quvchilarda asar muallifi, obraz, g'oya, adabiy tur, syujet kabi adabiy tushunchalarni elementar tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari - sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asarda g'oyaviy mazmun obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar esa so'zlar yordamida yaratiladi. So'z adabiyotda badiiy obrazni yaratish qurolidir. Asarning badiiy ifodaliligi yozuvchining undan qay darajada foydalanganligiga bog'liq.

Asarda tasvirlangan hayotiy voqea-hodisalarni obrazli aks ettirishda badiiy til asosiy vositadir. Shuning uchun ham badiiy asar yuzasidan olib boriladigan kuzatish ishlari har bir obrazni, umuman badiiy asar mazmunini ochishda katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlanadi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir syujetliliigi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

Ular ustida ishlash o'quvchi nutqini o'stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga o'rgatadi.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi kontekstdan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi.

Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qaxramonlarning yangi- yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qishni, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, so'ng yana yuqori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1.O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2.Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uyg'otish.

3.O'quvchilarni asarni emosional idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beridigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T.: «O'zbekiston», 2001.
2. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: «Sharq», 2003

### **BOSHLANG'ICH SINF RUS TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH.**

**M.U.Ahmedbayeva, Andijon tumani  
23-umumta'lim maktabi rus tili fani o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish bir muncha qiyin bo'lib, bunda turli usul va uslublardan foydalanish ko'zlangan samara beradi. Bu borada "Oddiydan murakkabga" usulidan foydalanish maqsaga muvofiqdir. Bu usul turkum o'yinlarni o'z ichiga oladi. O'yinlar orqali til o'rganish o'quvchini zeriktirmaydi, tilni osonlik bilan o'zlashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** O'yin, nutq, muloqot, didaktik material, rolli o'yin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni hozirgi kunda rus tilidan nutqini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar, shart-sharoitlar etarli darajada. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi rahbarligida turli faoliyatlarda (o'yinlarda, mashg'ulotlarda, mehnatda) bir-birlari bilan nutqiy muloqatda bo'ladilar. Turli hildagi ijodiy va harakatli o'yinlar, mashg'ulotlar, mashqlar, sayr va kuzatishlar – bularning hammasi bolalar hayotining mazmunini to'ldiradi. Bolalar nutqini rivojlantirishda rolli o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bu o'yinlar keng muloqot va fikr almashishda imkon yaratadi.

Mazmunli hayot bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ahil jamoa bo'lib yashashga o'rgatadi, urish-janjal, hafagarchilikka yo'l qo'ymaydi. Agarda bolada yorqin tasurotlar bo'lmasa, ularning hayotlari kambag'al va bir hil bo'lsa, u holda ularning nutqlari bo'sh rivojlanadi, ular biror narsa haqida gapirib berolmaydilar, ularan biror narsani so'rab olish ham qiyin bo'ladi, so'z boyliklari juda sekin ortib boradi; zerikish urish-janjalni vujudga keltiradi, bunday sharoitda esa bola nutqining to'g'ri rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Nutq amaliyoti bolalar o'yinlarida, mashg'ulotlarda bir-biri bilan muloqotda bo'lishda katta ro'l o'ynaydi. Bolalarning o'zaro do'stona, samimiy aloqada bo'lishlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Agar bola nima bilandir band bo'lsalar, qandaydir qiziqarli mashg'ulotlarga, o'yinlarga ishtirok etsalar, u yerda hech qanday kelishmovchiliklar yoki tushunmovchiliklar bo'lmaydi, balki o'quvchilar nutqining faol rivojlanishi uchun imkoniyat yaratiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning bir-birlari bilan bo'lgan o'zaro so'zlashuvlarini rag'batlantirib borishi, uyatchan bolalarni o'yinga, boshqa bolalar bilan so'zlashishga jalb qilib boorish kerak.

Bolalar, avvalo, o'yinlarni ko'ngil ochuvchi mashg'ulot deb biladi, u hatto darsga qiziqishi bo'lmagan o'quvchini ham faollashtiradi. Rus tilini o'rganish va o'rgatishda o'qituvchi bilimdonligining o'zi etarli emas, balki o'qituvchining uslubiy mahorati va muntazam tashabbuskorligi talab etiladi. O'yin o'ynash – his-hayajonni, diqqatni, imkoniyatni, mujassamlikni, bilimni, kuchli bo'lishni talab qiladi. U mustaqil bir qarorga kelishlikka o'rgatadi. O'yin o'ynayotganlarni yutish, g'alaba qazonishga intilish irodalari, xohishlari o'quvchilarning faoliyatini tezlashtiradi. O'quvchilar o'yinlarni rus tilida o'ynasagina rus tiliga qiziqadi, ham rus tilini o'rganadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yinni rus tilida o'ynatishni ta'limiy tomoni kuchli ekan. Shu sababdan rus tilida rolli o'yinlar o'ynatish keng qo'llanilmoqda. Ruscha rolli o'quv o'yinlari o'quvchi uchun eng qiziqarli mashg'ulot, o'qituvchi uchun esa o'quvchining tinglab tushunishini, gapirishini, o'qishini, yozuvini faollashtirishda, til materiallarini o'zlashtirishda, mustahkamlashda eng yahshi mashqdir, vositadir.

O'quvchilar o'yinlarni qiziqib o'ynaydilar, yutishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali ta'lim – tarbiya beradilar.

O'quvchi rus tilida o'yin o'ynab, gapira olarkanman, o'qiy olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yuta olarkanman deb rag'batlanadi, qiziqadi.

Metodika o'yinni vaziyatli mashq deb talqin qiladi.

O'yin quyidagi metodik vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

1. O'quvchilarni nutqni bajarishi uchun psixologik tayyorgarligini tashkil qiladi  
2. O'quvchilarga til matiriallarini, nutq namunalarini ko'proq qaytarib qo'llashga tabiiy vaziyat, holat vujudga keltiradi.

3. O'quvchilar sharoitga, vaziyatga qarab mustaqil tayyorlanmagan nutq qilishga o'rganadilar.

Til materiallarini amalda qo'llashni, tinglab tushunishni, gapirishni, o'qishni o'rgatishda, rivojlantirishda turli hil o'yin turlaridan foydalaniladi.

Til materiallarini qo'llashni faollashtirish malakalari uchun leksik, gramatik, fonetik va orfografik o'yin turlari qo'llaniladi. Yana ijodiy o'yin, mazmunli o'yin, taqlid qilish o'yin turlari bor.

**Leksik o'yinlar:** 1. O'qituvchi stol ustiga predmetlarni qo'yib, ruscha aytadi va kim tez ola olsa, shu yutadi.

2. Bir o'quvchi bitta so'zni oy'laydi, qolganlar “Это книга? Это терадь? “deb so'raydi, o'quvchilar topa olmasa “не правильно” ,topishsa “ правильно” deb javob beradi. Shu o'yinni aksini qilib o'ynash mumkin.

Leksik o'yinlarni turlari ko'p.

**Orfografik o'yinlar** Bu o'yinlardan yozuvni o'rgatishda foydalaniladi. Bunday o'yinlarni ham turi ko'p bo'lib, men kuyidagilarini aytib o'tmoqchiman.

1. O'qituvchi 2ta o'quvchini qo'lga alohida qog'ozga yozilgan harflarni berib, “карандаш” deydi, kim tez doskaga borib shu so'zni yasasa, u g'olib sanaladi.

2. Duskada so'zlarni bitta bosh va oxirgi harfini yozib to'ldirish.

3. Kim ko'p so'z yozish kabilar. Bu o'yinlar ham musobaqa tarzida o'tadi.

Hozirgi paytda rus tilini o'rgatishda rolli o'yinlardan keng foydalanish zamon talabi. Ular oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda, qiziqtirishni orttirishda, darsga jalb qilishga salmoqli ijobiy yordam beradi. Shu sababli o'yinlarni dars o'tish jarayonida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Barishnikova N.V. Metodika obucheniya vtoromu inostrannomu yaziku v shkole: Uchebnoe posobie. – M.: Prosveoyenie, 2003.

2.Grigorovich L.A., Martsinkovskaya T.D. Pedagogika i psixologiya: Uchebnoe posobie. –M.: Gardariki, 2003.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH.**

**G.Isroilova, Andijon tumani 23-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Matematika darslarida turli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga imkon beradi.O'yin - vaziyatda ko'rsatilgan muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlariga asoslangan jarayondir.

**Kalit so'zlar:** o'yin, rivojlantiruvchi, qiziqtiruvchi, o'rgatuvchi, didaktik.

Matematika bu – hayot zaruriyati chunki matematik xisoblashlarsiz raketalar uchmaydi, mashinalar yurmaydi , kompyuterlar bo'lmaydi.

Kelgusida bolalarning olim bo'lishi uchun ham, shifokor va o'qituvchi bo'lishi uchun ham, o'chuvchi , bankir , tadbirkor bo'lishi uchun ham matematika fanini juda muhim . Boshlang'ich sinf o'quvchilari muhim matematik tushunchalarni o'zlashtirishlari uchun

o'qituvchi qulay metod va shakllarni tanlashi kerak. Bunda turli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga imkon beradi.

O'yinlar ta'lim uslubi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi;

- O'rgatuvchi- umumta'lim mahoratini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish, shu jumladan yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish.

- Rivojlantiruvchi - mantiqiy tafakkurni, nutqni atrof - muhit sharoitiga o'rgatish qobiliyatini o'stirish.

- Qiziqtiruvchi - ishtirokchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishiga rag'batlantirish

- Tarbiyaviy - mas'uliyatni, kommunikativlikni shakllantirish.

O'yin usullari va vaziyatni mashg'ulotlarning belgilangan shaklida amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha sodir bo'ladi:

- Didaktik maqsad o'quvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;

- O'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;

- Uning vositasi sifatida o'quv materialidan foydalanadi;

- O'quv faoliyatga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa elementlarini kiritish;

- Didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijasi bilan bog'lanadi.

### **"Matematik bozor" o'yini**

Bu mashg'ulotni odatda biror katta bo'lim yoki bobning oxiridagi takrorlash darslarida o'tkazish mumkin. Biror bob yakunlangandan keyin o'qituvchi shu bobda o'rganilgan materiallarga taalluqli misollarni kartochkalarga yozib tayyorlaydi. Har bir kartochkada 2-3tadan turli qiyinlikdagi misollar yoziladi va har bir misolga qiyinlik darajasiga qarab "narx" belgilanadi (masalan. 50so'm, 100so'm, 200so'm,...). Kartochkalar soni sinfdagi o'quvchilar soniga qarab tuziladi. O'quvchilar 4tadan qilib guruhlariga bo'linadi, bunda sinfda o'rtacha 8-10ta guruh tashkil qilish mumkin. Demak, har bir kartochkadan guruhlar soniga mos ravishda 8-10tadan tayyorlash kerak bo'ladi. Kartochkalarning turi esa 4-5 xil bo'lsa yetarli bo'ladi (jam! 32-40ta kartochka). Har bir guruh kartochkalardan bittadan oladi, ya'ni har bir guruhda 4 yoki 5 xil kartochka bo'ladi, "narxlar" kartochkalarda har bir misol (savol) to'g'risida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

<b>1-variant</b>	
1. Topshiriq	100s.
2. Topshiriq	150s.
3. Topshiriq	200s.

Biror guruh 1-variantdagi topshiriqlarni birichi bo'lib bajarsa, o'qituvchiga ko'rsatadi va o'qituvchi yechimni tekshirib shu guruh ishlagan pulni doskada tayyorlab qo'yilgan jadvalga yozib qo'yadi. Shu 1-variantni keyingi bo'lib ishlagan guruhga har bir topshiriqdan 25so'mdan chiqarib tashlanadi. Shu tariqa guruhlar har bir variantdagi topshiriqlardan iloji boricha ko'proq va tezroq yechishga va ko'proq pul to'plashga harakat qiladilar. Variantlardagi topshiriqlar xilma-xil va har xil narxli bo'lishi mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Ma'lum vaqtdan so'ng (masalan 30 minutdan keyin) "bozor" to'xtatiladi va o'qituvchi guruhlar to'plagan pullarni jadval yordamida hisoblaydi. Guruhlarni nomerlash yoki ularning o'zlari guruhga nom tanlashlari mumkin. Qaysi guruh ko'proq pul to'plagan bo'lsa, shu guruh g'olib topiladi, qolgan guruhlariga ham o'rinlar beriladi. O'qituvchi guruhlarining bajargan ishlarini kuzatib, qaysi guruh biror topshiriqni bajarishga qiynalgan yoki bajara olmagan bo'lsa, shu topshiriqni bajargan guruhlar yechimini doskada namoyish qilib berishlari mumkin. Biror topshiriqni har bir guruh bajara olmagan bo'lsa, o'qituvchining o'zi shu topshiriqni yechish yo'llarini ko'rsatib berishi mumkin va shu kabi misollar ustida ishlash zarurligini bilib olishi mumkin.



So'ngra o'qituvchi guruhlarining to'plagan pullariga qarab o'quvchilarni baholaydi. Besh balli tizimda eng ko'p pul to'plagan guruh o'quvchilariga 5 ball, keyingi 2ta guruhga 4 balldan, keyingi 3ta guruhga 3 balldan va hokazo, qo'yish mumkin.

**Yakuniy jadval**

	1-V	2-V	3-V	4-V	5-V	Jami	O'rin	Ball
1-G	500	425						
2-G	425	350						
3-G	350	500						

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Abdurahmonova, M.Jumayev. L.O'rinboyeva "Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar". 2010 yil.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi. Toshkent 2005-yil.

**ONA TILI DARSLARIDA NOAN'ANAVIY DARS USULLARINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH**

**L.M. Isroilova, Andijon viloyati Buloqboshi tumani  
18-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish, dars jarayonida turli noan'anaviy usullardan foydalanish orqali o'quvchilar bilimni oshirish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy faollik, o'quvchining bilish faolligi, interpretatsiya.

Ona tili o'qitish tizimini davr talablari darajasiga ko'tarish, avvalo, ta'lim mazmunini takomillashtirishdan boshlanadi. Ona tili darslarining mazmuni davlat ta'lim standartlari va maktab darsliklarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, uni tanlash va undan foydalanishda o'qituvchining roli benihoya katta.

Ona tili darslarida o'quvchilar faolligini oshirish ko'p jihatdan til materialini to'g'ri tanlash va undan foydalanishga bog'liq. Hozirgi davrda ta'lim mazmunining oldiga qo'yilgan talablar tobora ortib borayotgan bir sharoitda til materiallarini yanada takomillashtirish, uning ta'sirchanligini oshirish faqat darslik materili bilangina cheklanib qolmay, balki barcha imkoniyatlarni to'la ishga solish, uni o'quvchilarning aktivligini qo'zg'atuvchi muhim omilga aylantirish eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Til materiallariga darsliklarda berilgan mashqlar, savol va topshiriqlardan tashqari o'qituvchi tomonidan tuzilgan turli o'quv masalalari, grammatik o'yin va topshiriqlar, topishmoqlar, ko'rgazmali materiallar, multimediy materiallarni ham kiritish mumkin. Ona tili darslarida o'quvchilar ko'pincha har kuni bir xil tashkil etilgan dars jarayonlarini ko'radilar. Ayniqsa, darslarda bajariladigan grammatik tahlil, qoidalar ustida ishlash, berilgan mashqlarni shartiga ko'ra bajarish har bir darsda takrorlanaverishi o'quvchilarning zerikishiga olib keladi. Shuning uchun har bir dars pedagog tomonidan nazariy ma'lumotning mazmun va mohiyatiga putur yetkazmagan holda turli noan'anaviy metod va usullar yordamida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili o'qitish metodikasiga oid bir qancha adabiyotlarda o'quvchining bilish faolligini oshirish masalasini ta'lim mazmunidan kelib chiqib amalga oshirilishi, dars jarayonida grammatik mashqlardan o'rinli va muayyan tartibda foydalanish faollikni oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlangan. Bundan tashqari, faollik (aktivlik)ni uch bosqichdan iborat ekanligi aytiladi:

- birinchi bosqich qayta xotiralash faolligi bo'lib, bunda o'quvchi berilgan topshiriqni qayta xotiralash, avvalgi o'tilgan mavzular bilan bog'lash asosida bajaradi.

- faollikning ikkinchi bosqichi interpretatsion (qisman ijodiylik, faollik) bo'lib, uning tarkibida ma'lum darajadagi izlanish, ijodiy fikrlash elementlari mavjud bo'ladi. Faollikning bu bosqichida o'quvchi tilning qonun-qoidalari o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlar haqida fikrlaydi.

- uchinchi bosqich ijodiy faollik bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchi ijodiy xarakterdagi o'quv topshirig'ini bajarishning qulay usullarini izlab ko'radi. Ijodiy faollik shu jihati bilan xarakterliki, o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llash orqali, o'ziga noma'lum bo'lgan bilimlarni o'rganadi. Faollikning bu bosqichida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi yuqori darajaga ko'tariladi. O'quvchining bu bosqichda egallagan bilimlari o'quvchining puxta bilimlariga aylanib, bu bilimlarni u istalgan sharoitda bimalol qo'llay oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilar har bir darsning shakl va metodlarini har xil tarzda tashkil etib, turli noan'anaviy dars usullarini qo'llaydilar. Natijada esa berilishi zarur bo'lgan lingvistik ma'lumotni o'quvchilarga oson va samarali singdirishga erishadilar. Demak, o'quvchining faollik darajasi o'quv topshiriqlarini o'tilgan mavzularni qayta xotiralash asosida bajarishi, mustaqil fikrlay olishi, til qonunlariga mos ijodiy misollar keltira olishi va o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan muhit, tanlangan vositalarning natijasi bilan o'lchanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Noshir" nashriyoti. 2009.

2. A.G'ulomov. Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. - Toshkent. 1992.

3. T. G'aniyev. "Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchining bilish faolligini oshirish" Toshkent. 1992

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**U.Karimova, Farg'ona viloyati Qo'qon shahar  
32-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi.

Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

- 1) O'qitish asosi bo'lgan matematika bilan;
- 2) Pedagogika;
- 3) Psixologiya;
- 4) Boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang'ich matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari:

- 1) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi,
- 2) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi kerak;
- 3) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi kerak;
- 4) ta'limni insonparvarlashtirish;

5) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishtga, o'zining qadr-qimmatini, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib beradi;

6) o'qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishni ko'rsatadi.

Boshlang'ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo'naltirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, boshqa har qanday o'quv predmeti kabi matematika boshlang'ich kursi matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.

2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi; Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'rishakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish.

Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

## **NUTQ - O`QUVCHILARNING FAOL FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY MANBA**

**G.Z.Madaliyeva, Andijon viloyati Buloqboshi tumani  
18-umuta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darklarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ular nutqidagi ayrim kamchiliklarga e'tibor berish va ularni to'g'rilash borasidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, yozma nutq, nutq o'stirish, bog'lanishli nutq*

Nutq - til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi shakllangan va rivojlangan nutq jamiyatda kishilar faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun qurol hisoblanadi.

Avvalo, nutq o'stirish atamasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, nutq o'stirish nima? Nutq o'stirish deganda agar o'quvchi ko'zda tutilsa, tilni har jihatdan (talaffuzni, sintaktik qurilishni, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlari uchun yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shu sababli ham grammatika va imlo dasturi to'rt qismga (tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq) bo'lingan va o'z navbatida ona tili dasturining bo'limlari ham «Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish», «O'qish va nutq o'stirish», «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» deb nomlangan.

Nutq faoliyatini va o'quvchilarning nutqini o'stirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun albatta talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini og'zaki yoki yozma bayon qilishi talab qilinadigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni va materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni ham shunchalik mazmunli bo'ladi. Demak, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali va bola nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutq o'stirishda rivojlanish mashqlarning izchilligi, istiqboli va xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda, qandaydir yangilik qo'shadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirish ona tili o'qitishning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Nutq o'stirish nafaqat ona tili va o'qish darslarining, balki o'quv rejadagi barcha predmetlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, musiqa, texnologiya darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

#### **Adabiyotlar:**

1. K. Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent. "Nosir" nashriyoti. 2009.

2. A.G'ulomov. Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. - Toshkent, 1992.

## **BOSHLANG'ICH SINFDAN ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH**

**S.X.Normatova, Oltinko'l tumani 4-umumiy  
o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida bahs yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** didaktik o'yinlar, kasbiy kompetentlik, o'quv faoliyati, tafakkur va ruhiy taraqqiyot*

Maktabga ilk qadam qo'ygan bolalar o'z yosh xususiyatlari hamda tafakkur va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Bu davrda o'qish, o'rganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv fani bo'yicha bulgan bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini hamda dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohada ilg'or tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kontsepsiyasi va kompetentsiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlanog'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng ma'suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor

qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishiga qiziqishlari ortadi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda dars rejasi (loyihasi)ni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida aniq va mukammal ishlab chiqish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishning muhim omilidir. Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdin mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz», - degan edi. Bunday ulug' maqsadni amalga oshirish sohasidagi vazifalar «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida ham belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi olgiga qo'yilgan muhim vazifalardir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Davlat ta'lim standartlari», umumiy o'rta ta'limi to'g'risidagi Nizomlar va me'yoriy hujjatlar, sharq mutafakkirlarining fikrlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

Boshlang'ich ona tili darslarini tashkil etishda didaktik o'yinlarning roli va o'rnini aniqlash. Inson dunyoga kelar ekan u , avvalo, bolaligidan, ona quchog'idan til o'rganishni boshlaydi. Ana shu o'rgangan tili uning ona tilisi hisoblanadi. Ona farzand uchun til o'rgatuvchi birinchi muallimadir. Sekin –asta bola ulg'ayib o'z yaqinlari ta'sirida , qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y ta'sirida , so'ng bolalar bog'chasida, maktabda so'z boyliklari ortib boradi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanining o'rnini beqiyos . «Ona tili - bu millatning ruhidir». O'quvchilarni ona zaminga mehr-muhabbatli bo'lishga o'rgatish, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari , asosan ,ona tilini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi . Bu qanday jarayon? Bu shunday jarayonki,yosh avlodning savodini chiqarish va kamol toptirish o'qituvchining mas'uliyatini oshiradi,ijodkorlikka undaydi,shu bilan birga g'urur bag'ishlaydi. Zero hazrati Ahmad Yassaviy aytganlaridek:

Yurtim turkiy ,elim turkiydir, Tilim ko'p tillardan ko'rklidir.

“Ko'rkli” tilni o'rgatishdan maqsad o'zi nima?

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi –tilning jamiyatda tutgan o'rni,vazifasi bilan belgilanadi.Til-aloqa vositasi, til orqali fikr uzatiladi, anglanadi.

Tilni bilish uning grammatik qonun qoyidalarini bilish , ulardan amaliy foydalanish, fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri,tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Yuqoridagi fikrlarning barchasi ona tili darslarining ta'limiy maqsadi bo'lib ,dars jarayonida o'qituvchi o'z oldiga tarbiyaviy maqsadni ham qo'yadi. Shu tariqa o'quvchilarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik ,mardlik, halollik, mehr-muhabbat, odamiylik kabi odob-ahloq ko'rinishlari shakllanadi.Har ikkala yo'nalishdagi maqsad ham birga amalga oshadi.Bunday uzviylikni quyidagicha

ta'riflash mumkin: ta'limiy maqsadlarni quyoshga, tarbiyaviy maqsadlarni esa oyga qiyoslagim keldi.

O'qituvchining savollariga javob berishga topshiriqlarin mustaqil bajarishga, bilmaganlari va o'zlari qiziqqan narsalar to'g'risida so'rab bilib olishga, o'rgangan, o'qiganlarini qayta xikoyalashga, o'zlari kuzatgan, ko'rgan videofilm va kinofilmlar, kitoblar rasmlar xaqida xikoya qilib berishga o'rganadilar.

-to'g'ri, test, ongli va ifoddali o'qishni o'rgatish;

-o'qigan asarlarining adabiyot-estetik xususiyatlarini idrok etish, ularni tasvirlangan voqealar, xodisalar mazmunini tushunish, xulosalar chiqarishga tayyorlash.;

-yuksak axloqiy sifatlarini va nafasat tuyg'usini tarbilash;

-o'quvchilarni atrof muxit xaqidagi bilimlarini boyitish iborat;

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilarda nutqfaoliyating asosiy ko'rinish bo'lgan ko'nikmalarini, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli yutuqni o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

2-3 sinflarning o'qish darslarida to'g'ri, test (me'yorida o'qish), ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirish va takomillashtirisho' zarur. Buning uchun esa o'qiliyotgan asarlar va uning qismlarini o'quvchilarga bir necha marta qayta o'qitish bilan erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun 1997-yil

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T.1997-yil

3. Ta'lim taraqqiyoti .Boshlang'ich ta'lim, „Sharq“ 1999-yil 7-maxsus son.

4. Qosimova .K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi.1985-yil. 48-52-betlar.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH MALAKALARINI HOSIL QILISH USULLARI.**

**R.A. Saidova, Buloqboshi tumani 5-umumta'lim  
Maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.**

***Annotatsiya:** Masalalar o'quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalalar yechishga o'rgatishning bir qancha bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy xarakterdagi mashqlarning ham muhim ahamiyati bor.*

***Kalit so'zlar:** Sodda masala, murakkab masala, bog'lanishlar, munosabatlar, bilish qobiliyati, malaka, bosqich.*

Arifmetik amallarning mazmunini, amallar orasidagi bog'lanishlarni, amal komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Yechilishi uchun bitta amal bajarish talab qilinadigan masalalar sodda masalalar jumlasiga kiradi.

Sodda masalalar o'quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sodda masalalardan ulushlar, qator geometrik tushunchalar va algebra elementlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liq amallarni bajarish talab qilinadigan masalalar murakkab masalalar deyiladi. Sodda masalalar kabi murakkab masalalar ham bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga "yashirin axborot" oladi. Bu axborotni qidirish, masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda quyidagi malakalar hosil bo'lmog'i lozim.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish.
  2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarata olish malakasi).
  3. Masalani qisqa yozish malakasi.
  4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslash va murakkab masalani amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi.
  5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi.
  6. Masala yechimini tekshira olish malakasi.
  7. Masalalar ustida ishlashda ma'lum sistemani belgilash va uni joriy qilish malakasi.
- Bunda ilg'or o'qituvchilar ishlarida o'quvchilarni mustaqil masalalar yechishga o'rgatishning bir qancha bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin:

1-bosqich. Masala o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari bo'yicha yechiladi va bu yechish doskada va daftarlarda bir vaqtda bajariladi.

2-bosqich. Masala sharti o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va yechish rejasi tuziladi. Yechishning o'zi doskaga yozilmaydi, og'zaki aytilmaydi ham,. o'quvchilar esa uni mustaqil bajaradilar.

3-bosqich. O'qituvchi rahbarligida masala faqat analiz qilinadi. Yechish rejasi va yechishning o'zini o'quvchilar mustaqil bajarishadi.

4-bosqich. Masalani o'qituvchining hech bir yordamisiz mustaqil yechish.

O'quvchilarda masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy xarakterdagi mashqlarning ham muhim ahamiyati bor. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Masalalarni har xil usullar bilan yechish.
2. Muammoli xarakterdagi masalalarni yechish.
3. Masalalar tuzish va ularni almashtirishga doir topshiriqlar.

Oxirida shuni ta'kidlab o'tamizki, matematik masala ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir masala bolalar uchun haqiqiy bilim manbai bo'lib qolsin. Buning uchun o'quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko'proq ma'lumotlarni olishga yo'naltirish kerak.

Masala shartini analiz qilish malakasini tarkib toptirishning bir qator imkoniyatlari mavjud. Shulardan misollar keltiramiz, mustaqil bajaring:

1. O'quvchilar bir tup pomidordan 2 kg, ikkinchisidan birinчисiga qaraganda 1kg ortiq pomidor terishdi. O'quvchilar ikkinchi tupdan qancha pomidor terishgan?

2. O'quvchilar bir tupdan 2 kg, ikkinchisidan esa birinчисiga qaraganda 1 kg kam pomidor terishdi. O'quvchilar ikkinchi tupdan qancha pomidor terishgan?

3. O'quvchilar bir tupdan 2 kg, ikkinchi tupdan 1 kg pomidor terishdi. O'quvchilar ikkala tupdan qancha pomidor terishgan?

O'qituvchi o'quvchilarga bir qator shunday masalalarni berib, ulardan qo'shish (ayirish) amali bilan yechiladigan masalalarni ko'rsatishni talab qiladi. Masala shartining tola analizini bolalarda shakllantirish kerak, bunda shunday vaziyat topish kerakki, masala savoliga e'tibor berish shart bo'lsin. Misollar keltiramiz:

1. Olimning qancha puli bo'lgan? Uning o'zida 50 so'm bo'lgan va unga onasi yana 20 so'm bergan.

2. a) Bahromda 3 ta olma, Valida 5 ta olma bor. Ularning buvisida qancha olma bor? b) Hovlida 4 ta o'g'il bola o'ynayotgan edi, ularga yana 3 ta qiz kelib qo'shildi. Hovlida nechta qiz bola o'ynay boshladi? Birinchi masalada bolalar uchun nima berilganini va nimani topish kerakligini aniqlash qiyin, chunki masalaning berilganlari bilan savoli o'rin almashib qolgan. Keyingi ikkita masala hazil masaladir. Bunda bolalarning butun e'tibori masala savoliga qaratilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi. Toshkent 2005-yil.
2. N.Abdurahmonova, L.O'rinboyeva 2-sinf matematika darsligi 2018-yil

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XATOLAR USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH USULLARI.

M.J.Sulaymonova, Andijon tumani 23-umumta'lim  
Maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

*Annotatsiya: Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi.*

**Kalit so'zlar:** Orfografiya, punktuatsion, imlo xatolari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim sohasi ham davlat siyosatining ustuvor ahamiyatga yo'nalishlaridan biriga aylandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z nuqtai nazariga, qarashlariga ega insoniy fazilatlar sohibi sifatida shakllanishi esa ularning hatti-harakatlari, o'z burchiga munosabati, atrofdagilar bilan muloqoti orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish, muloqot madaniyatini egallab borishlarida ta'lim hamda tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish ham dolzarb ahamiyatga ega.

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar.

Orfografiya o'qitish tizimi butunicha imlo xatolarining oldini olishga qaratilgan.

O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur ta'sir qilish uchun ko'proq kontrol diktant hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ilmiy oziq beradi. Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning harakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarini tuzatadi, yoki partada o'tirgan ikki o'quvchi daftarlarini almashtirib, bir-birlarining yozganlarini kuchlari yetganicha tekshiradilar. Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi inobatga olinadi. Yozilishi qoida bilan izohlanadigan orfogrammalarda bo'ladigan xatolarning oldini olish uchun bunday so'zlarni doskaga yozib, ularning yozilishiga o'quvchilarning diqqatini jalb qilinadi: Masalan, b tovushining yozilishida xato bo'lmasligi uchun, o'qituvchi b va p tovushli bir qancha so'zlarni doskaga yozib, ularning imlosini esda saqlab qolish kerakligini ogohlantiradi.

Xatolarning oldini olishda turli ko'rgazma va jadvallardan ham foydalaniladi. Ko'rgazmalar mavzuga doir yoki umumiy bo'lishi mumkin. Mavzuga doir ko'rgazmani ma'lum qoida, masalan b undoshi, jarangli-jarangsiz tovushlar, x va h undoshlari bo'yicha tayyorlab, sinf devorida osib qo'yiladi. Ko'rgazma umumiy bo'lganda, unga o'quvchilar ko'p xato qiladigan va har xil qoidaga xos so'zlar kiritiladi.

Xatolar ustida o'quvchilarning o'zlari ham ishlaydi. Bunda o'quvchilarni o'zlariga xatolarining sabablarini yozma va og'zaki izohlatish, qaysi qoidada xato qilingan bo'lsa, unga mos so'zlar toptirish qoidani takrorlatish usulidan keng foydalanish mumkin.

Ba'zi o'quvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozdirish usulidan ham foydalanadilar. Lekin bu hamma vaqt ham samarali natijani beravermaydi. Bu usuldan yozilishi ma'lum qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatishda foydalanish mumkin.

O'quvchilardan vaqti-vaqti bilan qaysi qoidalarda xatoga yo'l qo'ygani, buni tuzatish sohasida nimalar qilinganligini so'rab turish mumkin.

Ba'zan bir o'quvchining daftarini ikkinchi o'quvchiga, tekshirtirish usulidan ham foydalaniladi. Bu o'quvchilarning qiziqishini ortiradi. Shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchi o'zi ma'lum so'zni xato yozadi-yu, lekin o'rtog'ining daftarida shunday yozilgan so'zning xato ekanligini topadi. Shunga extiyot bo'lishi kerakki, o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzutaman deb, boshqa xatoga yo'l qo'ymasinlar, daftarlarni bekorga bo'yamasinlar. O'quvchi u yoki bu so'zning xato yozilganligiga to'la ishonsagina, uni to'g'irlash kerakligini anglasin.



O'quvchilar daftar tekshirayotganda, o'qituvchi sinfda aylanib yurib ayrim o'quvchilarga maslahat beradi. Tekshirish uchun berilgan muddat tugagach, o'quvchilar topgan xatolarini aytadilar. O'quvchi xato yozilgan deb hisoblagan so'zini, alohida qog'ozga yozadi, oxirida o'qituvchi ishtirokida buni aniqlab, keyin uni tuzatadi.

Xatolarni tuzatishda o'quvchining uyida mustaqil ishlashi juda katta ahamiyatga molikdir. Yo'l qo'yilgan xato bilan bog'liq qoidani o'qib kelish, unga mos mashqni bajarish, lug'at ustida ishlashning natijasi beqiyos kattadir.

Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ham muntazam shug'ullanib boorish zarur. O'quvchi ko'p xato qilib, past baho olaversa, ruhiy tushkunlikka tushib savodlilikka bo'lgan ishonchini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bunday xol yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'quvchining ruhini ko'tarishi, savodli bo'lib ketishga ishonch hosil qilishi, uning irodasini tarbiyalashi, unda orfografik mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otishi kerak.

Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash tizimi bunday o'quvchilarning orfografik malakasiga bog'liq bo'lib, yakka yondashuvni talab qiladi.

Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlashni ayrim qoidalarni so'rashdan boshlagan ma'qul. Ma'lum bir qoidaning mustahkam o'zlashganligi haqida ishonch hosil qilgach, navbatdaxisiga o'tiladi. Shu asosda mashg'ulot asta-sekin murakkablashib boradi.

Mana shu yo'l bilan ko'p xato qiladigan o'quvchilar orfografiyani puxta o'zlashtirib boruvchi o'quvchilar bilan tenglashtiriladi. Ish jarayonida o'quvchining bu sohada erishgan yutuqlarini uni o'ziga sezdirish, buning sabablarini birga muhokama qilish ham muhimdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar :**

1. R.Safarpva va boshqalar. Savod o'rgatish drslari . T. : 2012 .
2. To'hliyev. B. Nutqiy faoliyat va adabiy ta'lim. Og'aki va yozma nutq muammolari. T-2010

## **БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА МУСТАҚИЛ СЎЗ ТУРКУМЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ**

**Н. М.Турғунова, Андижон вилояти Қўрғонтепа туман  
28 –мактаб она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси**

***Аннотация.** Ушбу тезисда бошланғич синфларда мустақил сўз туркумлари, асос ва қўшимчаларни ўрганишда эътибор қаратилиши керак бўлган жиҳатларни ўрганишни самарали усуллари ёритилган. Унда асос ва қўшимчаларнинг сўз туркумларига ажратишининг содда ва қулай усуллари кўрсатиб ўтилган.*

***Калим сўзлар:** дунёқараиш, тил, ижтимоий, ривожланиш, тил бўлимлари, боғланиш, жамият, фонетика, лексика, грамматика, тафаккур, алоқа.*

Ўқувчиларга таълим – тарбия бериш вазифаларидан бири уларнинг дунёқаришини ўстиришдан иборатдир. Инсонинг дунёқараши ўз она тилисини мукамал ўргансагина, мақсадга мувофиқ бўлади. Бунинг учун биз, аввало, ёш авлодга унинг она тилисига бўлган меҳр – муҳаббатини уйғотмоғимиз, тилнинг алоқа воситаси, шу алоқа воситаси орқали кишилар бир – бирларини тушуниши, жамиятда ўз ўрнига эга бўлиши ҳақида ўргатмоғимиз даркор. Шундагина ҳар бир бола ўз тилини севиб ўрганади. Шундай экан, бошланғич синфларда она тили фанини ўзлаштиришда муаммоларга дуч келаётган мавзулар ҳақида фикрлашсак.

Ўқувчиларнинг тилнинг алоқа функциясини, тилнинг асосий бирликлари фонема, морфема, сўз, сўз бирикмаси, гапларнинг вазифасини бошланғич синфданок фарқини билиши зарур. 4 – синф она тили дарслигида “Алифбо” мавуси берилган. Мавзудаги 121 – машқ шартига кўра ўқувчи берилган сўзлардан луғат ҳосил қилиши керак. Бироқ дарсликда луғат тузиш ҳақида ҳеч қандай қоида берилмаган. Мана шундай вазиятда ўқитувчи ўқувчилардан алифбони ёддан сўраб, сўнгра луғат алифбо тартибида тузилиши ҳақида тушунтирмоғи лозим. Ёки қуйидаги каби жадвал тайёрланиб, ўқувчилар билан биргаликда тўлдириш орқали луғат тузиш қоидаларини ўргатмоғи зарур. ( Мултимедия

дарслари дискида топшириқ берилган, аммо унда ҳам луғат тузиш тартиби тушунтирилмаган )

Биринчи ҳарфи А ҳарфи билан бошланган сўзларни ёзинг	Биринчи ҳарфи Б ҳарфи билан бошланган сўзларни ёзинг	Биринчи ҳарфи Д ҳарфи билан бошланган сўзларни ёзинг
Абдуллоҳ Адҳам	Бобо Бодом	Даврон Дўст

Демак, луғат алифбо тартибида тузилади, шунинг учун ҳам алифбо бизга керак деган тушунча ўқувчига сингдирилади. Бу қоидалар ёзиб борувчи дафтарига ёзиб қўйдирилиши шарт.

От, сифат, сон, феъл, олмош сўз туркумлари ҳақида умумий маълумотлар ўргатилмоқда. Бироқ уларнинг таркибий қисмларга ажратишда бола анчагина қийинчиликларга дуч келади. Сабаби мустақил сўз туркумлари ўрганилганда уларнинг маъно турлари ҳақидаги маълумотларга, фақат сифат сўз туркумида тўхталган. Қолган сўз туркумларда эса маъно турлари ҳақида фикр кўрсатиб ўтилмаган. Шу боим ҳам ўқувчи асос ва қўшимчаларга ажратишда қийинчиликларга рўбарў бўлмоқда. Масалан, “тинч”сўзининг асоси “тин” сўзидан олинганлигини билиш учун бола тин сўзининг маъносини ва қайси сўз туркумига киришини англаши зарур. “Тин” сўзи “нафас олмоқ” маъносини англатади. Бошланғич синф ўқувчисига бу сўзни “Рулга бошини қўйиб бироз тин олди” гапи орқали тин сўзи дам олмоқ маъносини ҳам англатиши тушунтирилади. “Тинч” сўзи эса шовқин – сурондан, ғала – ғовур, тўс – тўполондан холи деган маънони англатади. Жим – жит , осойишталик ҳукмрон бўлган пайт. Шундай экан “тин” сўзи нима қил? Сўроғига жавоб бўлади, “тинч” сўзи эса қандай? Сўроғига жавоб бўлади. 3 – синф она тили дарслиги 170- машқ шартига кўра ўқувчи –чи , -ли, -ла, -сиз қўшимчалари қўшилган сўзларни ажратиб ёзиш керак. Шунда болага – чи қўшимчаси ким ? сўроғига, -ли қўшимчаси қандай сўроғига, -ла қўшимчаси нима қил? Сўроғига, -сиз қўшимчаси қандай сўроғига жавоб бўлувчи сўзларни хосил қилиниши ўргантиса, бу айни муддаодир.

Фикримизни хотима қисмида шуни айтмоқчиманки, 3–4 – синфларда асос ва қўшимчалар ўрганилганда уларнинг қайси сўз туркумидан янги сўз хосил қилинаётганлиги, ёки уларнинг сўроқларидаги фарқланаётганлиги ҳақида кенгрок тушунчалар берилиши мақсадга мувофиқдир.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. С.Фузаилов, М.Худойберганова, Ш.Йўлдашева. 3-синф она тили дарслиги.
2. Р. Икромова, Х.Ғуломова, Ш.Йўлдашева, Д. Шодмонкулова. 4-синф она тили дарслиги.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### БОШЛАНҒИЧ СИНФ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА МУЛОҲАЗА ВА МАНТИҚ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Д.Х.Турсунова, Андижон влояти Мархамат тумани  
32 -мактаб бошланғич синф ўқитувчиси

*Аннотация:* Мақолада математикага ҳос мулоҳаза юритиши, математикада исботни ва математиканинг тилини тушуниши, ҳамда бунинг учун мос воситалардан фойдаланиши кундалик вазиятларда асосий математик қонунлар ва асосий математик усулларни тадбиқ этиши акс эттирилган.

*Таянч сўзлар:* сон ва рақам, пропорция, симметрия, фан.

Қадимда ҳаётий масалаларни ҳал этишда одамлар предметларни санаш ва миқдорларни ўлчашига тўғри келган ва қанча саволига жавоб топганлар: яйловда қанча қўй бор, майдондан қанча дон олинди ва ҳоказо. Сонлар шу тартибда пайдо бўлган. Баъзан математиклар ҳазил тариқасида натурал сон худо томонидан, қолган барчаси эса инсон қўли билан яратилган деб гапирадилар. Қанча саволига жавоб беришда натурал сонлар ожизлик қила бошлади. Сонларнинг турли ёзувлари одамлар томонидан яратилган. Қадимги русида сонларни ҳарфлар ёрдамида махсус  $\sim$  (тйтло) белги билан белгилашган. Алфавитнинг биринчи тўққизта ҳарфини бирликлар, кейинги тўққизтасини ўнликлар, охириги тўққизтасини эса юзликлар деб белгилаганлар. Ўн минг сонини “тъма” деб атадилар. Сонларнинг ўнлик санок системасидаги ёзуви европага араблардан, арабларга эса хиндулардан кириб келган. Шунинг учун биз ҳозир фойдаланаятган рақамларни европаликлар араб рақамлви, араблар эса хинд рақамлари деб аталади. Бу система тахминан 1120 йили европага англиялик олим-сайёҳ **Аделард** томонидан киритилган. У 1600 йилларда жаҳонда жуда кўп мамлакатларда қўлланилган. Сонларнинг рус тилида номланиши **ўнли санок системаси** билан боғлиқ. Масалан, ўнетти дегани “ўнта етти”, етмиш – бу “ўнта етти”, етти юз эса. Бу “еттита юз” деган маънони англатади. Ҳозиргача 2500 йил аввал Қадимги Римда фойдаланилган рим рақамлари қўлланилади. I – 1, V – 5, X – 10, L – 50, C – 100, D – 500, M – 1000. Қолган сонлар бу рақамлар ёрдамида қўшиш ва айириш ёрдамида ёзилади. Масалан, XXVII сон 27 ни англатади, чунки  $10 + 10 + 5 + 1 + 1 = 27$ . Агар катта рақам олдига қиймати кичик бўлган рақам(I, X, C) ёзилган бўлса, унда унинг қиймати айрилади. Шундай қилиб, MCMCLXXXIX сони 1989 ни англатади, чунки  $1000 + (1000 - 100) + 50 + 10 + 10 + 10 + (10 - 1) = 1989$ . Ҳозирги вақтда рим рақамлари одатда китобларнинг боб ва бўлимларини, юз берган воқеа йилларини рақамлашда қўлланилади. Бунга агар сиз CCXCVII ва XLIX сонларини қўшсангиз ёки CCXCVII сонни IX снга бўлсангиз ишонч ҳосил қиласиз. Россия мамлакатларида қуйидаги масса бирликларидан фойдаланилган. Масалан, қиммат лекин енгил маҳсулотларни ўлчашда **золотник**(4 грамм атрофида) қўлланилган. Савдо сотиқда **фунт**(1 фунт = 96 золотник), **пуд**(1 пуд = 40 фунт), **берковец**(1 берковец = 10 пуд).




Немис олими **Карл Гаусс**ни математикларнинг подшоҳси деб атадилар. Унинг математикага бўлган иштиёқи ёшлигидан пайдо бўлган. У уч ёшида атрофни кузатиб, отасининг ғиштерувчилар билан бўлган ҳисоб – китобининг хатосини тўғрилаб қўйган. Мактабда кунлардан бир куни (Гаусс ўшанда 10 ёшда эди) ўқитувчиси 1 дан 100 гача бўлган сонлар йиғиндисини топишни таклиф этган. Ҳали масалани қўйилиши билан, Гауссда жавоб тайёр эди:  $101 \cdot 50 = 5050$



Ҳозирги вақтга келиб барча халқлар, жумладан ўзбеклар ҳам санокда ўн, юз, мингдан фойдаланганлар, бу **ўнли санок системаси** эди. Унда маълумки, рақамнинг қиймати сонлар ёзувида муҳим рол ўйнайдиган турган ўрнига(позициясига) боғлиқ.

Қадимги русияда узунлик бирлиги сифатида косая сажень(248 см) қўлланилган, бу чап оёқ учидан юқорига кўтарилган ўнг қўлнинг ўрта бармоғигача бўлган масофани англатган. Маховая сажен(176 см), бу бир қулочга тенг бўлган. Локоть(45 см), бу тирсак узунлигига тенг бўлган.



“Градус” сўзи ўзбек тилида қадам маъносини англатади. Бурчакларни градусларда ўлчаш Вавилонда 3 минг йил аввал бошланган. Улар олтмишлик санок системасида ишлаганлиги учун вавилонликлар, грек ва ҳиндлардан кейин айланани 360 қисмга бўлдилар. Уни бир бўлагини бир градус, бир градус 60 минут, бир минут 60 секунд деб қабул қилдилар.

Қадимда одамлар нарсаларни фақатгина санаш эмас, балки узунлик, вақт, юзани ўлчаш, сотиб олинган ва сотилган маҳсулотлар ҳисобини олганлар. ўлчаш ёки маҳсулот нархи натижалари натурал сонда ифодаланмаган вақти ҳам бўлди. Бўлақларни ҳисобга олишга тўғри келган.

Рус тилида “дроб” сўзи 8 асрда пайдо бўлди, у “майдалаш” – қисмларга бўлиш феълидан келиб чиқади. Математикадан биринчи дарсликда (17 асрда) “ломанкче числа” деб аталган. Бошқа халқларда ҳам касрнинг номланиши “синдириш”, “бўлиш” феъллари билан боғлиқ. Касрларнинг замонавий ёзуви Қадимги Ҳиндистондан бошланган; ундан араблар фойдаланган, улардан 7-14 асрларда европага ўтган. Аввалига каср чизиғи

$\frac{1}{5}$  деб ёзилган. 300 йил аввал каср чизиғи киритилган. Биринчи бор европалик олим касрнинг замонавий ёзувини ёзган, италиялик сайёҳ ва харидор, шаҳар ҳокимининг ўғли Фибоначчи (Леонардо Пизанский) эди. У 1202 йили каср сўзини киритди. Сурат ва махраж сўзларини эса 13 асрда грек олими математик Максим Плануд киритди.

Бирор маълумотларга асосланиб тузилаётган сонли ва ҳарфий ифодалар оддий соф ўзбек тилидаги масаланинг рақамлар, ишоралар ва бошқа белгилар орқали математик тилга ўтказилишидир. Ҳаётий жараёнларни бирлаштириш нуқтаи назаридан математик тилга ўтиши бир хил маъно касб этади. Бу математиканинг инсон фаолиятининг барча соҳаларида қурилиш, савдо, қишлоқ хўжалиги, алоқа, тиббиёт ва ҳоказоларда қўлланиладиган фанлиги билан тушунтирилади.

Бугунги кунда иқтисодий ривожланган давлатларда компетенциявий ёндошув таълим мазмунини модернизация қилиб, янгича ўқитиш йўналишларидан бирига айланган. Бу давлатлардаги умумий таълимнинг янгича мазмунининг асосини ўқувчиларнинг таянч компетенцияларини ҳосил қилиш ва ривожлантириш ташкил этади.

Таълимга компетенциявий ёндошув эскириб қолган “билим, кўникма ва малакани ўзлаштириш” концепциясига қарши ўларок, касбий, шахсий ва жамиятдаги кундалик ҳаётда учрайдиган ҳолатларда самарали ҳаракат қилишга имкон берадиган **турли кўринишдаги малакаларни ўқувчилар томонидан эгаллашни** назарда тутлади. Шундай қилиб, компетенциявий ёндошувда математик таълимнинг асосини амалий, тадбиқий йўналишларини кучайтиришга қаратилади.

Бундан ташқари, тузилаётган таълим стандартлари ўқувчиларнинг олий таълим муассасаларида таълим олишлари, турли касб эгалари бўлишлари ва ҳар томонлама фаол фуқаро бўлишлари учун зарур бўладиган сифатларни акс эттириши керак.

Мамлакатимизнинг дунё ҳамжамиятига интеграциялашуви, фан-техника ва технологияларнинг ривожланиши ёш авлоднинг ўзгарувчан дунёда рақобатбардош бўлиши фанларни мукамал эгаллашни тақозо этади, бу эса Ўзбекистон Республикаси таълим

tizimiga matematikani ўргатиш бўйича халқаро стандартларни жорий этиш орқали таъминланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Жумаев М.Э. Математика ўқитиш методикаси. Тошкент, Турон иқбол. 2016 йил 426 бет.

2. Жумаев М.Э. Математика фанини компетенциявий ёндашув асосида ўқитишда тарихий материаллардан фойдаланиш. Халқ таълими. 2017 йил №4.31-37 бет

2. Болаларда бошланғич математик тушунчаларни ривожлантириш назарияси ва методикаси. Тошкент, Илм Зиё. 2012 йил 240 бет.

3. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда). Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон қарори.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAQSADI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR**

**D.Xayitova, Farg'ona viloyati Qo'qon shahar  
39-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Аннотация. Мақоллада бoshlang'ich sinflarda matematika fanining o'ziga xos tomonlari ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Matematika fanining asosiy omillari sanab o'tilgan.*

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.

2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi; Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'rishakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish.

Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang'ich matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

b) o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

d) o'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish.

Matematika darslarida o'rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilarni atroflicha fikrlashga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatish,

b) matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan.

d) o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish.

O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR USTIDA ISHLASH**

**Z.Nurmonova, ADU o'qituvchisi,  
N.T.Xusanboyeva, ADU BTSTI yo'nalishi  
1-kurs 105-guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida she'riy asarlar ustida ishlash haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riy ohang, estetik did, she'r mazmuni, ongli o'qish, to'g'ri o'qish, ravon o'qish, ifodali o'qish.

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarning poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar ya'ni she'riy hikoyalar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'rda insonning ichki kechinmasi, ya'ni his-hayajoni, shodligi qayg'u-alami, shuningdek, go'zal manzaralardan zavqlanish hissi o'quvchilar lug'atini boyitadi. Bolalarda go'zallikka muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparlik singari fazilatlarini tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"da o'rgatiladigan har bir she'r bolalarda yaxshi taassurot qoldirishi, estetik zavq uyg'otishi va ularning yodida uzoq vaqt saqlanib qolishi, shu bilan birga, asardagi timsollar va asarning tili bolalarda emotsional ta'sirchanlikni tarbiyalash kerak. Bolalarning estetik didini o'stirib, uni ravon va ta'sirli nutq egasi bo'lishga o'rgatish kerak.

O'qish kitoblariga kiritilgan har bir mavzu oxiridagi maxsus savol-topshiriqlar asar tilini o'rganishda juda zarurdir.

Shu savollarga o'xshash, qo'shimcha savollar tuzishga o'rgatish, topshiriq turlarini xilma-xil qilish va ularni mustaqil bajartirish, tushunilishi qiyin so'zlarni alohida izohlab berish kerak.

O'qish darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini izchillik bilan bayon etishlarini ta'min etish, har bir bolaning o'qish tezligini kun sayin oshirish, uni she'r ustida ishlashga o'rgatish va undash ko'zda tutiladi. O'quvchining tafakkuri va tasavvurini o'stirish, og'zaki va yozma nutqi shuningdek, lug'at boyligini rivojlantirish, o'quvchilarda ma'naviy va ma'rifiy, axloqiy did va farosatni tarkib toptirish kabi muhim masalalarga jiddiy e'tibor beriladi.

1-sinf o'qish darslarida bolalar diqqat- e'tibori o'qilayotgan she'r mazmunini ochib berishda, ayniqsa, muhim bo'lgan so'z va iboralarni, fikrlarni ajratishga, so'roq, undov va darak gaplarning ohiridagi intonatsiyaga rioya qilish zarurligiga talab etiladi, ularni dialogli gaplarini o'qish malakasini egallashda o'rgatiladi.

Dars jarayonida o'quvchilarda narsa va voqealar haqida muayyan tasavvurlarni tarkib toptirish va o'stirish bilan bir vaqtda ular tez va ravon o'qishga va she'r bilan muntazam ishlashga o'rgatiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'rganiladigan har bir mavzusining asosiy mazmuni va g'oyasini tushunib olishlariga, mavzu voqealari orasida ichki bog'lanishlarni to'g'ri anglab olishlariga erishmoq'i lozim.

O'quvchilarning o'qituvchi yordamida o'qitilayotgan asar mazmunini va g'oyasini tushunib olishlarida she'rning tili, undagi obrazli ifodalar va ayrim iboralarga ularning diqqatini tortish hamda bu obrazli ifodalar va iboralarni o'z nutqlarida o'rinli ishlatishga o'rgatish muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarning she'r o'qish jarayonida tushunmaydigan so'zlarni avval o'zlaridan so'rab aniqlashi va izohlashi lozim yoki tushunish lozim bo'lgan so'zlar she'r o'qilmasdan oldin izoh berilish kerak.

O'qituvchi she'r matnini ifodali o'qib tugatgach, mazmuni so'zlatiladi. O'quvchi oldiga matn ustida ishlash vazifasi qo'yiladi. O'qituvchi o'qilayotgan gaplarning mazmunini ohang yordami bilan bilib olishi, mantiqiy urg'uni qanday farqlashi kerakligini o'quvchilarga har bir o'qish darsida tushuntirib borishi kerak.

O'qish darslarida bola she'rni ongli, to'g'ri, ravon, tushunib, ifodali o'qigan taqdiridagina uning mazmunini yaxshi o'zlashtiradi va yod oladi. O'qish darslarida o'quvchilarda badiiy asarni muntazam mutoala qilib, yod olib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda badiiy asarni, she'riy asarni mustaqil holda mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asardagi jozibali tomonlarni ko'ra olish, tushunish va his etishga bog'liqdir. Bu o'quvchida bilim va tajribaning kengligini, badiiy mushohada qobiliyatlarining rivojlanishini talab etadi. O'quvchida she'riy asardagi voqealar rivojini, uning ichki bog'lanishini, qahramonlarning ruhiy holatini aniq tasavvur etishi asosida badiiy mushohada shakllanadi. Mushohada yurita olgan o'quvchigina she'rni tushunib, undan ma'naviy ozuqa oladi.

O'quvchilarda she'riyatga qiziqish, o'qishga, yod olishga havas uyg'otish maktab ta'limi sohasida olib boriladigan umumiy ishning uzviy qismi hisoblanadi.

Shu boisdan ham boshlang'ich ta'limning maqsadi, vazifasi, tartibi va yo'llarini o'rganadigan didaktika tashqi olamning inson faoliyati va hatti-harakatiga, ruhiyatiga ta'sir etish qonuniyatlarini o'rganuvchi ruhiyat, shuningdek, badiiy adabiyotni tadqiq etuvchi adabiyotshunoslik fanlari bilan bog'lanib ketadi. Maktab ta'limidagi pedagogik jarayon juda murakkab hodisa bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi beradigan ta'lim o'quvchilarning o'quv mashg'ulotini bajarishi bilan uzviy bog'liq. Har bir fan, ayniqsa, o'z xususiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin fanlar badiiy adabiyot, til, tarix, musiqa, tasviriy san'at maktabda uzviy o'rganiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Nosir" nashriyoti. 2009.
2. A.G'ulomovning "Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari" Toshkent.1992.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z MA'NOLARINI QIYOSLASH TAHLILI ORQALI O'RGANISH.**

**I.Abdujalilova, Asaka tuman  
39-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Madaniy nutq esa o'sha ta'sirni yanada kuchaytiradi, tinglovchi yoki o'quvchining quruq qulog'ini emas, balki qalb qo'rg'onini, aql qal'asini zabt etadi. Shu sababli madaniy nutqda ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlarning o'z o'rinlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** qiyoslash, tahlil, fikr, nutq, so'z, ma'no, aql, ong, vaqt, juldur, uvada, analiz, sintez, umumlashtirish, abstrakt, induktiv, deduktiv.*

Ma'nodosh so'zlar birlashtiruvchi umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, qo'shimcha ma'no nozikliklari, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. A.Hojievning "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" kitobida bir tushunchani ifodalash uchun ikki, uch, besh va o'ndan ortiq ma'nodosh so'zlar keltirilgan. Jumladan, "azob" so'zining o'n, "vaqt" so'zining o'n bir, "uyatsiz" so'zining o'n to'rtta



ma'nodoshi izohlangan. Bundan ma'lum bo'ladiki, til kishilarga ma'nodosh so'zlar qatoridan so'z tanlab olish imkoniyatlarini yaratadi. Ko'rinadiki, ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'no ifodalasalar-da, ular o'zaro farqli xususiyatlari sababli ularning har biri nutqda o'z qo'llanish o'rniga ega. Quyidagi jumalarga e'tibor beraylik: *Oriq, ayoqlari ingichka, kiyimlari juldur dehqonlar omoch ortidan enkayib, horg'in er haydaydilar* (Oybek). *Kunduz kuni uvadamni ko'tarib yurishga uyalganimdan shanba kuni qorong'ilatib "Beklar begi" madrasasiga ko'chib keldim* (M.Muhammadjonov).

Misollarda keltirilgan ma'nodosh so'zlar (*juldur* va *uvada*) biror narsaning ko'p ishlatilish natijasida eskirib, yirtiq-sirtiq, dabdala holga kelganligini bildiradi.

Demak, bu so'zlar "eski" semasi orqali bir paradigмага birlashadi, ularni birlashtiruvchi integral belgi ko'p ishlatilganligidir. Ammo ular o'z ichida bir-birlaridan farqlanuvchi xususiy belgilarga ham ega. Jumladan, *juldur* asosan kiyim-boshga, kam darajada ko'rpa-yostiqlik va boshqa buyumlarga nisbatan ishlatiladi. *Uvada* esa ko'proq ko'rpa-yostiqlik va boshqa buyumlarga nisbatan qo'llanadi, kiyim-boshga nisbatan kam qo'llanadi.

*Uvada* so'zi kiyim-boshga nisbatan ishlatilganda, uning juldurligidan ham eskiroq ekanligini, uni kiyim-bosh deb atashga ham yaramay qolganligini bildirib, ma'noni kuchaytiradi: *Uvada paranjiga o'ralgan ayollarni, usti yupun, yalang oyoq bolalarni ko'rganda bir kimsani uchratganday uzoq to'xtab tikildilar* (Parda Tursun).

*Juldur* so'zi kiyim-boshga emas, ko'rpa-yostiqlik va boshqa buyumlarga nisbatan ishlatilganda *uvadaga* nisbatan kuchsizroq ma'noni bildiradi. Ko'rinadiki, *uvada* so'zi har ikkala holatda ham "eski" semasining kuchli darajasini bildiruvchi so'zdir.

Demak, nutqda ma'nodosh so'zlardan ma'lum ma'noning turli darajalarini ifodalash uchun foydalaniladi, ya'ni vaziyatga qarab ma'lum belgining turli darajalarini ifodalash uchun ma'nodosh so'zlarni tanlab qo'llaymiz.

Ko'rinadiki, ma'nodosh so'zlarda ma'noning kuchayib borish darajasini aniqlashimiz mumkin. Jumladan, *qiyin, mushkul, mahol, og'ir, mashaqqatli, sermashaqqat, dushvor* ma'nodosh so'zlarida qiyinchilik tug'diruvchi, osonning aksi ma'nosining ifodalanish darajasini aniqlaylik.

Ushbu ma'nodosh so'zlarda ma'noning kuchayib borishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Qiyin  $\Rightarrow$  Mushkul  $\Rightarrow$  Mahol  $\Rightarrow$  Mashaqqatli  $\Rightarrow$  Sermashaqqat

Demak, *mushkul* qiyinlik belgisini kuchliroq ottenkada ifodalaydi. *Mahol* ma'noni yana ham kuchaytiradi. *Mashaqqatli, sermashaqqat* qiyinlik belgisini *mahol* so'ziga nisbatan ham kuchli ottenkada ifodalaydi. Bu erda *ser-* prefiksi *mashaqqatli* so'ziga qo'shib, ma'noning yanada kuchayishiga olib kelayapti. Bu so'zning eskirgan, kitobiy varianti ham mavjud: *dushvor*. Masalan, U zamonlarda, o'g'lim, bizga o'xshagan odamlarning to'rt tanga orttirishi *qiyin* edi (A.Qahhor). Yo'lchi yolg'iz qolarkan, o'zi uchun *mushkul* masalani, ya'ni xo'jayin oldiga kirib, undan pul talab qilishni o'yladi (Oybek). Qiz ikkovi bir-birini o'lguday yaxshi ko'rgandan keyin ayirish *mahol!* (H.H.). Sen shularni ayt jangchilarga! *Mashaqqatli*, ammo muqarrar g'alabadan gapir! (I.Rahim). Ular o'sha *sermashaqqat* yillarda sovuqlarga, ko'pincha ochlikka ham bardosh berib... mamlakatni g'alaba bilan uzluksiz ta'minlab turdilar (Gazetadan).

Bundan tashqari ma'no(mazmun)dosh ibora, gaplar ham bo'lishi mumkin. Jumladan:

- *hayron bo'lish* – yoqasini ushlamoq;
- *azoblam*oq – boshida yong'oq chaqmoq;
- *ardoqlamoq* – er-ko'kka ishonmaslik.

*Yoqasini ushlamoq, boshida yong'oq chaqmoq, er-ko'kka ishonmaslik* oddiygina hayron bo'lish, azoblash, ardoqlash emas, balki ortiq darajada hayron bo'lish, nihoyat darajada azoblash, o'ta darajada ardoqlashdir. Demak, bu iboralar ma'nosida "o'ta darajada" degan qo'shimcha ma'no mavjud. Umuman olganda, har qanday iborada ma'no kuchaytirish belgisi mavjud.

Ko'rinadiki, ma'nodosh so'zlarni ajrata bilish, ularning ma'no ottenkalaridagi nozik farqlarni to'g'ri farqlash va ularning har biridan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish fikrni to'g'ri va aniq ifodalashda katta ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytganda, o'tilgan qoidani puxta o'zlashtirish va uning amaliy nutqda qo'llay olish uchun o'quvchilar qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish va abstraktlash, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi malakalarni ortirib borishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Akademnashr, 2012
2. Zakirova X. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish usullari. Respublika ilmiy-va amaliy anjuman materiallari. IV chiqish. ADU, 2015
3. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. Toshkent: O'zb. FA, 1963.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA VAQT O'LCHOVLARINI O'RGATISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH.**

**M.Arslonova Jalaquduq tumani**

**1-umumta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Vaqt har xil hodisalarning davomiy ekanligi haqida dastlabki tasavvurlarni bolalar kun, hafta kabi birliklar bilan tanishib hosil qiladilar. Bu tushunchalarni mustahkamlash uchun o'qituvchi vaqt haqidagi tasavvurlarni ochib beradigan amaliy ishlardan foydalanish kerak.

**Kalit so'zlar:** vaqt, vaqt birliklari, o'lchov, sutka, soat.

Vaqt falsafiy kategoriya, vaqt materiyaning yashash shaklidir, shu sababli unga ta'rif berishning iloji yo'q. Vaqt tushunchasi odamning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi.

Mavzuni o'rganishning asosiy vazifasi bolalarni vaqt birliklari va ularning munosabatlari bilan tanishtirish, vaqtni soat bo'yicha aniqlashga o'rgatishdir.

Vaqt bu hodisalarning davomiy ekanligi haqida dastlabki tasavvurlarni bolalar kun, hafta kabi birliklar bilan tanishib hosil qiladilar. Har kuni maktabga borish kerak. Biror vaqtdan so'ng hodisa takrorlanadi. Kun o'tdi, tugadi. Bir necha kundan so'ng mashg'ulotlardan ozod bo'linadigan kun keladi – bir hafta o'tdi.

Birinchi sinfda tayyorgarlik davrida «oldin», «keyin» (ilgari) tushunchalari kiritiladi. Bu tushunchalarni mustahkamlash uchun o'qituvchi darslikdagi rasmlarga o'xshash vaqt haqidagi tasavvurlarni ochib beradigan bir necha rasmlar tizimiga ega bo'lishi kerak. Masalan, 6 ta rasmdan iborat dalada qish; traktorlar dalaga chiqqan — shudgor qilinmoqda; dalada g'o'zalar unib chiqqan; ochilgan paxtazor dalasi; paxta maydonida kombaynlar; paxta xirmonlari. O'qituvchi avval paxtaning respublikamiz uchun ahamiyati haqida qisqa suhbat o'tkazadi, bolalar bilan paxtaning qanday yetishtirilishini aniqlaydi, keyin esa rasmlar bo'yicha «oldin», «keyin» tushunchalari mustahkamlanadi. Buning uchun bolalar rasmlarni tomosha qiladilar. O'qituvchi savollar beradi: «Oldin nima ish qilishadi: maydonni shudgor qilishadimi yoki chigit ekishadimi?» va hokazo. «Rasmlarni qilinadigan yumushlar bo'yicha joylashtiring». Bu ish uchun o'qituvchi tuzadigan syujetlar unchalik murakkab bo'lmasligi lozim.

3—4 ta ishdan iborat bo'lishi lozim. Masalan, «ko'chani qanday kesib o'tish kerak», «darslarga qanday tayyorlanish kerak» va hokazo.

Birinchi sinfda sutkaning qismlari: tong, kunduz, kechqurun, tun tushunchalari, «bugun», «kecha», «ertaga» tushunchalari shakllantiriladi.

O'quv yili davomida bolalar hafta kunlari nomlarini, oylar tartibini bilib oladilar. Shu sababli ko'rsatma-qo'llanma sifatida sinfda yirtma taqvimga ega bo'lish yoki namoyish etiladigan taqvim yasab olish foydalidir. Navbatdagi o'quvchi har bir o'tgan kunni belgilab boradi.

Bolalarning tajribasida ko'p uchrab turadigan vaqt oraliqlarini taqqoslash vaqt bu miqdor ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Masalan, qaysi biri

ko'p vaqtni oladi: maktabga kelishmi yoki maktabdagi mashg'ulotlarni, darsni yoki tanaffusni, o'quv choragini yoki ta'tilni; qaysi biri kam vaqtni oladi: o'quvchining maktabdagi mashg'ulotini yoki ota-onasining ish kunini. Vaqt bo'yicha «uzoqroq», «qisqaroq» so'zlari kiritiladi. Odamlarni yoshi bo'yicha taqqoslab, bolalar yoshi katta, yoshi kichik, yoshlari teng tushunchalarini egallaydilar.

Birinchi sinfdayoq bolalar vaqtni soat aniqligida aniqlashni o'rganib oladilar. Ikkinchi sinfda vaqt o'lchovlaridan: sutka, soat, minut, oy, yil o'rganiladi.

«Vaqt o'lchovlari» mavzusi bo'yicha darslarda o'quvchilarga odamlar turmushida vaqtning ahamiyatini tushuntirib berish, vaqt o'lchovlarining paydo bo'lishini bolalar o'zlashtira oladigan darajada tushuntirish o'quvchilarning vaqt o'lchovlari orasidagi munosabatlarni qanchalik bilishlarini aniqlash lozim. Suhbatdan parcha keltiramiz:

«Odamning butun hayoti vaqt ichida o'tadi. Inson uchun vaqtni o'lchash, taqsimlash va qadrlash muhimdir. Vaqt uzluksiz o'tadi, uni to'xtatish ham, qaytarish ham mumkin emas. Har bir ish o'z davomiyligiga ega. Mana bizning darsimiz: u boshi va oxiriga ega. Bugungi kun-chi? Uning ham boshi va oxiri bor. Hodisalarning davomiyligi haqida so'zlaganda, biz vaqtni nazarda tutamiz. Taqqoslash mumkin bo'lgan hamma narsa miqdor bilan tavsiflanadi. Vaqt bu miqdordir. Har bir odam uchun o'z hayot vaqti o'lchab berilgan. Hayotda esa ko'p narsa qilishga ulgurish kerak. Shuning uchun biz vaqtni o'lchashni bilishimiz lozim. Vaqtni qanday o'lchash kerak? Axir uni 1 m chizg'ich kabi yoki 1 kg lik tosh kabi qo'lda ushlab bo'lmaydi-ku. Biroq odam kuzatuvchan. Odamlar juda qadim-qadimda bir quyosh chiqishidan navbatdagi quyosh chiqishigacha bir xil vaqt o'tishini payqaganlar. Teng vaqt oraliqlarida takrorlanadigan hodisalar vaqt o'lchovlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Siz endi Quyosh nega chiqishi va botishini bilasiz, chunki Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. Yerning o'z o'qi atrofida to'liq aylanish vaqti sutka deb ataladi.

Sutka — bu katta vaqt oralig'i. Bir sutka davomida odam ko'p narsa qilishga ulguradi. Mana, Siz bolalar uxlashga, maktabga kelishga, shug'ullanishga ulgurasiz. Biroq hamma ham darsning boshlanishiga kechikmasdan kelishi uchun nima qilish kerak? Yana ham kichik vaqt o'lchovi kerak. Mana u. Soat. Shesternyalar va prujinalardan iborat bu murakkab mexanizm millarni doira bo'ylab aylanishga majbur qiladi. Mana bu uzun mil bir sutkada doirani 24 marta aylanib o'tadi. Katta mil bir aylanishi uchun ketgan vaqt bir soat deb ataladi (kartochka qo'yiladi).

Soat. Katta mil sanoq bo'yicha nechanchi marta aylanayotganini bilish uchun, ya'ni soat nechaligini bilish uchun u bilan kichik mil begilangan va u soat mili deb ataladi. Sonlar yozilgan doira siferblat deb ataladi. Butun doira 12 ta teng bo'lakka bo'lingan va har bir bo'lak yoniga tartib bilan sonlar yozilgan. Har bir soatning boshlanishini katta mil 12 sonida turganida ko'rsatadi, sanoq bo'yicha soat nechaligini qisqa soat mili ko'rsatadi. Soatlar modeli bo'yicha vaqtni aytamiz. (O'qituvchi vaqtni aytishni o'rgatadi.)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Bikbayeva N.U. va boshqalar . Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi - Toshkent.: O'qituvchi, 2007.

2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi— Toshkent.: Fan va texnologiya, 2005.

#### **ALISHER NAVOIYNING IJODI**

**K.G'. Asqarova**

**Baliqchi tumani 17-umumta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutaffakkiri va davlat arbobi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit sozlar:** „Xamsa”, Mutaffakkir, davlat arbobi, ma'rifatparvar, mehnatsevar.

O'zbek xalqining ulug' ma'rifatparvari, mutafakkiri va buyuk shoiri Alisher Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan sahifalar nihoyatda ko'p. U bolalarni ilm-hunar egallashga, mehnatni sevishga undaydi, bu ilm va hunarni xalq, vatan manfaatlarini yo'lida sarf qilish zarurligini alohida uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: „Yoshligingda yig' ilmning mahzanin, qarigan chog'da sarf qilg'il ani“ — shoirning shiori ana shunday. U yoshligidan o'qishga beriladi. Bolaligidanoq ko'p she'rlarni yodlaydi. Jumladan, Fariddin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush nutqi“) asarini qayta- qayta o'qib, yod

oladi. Alisher Navoiy davlatda yuqori mar- tabaga erishgach, maktab va maorif ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. U bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurishda g'amxo'rlik ko'rsatdi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida do'sti, podshoh Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qiladi. Shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining „Ixlosiya“ madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratadi. Buning uchun o'z hisobidan lozim bo'lgan mablag'ni ajratadi.

Navoiy o'qituvchini quyoshga o'xshatadi. Quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochganidek, mudarris „abjalxona- lar“ni yoritadi, hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarni ilm nuridan bahramand etib, ma'rifat beradi, deydi. Alisher Navoiy ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini badiiy asarlarida komil insonlar sifatida tasvirlangan ijobiy obrazlari orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, ilm-fanning xislati, qudratiga juda katta baho beradi.

Buyuk shoir bolalar tarbiyasiga oid fikr-mulohazalarini „Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“ kabi dostonlarining ayrim boblarida keng bayon etadi. „Hayrat ul-abror“ („Yaxshi kishilarning hayratlanishi“) falsafiy-ta'limiy dostonidir.

Shoir dostonida saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmning foydasi va mashaqqat chekib bilim olgan kishi baxt-saodatga erishajagi haqidagi falsafiy qarashlarini keng bayon etadi.

„Farhod va Shirin“ dostonida shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarini tarannum etadi. Dostonning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag'ishlangan. Shoir Farhodning bolalik chog'laridanoq ilm- hunarga, mehnatga katta muhabbat bilan qaraganini zo'r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlaydi.

Farhod yoshlik chog'idanoq juda aqlli, zehnli bola bo'lib o'sadi. U maktabda zo'r havas va qunt bilan o'qiydi. Tabiiyot, matematika, mantiq kabi fanlarni tez o'rganib oladi. Yosh Farhodning ilmga bo'lgan havas va muhabbatini sezgan ota- onasi uni har jihatdan rag'batlantiradilar. Jahonning mashhur olimlari Farhodga turli fanlardan saboq beradilar. Natijada eng murakkab va pinhoniy ilmlar unga o'z sir-asrorini namoyon etadi. U qunt va chidam bilan o'qib, bilimdon va zukko inson bo'lib yetishadi.

Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Kitobning 2-qismi axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Unda, asosan, yaxshi fazilat va yomon illatlar tahlil qilinadi. To'g'rirog'i, shoir komil insonga xos bo'lgan odob-axloq haqida gap yuritadi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni maqtaydi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo'lsa, unday odamni el ardoqlashini, e'zozlashini ta'kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa — chashmaga o'xshatadi. Negaki, buloq suvini qancha olgan bilan u qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shafqat hosilini beradi. U bir daraxtdirki, unda hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze' haqida ham ko'p ibratli gaplar aytilgan.

Asarning „Turli foydali maslahatlar va maqollar“, deb nomlangan 3-qismida ko'proq o'qish, ilm olish, kasb-kor egasi bo'lish singari masalalar o'rta tashlanadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o'zi ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab hikmatlar yaratdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006.
3. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U, Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH TARIXI

F.S.Astanaqulova Baliqchi tumani

30-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'zbek xalqining qadim zamonlardanoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragani, rivojlanishga harakat qilgani haqida fikr yuritilgan.

**Kalit sozlar:** grammatik, orfografi, didaktik, psixologik, umumiy pedagogik

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshq ko'plab allomalar ilm-fan dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin, o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar, ularni yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar.

Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechmagan, ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlar ta'minlanmadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi.

Keyinchalik 1931-yil 5-sentabrda qabul qilingan "Boshlang'ich va o'rta maktab haqida"gi, 1932-yil 25-avgustda qabul qilingan "Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida"gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat bera boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.

O'tgan asrning 50-70-yillari mobaynida boshlang'ich sinflarda ona til o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillarda ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi. O'zbek tilshunosligi sohasidagi muvaffaqiyatlar ham tilni o'zlashtirish jarayoniga va metodikaning rivojlanishiga jiddiy yordam ko'rsatdi. Xuddi shuningdek, bu fanning rivojlanishiga o'qituvchilarning ommaviy ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrdagi jurnallarda o'nlab metodik maqolalar bosilib chiqdi.

Bundan ko'rinadik, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda "O'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida"gi qarori alohida o'rin tutadi. Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarning yuzaga keltirgan. Bu yangiliklardan ko'plari maktablarda amaliyotga tadbiq qilinmoqda, ba'zilar hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Mavjud ta'lim tizimidagi tekshirishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham tekshirishlar olib borilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi. (1977).
2. Barakaev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – T.: «Fan», 2004.
3. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – T.: O'qituvchi, 2006.

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA ALGEBRA  
ELEMENTLARINI O'RGATISHDA TURLI O'YINLARDAN FOYDALANISH**

*Z.O'.Mirzayeva Andijon viloyati  
Paxtaobod tumani 1-maktab o'qituvchisi  
K.K.Foziljonova Andijon davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada algebraik ifodalarning boshlang'ich matematika kursidagi o'rni, tahlili va uni o'qitishda turli o'yinlardan foydalanish hamda ularning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** algebraik ifoda, matematik ifoda, sonli tenglik, o'rniga qo'yish usuli, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, o'yinlar.

Bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga bo'lgan qiziqishi juda ham yuqori. Asosan, 2-sinfdan boshlab misollarning qiyinlik darajasi ham ortib boradi. Mana shunday holatlarda o'quvchilarning mavzuni yana ham mustahkam tushunib olishlari uchun turli xil metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Algebraik ifodalar tushunchasi haqida so'z ketganda ko'proq harfli ifodalar orqali berilgan misollar tushuniladi. Algebraik amallar haqidagi dastlabki sodda ma'lumotlar boshlang'ich sinf matematika darsligida beriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri o'quvchilarni yuqori sinfga o'tganda darsliklarda berilgan misollarni hech qanday qiyinchilikka, tushunmovchilikka duch kelmasdan ishlashga o'rgatishdan iborat. Algebra elementlari boshlang'ich matematika kursiga 1969 yildan boshlab kiritilgan.

I-IV sinf o'quvchilari matematik ifodalar, sonli tengliklar va tengsizliklar haqida boshlang'ich ma'lumot olishlari, harfiy simvolika, o'zgaruvchi bilan tanishishlari, sodda tenglama va tengsizliklarni yechishni o'rganishlari va ba'zi masalalarni tenglamalar yordamida yechish o'quvini egallashlari kerak.

Algebra materiali I – sinfdan boshlab arifmetika va geometriya materiallari bilan o'zviy bog'liq ravishda o'rganiladi.

Algebra elementlari kiritilishidan maqsad, o'quvchilarning son, arifmetik amallar, matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarni umumlashtirishlarini yuqori darajaga ko'tarishiga, bundan keyin algebra kursini o'rganishga zamin tayyorlashdan iborat.

Xususan, 2-sinf matematika darsligida ko'pincha algebraik amallar quyidagi ko'rinishlarda beriladi: katakchalarning o'rniga qanday raqam qo'yiladi. Bu yerda o'quvchilar biror bir raqam olib yig'indi va ayirmani hisoblaydi va hisoblashning bunday usullari yordamida o'rniga qo'yish yoki to'g'ri tenglik hosil qilishni anglab yetadi. Bunday misollar boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini kiryishga zamin bo'ladi (1-rasm).

$$\bigcirc 7 \quad + \quad \bigcirc \quad = \quad \bigcirc 76$$

$$\square \quad - \quad \square 15 \quad = \quad \square 20$$

1-rasm

Shu maqsadda o'quvchilar harfli ifodalar bilan tanishadilar.

$10+a=16$ ,  $b-12=9$ , va sodda tenglamalarni yechadilar:

Ko'paytirish hamda bo'lish amallari 2-sinfdan o'rgatib boriladi. Ushbu amallarni o'rgatishda quyidagi algebraik amallar qo'llaniladi:

$$\begin{array}{lll} a \cdot 1 = a & 0 \cdot a = 0 & 1 \cdot a = a \\ a : 1 = a & 0 : a = 0 & a : 0 \text{ mumkin emas} \end{array}$$

Asosan, ko'paytirish jadvali 2-sinfda 2-chorakdan boshlab o'rgatiladi. Ko'paytirish jadvalining mohiyatini tushunish hamda uni yod olish o'quvchilarga biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Mana shunday holatlarda darslarda turli o'yinlardan foydalanish juda foydali. Bunday o'yinlaridan biri-bu "Kim chaqqon" o'yini hisoblanadi. Sinf doskasiga kichik hajmdagi qog'ozlarga ko'paytirish jadvalidagi sonlar yozib qo'yiladi. O'qituvchi doskaga o'quvchilarni chiqaradi hamda ularga ko'paytirish jadvalidan savollar bera boshlaydi. Ular sonlarni ko'paytiradi va natijani doskada qidiradi. Javobni o'quvchilar tezlikda yig'ib olishlari kerak. Mana shu tariqa savollar berib boriladi hamda o'quvchilar javoblarning hammasi yig'ib bo'lingach, o'qituvchi natijalarni hisoblab chiqadi. Kimning natijasi yuqori bo'lsa, u sinfnig "Eng chaqqon" o'quvchisi deb e'tirof etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Ko'paytirish amalini hisoblang. Bu yerda  $a=4$ ,  $a=5$

A	4	a	a	8
7	a	5	6	A
=	=	=	=	=

Ushbu o'yinni tez-tez qo'llash o'quvchilarning tez fikrlanishini hamda faolligini oshiradi.

Boshlang'ich sinfnig 3-sinf matematika darsligida algebraik amallar harfli ko'rinishda berilgan. Bunda harfiy ifodalar ustida qo'shish amali quyidagicha berilgan.

$$\begin{array}{l} a + b \\ b + a \end{array} \qquad \begin{array}{l} x + (y + z) \\ (x + y) + z \end{array}$$

Bu yerda  $a = 2$ ;  $b = 6$   $x = 2$ ;  $y = 4$ ;  $z = 3$ ;

Bu holat qo'shishning guruhlash xossasini harfli ko'rinishda o'rgatishdan iborat bo'ladi.

3-sinf matematika darsligida quyi sinflar matematika faniga nisbatan murakkabroq, ya'ni ifodalarda harflar ikki va undan ortiq qatnashadi (2-jadval).

2-jadval

1	Qo'shiluvchi	$a$	5	13	7	14	13	17
2	Qo'shiluvchi	$b$	1	20	21	14	16	15
3	Yig'indi	$a + b$	$5+1$	$13+20$	$7+21$	$14+14$	$13+16$	$17+15$

Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasining harfli ifodalarda ko'rinishi.

$$a \cdot b = b \cdot a$$

3-sinf matematika darsligidagi algebraik misol va masalalarni yechishda "Oyga uchish" metodidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. O'qituvchi tomonidan raketa maketi yasaladi. O'qituvchi o'quvchilarga birin-ketinlikda savol berib boradi. Javob bera oladigan oyga uchishga ruhsat beriladi. Javob bera olmaganlar esa joyida o'tiradilar. Bu metodlardan faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda algebraik amallarni yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlardan foydalangan holda o'rganish yuqori sinflarda o'qitiladigan geometriya, algebra va fizika fanlarini oson o'zlashtirishga yordam beradi. Quyi sinflarda o'rgatiladigan algebraik amallarning metodik usullari kelajakda o'quvchilarni keng fikrli, bilim darajasi yuqori bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 3-sinf matematika darsligi. S.Burxonov va boshqalar. Toshkent: Sharq. 2019
2. 2-sinf matematika darsligi. N.Abdurahmonova L.O'rinboyeva. Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis. 2018

## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA ADABIY ERTAKLARNING AHAMIYATI

A.Azimov, ADU magistri  
Sh.Sotvoldiyeva 11-maktab direktori

*Anotatsiya: Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy qobiliyatini o'stirish, ularni tarbiyalash jarayonida xalqimiz tomonidan yaratilgan ertaklar bir qatorda adabiy ertaklarning ham ahamiyati juda kattadir. Bu maqolada adabiy ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, ertak, adabiy ertaklar.

Xalq og'zaki ijodidagi eng boy janrlardan biri ertaklardir. Biz bilamizki, ertaklar yaratilishiga ko'ra, xalq tomonidan yaratilgan ertaklar va ma'lum bir ijodkor tomonidan yaratilgan adabiy ertaklarga bo'linadi. Adabiy ertaklar ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilganligi bilan xalq ertaklaridan ajralib turadi. Adabiy ertaklarda uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar oqilona hal etiladi. Bunday ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun ham har qanday kitobxonning qalbiga tez yetib boradi. Boshlang'ich sinflarda o'zbek adabiy ertaklaridan foydalanish, ularni o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloq kabi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishda adabiy ertaklarning o'rni beqiyosdir. Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqealar rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyatlar bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, undagi ezgu kuchning – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish usuli, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi. Ertakning pedagogik qimmatini shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar.

Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqadi? Nima uchun? ... nima uchun jazolanadi (yoki rag'batlantiriladi)? Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga xatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilaridan esa, aksincha, yuz o'giradi? kabi savollarga javob berish uchun o'ylaydilar, ertak qahramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka-yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, "Donishmand" ertagida ahillikka undashdan iborat.

Ertakda xalq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu-istaklarini bilib oladilar. Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matni bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar. Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. Anvar Obidjonning "Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak", "Ko'zacha bilan Tulki", "Olapar, Mosh, Musicha" kabi ertaklar aniq-hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Matn bilan ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan grafik rasm chizish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi. Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-biriga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib, tahlil

qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, voqealar rivojini qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida "Ertakda sizga juda yoqqan joyini o'qing, nima uchun yoqqanini ayting. Hayotingizda mana shu ertakdagiga o'xshash voqealar bo'lganmi?" kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**

**D.O.Badalova, Izboskan tumani**

**15-umumta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchi**

***Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda interfaol usullardan samarali foydalanish o'quvchilar faolligini oshirish, lug'atini boyitish, ona tili faniga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi.*

***Kalit so'zlar:** nutq, interfaol usul, mustaqil fikrlash, didaktik o'yin.*

Ta'limning yangi mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida savodxon, bilimli, nazariyani amaliy ishlarda tushuntira oladigan, o'quvchi o'z ehtiyoji talab qilgan darajadagi o'quv materialini o'zlashtiradigan darajada tarbiyalab berishni nazarda tutmoqda. O'quvchilarni faollikka undashda darsda interfaol usullardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi.

O'qituvchi nuqtai-nazardan turib yondashish o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyati mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalardan amaliy faoliyatlarida foydalanadilar. Mashqlarni aniq bajarish usulari va texnikalarning chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida yo'l qo'yilishi lozim bo'lgan amaliy mashq usullaridan bir bu yozma bahs usulidir. Bunday usulda muloqat o'rnatish natijasida o'quvchilarning erkin tarzda mustaqil fikrni ifodalash imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi. Og'zaki muloqat jarayonida bayon qila olmagan fikrlar bemalol yozma shaklda bildirish uchun sharoit yaratiladi.

Ona tili darslarida so'z turkumlarini chuqur o'zlashtirishda hmkorlikda o'qitish usullari bizga yaqindan yordam beradi.

O'qituvchi o'quv dsturidan o'rin olgan «Ot» mavzusini o'tishda o'quvchilar guruhi uchun materialini mustaqil ishlab o'rganishlariga imkon beradigan o'quv topshiriqlarini tuzadi.

Ona tili darsini boshlashdan oldin o'quvchilarni bir necha guruhga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish mmkin. Har bir topshiriq bo'yicha savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholab boriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda quyidagi didaktik o'yinlardan samarali foydalanish mumkin.

### **«Maqollarda antonimlar»**

Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar ko'proq uchraydi. Shu bois bu shartda o'quvchilar navbatma-navbat ot antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar», «kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda» va x.k.

### **«Zinapoya» usuli**

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga ma'lum bir shaklda «zinapoya» chiziladi.

Ma'lumki, antonimlar o'z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya» ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfdan nechta o'quvchi bo'lsa,



zinalar soni shuncha bo'ladi.

### «Izohli lug'at»

Buning uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. 1-guruh ishtirokchilari so'z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o'quvchilar esa 1- guruhdagilar aytgan so'z va birikmalar ma'nosini tezkorlik bilan

izohlab beradilar. Shartni bajara olmagan guruh mag'lub hisoblanadi. Bu o'yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O'zbekning shoh taomi: palov Ertalabki ovqatlanish: nonushta Ilonning yog'ini yalagan: ayyor Dala malikasi: makkajo'xori Aql gimnastikasi: shaxmat

Tog' malikasi: archa va x.k.

Bu o'yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko'proq takrorlash darslarida o'tkazilishi mumkin.

### «Klaster» usuli

Bu usulda biror mavzu yoki matn tanlanib, o'quvchining diqqati aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. O'quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

Usulning maqsadi:

- o'quvchilar so'z boyligini oshirish;
- yozma nutqni takomillashtirish;
- fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

«Klaster» usuli-bu pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchilarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bermalol o'ylashga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. «Klaster» usulidan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o'rganilguncha fikrlash faoliyatini ta'minlashda foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish barobarida dars samaradorligi ortadi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi yanada kuchaydi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T.:«O'zbekiston», 2001.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ERTAK O'RGATISHNING METODLARI

D.T Umurzakova

Andijon shahar 35-DIM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak o'rgatish orqali ularni ma'navi-ahloqiy jihatidan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.*

Istiqlol tufayli erishgan yutiqlarimiz, ozod vatanimizning ramzlari haqida asarlar milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashda hizmat qiladi. Har bir sinf uchun mazmuni, tili va tuzilishi jihatidan mukammallashtirilib borilgan o'qish materiallari berilgan bo'lib, bunda o'quvchilar asarlar bilan bosqichma-bosqich tanishib boradilar. Shunday qilib, o'quv materiallari bolalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo'lgan borliq haqidagi bilim va yuksak insoniy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Xalq ertaklari hayot haqiqatiga asoslangan, hayotiy xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, odamlarga ibrat, o'git berishi bilan ajralib turadigan janr hisoblanadi. Ertaklarda

xalqning maishiy turmishi va qahramonliklari, insonparvarlik va vatanparvarlik hamda hayotiy uydirmalar vositasida hikoya qilinadi. Ertaklarning o'ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar;

1. Og'zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli suvjetga ega bo'lishi;
2. Voqealarning ongli, hayotiy uydirmalar orqali aks ettirilishi;
3. Estetik vazifaning yetakchiligi;
4. O'ziga xos badiiy, shakliy qolipga va tilga ega bo'lishi;

Xalq ertaklari mazmunan uch guruhga bo'linadi:

1. Hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar;
2. Sheriy-fantastik ertaklar;
3. Hayotiy-maishiy ertaklardan iborat.

O'zbek xalq ertaklari xajviy va xajviy bo'lmagan ertaklar kabi turlarga bo'linadi. Ertak o'qivchilarini og'zaki nutqini o'stirish fiklash qobiliyatini rivojlantirish qobiliyatini rivojlantirish dunyoqarashini

kengaytirish, ertak qahramonlarini yaxshi va yomon xislatlarini ko'ra olish, ularga munosabatlarini bildirib olish, ularni bir-biri bilan taqqoslay olish kabi bilim va malakalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qivchilar ertakni o'qish yoki eshitish natijasida ertak qahramoni yomon xislati bo'lsa, o'sha xislatga ega o'lishni yaxshi emasligi tushunadi. Agar o'quvchida shunday yomon xislat bo'lsa, uni yo'qotishgacha xarakter qiladi. O'quvchi o'zi shu haqida fikrlaydi. O'quvchilar ertakda o'qiganlarini hayolan tasavvur qiladilar. Ertaklar odatda monolog va diolog tarzida bayon qilinadi. Lozim bo'lgan o'rinlarda u aynan voqea hodisalarni hayajon, g'azab, sevinch alomatlarini bilan ta'sirli ifodalashi, qahromon ovozi aks ettirishi, hayvonlar haqida so'z bo'lsa, ularning tashqi qiyofasini o'qivchilar ko'z ongida yordam gavdalantirib olishi kerak, ana shundagina ertak mazmuni o'quvchilar ongida tez singdi. Ertak o'qib yoki aytib beruvchilar mimika, qo'l harakatlari, vaqti kelganda tabassum qilishi, voqea mazmuniga mos harakatlanishini, ayrim xollarda jiddiylashishi, ovozi pasaytirib, goxo birdan baland ovozda so'zlashi bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. O'qituvchi ertaklarni bayon qilganida o'z nutqining bolalarda qanday taassurot qoldirganiga doimo e'tibor berib turishi, ertak mazmunini qanchalik tushunarli, qiziqarli bo'lgan-bo'lmaganini xisobga olib bo'rish kerak. Ertaklarni xamisha bir xil ovozda aytib berish, bir hil ovoz tonida bayon etish yaramaydi, ertak qahramonlari obraziga kirish, ovozni o'xshatib hikoya qilish kabi vazifalarni bajarish lozim. Ertak tili ustida ishlash bolalar nutqini o'stirishda lug'at boyligini oshirishga, ularda narsa va voqealarga bo'lgan estetik didni oshirishga katta yordam beradi. O'quvchilar ertaklarni o'qish orqali xalqimizning o'tmishi, kishilarning bir-biriga muhabbatlarini o'rganadilar. O'qituvchi ertaklarni o'qitishga doir mashg'ulotlarda suhbat metodidan ko'proq foydalanishi kerak. U darsga tayyorlanar ekan ertaklarning qaysi qismini sinfda o'qib yoki so'zlab berish qaysi qismlarini o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun topshirish kerakligini belgilab oladi. Har bir sinfda ertaklarning tuzilishi (kirish qismi, voqealarning borishi, egallanishi) qisqacha taxlil etiladi. Ertaklardagi bir-biriga o'xshash joylar taqqoslanadi.

Demak, gap hayvonlar haqida borsada, majoziy usulda jamiyatdagi tengsizlik, ochko'zlik, yolg'onchilik, firibgarlik, razillik, zolimlik, nohaqlik kabi sifatlar fosh etiladi, ezguliklar ardoqlanadi. Xalq tomonidan yaratilgan bunday ertaklarda ham bolalarning yosh xususiyatlariga e'tibor berilgan. Masalan, kichik yoshdagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi «Bo'ri bilan tulki», «Qarg'a bilan Qo'zi», «Chumchuq», «Echkingning o'ch olishi», «Ovchi, Ko'kcha va Dono» kabi bir qancha ertaklarning ko'rsatish mumkin. «Bo'ri bilan Tulki» ertagida bo'ri bilan tulkingning o'ziga xos ichki olamni ochilishi orqali ma'lum ma'rifiy g'oya ilgari suriladi. Ertakda hikoya qilinishicha, bo'ri bilan tulki do'st tutinishgan. Bir kuni bo'ri tulki: «Meni bir joyga olib borva qornimni to'yg'azib, xursand qilib kelgin», - debdi. Tulki rozi bo'lib, bo'rini boqqa boshlab boradi, uzumho'rlik qilishadi. Tulki uzumzorda ikki dona uzumni ikki burniga tiqib bo'riga: «Men judayam to'ydim, azbaroyi to'yganimdan uzum burnilarimdan chiqib ketdi», - deydi. Go'l, ahmoq bo'ri tulkingning bu so'ziga laqqa ishonib, yana uzum yeyaveribdi, qorni rosa to'yib bog'dan chiqib keta olmay, bog'bon kaltagiga duchor bo'ladi, yegan uzumlari og'zi-burnidan chiqadi. Keyin bo'ri tulkingning so'zlariga kirib, kart dumba qo'yilgan qopqonga ilinadi, ovchi bo'rini obdon kaltaklab,

qo'yib yuboradi. Undan so'ng laqmaligidan ot tepkisini yeydi. Ertak orqali o'quvchilar ochko'zlik yaxshilikka olib kelmasligini, do'st topishda adashmaslik kerakligini, ayyor, laqma bo'lmaslikni tushunadilar. Demak, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida ertaklarni, asarlarni ahamiyati juda katta.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. —Yuksak ma'naviyat yengilmas kuchl. T. —Ma'naviyatl., 2008y.
2. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 1997 yil 29.09 3. 3. Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. —Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent.—Noshirl nashriyoti 2009 yil. 365 bet.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ O'STIRISHGA OID ISH TURLARI**

**G.Q.Dehqonova, O.A.G'ofurova**  
**Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani**  
**24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish, bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash, ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish yoritib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Bolalar nutqi, og'zaki nutq, tasavvur, tushuncha, lug'at.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda diksiya ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Chunki diksiya ustida ishlash o'quvchilar nutqini tushunarli, sof, aniq, jarangdor bo'lishiga erishishda muhim vosita. Bu savod o'rgatish uchun ham, ifodali o'qish, orfoepik va orfografik malakani, jo'rovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir. Ya'ni, diksiya tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligiga bog'liq, shuning uchun diksiyani o'stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning elastikligini o'stirishga qaratiladi. Diksiya ustida ishlash mashqlariga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan: sara-shira-qara-shira so'zlarini ovozni to'qichqiriqqacha balandlata borib, so'ngra ovozni to'shivirlashgacha paslatib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu sara-shira so'zlarini sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlash tira borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar nuqson bilan talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Masalan, *G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.*

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan aytirish foydalidir<sup>6</sup>.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, fan darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik "hikoyacha" (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat. Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi fanlar bilan tanishish yordamida so'zni ovozli ishlatishga; ikkinchidan,

<sup>6</sup> G'ulomov. A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.

turli tipdagi sodda yig'iq gap (*Bolalar yuguryapti*), sodda yoyiq gap (*Lola do'konga bordi*), uyushiq bo'lakli gap (*Anvar oyisiga yordamlashdi, ukasiga qaraydi*), qo'shma gap (*O'g'il bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Fanlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun tema bo'lib xizmat qiladi.

Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va *Bu nima? Bu kim? Bu qanday fan? Kim nima qilyapti?* kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofda jonli fanlarning nomini, ularning belgilarini aytish, fanlarni ma'lum belgilari asosida gruppalash kabi mashqlar kiradi.

Masalan o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum ber temada (*kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida*) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchini savollariga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi fan va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi.

Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar<sup>7</sup>.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olim, Naima kabi ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar.

Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bog'-bog'bon-bog'cha kabi so'zlarni mashq qilish esa bolalarning "O'zakdosh so'zlar" mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Bu esa o'quvchilar nutqining ravon bo'lishi va grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtirishlariga ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov. A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.
2. Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. T.: 1964.
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI**

**N.A.Erkaboeva, M.V.Axmedova,  
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 35-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan passiv lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib

---

<sup>7</sup> Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. T.: 1964.

qolgan adabiy til normasiga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va soʻzlashuv tilida qoʻllanadigan sodda soʻz va iboralar, mahalliy sheva va ijtimoiy guruhga oid soʻzlar yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Bolalar nutqi, ogʻzaki nutq, faol lugʻat, adabiy til normasi, tasavvur, tushuncha, lugʻat.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlangʻich taʼlim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini oʻtaydi. Maʼlumki, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga taʼlim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi oʻqish darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va oʻqish darslarida olib boriladigan barcha mashgʻulotlarning yetakchi oʻrni nutq oʻstirish boʻlib, u savod oʻrgatish, chiroyli yozish koʻnikmalarini shakllantirish va oʻquvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni oʻz ichiga oladi.

Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon boʻlsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran boʻladi. Nutq orqali odamzod oʻzining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi. Chiroyli soʻzlashni, savodli, toʻgʻri yozishni, oʻz fikrini ravon va aniq bayon yetishni bilmagan oʻquvchi hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan oʻzlashtira olmaydi. Bu borada soʻz va nutqning maʼno-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari soʻzlash qobiliyati va goʻzal nutq qudrati bemsil bir neʼmat ekanligini takror va takror taʼkidlaganlar.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish, avvalo, ularning lugʻatini boyitish bilan bogʻliqdir. Soʻz boyligini oshirishda lugʻat ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega. Oʻrganilayotgan matn yuzasidan lugʻat ishi oʻtkazish jarayonida oʻquvchilar tilning lugʻat tarkibiga xos boʻlgan eskirgan soʻzlar, yangi paydo boʻlgan soʻzlar, kasb-hunarga oid soʻzlar, shevaga xos soʻzlar, badiiy uslubga xos soʻzlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Tilimizda mavjud boʻlgan behisob soʻzlarni yodda saqlab qolishda hamda ularni nutqda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllay olishda tilning lugʻat tarkibini muayyan qatlamlar yoki guruhlarga ajratib oʻrganish, yaʼni eskirgan soʻz, yangi paydo boʻlgan soʻz, kasb-hunarga oid soʻz, shevaga xos soʻz kabi tushunchalar haqida ilk nazariy maʼlumotlar bilan tanishtirish juda muhim sanaladi.

Soʻz tilning maʼno bildiradigan asosiy birligidir. Soʻz va soʻz birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud boʻlgan barcha soʻz va iboralarning yigʻindisi *lugʻat tarkibi* yoki *leksika* deyiladi. Leksikologiya oʻzbek tilining lugʻat tarkibini oʻrganadigan boʻlimdir. Leksikologiya lugʻat tarkibidagi soʻzlarning nutqda maʼno ifodalash xususiyati, qoʻllanish faolligi, boyib borishi, baʼzi soʻzlarning eskirib, isteʼmoldan chiqib ketishi, maʼno koʻchish hodisasi kabilarni oʻrganadi. Shu sababli leksikologiya lugʻat ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlangan, mazmunga mos soʻz va soʻz birikmalarining maʼlum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lugʻati qanchalik boy va rivojlangan boʻlsa, uning nutqi ham shunchalik boy boʻladi; oʻz fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lugʻatning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning muhim sharti hisoblanadi.

Maktabda nutq oʻstirishning muhim vazifalaridan biri lugʻat ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yoʻnalishlarini ajratish va asoslash, oʻquvchilarning lugʻatini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Maktabda lugʻat ustida ishlash metodikasi toʻrt asosiy yoʻnalishni koʻzda tutadi:

1. Oʻquvchilar lugʻatini boyitish, yaʼni yangi soʻzlarni, shuningdek, bolalar lugʻatida boʻlgan ayrim soʻzlarning yangi maʼnolarini oʻzlashtirish. Ona tilining lugʻat boyligini bilib olish uchun oʻquvchi oʻz lugʻatiga har kuni 8-10 ta yangi soʻzni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 soʻzni qoʻshishi, yaʼni shu soʻzlar maʼnosini oʻzlashtirishi lozim.

2. Oʻquvchilar lugʻatiga aniqlik kiritish. Bu oʻz ichiga quyidagilarni oladi: 1) oʻquvchi puxta oʻzlashtirmagan soʻzlarning maʼnosini toʻliq oʻzlashtirish, yaʼni shu soʻzlarni kontekst matnga kiritish, maʼnosi yaqin soʻzlarga qiyoslash, antonim tanlash yoʻllari bilan ularning maʼnosiga aniqlik kiritish; 2) soʻzning kinoyali maʼnosini, koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻzlashtirish; 3) soʻzlarning sinonimlarini, sinonim soʻzlarning maʼno ottenkalarini oʻzlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning maʼnosini oʻzlashtirish.

3. Lugʻatni faollashtirish, yaʼni oʻquvchilar maʼnosini tushunadigan, ammo oʻz nutq faoliyatida ishlatmaydigan passiv lugʻatidagi soʻzlarni faol lugʻatiga oʻtkazish. Buning uchun soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi va gaplar tuziladi, ular oʻqiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda qoʻllashadi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan soʻzlarni oʻquvchilar faol lugʻatidan passiv lugʻatiga oʻtkazish. Bunday soʻzlarga bolalarning nutq muhiti taʼsirida oʻzlashib qolgan adabiy til normasiga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va soʻzlashuv tilida qoʻllanadigan sodda soʻz va iboralar, mahalliy sheva va ijtimoiy guruhga oid soʻzlar kiradi. Adabiy til normasi degan tushunchani oʻzlashtirgach, oʻquvchilar yuqorida izohlangan soʻzlar oʻrniga adabiy tildagi soʻzlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid soʻzlar, soʻzlashuv tilida ishlatiladigan sodda soʻz va iboralar oʻquvchilarning faol lugʻatidan chiqib keta boradi.

Oʻqish darsida bolalar lugʻati maʼlum mavzularga oid soʻzlar hisobiga ham boyib boradi. Ular lugʻatiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinsoʻz, mehribon; haqqoniy, botir, mard, jasur; mehnatsevar kabi koʻpgina soʻzlar qoʻshiladi. Matn ustida ishlash jarayonida koʻp maʼnoli soʻzlarni, sinonimlar va koʻchma maʼnoda ishlatiladigan soʻzlarni, baʼzi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Shunday qilib, oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish boshlangʻich taʼlimda nutq oʻstirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S va boshq. 4-sinfda oʻqish darslari. - T.: „Yangi yoʻl poligraf servisi“, 2007.
2. Qosimova K. Ona tilini oʻqitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
3. Gʻulomov A. Ona tili oʻqitish printsiplari va metodlari. –T.: “Oʻqituvchi”, 1992.

### **BOSHLANGʻICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARI ORQALI OʻQUVCHILAR NUTQINI BOYITISH OMILLARI**

**G.M.Erkaboyeva, Fargʻona viloyati Oʻzbekiston tumani  
36-maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchisi**

Annotatsiya:Ushbu maqolada, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki nutqini rivojlantirishda matematika darslarini ahamiyati, matematika oʻqitish orqali oʻquvchilar nutqini boyitish omillari yoritib berilgan.

*Kalit soʻzlar: Nutq, ogʻzaki nutq, matematika, mashq, bogʻlanishli nutq,tasavvur, tushuncha, lugʻat.*

Boshlangʻich taʼlimning asosiy vazifalaridan biri oʻquvchilar nutqini oʻstirishdir. Nutq oʻstirish soʻz ustida ishlash, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash, bogʻlanishli nutq ustida ishlash kabi uch yoʻnalishda amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Nutq fikrni bayon etish vositasi boʻlibgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va oʻzaro bogʻlangan maʼnoli qismlarga boʻlinadigan nutq bogʻlanishli nutq deyiladi. Bogʻlanishli nutq birligi sifatida oʻqituvchi bergan savolga oʻquvchilarning keng, mukammal ogʻzaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlangʻich sinflar metodikasida bogʻlanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) oʻqilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni oʻrganish; oʻquvchilar lugʻatini faollashtirish bilan bogʻliq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam oʻtkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) oʻqilgan matnni turli variantda ogʻzaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida oʻquvchilarning ogʻzaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar: 5 soni 3 sonidan katta ( $5 > 3$ ) yoki uch soni besh sonidan kichik ( $3 < 5$ ); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi ( $10 + 25 = 35$ ) va hokazo.

Masala yechish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; ...bizga ma'lum, masalada so'rallyapti kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar. Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida «Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?» masalasini tuzadi. Bu masalani yechishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchilikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmuni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda egallanadigan bilim haqiqiy va o'quvchilar nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. «Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi»<sup>8</sup>.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmuni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda egallanadigan bilim haqiqiy va o'quvchilar nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку. - М.: «Просвещение», 1965.

2. Gulomov. A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.

<sup>8</sup> Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку. - М.: «Просвещение», 1965. 297-бет.

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH USULLARI**

**Sh.S.Ermatova, A.A.Yoqubova,  
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
31-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda matematika darslarini ahamiyati, matematika o'tish orqali o'quvchilar nutqini boyitish omillari yoritib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Nutq, og'zaki nutq, matematika, mashq, bog'lanishli nutq, tasavvur, tushuncha, lug'at.

Ma'lumki, fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi. Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob berish;
- 2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o'tkaziladigan kuzatishlarni yozish, ob- havo kundaligini yuritish;
- 4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;
- 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o'quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
- 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she'r, hikoya tuzish;
- 8) namunasi berilgan badiiy ilmiy- ommabop matn asosida bayon yozish;
- 9) o'qituvchi bergan matnni og'zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);
- 10) har xil turdagi yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarni hillashda, avvalo, material manbaiga, mavzu ko'lamiga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqini o'stirish orqali ko'nikmaga ega bo'ladilar. Jumladan, mavzuni tushuntirish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, "Biz qanday ertaklarni yaxshi ko'ramiz?" rejasi berilsa, o'quvchilar o'zlari yoqtirgan ertaklari haqida hikoya qiladilar. Ular rejani yaxshi tushunishlari uchun bayon matnli qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan reja yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi. O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashga shu maqsadning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkurini va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchillikda shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi lozim.

Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. Buning uchun o'quvchilar og'zaki hikoya qilayotganda qo'llangan alohida so'zni yozishda gapni yozishga, so'ng matn qismlarini yozishga va 1- sinfdan o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o'rgatiladi.



Ish quyidagi-cha yuritiladi: bayon uchun tanlangan matnni o'quvchilar bir ikki marta o'qiydilar (o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin); bolalar matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi; matn rejani tuzdiriladi (reja suhbat davomida ham tuzilishi mumkin); lug'at ishi o'tkaziladi (so'zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi); muhimroq sintaktik konstruksiyalangan va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar hatto matn qismlari tuzdiriladi; o'quvchilar bayon matnni mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, sinfdagi boshqa o'quvchilarga xalaqit bermaydi, ayrim bolalar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, takomillashtiriladi va daftarni tekshirish uchun o'qituvchiga topshiradi.

O'quvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq bo'lib, mazmunda va bolalar bayoni tilida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradilar.

Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab logik priyomlardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va nisbatan qiyin: bunda matndan ikkinchi darajali o'rinlarini tushirib qoldirib, asosiy, muhim o'rinlarini tanlab hikoya qilinadi. Buning uchun o'quvchining o'zi matnning asosiy mazmunini aniqlashi bog'lanishli, izchil qayta hikoya qilishi, uning hikoyasi matnni qisqartirish tarzida bo'lmasligi, o'zlashtirilgan matnning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan bera olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson bo'lgan hikoya tarzida matn tanlash tavsiya etiladi.

Metodikada ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi ajratiladi. Masalan, shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon, hikoyada ishtirok etuvchi biror personaj tilida qayta hikoya qilish, matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash, so'z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish kabi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan turlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilar bilan bilan ijodiy ishlar o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodov A. Ta'lim standartlari va tarbiyaviy jarayon samaradorligi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. № 5.

2. G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari Toshkent, 2006.

## XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI

**G.Mahkamova, Andijon shahar  
Muhammad Yusuf ijod maktabi o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Xudoyberdi To'xtaboev asarlarida iboralarning qo'llanishi va Xudoyberdi To'xtaboev asarlarida iboralarning xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Frazelogizm, birikma, gap, so'z birikmasi, predikativ. so'z birikmasi yoki predikativ so'z birikmasi yoki predikativ

Frazelogizm yaxlit bir ma'no ifodalaydigan so'z birikmasi yoki predikativ qo'shilma qolipidagi til birligidir. Yaxlit bir ma'no berishiga ko'ra u so'zga o'xshasa ham, doimo subektning obektga bo'lgan munosabatini bildirishi bilan undan semantik farq qiladi. U so'zlar birligidan tarkib topgan birikma yoki predikativ qo'shilma qolipli bo'lsa ham, birikma yoki predikativ qo'shilma kabi nutq jarayonida yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug'aviy birlik holatida bor ekanligi holda, nutq uchun shundayligicha tanlanadi<sup>9</sup>.

Tilshunos olim Mamatov fikricha, iboralar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lama yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un

<sup>9</sup> M.Mirtojiyev. O'zbek tili leksikologiyasi va leksigografiyasi. T.: 2000, 44-bet.

so'z birikmalarini o'z ichiga oladi<sup>10</sup>. Iboralarning badiiy asarda qo'llanilishi voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida to'la gavdalanishiga xizmat qiladi.

Frazeologizm birikma yoki gap qolipli bo'lganligi va u bir lug'aviy butunlikka aylanganligiga qaramay, o'z sintaktik xususiyatlarini saqlab qoladi. Murakkab birikma va gap tarkibida nutq zaruriyatiga ko'ra ayrim bo'laklarni chiqarib tashlash va unga ayrim bo'laklarni kiritish imkoni bo'lganiday, frazeologizm tarkibida ham shunday o'zgarishlarni qilish mumkin<sup>11</sup>. Natijada xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralari qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik - stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin<sup>12</sup>. Tadqiqotimiz jarayonida adib asarlarida uchraydigan quyidagi frazeologik transformatsiya shakllarini uchratdik.

1. "– Ho, **nafasingizni sal issiqroq qiling**, - ko'kragiga bir tuflab oldi sersoqol mehmon, - saratonda hamma yoqni muzlatib yubordingiz-ku!" ("qasoskorning oltin boshi" 122-bet) Bu misolda berilgan "nafasni issiq qilmoq" iborasi tarkibiga "sal" so'zi qo'shilgan natijada undan oldin aytilayotgan fikr juda ham noxush ekanligi ayon bo'ladi.

2. Yo'q Arslonqul birovning kaltagini yeb jimgina ketadiganlardan emas, Namozning **qonini sipqorib ichmaguncha** alami tarqamaydi. ("qasoskorning oltin boshi" 331-bet) bu o'rinda ibora tarkibida kelayotgan sipqorib so'zi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Kontaminatsiya hodisasi

Biror munosabat, tasavvurga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lgan ikki so'z yoki iborani birlashtirish yo'li bilan yangi so'z yoki iboraning hosil bo'lishiga kontaminatsiya hodisasi deyiladi<sup>13</sup>. Kontaminatsiya hodisasi asosida shakllangan frazeologizm yangi ma'noli frazeologizm bo'lmaydi, balki frazeologizmning ma'no ottenkasi kuchayadi.

Xudoyberdi To'xtaboev asarlarida yozuvchi uslubiga xos yaratilmalar, ya'ni **individual – muallif iboralari**ni uchratdik:

1. Mening ham qasosim bor, o'sha **ityoqa ko'ylak kiygan** olifalarda!.. ("qasoskorning oltin boshi" 101-bet)

2. Namozboyning topshirig'i bilan bu ikki ajralmas do'st Mari degan shaharga **ahaltaka uchqur otlar** xarid qilish uchun ketishgandi. ("qasoskorning oltin boshi" 138-bet)

3. Yoz bo'yi xo'jayinning yerida **qora yerning kemasi bo'lib ishlab**, kuzga borib quruq qolgan qaddi bukuk chorakorlarning faryodini eshitmadnigmi! ("qasoskorning oltin boshi" 143-bet)

4. **Ko'zlari qattiq**, ich-ichiga nimadir berkinganga o'xshaydi, undan qo'rqaman. ("qasoskorning oltin boshi" 344-bet)

5. Oliy janob, **medasi to'q**, ozodlik yo'liga jonini tikkan bu yigitning har bir so'zi Namoz uchun Qur'on oyatidek muqaddas bo'lib qolgan. ("qasoskorning oltin boshi" 347-bet.)

Ushbu misolda berilgan medasi to'q iborasi, odatda, nafsi to'q shaklida uchraydi.

Maqollar

O'zbek xalq donishmandligi bo'lgan maqollarga adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko'p yillik tajribalari, hayot hodisalarining ma'lum bahosi(unga munosabat) aks etadi.

2. Frazeologik birlashmaning xillaridan bo'lgan maqollar ham jonli tilde, ham adabiy tilda ko'p ishlatiladigan barqaror so'z birikmalaridandir. Maqollar qisqa, ixcham, chuqur ma'noli barqaror ifodalar bo'ladi.

Maqollar semantic jihatdan ikki xil:

<sup>10</sup> Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari DDA –T .: 1999, 11-bet.

<sup>11</sup> A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002, 52-bet.

<sup>12</sup> Shomaqsudov A va boshq. O'zbek tili stilistikasi – T.: 1974, 70-bet.

<sup>13</sup> A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002, 52-bet.

a) O'z (asl) ma'nosida bo'lgan maqollar

b) Ko'chma maqollar

Adib asarlarini tahlil qilish jarayonida xalq donishmandligi bo'lmish maqollarni uchratdik:

1. – **Xo'rlikda osh yegandan ko'ra, mushtlashib qon yutganing ham ma'qulmi**, deb qo'ydim-da, - dedi Namozboy otaxonga e'tiroz bildirib. (“qasoskorning oltin boshi” 20-b)

2. – Hammasi xudodan, - deb qo'yar edi, – dard xudo shifosini ham beradi, sabr qilaylik, “**sabrning tubi oltin**”, bu gapni mashoyihlar aytgan. (“qasoskorning oltin boshi”62-b)

3. **Ham ho'rdani, ham burdani** deganlaridek hozir uning oshig'i olchi, pichog'i moy ustida, hurmat-u e'tibori ham joyida, (“qasoskorning oltin boshi” 156-b)

4. **Beobro' yashagandan o'lganing ma'qul** deyishadi. (“qasoskorning oltin boshi” 278)

5. Lekin ruslar “**hech bo'lmagandan kech bo'lgani ma'qul**”, deyishadi. (“qasoskorning oltin boshi” 278-b)

6. **Sovuqni sovuq kesadi, issiqni issiq** deydilar. Quvlikka qarshi quvlik, shumlikka qarshi shumlik ishlatish kerak. Hibsga olinganlarni qutqarishning bundan boshqa iloji yoq. (“qasoskorning oltin boshi” 294-b)

7. Bundan tashqari o'zbekda: “**Mushuk ham bekorga oftobga chiqmaydi**”, degan naql bor. (“qasoskorning oltin boshi”)

8. – Mana bu tadbiringiz zo'r bo'libdi, janobi palkovnik! – xursand bo'lib ketdi shekilli, general kaftlarini bir- biriga ishqab qo'ydi – **yovning tashida bo'lguncha, ichida bo'l**, degan gap bor. (“qasoskorning oltin boshi”)

9. Tavakkal, faqat tavakkal qutqaradi endi meni. “**Tavakkalchining yori - Xudo...**” (“qasoskorning oltin boshi”)

10. Avaz qizil qashqa otni yetaklab kelgan edi, Namoz bolani egarning ustiga o'tqazib: “**Ot minganniki**”, deydilar deb qoydi.

Yozuvchining til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkozional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Mirtojiyev. O'zbek tili leksikologiyasi va leksigografiyasi. T.: 2000, 44-bet.

2.Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari DDA –T .: 1999, 11-bet.

3.A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002, 52-bet.

4.Shomaqsudov A va boshq. O'zbek tili stilistikasi – T.: 1974, 70-bet.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI “OT” SO'Z TURKUMI BILAN TANISHTIRISH

F.M.Holmatova Andijon shahri,  
24-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

*Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini “Ot” so'z turkumi bilan tanishtirish haqida bahs yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Davlat ta'lim standarti, ona tili ta'limi, “Ot” so'z turkumi, leksik ma'no, grammatik belgi, induktiv metod.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni ta'lim mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumining grammatik

belgilari ustida ishlanadi. “Ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish; kim? so’rog’iga javob bo’lgan (shaxsni bildirgan) otlardan, nima? so’rog’iga javob bo’lgan (narsa, hayvon, jonvor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko’nikmasini hosil qilish; kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo’yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko’nikmasini shakllantirish; otlarda son (otning birlik va ko’plikda qo’llanishi) bilan tanishtirish; otlarni egalik qo’shimchalarini bilan to’g’ri qo’llash ko’nikmasini shakllantirish; otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo’shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish; o’quvchilar lug’atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o’rinli foydalanish malakasini o’stirish; so’zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish hisoblanadi.

So’z turkumi sifatida “Ot” muayyan leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma’nosi predmetni ifodalashidir. “Ot” jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon) yer va osmonga oid narsalar (tog’, quyosh, yulduz, daryo), o’simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig’ilish, majlis, muhokama), tabiat hodisalari (shamol, bo’ron, yomg’ir, momaqaldiraq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiylik), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o’rin va vaqt (yoz, bahor, joy), nomlarini bildiradi. Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko’plikda qo’llanadi, egalik qo’shimchalari bilan o’zgaradi. Kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko’proq ega, to’ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fel bilan birika oladi. Otning ma’nolari va grammatik belgilari ancha murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o’quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Shaxsni va narsani bildirgan so’zlarni o’rgatish darsining maqsadi kim?, nima? so’roqlariga javob bo’lgan so’zlarni so’roqlar yordamida aniqlash, so’roqlar yordamida boshqa so’zlardan farqlashga o’rgatish, shaxs va narsa nomini bildirgan so’zlarni imloviy to’g’ri yozish ko’nikmasini hosil qilish; o’quvchilar lug’atini shaxs va narsani bildirgan so’zlar bilan boyitish, so’zlarni o’rnida qo’llashga o’rgatishdan iboratdir.

O’quvchilarga shaxs va narsani bildirgan so’zlar induktiv metodda tushuntiriladi. Daraxtning rasmi ko’rsatilib, “Bu nima?” savoli beriladi.

O’quvchilar: Bu daraxt.

O’qituvchi: To’g’ri, shu daraxtning nomini ayting.

O’quvchilar: Bu terak.

“Terak” so’zi doskaga yozib qo’yiladi.

O’qituvchi: Bu nima?

O’quvchilar: Bu ham daraxt.

O’qituvchi: Daraxtning nomini ayting.

O’quvchilar: Bu majnuntol.

Shu tarzda baqaterak, chinor, tol, oq terak kabi daraxt nomlari aniqlanadi. So’ng shu so’zlarning har biriga so’roq beriladi va ustiga so’rog’ini yozishadi.

O’qituvchi: Xattaxtada daraxtlarning nomlari yozilgan. Ular 6 ta. Shularni birlashtirib nima deymiz? (Daraxt nomlari deymiz.) Bularni narsa nomini bildirgan so’zlar deymiz, deb o’quvchilar javobi umumlashtiriladi.

Sinfni kuzating, nimalarni ko’ryapsiz? Ularning nomini ayting (doska, parta, shkaf deraza, parda, kitob, daftar...). Bu so’zlarga so’roq bering. Bu so’zlarni nima deymiz? (narsani bildirgan so’zlar, deymiz.) Narsani bildirgan so’zlar qaysi so’roqqa javob boladi? (nima?)

O’quvchilarga shifokor, ishchi, to’quvchi, payvandchi, kompyuterchi kabi kasb egalari tasvirlangan rasmlar ko’rsatilib, «Bu kim?» savoli asosida o’tgan darsdagi shaxs nomlari eslatiladi. Quyidagicha xulosa chiqariladi: Bular shaxsni bildirgan so’zlardir. Bu so’zlar insonlarni bildirgani uchun kim? so’rog’iga javob bo’ladi. Sinfidagi bolalar ismi, ularning ota-onalari kasbi aytirilib ularga so’roq beriladilar.

Yuqoridagi topshiriqlar bajarilgach, saylanma diktant o’tkaziladi. O’quvchilarga so’zlar ichidan o’quv qurollari nomini yozish, boshqa so’zlarni tashlab ketish tushuntiriladi: Uy, kitob, olma, daftar, sabzi, chizg’ich, qalam.

Doskaga ustun shaklida soʻzlar yozib qoʻyiladi:

kitob	sumka
daftar	olma
ruchka	parta stol
qalam	non

Oʻquvchilardan: “Soʻzlarni oʻqing. Ular qaysi soʻroqqa javob boʻladi? Bu soʻzlar nimalarga nom boʻlyapti?”- deb soʻraladi. Oʻquvchilar suhbat davomidagi javoblarini umumlashtiradi: Birinchi soʻzlar oʻquv qurollariga nom boʻlyapti, narsaga nom. Bu soʻzlar nima? soʻrogʻiga javob boʻlyapti.

2-ustundagi soʻzlar mebel nomlari, mebellar ham narsa. Demak, bu soʻzlar ham narsa nomlari deb yuritiladi. Bular ham nima? soʻrogʻiga javob boʻladi.

-Koʻchadagi, hovlingizdagi, oshxonangizdagi narsalarning nomini ayting, ularga, soʻroq bering. Atrofimizda narsalar koʻp. Ularning nomi bor. Bu nomlar narsa bildirgan soʻzlar deb yuritiladi, kabi fikrlarni oʻqituvchi oʻquvchilarga tushuntiradi. Narsa bildirgan soʻzlar bilan oʻquvchilar lugʻati boyitib boriladi.

Shaxsni va narsani bildirgan soʻzlarni induktiv usulda oʻrgatishda mantiqiy mashq oʻtkazishning ahamiyati katta. Masalan, qush soʻziga taalluqli soʻzlarni biror mashq matnidan topib aytirishni oʻquvchilarga topshiriladi. Ular turna, qaldirgʻoch soʻzlarini aytishlari mumkin. Shu bilan birga bular qush nomlari ekanligi, nima? soʻrogʻiga javob boʻlishini ham aytishlari mumkin.

## **YOSH AVLOD TARBIYASIDA MAQOLLARNING OʻZIGA XOS OʻRNI**

**M.T.Imomova, Fargʻona viloyati Oʻzbekiston tumani**

**2-maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchisi**

Annotatsiya:Maqolada,boshlangʻich taʼlimda xalq ogʻzaki ijodi namunalari oʻrgatishning oʻziga xos oʻrni. Yosh avlod tarbiyasida maqollarning oʻziga xos oʻrni yoritib berilgan.

*Kalit soʻzlar: Xalq ogʻzaki ijodi,maqollar, yosh avlod, tarbiya boshlangʻich taʼlim.*

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari ming yillar osha yashab kelayotgan xalqimizning koʻp asrlik ijtimoiy-siyosiy hayoti, kurash va intilishlari, murakkab tarixi bebaho shakllarda ifoda etilgan. Xalqimiz yaratgan nodir boyliklarimizni milliy-maʼnaviy qadriyat sifatida hamisha ardoqlaymiz. Bugun oʻziga xos taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtayotgan xalqimizning tarixi va madaniyati haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev eʼtirof etganidek: "Barchamizga maʼlumki, har bir suveren davlat oʻzining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. Oʻzbekistonimizning koʻp asrlik tarixi va keyingi 25 yillik rivojlanish davri, oʻz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan taraqqiyoti bu haqiqatni yana bir bor yaqqol tasdiqlab berdi. Ana shu bunyodkorlik jarayonining qudratli va hal qiluvchi kuchi, hech shubhasiz, koʻp millatli xalqimizdir”.

Xalq ogʻzaki ijodining eng qadimgi janri hisoblangan maqol hamma davrlar va jamiyatlarda uzluksiz taraqqiy etib keldi. Xalq ogʻzaki badiiy ijodida ming yillar davomida turli xil poetik shakllar, janrlar yaratildiki, folklorda maʼlum adabiy anʼana vujudga keldi. Shuning uchun xalq ogʻzaki ijodidagi janrlar muammosini ilmiy jihatdan oʻrganish, folklor janrlarini klasifikatsiya qilib, ularning janr xususiyatlarini aniqlash mumkin. Maqollarda uzoq asrlar mobaynida ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, silliqanib, xalqning dunyoqarashi, jamoatga munosabti, uning tarixi va psixologiyasi qisqa shaklda aks ettiriladi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari orasida maqollar oʻzining ixcham shakli hamda tafakkur mahsuli ekanligi bilan ajralib turadi. Maqollarning hayotida tutgan oʻrni va ahamiyatiga rus yozuvchisi L.Tolstoy ham juda katta baho berib: “Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning

siy mosi ko‘rinadi”, - degan edi. Darhaqiqat, maqollarda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-u ubatlarini, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o‘rta asrlar va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an‘analarini ko‘ramiz va his etamiz. Boisi xalq maqollarida xalqning qomusiy bilim va kuzatishlari o‘z ifodasini topgan.

Maqollar insoniyatning turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalaydigan qisqa, ko‘pincha she‘riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma‘noli iboralardir. Maqollar o‘zining ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og‘zaki ijodidagi boshqa janrlardan farq qiladi. Gorkiyning ta‘biri bilan aytganda: “Eng ulug‘ donolik so‘zining soddaligidir...Maqollar va qo‘shiqlar har vaqt qisqa bo‘ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo‘ladi”.

Boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rgatishning o‘ziga xos o‘rni bor. Ayniqsa, maqollar xalqning, bir necha avlodlarning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta‘lim-tarbiyasida maqollarning o‘rni katta. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilariga maqollarni o‘rgatish orqali ularda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiramiz. Masalan, “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangu-ruying somon bo‘lmas”, “Ona yurtning – oltin beshik”, “Yurt qo‘risang, o‘zarsan, qo‘rimasang to‘zarsan”, “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni” kabi maqollar orqali ona-vatanni sevrishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashishga o‘rgatamiz. O‘quvchilarni kasb-hunar egasi bo‘lishga o‘rgatish, ularni mustaqil hayotga tayyorlab borishda esa quyidagi maqollarni o‘rgatish va ularning mazmunini singdirish lozim:

Yigit kishiga yetmish hunar ham oz  
Mehnatsiz rohat yo‘q.  
Erinchoqlik boshga balo keltirar.  
Oltin o‘tda, odam mehnatda bilinar

Ahil bo‘lib mehnat qilishga chorlovchi maqollarni o‘rgatish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlik tuyg‘ularini quyidagi maqollar orqali shakllantirishimiz mumkin:

Ish seni yengmasin,  
Sen ishni yeng!

Ko‘pchilik qo‘lda unum ko‘p.

Ish quroling soz bo‘lsa,  
Mashaqqating oz bo‘lar.

Halol mehnat – yaxshi odat,  
Berur senga saodat.

Bundan tashqari, to‘g‘ri so‘z va halol kishilar bo‘lib kamol topishga chorlovchi “Egri ozadi, to‘g‘ri o‘zadi”, yaxshi odob va oliyanob xulqli bo‘lishga chaqiruvchi “Odob bozorda sotilmas”, “Yalqovlikning oxiri - xo‘rlik” kabi maqollar ham yosh avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Xullas, yosh avlod tarbiyasida maqollarning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarda yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish orqali xalqimiz yaratgan nodir boyliklarimizni milliy-ma‘naviy qadriyat sifatida ardoqlashga o‘rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O‘zbekiston, 2016. - B. 5.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. O‘qtuvchi. 1994.
3. Imomov K., T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: «O‘qituvchi», 1990.
4. Madaev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, T.: Mumtoz so‘z, 2010.

## BOSHLANG'ICH SINFLAR BOG'LANISHLI NUTQ O'STIRISH VA UNI EGALLASH USULLARI.

M.Yuldasheva, Xo'jaobod tuman  
4-umum ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflar bog'lanishli nutq o'stirish va uni egallash usullari. SHu bilan birgalikda o'uvchularning bilimlarini shakllantirish ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bayon, sintaktik, bog'lanishli nutq, og'zaki nutq, o'quvchi, orfografik, grammatika.

Respublikamizda "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonunning joriy etilib, o'zbek tilini hayotimizning tarkibiy qismiga aylanishi yangi milliy siyosatimizning g'alabalaridan biridir. Unga og'ishmay rioya qilish davlat tilida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish har bir jamiyat kishisi oldiga mas'uliyatli vazifalar yuklaydi.

Til – millatning tengi yo'q milliy boyligidir. Til mavjud ekan, millat ham zavol ko'rmaydi. Bu haqda Yusuf xos Xojib shunday deydi:

Tilingni avayla – omondir boshing,

So'zingni avayla, uzayar yoshing.

Taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning so'zi bilan aytganda: "Toki tili bor ekan, xalqning umri boqiydir". Til so'zlash vositasi nutq sifatida ko'ringandagina ma'lum vazifani bajaradi. Xalq ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi va ravnaq topishida hamda boy va go'zal ana shu qadriyatlar asosida yosh avlodni tarbiyalashda tilning ahamiyati beqiyosdir.

Ammo fikrlashish, birgalashib ishlash uchun berilgan tilimiz bir necha yillar davomida ko'rinmas zanjir bilan bog'lanib kelindi. Mustaqillikka erishganimizdan so'nggina, o'zbek tiliga e'tibor kuchaytirildi, uning qo'llanish doirasi kengaydi.

Yoshlar o'qishda va mehnat jarayonida nimagaki erishsalar, aql-zakovat, kuch va bilim bilan olg'a intilish tufayli erishadilar. Shubha yo'qki, bunda nutq odobi, ona tiliga e'tibor va hurmat asosiy o'rinni egallaydi. Negaki, bebaho va go'zal merosimiz, tariximiz butun jahonga ona tili orqali ko'zko'zlanadi. Til vositasida kishining odob-axloqi, madaniyati, kamoloti aks etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tili orqali yoshlarni bugungi kunimizga mos odobli, yuksak madaniyatli qilib, ona Vatanga, ona tiliga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik jamoalarning eng muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Bayon matnini tanlash prinsiplari.

Bayon uchun matn tanlanganda matnning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatiga, mavzusiga alohida e'tibor berish zarur. O'qituvchi bayon matnini badiiy asarlardan tanlashi, Vatan, yil fasllari, ijtimoiy mehnat va uning qahramonlari, bolalar va maktab hayoti, tinchlik uchun kurash, Vatan mudofaasi kabi mavzulardan foydalanishi lozim. Bayon uchun tanlangan matnlar ma'lum darajada soddadan murakkabga o'sib, rivojlanib borishi kerak.

Mustaqilligimiz qurilishning dongdor kishilari, shonli Vatanimiz fani va san'atining mashhur namoyondalari va boshqalar hayotidan olingan materiallar va biografik ocherklar, o'zbek kishilarining qahramonona mehnati, botirligi, jasurligi va fidokorligini o'zida aks ettirgan badiiy asar va ilmiy ommabop maqolalar o'quvchilarda bayon yozishga zavq-shavq uyg'otadi. Ma'lumki, tasviriy xarakterdagi matnlar rivoya turidagi matnlarga nisbatan qiyinroqdir. I-IV sinflar uchun bayon matnlari tanlashda bu qiyinchiliklarni, bu matnlarning bolalar yoshiga mos yoki mos emasligini, g'oyaviy, mavzitik mazmunini, hajmini, leksik tuzilishini, janr xususiyatini nazarga olish kerak. IV sinf uchun tanlanadigan bayon matni syujetli hikoyalar yoki badiiy asardan olingan kichik parchalar bo'lishi ma'quldir.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi.

Bog‘lanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o‘qituvchi bergan savolga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini aktivlashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob – havo kundaligini yuritish;
- 4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi;
- 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
- 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she‘r, hikoya tuzish;
- 8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy – ommabop matn asosida bayon yozish;
- 9) o‘qituvchi bergan matnni og‘zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);
- 10) har xil turdagi yozma insho, boshqa ijodiy ishlar.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi, o‘rgatiladi.

Bog‘lanishli nutqqa oid asosiy ko‘nikmalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni o‘stirishdan quyidagi ko‘nikmalarni bilib oladilar:

Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi.

Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi.

Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo‘lgan materialni yig‘ish.

Materialni sistemaga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko‘nikmasi.

Fikrni adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikmasi.

Matnni og‘zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya‘ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko‘nikmasi.

Yozilgan matnni takomillashtirish ko‘nikmasi. Bu ko‘nikma o‘z ijodiga tanqidiy munosabatda bo‘lish asosida tarbiyalanadi.

Shuning uchun o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqni o‘stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o‘quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ikromova R., Gulomova X., Yo‘ldosheva SH., SHodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., “O‘qituvchi”, 2012
2. Jalilova M. Ona tili darslarida o‘qitishning zamonaviy usullari. “ Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2009, 2-son
3. Masharipova U. Oquvchi nutqini o‘stirishda innovatsion usullardan foydalanish. ”Boshlang‘ich ta‘lim”jurnali, 2014 -yil, 1-son
4. [Qosimova K.] va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., “Noshir”, 2009

### **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQIGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR**

**X.V.Maxmudova, D.M.Xotamova Farg‘ona viloyati  
O‘zbekiston tumani 15-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari**

Annotatsiya: Maqolada, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablarga nutqning tushunarli bo‘lishi, ifodaliligi, to‘g‘riligi kabilarni ham kiritish zarur. Nutqning



grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lish ham unga qo'yiladigan muhim talablar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur, ona tili, nutq, ifodaliligi, to'g'riligi, mantiqiylik ta'lim, kuzatish, taqqoslash.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali tus oladi. "Kichik bolalik davridan boshlab u aloqalashuvga ehtiyoj sezadi, o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zarurat seza boshlaydi".<sup>14</sup> Maktabda fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchi nutqini rivojlantirish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi. Chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va "Ona tilining bor imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga yo'l ochadi".<sup>15</sup>

Ona tili esa fan sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, tilning fikrni ifodalashdagi yangi rang-barang qirralarini ochib beradi; uni nutqning go'zal olamiga olib kiradi. Ona tili o'quvchi nutqini yaxshilaydi, boyitadi, unga badiiy bo'yoq beradi, nafas bag'ishlaydi.

Qanday nutqni yaxshi nutq deb atash mumkin? O'quvchi nutqiga qanday talablar qo'yiladi? Bu savolga javob topmay turib, bolalar nutqining boshqa muammolari haqida fikr yuritish qiyin. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq berilgan bir qator talablarga rioya qilinadi.

Birinchi talab mazmundorlik kasb etgan nutq tuzishdir. Hikoya yoki o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan faktlar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvlardan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq kambag'al, mazmunsiz chiqadi. Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materiallarni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlari ham hisobga olinadi.

Ikkinchi talab mantiqiylikdir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchikovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishini talab etadi. O'quvchi fikrini bayon qilayotganidagina bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olinishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrni ikkinchi darajali fikrdan farqlay bilishi, qaytariq fikrga yo'l qo'yimasligi kerak. Nutq – mantiqiy fikrlash maxsul. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan. Taqqoslash shunday bir mantiqiy usulki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlab olinadi; shu asosida hukm va xulosalar chiqariladi. O'quvchi bir faoliyat usulida turib mantiqiy to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Uchinchi talab nutqning aniqligi hisoblanadi. O'quvchi faktlar, kuzatishlar, taassurotlarni haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rganishi zarur.

Keyingi talab nutqning til vositalariga boyligidir. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiga qo'yiladigan asosiy talablarga nutqning tushunarli bo'lishi, ifodaliligi, to'g'riligi kabilarni ham kiritish zarur. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lish ham unga qo'yiladigan muhim talablaridan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilishi kabi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi shart.

<sup>14</sup> Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 14-bet

<sup>15</sup> Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. T. "O'qituvchi", 1980 yil, 16-bet.

Nutqning tushunarli bo'lishi, bir tomondan fikrni lo'nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo'lmagan g'aliz jumladan saqlanishda namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrini ham sodda, ravon bayon qilish, ham o'zgarlar fikrining mohiyatini anglab uni tushunish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

Nutqning sofligi avvalo uning tozaligidir. Ma'lumki, o'quvchilar nuqtida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, o'zbek adabiyo tiliga xos bo'lmagan so'zlar anchagina qismini tashkil etadi. "Ular nutqini bunday so'zlardan tozalab borish, fikrni sof abadiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi."<sup>16</sup>

Biz yuqorida o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablarigina sanab o'tdik. "Bu talablar o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi."<sup>17</sup> Shuning uchun o'qituvchi ona tili mashg'ulotlarida nutqning faqat bir tomoniga e'tiborini kuchaytirib, ikkinchi talabni unutishi yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfga qoldirishi mumkin emas. Bu talablarga doimiy amal qilishiga nutq o'stirish samarali ko'chadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 14-bet
2. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. T. "O'qituvchi", 1980 yil, 16-bet.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T. "O'qituvchi" 1992 yil. 37-bet
4. G'ulomova A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 16-bet.

### **O'QISH DARSLARIDA SINFDAN TASHQRI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

**N. Sh. To'lanova Marhamat tumani  
16- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimining qaytadan isloh qilinishi natijasida yangi ta'lim tizimi joriy qilinishi va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maktab dasturlariga va darsliklariga zamon talabiga mos mavzularni mukammal yorituvchi uslublarni dars davomida joriy qilish va ularni qo'llash o'quvchilarning o'qishdagi faoliyatini yanada samarali qiladi. Ana shu yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsni noan'anaviy shaklda tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarini erkin fikrlash va ijodkorlikka o'rgatadi. Shu maqsadda yangi pedagogik texnologiyalardan xususan, interfaol yoki innovatsion usullardan foydalanish mumkin. Innovatsiya so'zi lotincha bo'lib, —inovatsis—yangilik so'zidan kelib chiqqan yangi pedagogik texnologiyalarni darslarda qo'llagan holda mavzularni bolalarga o'rgatishda innovatsion uslublarning ahamiyati kengdir. Yangi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishda o'quvchi va o'qituvchi orasidagi bog'liqlikni mukammallashishiga erishish va bilimlar tizimliliigi, boshqaruvchilik faoliyatining takomillashuviga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf sinfdan tashqari o'qish darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchi ko'proq o'quvchilarni mustaqil gapirishlariga, o'z-o'zini boshqarish jarayoniga ega bo'lishiga erishtirmog'i lozim.

#### **Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda didaktik o'yinlar**

**"Poezdagi sayohat" o'yini:** Ushbu didaktik o'yinda sinf o'quvchilari uch guruhga ajratiladi va har bir guruh biror chiroyli nom bilan nomlanadi. Albatta nomlar ham mazmunan hadislarga yaqinroq bo'lishi yoki istiqlolni ifodalovchi, milliylikni aks ettira oladigan bo'lishi kerak. Masalan, —Sahobalar, —Muhaddislar, —Kelajak, —Humo, —Istiqlo l kabi nomlarni

<sup>16</sup> G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T. "O'qituvchi" 1992 yil. 37-bet

<sup>17</sup> G'ulomova A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. "O'qituvchi", 1995 yil, 16-bet.

berish. Bu uch guruh bitta poezddagi uchta vagonga oldinma-ketin joylashib, sayohat qilishlari lozim.

Lekin, kim birinchi vagonda ketishi noaniq. Bu noaniqlikka aniqlik kiritish uchun o`quvchilar quyidagi to`rtta shartni bajarishlari va birinchi vagonga harakat qilishlari lozim. Shartlar esa quyidagicha:

**1. Shart. “Odob inson ko`rki”:** Bu shartda har bir guruh bir–biriga hadislar aytadi. qaysi guruh ko`p va mazmunli hadis aytganligiga qarab, ushbu shartning g`olibiga aylanishi mumkin. O`quvchilar bu shart orqali ko`proq hadislar yodlashga harakat qilishadi.

**2. Shart. “Zehnu zakovat”:** Bu shartda guruhlar bir–biriga hadislarining birinchi qismini aytadi, ikkinchi guruh esa davom ettirib ketaveradi, qaysi guruh hadis aytolmasa yoki hadisning davomini topa olmasa o`yindan chiqib turadi. Huddi shunday o`yin davom etib ketadi. Masalan, birinchi guruh —Safar qilinglar...l desa, ikkinchi guruh —Sog`lom bo`lasizlarl, ya'ni bunda —Safar qilinglar—sog`lom bo`lasizlarl hadisini aytishlari kerak. Endi uchinchi guruh —Uch toifa odam jannatga kirmaydi...l desa, birinchi guruh —1. Ota–onasini ranjitgan, 2. Mayxo`r, 3. Berganini minnat qiluvchi kishil deya davom ettirib boraveradi.

**3. Shart. “Oltin toj” o`yini:** Bunda o`quvchilar —Oltin tojl o`yinini o`ynashadi, ya'ni quyidagi rasmdan foydalanib o`ynaydi.

**“Илм хазинаси” дарахти Олтин тож эгаси** Ushbu rasmdagi —Илм хазинасиl дарахти har bitta topshiriq yoki savol yashirin savollardan hadislar haqidagi topshiriqlardan iborat bo`lgan rasmlardan tashkil qilinadi va bu topshiriqlar bajarilishi uchun uch guruhning sardori o`zaro bellashishadi. Savolni daraxtni pastki qismidan yuqoriga qarab savollarga javob berib boriladi va eng yuqoridagi savolga javob bergan va eng ko`p javob bergan sardor oltin toj egasi bo`ladi. Kim ko`proq savolga yozma ravishda javob yozsa ana shu sardor g`olib bo`ladi.

**“Zanjir” o`yini:** Ushbu o`yinda o`quvchilardan yettitasi ishtirok etadi. Bunda birinchi o`quvchi bir varaqchaga hadisning bosh qismini yozadi. Ikkinchi o`quvchi uni to`ldiradi va u endi boshqa bir hadisning bosh qismini yozadi. Keyingi o`quvchi ham bu hadisni to`ldiradi. Huddi shunday hadislar aylanib boraveradi. Lekin, kim hadis davomini yoza olmasa yoki o`zi hadis topa olmasa, zanjir o`sha erda uziladi va o`sha o`quvchi o`yindan chiqadi. Bu o`yinni butun sinf o`quvchilariga ham qo`llash mumkin. Ushbu o`yinning asosiy maqsadi o`quvchilarning eslash qobiliyatini o`stirish, qolaversa hadislar yuzasidan fikrlashga qiziqtirishdir.

Demak, boshlang`ich sinflarda hadislarini o`qitishda 1-4 sinflardagi har bir sinf uchun mos keluvchi usullardan foydalanish va ushbu sinflarning aqliy qobiliyatiga e`tibor qaratgan holda osondan qiyinga qarab, oddiydan murakkabga tomon yo`naltirilgan usullarni va didaktik o`yinlarni qo`llash lozim. Usullardan 3-4 sinflarda qo`llash mumkin bo`lganlarini 1-2sinflarda qo`llash mumkin emas. Didaktik o`yinlar va dam olish daqiqalaridan hadislarini o`rgatishda foydalanish samarali natija beradi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirish va o`tkazish maktabda o`quvchilar onggi va fikrlash qobiliyatiga juda katta ta'sir o`tkazadi. Sinfdan tashqari ishlar har bir sinfda o`quvchilarning idrok qilish va o`zlashtirish qobiliyati, o`tgan mavzulari yuzasidan tashkil qilinishi mumkin. Boshlang`ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar har bir bo`lim yuzasidan tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalarning darslarga joriy etilishi ushbu sinf o`quvchilarini kelajagi porloq, o`zbekiston yoshlari bo`lib yetishishiga erishish uchun asosiy vosita sifatida ishlatish, mafkuramizdagi bo`shliqlarning oldini olishga yordam beruvchi, milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyatimiz shakllanishida bosh mezonlardan biri bo`lib xizmat qilishi mumkin.

## BOLALAR ADABIYOTI VAKILI SAFAR BARNOYEVNING POETIK MAHORATI

G.Q.Nabiyeva Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani  
64-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada, iste‘dodli bolalar adibi Safar Barnoyev o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga o‘zining mazmunli asarlari, qiziqarli she‘rlari va hikoyalari bilan munosib hissasini qo‘sha olganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Bolalar dunyosi, bolalar adabiyoti, bolalar shoiri.*

Adabiyotning ajralmas bir bo‘lagi hisoblangan bolalar adabiyoti o‘z oldiga bolalarning yoshi, saviyasiga qarab katta ta‘limiy va tarbiyaviy masalalarni qo‘yadi. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning nafaqat yosh xususiyati va saviyasiga mos, shuningdek yosh kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. Zero, mavzulari tushunarli, sodda, qiziqarli, sarguzatshlarga boy, estetik maroq bag‘ishlovchi asarlargina quvnoq bolajonlar qalbi va ongidan chuqur joy oladi. Bolalar shoiri va adiblari o‘zlarida ana shunday buyuk mahoratni va salohiyatni mujassamlashtirgan holda nozik did va ulkan qobiliyat bilan yozilgan asarlari ila yosh avlod qalbiga kirib boradilar. O‘z asarlari bilan bolalar ongi, xarakteri va irodasini o‘stirib, chiniqtirishda, ularni davrimiz ruhida mehnatsevar kishilar darajasida tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishi kerak. Zero, bizning ozod va obod Vatanimiz kelajagi har tomonlama yetuk, o‘qimishli, bilimli yoshlar qo‘lidadir.

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, yorqin obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonga kuchli ta‘sir etadi va ularning do‘stiga, sevimli hamroxiga aylanib qoladi.

Ana shunday buyuk asarlar muallifi, yuksak mahorat va istdod sohibi, o‘zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Safar Barnoyevdir. Adibning boy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, asarlai mazmunida o‘zbek bolasining o‘y-fikrlari, orzu-umidlari, intilishlari, shuningdek sodda qiyofasi, fe‘l-atvori, kulgusi-yu yig‘isi yarq etib ko‘zga tashlanadi.

Bolalar va o‘smirlar adibi Safar Barnoyev haqida so‘z yuritar ekanmiz, hayotining dastlabki yillari, o‘ta mashaqqatli, ayriliqlar azobida o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Hattoki, adib o‘z tug‘ilgan yilini va sanasini ham aniq bayon eta olmagan. Bu haqda u o‘zining tarjimai holida shunday yozadi: “Odatda tarjimai hol yozgan yoki biror rasmiy hujjat to‘ldirgan odam, “Men falon yili, falon oyning, falon kunida tug‘ilganman”, deb aniq yozadi. Afsuski, men bunday qilolmayman. Sababi, to men maktabni bitirguncha rahmatli onam Ro‘zigul Sobir qizining qo‘lida hech qanday hujjat bo‘lmagan. Tug‘ilgan qishlog‘im Buxoro qishlog‘idagi Dilkusho degan joyida qishloq raisi bo‘lib ishlagan odamdan hujjat so‘ralganda, u hech ikkilanmay “bolayiz mening o‘g‘lim bilan barovar”, deb guvoohnoma to‘ldirib bergan. Unda mening tug‘ilgan kunim 1938 yil 6-may deb ko‘rsatilgan. Mana shu hisob bilan yashab kelaman. Birov surishtirgani ham yo‘q...”<sup>18</sup>

Adibning onasi Ro‘zigul aya esa Safarning yoshligida “Sen tut pishig‘ida, kimningdir to‘yi kuni tug‘ilgansan”, deb ta‘kidlagan. Rasmiy ravishda esa adib yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan sanada tavallud topganligi qayd etiladi.

Adib olti oyga to‘lgan vaqtda otasi urushga ketadi. O‘zining tarjimai holida bayon etilishicha, otasi ketar chog‘ida “Mening kafanim bo‘ynimga o‘ralangan, qaytib senlarni ko‘rolmayman”<sup>19</sup>, deya Safarni bag‘riga bosib yig‘lagan. Shuning bilan adibning otasi o‘g‘li bilan bir umrga xayrlashgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi og‘ir yillarda barcha tengqurlari qatori qiyinchiliklarni va zahmatlarni o‘z boshidan kechiradi. Oilada yakka o‘g‘il Safar boshog‘ terish, burgan o‘rish, shuvoq topish, qo‘y va mol boqish, o‘tin bog‘lash kabi og‘ir ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladi.

<sup>18</sup> Sobir.Mirvaliyev. O‘zbek adiblari –Toshkent: “Fan”, 1993.193-bet.

<sup>19</sup> S.Mirvaliyev O‘zbek adiblari. – Toshkent: “Yozuvchi”, 2000. 174-bet.

Safar Barnoyevning 60-yillardagi dastlabki mashqlarini kuzatgan kishi adib ba'zan tayyor, kulgili voqealar asosida hikoyalar bitganligining ham guvohi bo'ladi. Shunga ko'ra, adibning ilk ijodiga mansub barcha she'rlarini birdek yetuk asarlar deb bo'lmaydi. U ham boshqa ijodkorlar singari o'z boshidan ijodiy izlanish davrini kechirdi, o'z ustida jiddiy ishladi. Natijada "Muhabbatsiz muallim bo'lmas" she'ri singari badiiy puxta, pishiq asarlari maydonga kela boshladi:

Vazirdir u, oddiy muallim,  
Dunyo bersang zavqini tuymas.

Yuragida bir gul bor —  
Ta'lim,  
Muhabbatsiz muallim bo'lmas.

Ezgu qalbdan yaralgan she'rni o'qiganda, undagi voqea yoki mantiqni shoir ko'ngliga monand tuyg'ular ila his qilganga nima yetsin! Aslida she'r shuning uchun yoziladi.

Bolalar dunyosi ham xuddi shunday. She'r haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar, bahslar, jimjimador fikrlar-u, balandparvoz avozlar ular uchun mutlaqo ahamiyatsiz. Dunyoni tanib kelayotgan yosh qalblar atrofidagi hamma narsa, hodisa, munosabatlarga qalb ko'zlarini katta-katta ochib qaragani, talpingani kabi hayotning jonli parchalariga aylangan she'rga ham do'st tutunadi. Bolalar she'riyatning o'ziga xosligi ham bolalarning mana shu xislatlarlaridan kelib chiqadi. Bir so'z bilan aytganda, she'rining bosh mavzusi muallimning hayotidan iboratdir.

Safar Barnoyev she'rlarida ham avvalo, Vatanning muqaddas ostonasi bo'lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o'ychan termulgan, undagi har bir mavjudotni ixlos bilan ardoqlagan, sodda-yu to'pori, qismati mehnat va yana mehnat bo'lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug'roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko'zga tashlanadi. Bolalarga atab ijod etish bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Ulug' adabiyotshunos Belinskiy ta'rifi bilan aytganda bolalar adibi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar adibi mohir pedagogday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik qalb egasi, go'dak tabiati va psixologiyasini bilish, mehribon va bolajon, kamtarin, samimiy, bolalarga soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmuni taqazo etadi, albatta. Biz Safar Barnoyev ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz.

Iste'dodli bolalar adibi Safar Barnoyev o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga o'zining mazmunli asarlari, qiziqarli she'rlari va hikoyalari bilan munosib hissasini qo'sha oldi. Keyinchalik adib yaratgan ajoyib hikoya va qissalari bolajonlarning qalb qo'ridan, adabiyot xazinasining noyob qatlamidan mustahkam o'rin oldi.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**D.S.Nasriddinova, M.S. Barakayeva - Farg'ona viloyati  
O'zbekiston tumani 22-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

**Annotatsiya:**Maqolada,o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, psixologiya,tasavvur,tafakkur, fikrlash qobiliyati,o'quvchilarning tafakkuri.*

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgarlar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. Ta'limdagi yangilanish faqat o'quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda

tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli-oliy natijasidir. U faoliyat bilan bog'liq bo'lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi. Narsa va hodisalarning mavjudligi aloqadorlikdan iboratdir. Aloqadorlik buzilsa, mavjudlikda ham o'zgarish ro'y berishini anglash, isbotlash, tushuntirish, fikrlash shakllanishining tadrijiy bosqichlaridir. Fikrlash insonga hayot baxsh etadigan kuchdir. Ya'ni, inson mustaqil fikrlash orqali tirik. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Fikrlash qobiliyati rivojlangan o'quvchigina bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi. Shu sababli o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish juda muhim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi faoliyati ham elementar darajada bo'ladi. Negaki u oddiy qayta ishlash ko'rinishida tayanch tushunchalar asosidagi harakatlari fikrlash tarziga kam ta'sir o'tkazadi. Tafakkurning yetarli darajada rivojlanmasligi, M.Saidov ta'kidlaganidek, «o'quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so'z qashshoqligi, fikrni mantiqan bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqishi» ga olib keladi. Bu esa masalaning g'oyatda muhimligini ko'rsatadi. Z.Nishonova esa mustaqil fikr rivojlanganligining mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

1. O'zining va «o'zgalarning» fikrini tanqidiy baholashda shaxsning tajribasi, o'zga shaxsning fikrini tushunish qobiliyati, uning fikridagi mantiqni tushunish, suhbatdoshning fikrlarini o'z fikrlari bilan taqqoslay olish va ma'lum xulosaga kelish;

2. Shaxsning fikr mazmuni bilan tashqi va ichki kelishuv;

3. Qarama-qarshiliklarni his qila olish;

4. Tafakkurda nazariy va amaliy umumlashtirishning nisbati;

5. Diqqatda namoyon bo'ladigan aqliy funksiyalarning ixtiyoriy boshqarilishi;

6. Aqliy tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi.

Psixologiya fanlari doktori E.G'oziev va pedagogika fanlari doktori J.Ikromovalar mustaqil fikrlash jarayoni va uning komillikka ta'sirini tahlil qilar ekanlar, mustaqil fikr yuritish harakatini quyidagi bosqichlardan tashkil topishi mumkinligini ta'kidlab o'tadilar:

1. Muammoning paydo bo'lishi.

2. Masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash.

3. O'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi.

4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning tug'ilishi.

5. Taxminlarni tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash.

6. Yangi taxmin (faraz)ning yuzaga kelishi.

7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish.

8. Masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish).

9. Ixtiyorsiz aqliy hatti-harakatlar davom etishi (fikrlashning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o'z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo'lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta'limi oldida nechog'li mas'uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari sifatida biz quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: 1) o'rganilayotgan materialni mustaqil tahlil qila bilish; 2) muammoni hal eta bilish; 3) hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, umumlashma xulosalar chiqarish; 4) o'z fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash; 5) o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llay bilish.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak e'tiqodli, mustaqil fikrli, tashabbuskor, yuqori

malakali mutaxassislarga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor. O'quvchilarning shaxslik sifatlarini tarkib toptirishda o'quv predmetlarning o'rni beqiyos kattadir. Bu borada, ayniqsa, ona tili ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat tushadi. O'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirish iqtidoriga ega bo'lishi ularning o'quv-biluv ko'nikma va malakalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003-yil.
2. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati.–Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Амонашвили Ш.А. Воспитательная и образовательная функция оценки и учения школьников. – Москва: Педагогика, 1984.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZAK VA O'ZAKDOSH SO'ZLAR MAVZUSI USTIDA ISHLASHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIMIY O'YINLAR.**

**N.Nizomova, Andijon shahar  
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada, tilimizdagi so'z tarkibini o'rgatishda o'zak va o'zakdosh so'zlar haqida fikr boradi.*

**Kalit so'zlar:** So'z tarkibi, o'zak, o'zakdosh so'zlar, ta'limiy o'yinlar.

Bizga ma'lumki, so'z tarkibi o'quvchilarga 3-sinfda o'rganiladi, O'quvchilarga so'z tarkibini o'rgatishda dastavval o'zak va o'zakdosh so'zlar o'rgatiladi.

Tilimizda minglab so'zlar bor. SHular orasida ma'no jihatdan bir-biri bilan yaqinlik sezilib uradi. Masalan, bosh, boshliq, boshla, boshli, boshchilik; gul, gulchi, guldor, gulzor, gulla so'zlariga e'tibor bersak, ular uchun bosh, gul qismlari umumiy ekanligini ko'ramiz.

**Ta'limiy o'yinlar.**

1. O'qituvchi gul so'zini aytadi. O'quvchilar gul so'ziga o'zakdosh bo'lgan so'zlarni qo'l ko'tarib birma-bir aytishadi. Masalan, gul, guldor, gulchi, gulzor, guldor, gulla, gulgin, gullamoq, gulladi kabi. Qaysi bir o'quvchi gul so'ziga o'zakdosh bo'lgan so'zlarni ko'proq aytsa, o'sha o'quvchi ma'naviy rag'batlantiriladi. Masalan, o'sha darsda engyuqori ball qo'yiladi.

2. Hozircha men o'quvchi,

Bo'lsam deyman quruvchi

Quruvchilik g'oyat soz,

YUksakka etsam parvoz.

Quray yangi uylarni,

Boshlay hovli to'ylarni.

Bu she'rni o'qituvchi xattaxtaga yozib qo'yadi. Keyin o'quvchilarga she'rni ifodali qilib o'qib beradi va o'zakdosh so'zlar bor bo'lsa, tezlik bilan topishni topshiradi. Eng birinchi bo'lib topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

3. O'qituvchi o'quvchilarni uch guruhga bo'lib oladi.

Xattaxtaga esa uchta sxemani chziib qo'yadi:

O'yin boshlanadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqadi va bo'sh kataklarga tushirib qoldirilgan harflarni yozadi. Agarda kataklarga yozish uchun harf topa olmasa tezlik bilan o'rniga o'tirishi kerak bo'ladi, birinchi o'quvchi joyiga o'tirishi bilan ikkinchi o'quvchiga navbat beriladi. Ikkinchi o'quvchichiqib tutshirib qoldirilgan harfni bittasin yozib o'rniga o'tiradi. Navbat uchinchi o'quvchiga keladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

Bir o'quvchi tushirib qoldirilgan harfni noto'g'ri yozsa, keyingi o'quvchi to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eng birinchi to'g'ri bajargan guruh g'olib chiqadi. G'oliblar rag'batlantiriladi. O'zakdosh so'zlar ustida ishlashda bu o'yin yaxshi samara beradi.

4. O'qituvchi ko'rgazmali qurollar bilan o'quvchilarda darsga bo'lgan muhabbatini oshirish kerak.

O'qituvchi "Baliqchi va oltin baliq" o'yini uchun ko'rgazmali qurol tayyorlaydi. Bu ko'rgazmali qurol asosan qarmoq, baliqlar, masalar va hovuzchadan iborat bo'ladi. Baliqchalar orqasiga savolar yozib qo'yilgan bo'ladi. Oldin hohlovchi o'quvchilar chiqib, qarmoq yordamida baliqchalar tutadi. Baliqcha orqasidagi savolni o'qiydi va javob beradi.

To'g'ri javob bersa, o'quvchi o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

#### **Baliqcha orqasidagi savollar**

1. O'zak deb nimaga aytiladi?
2. O'zakdosh so'zlar deb nimaga aytiladi?
3. Suv so'ziga o'zakdosh so'zlarni toping.
4. Bosh, boshliq, boshla, boshli, boshchilik, so'zlaridagi o'zakni ayting.
5. YOzuv, yovuz, yozma, yozuvchi, yozishma so'zlari ichidan o'zakdosh so'zlarni toping.
6. Bilim so'ziga o'zakdosh so'zlar toping. Keyin ular ishtirokida 2-3 ta gap tuzing.
7. Tushirib qoldirilgan o'zakni qo'yib, gapni o'qing.  
...bonlar yozda mevalarni shaharliklarga etkazib beradilar.
8. Tushirib qoldirilgan o'zaklarni toping va ayting.

Ishladi, ...chan, ...siz;

Agar o'qituvchi bergan so'zga besh soniya ichida o'zakdosh bo'lgan so'z ayta olmasa, shu o'quvchi o'z o'rniga o'tiradi. O'yin to bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Oxirigacha ishtirok etib, g'olib bo'lgan o'quvchi ga "eng a'lochi o'quvchi" degan lenta beriladi.

Bu o'yin orqali o'quvchilardagi qiziqish natijasida diqqat ortadi, bu esa xis-tuyg'uga ta'sir etadi, esda qoldirish jarayoni ortadi. O'quvchi tez o'ylashga –hozirjavoblikka o'rganadi. Bu o'yin o'quvchidan ham o'qituvchidan ham faollikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov M. Yoshlarning boshlang'ich sinf o'qish darslarining o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent. "O'qituvchi", 1992 yil
2. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.
3. Qosimova Q. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1995 yil

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH USULLARI.**

### **G. Norqo'ziyeva Jalaquduq tumani 1-umumta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ona tili darslarida yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** nutq o'stirish, til vositalari, grammatika.

O'quvchilar nutqini o'stirish barcha o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.



O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

Maktab o'quvchilarining nutqini o'stirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda kichik-kichik parchalarni o'qish, ifodali o'qish, maznunini o'zlashtirish, hikoya qildirish va yozma ish turlari: diktant, bayon va inshodan foydalaniladi.

Maktablarda o'quvchilarning savodxonligini aniqlash uchun tekshiruv diktant, tekshiruv bayon va tekshiruv insho, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish uchun dars jarayonida o'tkaziladigan har xil mashqlar bilan birga, ta'limiy diktantlar, shuningdek, maxsus darslar – ta'limiy bayon va ta'limiy insho darslari ham o'tkazilib kelinmoqda.

Ona tili o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida qo'yidagi vazifalar bajariladi:

- o'quv mashg'ulotlarida til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, o'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

- o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirishni, tafakko'r doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish;

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozmanutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, chiroyli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos va to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T.: «O'zbekiston», 2001.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SAVOD O'RGATISH MASHQLARINING ASOSIY TURLARI

D.M.Otajonova, M.N.Raximova,  
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 59-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada, boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib borilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ona tili, analitik metod, sintetik metod, savod o'rgatish, bo'g'in, tovush*

Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli – o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi. Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Savod o'rgatish davrida analiz-sintez mashq turlarining ahamiyati katta. Analiz mashqlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish va uni boshqa bo'g'inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o'qish, maxsus tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish (*aaaa-na, nooon, iiii, sssa-na, ki-yyyik, iiii*).

2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

Bu jarayonda Omonashvili ishlab chiqqan usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O'quvchilar o'rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so'ng uning o'qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi.

Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, odatda, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi.

3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: Olma (*ol-ma; o-l-m-a*) to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in. Bu usuldan o'quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalanish mumkin.

Savod o'rgatish davrida sintez mashqlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh yoki unli bilan (*na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy*) bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish.

Ko'rinaiki, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo'lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi so'zni analiz qilish bilan uni leksik ma'noga ega bo'lgan bir butunlik sifatida anglaydi, bu - sintezdir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir. Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, "muammoli" vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning

talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (*Bolalar o'ynayaptilar*), sodda yoyiq gap (*Mashhura daftarga yozdi*), uyushiq bo'lakli gap (*Bolalar o'qidi va yozdi*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalar talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (*sh* o'rniga *s*, *r* o'rniga *l*) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hok. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov. A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.
2. Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. T.: 1964.
3. Q. Abdullaeva, K. Nazarov, Sh. Yo'ldosheva. Savod o'rgatish darslari. T.: O'qituvchi, 1996.
4. Q. Abdullaeva. Birinchi sinfdan nutq o'stirish. T.: 1980.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGATISHNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

**M.A.Qambarova Farg'ona viloyati  
O'zbekiston tumani 64-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»da «Bobokalonimiz Alisher Navoiy», «Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari», «Alisher Navoiy haqida rivoyatlar», «Donolarning donosi», «Navoiy hikmatlari» kabi mavzular va Oybekning «Alisherning yoshligi» hikoyalari berilganligi va bu hikoyalar orqali Alisher Navoiy ijodini o'rgatishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* Alisher Navoiy, hikmatli so'zlar, uzluksiz ta'lim, Xamsa.

Uzluksiz ta'lim mazmuni va tarbiya tizimi, xususan, «O'qish» darslari orqali o'quvchi-yoshlarda Vatanga, xalqiga mehr-muhabbat, milliy g'urur, diniy bag'rikenglik, tinchliksevarlik, millatlararo muloqot madaniyati, insonparvarlik, mustaqil va teran fikrlilik, fidoiylik, yuksak mas'uliyat va burchni his etish, qalbi poklik, mustahkam irodalilik, g'oyaviy pishqlik kabi komil inson uchun zarur bo'lgan shaxslik xislatlari milliy qadriyatlar, diniy-axloqiy o'g'itlar, ajdodlarimizning o'lmas merosi asosida shakllantirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»da «Bobokalonimiz Alisher Navoiy», «Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari», «Alisher Navoiy haqida rivoyatlar», «Donolarning donosi», «Navoiy hikmatlari» kabi mavzular va Oybekning «Alisherning yoshligi» hikoyasi berilgan. Garchi ular qisqa bo'lsada, Alisher Navoiyning hayoti, uning bizga qoldirgan katta merosi, qilgan ezgu ishlari, insonparvarligi haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil qilishi mumkin va bu yosh

avlod qalbida Milliy istiqlol g'oyasi va vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, bu mavzuni yanada ta'sirliroq chiqishi, o'quvchi Navoiy haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishi uchun dars mashg'ulotlarida shoirning suratidan, asarlaridan foydalansak, hikmatli so'zlari yozuvi ko'rgazmasini tashkil etsak maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga buyuk bobomizning tarjimai holi haqida gapirar ekanmiz, uning bolalik chog'laridayoq aqlli, odobli-zehnli bo'lganligini, ilm olishga juda chanqoq ekanligini chuqur tushuntirishimiz lozim. Toki bola ongida ana shu fazilatlarga ega bo'lishga harakat qilish fikri uyg'onsin. Buning uchun Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan o'rinli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, buyuk bobomizning xalqparvarligi, muhtojlarga yordam berishi, podshohlarni to'g'rilikka, haqq o'ylikka chorlovchi ezgu ishlari haqida o'quvchilarga kengroq ma'lumot berish kerak. Misol uchun:

*Eyki, qaviy ayladi davlat qulung,  
Zulm sori tushti va lekin yo'lung.*

Bu sartlar orqali Navoiy o'z davrida xalqqa zulm o'tkazgan, ko'pgina nohaqliklarga yo'l qo'ygan, faqat boylik orttirish maqsadida xalq yelkasiga ko'plab o'lpon soluvchi podshohlarga murojaat qilgan va: «Ey podshoh, baxt-davlat qushi boshingga qo'nib, sen el-yurtni so'raydigan bo'lding. Lekin, sen bunday el-yurtni obod qilish, adolat uchun kurashmoq emas, o'z manfaatlaringni o'ylab, odamlarga zulm qilish yo'lidan borayapsan» degan fikrlarni ilgari surgan. Ya'ni Alisher Navoiy insonni o'zidan yaxshi nom qoldirishini istasa o'z xalqini o'ylashi, uning dardi bilan yonib yashashi, mushkulini oson qilishi zurur ekanligini uqtiradi. Uning bu fikri:

*Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami,*

deb bitgan so'zlarida ko'rinadi.

Alisher Navoiy «Xamsa» asarida Farrux, Iskandar, Shopur, Dilorom kabi o'nlab adolat, ma'rifat, yaxshilik, insoniylik, baxt-saodat, do'stlik, birodarlik, go'zallik uchun kurashuvchi, zulm va adolatsizlikning, jaholatning hamma ko'rinishlariga qarshi jang qilib, o'z hayotini shu olijanob maqsadlar tantanasiga bag'ishlab, mard va jasur, haqqoniy va oqk'ngil, xalqparvar va vatanparvar kishilarning yorqin obrazlarini yaratdi.

Farhod haqida shoir shunday deydi:

*Birovkim zori yig'lab, yig'lab ul zor,  
Toshib ko'ngil el ozoridan ozor.  
Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok,  
Yoqo chokin ko'rub, ko'ksin qilib chok.*

Farhod faoliyatidagi barcha xususiyatlar uning ana shu elparvarligi, insonparvarligi bilan bog'lanadi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul abror»da Navoiy kishilar munosabati va muomala mezonini, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar haqida qimmatli fikr-mulohazalarini bayon etadi. Dostonda odob bilan, har bir kishining holu ahvoliga yarasha muomala qilish, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat masalasiga keng o'rin berilgan. Alisher Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun qo'yadi.

«Farhod va Shirin» dostonida Farhodning insonparvarligi, uning irodasi, Shirin uchun Armanistonning tog'lik-toshlik erida kanal qazish jarayonida namoyon bo'lishi ifodalanadi.

Farhod bu o'rinlarda o'zining tinch mehnati bilan bog'liq chinakam qahramonlik ko'rsatadi. Butun xalq bir necha yilda ham bajara olmaydigan ishlarni bir necha kunda, bir o'zi bajaradi va shu yo'l bilan Shirinning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Farhod go'zal Shirinni zo'rlik bilan o'z changaliga kiritmoqchi bo'lgan Eron shohi Xisravga qarshi, sevgilisi yurtini himoya qilib, mardlarcha kurash olib boradi. Farhod va Shirin yovuzlikning, turli hiyla va nayranglarning, adolatsizlik va jaholatning qurboni bo'ladilar. Farhod o'zining shoh farzandi bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, inson ekanligi sababli mehnatga mehr qo'yadi, nochor kishilarga yordam berishni o'zining burchi deb biladi.

Alisher Navoiy o'z faoliyatida har bir kishini o'ziga d o'st deb biladi. Uning bizga qoldirgan boy merosi asrlar davomida insoniyatni mehr-oqibat manzillari tomon boshlab, insonparvarlik g'oyalarini yuqori ch o'qqiga k o'tarib kelmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodimiz ham Navoiydek insonparvar ulug' zotning avlodlari ekanligini anglab o'sishi va u kabi b o'lishga intilishiga erishaylik.

## ONA TILI TA'LIMIDA AFFIKISATSIYA USULIDA SO'Z YASASH USTIDA ISHLASH

**N.Y. Qo'shaliyeva, Farg'ona vil. Qo'shtepa tuman**

**43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**M.R. Alijonova Farg'ona vil. Farg'ona shahri 5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya.** Maqola ona tilining grammatika va so'z yasashga doir ilk tushunchalarni boshlang'ich ta'limda o'qitilishining sifatligini ta'minlash, lingvistik tushunchalarni kichik maktab yoshidagi bolalarga to'g'ri yetkazib bera olish, mashqlarni bajarishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar va qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy metodik tavsiyalarni o'z ichiga olgan.*

***Kalit so'zlar:** morfema, affikisatsiya, so'z yasalishi, kompetensiya, lingvistik tushuncha.*

Bugungi shiddatli taraqqiyot davrining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri - har tomonlama yetuk, salohiyatli, barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir. Shu bois mamlakatimizda ta'limni yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy, ilg'or texnologiyalarini qo'llash va bu sohada samaradorlikni yuqori ko'rsatkichga olib chiqish masalalari ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda.

Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi ma'suliyatini yanada oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili ta'limi o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, ularni og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishga o'rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o'quv dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

O'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari, ularga qo'yiladigan talablar davlat hujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan.

Ona tili ta'limini o'qitilishi, ilmiy jihati bugungi kundagi dolzarblik jihatidan asosiy o'rinlarda turgan masalalardan biri bo'layotgani hech kimga sir emas. Har qanday kashfiyot, har qanday taraqqiyot, har qanday farovon turmush tarzi ortida tushuncha, mantiqiy tafakkur yotadi. Bu esa o'z navbatida til materiyasiga borib taqaladi. Aniqroq qilib aytganda, so'z qudratiga.

Boshlang'ich sinflarda tilshunoslik bo'limlarining elementlari bola yoshiga mos holda bosqichma bosqich o'rgatilib boriladi. Tilshunoslikka oid tushunchalarni, ayniqsa, grammatik tushunchalarni o'zlashtirish kichik yoshidagi o'quvchilar uchun juda murakkab jarayonlardan biridir. Shuning uchun ham bu jarayon uzoq davom etadi. Chunki bolada mavhumlik va aniqlikni tushunish, qabul qilish, farqlash biroz qiyin. Shuning uchun ham ularda chalkashlik kuzatiladi. Masalan, yuryapti, sakrayapti so'zlari harakat ma'nosini bildirishini uning grammatik ma'nosi fe'l ekanligiga moslay oladi, ammo uxlayapti, o'yladi kabi so'zlarni harakatni ifodalashi, fel so'z turkumiga oidligi haqidagi tushunchalarni o'quvchi bir-biriga moslashi uchun, o'qituvchi ter to'kishga to'g'ri keladi. Pedagogni biroz izlanish va o'rgatishning samarador metodlarini izlashga, o'z ustida ishlashga undaydi.

3-4-sinflarda yuqorida aytilgan tushunchalarni farqlash bolalarda takomillashib boradi. Ular bu davrga kelib, soʻzning morfemik tarkibini oʻrganib boradilar. Tilshunoslikning morfemika boʻlimi elementlarini oʻzlashtirish soʻzning lugʻaviy maʼnosini bilish, shundan kelib chiqib uning grammatik maʼnosini oʻzlashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, soʻz tarkibini oʻrganishga kengroq toʻxtalinadi. Soʻz yasash ikki xil boʻlib, bular: leksik va affikisatsiya usulidir.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻz yasashda quyidagi bilimlarni oʻquvchilar puxta egallasa, anashu qoidalarni yaxshi oʻzlashtirsa, ularni grammatik mashqlarni bajarishi oson kechadi va bilimlarida boʻshliq yuzaga kelmaydi:

1. Oʻzakka qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz hosil qiladigan qoʻshimcha soʻz yasovchi qoʻshimcha boʻladi.

2. Bitta soʻzga turli soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish bilan asosdosh soʻzlar hosil qilinadi.

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar asosdan anglashilgan maʼno bilan bogʻliq boʻlgan boshqa bir soʻz hosil qilsa, uni yasama soʻz deyiladi.

4. Soʻz yasovchi qoʻshimcha orqali yasalgan soʻz mustaqil maʼno anglatgan soʻz boʻlib, bir soʻz turkumi doirasida lugʻatni boyitadi yoki boshqa soʻz turkumi doirasiga oʻtib ketadi.

Tushunchani shakllantirish jarayonida soʻzning lugʻaviy maʼnosi, uning tarkibidagi boshqa soʻzlarga taʼsiri oydinlashadi, oʻquvchilarda soʻzni nutqda uslubiy jihatdan toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasi shakllanadi.

Soʻz yasashi haqidagi bilimni berishda yasash hodisasini mavhum(abstrakt) emas, aniq tushunchalar bilan, koʻrgazmalilik asosida tushuntirishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali soʻz yasalganda, soʻzning maʼnosi asosdagi soʻzning maʼnosidan uzilmagan holda yangi maʼnoli soʻz hosil boʻladi va natijada quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

- turkum oʻzgaradi;

- soʻroq oʻzgaradi;

- turkum ham, soʻroq ham oʻzgarmaydi, soʻzning lugʻaviy maʼnosi oʻzgaradi.

Eng avvalo, maʼnoviy bogʻliqlik, yaʼni asosdagi maʼnoning yangi yasalgan soʻz maʼnosiga bogʻliqligini tushuntirish asosiy masalalardan biridir. Bunda “Klaster” usulidan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarga rasmi tarzda “Klaster”ni tasvirlash maqsadga muvofiq. Klasterning markaziga gulni rasmi berilib, tarmoqlariga gulni parvarishlayotgan gulchi, gul solingan idish – guldun, gul ekilgan maydon, joy – gulzor, daraxtning gullash payti, gulni rasmi bor mato va gul rasmi tushurilmagan gulsiz mato rasmi berilgan boʻlib, soʻzlar har bir rasm tagiga gulchi, guldun, gulzor, gullamoq, gulli, gulsiz kabi yozilib, rasmlardagi gul rasmi alohida koʻzga tashlanadigan tarzda belgilab qoʻyilsa. Markazdagi soʻz va tarmoqdagi yangi yasalgan soʻzlar quyidagicha izohlanadi:

–chi soʻz yasovchi qoʻshimchasi orqali gulchi soʻzi yasalyapti. Birinchidan, gul bu oʻsimlik, narsa va anashu narsani parvarishlab oʻstiruvchi, shu ish bilan shugʻullanuvchi shaxs nomini bildirgan soʻzni -chi qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasadik -gulchi. Asos maʼnosi bilan bogʻliqligi uning, yaʼni gulchining aynan gul bilan bogʻliq tarzda faoliyatidir. Nima uchun gulchi deb atadik? Chunki u ashula aytmaydi, traktor minmaydi. Agar ashula aytganda ashulachi, traktor minganda traktorchi deb nomlagan boʻlar edik degan fikrlarni berish soʻz yasashidagi maʼnoviy bogʻliqlikni mukammalroq tushunishlari uchun yaxshi omil boʻla oladi. Shuningdek soʻzlarga soʻroq berish orqali ham yasash hodisasi yuz berayotganini ifodalashini ham koʻrsatib oʻtish lozim. Gul- nima? gulchi- kim? Yangi lugʻaviy maʼnoli soʻz yasaldi, soʻroq oʻzgardi, lekin turkum oʻzgarmadi.

–zor qoʻshimchasi orqali yasalgan yangi soʻzni ham shu tarzda tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Nega aynan gulzor deymiz? Chunki, gul ekiladi bu joyga. Agar paxta ekilganda edi, paxtazor deb atagan boʻlar edik. Gulzor soʻzini gul bilan bogʻliqligini shunday uqtirish

mumkin. Gul- nima? gulzor –qayer? Bunda ham yangi lug`aviy ma`noli so`z yasaldi, so`roq o`zgardi, lekin turkum o`zgarmadi.

-don qo`shimchasi orqali yasaliş hodisasini tushuntirganda yuqoridagilardan tashqari yana uning shakldoshlik xususiyatini hisobga olish, shunga ko`ra o`qituvchidan e`tiborliroq bo`lishni talab etadi. Nega aynan guldon? Chunki unga gul solinadi, tuz yoki boshqa narsa emas. Agar tuz yoki qalam, shunga o`xshash narsalar solinganda o`sha narsalar nomi bilan bog`liq bo`lgan so`zni yasalar edi. Tuzdon, qalamdon kabi. Gul- nima? guldon - nima? Yangi lug`aviy ma`noli so`z yasaldi, lekin turkum ham, so`roq ham o`zgarmadi. –don qo`simchasi orqali so`z yasaliş hodisasi har doim ham shunday kechavermaydi. Ba`zi hollarda u asosga qo`shilib, ma`no bog`liqligini uzmagan holda, boshqa turkumga oid so`zni ham yasash mumkin. Bunda biz yangi ma`noli so`zning hosil bo`lganini ham, turkum va so`roqning o`zgariganini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: bilim – bilimdon, gap –gapdon. Ko`p narsani biladigan bilimli bolani bilimdon, gapni ko`p gapiradigan insonni gapdon deb ataymiz. Bundan ko`rinib turibdiki, -don qo`shimchasini so`zga qo`shish orqali biror bir insonlarga xos jihatni, mavjudlik darajasiga ko`ra shaxsni belgisini ifodalovchi yangi so`z ham yasashimiz mumkin ekan. Bu vaziyatda bilim – nima? bilimdon - qanday? so`rog`iga javob bo`lib, so`roq ham, turkum ham o`zgarayotganini guvohi bo`lamiz.

-la, -li, -siz qo`shimchalari ham shu tarzda tushuntiriladi.

Har bir yangi yasalgan so`z asos bilan qanday bog`liqligi borligini tushuntirish oson kechishini ta`minlovchi asosiy omil bu - so`zning lug`aviy ma`nosini tushunishidir. Bu usulda tushuntirish bolada uchrashi mumkin bo`lgan so`z yasovchi qo`shimchami yoki shakl yasovchimi, qaysi so`z turkumiga oid so`zni yasashga xizmat qilayapti degan muammoni oson xal qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, so`z yasaliş bo`yicha mukammal bilimga ega bo`lmay turib, morfologik tahlilda ijobiy natijaga erishib bo`lmaydi. Chunki, o`quvchi so`zning tarkibini bilmay turib, so`z turkumlari mohiyatini tushunib yetib, mushohada yurita olmaydi. Ayniqsa, bu kabi kamchiliklar boshlang`ich ta`limda bartaraf etilmas ekan, ta`limning keyingi bosqichlariga fanni o`zlashtirishda salbiylik ta`sirini o`tkazmay qo`ymaydi.

Pedagogik faoliyatim davomidagi ilmiy-amaliy izlanish va kuzatishlarimdan kelib chiqib shuni aytmoqchimanki, kichik maktab yoshidagi bola qo`shimcha shaklini ko`proq yodlab, esda saqlab qoladi. O`qituvchi esa mashqlarni to`g`ri bajarayotganligi sabab, undagi bilimlarni o`zlashtirish darajasini yaxshi deb baholayveradi. Vaholanki, bola -chi, -dosh, -kor va shu kabilarni so`z yasovchi qo`shimcha deya yodlab olgan bo`lishi ham mumkin. Shuning uchun yuqoridagi tavsiyalar asosida so`z yasalişini mukammalroq tushuntirilsa va yasama so`zdagi qo`shimchani nima uchun yasovchi qo`shimcha deb aytayotgani, asos va yangi yasalgan so`z bilan ma`no bog`liqligi, yasalişda qaysi hodisalar kuzatilayotgani (so`roqning o`zgarishi, turkumning o`zgarishi) so`ralsa, bola amaliy – mantiqiy fikrlab, so`z tarkibidagi yasovchi qo`shimchani ajratib bera olsa, affiikisatsiya usulida so`z yasashga oid boshlang`ich bilimni samarali o`zlashtirilishiga erishildi deb hisoblash mumkin.

So`z yasalişini mukammal tushunib yetish, nafaqat o`quvchi lug`at boyligini oshiradi, balki so`z ma`nosini taqqoslash orqali uning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, nutqini o`stirib, so`zlarni lug`aviy ma`nosidan kelib chiqib o`z o`rnida qo`llashga o`rgatadi. Bu esa o`z navbatida ularni og`zaki va yozma nutqda uslubiy xatoliklarga yo`l qo`ymasligini ham ta`minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A . Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1992
2. Qosimova K. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. - T: “Noshir”, 2009.
3. “Umumiy o`rta ta`limning DTS va o`quv dasturi” (boshlang`ich ta`lim). - T: 2017
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - T: O`qituvchi, 1995
5. Fuzailov S, Xudoyberganova M, Yo`ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf. –T: O`qituvchi 14-nashri, 2016

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Y.T.Qo`ldasheva, **Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani**  
**21-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Bolalar nutqi, og'zaki nutq, faol lug'at, adabiy til normasi, tasavvur, tushuncha, lug'at.*

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi»<sup>20</sup>. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Demak, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi va takomillashtiradi.

Propedektiv mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo programmasining bosqichli izchillik prinsipi asosida tuzulishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til hodisalarini, so'zni, uning tarkibi va yasaleshini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada,

<sup>20</sup> Иванов П. И. Умудий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 - бет



predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar ta'lim jarayonida yo narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, o'rik, olxo'ri, gul, o't* kabi), yo ularning belgisini (*mevali, mevasiz; achchiq, nordon, shirin; qizil, oq* kabi), yo harakatini (*daraxt o'sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi* kabi) ifodalovchi so'zlar bilan bog'lanadi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya va ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga alohida ahamiyat qaratish zarur<sup>21</sup>.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: «Ўқитувчи», 1997. 306 - бет
2. Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку. - М.: «Просвещение», 1965. 297-бет.
3. Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. T.: 1964.
4. Safarova. R. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 1997. №5. 10-11-betlar.

## O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI O'RGANISH VA XATOLARINI TUZATISH.

**K. Qodirova, Qo'rg'ontepa tuman 34- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Maqolada, orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktuatsion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Orfografiya, o'qituvchi, o'quvchi, savodxonlik, grammatika.

Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktuatsion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi.

Maktabda o'tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin, o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur hosil qilish uchun ko'proq tekshiruv diktant hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

<sup>21</sup> Safarova. R. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 1997. №5. 10-11-betlar.

### Xatolarni tuzatish

O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirish, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ruhiy oziq beradi. Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning xarakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozgan asarlarni tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarini tuzatadi.

Tekshiruv xarakteridagi ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyda bajariladigan mashqlar ham tekshirilishi mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi:

- a) parta ustiga qo'yilgan daftarni tekshirib chiqish;
- b) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganini o'qitib izohlatish.
- v) har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik-orfografik tahlillar mana shu usul bilan tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi. O'qituvchi har darsda 3-4 o'quvchining (ko'proq kuchsiz o'quvchilarning) daftarini uyga olib ketib, uni har tomonlama tekshirib chiqishi mumkin.

Xatolarni qanday tuzatish kerak? Xato tuzatish ham ijodiy xarakterdagi ishlar jumlasiga kiradi.

Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyoh bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usul samarador usul emas. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda (tala-dala) yoki faol lug'atga o'tib ketgan ruscha, forsha va arabcha so'zlarda (maktab-maktab), (g'isht-g'ish), (ruchka-ro'chka) xato qilsa va bu xatolarni tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin.

Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzvot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi.

Xato grammatik shaklda bo'lsa, harf emas, shakl o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi anglashi kerak. Ba'zi metodistlar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi maktab degan so'zda b o'rniga p yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, o'quvchiga shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar (kitob, bob, to'lib, o'qib, ayab, bo'ylab) topishni vazifa qilib beradi. Lekin xato tuzatishning bu usulini yagona usul deb ham bo'lmaydi. Ayrim holda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashni talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin.

Xatoni to'g'rilamasdan chizib qo'yish, xato yozilgan harfning yoki shu harfni o'z ichiga olgan bo'g'in yoki so'zning tagiga chizib qo'yish ham xato tuzatish usullaridandir. Lekin xato tuzatishda bu usullar aralash qo'llanmasligi kerak. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyati, qoidaning sodda yoki murakkabligi, o'quvchilarga o'zlashish, ularni mustaqil ishlashga yo'llashdarajasi hisobga olinishi kerak.

Ba'zi o'qituvchilar diktantda uchragan xato so'zlarni yozib olib, faqat xatolarning umumiy sonini aytib, ularni tuzatishni o'quvchiga vazifa qilib beradilar. Bu usul o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi. Undan o'rinli foydalanilsa, uning ta'lim sohasidagi ahamiyati ortadi. O'quvchining xatosi qancha aniq ko'rsatilsa, uni topish shuncha oson bo'ladi.

Aksincha, o'qituvchining ko'rsatmasi qancha umumiy bo'lsa, o'quvchidan shuncha ko'proq mustaqil ishlash talab qilinadi. Masalan, o'quvchi diktantda umumshahar so'zini ajratib yozgan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchiga qo'shma so'zlarning ajratilmay yoziladigan hollarini ko'rsatuvchi qoida ustida xato qilingan deb ko'rsatishi ham mumkin.

Bunda ham o'quvchilarning tayyorgarligi, bilim darajasi hisobga olinish zarur. Xato tuzatishning bu usuli qo'llanganda, o'quvchilarga darslik va boshqa o'quv quollaridan foydalanish huquqi ham beriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

5. Masharipova U. Oquvchi nutqini o'stiririshda innovatsion usullardan foydalanish. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2014 -yil, 1-son
6. Qiyasova Q. Til darslarida o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. T., 2003 -yil, 5 –son
7. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009
8. Qosimova K., Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z BIRIKMASI USTIDA ISHLASH USULLARI**

**M.V.Qodirova, Z.V. Maxmudova, Farg'ona viloyati  
O'zbekiston tumani 27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

**Annotatsiya:** Maqolada, boshlang'ich ta'limda bolalarga so'z birikmasini o'rgatish, fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *So'z birikmasi, leksik-grammatik birlik, gap, intonatsiyasi. bosh so'z, ergash so'z.*

So'z birikmasi leksik-grammatik birlik bo'lib, tugallangan fikr ifodalaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So'z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga so'z birikmasini o'rgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Bosh so'zdan ergash so'zga so'roq berish, so'zlarning o'zaro bog'lanishini aniqlash. Masalan, *Anvarjon yaxshi o'qiydi. Kim (o'qiydi)? – Anvarjon. (Anvarjon) nima qiladi? – o'qiydi. Qanday (o'qiydi)? – yaxshi. Yaxshi o'qiydi – so'z birikmasi.*

2. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'z birikmasi tuzdirish. Ot so'z turkumi o'tilganda, ot va sifat bilan (*jonajon Vatanim*), ot va boshqa ot bilan (*maktab bog'i*); fe'l o'tilganda, ot va fe'l bilan (*kinoga bordi, maktabda bo'ldi, uydan keldi, kitobni o'qidi*) so'z birikmalari tuzdiriladi. So'z birikmasi tuzishda yo'l qo'yilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak. Bolalar ko'proq xatoga yo'l qo'yadigan so'z birikmalarini yig'ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmasi ustida o'rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri [va aniq gap tuzib](#), tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. SHunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap – grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap mazmun birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash ham zarur; to'rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak.

Boshlang'ich sinflar dasturining «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi. Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

- 1) analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;
- 2) sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi, ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi. O'quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi:

- 1) namuna asosidagi mashqlar;
- 2) konstruktiv mashqlar;
- 3) ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, [shuningdek](#), gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi.

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi.

Ijodiy mashqlarda o'quvchilar o'zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang'ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o'quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: «*Quyoshli kunda*», «*Bizning uy*» yoki «*Quyov va tipratikan*» kabi.

2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi, o'quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta «tayanch» so'z beriladi, o'quvchilar shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so'z sifatida bolalarning faol lug'atiga aylantirish zarur bo'lgan so'zlar olinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlashda konstruktiv hamda ijodiy mashq turlaridan foydalanish o'quvchilarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995.
2. Matchonov S., Gulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, "Yangiyul" nashriyoti, 2008.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009.

## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TIL KONPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

**S.Rahmatullayeva, Asaka tuman  
38-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi**

*Annotatsiya:* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til kompetentligini shakllantirishda qiyoslash metodining eng birlamchi turini, masalan, inson nutqlarini, umuman nutqni qiyoslash tahlili asosida o'quvchilarda til haqidagi bilimlar bilan birga, turli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* til, kompetentlik, qiyoslash, nutq, bilim, eslash, tasavvur, tahlil, ertak, metod, o'quvchi, odob, shakllanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til kompetentligini shakllantirishda o'qituvchining ro'li kattadir. Bu o'rinda o'qituvchining erkin va aniq nutqi o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. Chunki o'quvchi muomala

odobini, til bilimlarini turli vaziyatlarda o'rinli ishlatishni asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob me'yorlariga tayanadi. Uning asosiy vazifalari: axborot almashuv, o'zaro ta'sir, o'zaro idrok qilish, to'g'ri amalga oshishini idora qilish. Ona tili fani ham o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Avvalo o'qituvchining nutqi sof va chiroyli bo'lmog'i, u ishoralar, qochiriqlar, isteora va xalq maqollari, afarizmlardan o'rinli foydalana olishi, nutq ohangiga, so'z jozibasiga e'tibor berishi kerakligi talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda qiyoslash metodining eng birlamchi turini, masalan, inson nutqlarini, umuman nutqni qiyoslash tahlilini asosida o'quvchilarda til haqidagi bilimlar bilan birga, turli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ertak qahramonlarini qiyoslash tahlili asosida o'rganish usuli bilan tanishamiz.

Har qanday qiyoslash tahlil qilishga olib keladi, tahlil natijasida esa xulosa chiqariladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini biror multfilm yoki ertak qahramonining nutqini tahlil qilishga qaratadi. Bu jarayon uch bosqichda yuzaga keladi:

- 1) eslash jarayoni;
- 2) tasavvur jarayoni;
- 3) tahlil qilish jarayoni.

Birinchi jarayon makon va zamon (qachon va qaerda ko'rgan) asosida yuzaga keladi, bunda o'qituvchi o'quvchilarning eslashiga yordam beradi. Masalan, "Bo'g'irsoq" ertagini eslaymiz. Quyidagi savollar bilan murojaat qilib, qachon va qaerda ko'rgani eslatiladi:

1. "Bo'g'irsoq" ertagini bilamizmi?
2. Qachon eshitgansiz yoki ko'rgansiz?
3. Ertakda qanday qahramonlar bor?
4. Qaysi qahramonlar sizlarga yoqadi va nima uchun?

Birinchi jarayon natijasi asosida o'quvchi jadvalning birinchi ustunini to'ldiradi.

Ikkinchi jarayon induksiya asosida bo'ladi, ertak qahramonining harakati, nutqi tasavvur qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin:

1. Quyoning harakatini ko'rsating.
2. Uning ovozi o'xshatib bering.
3. Bo'rining harakatini ko'rsating.
4. Uning ovozi o'xshatib bering.
5. Ayiqning harakatini ko'rsating.
6. Uning ovozi o'xshatib bering.
7. Tulkining harakatini ko'rsating.
8. Uning ovozi o'xshatib bering.

Uchinchi jarayon deduksiya asosida yuzaga chiqadi, ya'ni ertak qahramoni nutqi tahlil qilinadi. Tahlil natijasida esa qahramon nutqining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. O'quvchilar har bir qahramon nutqini takrorlashi va ular orasidan eng o'xshaganlarini ajratib olib, so'ngra tahlil qilish kerak bo'ladi.

Buni quyidagi jadval orqali jamlash mumkin:

№	Ertak qahramonlari	Ularning harakati	Ular nutqidagi ohang	O'ziga xos xususiyati
1	quyon	chaqqon	Ovozi ingichka	qorqoq
2	bo'ri	keskin	Ovozi yoqimsiz	ishonuvchan
3	ayiq	Sekin va qopol	Ovozi yo'g'on	kuchli
4	Tulki	ildam	Ovozi yoqimli	ayyor

Jadval orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Hayvonlarning harakatining tahlili natijasida ularni quyidagicha tartiblash, darajalash mumkin: quyon (chaqqon), tulki (ildam), bo'ri (keskin), ayiq (sekin).

2. Nutqining tahlili natijasida ularni ikki qarama qarshi tomonga ajratishimiz mumkin (tashqi qarshilantirish), quyon (ingichka) ↔ ayiq (yo'g'on); bo'ri (yoqimsiz) ↔ tulki (yoqimli).

3. Hayvonlarni ichki qarshilantirish, quyon chaqqon, lekin qorqoq. Bo'ri keskin, ammo ishonuvchan (tulki ertaklarda doimo bo'rini aldab ketadi). Ayiq kuchli, lekin harakati sekin. Tulki ildam va ovozi yoqimli, ammo ayyor.

Ushbu tahlil natijasida o'quvchilar hayvonlarning harakatini, ovozini va o'ziga xos xususiyatlarni darajalanish munosabatida, ichki va tashqi qarshilantirish munosabatlarida o'rganadi.

Demak, o'qituvchi ertak qahramonlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda o'z xulosalarini aniq bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Akademnashr, 2012
2. Zakirova X. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish usullari. Respublika ilmiy-va amaliy anjuman materiallari. IV chiqish. ADU, 2015
3. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. Toshkent: O'zbek FA, 1963.

## **2-SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH USULLARI**

**K.S.Rasulova Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
64-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Annotatsiya: **Maqolada**, 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo'yicha beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar o'quvchilarning kundalik muloqot - muomala madaniyati hamda ona tilida ish yuritish uchun xizmat qiladigan bilim, malaka va ko'nikmalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ko'rsatmalilik, kichik yoshdagi o'quvchi, ona tili, o'qish didaktik o'yinlar.*

2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish bo'yicha beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar deganda biz o'quvchilarning kundalik muloqot - muomala madaniyati hamda ona tilida ish yuritish uchun xizmat qiladigan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini tushunamiz. Demak, bog'lanishli nutqni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi belgilangan mavzular bo'yicha egallangan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimidir.

2-sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirish va rivojlantirish uchun esa so'zning ma'nosini tushunish, uni to'g'ri va o'rinli qo'llash, gapni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, talaffuz me'yorlari va gap ohangiga rioya qilish singarilar muhim ahamiyatga ega. Bog'lanishli nutq uchun o'ta zarur bo'lgan dastlabki malaka va ko'nikmalar o'quvchilarga avvalo 1-sinfdan boshlab singdiriladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Ona tili, o'qish ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravyon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrlil standart mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon

etish malakasi. O`qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko`nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o`quvchining notanish bo`lgan matnni ifodali o`qiy olish ko`nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko`rsatkich sifatida ifodali o`qish tezligi, ya`ni berilgan matndan minutiga nechta so`z o`qiy olish ko`rsatkichi belgilangan. Sinfdan sinfga o`tish, miqdoriy ko`rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o`qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o`zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasi o`quvchining og`zaki bayon qilayotgan o`zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko`rsatkichlari o`quvchi 10 daqiqada qancha sahifa matnni o`qishi, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og`zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo`lib, ona tili ta`limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o`quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo`yicha ta`lim sifatining natijasini baholashda o`qituvchi tomonidan quyidagi ko`nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

Mazkur standart mezonlarining o`zaro uzviy bog`liqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, o`qish ona tili ta`limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi. 2-sinf ona tili va o`qish darslarida belgilangan mavzularni o`rganishda o`quvchilarda avval amaliy ko`nikmalar, keyin nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazish uchun turli tarqatma materiallardan, savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Bilimlarni o`rganish jarayoni darslik materiallari, o`quvchilarning nutq tayyorgarligi bilan uzviy bog`langan holda olib boriladi. Bu ishlar darslarning samaradorligini oshiradi.

2-sinf ona tili va o`qish darslarida o`rganilayotgan mavzularni yanada mustahkamlash uchun “Tarqatma materiallar olamiga sayohat” dars mashg`ulotlari o`tkaziladi. Dars mashg`ulotida o`quvchilar o`qituvchi rahbarligida tarqatma materiallar olamiga sirtqi sayohatga chiqadilar. Sayohat jarayonida o`quvchilar bir necha to`siqqa duch keladilar (har bir o`quv topshirig`i bir to`siqdir.) Masalan, “Qaysi guruh belgini bildiruvchi so`zlar ishtirokida tez matn yaratadi” kabi, o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar ustida ishlash bo`yicha “Men tez va to`g`ri o`qiyman” mavzusida tarqatma materiallardan foydalanib, o`yin- musobaqa tashkil etsak ham samarali bo`ladi. Mavzu o`rganilib bo`lingandan keyin o`quvchilardan tarjimayi hol yozishni talab qilsak, ular qiynalmasdan yoza oladi.

Shunday qilib, 2-sinf ona tili va o`qish darslarida belgilangan mavzular bo`yicha tarqatma materiallar asosidagi zaruriy bilimlar shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko`nikmalarni, ijodiy faoliyat tizimini hamda o`qituvchi va o`quvchi orasidagi munosabatlarni o`z ichiga qamrab olgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A., Ishmuxamedov R., Pardayev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste`dod, 2008.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil.
3. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A. Boshlang`ich ta`limni o`qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. Metodik uslubiy qo`llanma – T.: 2017

## GULHANIYNING “ZARBULMASAL” ASARINING TAHLILI

Z.K.Sayifdinova Baliqchi tumani  
48-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Gulhaniyning “Zarbulmasal” asari maqol va matal va ramzli hikoyalar asosida ekanligi, bunday hikoyalar ko'pincha pand-nasihati ma'nosida bo'lib, ma'lum g'oyani yoritish uchun xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalitsozlar:** Gulxaniy, “Zarbulmasal”, “Toshbaqa bilan chayon”, Ko'rqush, Malik shohim.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о том, что произведение Гульхани “Зарбулмасал” основано на пословицах и матовых и символических сказках, такие истории часто бывают в смысле панд-наставления и служат для освещения конкретной идеи.

**Abstract.** In this article, it is stated that Gulhani's work “percussion” is based on proverbs and sayings with a matal and symbolic meaning, such stories are often in the sense of a band-reminder and serve to illuminate a certain idea.

**Ключевые слова:** Гулхани, “Зарбулмасал”, “Скорпион с черепахой”, боязнь, Малик Шахим.

**Key words:** Gulkhani, “percussion”, “Scorpion with a Turtle”, The Owl, My Queen.

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan mumtoz shoirlarimizdan biridir. Uning asl ism-sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy adabiy taxallusi. Taxminlarga ko'ra, u XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo'jand viloyatining Darvoza qishlog'ida tug'ilgan.

Bo'lajak shoirning bolaligi o'zi olamga kelgan tog' qishlog'ida o'tadi. Bu yerda o'qib, savod chiqaradi, adabiyotga havas qo'yadi. Ko'plab asarlar o'qiydi, xalq og'zaki ijodini berilib o'rganadi va asta-sekin she'riy mashqlar qila boshlaydi. U ilmni oshirish maqsadida avval Namangan, so'ngra Farg'onaga keladi, qiziqchiligi, hozirjavobligi va hajviy she'rlari bilan kishilar o'rtasida taniladi. Ayniqsa, g'ariblik turkumidagi ruboiy va to'rtliklari bilan el og'ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo'qonga keladi. U o'zbekcha she'rlariga Gulxaniy, fors-tojikcha she'rlariga Jur'at deb taxallus qo'yadi.

Gulxaniy bir necha yil Qo'qon xoni Olimxon saroyida navkarlik qilgan, janglarda qahramonlik ko'rsatgan bo'lsa-da, ammo ochlik, yupunlik, muhtojlik uning hamrohi bo'lib qolaveradi.

Gulxaniyning „Ber menga“ radifli she'ri ana shu davrda yozilgan.

Olimxondan keyin Qo'qon taxtiga chiqqan Umarxon hukmronligi davrida ham Gulxaniy turmushida hech qanday o'zgarish bo'lmadi.

Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmida vafot etadi. Uning eng yirik asari „Zarbulmasal“dir. Bu o'tkir hajviy asarda Gulxaniy xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so'zlariva iboralaridan mohirlik bilan foydalanadi. U feodal hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo'li bilan hajv tig'i ostiga oladi. Shoir mehnatkash xalqning og'ir, mashaqqatli hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar fuqaroni talash hisobiga bo'lishini payqadi. Natijada unda saroy zodagonlariga nisbatan nafrat hissi tobora oshib bordi. Ammo shoir, sharoitga ko'ra, hukmron doiralardan noroziligi va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun u majoziy shakldagi „Zarbulmasal“ asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o'rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo'lgan munosabati to'g'ridan to'g'ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o'xshash majoziy obrazlarning tasviri orqali beriladi. Shoir shu tarzda o'zi yashagan zamonga, voqea-hodisalarga munosabatini, qarashlarini dadil aks ettiradi.

Muallif o'z masallaridagi majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, qashshoqlik keltirgan o'zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.



Gulxaniy o'z asarida majoziy yo'sinda Yapaloqqush va Boyo'g'lining bir-biriga quda bo'lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to'y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko'rqush, Hudhud, Kulankirsulton, Malik Shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochadi.

Ko'rinadiki Gulhaniyning "Zarbulmasal" asari maqol, matal va ramzli hikoya asosida yaratilgan ta'limiy hikoyalardir. Asarda muayyan hikoyalar tarkibida, ularning xulosasi sifatida matallar keltirilgan. Ba'zan masal, matallarning mazmuni asosida hikoyalar yaratiladi. Bunday hikoyalar ko'pincha pand nasihat ma'nosida bo'ladi va ma'lum g'oyani uoritish uchun xizmat qiladi. Asarda majoziy ma'no, kinoya, ramz yetakchi badiiy vosita sifatida qo'llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000.
2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004
3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet. 2006.
4. Barakaev R. O'zbek bolalar adabiyoti va A. Avloniy ijodi. – T.: Fan, 2004.
5. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. 1-jild. T.: O'qituvchi, 2006.

## **BADIIY ASARLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH**

**D.X. Tillaboyeva Farg'ona viloyati Rishton tumani  
19-maktab boshlan'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Badiiy asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish. O'quvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida o'rin tutishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Estetik zavq, badiiy asar, do'stlik, tinchlik, hikoya.

O'quvchining estetik zavqi va didini shakllantirishda badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. Chuyeki badiiy asarni o'qir ekanmiz, undagi voqelarga, personajlarga befarq qaray olmaymiz. Badiiy asarlar ta'sirida tug'ilgan mana shunday tuyg'ular estetik tuyg'u deyiladi. Estetik tuyg'u bizda yaxshi fazilatlarini parvarish qilib, har qanday yomonlik va razolatga qarshi nafrat, chinakam go'zallikka nisbatan muhabbat hissini uyg'otadi. Shu asosga ko'ra, yosh kitobxonlar nazarida ijodkor – sehgardir. Bu borada bugungi o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi namoyondasi Safar Barnoyevning yaratgan asarlari alohida ahamiyatga molik. Binobarin, adib qalamiga charxlangan asarlarning barchasida ijodkorning badiiy mahorati bo'rtib turadi. Darhaqiqat, Safar Barnoyev asarlarining bosh mavzusi, g'oyaviy mundariyasi bo'lmish fidoiylik tuyg'usi va tuyg'ularning samimiyligi uning deyarli barcha she'ru dostonlariga, hikoya va qissalariga ko'rk bag'ishlaydi. Binobarin, u bolalar adabiyoti vatanimizning ertasini yaratuvchi yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga mas'ul ekanini bir daqiqa ham nazardan qochirmaydi.

U qaysi mavzuda, qaysi janrda qalam tebratmasin halol, topqir va chaqir bolalar dunyosini kashf etishga intiladi. Do'stlik, tinchlik va o'zaro birdamlik, vatanparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning asarlaridagi bolalarcha samimiylilik, beg'uborlik, rostgo'ylik va to'g'rilik adib ijod namunalari jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Shu ma'noda o'zbek bolalar adabiyotida Safar Barnoyev ham yuqori bosqichga ko'tarildi. Uning asarlari tesha tegmagan obraz, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu borada adibning "Qosim buvaning kulbasi" hikoyasi diqqatga sazovordir.

Adibning ushbu hikoyasida bosh qahramon Sodiqjon ismli bola. Ularning hovlilari ham ko'p qatori buziladigan bo'ladi va o'zlari ko'p qavatli uyga ko'chib o'tadigan bo'lishdi. Bu xabar xonadon egasi bo'lmish rashid akaga yoqmaydi. Axir ota-bobolari shu uyga yashab o'tgan, ulardan qolgan yagona yodgorlik bo'lsa, uni buzishlariga avval qarshi chiqadi. Keyin qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar qatorida ko'chishga majbur bo'ladi. Eski kulbasini esa buzib, yarim puliga sotmoqchchi bo'ladi. So'ng onasining maslahati bilan yog'och, g'ishtlarni Sodiqjonning kichkina tog'asiga berib yuborishga kelishadi. Buni orqavorotdan eshitgan Rashidvoyning akasi Tojivoy

kelib, ukasiga qolgan uyning g'isht, yog'ochlarni begona qilmasligini va o'zi olib ketib, uchastkasining kam ko'stiga ishlatishini taklif qiladi. Ukasi ham rozi bo'ladi. Xullas, eski kulbada yarim paxsa devoru, otasi bo'lib tashlagan tuproq uyumlari qoladi xolos. Bu uyning naq ustidan keyinchalik katta yo'l o'tadi.

Ushbu hikoyada tug'ilgan uy misolida ona Vatan surati gavdalanadi. Bolajonlarni o'z uyini sevishga, ardoqlashga o'rgatish orqali ularda vatanparvarlik hissini mujassamlashtiradi. Shuningdek, hikoya tom ma'noda xazil mutoyibaga yo'g'rilgan personajlarga boy. Eski kulbaning yog'och va g'ishtini aka o'z ukasiga, ota esa o'z akasiga berishni tortishib qoladi.

Adib "Rahmat sotilmaydi" she'rida bu dunyoning turfa sir-sinoatlaridan shahzodaning xabardor bo'lishi haqida hikoya qiladi:

Ajab dunyo bir kunda  
Ming bir marta aylanar.  
Ko'zin ochgan chaqaloq  
Yashash uchun shaylanar.  
Yashash degan haqiqat  
Bizga meros umrbod.  
O'qish kerakdir faqat,  
O'qmagan bo'lar barbod.

deb boshlanuvchi misralar bolalarni tom ma'noda vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Kimdir yashar elim deb,  
Kimdir tayyorga ayyor.  
Birov yashar tekin yeb,  
Eh-he qusurlar bisyor.

Ushbu she'ning hatto sarlavhasi ham ma'lum ijtimoiy mehnat kasb etadi, yosh kitobxon qalbida Ona Vatanning har bir zarrasi, hatto arzimagan bir go'shasisifatida mustahkam o'rin egallashiga zamin hozirlaydi.

Adiblar hikoya, qissalari orqali, ya'ni ertak qahramonlari – hayvonlar, o'simliklar orqali bolajonlarni ezgulikka yetaklaydi. Hikoyada salbiy obrazlar hamisha tanqidga uchrashi, ijobiy obrazlar esa doim buyuklikka, ulug'likka yetishi tasvirlanadi.

Safar Barnoyev zamon bilan hamnafas ijodkor. Binobarin, adib asarlardagi zamonaviylik va milliylik asar mag'ziga singdirilgan didaktikada, davrimiz ahloqiy talablarining badiiy ifoda etilishida ko'rinadi. San'at va adabiyot, jumladan, bolalar adabiyoti oldidagi vazifa – davrning yuksak ahloqiy talablarini bola qalbiga, ongiga, shuuriga singdira bilishdan iboratdir. Mana shu sifatlarining barchasi Safar Barnoyev ijodida mujassam.

Umuman aytganda, Safar Barnoyev bevosia bolalarga bag'ishlangan asrlarida bu masalalarga jiddiy e'tibor beradi va ularni yuksak, nozik did bilan hal qiladi; yosh kitobxonda ona Vatanga, do'stga, mehnatga, ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otib, uni jamiyatda o'z o'rnini topib olishga chorlaydi. Shuning uchun ham adib asarlari o'zbek bolalari tarbiyasining asosiy vositasi sanaladi. Binobarin, adib ijodiy merosining badiiy, ta'limiy va ahamiyati ham ana shu jihatlar bilan belgilanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboev M Bolalar adabiyoti.-T.: "O'qituvchi", 1994.
2. Yo'ldoshev Q. "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari".-T.: "O'qituvchi", 1996.
3. Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi?-T.: "O'qituvchi" 1993.
4. Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma).-T.: "O'qituvchi", 1996.

## X DEB YOZAYMI, YOKI H?

N.B.Tursunova Shahrixon tumani

### 44-IDUM ning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya: Boshlang'ich sinfdan boshlab imloviy xatolarsiz yozishga o'rgatish shart. Bu tavsiya o'quvchilar bilan birgalikda o'qituvchilar uchun ham keng qo'llanish tavsiya etiladi.*

Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar barcha pedagoglarni ish samarasini oshirishga, ijodiy izlanish, darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida va integratsiyashtirib qurishga undamoqda. Darslarda interfaol usullardan qancha ko'p foydalansa o'quvchining diqqatini shuncha ko'p dars mazmuniga qaratish mumkin. Ayniqsa, o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darsda qo'llanadigan qiziqarli usullar shuncha ko'p bo'lishi lozim.

O'quvchilarni diktant, insho va bayonlarini tekshirar ekanmiz, orfografik xatolar ko'zga tashlanadi. Tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, aksari hollardagi xatolar X va H undoshlarini ajrata olmaslik bilan bo'ladi. Eng achinarlisi, ba'zi o'qituvchilarning o'zlari ham bu holatga dadil javob bera olishmaydi. Shuning uchun, quyida x va h undoshini farqlab yozishni esda qolishga undaydigan turli usullarni tavsiya qilmoqchiman. Avvalo o'quvchilarga H va x undoshini kelib chiqishini rasmda korsatiladi. Bunda talaffuz qilayotganda til orqadan chiqayotgan undosh ya'ni, jarangsiz sirg'aluvchi bog'iz tovushi X bilan yozilishi, tanglayga yaqin talaffuz qilinayotgani, ya'ni jarangsiz sirg'aluvchi tanglay tovushi H bilan yozilishi amalda ko'rsatiladi.

Quyida harflarni ajratish va uni yodda qoldirish usullarini berib o'tamiz.

1- rus tilidan kirgan so'zlar. Masalan : mexanik, ximiya,

2. So'z o'rtasida kelgan -h undoshi qatnashgan so'zni talaffuz qilishda -h undoshi -y lashishi. Masalan: Rahim-Rayim, Shohista-Shoyista, Shohimardon- Shoyimardon Zohid-Zoyid , Sohib-Soyib

Bunda e'tibor berish kerak bo'lgan holat: -h dan keyin -i unlisi kelgan bo'lishi kerak. Chunki, -i unlisidan boshqa tovush kelganda -y lashmaydi.

Masalan: Burhon, Qahhor, zahar, baham, Is'hoq va boshqalar.

3. -i unli tovushidan keyin x harfi kelishi.

Ixtilof, ixtiyor, ixlos, ixtiro, ixtisos, ixcham, omixta, pix, mix, six

Bunda sharti: x undoshi yopiq bo'g'inning oxirida kelishi kerak. Bo'ginning boshlanishi bo'lsa h lashadi. Masalan:

Ji-hat, imti-hon, ni-hoya, ji-hoz, isti-hola, ni-hol va hokazo

4. E unli tovushidan keyin hamisha h harfi kelishi.

Meh-mon, deh-qon, be-hi, eh-tirom, isteh-zo, isteh-kom, mehr, mehrob, meh-ribon, sehr, cheh-ra, eh-son, eh-tiyoj, eh-timol, eh-tiros, eh-tiyot, eh-rom.

5. X tovushi bilan boshlangan aksar so'zlarda x tovushini olib tashlansa, so'z ma'nosi tubdan o'zgarishi. H bilan boshlangan so'zlarda esa ma'no o'zgarmaydi.

Hushyor -ushyor, halim-alim, hakim-akim.

Endi esa x harflarining o'zgarish holatini kuzatamiz.

Xayol-ayol, xona-ona, Xavf-avf, xazon- azon, xayr- ayr, xamir- amir, xanda-anda, xas-as, xasta-asta, xato-ato, xil-il, xol-ol, xola-ola xon-on, xor-or , xos-os, xotin-otin, xoch-och , xoh-oh, xun-un, xo'p-o'p, xo'roz-O'roz, xo'sh-O'sh

6. Yana shunday shakldosh so'zlarni ko'rishimiz mumkinki, har ikkalasiyam deyarli bir xil yozilgani bilan ma'nolari turlicha. Bunda shu so'z qatnashgan gap ma'nosiga e'tibor beriladi.

Masalan:

Hil (hil-hil pishmoq) –xil (biron narsaning turi),

Hol (holat, vaziyat) – xol (yuzdagi xol ma'nosida),

Shoh ( podshoh) – shox (daraxtning shoxi)

so'zlarini misol qilish mumkin. Bu so'zlarni mustakamlash darslarida yoki darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'yin tarzida o'quvchilarga o'rgatib, yozdirib qoyish o'quvchida ma'nolariga qarab turib ajrata olish ko'nikmasi rivojlanadi.

Bularga qo'shimcha tarzda o'quvchilarga ushbu so'zlarni yodlashi oson bo'lishi uchun ushbu harflar qatnashgan maqol, topishmoq va tez aytishlarni o'quvchilarga havola qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

#### Tez aytishlar

Yahyo sumalakni yalab, yaxmalakda sakradi.

Halim hil- hil pishgan halimni hidladi.

Mahkam xokkeyda hakamlik qildi.

Xolida xamir qiladi, Hanifa halim qiladi.

#### Topishmoqlar:

Qishda ham, yozda ham odamni yutar,

Usti berk, tagi berk, atrofi devor. (uy)

Xo'roz desam qand, qand desam xo'roz. (xo'rozqand)

Qishda uxlab yalang'och, Bahor qoyar yashil soch. (tol daraxti)

Yuqoridagi xalq og'zaki ijodini o'quvchilarga yodlatish bilan ham ziyraklikka, topqirlikka, qadriyatlarini qadrlashga o'rgatish bilan birga, og'zaki tarzda aytilganda harflarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qildiramiz. Bundan tashqari, 1-2- sinf o'quvchilariga dars davomidagi "quvnoq daqiqalar"da quyidagi she'rlarni ko'proq yodlatish ham maqsadga muvofiq.

#### She'rlar.

Shahar, qishloq, dala-bog,

Qoplandi kumush qorga,

Tabiat o'xshar go'yo,

Ochilgan paxtazorga.

Koring hamma harfimni,

Qiziqtirar har kimni.

Harfim aniq, go'zal xush,

Qiynalmay mumkin o'qish.

"**Ha-, ho-, hi-**" ta'limiy o'yinida o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Bu o'yinda o'quvchilar uch guruhga bo'linib, berilgan bo'g'in bilan boshlanuvchi so'zlarni topib, doskaga yozadilar. Yaxshi o'zlashtirib olingandan keyin, "xa-, xo-, xi-" bo'g'ilari bilan boshlanuvchi so'zlarni topib yozish topshiriladi. Masalan:

<b>ha-</b> halovat hakim halim hamiyat hakan	<b>ho-</b> Hokim hozir holva hosil hozir	<b>ha-</b> hijolat himoya hikoya himolay himarish
---	---	--

"**Rasm diktanti**" o'tkazishda narsalarning rasmlari navbatdan ko'rsatiladi. O'quvchilar ularni yozadilar.

Hakka, ho'kiz, xarita, xotira maydoni, paxta.....

"**Domino**" o'yini ko'proq 4-sinfda o'tkaziladi. Bunda so'zlar yozilgan kartochkalar aralashtirib qoyiladi. Bunda oxirgi harfi bilan boshlanadigan so'zlarni qator qilib qo'yiladi.

handalak	ko'hna	ahvol	lohas	Six	xurmo	omuxta	anhor	rahbar	ruh
----------	--------	-------	-------	-----	-------	--------	-------	--------	-----

"**Bo'g'inlarni yig'**" metodida esa so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, stolga qo'yiladi. Guruhlardan o'quvchilar chiqib, bo'g'inlardan so'z tuziladi.

Xa-, ha-, -lim, -to, ho-, xi-, ka-, -zo, -tob, ....

"**Sinkveyn**" usulida biror so'z aytiladi. Unga tegishli 5 ta ma'lumot keltiriladi. Misol uchun: hasharot so'zi

1. Nima? Hasharot. (Ot so'z turkumiga kiradi)
2. Qanday hasharot? Zararkunanda, foydali.
3. Nima qiladi? Uchadi, o'rmaydi, sudraladi...
4. Hasharotlarning ba'zilar tabiat uchun juda foydali.
5. O'rgimchak, ari, chumoli, qo'ng'iz, shilliqqurt.

Ta'limiy diktant yozdirish uchun ertak yoziladi. Bunda ikki bola- Xayrullo va Hakimjon haqida hikoya qilinadi. Xayrulloning uyida ham, fe'lida ham faqat x undoshi qatnashadigan

narsalar mavjud bo'ladi. Hakimjonning hayotida esa faqat h undoshi qatnashgan so'zlarni ko'rish mumkin.

#### Ikki do'st

Hakimjon bilan Xayrullo juda yaqin do'st. Lekin hech bir-biriga o'xshamaydi. Hakimjon juda hazilkash, mehribon, halol yigit. Uning otasi hunarmand, onasi esa hamshira. Hakimjon kelajakda hisobchi bo'lmoqchi. Bu kasbda hushyorlik talab qilinishini u yaxshi biladi.

Xayrullo esa ozgina xayolparast bola. Uning otasi xirurg, onasi esa ximiya fanidan dars beradi. Ko'pincha maktabdan qaytishda xiyobon oralab ketib, dam oluvchilarga xalal beradi. Uning bunday xunuk odatini tashlasa, onasi juda xursand bo'lishini aytdi.

Topshiriq: h harfining tagiga bir chiziq va x harfiga esa ikki chiziq chizilishi topshiriladi.

Yuqorida berilgan uslub va metodlarni dars jarayoni va darsdan tashqari to'garaklarda muntazam shug'ullanib turilishi o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini mukammal darajada rivojlanishiga yordam beradi.

### ONA TILI DARSLARIDA QO`LLANILADIGAN NOAN`ANAVIY USULLAR

**D.Y.Yusvaliyeva Andijon shahar,  
24-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili darslarida qo'llaniladigan noan'anaviy usullar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy dars, noan'anaviy dars, noan'anaviy ta'lim, muammoli vaziyat, piktogramma, interfaol usullar.

Dars jarayoni o'qituvchi -o'quvchi munosabatlaridan iborat bo'lib, ta'lim-tarbiyani turli usul va vositalar bilan yetkazish jarayonidir.

Zamonaviy dars qanday bo'lishi kerakligi xususida ko'p fikrlar bor. Zamonaviy darsga hozirgi kunda quyidagi talablar qo'yilgan: o'quv va maqsadlarning aniq yo'lga qo'yilishi; tarbiyaviy maqsadlar mazmuni va uslublarini zamonaviy fan va texnika darajasiga muvofiqlashtirish, fanning asosiy qoidalarini izohlash yo'li bilan ochib berish, fan oldida turgan yangi muammolarni, uning istiqbolini yaratish; o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish, bilimlarini mustahkamlash va ularni mustaqil o'rganish usullarini topish; ta'lim-tarbiya tamoyillarini uzviy olib borish, yangi ta'lim berishda amaliy yondashuvga ega bo'lishga erishishda, tanlangan kasb sohasida mehnat qilishga tayyorgarlikni shakllantirish.

Noananaviy dars sinfda yoki sinfdan tashqari o'tkazilishi, ko'proq umumlashtirishni, takrorlash, mustahkamlash va mashg'ulotlardan iborat bo'lishi mumkin. Noan'anaviy dars, noan'anaviy metod va noan'anaviy usullar ona tili ta'limini yuzaga chiqaruvchi mavjud shakl bo'lib, u darsga qo'yiladigan talablardan farqli holatda tashkil qilinadigan, ta'lim berish shakllaridir. Noananaviy dars ikki xil ko'rinishda bo'lib, birinchisi sinfda ikkinchisi sinfdan tashqarida o'tkazilishi mumkin.

Maktablarda noan'anaviy dars shakllaridan foydalanish, darsning ma'lum qismi, ya'ni bosqichlarini noan'anaviy tarzda o'tish masalalari darsda muammoli vaziyat, munozarali holat keltirib chiqaradi, seminar-dars, muzokara-dars, musobaqa-dars, viktorina-dars, sayohat-dars kabi shakllardan foydalanish ta'limni takomillashtirish, o'quvchilar bilimining samaradorligini oshirishdan iborat.

Noan'anaviy dars va usullarning qo'llanishi ko'r-ko'rona, shaklbozlik uchun bo'lmasligi kerak, isbotlangan tarzda olib borishi samaradorligina emas, balki zararli holdir. Negaki, noan'anaviy tasdiqlangan rivojlantirilgan noan'anaviylikdan tubdan farq qiladi, uning samarasini o'qituvchi avvaldan ko'z oldiga keltirishni, shunga ko'ra uni tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Noan'anaviy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsad, o'quvchilarga faqat bilim, ko'nikma, malakalar berishdan iborat bo'lmasdan, balki o'quvchilarni tabiiy sharoitga yaqinlashtirishdan iboratdir.

Yangi darsda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni o'zlashtirishda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hisobga olinadi. Shundagina o'quvchi darsda faol ishtirok etuvchi sub'ektga aylanishi, erkin fikrlay olishi va o'z fikrini aytishi va uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo'la olishi mumkin. Noan'anviy ta'limning seminar-muammo, munozara, bahs, savol-javob usullarida o'quvchi sub'yektga aylanishi, erkin fikrlay olish va fikrini aytishi va uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo'la olishi mumkin. Noan'anviy ta'limning seminar-muammo, munozara, baxs, savol-javob usullarida o'quvchi sub'yekti yetakchi sanaladi. Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda o'quvchi darsda faol ishtirok etadi va bilim oluvchi, o'z bilimini namoyish etuvchi va hatto bilim beruvchi bo'lishi mumkin.

Noan'anviy ta'lim darsini tashkil etish va o'tishga ana'anviy usullardan farqlanuvchi holatni bildiradi va u noan'anviy yo'llarni o'z ichiga oladi.

Noan'anviy usullardan biri piktogramma bo'lib, bu rasmga qarab shartli belgilar asosida gap va hikoya tuzish demakdir. Mazkur usul bolalarning lug'at boyligini oshirish va xotiralarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usulda ish yuritishda ta'lim jarayoni bola xohishidan kelib chiqishi talab etiladi. Shunday ekan, bola qiziqishini inobatga olish, mavjud bilim, malaka va ko'nikmani rivojlantirish o'rinli bo'ladi. Shuningdek, avvalo u ko'rgazmali-didaktik, ta'limiy tamoyillarga asoslanishi shart.

Har bir ta'lim mashg'uloti o'tkazilganda guruhlarga ajratilgan holda, tashkil etilishini nazarda tutish zarur. Unda «Men bilaman», «Bilishni xohlayman», «Bilishni istayman» kabi shaxsiy xususiyat va imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanishiga e'tibor berilishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bola organizimining o'sishi va rivojlanishi, asab tizimining o'sishi takomillashmaganligi, uni tashqaridan beriladigan har xil taassurotlarga sezgir qilib qo'yadi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy jarayon o'ziga xos didaktik tamoyillarga asoslangan bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagi firklarga asoslangan holda, darslik materiallariga qo'shimcha vositalar: magnit tasmalar, o'quvchilar uchun nashr etilgan lug'atlar, chop etilayotgan jurnallar va hokazo metodik manba vazifasini o'taydi.

Ona tili darslarida o'rganilgan mavzularni takrorlash va uni xotirada tiklash, bayon qilingan yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularni puxta o'rganish jarayonida izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish lozim. O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar o'quvchi uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi shart. O'quvchi o'z o'qituvchisi orqali fanni o'zlashtiradi, qiziqish paydo bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi sehrli so'zlar sohibi bo'lmog'i lozim. Fan bilan bola o'rtasida o'qituvchi ko'prikdir.

Ona tili darslarining samarali bo'lishida quyidagi interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: «Klaster», «Aqliy hujum», «Sinkveyn», «Kichik guruhlarda ishlash», «6X6X6», «Har kim har kimga o'rgatadi», «Musobaqa darsi», «Kim epchil-u, kim chaqqon», «Rolli o'yin», «Zanjir usuli». Bu kabi interfaol usullar darsining sifat darajasini yuqoriga ko'taradi.

Darsda o'qituvchi o'quvchini oliy o'ringa qo'yishi lozim. O'qituvchi darsga biron bir maqsad, ya'ni o'quvchilar bilimini oshirish, ular bilimidagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishlikni ko'zda tutmog'i kerak. O'qituvchi o'z faniga bo'lgan hurmatini bolalarning fanga bo'lgan qiziqishi orqali ko'ra bilishi lozim.

## **O'QISH DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM METODIDAN FOYDALANISH**

**N.X.Abdulazizova Shahrixon tumani  
22-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida muammoli ta'lim metodidan foydalanish bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qish darsi, muammoli ta'lim

O'qish darslarida muammoli ta'lim imkoniyatlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradigan uslubiy yo'llardan biri. O'qishning qonun-qoidalarini o'rganish va unga muvofiq keladigan yozma hamda og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish o'quvchilardan izlanishni, ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning intellektual vosita sifatida xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim tushunchasi pedagogik adabiyotlarda garchand keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo izlanuvchilikka asoslangan o'qitish g'oyasining yuz yildan ortiqroq tarixi bor. 19-asrning 70-ymlarida Rossiyada yashagan bir guruh olimlar (S.P. Baltalon, M.A. Ribnikova) evristik ta'lim nazariyasini ko'tarib chiqib, o'quvchilarni mustaqil ishlatish yo'li bilan ularning bilish faolligini oshirish g'oyasini ilgari surgan edi.

Izlanuvchilikka asoslangan faoliyat muammo yaratish, ya'ni o'quvchi uchun ma'lum bir qiyinchilikni vujudga keltirish va shu yo'l bilan uning faol fikrlashini uyg'otish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchilikni yengish uchun o'quvchida mavjud bilimlar etishmay qoladi. U noma'lum bilimlarni egallash uchun izlanishga ijodiy faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Izlanish o'quvchida bilish faolligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darslarida muammoli ta'limni qo'llash orqali quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- o'quvchilarga to'g'ri o'qish jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni o'rgatish;
- o'qishning qonun-qoidalarini hamda so'z, gap va matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdirish;
- nazariy bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va uni yozma hamda og'zaki nutqda ijodiy qo'llash malakalarini shakllantirish;

SHubhasiz, bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Darsda ijodiy tafakkur muammoli ta'lim natijasida yuzaga keladi.

Ijodiy tafakkur o'quvchilarga noma'lum bo'lgan til qonun-qoidalarini boshlang'ich sinf talab darajasida bilib olish jarayonini tezlashtiradi, egallangan bilimlarni puxtaligini ta'minlaydi, o'quvchilarning o'z ona tilisiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

O'qish darslarida muammoli vaziyat yaratishning usullari xilma-xildir. Biz ilg'or o'qituvchilarning ish-tajribalari va sinov (eksperiment) natijalariga asoslanib, muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullarini havola qilamiz:

1. O'qish qonun-qoidalarini tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish. To'g'ri o'qish qonun-qoidalarini tahlil qilish reproduktiv xarakterda ham, muammoli xarakterda ham bo'lishi mumkin. Tahlilga asoslangan muammoli o'qitish o'quvchilarning fikrlash faoliyatini oshiradi.

2. O'qish darsligidagi matnlarni o'rgatishda, to'g'ri va ongli o'qishga o'rgatishda sintez qilish, tahlil asosida muammoli vaziyat yaratish. O'qituvchi tahlil natijasida hosil bo'lgan tushunchalarga asoslanib, mustaqil hulosa chiqarishni o'quvchilarning o'zlariga havola etadi. Bu usul bilan muammoli vaziyat yaratishning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi mayda faktlardan umumiy xulosa chiqaradi. Sintetik usul o'quvchilarning o'z faoliyatini o'zi oshirishga imkoniyat yaratadi. O'quvchi mayda faktlardan umumiy xulosa chiqarar ekan, o'z oldiga maqsad qo'yadi va uni mustaqil hal qilish choralarni izlaydi.

3. Til faktlarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash orqali muammoli vaziyat yaratish. Biz pedagoglar taqqoslash orqali har qanday tushuncha va har qanday fikr yuritishning asosi ekanligini alohida ko'rsatib o'tgan edilar.

O'qituvchi bilish qiyinchiligini vujudga keltirish uchun tasnif qilish, umumlashtirish kabi usullardan ham foydalanadi. HULLAS, o'qituvchi muammoli vaziyat yaratish mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib boradi.

Muammoli vaziyat yaratishda o'qish materialining murakkablik darajasini va o'quvchilarning harakterini hisobga olish nihoyatda zarur. CHunki, o'qituvchi o'qish materialining murakkablik darajasidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratishning usulini tanlaydi. Oldindan o'quvchilarga ma'lum darajada tanish bo'lgan o'qish materiallarga o'tishda ko'proq kuzatish taqqoslash kabi usullardan foydalanishga to'g'ri kelsa, tamoman o'quvchilarga

notanish bo'lgan mavzularni o'tishda muammoli savolni qo'yib, darslikdan javob izlash o'qituvchi bilan baravar harakat qilib, muammoni echish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning bilish saviyasi va mustaqil ishlash darajasini hisobga olishga to'g'ri keladi. O'quvchilarning bilish saviyasi muammoli o'quv-topshiriqlarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Bilim darajasi bo'sh, mustaqillik qobiliyati ham etarli shakllanmagan o'quvchi, shubxasiz, muammoli vaziyatda faollik ko'rsata olmaydi. "O'zlashtirish darajasi quyi bo'lgan sinflarda o'qituvchi ko'proq tushuntirish-namoyish etish va reproduktiv metodlarga zo'r bersa, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan sinflarda muammoli ta'lim imkoniyatlarini ishga solib, ko'proq o'quvchilarning ijodiy faoliyatini vujudga keltiradi. Sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga qarab, o'quvchi kayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlardan foydalanadi"<sup>22</sup>.

## BOLALAR ADABIYOTINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

M.O.Abdullayeva Baliqchi tumani

13-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Ungacha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida. jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlaru tavsiya qilingan.*

***Kalit sozlar:** bolalar folklori, mumtoz davr bolalar adabiyoti, alla, maqol, topishmoq, tez aytish, ertaklar.*

"Bolalar adabiyoti" deganda, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma'lumot beradigan sho'x va o'ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham shoir-u nosiriarimiz hazilkash. sho'x, o'yinqaroq, topqir bolakaylar haqida hazil-huzulga boy yumoristik she'r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar: nabotot va hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar: parranda, darrandalarni misol qilib. ibratomuz ertag-u masallar yozadilar: Vatan — kindik qoni to'kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ota-onalar hurmatini sharaflash ruhidagi she'r-u dostonlar yaratadilar; bolalarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlovchi — maktab, kitob va boshqa turli o'quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo. Albatta, bu mavzularning har biri ham umrboqiyliigi va bolalar adabiyotida doimo sezilarli mavqe kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Biroq ..Ana shu haqiqatlarni har bir aviod qanday qayta kashf qilyapti va bu kashfiyotlarning badiiyat darajasi qanday.'" degan savol doimo oldimizda ko'ndalang turishi ham. shu boisdan, tabiiydir.

Bolalar adabiyoti, nazarimizda, hayotning o'zi qadar qadimiy bo'lib, onaning birinchi bolasiga aytgan ilk allasidan boshlanib, xalq og'zaki ijodida bolalarning tili burro bo'lishiga yo'naltirilgan tez aytishlar, fikrini, zehnini charxiashga yo'naltirilgan topishmoqlar, o'yin qo'shiqlaridan masallar-u enaklargacha bo'lgan qanchadan qancha aynan bolalarga mo'ljallangan janrlar tarzida namoyon bo'ladi. Aslida esa ularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamoloti manfaatlariga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotimizda ham. garchand, bizning bugungi "bolalar adabiyoti" tushunchamizga u qadar mos kelmasa-da, farzand ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan "pandnoma" janrining ko'plab namunolari azal-azaldan mavjud. Zero, bola bor ekan, uning komil inson bo'lib yetishuviga xizmat qiladigan adabiyot ham bo'lmog'i aniq.

Bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib. ular. dastavval, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa

---

<sup>22</sup> Фуломов А. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. Тошкент, 1987. 86 бек



ijodkordan ulkan mahoratni talab qiladi va, shu boisdan ham, barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Ungacha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida. jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlar tavsiya qilingan.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi.

Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek bolalar adabiyotida ham uning ilk namunalari folklor asarlari tarzida yuzaga kelgan. Allalar, qo'shiqlar, ovutmacholqlar, erkalatmalar, sanamalar hali go'dakligidanoq bolalar qulog'iga quyib boriladi. Keyinchalik ular ertaklar, topishmoqlar, maqol va masallar, dostonlar tarzida bevosita bolalarning o'zlari tomonidan mutolaa qilinadi.

Bolalar adabiyotining ijodiy qonuniyati kattalar adabiyoti qonuniyatlaridan deyarli farq qilmaydi. Asosiy farq asarlarining kitobxonlarning yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanishidadir. Ayni shu jihatdan kichikintoylar adabiyoti kattalar adabiyotidan alohida ajralib turadi.

O'zbek bolalar adabiyoti san'at sifatida insoniyat tarixi bilan tenglashsa-da, fan sifatidagi taraqqiyoti va shakllanish tarixi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bugungi bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi. (1977).
2. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – T.: «Fan», 2004.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – T.: O'qituvchi, 2006.

### **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLARDAN FOYDALANISH**

**B.Zaynobidinova – Andijon viloyati Asaka tumanidagi  
54-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustahkamlovchi mashqlardan foydalanish xususida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida foydalaniladigan mustahkamlovchi mashqlarning o'quvchilar tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.*

*Kalit so'zlar: mashq, grammatik mashqlar, mashq turlari.*

Mashqlar eng qadimiy o'qitish usuli hisoblanadi. U inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Y.A.Komenskiy "Pansofiya maktabi" nomli asarida mashqning ahamiyatini uqtirib, mashqning insonni mohir, epchil, barcha narsadan xabardor, hamma sohaga qiziquvchan kishi qilib etishtirishini, o'quvchilarning barcha sinflarda o'qish va yozish, takrorlash va fikrlashuv, to'g'ri (ona tilidan chet tiliga) va teskari (chet tilidan ona tiliga) tarjima, deklamatsiya (badiiy asarni ta'sirchan o'qish) va disput (ilmiy muhobasa, o'z qarashlarini himoya qilish) amaliyotida mashq qilishni ta'kidlagan edi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da mashq atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

1. Mashq o'rganish, malaka hosil qilish uchun qilinadigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti.
2. Malaka oshirish mashg'ulotlari uchun belgilangan vazifa. {1} O'quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantiruvchi, mustaqil ishlatishga o'rgatuvchi didaktik vositalardan biri – darslikdagi mashqlardir. Biz qanday ta'lim berganimizning natijasi ana shu amaliy ko'nikma orqali o'lchanadi. Mashq bajarish katta amaliy ahamiyatga ega, chunki bu jarayonda o'quvchilar mashq talabiga javob berish uchun o'z bilimlarini xotirada tiklaydilar, mustaqil fikr yuritadilar,

ijodiy izlanadilar, o'qituvchi ko'rsatmalari va yo'l-yo'riqlari asosida mashqda berilgan namunaga qarab faoliyat olib boradilar.

O'quvchilar tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida berilgan mashqlar ham grammatik, ham ijodiy xarakterdaligi bilan ularning qiziqishini, faolligini oshiradi.

“Ta’limiy mashqlarni murakkablashtirib borish bolalarning o‘zbek tiliga qiziqishlarini oshiradi. Mashq bajarishga bo‘lgan qiziqishini tarbiyalash, bir tomondan, o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, darslik va unda berilgan ta’limiy mashqlarning ilmiy-metodik saviyasiga bog‘liq”. {2} Har bir mashq o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatar ekan, u o‘z qarashi, munosabatiga ega bo‘lib boradi. Ona tilidan berilgan mashqlar orqali o‘quvchi o‘z dunyoqarashiga, o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘qituvchilarimiz shuni unutmaslik kerakki, darslikdan foydalanishda o‘quvchini o‘z holiga qo‘ymaslik kerak. Bunda, albatta, ustozda yo‘naltirish qobiliyati bo‘lishi, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi hukmron bo‘lishi kerak.

Darslikdagi mashqlarni quyidagi bir qancha guruhlarga bo‘lish mumkin: mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan mashqlar, grammatik o‘yin-topshiriqli mashqlar, ma’naviy-ma’rifiy bilim beradigan mantiqiy fikrlashga asoslanadigan mashqlar.

Har bir darsda mashqlarni mumkin qadar ko‘proq miqdorda bajarishga emas, balki ularni aynan ongli tanlashga o‘tish muhimroqdir. Chunki mashqlar miqdoriga berilish mustaqil ishlashni yuzaki qilib qo‘yadi, o‘quv materialini egallash sifatini oshirmaydi, balki uning pasayishiga olib keladi. 3-sinf “Ona tili “ darsligida “Ot – so‘z turkumi” mavzusiga doir 55 ta mashq berilgan bo‘lib, shulardan 47 tasi yozma, 8 tasi og‘zaki ravishda bajarilishi shartlarda yozib qo‘yilgan. Mashqlarga murojaat qilamiz.

182-mashq. O‘qing. Avval shaxs, narsani, keyin belgini, so‘ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so‘zlarni namunada ko‘rsatilgandek yozing. Ularga so‘roq bering.

1. Shaxs va narsani bildirgan so‘zlar: qish, qor, chana, bola, qorbobo.
2. Belgini bildirgan so‘zlar: oq, sovuq, keng, baland, katta.
3. Sanoqni bildirgan so‘zlar: ikki, uch-to‘rtta.
4. Harakatni bildirgan so‘zlar: yog‘yapti, uchayotir, yasashyapti.

Shu mashqni o‘quvchilarga musobaqa tarzida bajartirish ham mumkin. Buning uchun sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi tomonidan tarqatma varaqaga so‘zlar yoziladi va guruhlarga tarqatiladi. Tarqatma varaqadagi so‘zlar bir xil bo‘lishi ham mumkin yoki bitta guruhga nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar, ikkinchi guruhga harakatni bildirgan so‘zlar yozilib tarqatiladi. O‘quvchilar shu so‘zlar asosida yangi gaplar tuzib, o‘zlari tuzgan gaplarini o‘qiydilar.

192-mashq. O‘qing. Har bir so‘zga so‘roq bering. Ularning qaysi so‘z turkumiga oid ekanini ayting.

Soatsoz, yomg‘ir, odam, avtobus, bo‘ron, bola, shamol, mashinachi...

So‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

1. Shaxslarni bildiruvchi otlar: odam, ...
2. Kishilarning kasbini bildiruvchi otlar: soatsoz, ...
3. Transport vositalarini bildiruvchi otlar: avtobus, ...
4. Tabiat hodisalarini bildiruvchi otlar: yomg‘ir, ...
5. O‘quv qurollarini bildiruvchi otlar: chizg‘ich, ...

Mashqlarni bu tarzda o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarda narsa va shaxslarni farqlash, ajratish va xotirada saqlab qolishni rivojlantirishdir.

Xulosa shuki, hozirgi kun pedagogikasi o‘qituvchidan izlanuvchanlikni, o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Chunki o‘quvchilar faolligini oshirish o‘qituvchining darsni qanday tashkil qilishiga, o‘quvchilarni qanchalik qiziqitira olishiga bog‘liq. Yuqoridagilarni bajartirish uchun esa o‘qituvchilardan ona tili o‘qitishning xilma-xil usullari va vositalarini izlab topishlari, tinimsiz izlanishlari, xullas, o‘quvchilarda ishtiyoq uyg‘otishlari talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'aniyev T. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida ta'limiy mashq bajarish davomida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. Respublika ilmiy va amaliy anjumani materiallari. Andijon, 2012, 162-bet.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., "Rus tili", 1981.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva SH. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. T.: O'qituvchi", 2017.

### **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**M.M. Islomova Buloqboshi tumani  
27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, nutq madaniyati, til, so'z.*

O'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy xususiyatlaridan biri bu – tildir. Til inson hayotida oddiy bir tus olgan bo'lishiga qaramay, uning qanchalik muhim ekanligi hammaga ma'lum. Insonni inson qilgan, ilmu fan va madaniyatni rivojlantiradigan hamda dunyoni obod qilgan mana shu tildir. Aql hamda til tufayli inson eng yetuk oqillik va donolikka erishadi. Til vositasida bilim va hunar o'rganiladi, tarbiyalanadi. Bilim va hunarni avloddan avlodga til tufayli topshirib boradilar. “ Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo'lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo'q. Xalqsiz esa til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir, ularni ayirib qo'yilsa, ikkinchisi ham o'zligini yo'qotadi. Bir xalq boshqa bir xalqqa qoshilib ketadi, uning tili o'lik tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytishni lozim ko'ramizki, birgina tilimizni so'zi misolida ham tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini yaqqol ko'rish mumkin.

O'quvchidagi nutq madaniyatining asosini nutq faoliyati tashkil etadi. Chunki nutq faoliyati o'quvchining dunyoga bo'lgan munosabati, o'ziga xos xususiyatlari, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o'zgarishlar, kuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Nutq faoliyatining asosiy ish turi nutq bo'lib, u bolaning ma'naviy rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi. Nutq o'quvchining muloqot, o'qish faoliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishi, aqliy kamoloti ro'yobga chiqadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirish ishi ona tiliga o'rgatishdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bolalar ona tili darsida ongli o'qishni, to'g'ri va chiroyli yozishni, fikrni og'zaki va yozma erkin bayon qilishni o'rganadilar, tevarak-atrofdagi hayot, tabiat hamda kishilar mehnati haqida bilim oladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, nutq tasavvurlarini to'g'ri talaffuz qilish, lug'at boyligini oshirish, o'rganilgan so'zlarni nutqda o'rinli ishlatish, gapini to'g'ri tuza olish ko'nikmalari birinchi navbatda va, asosan, ona tili darslarida hosil qilinadi.

Nutq o'stirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) o'quvchilarni savolga “ha” yoki “yo'q” deb emas, balki to'la javob berishga o'rgatish;
- 2) ularda darak, so'roq, undov intonatsiyalarga rioya qilish malakasini tarbiyalash;
- 3) o'quvchi nutqidagi kamhiliklarni tuzatishda pedagogik taktika qo'llash;
- 4) namunali nutqni o'quvchilarga eshittirish.

O'quvchi nutqini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Bolalarning tasavvuri va nutqining qay holdaligini aniqlash:
  - a) so'z boyligi;
  - b) savollarga javob berish;
  - v) o'z uyidagi hayoti, o'yinlari, mehnat haqida gapirishi;
2. Bolalarga gap va so'zlarni aniq, tushunarli va o'rtacha ovoz bilan talaffuz etishni mashq qildirish. (gapni so'zlariga, so'zni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga bo'ldirish.)

3. “Tulki bilan turna”, “Sholg’om” va “Bog’irsoq” kabi ertaklarini so’zlatish.
4. Lug’at ishi:
  - a) bolalarning so’z boyligini aniqlash va kengaytirish;
  - b) buyumlarni uydagi va sinfdagi buyumlar; o’yinchoq va o’quv qurollari; sabzavotlar deb turlarga ajratish;
  - v) narsalarning rangi va shakli bilan tanishtirish;
  - g) kuzatish va ekskursiya jarayonida o’quvchilar lug’at boyligini kengaytirish;
  - d) she’r, topishmoq, ertaklar aytirish jarayonida o’quvchilar lug’atini aniqlash va boyitish;
  - e) bolalarga tanaffus vaqtlarida uyushtiriladigan o’yin nomlarini aytirish; o’yin davomida qo’llaniladigan “yaqin-uzoq”, “erta-kech”, “yuqori-past” va boshqa so’zlarning o’z nutqida aniq qo’llashlarga erishish;
  - j) yozuv va hisoblash jarayonida bolalarning lug’at boyligini oshirish.

5. Bolalarni gap tuzishga o’rgatish:

- a) ertak yoki she’r o’qiganda undan gaplarni ongli ravishda ajratib berish;
- b) savollarga to’la gap bilan javob berish;
- v) rasmlar yordamida va shaxsiy kuzatishlar asosida gap tuzish.

Bolaning o’z nutqida sheva ta’siriga berilish – berilmasligi, avvalo, oilaga bog’liqdir. Bola oiladagi kishilarning shevachilik elementlari ko’p bo’lgan nutqiga taqlid etib, so’zlarni buzib talaffuz etadi. O’qituvchi bu masalada ota – onalar bilan suhbat va leksiyalar o’tkazib, bolani sof adabiy tilda so’zlashga o’rgatish lozimligini ular ongiga singdirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Yusupov M. O’qish va yozuv darslarining samaradorligini oshirish. Toshkent. “O’qituvchi”, 1990.
2. O’rinova F. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish. Toshkent. “O’qituvchi”, 2009.

## **BOSHLANG’ICH SINIF O’QISH DARSLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI**

**Z. Shonazarova – Asaka tumanidagi  
45-umumta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi**

*Maqolada boshlang’ich sinf o’qish darslarida ta’lim-tarbiya masalalari xususida fikr yuritilgan, o’quvchilarda insoniy fazilatlarini shakllantirish omillari haqidagi mulohazalar ifodalangan.*

*Kalit so’zlar: sinfda o’qish darslari, ta’lim-tarbiya masalalari, xalq pedagogikasi, sinfdan tashqari o’qish.*

Sinfda o’qish darslaridagi ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar kompleks, ya’ni yaxlit ravishda hal qilinadi, bolalarning atrofini o’rab turgan muhit haqidagi, Vatanimizning o’tmishi, buguni va kelajagi haqidagi bilimlari kengayadi, ijobiy fazilatlarini, axloqiy sifatlari shakllanadi, ular har tomonlama: ham aqliy, ham ilmiy, ham axloqiy, ham estetik tomondan kamol topadilar, mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar. “O’qish kitobi”ga kiritilgan rang-barang mavzudagi matnlar esa fikrimizning yorqin dalilidir. “O’qish kitobi”ning mazmuni va metodik materiallari – matnni tahlil qilish uchun topshiriq va savollar, mustaqil ishlar sistemasi va boshqalar — o’zaro bog’liq holda beriladi. Ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni birgalikda amalga oshirish uchun o’qish darslarida matnni o’qishgina emas, balki matn ustida qanday ishlash kerakligi ham muhimdir.

O’qish darslarida ta’lim-tarbiya masalalari vazifalari o’quvchilarga bilim va ko’nikmalarning ma’lum kompleksini egallatishni ularda inson uchun zarur bo’lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish bilan bog’liq holda amalga oshiriladi.

Insonning o’zi tug’ilgan va voyaga yetgan ona-Yerini sevishi, uning obodligi uchun ter to’kib, mehnat qilishi va xalqiga rizq ulashishi ham odob-axloq me’yorlarining bir ko’rinishidir. Chunki yurtning obod qilish, ona-Zaminni obod qilish, halol mehnat qilish, yashash-yaratish ishq bilan yashash ham insoniylikning muhim shartlaridandir.

“O‘qish kitobi”ga kiritilgan asarlar mavzularida odob-axloq masalalari o‘quvchilar sinfdan sinfga o‘tishi bilan tobora chuqurlashtirib boriladi. “Odob ilmi – Vatan tuyg‘usi, salom berish odobi, oilada milliy urf-odat va ularga rioya qilish demakdir. Xalq pedagogikasi, ota-onalar nasihatlari, xalq og‘zaki ijodiyoti materiallari bo‘lmish doston, ertak, rivoyat hamda buyuk shaxslar hayoti, ijodidan namunalar keltirish va ular o‘gitlarini o‘rganish orqali murg‘ak qalbni tarbiyalashdir”{1}. O‘qituvchi esa odob ilmini aynan o‘qish darslarida bolalarga singdiradilar. Demak, odob-axloq ilmi farzandlarimizda o‘z yurtini sevish, insof, adolat, iymon-e‘tiqod, vijdon va mehr-muhabbat hislarini tarbiyalashga qaratilganidir.

“O‘qish kitobi”ga kiritilgan asarlarning aksariyati inson va bahor, ko‘klam mavzusida berilgan. Bahor, Navro‘z, ko‘klam mavzusi, uning inson kamolotidagi o‘rni va roli, yashash va yaratish madaniyatiga amal qilish esa har bir o‘quvchining, qolaversa, hammaning burchi ekanligi har bir badiiy asarning mazmunini belgilaydi. O‘quvchilarda “Bahor va Ko‘klam” tushunchasi insonning tabiatga samimiy munosabati, tabiatni sevishi, Ona-Zamin dardiga quloq tutish, Yerdan oqilona foydalanish, xalqning urf-odatlarini qadrlash, hayotda bironing og‘irini yengil qilish, ko‘mak berish, qo‘ni-qo‘shni, mahalladoshlar bilan do‘stlarcha yashash, ayniqsa, Navro‘zda gina-kuduratlariga o‘rin qo‘ymaslik, odamlar tashvishi bilan yashash, rostgo‘ylik, saxiylik kabi fazilatlarni bilish bilan shakllanib, rivojlanib boradi. Shunday qilib, bu tushuncha bolalarning qabul qilishi va umumlashtira olishi uchun muvofiq bo‘lgan aniq manbalar – badiiy asarlar orqali singdiriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning bahor bu – tuyg‘ular sofligidangina iborat emas, balki bu tushuncha barcha insoniy fazilatlar, jamiki ezguliklar, yaxshiliklarning asosi ekanligini tushunishlariga yordam beradi va erishadi.

Sinfdan o‘qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy vazifasini bir jarayonga birlashtirishning sharti badiiy asar yoki ilmiy-ommabop maqolani idrok etish va tahlil qilish davomida o‘quvchilarni asarning ijtimoiy mohiyatini baholay olishga o‘rgatish yuzasidan o‘qituvchining ko‘rsatma berishi hisoblanadi.

O‘qituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola o‘zi oladigan bilim, unda shakllanadigan his-tuyg‘u hayotda zarur va ahamiyatli ekanini tushunib yetsin. Bu o‘rinda o‘qish darslari alohida o‘rin tutadi:

Sinfdan o‘qish darslarining vazifalari: {2}

– O‘qish malakasini takomillashtirish. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

– Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘onishi, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilim olishga o‘rganishi, ya’ni kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.

– O‘quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

– O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

– O‘quvchilar nutqi (asosan, og‘zaki nutqi)ni va tafakkurini o‘stirish.

– Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Har bir vazifani bajarishning aniq yo‘li mavjud, ammo bir vazifa boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘qish darslari va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar). T.: 2017. 16-bet.
2. Qosimova K va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T.: “Noshir”, 2009.

### **ONA TILI DARSLARIDA BO‘G‘IN KO‘CHIRISH QOIDASI USTIDA ISHLASHDA TA‘LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH**

**M.Ahmedova – Andijon shahridagi  
50-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

*Maqolada boshlang'ich sinfona tili darslarida bo'g'in ko'chirish qoidasi ustida ishlashda ta'limiy o'yinlardan foydalanish xususida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida foydalaniladigan ta'limiy o'yinlarning o'quvchilar tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.*

*Kalit so'zlar: ta'limiy o'yin mashqlari, tarqatma varaqalar, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish o'yin jarayoni, o'quvchi psixologiyasi.*

Ona tili darsi tom ma'noda ijodiy izlanuvchan shaxsni tarbiyalash darsidir. Darsliklardagi har bir mashq o'quvchini ijodiy izlanishga, fikrlashga, til hodisalarini taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish hamda hukm va xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida kompyuterlar yordamida ko'plab mashg'ulotlar, multiplikatsiya orqali harakatlar, chizmalar, formulalar namoyish qilinadigan bo'ldi. Zamonaviy texnik vositalarni dars jarayonida keng qo'llash o'tilgan darslarning sifatini yanada oshirish imkonini beradi. O'qitish bu murakkab jarayon bo'lib, o'z ichiga, avvalo, o'qituvchi va o'quvchining uzviy faoliyatini oladi. O'qituvchi dars jarayonida qancha harakat qilmasin, agar o'quvchilar darsda faol ishtirok etmasalar, o'zlashtirish past bo'ladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'qitilayotgan fan bo'yicha nafaqat ilmiy axborotlarni, yangi bilimlarni ham beradi. Balki u o'quv jarayonini rivojlantirib, boshqarib borish bilan birga, dars mobaynida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini tekshirib, nazorat qilib boradi va o'qish davomidagi mehnat qilish ko'nikmasini, fikrlash qobiliyatini, olgan bilimlarini amalda qo'llash malakasiga o'rgatadi.

Ta'lim mazmunan murakkab, shaklan rang-barangdir. U o'z ichiga nafaqat bilimlar va ko'nikmalarni oladi, balki tanqidiy fikr qilish, yuqori darajada tarixiy va ro'y berayotgan voqealarga baho berish va olgan bilimlarini amalda izchillik bilan qo'llay olishni ham o'rganadi. Dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchining uzluksiz mehnat tarzida o'tsa, o'quvchining fikr qilish qobiliyati, nutqi, savol-javob berish mahorati o'sadi. Oxir-oqibatda, unng ilmiy-amaliy salohiyati shakllanib, rivojlanib boradi, o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Ta'limiy o'yin mashqlari ma'lum talab (shart) asosida berilib, mavzu yuzasidan o'quvchini amaliy faoliyatga yo'naltira oladigan ta'limiy material hisoblanadi. Ular har bir mavzu doirasida shu mavzuni ongli o'zlashtirish, mavzu yuzasidan o'qituvchining olgan bilimini mustahkamlash va sistemaga solish, og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish maqsadida beriladi.

Darslarda ta'limiy o'yinlar o'ynatish muhim ahamiyatga ega. Ya'ni darsda qo'llaniladigan ta'limiy o'yin, bir tomondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sho'xligiga mos kelsa, ikkinchi tomondan, ba'zi bolalardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi jihatlarini bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yinlarning yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, sinfda inoqlik, yaxshi kayfiyat, shiddat hukm suradi. O'quvchilar bir-birlariga yordam berishga intiladilar, sinf jamoasining jipsligi yanada mustahkamlanadi.

Dars jarayonida tarqatma varaqalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Tarqatma varaqalarni ham bolalarning bilim darajasini hisobga olib tayyorlash muhimdir. Ya'ni bilimi pastroq, o'zlashtirishga qiynaladigan o'quvchilarga soddaroq topshiriqli tarqatma varaqalarni, bilimli, zehni o'tkir o'quvchilarga murakkabroq topshiriqli tarqatma varaqalarni berish lozim. Bu esa o'quvchilarni yangi bilim olishga undaydi. Agarda har kungi berilgan tarqatma varaqalardagi savollarga yoki topshiriqlarga javob bera olmasa, o'quvchining o'qishga nisbatan qiziqishi sustlashadi.

Ta'limiy o'yinlar nafaqat o'quvchilarning bilimini tekshirishda, balki ularni darsga qiziqtirish uchun ham qo'llanadi. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O'yinlar mavzuga mos bo'lishi va o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi kerak.

**“So'zda nechta bo'g'in bor?” o'yini**

Bu o'yin ikki xil variantda o'tkazilishi mumkin:

1-variant – raqamlar yozilgan varaqani ko‘tarish. O‘qituvchi so‘zni aytadi, so‘zda nechta bo‘g‘in bo‘lsa, o‘quvchilar o‘sha raqam yozilgan varaqani baland ko‘taradilar. Adashgan o‘quvchi she'r yoki qo‘shiq aytib “jarima” to‘laydi.

2-variant – doskaga yozish. Oldingi qatordagi partaga turli raqamlar yozilgan varaqalar teskari qilib qo‘yiladi. O‘quvchilar 5-6 kishilik guruhlariga bo‘linib, birin-ketin varaqalarni olishib, unda ko‘rsatilgan raqam bo‘yicha shuncha bo‘g‘inli so‘zni doskaga yozib boradilar.

Masalan: 2 – daf -tar, 1 – non, 3 – ma -shi -na, 4 – tip -ra -ti -kan,...

Yuqoridagi o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi o‘quvchilar ishtirokiga jiddiy e‘tibor berishi lozim. Qaysi o‘quvchi o‘yin jarayonida ko‘p adashsa, u mavzuni yaxshi o‘zlashtira olmagan bo‘ladi. O‘qituvchi bu o‘quvchilarni aniqlab olganidan so‘ng o‘sha o‘quvchilar bilan yakkama-yakka shug‘ullanishi lozim. Bu o‘yinni ochiq va yopiq bo‘g‘inlar asosida o‘tkazish ham mumkin. M: da-la yoki os-mon.

#### **“Tutuq belgisini to‘g‘ri qo‘y” o‘yini**

Bu o‘yin musobaqa tarzida o‘tkazilishi mumkin. Parta qatorlariga qarab o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga tutuq belgisini qo‘yish kerak bo‘lgan yoki mumkin bo‘lgan so‘zlar yozilgan tarqatma varaqalar tarqatiladi. Tarqatma varaqadagi so‘zlarning hammasi ham bir xil bo‘lishi shart emas. O‘quvchilar o‘z varaqasidagi so‘zlarga tutuq belgisini qo‘ygan holda so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, doskaga yozadilar. So‘zlar taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Ju ... r ... at (jur’ - at), su ... r ... at (sur’ - at), ma ... n ... o (ma’ - no), sa ... v ... a (sa’ - va), ta ... n ... a (ta’ - na), da ... v ... o (da’ - vo), sh ... e ... r (she’r),...

Bunday o‘yinlar o‘quvchilarni imloviy hushyorlikka undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo‘l polygraph service”, 2010. 16-bet.
2. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlar. Andijon, 2006.

### **ЎҚУВЧИЛАРНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДА МАСАЛАЛАР ЕЧИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

**М.М. Мамадалиева Асака туман**

**57-умумтаълим мактаби математика фани ўқитувчиси**

***Аннотаци:** Ушбу мақолада геометрик материални ўрганишда ҳар хил усулларда масалалар ечишнинг аҳамияти муайян масалалар ёрдамида очиб берилган.*

***Калит сўзлар:** учбурчак, учбурчак периметри, тенг томонли учбурчак, тенг ёнли учбурчак.*

Математика дарсларида масалалар ўтилган мавзуларни мустаҳкамлаш ва ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш мақсадида ечилади. Бу мақсадни амалга оширишда масала танлашга алоҳида эътибор қаратиш керак.

Масалан: Учбурчаклар ва уларнинг турлари мавзуси ўтилгандан сўнг қуйидаги типдаги масалалар ечиш мақсадга мувофиқ бўлади.

1-масала. Учбурчакнинг периметри 21см унинг бир томони иккинчи томонидан 2 марта қисқа учинчи томони биринчи томонидан 5 см узун. Бу учбурчакнинг томонларининг узунликларини аниқланг.

2-масала. Учбурчакнинг 21 см унинг бир томони иккинчи томонидан 3 марта қисқа учинчи томони биринчи томонидан 6 см узун. Учбурчакнинг томонларининг узунликларини топинг.


3-масала. Учбурчакнинг бир томони иккинчи томонидан 2 марта узун учунчи томони эса иккинчи томонидан 1 см қисқа. Учбурчакнинг периметри 19 см бўлса, учбурчакнинг томонларининг узунликларини топинг.

Агар бу масалаларни ҳар хил усулларда ечилиб ўқувчилар ўқитувчи томонидан берилган қуйидаги:

-масала нечта ечимга эга;  
 -масала ягона ечимга эгами;  
 -масала ечимида ҳосил бўлган учбурчак томонларига кўра қандай учбурчак бўлади;  
 -масала шартида берилган учбурчакнинг периметри қандай сон бўлса, масала ечимга эга бўлмайди, каби саволларга тўлиқ жавоб берилса, шундагина дарс самарадорлиги юқори бўлади.

Юқоридаги 1-масалани ечиш усуллари келтириб ўтамиз.

Ечиш: 1-усул.



$$P=21$$

$$1\text{-томони } x=4$$

$$2\text{-томони } 2x=8$$


$$3\text{-томони } x+5=9.$$

Масала шартига кўра қуйидаги тенгламага эга бўламиз.  $x+2x+x+5=21$ ,  $4x+5=21$ ,  $4x=21-5$ ,  $4x=16$ ,  $x=4$ .  $P=4+8+9=21$ .

Ҳосил бўлган ечимни атрофлича таҳлил қилиб ўқувчиларга қуйидаги саволларни берамиз. Агар  $x$  орқали учбурчакнинг иккинчи томонини белгиланса масала қандай ечилади.

Бу саволга ўқувчилар масалани қуйидагича ечиш орқали жавоб беришлари керак.

2-усул.



$$P=21$$

$$2\text{-томони } x=8$$

$$1\text{-томони } \frac{x}{2} = 4$$

$$3\text{-томони } \frac{x}{2} + 5 = 9.$$

Бундан қуйидаги тенгламага эга бўламиз.

$$x + \frac{x}{2} + \frac{x}{2} + 5 = 21$$


$$4x=42-10$$

$$4x=32$$

$$x=8. P=8+4+9=21.$$

Агар учбурчакнинг учинчи томони  $x$  билан белгилаш киритсак, у ҳолда масала қандай ечилади.

Бу саволдан сўнг ўқувчилар қуйидагича ечишлари керак.



$$P=21.$$

$$3\text{-томони } x$$

$$1\text{-томони } x-5$$



2-томони  $(x-5) \cdot 2$ .

Ўқувчилар учинчи томонини  $x$  билан белгиланса иккинчи томонини аниқлашда кийинчиликларга дуч келишимиз мумкин.

Агар ўқувчилар иккинчи томонни аниқлай олмаса ўқитувчи савол жавоб ёрдамида ўқувчиларга кўмаклашади шундан сўнг қуйидаги тенглама ҳосил бўлади.

$$x+(x-5)+2 \cdot (x-5)=21$$

$$x+x-5+2x-10=21$$

$$4x=21+15$$

$$4x=36, x=9.$$

Бундан учунчи томон 9 га, биринчи томон  $x-5=4$  га, иккинчи томон  $(x-5) \cdot 2 = (9-5) \cdot 2 = 8$  тенглиги келиб чиқади.  $P=9+4+8=21$ .

Ўқитувчи томондан ўқувчиларга қуйидаги саволлар берилади.

1-савол. Юқорида кўрилган масала ечиш усулларининг энг қулайи қайсиниси.

Жавоб: Бу саволга ўқувчилар масалани ечиш усулларини яхши тушунишган бўлса, иккинчи усул деб жавоб беришади.

2-савол. Масала ечимида аниқланган учбурчак, учбурчак томонларига кўра қандай учбурчак турига киришини аниқланг.

Жавоб: Турли томонли учбурчак.

3-савол. Бу учбурчак учбурчакнинг бурчакларига кўра қандай учбурчак турларига киради.

Бу саволга тўғри жавоб бериши учун қуйидаги теоремадан фойдаланиш кераклиги ўқитувчи томондан эслатиб ўтилади.

**Теорема:** Агар учбурчак катта томонининг квадрати қолган томонлари квадратлари йиғиндисидан кичик бўлса, бу учбурчак ўткир бурчакли учбурчак бўлади.

**Теорема:** Агар учбурчак катта томонининг квадрати қолган томонлари квадратлари йиғиндисидан катта бўлса, бу учбурчак ўтмас бурчакли учбурчак бўлади.

Бу теоремадан фойдаланиб ўқувчилар масала ечимида ҳосил бўлган учбурчак ўтмас бурчакли учбурчак эканлигини аниқлашади:

$$4^2 + 8^2 \text{ ва } 9^2$$

$$16 + 64 \text{ ва } 81$$

$$80 < 81 .$$

Демак, катта томон квадрати кичик томонлари квадратларини йиғиндисидан катта, бундан учбурчак ўтмас бурчакли учбурчак эканлиги маълум бўлади.

Юқорида келтирилган масалаларнинг қолган иккитасини ўқувчиларга мустақил ечишлари учун уйга вазифа тарикасида бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

Учбурчак ва унинг хоссаларини ўрганиш учун мумкин қадар кўпроқ масалалар ечишга ҳаракат қилмасдан, масалаларни ҳар хил усулларда ечишга ҳаракат қилиш самарали натижа беради.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзаахмедов М.А. Алгебрадан масалалар ва тестлар тўплами. Тошкент.: Гофур Ғулум, 2017.-176б.

2. Мирзаахмедов М.А., Исмаилов Ш.Н. Математикадан қизиқарли ва олимпиада масалалари. Ўқув қўлланма.-Тошкент.: Турон-иқбол, 2017.-128б.

## BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

M.Y.Otaxonova, M.M. Umarova,

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani

21-maktab boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga alohida diqqat qilinadi. Har bir shaxs nutqining o‘ziga xos mustaqilligi, betakrorligi saqlanmog‘i lozimligi yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** *Bolalar nutqi, nutq madaniyati, ogʻzaki nutq, faol lugʻat, nutqning toʻgʻriligi.*

Nutq faqatgina tilga bogʻliq sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda oʻquvchi va kitobxoniga koʻzda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi boʻlgan muddaoning toʻliq borib yetishi, ularga maʼlum taʼsir oʻtkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarni amalga oshirishda nutq oldiga ayrim talablar qoʻyiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning toʻgʻri boʻlishini, soʻzlar koʻzlangan maʼnoni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va taʼsirchan boʻlishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida eʼtibor berib kelingan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini oʻzida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Sitseronning fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab oʻtirishning ham hojati yoʻq. Ammo notiq tinglovchilarni oʻziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador boʻlishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan.

Boshlangʻich taʼlimda nutq madaniyatini oʻrganishning asosiy omili ona tili va oʻqish darslarida beriluvchi taʼlimdir. Nutq madaniyatini tarbiyalashda oʻqitish (pedagogik taʼlim) asosiy omildir. Shu sababli maktab taʼlimida, ayniqsa, ona tili va oʻqish darslarida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirishga alohida diqqat qilinadi. Har bir shaxs nutqining oʻziga xos mustaqilligi, betakrorligi saqlanmogʻi lozim.

Nutq madaniyatini egallash — bu ongli ravishda intilish va tinimsiz mehnatdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda nutqning quyidagi asosiy xususiyatlariga amal qilish lozim:

1) Nutqning toʻgʻriligi. Nutqning toʻgʻri boʻlishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning toʻgʻri tuzilgan boʻlishi oʻqituvchi va oʻquvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini taʼminlaydi. Agar nutq toʻgʻri boʻlmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham boʻlmaydi. Demak, nutqning toʻgʻri boʻlishi dastlab uning adabiy til meʼyorlariga muvofiq kelishi boʻlib hisoblanadi.

Nutqning toʻgʻri boʻlishi asosan ikki meʼyorga — urgʻu va grammatik meʼyorga amal qilishni taqozo etadi. Nutq jarayonida maʼnoni toʻgʻri anglatish uchun soʻzdagi boʻgʻin, gapdagi soʻz urgʻusining toʻgʻri ishlatishiga eʼtibor qilishimiz lozim boʻladi.

2) Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biridir. Agar toʻgʻrilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida boʻlgan omillarni ham nazarda tutish lozim boʻladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va hodisalar oʻrtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi oʻzidir. Aniqlik — bu soʻzning oʻzi ifodalayotgan voqelikka mos va muvofiq kelishidir.

3) Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlari — toʻgʻrilik va aniqlik bilan chambarchas bogʻlangandir. Chunki grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi oʻqituvchi va oʻquvchiga ifodalanayotgan fikrning toʻliq borib yetmasligiga, baʼzan umuman anglashilmasligiga sabab boʻlishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi eʼtiborsizlik oqibatida baʼzan mantiqsizlik ham yuz beradi. Mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil boʻlgan, har bir soʻz, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunish zarur.

4) Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til meʼyorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi oʻzbek adabiy tiliga, uning talablariga mos holda shakllangan boʻlishi, turli gʻayriadabiy va gʻayriaxloqiy til elementlaridan holi boʻlishi kerak. Chunki u boy maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarga ega boʻlgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda boʻlayotgan oʻzbek xalqining madaniy darajasiga mos boʻlishi lozim.

5) Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning o'quvchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatleri haqida aytilgan mulohazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil etish pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko'rinadiki, boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchida shaxslik sifatlarini shakllantirishda nutq madaniyatini egallash zarurati muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa yuqorida sanab o'tilgan nutqning asosiy xususiyatlariga amal qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish ularda fikrni erkin va ravon bayon etishga, nutq va muomala odobini egallashga, ta'sirchan va mazmunli nutq tuzishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po'latov I. Ahmedova H. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari. –T.: 2008.
2. Ibrahimov I. O'zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. – T.: 1969.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: 2002.

## **BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH**

**S.Vohidova – Asaka tumanidagi**

**56-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilar nutqini o'stirish xususida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida gap ustida ishlash mashqlarning o'quvchilar nutqi rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.*

*Kalit so'zlar: o'zbek tilining tovush tuzilishi, sintaktik mavzular, nutq o'stirish, gap ustida ishlash.*

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

“Boshlang'ich ta'lim” o'quv dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar kompleksini egallaydilar: tovushlar va harflar; unli va undoshlar; jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar; jufti yo'q jarangli va jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'inlarga bo'lish; urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bu bo'lim materiallarini birlashtiruvchi prinsip (tamoyil) nutq o'stirish hisoblanadi. Nutq o'stirish boshlang'ich sinf ona tili ta'limiga aniq amaliy yo'nalish beradi va bolalarda ongli o'qish, o'qiganlarini ravon gapirish va yozishga o'rgatadi; ona tili va adabiyotdan bolalarning yosh xususiyatlari va saviyasini hisobga olgan holda boshlang'ich bilim berishni, shu asosda nutqni boyitish, boshqalar nutqini e'tibor bilan tinglash hamda kitob o'qishga qiziqish uyg'otishga yo'naltirishi zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv fanlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirishda badiiy matnlarning roli kattadir. Demak, nutq o'stirish, o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlash ona tili ta'limi oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Nutq vositasi bo'lgan gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qandaydir yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha boshlang'ich sinflarda o'rganiladi va gapning belgilari haqidagi bilimlar bosqichma-bosqich chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi — gap haqidagi elementar (sodda) tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlash savod o'rgatish davridan boshlanadi. Bu davrda “o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazish ma'qul”.{ 1 }

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gaplarni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab, uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda, gap ustida ishlab boriladi. Dasturga ko'ra, 2-sinfda o'quvchilar gapdan shu gap kim yoki nima haqda aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida, gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqich bo'lib, o'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar, bosh bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar. Gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z) ni, ya'ni so'z birikmasini topishga o'rganadilar. Gapda so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

Gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilimlar 4-sinfda kengaytiriladi. Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi omil sanaladi.

Xulosa shuki, nutq o'stirish ishi boshlang'ich sinf ona tili darslari uchun yetakchi mazmun hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Masharipova U. O'quvchi nutqini o'stirishda innovatsion usullardan foydalanish. ”Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2014 -yil, 1-son, 11-bet.
2. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: “Noshir”, 2009.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH USULLARI**

**M.Y.Sayidaliyeva Farg'ona viloyati  
O'zbekiston tumani 64-maktab  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanishi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib borishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar nutqi, badiiy asarlar,og'zaki nutq, faol lug'at, adabiy til normasi,tasavvur, tushuncha, lug'at.

Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi.

Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida dars-lik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan bin lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilning lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagi-larni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoUyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va tako-millashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H.Olimjon, M. Shayxzoda, G'.G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, X.To'xtaboyev, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, Z.Diyor, N.Fozilov, T. Adashboyev, A. Obidjon kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy,

shirinso'z, mehribon, haqcpniy, botir, mard, ja-sur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishla-tiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga ki-tob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana bosh-laydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service'1, 2008.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent, 2009.

## 2 – ШЎБА: БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ: ТАЛАБАЛАРНИНГ МЕТОДИК, ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИДА УЙҒУНЛИК МУАММОЛАРИ.

### ДИСКУРСДА СОЦИОЛОГИК ФАКТОР

Д.Т.Айтбаев, Низомий номидаги ТДПУ доценти,  
филология фанлари номзоди.

Тил инсонлар онгида моҳият сифатида яшар экан, ҳар бир индивид нутқида воқеланиб, жамиятда ижтимоий муносабатларни рўёбга чиқарувчи асосий омил саналади. Шундай экан, тил жамият билан, унинг кечаси, бугуни, эртаси билан чамбарчас боғлиқдир. Жамиятдаги ҳар қандай ўзгариш, ижтимоий тараққиёт бевосита тилда ҳам ўз аксини топади. Тилнинг тараққиёти жамият тараққиётига боғлиқдир. Унинг ривожланиш даражаси инсон тафаккурининг савиясига, тараққиёти даражасига мос келиши шарт, шу билан бирга иккаласининг ривожланишидаги тенденция, инсоният жамияти тараққиёти даражаси ва асосий ривожланиш тенденциялари билан белгиланади<sup>23</sup>.

Дискурсниң эътиборли томони шундаки, коммуникация жараёнида ҳар бир нутқий акт бирлиги – дискурс сўзловчи ва тингловчининг руҳий ҳолати, дунёқароши, машғулоту, жамиятдаги мавқеи, нутқий акт вазиятлари каби омиллар таъсирида мазмуний ранг-барангликка эга бўлади.

Муайян социал гуруҳ вакиллари нутқида зарурийлик, мутаносиблик, муқобиллик тушунчалари жамланади, нутқий акт воситасида жамиятнинг миллий-тарихий хусусиятлари акс этади. Шу каби дискурсда ҳам муайян социал гуруҳ вакилларининг нутқида ўша социал гуруҳ хусусиятлари акс этади. Дискурсда социал факторлар муҳим аҳамиятга эга, у коммуникантлар ўртасидаги социал муносабатларни белгилайди. Шу сабабли уларга юқори ижтимоий вариантлик хос. Дискурсниң социал вариантлигини ўзига хос хусусиятларига кўра икки гуруҳга бўлишимиз мумкин:

- стратификацион (ижтимолий гуруҳга хосланган) дискурс;
- ситуатив (ижтимоий вазиятга хосланган) дискурс.

Н.М.Фирсова бу икки ўлчамни тил ва нутқ вариантлигини белгилаш учун ишлатган<sup>24</sup>. Кўринадик, стратификацион вариантлик ижтимоий гуруҳларга хосланган ички белгиларни намоён этса, ситуатив вариантлик ижтимоий вазиятга хосланган ташқи белгиларни кўрсатади.

*Стратификацион дискурс* - дискурсниң ижтимоий гуруҳга хосланган тури. Дискурсниң ижтимоий гуруҳга хосланган вариативлиги жамиятнинг ижтимоий тузилиши билан бевосита алоқада бўлади, у турли хил ижтимоий қатлам ҳамда гуруҳларда кўзга ташланадиган тил ва нутқий тафовутларда ўз ифодасини топади. Ижтимоий гуруҳга хосланган вариативлик билан алоқадор бўлган тушунчалар қаторига шахсниң ижтимоий ва социалдемографик, яъни синфий, ижтимоий гуруҳга қарашлилиги, касби, маълумот даражаси, жинси, ёши каби белгилар киради. Бу белгилар ўзгармас ва ўзгарувчи белгиларга бўлинади.

*Ситуатив дискурс* – дискурсниң ижтимоий вазиятга хосланган тури. Дискурсниң ижтимоий вазиятга хосланган ситуатив вариантлиги аниқ ижтимоий шароитга қараб, нутқий актда юз берадиган хилма-хил ижтимоий ўзгаришлар вазиятлар билан чамбарчас боғланади. Дискурсниң ижтимоий вазиятга хосланган ситуатив вариантлигида шахсниң ижтимоий шароит ва коммуникатив ҳаракат шароити билан муносабатини ифодалайди. Мана шу муносабатлар асосида дискурсда нутқ акти бирликларининг зарури ишлатилади: бошлиқ - ходим, ўқитувчи - ўқувчи, она – ўғил, ака - ука, таниш – нотаниш сингари. Бу муносабатларни икки турга ажратиш мумкин:

<sup>23</sup> Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? - Т., Фан, 1972

<sup>24</sup> Фирсова Н.М. Испанский речевой этикет М., 1991, с. 15

- **симметрик вазият** – бир поғонали, тенг бўлган муомала;
- **асимметрик вазият** – турли даражадаги, тенг бўлмаган муомала<sup>25</sup>.

Симметрик вазиятда суҳбатдошларнинг иккиси ҳам бир хил ўринни тутади, уларнинг иккаласи ҳам бошқарув вазифасини бажариши мумкин ёки аксинча: талаба – талаба, ўқитувчи – ўқитувчи ёки ходим – ходима сингари. Симметрик вазиятда дискурс эркин бўлади ва шу сабабдан, кўпинча, ижобий тарзда бўлади. Масалан, ўқувчи ўқувчининг фикрини осонгина тушунади, ўқитувчининг фикрини тушуниши эса қийинроқ кечади. Ёки ходим ходима билан эркин мулоқотда бўлади ва бир-бирини тушуниши учун ҳеч қандай тўсқинлик қиладиган вазият бўлмайди.

Асимметрик вазиятда эса коммуникация иштирокчиларининг бири бошқарувчи бўлади, унда суҳбатдошлар турли поғонада “жойлашадилар”: бошлиқ – ходим, ота – ўғил, ўқитувчи – талаба, хўжайин – хизматкор каби. Асимметрик вазиятда дискурс мажмурийлик хусусиятига эга бўлади. Бунинг натижасида эса турли тушунмовчиликлар келиб чиқиши мумкин.

Демак, дискурснинг социал ҳосланган вариативлигини қуйидагича кўрсатиш мумкин:

Дискурснинг социал вариантлиги			
Стратификацион (ижтимоий гуруҳга хосланган ички белгилар)		Ситуатив (ижтимоий вазиятга хосланган ташқи белгилар)	
Социал дифференция		Симметрик (Тенг муомала)	Асимметрик (Поғонали муомала)
Ўзгармас белгилар	Ўзгарадиган белгилар	Бошлиқ – бошлиқ Талаба – талаба Ўқитувчи – ўқитувчи	Бошлиқ – ишчи Ўқитувчи – ўқувчи Ота – ўғил
- синфий	- ёши		
- жинси	- маълумот		
- касби	даражаси		

Дискурснинг социал вариантлиги унинг турлича талқинларини келтириб чиқаради. Маълум дискурснинг турли касб эгалари томонидан турлича талқин қилиниши ёки маълумотга кўра турлича тушунилиши, жинсига, ёшига кўра қабул қилниши дискурснинг социал фактори орқали ифодаланади.

Дискурс жамиятнинг бир-бирига коммуникатив муносабатларда мажбуриятли аҳзолари ўртасидаги ўз-ўзидан (ҳеч қандай сўзсиз) келишилган битимлари соҳасига киради. Дискурс ҳақидаги тадқиқотлар илмий ҳаётга шу пайтгча маълум бўлмаган, тилшунослик томонидан қабул қилинмаган ва кўзга ташланмаган фактларни олиб кирди. Бу ҳақда Б.Эйхенбаум ёзади: “Фактларнинг ўзи йўқ, тўғриси, уларнинг кўплигидан ораларидаги фарқларни кўрсатиш ва улар орасидан у ёки бу гуруҳни ажартиш мушкул”.

Дискурсадаги маълум хоссалар суҳбатдошларнинг билими, фикри, қизиқишлари, мақсади: ифоданинг юзага келиши ва унинг натижаси дейиш мумкин.

Демак, муайян бир тилда гаплашувчи жамиятнинг социал гуруҳланиши хилма-хилдир. Шунга кўра ҳар қайси гуруҳнинг ўзига хос лингвистик белгилари мавжуд. Масалан, худудий фарқланиш, касбий фарқланиш ва бошқалар. Ана шунга кўра ҳар қайси социал гуруҳнинг ўз лингвистик белгисига кўра фарқланиши, унинг ижтимоий сабабларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? - Т., Фан, 1972;
2. Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. - М.: Наука, 1988, с. 70.
3. Фирсова Н.М. Испанский речевой этикет М., 1991, с. 14

<sup>25</sup> Фирсова Н.М. Испанский речевой этикет М., 1991, с. 14



4. Исқандарова Ш. Аёллар нутқида ундов сўзларининг қўлланиши // Республика ёш филолог олимларнинг анъанавий илмий конференцияси материаллари. Т., 1991, 61-63-б.
5. Макаров М. Основы теории дискурса. М., Гнозис, 2003. С.89.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 221-б.
7. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик таъқиқи. Тошкент: Фан, 2013;
8. Саидхонов М. Бадиий матн коммуникатив восита сифатида // ЎТА, 2009, №5. 80-82 б.

## GLOBALLASHUV MIQYOSIDA TA'LIM ROLINING ORTISHI

**N.Abdullaeva, p.f.n., dotsent, ADU**  
**A. Jo'rayev, 4-bosqich talabasi, ADU**

***Annotatsiya:** Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, bugungi davr talablariga javob bera oladigan ta'lim-tarbiya tizimi yaratildi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarbligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** globallashuv, ta'lim, tarbiya, qadriyat, fikr, intellect, dunyoqarash, innovatsiya, tafakkur, g'oya, texnologiya, jamiyat, mafkura.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida qabul qilingan sohaga oid bir qator davlat dasturlariga asosan ko'plab ta'lim muassasalari yangidan qurildi, ta'mirlandi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlandi. Dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqazo etmoqda. Avvalo bu, o'quv dasturlari, darsliklar, metodikalarni yanada takomillashtirish, o'qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg'or axborot hamda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq muammolarda ko'rinmoqda.

Darhaqiqat, yosh avlodga sifatli bilim berish uchun, avvalo, o'qituvchi-pedagoglar malakasi va mahorati davr talabiga javob berishi lozim. Ayniqsa, bugun yoshlar juda tez va ilg'or fikrlamoqda. Darslarni ularning talabiga mos - yuqori darajada tashkil etish uchun o'qituvchi muntazam ravishda o'z mahoratini oshirib borishi, har bir mashg'ulotga alohida tayyorgarlik ko'rishi zarur. Shu bois xalq ta'limi tizimiga yangi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlarini joriy etish bilan birga, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur.

Zero, jamiyat uchun har tomonlama barkamol, jamiyatda mavjud g'oyalarga nisbatan mustaqil real fikr yurita oladigan, o'ziga va kelajakka ishonch xissi yuqori bo'lgan, buyuk maqsad sari intiluvchan yoshlar kerak. Kelajakka ishonch, intilish, o'zini o'zi takomillashtirishga harakat qilish, o'z kelajagi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun puxta bilim egallash yoshlarimizga xos xususiyatlardir. Ba'zan xatti-harakatlarda tajribasizlik tufayli uchrab turadigan beqarorliklardan ehtiyot bo'lishlari kerak. Aks holda bu jarayon tomir otib yoshlar faoliyatida loqaydlik, bepisandlik, ishonchsizlik, bilim olishga qiziqishni susayishi, kelajak uchun intilishni pasayishi kabi illatlarning avj olishiga sabab bo'ladi. Bunday ta'sir iskanjasida bo'lgan yoshlarda maqsad bo'lmaydi va tashqi ta'sirga tushib qolishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu kabi dunyoda mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy, ma'naviy tarbiyani faolloshtirishni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rimagan turli yovuz xavf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'or bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik

va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”.

XXI - asrda O‘zbekistonimizni jahonning taraqqiy etgan, peshqadam davlatlardan biriga aylantirish uchun farzandlarimizda metin mafkuraviy e‘tiqod, millatga, xalqqa, Vatanga sodiqlik, umummilliy birlik bo‘lmog‘i kerak.

XXI asrda axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi tufayli globallashuv jarayoni yanada jadallashib, yangi bosqichga ko‘tarildi.

Bugungi kunda xalq ta‘limi tizimida 4916 ta maktabgacha ta‘lim muassasasi, 9692 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, 301 ta bolalar musiqa va san‘at maktabi, 211 ta “Barkamol avlod” markazlari, 225 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabi, 4 ta davlat pedagogika instituti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bugungi taraqqiyotning jadalligi, hali maktabga chiqmagan bolaning sanashni, o‘qish va yozishni, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirib olayotgani, tezkorlik bilan fikrlayotgani tarbiyachilarning malakasini oshirish, bog‘chalardagi o‘quv-tarbiya dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. 2017—2021 yillarga mo‘ljallangan keng ko‘lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan mazkur Dastur ayni shu maqsadlarga qaratilgan. Unda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish belgilangan. 2200 ta maktabgacha ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq joylarda maktabgacha ta‘lim muassasalarini yangidan qurish, zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihozlar, o‘quv-metodik qo‘llanma va multimediali vositalar bilan ta‘minlash rejalashtirilgan. Yangi loyiha asosida bunyod etiladigan muassasalarda qulay sharoitga ega yozgi ayvonchalar, suzish basseynlarini qurish ko‘zda tutilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2,2 trillion so‘m ajratilishi ko‘zda tutilmoqda.

Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish ishlari ham amalga oshiriladi. Ya‘ni, yurtimiz bo‘yicha maktabgacha ta‘lim muassasalarida 6100 ta qisqa muddatli guruh tashkil etiladi. Ularni, birinchi navbatda, qishloq joylarda tashkil etishga e‘tibor qaratiladi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Globallashuv davrida ta‘lim va tarbiya masalasida fakat pedagoglar say-xarakatining uzi etarli emas. Bu jabxdda ota-ona, maxalla, turli davlat va nodavlat tashkilotlarining xamkorligi yaxshi samara beradi. Ammo, masalaning boshka bir jixati xam borki, unga aloxida e‘tibor bermok lozim. Gap ota-onalarning o‘zlari globallashuvning salbiy ta‘sirilaridan ogoxmi yoki yukmi degan masala xususida bormokda. Ayrim oilalarda ota-onalarning o‘zlari globallashuvning «farzandi» bo‘lgan «ommaviy madaniyat»ning ta‘siriga allaqachon tushib ulgurishgan. Yoshlar ta‘lim va tarbiyasida bu nukson va kamchiliklarning oldini olish, bartaraf etish uchun ta‘lim muassasalarida o‘kuvchilar o‘rtasida axborot xavfi, uning oldini olish shartlari, axborot xavfsizligini ta‘minlashning ijtimoiy-pedagogik axamiyatini yorituvchi amaliy xarakatlarni tashkil etishga jiddiy e‘tibor karatilishi kerak.

Globallashuv davrida yoshlar orasida tolerantlik muxim rol uynashi shubxasizdir. Chunki, bir tomondan, yoshlarning dunyoning turli xududlarida yashab, uzaro aloqa qilishga intilishlari xamda ularning turmush tarzi, xulk-atvori, odatlari, xis-tuyg‘ulari, fikr-muloxazalari, Foyalari va e‘tikodlariga nisbatan chidamlilik, ikkinchi tomondan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, darslarda innovatsion uslublarni qullash, o‘kituvchi va o‘kuvchilarda turli g‘oyalar oqimini shakllantirish, pedagogik xamkorlik masalalari ta‘lim jarayonida tolerantlikni ko‘zda tutadi. Aslida tolerantlik o‘zbek xalqining mentalitetiga xos xususiyatlardan biridir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o‘rni katta. Zero, u o‘z moxiyatiga kura, yot g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘kotishga karatilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika ijtimoiy

institutlar tomonidan amalga oshiriladigan xilma-xil g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bir suz bilan aytganda, bu soxada tug'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fofurov U. Globallashuv sharoitida yoshlarni din nikobidagi mafkuraviy taxdidlardan asrashda internetdan samarali foydalanishning dolzarb masalalari. Manba: <http://religions.uz>.
2. Bo'ronov Q. Xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatining teran ildizlari.: T. - FAN, 2003y.
3. Kuronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi T. : - Ma'naviyat. 2011y.

### **SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**N. Abdullaeva, ADU dotsenti,  
N. Karimova, ADU magistranti**

***Anotatsiya:** ushbu maqolada shaxs ma'naviy kamolotida milliy qadriyatlardan foydalanishning o'rni, mazmun va mohiyati, tarbiya jarayonidagi ahamiyati keng yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Informatsion xurujlar, ommaviy madaniyat, insonparvarlik, milliy qadriyat, milliy o'zlikni anglash, urf-odat, an'ana, marosim.*

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida keng ko'lamda rivojlanayotgan xalqaro aloqalar, shuningdek, tezkor axborot oqimi mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlarni sodir etish bilan birga yoshlar faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni yoyilishiga imkoniyat yaratdi. Bugungi kunning muhim xususiyatlaridan biri – insonlarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligidir. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinishlar davom etmoqda. Informatsion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, o'z demokratiya modellarini zo'rlab joriy etish, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning milliy tarbiyasiga, ma'naviy qarashlariga zid bo'lgan turli shou-tomoshalar, ko'ngil ochar ko'rsatuvlar orqali buzg'unchi g'oyalar kirib kelishi bugungi kunda dolzarb muammolarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

Shu sababli bunday tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun faqat birinchi yurtboshimiz takidlaganidek "G'oyaga qarshi-g'oya, fikrga qarshi-fikr, jaholatga qarshi-ma'rifat" asosida faol targ'ibot va qarshi targ'ibot, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bilan kurash olib borish mumkin. Yoshlarni turli tajovulardan, buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishlari uchun maqsadli, tizimli ravishda tarbiyaviy ishlarni olib borish hamda ushbu jarayonida xalqning boy pedagogik tajribalaridan foydalanish samarali natija beradi.

Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki ular yoshlarni barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarini kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining milliy urf-odatlarini, an'analarni ham inkor qila boshlaydi. Shu bois ayni davrda pedagogik jarayonda milliy, tarixiy tarbiya tajribalaridan foydalanish muxim vazifalardan biridir. Chunki dunyoda mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy, ma'naviy tarbiyani faolloshtirishni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. SHu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada

o'shinishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".<sup>26</sup>

Ma'lumki, har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlari butun bashariyat uchun ibratli qadriyat darajasida ma'lum o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim. Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bu qadriyatlar xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Ularda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi. Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi tufayli globallashtirish jarayoni yanada jadallashib, yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda xalqning milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlariga chetdan bo'ladigan ta'sir ham ortib boradi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarining yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat, ma'naviy tahdid, «ommaviy madaniyat» va turli xil nosog'lom axborotlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Yoshlarning ma'naviy kamol toptirish jarayoni murakkab va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Yoshlarimizning mukammal tarbiyasida ma'naviy meros, madaniy boyliklar, o'zbek xalqining tarixiy tarbiyaviy tajribalari urf-odat an'analari va qadriyatlarining o'rni beqiyos. Bundan tashqari millatimizning o'ziga xos xususiyatlari ulug'vor insoniy fazilatlarini diniy qadriyatlar ushbu jarayonlarda muhim ta'sirchan omillar hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda " Biz tarixiy xalq an'analari urf-odatlarini va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur. Yashirishga hojat yo'q, biz shubxali insonlarga berilib, ma'naviy madaniyatimizni oziqlantirib turgan ildizlarni qirib tashlashga o'nlab yillarni sarfladik. Hozir buni oqibatlarini sezib turibmiz. Darhaqiqat, bu siyosat bugun ustuvor yo'nalish etib belgilandi, muammolarni echish uchun muhim, bosh omil bo'ladi. Tarixiy xotira – milliy g'urur va milliy iftixor xissini zaminlaridan biridir."<sup>27</sup>

Ajdodlarning bizga qoldirgan ulkan ma'naviy boyligi millatning boy tarixiy pedagogik qadriyatlardan yoshlarni har qanday qusrlardan holi, jamiyatda o'z o'rniga ega, barkamol, maqsadli qilib tarbiyalashda foydalanish yuqori samarali natijaga erishish garovidir.

Millatning ulug'vor tarixini ajdodlarning diniy va dunyoviy bilimlar rivojiga qo'shgan hissasi, ularning dunyo tamaddunida tutgan o'rni haqida bilimga ega bo'lgan inson hechqachon ularga nisbatan bee'tibor bo'lmay, xalqini, Vatanini oson sotmaydi, millatidan o'zligidan begonashmaydi.

Buning uchun ham millat tarixini targ'ib etuvchi adabiyotlar mumtoz asarlar xalqning buyuk merosi namunalari nisbatan yoshlarda qiziqish uyg'otish lozim, zero bu boyliklar ma'naviyatimiz ko'zgusi hisoblanadi. Ana shunday buyuk merosni o'rganishi orqali yuksak ma'naviyatli maqsadli yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

---

<sup>26</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. : Т.- Ўзбекистон . 2016й.

<sup>27</sup> Mustaqillik, izohli ilmiy –ommobop lug'at. -Т. : Sharq, 2006. 342 bet

Xalqimiz azali anʼanalari udumlari ruhiyati, tili diniga mos gʻoyalar asosida yoshlar ongiga kelajakka ishonch, mehirdorlik, insof, sabr, toqat, adolat maʼrifat tuygʻlarini singdirish orqali uning ruhiyatidagi oʻzgarishlar, chekinishlarga barham berish mumkin.

Shuning uchun ham taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tarbiyaviy ishlar, ularning yoʻnalishlari mazmuni va natijalari bolalarda tashqi taʼsirlarga berilmaslikning samarali shakllantirishni taʼminlashi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. : T.- Oʻzbekiston . 2016y.
2. Mustaqillik, izohli ilmiy –ommobop lugʻat. -T. : Sharq, 2006. 342 bet
3. Boʻronov Q. Xalqimiz maʼnaviyati va maʼrifatining teran ildizlari.: T. - FAN, 2003y.
4. Kuronov M. Ezgu gʻoyalar roʻyobi T. : - Maʼnaviyat. 2011y.
5. Tolipov Oʻ.Q. va boshqalar. Oʻquvchilarda gʻoyaviy immunitetni shakllantirishning amaliy jihatlari. T. : - Fan. 2007. y.

### **BOʻLAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNING NAZARIY VA AMALIY KOʻNIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**N. Abdullaeva, dotsent, ADU,  
X.Orzuqulov, magistrant, ADU**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, oʻquvchilar bilan muomalasiga ham koʻp jihatdan bogʻliq haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit soʻzlar:** pedagog, kasb, kompetentlik, bilim, koʻnikma, malaka, mahorat, dars, taʼlim, tarbiya, metod, kommunikativlik, tashkilotchilik.*

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sogʻinaman. Nega desangiz, olimlik Olloh nurini solgan ulugʻ bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson oʻziga beqiyos maʼnaviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi”. [1]

A.Disterveg taʼkidlaganidek, “har qanday taʼlim va tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkur dunyosidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida zamonaviy pedagog javob berishi kerak boʻlgan talablar majmui belgilab berilgan. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini taʼminlaydigan asosiy talablar hisoblanadi. [2]

Pedagogik mahoratni tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

Dars berish mahorati: kasbiy layoqat va eruditsiya, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, taʼlim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga oʻrgatish mahorati; oʻquv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, Internetning global tarmogʻi bilan ishlash boʻyicha amaliy koʻnikmalar, pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish; ilmiy –pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish; pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini bilish; fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati, ritorika va notiqlik sanʼati asoslarini bilish, Bolalar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya, “Taʼlim toʻgʻrisida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dagi vazifalarni hamda uzluksiz taʼlim tizimining asosiy atamaları va tushunchalarini bilish.

Tarbiyalash mahorati - oʻqitish va tarbiyalash jarayonining bogʻliqligi, uygʻun rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va maʼnaviy saviyasi qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga. Uning vatanparvarlik, obroʻ va burchni his etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek oʻquvchilar oʻrtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy koʻnikmalariga asoslanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar-pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash tamoyillari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Pedagogning zaruriy ijtimoiy ko'nikmalar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: o'z-o'zini namoyon qilish, boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo'lish, o'z ustida tinimsiz ishlash, vaziyatni baholash va muammolarni echish ko'nikmasiga ega bo'lish, tashkilotchilik, ijodiy yondashuv, boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lish.

Pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

1. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

2. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim. [3]

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi,

tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim jihatlarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlardan o'tib erishishi mumkin:

- pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish, metodologik asoslarini egallash;
- o'quvchi rivojlanishining psixologik, fiziologik xususiyatlarini bilish;
- tarbiyaning mohiyati, uning maqsad, vazifalari va metodlarini bilish;
- turli sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar olib borish metodikasini bilish;
- dars o'tishning pedagogik-psixologik yo'llarini bilish;
- fan va madaniyat sohasida umumiy bilimlarni egallab borish;
- maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;
- pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;
- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;
- o'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchi uchun zarur bo'lgan malakalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatiladi:

Amaliy-konstruktiv malakalar: tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish; o'quvchi shaxsini jamoa sharoitida tarbiyalanishining individual rejasini amalga oshira bilish.

Tashkilotchilik malakalari: har-xil rolli o'yinlar orqali o'quvchilar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish; o'quvchilarning jamoatchilik faoliyatini uyushtira bilish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish; o'quvchilarga berilgan jamoa topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va amaliy yordam bera bilish; maktabda sinf rahbarligi ishlarini faol amalga oshira bilish; jamoatchilik va ota-onalar o'rtasidagi ishlarni tashkil eta bilish.

Kommunikativ malakalar: o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillari bilan munosabat va aloqalar o'rnatish; o'quvchilar jamoasini, qiziqishlarini, ichki munosabatlarini idora qila bilish; o'quvchilar fikrini tushunish va o'z fikrini nutq, til vositalari orqali tushuntira bilish; o'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va ularda o'ziga nisbatan mehr-ishonch, hurmat kabi xislatlarni uyg'ota bilish.

Amaliy malakalar: rasm solish, musiqani tinglash; bilimdonlik; maktabda sinf rahbarligi ishlarini faol amalga oshira bilish; sayohat qildirish; kasbga e'tiqodlilik; jamoatchilik va ota-onalar o'rtasidagi ishlarni tashkil eta bilish.

Kasbiy sifatlar: fuqarolik burchini anglash; adolatlilik; talabchanlik; o'zini tuta bilish; sport bilan shug'ullanish; vazminlik, sabr-toqatlilik; o'yinlar tashkil qilish; pedagogik nazokat; kuzatuvchanlik, ziyraklik; amaliy psixologik aql; nutq madaniyati, aniq ifodali o'qish; ta'sir eta olish, ijodiy xayol-kelajakni ko'ra olish-pedagogik tasavvur; kasbiy layoqatlilik.

Shaxsiy sifatlar: bolalarni sevish; mehnatsevarlik; ijtimoiy g'ayrat; kuzatuvchanlik; mehribonlik; kamtarlik; quvnoqlik; qat'iylik; dadillik; izlanuvchanlik; ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni amalga oshirish jarayonida pedagogik mahoratni mukammallashtirishga doimiy intilish; tarbiyaviy ta'sir natijasini oldindan ko'ra bilishga intilish; o'zini tarbiyalanuvchi holatiga qo'ya bilish, atrof-muhitga nisbatan uning qarashini ko'ra bilishga intilish; bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga, tarbiyalanuvchilarga nisbatan yangicha qarash qobiliyati.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar shundan dalolat beradiki, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassis shaxsiga, uning shaxsiy va kasbiy sifatlariga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablarga javob berish uchun pedagog tinmay o'z ustida ishlashi, doimo fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan xabardor bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz-2017

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T.1997y.
3. Irisboyeva Q., Mo'minova D. Bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari //Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari T.2013.

[www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **O'SMIRLARDA SOG'LOM E'TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**N.J. Abdullaeva, ADU dotsenti  
SH. Abdurazzoqov, ADU magistri**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada o'smirlardagi sog'lom e'tiqodning mohiyatini tushunishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga egaligi, e'tiqod muayyan g'oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma'nosida iymonga yaqin turishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** o'smir, ruhiyat, oila, e'tiqod, dunyoqarash, tafakkur, g'oya, fikr, bilim, ma'naviyat, iroda, imon, ko'nikma.*

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, tanlagan yo'li – kasbi-kori va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir. Shaxs ma'naviyati uning dunyoqarashi insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui, asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasi hayotiy zarur masaladir.

Jamiyat uchun har tomonlama barkamol, jamiyatda mavjud g'oyalarga nisbatan mustaqil real fikr yurita oladigan, o'ziga va kelajakka ishonch hissi yuqori bo'lgan, buyuk maqsad sari intiluvchan yoshlar kerak. Kelajakka ishonch, intilish, o'zini o'zi takomillashtirishga harakat qilish, o'z kelajagi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun puxta bilim egallash yoshlarimizga xos xususiyatlardir. Ba'zan xatti-harakatlarda tajribasizlik tufayli uchrab turadigan beqarorliklardan ehtiyot bo'lishlari kerak. Aks holda bu jarayon tomir otib yoshlar faoliyatida loqaydlik, bepisandlik, ishonchsizlik, e'tiqodning sustligi, bilim olishga qiziqishni susayishi, kelajak uchun intilishni pasayishi kabi illatlarning avj olishiga sabab bo'ladi. Bunday ta'sir iskanjasida bo'lgan yoshlarda maqsad bo'lmaydi va tashqi ta'sirga tushib qolishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu kabi dunyoda mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy, ma'naviy tarbiyani faolloshtirib, mustahkam e'tiqodni shakllantirishni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".<sup>28</sup>

Diniy ekstremizm tahdidi real xavfga aylangan hozirgi davrda diniy-ma'naviy qadriyatlarni shiorlardan farqlashga o'rgatishni, sog'lom e'tiqod tarbiyasini bolalikning ilk yillaridan boshlash zarur. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "...bugungi murakkab ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid bo'lgan

---

<sup>28</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон". Т.-2016й.



ma'naviyat, madaniyat bayrog'i ostida kirib kelayotgan zararli g'oyalarga va tahdidlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.”<sup>29</sup>

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda ko'pqirrali, murakkab “E'tiqod” tushunchasining ta'rifi, mazmuni masalasida yakdil xulosalarni uchratish qiyin. E'tiqodning asl mohiyatini anglash uchun uning etimologiyasiga murojaat qilish bilan birga din niqobi ostida taqdim etilayotgan turli g'arazli talqinlar tahliliga e'tibor berish lozim. Mustaqillik yillarida ilmiy adabiyotlarda e'tiqodning tor sinfiy, ateistik talqinidan voz kechildi, uning yangi qirralari kashf etildi. Shu bilan birga tarbiya natijasida shakllanishiga alohida urg'u berila boshlandi.

E'tiqodning mohiyatini tushinishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga ega. E'tiqod muayyan g'oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma'nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e'tiqod tushunchasida faqat ijobiy jihatlarnigina ko'rish to'g'ri emas. Ijobiy va salbiy mazmunga ega e'tiqod shakllari o'rtasida yana bir ma'naviy-ruhiy hodisa - e'tiqodsizlikning ham mavjudligini e'tirof etish lozim.

Adabiyotlarda “sog'lom e'tiqod” tushunchasiniig ilmiy ta'rifi hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bizningcha, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga tayanadigan, taraqqiyotga yo'naltirilgan ezgu va bunyodkor g'oyalarga ishonchga asoslangan e'tiqod shakliga **sog'lom e'tiqod** deyiladi.

O'smirlarda sog'lom e'tiqodni tarbiyalashda oila va oila a'zolarining ta'siri yetakchilik qiladi. Shu sababli biz o'smirlarda e'tiqod tarbiyasini eng muhim omil sifatida e'tirof etamiz.

Sog'lom e'tiqodni shakllantirishning nazariy masalalarini ko'rib chiqish asrlar davomida shakllangan islom dinida e'tiqod tarbiyasining mazmuniga maxsus to'xtalish zarurligini taqozo qiladi.

Islom dini tarqala boshlagach, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatni qamrab oluvchi axloqiy qonunlar majmuasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Buning uchun Qur'on va sunna asos qilib olindi, natijada musulmonlarning moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga solib turuvchi tarbiya tizimi vujudga keldi.

O'smirlarda sog'lom e'tiqodni rivojlantirish orqali uning pedagogik imkoniyatlarini nafaqat dars jarayonida, balki, darsdan tashqari tarbiyaviy jarayon bilan uzviy ravishda olib borish ayni maqsadga muvofiqdir. Bunda tanlab olinishi kerak bo'lgan metodikalar, usullar o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi aloqalar orqali oydinlashadi. Ya'ni, o'qituvchining tanlab olib qo'llashi kerak bo'lgan metodikalari ota-ona tomonidan bolaga nisbatan qo'llaydigan metodikaga mos bo'lishi, bir-birini to'ldirishi lozim. Bu o'z navbatida ota-ona bilan o'qituvchi o'rtasida hamisha uzviy aloqa bo'lishini taqozo etadi va ta'minlaydi.

Biz o'z tadqiqotimizda ushbu me'yorlarning pedagogik mazmuniga, musulmonlarning muomala madaniyatidagi bilim, ko'nikma hamda malakalariga alohida e'tibor qaratishni lozim topdik. Zero, milliy birlik va ma'naviy jipslikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlarning oldini olish uchun kuchli irodali, iymoni mustahkam insonni tarbiyalash talab etiladi.

XXI - asrda O'zbekistonimizni jahonning taraqqiy etgan, peshqadam davlatlardan biriga aylantirish uchun farzandlarimizda metin mafkuraviy e'tiqod, millatga, xalqqa, Vatanga sodiqlik, umummilliy birlik bo'lmog'i kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston”. T.-2016y.
2. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T. “Muloqot”.1998 yil. 5-son.
- 3.O.Musurmonova. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T. “Fan” 1993
4. Mirziyotov. Diniy bag'rikenglik va ma'rifat. Hidoyat , T. 2001, 18-bet.

<sup>29</sup> I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T. “Muloqot”.1998 yil. 5-son.

## O'QUVCHILARNI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT TARBIIYASINI O'RNI

N. Abdullayeva, p.f.n., dotsent, ADU.

M. Islomov, talaba, ADU.

***Anotatsiya:** ushbu maqolada umuminsoniy qadriyatlar davomiyligi oila bilan bo'g'liqligi hamda yoshlar ma'naviy yetukligi, hamda o'zligi asosi milliy qadriyatlarda namoyon bo'lishi, mehnat tarbiyasi asosida shakllanishi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** vosita, tadbir, urf-odat, an'analari jamoa, xalq o'g'zaki ijodi va his-tuyg'ular, mehnat tarbiyasi.*

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, bebaho tarixiy merosimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llagan vosita, tadbir, urf-odat va an'analari, tarbiya haqidagi fikrlari, g'oya va hayotiy tajribalari, xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga mos yetuk shaxs qilib tarbiyalash haqidagi ta'limotlari xalq og'zaki ijodida mehnat tarbiyasida mujassamdir.

Xalqning milliy urf-odat va an'analari, jamoa ahlining o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir etdi, ularning hayot kechirish, tinchlik uchun kurashish yo'l-yo'riqlarini bilib olishlarida asosiy omil mehnatsevarlik bo'ldi.

Jamoa a'zolarining mehnati zamirida vujudga kelgan urf-odatlar, an'analari jamiyat rivojiga, odamlar ongining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Odamlar o'z mehnatlari, xatti-harakatlarini urf-odat va an'analarga uyg'un holda davom ettirdilar.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida ota-onaning parvarishida o'sib ulg'ayadi, atrof-muhitdagi voqealarni ko'radi, unda o'simlik, hayvonot, qushlar olami haqida tasavvur, ularga muhabbat, mexr-shafqat hissi shakllanib, rivojlana boshlaydi.

Bolada mehnat faoliyati boshlanishi bilan odamlarga, o'z tengdoshlariga nisbatan mehr-muruvvat ham shakllanib rivojlanadi. U mehr-muruvvatni odamlarga faqat moddiy emas, ma'naviy jihatdan ham ko'rsatish mumkinligini anglaydi. Shu zaylda u, hamdardlik, saxovatlilik, rahmdillik, xushmuomalalik, insonparvarlik ekanligini tushunadi. Shunday xislatlarga ega bo'lganlar hayotda hurmatda bo'layotganiga ishonch hosil qiladi.

Xalqning bolalarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, mehr-shafqatlilik, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o'stirish haqidagi ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlari jamiyat shakllanishi bilan hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy hayotga bog'liq holda shakllandi va rivojlandi.

Milliy urf-odat va an'ana jamoa ahlining o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir etdi, ularning hayot kechirish, tinchlik uchun kurashish yo'l-yo'riqlarini bilib olishlarida asosiy omil bo'ldi.

Jamoa a'zolarining mehnati zamirida vujudga kelgan urf-odatlar, an'analari jamiyat rivojiga, odamlar ongining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Odamlar o'z mehnatlari, xatti-harakatlarini urf-odat va an'analarga uyg'un holda davom ettirdilar.

Turli sharoitlarda amalga oshirilgan dehqonchilik, bog'dorchilik natijasida dehqon va bog'bonlar hayotida an'analari yuzaga keldi. Dehqon o'z hayotida dehqonchilik bilan birga, chorvachilik bilan ham shug'ullandi. Dehqon bu ishda o'smir bolalar mehnatidan foydalandi, ular bilan jiddiy munosabatda bo'ldi, ularga dehqonchilik va chorvachilik sirlarini o'rgatdi.

O'g'il bolalar hosilni o'rish, yig'ish, yanchish bilan shug'ullandilar. Oilada o'tin yorish, mollarga yem-xashak keltirish, tayyorlash kabi ishlarni bajardilar.

Qizlar kichiklik chog'laridan uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatildi. Ular bog'larda pishib yetilgan mevalarni terish, ko'chatlarni sug'orishda ishtirok etdilar. Onalar ularning tikuvchilikdan ham xabardor bo'lishlariga e'tibor berdilar.

O'g'il va qizlar oilada, dalada turli ishlarni qilishga odatlanib, asta-sekin mehnat jarayoniga kirib bordi, turmush talab etgan malaka va ko'nikmalarni egalladi.

Mehnat, faqat turli soha bo'yicha malaka va ko'nikmalarni egallashda emas, balki olamni bilish, axloqiy yuksalish, go'zallikni his qilish va tushunishda ham asosiy omil bo'ldi.

Mehnat, ish usuli sifatida bolalarning aqliy va jismoniy rivojida, shaxs sifatida shakllanishida aloxisa ahamiyat kasb etdi.

Odamlar mehnat tufayli tabiat hodisalarining sodir bo'lish sababini, amalga oshirayotgan ishlarining samarali bo'lishi uchun tabiiy borliqni bilish kerakligini angladilar. Bu ularda tafakkurning rivojlanshida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ota-bobolarimiz o'z hayotiy tajribalarida mehnat go'zalliga xususiyati inson hissiyotiga, ongi va xulqiga ta'sir etishdan iboratligini ko'rib, bu haqdagi g'oyalarini bolalar ongiga «Mehnat — farog'at charog'i», «Ish — inson gavhari», «Odamni mehnat bezaydi», «Mehnat — hurmatning toji», «Yigat husni mehnatda» kabi maqollar yordamida singdirdilar.

Donishmand otaning mehnat qilish, hunarlarni egallash zarurligini haqida aytgan pand-nasihatlari bolalar ruhiyatiga kuchli ta'sir etdi, ularda go'zal fazilat sohibi bo'lish istagini uyg'otdi.

Donishmandlar dedilar:

— Bolalarim, g'ayrat bilan ishlang, mehnatni seving, aslo yalqov bo'lmang. Dunyo har bir insonning g'ayrat bilan ishlashi orqali yeyish-ichishini va boshqa istagani ta'min qiladi. Har odam, hatto hayvonlar ham biror yumush bilan mashg'uldir. Mehnat odamning salomatligi uchun eng buyuk davo. Mehnatsevarlar doimo rohatda umr kechiradi, hech kimga muhtoj bo'lmaydi. Mehnatni sevmaganlar boshqalarga muhtoj bo'lib qoladi. Shuning uchun ish, mehnat odam uchun kerakligini doimiy ta'kidlashgan.

Ey farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishdan andisha qilma, hunarmandlik sababidan izzat va hurmatga yetishasan, agar hunar-dan bebahra bo'lsang, qup-quruq, soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Agar aql va donishing bo'la turib, hunarsiz bo'lsang, donishing surat va haybatsiz bir bidan yoki mevasiz daraxt

Binobarin qadimiy urf-odatlarimiz milliyligimiz oila ostonasidan qanchalik qadr topsa kelajak yoshlarimiz o'zlaridan keyingi avlod vakillariga qadryatlarimizni asrab avaylab yetkazadi. Shularni hisobga olgan holda oilada tarbiya jaroyonini milliyligimiz asosida tashkil qilsak o'zbek degan nomimiz va milliy qadryatlarimiz shuncha uzoq umir kechirib, o'zbekning o'zligiyu bekligi asrlar davomida yashaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh. Mirziyayev “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” Toshkent “O'zbekiston”-2017 yil
2. F Akramova “Oila entsiklopediyasi” Toshkent “O'qituvchi”- 2012 yil
3. Baratov SH.R., Muxtorov E.M. O'smirlarda psixologik muxofaza.T. “Fan nashriyoti”. 2008 y.
4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohudaxloq” Toshkent “O'zbekiston nashriyoti” 2012-yil

### **ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ДАРСЛИКЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ**

**М.М.Джумаева**  
**Низомий номидаги ТДПУ Термиз филиали**

*Инсоният фақат мустақил ўрганиш  
туфайли тараққий этган.*

Г.Спесер

*Аннотация: Ўқув жараёнида ўқувчиларни дарсликдан мустақил фойдаланиш  
технологиясининг самарали усуллари баён этилган.*

**Калит сўзлар:** таълим, дарслик, тарбия, самарадорлик, технология.

Инсон комилликка эришиб жамиятда ўзининг муносиб ўрнини эгаллашда, фаровон турмуш кечиришда узлуксиз таълим тизимининг умумий ўрта таълим турининг ўрни жуда

салмоқлидир (Республикамизда узлуксиз таълим тизими етти турдан иборат: мактабгача таълим, умумий ўрта таълим, ўрта махсус ва касб- хунар таълими, олий таълим, олий ўқув юртидан кейинги таълим ва мактабдан ташқари таълим )

Республикамиз Президенти томонидан томонидан таълим тизимига бўлган эътибор жуда катта. Мактабгача таълим тизими (2017 йил 30 Сентябр ) ҳамда умумий ўрта таълим тизимини (2018 йил 25 январ) ислоҳ қилиш ва ривожлантириш бўйича берган фармонлари баркамол авлод тарбиясида янги босқични очиб берди ва бу фармонлар биз ўқитувчиларнинг таълим- тарбия соҳасидаги маъсулятимизни янада оширди.

Умуман таълим тизими муваффақияти учун нима қилиш керак? Уйидан мен мактабга **ўқишга** бораяпман деб, жуда катта умидлар билан йўлга чиқиб, мурғак тоза қалб ила мактабни муқаддас саждагоҳ деб билиб, синфда ўз ўрнини эгаллаб, мана ҳозир менга ўқитувчим янги билимни ўргатади деб катта умид билан кўзлари жовдираб ўқитувчига қараб турган ўқувчи ўқитувчи дарсидан қониқадими? Агар қониқди десак, нега вилоятимиз таълим тизими рейтинги муқим равишда охирги йилларда икки рақамли сондан иборат ўринда турибди? Демак ўқувчи ўзи кутган таълимдан қониқмаяпти. Менинг назаримда узлуксиз таълим тизимининг умумий ўрта таълим турида дарс ўтиш жараёнида маълум бир инновациялар киритиш керак. Таълим сифатининг 100 % муваффақияти нимага боғлиқ? Менимча таълим сифатининг самарадорлиги, муваффақияти:

1. Ўқитувчига боғлиқ. Ўқитувчининг ўзи ўтаётган фанининг назариясини мукамал билиши ва мавзунини ўқувчига етказишда методик маҳоратга эга бўлиши лозим. Бу ерда ўқитувчи билимини оқар дарёга ўхшатгим келади. Оқар дарёда қанчалик сув кўп бўлса, тўлиб- тошиб оқса, бу дарёдан ён атрофга фойдаси шунчалик кўп бўлади, агар дарёда сув қанчалик кам бўлса, унинг ён атрофдагиларга фойдаси шунчалик кам бўлади. Ҳақиқатдан ҳам ўқитувчи билими қанчалик кўп, мукамал бўлса, унинг билими “елқасидан ошиб- тошиб” турса бу билим ўқувчига тезроқ етиб боради, агар унинг билими саёз бўлса, бу ўқитувчидан ўқувчига жуда кам наф тегади.

2. Ўқувчиларнинг дарс жараёнидаги фаоллиги, дарс жараёнида танланган илғор педагогик технологиясига боғлиқ. Ҳақиқатдан ҳам масалан “Кичик гуруҳларда ишлаш” педагогик технологияси ўқувчиларда ҳамкорликда ишлаш, бир-бирини тушуниш, қўллаб- қувватлаш, ўз фикрини тортинмай айтиш ва мустақил фикрлаш, хатоларни тан олиш, ҳақиқатни тўғри гапириш, жаҳлга эрк бермаслик, саховатлилик, ўзаро ҳурмат каби ижобий сифатларни шакллантиради. Бу технологиянинг яна бир асосий жиҳати дарсда ўтилган мавзу дарсдан кейин ҳам, танаффусда, мактабдан уйга боргунча йўлда ўқувчилар ўртасида баҳс- мунозара тарзида давом этади. “Кластер” (тармоқланиш) илғор педагогик технологияси, ўқувчилар эгаллаган билим, кўникма, малака ва компетенцияларни қай даражада эгаллаганини қисқа муддатда баҳолашга имкон беради. Таълим сифати ва самарадорлигига 100 % эришишда, юқорида келтирилган ўқитувчининг назарий ва методик тайёргарлигининг ўрни 30 % ни , қўлланиладиган педагогик технологиянинг ўрни 20 % ни эгаллайди десак, таълим сифати ва самарадорлигининг қолган 50 % яна нимага боғлиқ деган савол туғилади. Синфдаги дарс жараёни иштирокчилари ўқитувчи ва ўқувчилардир, яна бир учинчи инкор этиб бўлмайдиган иштирокчи борки биз уни деярли унутиб қўйдик. Ўқувчини қониқлик сари етаклайдиган, унинг доимий яқин дўсти, унинг саждагоҳи ҳисобланган нарса, бу билимлар хазинаси- дарслиқдир. Ҳозирги кунда дарслиқ билан ишлаш қай аҳволда? Ўқувчи дарслиқ ўқиядими? Қўлидан китоб тушмай, тинимсиз ўқиб изланиб, пировард натижада ўз ота- онасини оиласини хурсанд қилиб давлат гранти асосида Олий таълим муассасига ўқишга кирган илмли ёшлар кўп.

Мен таълим сифати ва самарадорлиги муваффақиятининг 50 % ни ўқувчиларнинг дарслиқларни мустақил мутоала қилишида деб ҳисоблайман.

Умуман таълимнинг асосий мақсади ҳам ўқувчиларни мустақил китоб ўқиш лаёқатини шакллантириш бўлса керак деб ҳисоблайман.

Давлатимиз раҳбари Ш. Мирзиёев 2017 йил 12 январда имзо чеккан “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш, китоб мутоаласи ва китобхонлик маданиятини

ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисидаги” фармонидан келиб чиқадиган мақсадлардан бири ҳам мактаб ўқувчиларида айна дарслик, мустақил китоб ўқиш лаёқатини шакллантиришдир. Машҳур инглиз файласуфи Г. Спенсер фикрича: Инсоният фақат мустақил ўрганиш туфайли тараккий этган. Яна бир машҳур рус ёзувчиси М. Горький: Мен ўзимдаги барча хислатлар учун китоблардан миннатдорман деган. Демак биз таълим сифати ва самарадолигида муваффақиятига эришмоқчи эканмиз биз ўқувчиларга китоб билан ишлашни ўргатишимиз керак. Агар ўқувчи китобга меҳр қўйиб, уни ўқиса, мустақил ўқиганидан хулоса ясаса бу унинг порлоқ келажагининг гаровидир.

Кўпчилик ўқувчилар ҳозирги кунда дарслик ўқишмайди, уларнинг ота- онаси ҳам уйда уларни дарс тайёрлашини назоратга олишмайди. Энди савол туғилади, хўш, биз ўқитувчилар бу ҳолатга лоқайдлик билан қараб жим туришимиз керакми ёки маълум бир чораларни кўришимиз лозимми? Хўш қандай чора? Менимча дарс жараёнида ушбу “**Дарс давомида дарсликни ўқитиш**” педагогик технологиясини қўллаш керак.

Дарс 45 дақиқа давом этади ва бу вақт бизнинг ихтиёримизда. Ўқитиш жараёнига ўзгартириш киритиб, дарс жараёнида ўқувчиларни 6-8 дақиқа мажбурий дарслик ўқишини таъшиқ этиш керак. Бу инновация қуйидагича ташкил этилади:

Ўқитувчи дарснинг ташкилий қисмини шакллантиргандан сўнг (масалан 8- синф алгебра дарси бўлсин):

1. Ўқитувчи янги мавзунини доскага ёзади “Виет теоремаси” ва бу мавзу “Алгебра” дарслигининг нечанчи саҳифасида эканлигини ҳам доскага ёзади ва шу бетлардан қаерларни 6-8 дақиқада ўқиш кераклигини ўқувчиларга тушунтириб ўқувчиларни мустақил мутоалага тақлиф этади.

2. Ўқитувчи 6-8 дақиқа давомида ўқувчиларни дарслик ўқишини назорат қилади ва бошқа ҳеч бир иш билан шуғулланмайди, фақат ва фақат ўқувчиларнинг нигоҳи китобда эканлигини назорат қилади. Акс ҳолда бу инновация ўз самарасини бермайди.

3. 6-8 дақиқа вақт ўтгандан сўнг, ўқитувчи барча ўқувчиларни дарсликни ёпишини талаб этади ва 2-3 ўқувчидан ўқиганлардан нимани тушунган бўлса, шуни ўз нуқтаи назарида баён қилиб беришини сўрайди. Бу жараён керак, чунки мустақил мутоала вақтида ўқувчи мендан сўраб қолишлари мумкин деб, мавзунини диққат билан ўқийди.

4. Сўраш жараёни тугагандан сўнг, ўқувчиларнинг сўров натижалари баҳоланмайди, чунки бу мавзу ўқитувчи томонидан ўтилмаган.

Ана энди ҳар бир ўқувчида шу мавзу бўйича саволлар пайдо бўлади, уларнинг жавобига қизиқади пировард натижада бутун диққат- эътиборини жамлаб янги мавзу бўйича ўқитувчи маърузасини кутади.

Шундай қилиб, ўқитувчи ўқувчиларда янги мавзунини ўрганиш истагини шакллантиради, ўқувчиларни янги дарсга тайёрлайди. Энди ўқитувчи бутун маҳоратинини намоян қилиб янги мавзунини ўтиши керак.

Ўқитувчи дарсни шундай енгил ва тушунарли баён қилиши керакки ўқувчилар гўёки “Эртак” эшитгандек ўқитувчинини қизиқиб ва тушуниб тингласин. Ана шунда биз ўз мақсадимизга эришган бўламиз, ўқувчинини мустақил дарсликни ўқишга ва ижодий фикрлашга йўналтирамиз. Тўғри дастлаб қийин бўлади, лекин бу жараён узлуксиз ва қатъийлик билан давом этса, албатта ижобий натижа беради.

Азиз улуғ касб эгалари, ўқитувчилар, мен мактабга **ўқишга** бораяпман деб келаётган умидли ёшларимизни **ўқишини** таъминлайлик.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курагимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 488 бет.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016 йил, 56 бет.

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 104 бет.

4.2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйисха Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

## O'QUVCHILARNI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

A.F.Qayumov, ADU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llagan vosita, tadbir, urf-odat va an'analari, tarbiya haqidagi fikrlari, g'oya va hayotiy tajribalari, xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga mos yetuk shaxs qilib tarbiyalash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, maktab, ong, xalq, axloq, ma'naviyat, insonparvarlik, aql, fikr, tasavvur, ertak, urf-odat, mehnat, qabila, do'stlik.

Hali ommaviy maktablar urf bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq, qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, do'stlik kabi xislatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy usullari o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy hayotga bog'liq holda shakllandi va rivojlandi.

Xalqning milliy urf-odat va an'analari, jamoa ahlining o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir etdi, ularning hayot kechirish, tinchlik uchun kurashish yo'l-yo'riqlarini bilib olishlarida asosiy omil bo'ldi.

Jamoa a'zolarining mehnati zamirida vujudga kelgan urf-odatlar, an'analar jamiyat rivojiga, odamlar ongining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Odamlar o'z mehnatlari, xatti-harakatlarini urf-odat va an'analarga uyg'un holda davom ettirdilar.

Xalq o'z hayotiy tajribasida axloklilik bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini angladi va axloq qonun-qoidalarini yaratdi. Insoniylik mezoni axloq qonuniyatining asosi bo'ldi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muxitida ota-onaning parvarishida o'sib ulg'ayadi, atrof-muhitdagi voqealarni ko'radi, unda o'simlik, hayvonot, qushlar olami haqida tasavvur, ularga muhabbat, mexr-shafqat hissi shakllanib, rivojlana boshlaydi.

Bolada mehnat faoliyati boshlanishi bilan odamlarga, o'z tengdoshlariga nisbatan mexr-muruvvat ham shakllanib rivojlanadi. U mehr-muruvvatni odamlarga faqat moddiy emas, ma'naviy jihatdan ham ko'rsatish mumkinligini angelaydi. Shu zaylda u, hamdardlik, saxovatlilik, rahmdillik, xushmuomalalik, insonparvarlik ekanligini tushunadi. Shunday xislatlarga ega bo'lganlar hayotda hurmatda bo'layotganiga ishonch hosil qiladi.

Tabiat insonda estetik his etish va didni tarbiyalashda bitmas-tuganmas manbadir. Uning go'zalligi bolalar ma'naviy dunyosining tarkib topishi va rivojida muhim ahamilt kasb etadi, go'zalligi bilan ularni o'ziga maftun etadi. Tabiat lavhalari o'zining tabiiy go'zallik ko'rki, jamoli bilan ularda yorqin hissiyot uyg'otadi.

Xalqning bolalarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, mehr-shafqatlilik, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o'stirish haqidagi ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlarini jamiyat shakllanishi bilan hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy hayotga bog'liq holda shakllandi va rivojlandi.

Milliy urf-odat va an'ana jamoa ahlining o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashiga, shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir etdi, ularning hayot kechirish, tinchlik uchun kurashish yo'l-yo'riqlarini bilib olishlarida asosiy omil bo'ldi.

Ota-onalar o'z hayotiy tajribalarida aqliy tarbiya hayotda muhim ahamiyat kasb etishini, bolaning qobiliyatli, yaxshi turmush egasi bo'lishiga asos bo'lishini his etdilar. Ular aqli kamol topgan in-son mantiqiy fikrlash, har bir ishga ijodiy yondashish qobiliyatiga ega bo'lishini o'z tajribalarida ko'rdilar. Shu tufayli ham ular yosh avlodning aqliy tarbiyasiga alohida e'tibor berdilar. «Aql — odamning oltin toji», «Aql — dunyoning ko'zi», «Aql — odamning ko'rki», «Aqllilik bor uyda ahillik bor», «Oy tunda kerak, aql kunda kerak» kabi hikmat, maqollar yaratdilar, bola shaxsini mehnat asosida rivojlantirishga alohida e'tibor berdilar. Aqliy tarbiya dehqonchilik, bog'dorchilik —

ijtimoiy hayot tuzilishini, oilaviy turmush darajasini, atrof-muhitga munosabatni, odamlar o'rtasida bo'ladigan aloqalar tarzini, bolalar tarbiyasini belgilab olishda muhim omil bo'ldi.

Turli sharoitlarda amalga oshirilgan dehqonchilik, bog'dorchilik natijasida dehqon va bog'bonlar hayotida an'analar yuzaga keldi. Dehqon o'z hayotida dehqonchilik bilan birga, chorvachilik bilan ham shug'ullandi. Dehqon bu ishda o'smir bolalar mehnatidan foydalandi, ular bilan jiddiy munosabatda bo'ldi, ularga dehqonchilik va chorvachilik sirlarini o'rgatdi.

O'g'il bolalar hosilni o'rish, yig'ish, yanchish bilan shug'ullandilar. Oilada o'tin yorish, mollarga yem-xashak keltirish, tayyorlash kabi ishlarni bajardilar.

Qizlar kichiklik chog'laridan uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatildi. Ular bog'larda pishib yetiltan mevalarni terish, ko'chatlarni sug'orishda ishtirok etdilar. Onalar ularning tikuvchilikdan ham xabardor bo'lishlariga e'tibor berdilar.

O'g'il va qizlar oilada, dalada turli ishlarni qilishga odatlanib, asta-sekin mehnat jarayoniga kirib bordi, turmush talab etgan malaka va ko'nikmalarni egalladi.

Mehnat, faqat turli soha bo'yicha malaka va ko'nikmalarni egallashda emas, balki olamni bilish, axloqiy yuksalish, go'zallikni his qilish va tushunishda ham asosiy omil bo'ldi.

Mehnat, ish usuli sifatida bolalarning aqliy va jismoniy rivojida, shaxs sifatida shakllanishida aloxida ahamiyat kasb etdi.

Odamlar mehnat tufayli tabiat hodisalarining sodir bo'lish sababini, amalga oshirayotgan ishlarining samarali bo'lishi uchun tabiiy borliqni bilish kerakligani angladilar. Bu ularda tafakkurning rivojlanshida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tmishda o'yin, qo'shiq, go'zallikni namoyish etish, donishmandlarning pand-nasihatlari, hikmatlari, hikoyalari, afsonaviy ertaklar bolalar tarbiyasida, ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim vosita bo'ldi. Bu vositalar bolalarning insonlar hayoti, ularning ruhiy kayfiyati ijtimoiy turmush va tabiat hodisalari bilan uyg'unligini anglab olishlariga yordam berdi.

Qadimiy «Quvlashish», «Tez yugurish», «Bekin-machiq», «Chek tashlash», «Ko'z boylash», «O'rta qo'lni topish», «Tez aytish», «Chitti gul» kabi o'yinlar ja-rayonida bolalarda chaqqonlik, qat'iyatlilik, ja-surlik, odillik, do'stlik, inoqlik xislatlari shakllandi.

Jamoa a'zolari donishmandlar aytgan «Kuchli bo'lay desang, do'st orttir», «Dili pokning ishi pok», «Odobli bola elga manzur», «Vatani borning baxti bor», «El senga cho'zsa qo'l, unga doim sodiq bo'l», «Odamning eng baxtli vaqti boshqalarga ezgu-lik qilish onlaridir» kabi hikmatlar o'g'il va qizlarning vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishlariga yordam beradi, deb bildilar va ulardan samarali foydalandilar.

Ota-bobolarimiz o'z hayotiy tajribalarida mehnat go'zalligiga xususiyati inson hissiyotiga, ongi va xulqiga ta'sir etishdan iboratligini ko'rib, bu haqdagi g'oyalarini bolalar ongiga «Mehnat — farog'at charog'i», «Ish — inson gavhari», «Odamni mehnat bezaydi», «Mehnat — hurmatning toji», «Yigat husni mehnatda» kabi maqollar yordamida singdirdilar.

Ma'lumki, ertaklarda didaktik fikr, ibrat vositalari mujassamlashtiriladi. Ularda ifodalangan «to'qima», hodisalarni oldindan ko'ra bilishlik xususiyati g'oyat ibratli.

Asrlar osha sayqallashib, sodda va teran mazmunlari bilan bizgacha yetib kelgan ertaklar eng sevimli, eng jozibali xalq ijodidir. Ertaklarning badiiy kuchi — ularning xalq orzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan uyg'unlikda, odamlar ruhiya-tini o'zida aks ettirishda, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli qiziqarli bo'lishida.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda yilning to'rt fasli, tabiat hodisalari, kishilarning xatti-harakatlari ham ifodalanadi. Bola ulg'aygan sari uning xotira va tushunchasi ham rivojlanib boradi. Tashqi dunyo uning ko'z oldida tobora kengayib boradi, bola obrazlarni tobora ravshanroq tushuna boshlaydi. Ularda asta-sekin aldoqchi, hiylakor kishilar xislati, adolatli, vijdonli, shafqatli, rahmdil insonlar haqida tasavvur tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. — T.: «Sharq», 2004.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E., Kuronov M., Axlidinov R., Majidov I. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. — T.: «Akademiya», 2002.
3. Xalq pedagogikasi - inson kamolotining asosi. T. N. Qori-Niyoziy nomvdagi

## **RAISING CHILDREN'S SPEECH THROUGH PRE-SCHOOL EDUCATION TECHNOLOGY**

**N.Abdunazarova, teacher of preschool education at Kokand State Pedagogical Institute, students Muxtorova M, Ilxomova B, Qodirova Z**

*Annotation:* The article outlines scientific ideas about the peculiarities of gaming technology. The use of gaming technology is an effective way of raising children's verbal and written speech.

Intellectual intelligence in a person can only be awakened, developed and definitely determined by the well educated instructional process. The principle of continuity and continuity in our country's pre-school education implies the continuous development of mental abilities of pupils.

The training of the educator is definitely bound to his pedagogical skills. It is important for today's educator to look for himself, discover a new method for each workout, strive for the future of his or her own child, and may be the next.

As science and technology improve, it is more difficult to keep the child's learning activity done. Therefore, teaching children through various exhibitions and games will help them to grow their speech and to expand their thinking. It's a great deal of work to do, it's going to be easier for kids to understand and classify them.

The most important thing is that the educator achieves certain successes. The child's perception of the subject becomes easier and can be avoided. And, of course, the intellectual pursuit of children plays and learns in reading and writing. The idea is very simple in front of a person, though it is a problem. One of the main requirements of contemporary pedagogical technology is to make independent thinking and attitudes through games that can make meaningful and engaging essays the most active participants in every session.

The child develops and conditional reflexes form the first and second signals system as a pedagogical process that is constantly formed during the interaction of the organism with cross-discipline and education. The formation and development of the person is also the process of man's social experience.

Pregnancy is a predetermined purpose and plays an important role in the child's development. The determining factor in developing a community experience depends on the individual's active involvement with the outside world. Therefore, the game is to be freely displayed in improvisational (unpretentious) mode. We know that children's lives are full of diverse activities and they are the main types of activities. In the real world there is an interesting reality, because it is clear to the child that the reality that the child has created is revived.

The play activity of children begins at an early age, and goes from simple imitation to development in a complex role play; this game first reflects people's activities related to things, norms and rules of social behavior.

Game education is a major factor in the successful implementation of the educational process. Therefore, in the development of key issues in educational institutions, play is considered as an important means of educational and educational capacity. The game, like every child's activity, develops within the limits of its own rules, and is characterized by the need for a growing young organism in which organizational skills are trained. But the game is always a game. There are also other games that make up children's attitudes of freedom of thought, independence, justice, friendship.

The game is a complex motion of action, consisting of various movements of historical, social and philosophical concepts. The game is one of the specific forms of human activity. The concept of "play" includes the educational and physical and educational activities of the baby, from simple actions of a baby.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHINING BA'ZI BIR KAMCHILIKLARI

N.Abdullayeva ADU o'qituvchi,  
G.Nasirdinova Izboskan tumani 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

*Annotatsiya:* maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ba'zi bir kamchiliklari yoritilib berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsga qiziqmasliklari sabablariga to'xtalib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* zamonaviy o'qituvchi, qiziqish, individual xususiyat, dunyoqarash, hayotga bog'lanmaganlik.

Ilm fan jadal rivojlanayotgan juda ham tezkor zamonda yashayapmiz. Zamonga mos ravishda yoshlarning dunyo qarashi, fikrlashi ham o'zgarib bormoqda. Bugungi o'qituvchisining bilimi cheksiz va dunyoqarashi juda keng. Ularni biror mashg'ulot, nofaol va faol metodlar bilan darsga qiziqtirish mushkul. Lekin zamonaviy o'qituvchi har qanday davrda ham o'qituvchilarni o'zining ortidan ergashtira olishi kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi hamisha o'qituvchilardan bir qadam oldinda yurmog'i, ularning orzu istaklari, qiziqishlaridan kelib chiqib, o'z ustida ishlashi lozim. Tinimsiz o'qimog'i va o'z-o'zini doim nazorat qilib bormog'i shart va juda muhimdir. Inson dunyoga kelgach, umrining oxirigacha o'qituvchidir aslida. Ba'zan kichik o'qituvchilar ham o'zi bilmagan holda kattalarga saboq berishi mumkin. Shuning uchun ham kichik yoshdagi maktab o'qituvchilariga shaxs sifatida hurmat bilan qarash kerak.

O'qituvchi tashkil etadigan an'anaviy darslardagi bir xillik o'qituvchini zeriktiradi. Bu o'qituvchilarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini so'ndirishi mumkin. O'qituvchining o'qitishni yoqtirmay qolishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- o'qituvchi yoqtirmaydigan maktab yoki o'qituvchining qat'iy qonun va qoidalari;
- o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmay maktabda hamma kabi bo'lishini talab qilinish;
- mavzularni hayotga bog'lanmaganligi;
- xato qilishning ta'qiqlanishi (holbuki Edisson lampochkani ixtiro qilgunicha 999 marta xato qilgan);
- o'qituvchini o'zi yoqtirmagan, hohlamagan o'qituv ishlariga majburlash.

O'qituvchining muhim vazifalaridan yana biri o'qituvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari. O'qituvchining ish faoliyati davomida o'qituvchilar bilan muomala munosabatlari katta o'rin egallaydi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shahs bo'lib hizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish, Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab o'qituvchilari, o'qituv yurtlarining pedagog hodimlari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog hodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-ahloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'qituvchi va talaba, o'qituvchi - o'qituvchi shahsining qadr qimmatini asrashlari; bolalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviy-tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muqitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shahsiy namunalari bilan umuminsoniy ahloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa hayrli hislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

Shunday ekan bugungi kun o'qituvchisi har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lishi, o'z fani bo'yicha olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olishi va o'qituvchilarga ham hayoti davomida fanning qanchalar ahamiyatga ega ekanligini aniq asoslar bilan tushuntirib bera olishi kerak. Agar o'qituvchilar o'qituvchining metodi sababli fanga mehr berishsa, bunday ustoz o'z ishining haqiqiy ustasidir va shudagina u "Ustoz" degan sharafli nomga loyiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Н.У.Бикбаева ва бошқалар. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. "Ўқитувчи" нашриёти. Т.: 1996, 201-бет.

2.Ғ.И.Мухаммедов ва бошқалар. Педагогика фанининг баркамол авлодни шакллантиришдаги ўрни. “Сангзор” нашриёти. Т.: 2003, 46-бет.

## **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ ВА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

**С.Исмоилова – АДУ, БТМ кафедраси катта ўқитувчиси,  
М.Усмонова – АДУ, БТСТИ таълим йўналиши талабаси**

***Анотацияси:** Мақолада бошлангич синф ўқувчиларида миллий тарбия ва миллий қадрият тушунчаларини шакллантириши ҳақида қисқача тўхталдик.*

***Калит сўз:** маданият, урф-одатлар, удумлар, миллий тарбия, қадрият, комил инсон, тарбия, анъана, ақл-заковат, миллий гуруҳ, ахлоқ-одоб, гўзаллик.*

Таълим – жамият тараққиётининг асосидир. Жаҳонга машхур аждодларимизнинг бой илмий меърослари ниҳоятда беқиёс бўлиб, улар бугунги кун ёшларига таълим-тарбия беришда бебаҳо хазинадир. Ёшлар тарбияси ҳамиша муҳим масала бўлиб келган. Қадимги ва ўрта аср Шарқ ва Европа мутафаккирилари таълим жараёнида бола ўз фикрига эга бўлиши лозимлигини жуда кўп таъкидлашган. Аристотель, Сукрот, Мусо ал-Хоразмий, Абу Наср Фаробий, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Берунийлар ҳам инсон тарбиясига таъсир этадиган омиллар аҳамиятига эътибор бериб келганлар. [2]

Бизга маълумки, ҳар қандай тарбия таълим билан чамбарчас боғлиқ ҳолдагина мавжуд бўлади. Чунки, таълим ва маълумот олиш жараёнида шахснинг фақат билими кўпайибгина қолмай, балки маънавий-ахлоқий сифатлари қарор топиши ҳам тезлашади. Ана шу сабабдан ҳам ота-боболаримиз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш илму маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарт ва гарови деб билганлар.

Инсонийликнинг асосий белгиси – маънавийдир. Чунки инсон дунёга келгандан бошлаб, албатта, жамоатчилик таъсирида, таълим-тарбия натижасида инсонга хос бўлган фазилатлар шаклланади. Маънавий фақат инсонга хос бўлган хусусиятдир. Одам боласи онгга, ақл-идроқ ва тафаккурга эга эканлиги билан, имон-этиқодга, шарм-ҳаё, одоб-ахлоқ, ор-номус сингари фазилатлар соҳиби эканлиги билан маънавийлиги ҳисобланади.

Она тили ва ўқиш дарслари орқали кичик ёшдаги боланинг онги, маданияти узликсиз таълим мақсадлари билан уйғунлашуви ва шу фанлардан тўлиқ саводхон бўлишлари кўзда тутилади. Ёш авлоднинг маънавий камолоти она тили ўқитишнинг самарадорлигига боғлиқ. Нутқ одоби, муомала маданияти, нотиклик каби малака ва кўникмалар она тили дарсларида амалга оширилади.

Ўзбек халқи бой маданиятга, урф-одатларга ва удумларга эга бўлган қадимий халқдир. Миллий тарбия, қадрият тушунчаларини онгда шакллантирмай туриб, комил инсон тўғрисида гапириш қийин.

Авалло, тарбия, қадрият, анъана, урф-одат ўзи нима? деган саволга жавоб бериб ўтайлик.

**Тарбия – инсон маънавий камолотининг асосий пойдевори ҳисобланади. Яхши оилада тарбияланган фарзандгина маънавий камолотнинг кенгроқ имкониятларига эга бўлади, оиласи, Ватани ва жамият учун амалий фаолият ҳозирлайди. Ватани, миллати олдидаги ўз бурчи, масъулиятини тўла англаб етади.**

Қадрият – инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган барча нарсалар, масалан, эркинлик, тинчлик, адолат, маърифат, ҳақиқат, яхшилик, моддий ва маънавий бойликлар ва бошқалар ҳисобланади. Бизнинг мустақил республикамызда инсон ва инсоният энг олий қадрият ҳисобланади.

Анъана – бу ўзига хос ижтимоий ходиса бўлиб, кишилар онгида, ҳаётида ўз ўрнини топган, авлоддан-авлодларга ўтадиган такрорланадиган тартиб ва қоидалар.

Урф-одат – эътироф, баҳо бериш, расм, одат, тамоил, ўрганиш. Умум томонидан қабул қилинган ва амал қилинадиган тартиб қоида, расм. Кишиларнинг турмушига сингиб кетган, такрорланадиган хатти-ҳаракат, кўпчилик томонидан қабул қилинган хулқ-атвор қоидалари. [1]

Миллий қадриятлар ота-боболаримиздан бизгача етиб келган удумлар: бешик тўйи, никоҳ туйлари, кексаларни ҳурматлаш, мурувват кўрсатиш, ватанига, халқига муҳаббат, жамият олдидиги инсонийлик бурчларини виждонан бажариш кабиларни ўз ичига олади. Ўзбек оилаларида фарзандни жисмонан бақувват, ақлан баркамол қилиб тарбиялаш билан бирга уларни ҳаётга, турмушнинг оғир синовларига бардош беришга тайёрлайди ва ўғит, насиҳатлар ҳамда меҳнатда чиниқиш шаклларида унумли фойдаланилади. Маънавий-моддий қадриятларимиз инсонни маънавий покликка ундайди, у инсон тафаккурини чархлайди, огоҳ қилади.

Бизга маълумки, ҳар қандай жамиятнинг пойдевори мактабдан бошланади. Шунинг учун бошланғич синф давриданок болаларга миллий қадриятларимиз, тарбия ҳақидаги тушунчаларни шакллантирмоғимиз, қадриятларнинг умумий ва муҳим белгилари ҳамда ўзаро боғланишлари ҳақида тушунча ҳосил қилмоғимиз керак.

Бошланғич синф ўқувчиларида дастлаб тарбия, қадриятларнинг айрим турлари, масалан, меҳмон кутиш, салом бериш, катталарни ҳурмат қилиш, оилага, кўни-кўшинларга меҳрибонлик қилиш каби тушунчалар билан таниш бўладилар. Уларга қадрият, тарбия тушунчасини шакллантиришда фақат боланинг ўзини қизиқтирган нарсаларнигина эмас, уни қизиқтирмайдиган, ҳаётини воқеа-ҳодисаларга ҳам диққатини жалб этиш, завқ-шавқ олишга ўргатиш лозим. Бошланғич синф ўқувчилари фаолиятида, айниқса, “Баҳорой”, “Наврўзой”, “Деҳқонбобо” каби образлар яхшилик, эъзулик элчилари сифатида намоён бўлади. [2]

Миллий тарбия, қадриятлар ҳақидаги тушунчаларни шакллантиришда оддийликдан-мураккаблика қараб борилади. Масалан, “Нима яхши-ю, нима ёмон?” мавзусида ташкил этилган дарсларда болаларда ўзбекона урф-одатлар саломлашиш, хайрлашиш, катталарни ҳурмат қилиш, жамоат транспортларида уларга жой бериш каби одоб-ахлоқнинг оддий кўринишларини бола онгига сингдириб бормоқ лозим.

Миллий тарбия, қадриятларнинг асосий қисмларидан бири ватанни севиш, уни пок сақлаш, табиатни эъозлаш, парвариш қилиш каби тадбирлар орқали олиб борилади. Болаларга ҳар томонлама тарбия бериш, аввало уларда миллий ғурур ва ахлоқ-одобни, гўзалликни таъминлаб, миллий-маданий дунёқарашни шакллантириш керак. Миллий қадрият ва анъаналарни ёш авлодга тушунтиришда ривоят ва ҳодисалардан намуналар келтириб, улардан керакли хулосалар чиқариш лозим.

Аждодларимизнинг ақл-заковати билан юзага келган миллий тарбия, қадриятларимиз ёш авлоднинг ҳар томонлама камол топишида етакчи омиллардан ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда ушбу мақола орқали бошланғич синф ўқитувчилари бошланғич синф ўқувчиларида миллий тарбия ва миллий қадрият тушунчаларини шакллантириш кераклиги ҳақида назарий ва амалий-услубий маълумотларни бериб ўтишни жоиз деб топдик.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.

2. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS TAHLIL QILISHNIG AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

M.Kodirova – ADU o`qituvchisi  
M. Roziqova - ADU talabasi

**Annotatsiya:** Dars tahlili maktabda o`quv tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim shakllaridan biri sanaladi. O`qituvchi darsni kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi, darslarni qiyoslash va yo`l qo`yilgan xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkonini beradi.

**Kalit so`zlar:** Dars, tahlil qilish, baholash, metodika, material, didaktika, pedagogik mahorat, amaliyot.

Har bir o`qituvchi va rahbar hodimlar belgilangan miqdorda o`zaro darslarni kuzatish, tajriba almashish maqsadida darslarni tahlil qilib kuzatishlari kerak bo`ladi. Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o`quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o`quv faniga bo`lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, o`qituvchiga bo`lgan munosabati aniqlanadi. Quyida yoritilgan maqola o`qituvchi pedagoglarga qo`llanma sifatida ko`maklashadi.

“Tahlil“ so`ziga to`xtalib o`tsak, bu terminga turlicha ta`rif va izoh keltirishimiz mumkin. Xususan, “Dars tahlili” biror narsa, ma`lumot va shu kabilarni ma`lum nuqta`i nazardan o`rganish hamda baholash desak maqsadga muvofiq bo`ladi. Ta`kidlash joizki, umumiy o`rta ta`lim maktab o`qituvchilarining darslarini tahlil qilishda ko`pincha kuzatuvchilar darsga yaxlit tizim sifatida qaramay ko`proq tashqi jihatlariga baho beradilar, darsning mazmun mohiyati xususida yuzaki ma`lumot yuritadilar. Shuningdek, dars tahlilida o`qituvchining ko`rsatmali qo`llanmadan foydalanishi, didaktik kartochkalar bilan ishlashi va hokazolar aytiladiyu ammo ulardan nima maqsadda foydalanilgani, qanchalik samara berishi, vaqt taqsimotiga to`g`ri amal qilinganligi, o`quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olgan olmaganligi kabi masalalar to`g`risida fikr yuritilmaydi. Bundan tashqari yana bir jiddiy kamchilik o`qituvchining o`zini o`zi tahlil qilishga e`tibor qaratmaslikdir. O`zini o`zi tahlil qilish tamoyili o`qituvchining o`z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga oid maqsadli yo`lni belgilab olishga asos bo`ladi.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilinishi lozim. Shundagina natijasi samarali bo`ladi va o`quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Dars tahlilida tizimsizlik, aniq bir maqsadning yo`qligi, darsgabtasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o`qituvchiga amaliy yordam ko`rsata olmaslik esa darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi. Dars tahlil qilishning ahamiyati nimada? Dars tahlili maktabda o`quv tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim shakllaridan biri sanaladi. O`qituvchi darsni kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi, darslarni qiyoslash va yo`l qo`yilgan xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkonini beradi. Dars tahlili o`quv mashg`ulotini kuzatish, o`rganish shaklida olib boriladi. Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta`lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o`qituvchining pedagogic mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilg`or ish usullari va metodlarini o`rganish va ommalashtirish;
- o`qituvchilarning o`zaro tajriba almashishi;
- o`quvchilarning bilish faoliyatini o`rganish;
- ta`lim tarbiya jarayonida o`quvchilar psixologik xususiyatlarini o`ziga xosligini e`tiborga olish.

Dars tahlil qilish qay tarzda olib boriladi? Bu savolga metodist olim S.Alixonov quyidagicha yo`nalish bergan:

- 1.Darsni kuzatishga tayyorgarlik.
- 2.Darsning borishini kuzatish.
- 3.O`z o`zini tahlil qilishni ta`minlash.
- 4.Dars tahlili va takliflar berish.

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik:

- dars kuzatishdan ko'zlanayotgan maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- kuzatiladigan darsni aniq belgila bolish;
- dars uzatish tuzilmasini tayyorlash;
- kerakli materiallarni tayyorlash, o'qituvchi bilan suhbatlashish.

2. Darsning maqsadlarini tahlil qilishda:

- o'quv fani va mavzuning o'ziga xos tomonlari, o'quchilar yoshi va bilim darajasi e'tiboraga olingan holda ta'lim tarbiya maqsadining to'g'ri va asosli qo'yilganligi;
- o'quvchilarning tayyorgarligi, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o'rnini hisobga olgan holda maqsad qo'yilishining to'g'riligi va asoslanganligi;
- dars asosiy g'oyasining to'g'ri qo'yilishi va o'quvchilarga maqsadning yetkazilishi, maqsadga erishish darajasi.

3. Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:

- dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;
- darsning turi, strukturasi va mazmuni o'ylanganligi;
- dars bosqichlarining mantiqiy ketma-ketligi va bir biri bilan bog'liqligi;
- dars bosqichlari uchun vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi;
- o'qitish shaklining to'g'ri tanlanganligi;
- dars rejasining mavjudligi va uning o'quvchi tomonidan bajarilishini tashkil qilish;
- dars jihozlari, o'qituvchi va o'quvchilarning mehnatini unumli tashkil qilish.

4. Dars mazmunini tashkil qilishda:

- dars mazmunining DTS talablariga mosligi;
- materiallarning ishonchliligi, to'liqligi, tushunarililigi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darajasi;
- darsning tarbiyaviy yo'nalishi, ta'limiy ta'sir darajasi;
- darsni hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirish bilan bog'lash;
- o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- yangi materialning asosiy g'oyasini ajratish. Yangi tushunchalarni shakllantirish.

5. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish:

- mashq va topshiriqlarning xususiyatlari, mustaqil ishlarining turlari, murakkablik darajasi, o'quvchilar tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;
- o'qituvchi tomonidan tushuntirish ishlarining olib borilishi;
- o'qituvchining yordamida yangi materialning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash.

6. Dars o'tish metodikasini tahlil qilish:

- o'qitishning metod, vosita va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmuniga, dars maqsadlariga, sinfning imkoniyatlariga mos tanlanganligi va asoslanganligi. O'qituvchi tomonidan darsning har bir bosqichida metod, usullarni to'g'ri qo'llaganligi, ishlatilayotgan metod va usullarning xilma-xilligi. O'qituvchining metodik qurollanganligini va pedagogik texnikasini baholash.

7. O'quvchilarning darsga intizomi va ish faoliyatini tahlil qilish:

- sinfga umumiy baho berish. Sinfning diqqati va faolligi. Fanga bo'lgan qiziqishi. O'quvchilarning darsbosqichlaridagi layoqati
- o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish. O'quv faoliyati shakllaridan foydalanishning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash. Umumta'lim va maxsus ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish. Yagona talablarning bajarilishi. Iqtidorli va qoloq o'quvchilar bilan yakka taribda ishlash. Umumiy va yakka ishlash faoliyatini birgalikda olib borish. Sinfning intizomi va intizomni saqlash usullari.

8. O'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti:

- pedagogik etikasi, nutqi, ahloqiy va psixologik iqlimning tashkil etilishi.

9. O'quvchilar bilimini baholash:

- o'quvchilarga berilgan bilim, ko'nikma va malakaning sifati. Mustahkam va chuqur bilim berilishi. G'oya va materialning asosiy tomonlarini ko'rsata olishi, amaliy ko'nikmalarning egallanganlik darajasi.

10. Uy vazifasini tahlil qilish:

Uy vazifasini berishdan maqsad va hajmi. Sinfda bajarilgan ish bilan uyga berilgan vazifaning hajmi. Uyga berilgan vazifaning xususiyati (ijodiy, takrorlash, mustahkamlash, rivojlantirish), uy vazifasini berishda o'qituvchining izohi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har qanday jarayon amalga oshirilishidan oldin maqsad va vazifalar to'liq tushunilgan holatda qo'yilsa, natijasi ijobiy va samarali bo'ladi. Shuningdek har bir dars kuzatuvchi darsni qay maqsadda va qanday usulda kuzatilishini oldindan bilishi va amal qilishi talab qilinadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. S. Alixonov "Matematika o'qitish metodikasi" Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2011 yil
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

### **BOLA KAMOLOTI TARAQQIYOT XIZMATIDA**

**Sh.Q.Naymanbayeva, Farg'ona shahar  
5-o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar va vositalar hamda boshlang'ich ta'limdagi inson, muhit va tarbiya faktorlariga bag'ishlanadi.

**Kalit s'ozlar:** jamiyat, taraqqiyot, maktab, oila, o'qituvchi, munozara, munosabat

Farzandlarimizning kamoloti, jamiyatimiz taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lim sifati bilan bog'liq. Muhtaram Prezidentimiz va hukumat ta'limning hamma bosqichlarida yuqori sifatni ta'minlashning chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Bunga javoban hamma yerda bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limda ham sifatni ta'minlash maqsadida islohotlar jadal tusda amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich ta'limda bola kamoloti uchun asos yaratiladi. Inson resursi taraqqiyotga xizmat qilishini to'la taminlash maqsadida ta'lim jarayonida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (TSTEO), ta'lim sifatiga ta'sir etuvchisi vositalar (TSTEV) va ta'lim sifatini belgilovchi qonuniyatlardan ta'limning har bir bosqichida keng foydalanib, ish tashkil etish lozim bo'ladi. Jumladan boshlang'ich ta'limda Inson, Muhit va Tarbiya (IMT-faktor) ning organik birligining e'tibor markazida bo'lishi, ta'lim sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi.

IMT-faktor boshlang'ich ta'limda kanday amalga oshadi?

Savod o'rgatishning har bir mashg'ulotida insonga ya'ni bolaning o'ziga xos xususiyatlarni dastlabki belgilarini namoyon qilib boradi. Bu belgilarni ko'zdan qochirmasdan, e'tiborga olib borish kerak. Ba'zi belgilar o'tkinchi, taqlidiy harakterda bo'lsa, ba'zilar rivojlanib boradi. Qo'yinki, maktab, oila, o'qituvchilarning vazifasi savod, ilm berish jarayonida o'quvchini o'rganishi kerak. U haqida, odobidan, qiziqishlaridan, qobiliyati qirralari, faxm-farosat belgilari, xotirasi, tahlilga moyilligi mulohaza, munozara va munosabatga (MMM) faolligi va shu kabi ko'plab bolaga xos xislatlarning rivojlanish dinamikasi hakida ma'lumotlar bazasini shakllantirib, kompyuter xotirasida har bir bola uchun maxsus sahifa shakllanib borishi kerak. Inson bolasi yoshlikdan qiziquvchan bo'ladi. Ayniqsa kichik maktab yoshida bu jarayon faollashadi. Bu jarayonda u tabiat va jamiyatdagi har narsa, hodisaga fikr bildirishga harakat qiladi. Bu holatda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'ta e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Bola hodisalarga mulohaza, munozara va munosabat ketma-ketligida yondashyaptimi, shunday bo'lsa mazmun mohiyat va mantiqqa munosabati qay darajada o'qituvchi bilishga harakat qilishi shart. Gumonlar, taxminlar va tavakkalga asoslangan hollarda bolani MMM ga yetaklash zarur. Bu ishlarni boshlang'ich sinflardan amalga oshirmasak, aks holda bola bir umr yolg'onga oshno bo'lib, niqobda yashaydi.

Ijod va ilm zavqidan uzoqlashadi. Bunday holatda hech qanday chora tadbir ta'limni yuksaltira olmaydi. Unga sifat bermaydi. Inson bolasini bilmasdan, unga berilgan ta'lim chala bo'ladi. Uni asosiy ishdan chalg'itadi. Sifat, qachonki bolaga mos faoliyatni tanlay olsakkina bo'ladi. SHu sababli maktab bolaga hayot faoliyatini to'g'ri tanlashga yordamlashishi kerak. Aks holda yuqorida ta'diklaganimizdek, bir umr qiynaladi, yolg'on bilan oshno bo'lib, niqobda yashaydi. Asl bashara ezgulikka emas jaholatga xizmat qiladi. Oliy o'quv yurtlariga kirishdagi uch saotlik TEST hech narsani aniqlay olmaydi, 11 yillik faolliyat to'g'ri aniqlashga yetarli muddatdir. Hozirda TSTEO, TSTEV va qonuniyatlarning IMT-faktoriga yetarli e'tibor berilmagani uchun juda katta ta'limning o'qitish, nazorat va boshqaruv, qolaversa baholash tizimiga yo'naltirilgan mablag'i behuda ketayotgani sir emas. Ask holda islohotlarga bunchalik e'tibor qaratilmas edi.

IMT-faktordagi yana bir muhim narsa "Muhit"dir. Inson bolasi qanchalik qobiliyatli iste'dod egasi bo'lmasin, uning kamoloti uchun yetarli siyosiy-ijtimoiy muhit yaratilmasa u rivojlanmaydi. YAna bir narsa "muhit" omiliga yagona o'lchamda yondashish zarur.

Oila muhiti qanchalik kuchli ijobiy holatda bo'lmasin, siyosiy, ijtimoiy muhit to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, bu yo'ldagi har qanday harakat dengizdan tomchidek gap.

Muhit omili keng qamrovga ega, uning har bir holatiga umumiy nuqtai nazardan, alohidalikka yo'l qo'ymay yondashilsagina, u ta'limda ijobiy natijaga olib boradi. Aks holda, har xil balandparvoz reja va dasturlardan nariga o'tilmaydi. Muhit kerak bo'lsa, tabaqalashtirish maqsadida maxsus kompyuter dasturlari asosida o'qitish va baholashni ham amalda qo'llashi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda bu tajriba keng qo'llaniladi. Bu hech kimga sir emas, hamma biladi.

IMT-faktorda asosiy omil tarbiyaga qaratiladi. Tarbiyaga insoniyat qadimdan alohida ahamiyat bergan. Ulug'larimiz tarbiyada ya'ni jism, ruh va fikr tarbiyasi kabi uchta narsaga e'tibor berishgan.

Masalan, inson bolasini jismini tarbiyalashga (sog'lom turmush, jismoniy tarbiya va hokazo) kundalik hayotda tizimli e'tibor berish, tug'ri ovqatlanishdan tortib, toza yurishini, kiyinish va boshqalar.

Tarbiyaning yana bir muhim tomoni "ruh" tarbiyasidir. Inson bolasi har bir faoliyatga yoshlikdan ruhan tayyorlab borish kerak. Bu alohida mavzu.

Inson bolasini yoshlikdan ma'lum faoliyatga tayyorlashga fikr tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Fikr tarbiyasi ijodkorlikka, yaratuvchanlikka yetaklaydi, Fikr tarbiyasi orqali tafakkur rivojiga erishiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy majlisga murojotnomasi. 2020-yil 24-yanvar.
2. S.Irmatov va boshqalar "Muammolarni birgalikda hal qilaylik" "Farg'ona xaqiqati" gazetasi, 2002 yil 19 dekabr, Farg'ona.
3. R.Naymanbayev, S.Irmatov "Inson, muhit va tarbiya" "Mezon" gazetasi 2004 yil, 29-dekabr, Toshkent.
4. R.Naymanbayev. "Kuch – bilim va tafakkurda yoki sifatsiz tarbiyajinoyat emasmi?" "Farg'ona xaqiqati" gazetasi, 1999 yil 25 mart Farg'ona.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIK VA EVRISTIKANING UYG'UNLIGI.**

**O.Mamajonova, Andijon tumani  
23-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:**Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaning tarbiyasida kreativlik va evristikaning mazmuni, ahamiyati va ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va bog'liqligi haqida fikrlar bildirilgan. Kreativ pedagogika, evristik ta'lim,kreativlik ta'lim tushunchalari orqali bola ijodiy faoliyatini o'stirishga xizmat qiluvchi masalalarga ahamiyat qaratilgan.

**Kalit soʻzlar:** kreativlik, kreato, ijodiy fikr, yoʻnaltirish, ijodkorlik, naʼmuna, kreativ pedagogika, transformatsiya, evristika, “heurist”, “izlayman”, loyiha.

Hozirgi zamon taʼlimining bosh va asosiy vazifasi-oʻquvchining intellektual darajasini, yaratuvchanlikni, ijodkorlikni, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmogʻi kerak. Bugungu kunda yoshlar tarbiyasiga alohida yondashuv katta samaralar bermoqda.

Ayniqsa, “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari” toʻgʻrisidagi 2019 yil 3-maydagi Prezident qarori yoshlar tarbiyasida ularni ijodkor va kreativligini oʻstirishda bajarilayotgan ishlarining dasturiy amal boʻlib kelmoqda.

“Creato”- lotincha soʻz boʻlib, yaratuvchanlik, ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, oʻquv -biluv jarayonida masʼuliyat, yaratuvchanlik ijodkorlik kabi aʼnolarni beradi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini oʻrganish kreativ pedagogika deyiladi. Shuningdek, kreativ pedagogika-ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratish, oʻrganishni tushunamiz.

Taʼlim jarayoni oʻquvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan loyihalar asosida jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yoʻnalishga ega, oʻquvchilarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi. Ijodkorlik va madaniyatlilik oʻquv faoliyatda tizimli olib borilishi ijodkorlikka asos boʻladi. Oʻquv jarayonidan tashqari vaqtda “texnik ijodkorlik asoslari” ilmiy izlanish yoʻnalishidagi toʻgaraklar tashkil etilsa, oʻquvchining loyihalash ijodkorligi oshadi, boʻsh vaqtini mazmunli va maqsadli yoʻnaltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor boʻlib yetishishiga sabab boʻladi.

Bizga maʼlumki, tarixan taʼlim ikki madaniyat chegarasida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi – gumanitar, badiiy yoʻnalishda boʻlsa, ikkinchisi – ilmiy va texnik yoʻnalishdadir. Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish kontseptsiyasida texnika fanini insonparvarlashtirish va nazariy muhitda rivojlanishining asosi qilib olingan. Aniq fanlarning rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot informatsion texnologiyalar bilan chambarchas bogʻlash yaxshi natijalar bermoqda.

Oʻquv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish oʻquvchining oʻquv jarayoniga boʻlgan shaxsiy masʼuliyatini oshiradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida motivatsiyaning kuchayishi orqali qoʻshimcha maʼlumotlar olish asosida oʻz bilimini boyitib borish extiyojini tugʻdiradi. Oqituvchi bolaning oʻquv jarayonida kreativ yoʻnaltirish uchun: oʻquv materialini berib borish, qoʻshimcha materiallarni taklif etish, izlanishga, ijodkorlikka yoʻnaltiruvchi material asosida oʻz extiyoji, xoxishi orqali yangilik sari yetaklash. Oʻquv jarayonini ham shunday oʻzgartirish kerakki, unda oʻquvchi oʻquv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan oʻquv materiali oʻsha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

Oʻquv materiallariga yangi qoʻshimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklifi orqali oʻquvchini ijodiy fikrlashga qiziqishini oshirish kerak. Demak, bola faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash, har qanday muammoli vaziyatni oʻz vaqtida hal etsa, oʻquvchi uchun asta – sekin koʻnikma va malakaga aylana boradi.

Evristik taʼlim metodining keng tarqalishi bizga XX asrning ikkinchi yarmidan kela boshlagan. Evristika”–grekcha soʻz boʻlib, “heurist” soʻzi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” maʼnolarini beradi. Pedagogikada oʻquvchi fikrini rivojlantiruvchi, maqsadli, sermahsul ishlanmalar asosida qoʻllanilgan. Koʻproq bu usulni birinchilardan boʻlib, matematik olimlar oʻquvchilar isteʼmoliga kiritganlar. Koʻpincha uni “matematik yechish sanʼati” metodlari shaklida qoʻllash maʼqul koʻrilgan. Keyinchalik uni boshqa oʻquv predmetlarini oʻqitish jarayonida ilgʻor, universal metodlar sifatida ham qoʻllanilgan.

Bu muammo bilan oʻz davrida faylasuf askar, grek matematigi Papi Aleksandriyskiy, keyinchalik fruntsuz faylasufi va matematigi R. Dexretler shugʻullanib, evristik metodlar universal metoddir, degan xulosaga keldilar.

Oʻquvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik metodlar asosidagi taʼlim alohida oʻrin tutadi. “Umuman evristik taʼlim juda uzoq antik zamonlardan beri qoʻllanib kelinadi. Birinchi bora taʼlim jarayonida qoʻllanilganda – evristik suhbatlar



yo'naltirilgan, ketma – ket berilgan savollarga javob jarayonida shakllangan, savollarga javob berishda javoblar o'quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan.

Ilg'or metod sifatida uni Yan Amos Komenskiy ta'lim tizimiga kiritish zarurligini uqtirgan. U evristik usuldan ta'lim jarayonida foydalaniladi, shaxsning o'ylashi, ijodiy fikr yuritishi zamirida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi, deb ta'rif beradi. Evristik ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali sifat va samaradorlikni oshirishda nimalarga erishish mumkin:

-evristika asosidagi ta'lim o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, o'quvchining o'zi shaxsan izlanishi, o'rganishi, o'ylantirishiga asoslangan, unda izlanish, qidirish, topish orqali ongli o'zlashtirishga olib keladi. O'quvchining ijodiy fikrlashi, muammolarning yechimini topishi, uni intellektual salohiyatini oshiradi, individual ishlash orqali esa o'z kuchiga ishonchining ortib borishi ijobiy natijalarga erishish omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2019 yil 3-maydagi Prezident qarori.

2. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi. –T.:1998yil

3. Yo'ldoshev J, Yo'ldasheva F, Yo'ldasheva G. "Interfaol ta'lim sifat kafoloti". T. 2008.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIMNING O'RNI**

**M.Ismoilova, Andijon tumani**

**54-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muammoli ta'limning o'rni va ahamiyati, muammoli vaziyatlarni yaratish orqali bola kreativligini oshirish hamda muammoli o'qitish metodlari haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Muammoli vaziyat, muammo, muammoli ta'lim, muammoli ta'lim darajalari, muammoni yechish bosqichlari, muammoli ta'lim metodlari.*

Muammoli ta'lim – tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv – biluv jarayoniga extiyoji, qiziqishi va hoxishlarini ortirishga sabab bo'ladi.

Agar o'quvchi muammoli ta'limning mazmun -mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakl va metodlarini, texnik jixatdan jixozlanishini amalda qo'llay olsa, u o'z -o'zidan muvaffaqiyat keltiradi. Muammoli ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan M.I.Maxmudov, M.N.Sketkin, A.M.Matyuvgikven, I.Ya.Lanker kabi olimlarning xulosalariga ko'ra quyidagi muammoli ta'lim metodlarini: tushuntirish, namoyish etish, muammoli bayon qilish, reproduktiv, ilmiy izlanish kabilarni keltirish mumkin. O'qituvchining didaktik jixatdan tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki, muammoli ta'limning nazariy va amaliy jixatlarini atroflicha o'rganish – o'quv jarayonini san'at darajasiga olib chiqish demakdir. U o'z navbatida o'quvchining ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishga kafolatdir.

Boshlang'ich sinf 3-4-sinflarida muammoli vaziyatlarni yaratish usullari:

1. O'qituvchi bolalarni ziddiyatni tug'dirish holatiga keltiradi va o'zlariga yechimni topishni taklif etadi.

2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.

3. Bir xil savolning o'ziga javobni berishda har xil fikrlarni bildiradi.

4. Hodisani har xil pozitsiyadan turib, ko'rib chiqishni taklif qiladi. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.

5. Aniq savollarga aniq yechimlarni topishni so'raydi. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini topishga har bir o'quvchini o'z shaxsiy fikr va qarashlarini so'raydi. Umumta'lim maktablari, oldida turgan bosh maqsad bolaning har tomonlama garmonik rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy faktor, uning yuqori darajada mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchiga mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin. O'quvchini fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish muumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali ta'lim metodini amalga oshirishda yangicha didaktik yondashuv asosida olib borilishi tushuniladi. O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor, avvaldan tayyor, mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi. O'qitish- shunday holatki, o'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni keltiradi.

Muammoli ta'lim darajalarining bosqichlari;

1-bosqichi-o'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi. Qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

2-bosqichi o'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

3-bosqich o'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.

4-bosqichida o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni yoki yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchini murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida unga tizimlili ravishda muammolar qo'yib boradi, o'quvchiga axborot beradi, o'quvchi mustaqil xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushuncha, qoidalar, xulosalar chiqaradi. Muammoli o'qitish metodlari:

1. Muammoni bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning yechimini mustaqil qidiradi va topadi.

2. Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchilarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar.

3. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.

4. Muammoli vaziyat o'quvchilarning o'zlari vujudga keltiradilar. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanishlari, yangicha fikrlashlari orqali o'zaro yechim qidiradilar, topadilar.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish metodlari juda muhim rol o'ynaydi. Chunki, muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchida bunday sifatlarning shakllanishi, o'quv- biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish, izlanish uning kundalik odatiy ishiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim mazmunini, takomillashgan standartlar, moderinizatsiya qilingan dasturlarni to'la o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili” davlat dasturi.

2. Mavlonova R. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. G'ofur Gulom nashriyoti. T.: 2013.

3. ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕЖМЕНТ. Москва, 2006.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING ZARURLIGI**

**X.Olimova, O.Ergasheva, Andijon tumani  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari**

*Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini o'stirish, zamon talabiga mos o'qituvchilar tayyorlash haqida fikr yuritiladi. Kasbiy kompetentlikning o'ziga xos turlari boshlang'ich ta'limdagi o'rni haqida fikrlar ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilar, kasbiy mahorat, kompetentlik, psixologik, metodik, informatsion, kreativ, kommunikativ kompetentlik.

Pedagogika ta'lim tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asosda ta'lim tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

2018 yil 27-iyun "Yoshlar kelajagimiz davlat dasturi", 2018 yil 6-sentabr "Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmonlardan kelib chiqqan holda mutaxassis, o'qituvchilar bolalar bilan ishlashda kasbiy mahoratga egalik talab etiladi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo'lib, ular ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. O'zbek xalq pedagogikasida asrlar mobaynida asosiy tushunchalar shakllangan: parvarish, tarbiya, mukammallashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, nasihat qilish, o'qitish, ta'lim berish, o'rgatish. Forobiyning fikricha, insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l-ta'lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: "Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat-nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, etuklik namoyon bo'ladi". Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan, har bir insonni kamolga etkazishida o'z o'rnini va xususiyati borligini alohida ta'kidlaydi. Shu o'rinda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlikni haqida fikr yuritamiz.

**"Kompetentlik" tushunchasi** - ta'lim sohasiga psixologik-pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, o'z g'alalar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olishni tushunamiz. Ayniqsa bola faoliyatlarini rivojlantirishda hamda sinfda sinfdan tashqari faoliyatida ham qo'l keladi.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma, malakalarni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

-psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog'lom ruhiy muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida ang'lay olish va bartaraf eta olish;

-metodik kompetentlik– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

-informatsion kompetentlik-axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, saralash, qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish;

-kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'z ining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

-innovatsion kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

-kommunikativ kompetentlik-ta'lim jarayonining ishtirokchilari, bolalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, tinglay bilish va ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

-texnologik kompetentlik- kasbiy-pedagogik bilim,ko'nikma,malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

-ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik qila olish ham tushuniladi.

Shaxsiy kompetentlik -izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini imkoniyatlarini namoyon qilish hisoblanadi. Demak, globallashuv jarayonida bosjlang'ich sinf o'qituvchilari, o'zlarining kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi, ta'lim va tarbiya jarayonida undan tizimli foydalana olishi o'ziga xos ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

2. Mutalipova M.J. Pedagogik kompetentsiya – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

3. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика. М.: «Просвещение», 2003.

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**D.X. Umarova, Shahrixon tumani  
19-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya: Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim tajriba va interfaol usullar yosh bilimga chanqoq o'quvchilarni yetuk malakaga ega kadrlar bo'lishlarini ta'minlaydilar.*

*Kalit so'zlar:* boshlang'ich sinf, sifat samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metod.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashmoqda. Hozirda inson faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imk oniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni "texnologiya" ga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'zaro faolligini oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin amaliy mashg'ular soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruhlar ishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish,

o`z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog`lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko`nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ta`limda turli xil innovatsion texnologiyalarni tadbiiq qilishni talab qiladi. Bu esa o`zo`zidan o`qituvchilarni yanada izlanishga o`z ustida ishlashlariga sabab bo`ladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jaraon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik va o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosiy interfaol usullardan to`liq foydalaniladi. Interfaol metodlar dars jarayonida o`quvchiga pedagogik tasir etish usuli bo`lib, ta`lim mamuning o`ziga xosligi shundaki, pedogogik-texnologik jarayon o`qituvchi va o`quvchilarning ta`limiy hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Ta`lim samarali bo`lishi hamda darsda oldinga qo`yilgan maqsadga erishish uchun eng avvalo o`qituvchilar dars jarayonida pedtexnologiyalardan to`g`ri foydalana olishlaridadir. Pedagogik texnologiya o`qitishning texnik vositalari, balki, ta`lim jarayonida qo`llsh mumkin bo`lgan barcha usul va metodlar yordamida o`quvchilarga muayyan sharoitda ta`sir ko`rsatish maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakillanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni ta`limda joriy qilish orqali o`qituvchi ta`lim oluvchi shaxsning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Umumta`lim maktablari ta`lim jarayonini samaradorligini yanada takomillashtirishda yosh barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalashda zamonaviy o`qitish usuli hisoblangan interfaol usullar innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim tajriba va interfaol usullar yosh bilimga chanqoq o`quvchilarni yetuk malakaga ega kadrlar bo`lishlarini ta`minlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ta`lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiiq etish, ta`lim sifatini yuksaltirishga imkon beradi va albatta o`quvchi i mkoniyatiga qarab tanlangan pedtexnologiya ta`lim tizimini samarali bo`lishini ta`minlaydi.

Zamonaviy ta`lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta`lim tizimini takomillashtirishga, ta`lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta`lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo`ymoqda. Shuning uchun milliy istiqlool g`oyasiga sodiq, yuksak intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi pedagogik ta`limni axborotlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1.Ishmuamedov R., Yuldashev M. Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.

2.M.E.Jumae, M.Yu.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang`ich ta`limni o`qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar”metodik uslubiy qo`llanma – T.: 2017 y.

### **BOSHLANG`ICH TA`LIM DARSLARIDA O`QUVCHILARNI ERKIN FIKRLASHGA O`RGATISHNING AHAMIYATI.**

**N.B.Valiyeva, Asaka tuman**

**12 –umumta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi.**

***Annotatsiya:** Ayni davrda o`quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularda erkin fikrlashni tarbiyalash zarurligi mutlaqo ravshan bo`lib qoldi. Bola faoliyati erkin bo`lsa, hurligiga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg`usi paydo bo`ladi. Fikrlashni tarbiyalash muayyan moddiy, pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Mustaqil fikrlovchi birinchidan, borliqni kuzatish, his qilish, idrok etish imkoniyatiga ega bo`lmog`i zarur, ya`ni jismoniy- ruhiy sog`lom bo`lmog`i kerak.*

***Kalit so'zlar:*** erkin fikrlash, shaxs, ruhiy erkinlik, mustaqil fikrlash.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o'qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yo'nalishlarni izlashni taqozo etmoqda.

O'qitishning eng samarali yo'li - mashg'ulotlarda o'quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo'lmasa, bunday mashg'ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo'ladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchi shaxsiga mos metodlarni qo'llay olmasa, o'quvchi shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi.

Ayni paytda o'qituvchi oldida mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa – o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O'zbekistonning to'la mustaqil bo'lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibdi. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg'ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo'lmas ekan, o'qituvchi yoki o'zga kishining tazyiqlaridan, zo'ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi. Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabrtoqatlilik kabi fazilatlarini ongidan chiqarish lozim edi.

Ushbu masalalarni hozirgi kunda bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi – erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi.

Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymanadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqozo qiladi. O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti,

tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Ba'zida o'qituvchilar, o'quvchilar qobilyatini yaxshi bilaman deb o'ylaydilar va shuning uchun biri biriga baho qo'yishi mumkin, bu yerda shaxsiy bilim va mashqlarni bajara bilishliklarini tekshirmaydilar, ayniqsa, axborot va o'rganuvchi asosiy vazifa tomonlarini yoddan chiqaradilar. Bu vazifalar, aytilgan talablarni bajarish uchun darsda besh olti bolaga baho qo'yishni talab etadi.

Bundan tashqari, har bir darsda "sizlarga –barakalla! «Xammasi yaxshi bo'lyapti» Sizlar tezda o'rganib olasizlar! Yana biroz kuchaytirsalar sizlar kuchli yengil, chiroyli bo'lasizlar degan so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday so'zlarni har dam ishlatmasdan nigoh tashlash, imo ishora ko'rsatish, luqma tashlashorqali izxor qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.
2. Yo'ldoshev J./ "Ta'lim yangilanish yo'lida". – T.: O'qituvchi. 2000.

## **BOSHLANG'ICH SINFGA QADAM QO'YGAN O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK HOLATI VA TAFAKKURI .**

**D.O.Karimova Andijon shahar 48-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan xolda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi*

***Kalit so'zlar:** bola idroki, psixologik rivojlanish, shaxsning shakllanishi*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash tamoyillari ushbu masalalarni psixologik va pedagogik nuqtai nazaridan o'rganishni talab qiladi.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o'quvchilariga ko'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshvnligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanyotgan bolada diqqat nisbatan uzok muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi raxbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan xolda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofida gilar bilan psixologik jixatdan yangi munosabat tizimiga utadi. U o'zining hayoti tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllaridagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslahatlashishadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdegilar unga yosh boladek emas. balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xoxlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-harakatida ham yahni mahlum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofdegilar bilan o'zaro munosabatda mahlum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'z egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. SHuningdek u o'zini o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti harakatlar o'zgal ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdegilar unga yosh boladek emas. balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xoxlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-harakatida ham yahni mahlum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofdegilar bilan o'zaro munosabatda mahlum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'z egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek u o'zini o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti harakatlar o'zgal ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

## **O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Sh.H.Qurbonova, Oltinko'l tumani 1-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi. Nostandart topshiriqlar tuzish, ular ustida o'quvchilar bilan ishlash o'quvchilarning dunyoqarashi va ijodiy fikrlashini o'stirishga yordam berishi haqida mulohaza yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ilmiy tafakkur, didaktik o'yinlar, kasbiy kompetentlik, o'quv faoliyati, tafakkur va ruhiy taraqqiyot, muammoli bayon qilinish*

Maktabda matematika kursini o'rganish o'z mazmuniga, xususiyatlariga ko'ra o'quvchilardan ko'proq fikrlash va mulohazalashni talab etadi. Haqiqatdan ham, chunki o'quvchi matematik bilimlarni quruq yodlab olgan bo'lsa, ularning ma'nosiga tushunmay qabul qilsa, u keyingi o'quv faoliyatida bu bilimlarga asoslanib yangi bilimlar manbai, olingan bilimlar haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Shu sababli matematika darslarida o'quvchilar fikrlash faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni ongli qabul qilishlariga yordam berishi, har bir o'quvchiga nazariy savol va masalalarining yechish usullarini topishda mustaqillik ko'rsatishga imkoniyat amalga oshirish uchun dars jarayonida yetarlicha tushunchaning chuqur va keng mazmuni va xususiyatlarini o'quvchilarga ko'rsata olish kerak, chunki savollar ustida



mustaqil fikr yuritish, mustaqil xulosalar chiqarish, mashq, masalalar yechishda va teoremlarni isbot etishda o'z yo'l va usullarini topa olishi o'quvchining puxta va chuqur bilimlar olishiga imkon beradi.

Matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilar fikrlash faoliyatini rivojlantirishda bilimlarning *muammoli bayon qilinishi* katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi imkoniyati boricha yangi mavzuni bayon qilishni o'rganilayotgan mavzuning mohiyati va mazmunini o'z ichiga oluvchi muammoni qo'yish va hal qilishdan boshlashi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar muammoni hal qilishda va muhokama qilishda ishtirok etadilar, bunda vujudga keladigan ichki qarama-qarshiliklarni ochib tashlab, farazlarni ilgari suradilar va ularni muhokama qilib, mumkin bo'lmaganlarini inkor qiladilar, u yoki bu xulosaning haqiqatligini yo bo'lmasa noto'g'ri fikrlarning asossizligini isbot qiladilar.

Boshqacha aytganda, o'qituvchi o'quvchilar oldida ilmiy tafakkurning yo'lini namoyish etadi, bu bilan o'quvchilarning fikrini haqiqatga dialektik harakatini kuzatishga majbur etadi, ularni beixtiyor ilmiy "kashfiyot"lar yaratuvchisi qilib ko'rsatadi.

Hozirgi paytda matematika o'qitish jarayonida muammoli ta'limning uch xil usuli mavjud: muammoli bayon qilish; izlanish yo'nalishidagi suhbat; tadqiqot o'tkazish.

Birinchi usulda o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi va yechadi, bunda u muammo haqida og'zaki fikr yuritadi va muammoni hal qilishga olib boradigan barcha yo'llar va usullarni qarab o'tadi. Bilimlarning bunday bayon etish ma'nosiz xulosalarni inkor qiladi, ayrimlari esa qabul qilinib rivojlantiriladi. Bu usulda bayon qilishning afzalliklari shundaki, muammoni yechishda o'quvchilar fikr yuritishga o'rganadilar, mavzu mazmunini puxta va ongli o'zlashtirib oladilar.

Va nihoyat, muammoli ta'limning eng yuqori bosqichi – tadqiqot o'tkazish usulidir. Bunda o'quvchilar yaratishdan ibora egallashda o'z bilimlar manбайдan oqilona foydalana olishlari talab etiladi.

Ko'rinib turibdiki, matematika darslarida o'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muammoli ta'limning har uchala usuli ham katta ahamiyat kasb etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, o'qituvchining o'quvchilar fikrlashining, ijodiy faolligini o'stirishdagi asosiy ishlari muvaffaqiyati darsda o'quvchilarning o'rganilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlariga, qiziqishlarini oshirishga bog'liq.

O'quvchilar ijodiy faolligini tarbiyalashda *masalalar yechish jarayonini* muhokama etish va shu asosda xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega. Yechish usulini muhokama qilish, uning kamchiliklarini topish, boshqacha usullarini izlab topish, yechishda foydalanilgan usullarni eslab qolish va ularni qo'llay olish shartlarini aniqlash kabi ishlar, shubhasiz, o'quvchilar bilim saviyasini oshirishda, tafakkurni shakllantirishda nihoyatda zarur.

Nostandart matematik masalalar yechish o'quvchilardan ijodiy faollikni talab etadi. Shu sababdan quyidagi turdagi masalalarni yechish va ularni tahlil etish ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, nostandart misol va mashqlarni muhokama etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish va va ularda ijodiy ko'nikmalarni tarkib toptirish imkoniyati vujudga keladi va bu ilg'or pedagogik texnologiyalar asosini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi „Ta'lim to'g'risida“ qonun.
2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. T: O'qituvchi 2001.
3. Bikboyeva N. U. va boshqalar Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi T: O'qituvchi 1996-yil
4. Boshlang'ich sinf metodik qo'llanmalar

**ПРОБЛЕМА ЗДОРОВОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ  
В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЛЯ ДЕТЕЙ.  
И. Ё.Холматова, учительница школы № 56 Асакинского района  
Мамасалиева Ф.С., студентка, АГУ**

***Аннотация:** В тезисе освещается важности рационального питания детей для освоения содержания современного начального образования. Также здесь рассмотрены решения проблемы как привлечь детей к здоровому образу жизни и питанию с помощью сказок, поговорок и пословиц.*

***Ключевые слова:** здоровье, рациональное питание, литература, устное народное творчество, пословицы, поговорки, сказки, дидактический материал, сказкотерапия.*

Здоровье не выдаётся, как выигрыш по лотерее, и человеку двадцать первого века приходится...учиться здоровью. Основной фактор, влияющий на наше самочувствие, здоровье и внешний вид – это наше питание, а на него мы в состоянии повлиять и в состоянии изменить его! Поэтому в большинстве случаев люди сами решают, сколько и как им дальше жить...

Особенно остро стоит проблема сохранения здоровья школьников.

Правильная организация питания школьников может существенно помочь в решении многих проблем. Рациональное питание обеспечивает нормальное функционирование организма, возобновляет энергетические затраты, необходимые для поддержания жизни и трудовой деятельности, реализует жизненные процессы организма.

Чтобы ребёнку хватило сил освоить содержание современного начального образования, он должен хорошо и правильно питаться. Но, согласно примерному меню, в рацион питания детей должны входить необычные овощные и фруктовые блюда. И как же приучить ребёнка к ним, если он отказывается их есть?

Каждый ребенок должен знать, что здоровье нужно сохранять с детства, что состояние здоровья учащихся в дальнейшем будет зависеть только от них самих. И уроки литературы могут дать ребятам достаточно богатый материал для размышления о том, какой образ жизни надо вести.

Мы предположили, что произведения художественной литературы смогут стать хорошим материалом для формирования основ здорового питания школьников.

Особый интерес у учащихся вызывает изучение раздела «Устное народное творчество», а именно пословицы и поговорки в начале учебного года. Как можно построить урок, с использованием пословиц и поговорок, добываясь необходимых целей? Один из вариантов – использовать опережающее домашнее задание. Ученикам, совместно с родителями, предлагается домашнее задание – найти пословицы и поговорки, так или иначе говорящие о здоровье человека. Дети – народ любознательный, и к следующему уроку набирается достаточно много материала для работы. Зачитывая различные примеры, собранные из сборников, вместе с учащимися классифицируем их, в результате чего получают три группы пословиц.

1 группа – пословицы и поговорки, прямо говорящие о здоровье, например, “Береги платье снову, а здоровье – смолоду”, “Береги честь смолоду, а здоровье – под старость”, “Было бы здоровье – остальное будет” и т.д.

2 группа – пословицы и поговорки, пропагандирующие здоровый образ жизни, правильное питание, например, “Держи голову в холоде, живот в голоде, а ноги в тепле”, “Чистота – половина здоровья”, “Чистота – залог здоровья”.

3 группа – пословицы и поговорки, выступающие против вредных привычек: “Вино пить да табак курить – здоровье губить”, “Кто курит табак, тот себе враг”, “Кто не курит и не пьёт, тот здоровье бережет”.

Работа в группах продолжается 20 -25 минут. В конце урока просматриваем иллюстрации, зачитываем полученные рассказы, обсуждаем проблемы, поднятые в пословицах и поговорках

Для детей необходимо разработать дидактический материал, который способствует обогащению знаний детей о дарах природы. Именно через игру дети узнают о ценности и важности овощей и фруктов, о том, что именно в сырых овощах и фруктах содержится большое количество полезных веществ, витаминов и микроэлементов. Однако и это может не помочь в полной мере: дети не съедают полностью порцию, а некоторые дети отказываются от овощей вообще! (Свекла, соленые огурцы, зеленый горошек, кукуруза).

И тут пришло время обратиться к сказке.

Термин «сказкотерапия» относительно новый. Многие известные психологи изучали влияние сказки на психологию человека, но именно как метод «комплексная сказкотерапия» зародилась только в 90-х годах прошлого столетия.

Каждый педагог знает огромное количество сказок. Однако среди этого огромного количества практически невозможно найти сказки, которые приучали бы ребёнка правильно питаться, рассказывали бы о пользе овощей и фруктов. На помощь могут прийти книги А. Лопатиной и М. Скребцовой «Сказочный справочник здоровья».

В томе первом этой замечательной книги говорится о фруктах и ягодах. Очень интересная сказка о невесте Вишенке, прочитав ее я сама удивилась тому, сколько проблем со здоровьем можно избежать только при помощи вишни.

“Принцесса Яблонь” не менее интересная сказка. Оказалось, что целое королевство выздоровело с помощью только одних яблок.

Том второй «Сказочного справочника здоровья» об овощах. В ней так легко и просто объяснялось ребёнку, как полезно кушать здоровую пищу.

Теперь впереди у нас третий том серии “Сказочный справочник здоровья”, который поможет нашим воспитанникам подружиться со злаками, целебными травами, орехами и медом — настоящими кладовыми здоровья, которые заменяют микстуры и таблетки.

Ребёнок переживает за героев, оценивает их поступки и действия. Он как бы присваивает их опыт, делая его своим. В свою очередь этот опыт начинает влиять на поступки и действия ребёнка. И как тут не вспомнить высказывание известного русского учёного Д.С.Лихачёва: «Литература даёт нам колоссальный, обширнейший и глубочайший опыт жизни. Она делает человека интеллигентным, развивает в нём не только чувство красоты, но и понимание – понимание жизни, всех её сложностей...”

В русских народных сказках мы находим образцы не только вкусной пищи, но и полезной. В течение многих столетий сказка учила премудростям нелегкой жизни, наставляла к добру и справедливости, мужеству и героизму, любви и долгу.

Русская сказка представляет собой своеобразную концентрацию всего того, что создано веками русским народом в образной и выразительной живой разговорной речи. Русская народная сказка как существенная составная часть культуры русского народа имеет огромное значение в формировании основ правильного питания. Читайте сказки и будьте здоровыми и сильными, как сказочные богатыри.

Литература:

1. Аладина А.М. Формирование культуры питания посредством изучения художественных произведений. Городская научно - исследовательская конференция. Бугуруслан, 2014.

2. Корчагина Е. Р. Литературные произведения как воспитательный и образовательный ресурс реализации программы “Разговор о правильном питании”. multiurok.ru

3. Хайбулина Н.Г. Решение проблем правильного питания с помощью сказок. Журнал «Воспитатель детского сада», 2020

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVYI-AHLOQIY RUHDA TARBİYALASH.

O.Ergasheva, Buloqboshi tumani

11-sanatoriya maktab internati boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda o'qish darslarining ahamiyati va ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, kompleks yondashuv.

“Shuni unutmasligimiz kerakki,-deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov,-kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi,boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq”. Shunday ekan,bolalarni milliy g'oya,ma'naviy-ahloqiy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tarbiya ishiga kompleks yondashuvni talab etadi.

Bolalarni milliy ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim asosi milliy g'oyalarimiz va ma'naviy qadriyatlarimiz asosidagi tarbiyadir. Bu tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bolalar ongiga milliy-ma'naviy qadriyatlar,ya'ni oilaga hurmat va e'tiqod, Vatanga sadoqat,o'zaro mehr-muhabbat, mehr-oqibat, qadr-qimmat, kattaga hurmat va kichikka izzat, halollik, yaxshilik, go'zallik, hayo, ahloqiy va ruhiy poklik, haqiqat va adolat kabi qator yuksak fazilatlarni singdirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday insoniy go'zal fazilatlarni tarbiyalashda qator tashkiliy pedagogik shakllar, vositalar,omillar va faoliyat turlari mavjud. Bu o'rinda xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir. Jumladan, ozbek xalq maqollari va buyuk ajdodlarimiz haqidagi mavzular,ertaklar bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona vatan,shu yurt obrazi,uni ardoqlashga oid mavzular, maqollar,ertaklarda berib borilgan.

Bulbul chamanni sevar,

Odam -Vatanni.

Ona yurtning omon bo'lsa ,

Rangu ro'ying somon bo'lmas.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

Yurt qo'risang o'zarsan,

Qo'rimsang to'zarsan.

Yurti boyning o'zi boy.

Bu maqollar o'quvchilarni o'zi tugilib o'sgan vataniga, el-ulusiga cheksiz izzat ehtirom tuyg'usini shakllantiradi.Vatan tuyg'usi har kimning qoniga ona allasi, bolalikda eshitgan she'r va qo'shig'lari, maqollari bilan kiradi va u so'ngi nafasigacha saqlanadi.Buyuk vatandoshlarimiz Mir Alisher Navoiy,Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi mavzularni o'rganish orqali o'quvchilar Vatan mehri,Vatan ishqiy buyuk ekanligini va u inson qalbiga shu qadar muqim o'rnashganki,hech qanday kuch bu tuyg'uni zo'rlik bilan sitib chiqara olmasligini bilib oladilar.

O'qish darslarida berilgan ertaklarda bir siqim muqaddas ona tuproq uzoq o'lkaga otlangan bahodirni hatto shunqor uchib o'tolmaydigan tog'lardan,asov daryolardan,qush uchsa qanoti,odam yursa oyog'I kuyadigan cho'l-u sahrolardan olib o'tadi,dushmanlar hamlasidan saqlab qoladi, maqsadiga yetkazadi va ona yurtiga sog'-omon qaytaradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, inson qalbiga yo'l, eng avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi, bunda o'qituvchi va murabbiylarning o'rni alohida. Men esa ushbu sharafl va ma'sulyatli kasb orqali o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ahd qildim va buni esa o'qish darslarida amalga oshirmoqdaman. Chunki o'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilari ruhiyatiga yetib boruvchi eng yaxshi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”
2. U.Fayziyeva “Inklyuziv ta'lim tendensiyalari”

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMIY O'YNLARNING AHAMIYATI

M.Xasanova, Qo'rg'ontepa tuman  
34-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Maqolada, boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakldagi ta'limiy o'yinlarni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi ta'limiy o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini belgilab o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishini uni o'zi boshqarib borishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay kuzatib borishi fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, o'quvchi, metodika, fonetik-grammatik, orfografik

Ona tili darslarida o'quvchilarning grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko'p. Metodikada fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakalarni shakllantirishda turli mashqlar bilan bir qatorda ta'limiy o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarning boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda, bir tomondan, o'quvchilarning zerikishi bo'lmaydi, ikkinchi tomondan fikrlash qobiliyati rivojlanadi, muayyan malakalarning shakllanishi tezlashadi.

Ma'lumki, o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darsda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, intiluvchanlik kabi xususiyatlarga muvofiq kelsa, ayrimlardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi salbiy xususiyatlarni tarbiyalab boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik-orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi. Uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydilar. Og'zaki va yozma nutqdagi orfoepik – orfografik nuqsonlar kamayadi. Ta'limiy o'yinlar sinf jamoasining o'zini erkin tutishlarini ta'minlaydi, darsning samaradorligi ortadi. O'yin davomida ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarini qo'yib borish imkoniyati ham tu'iladi. O'yinlarning yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, sinfda inoqlik, yaxshi kayfiyat, shiddat hukm suradi. O'quvchilar bir birlariga yordam bergilari kelib, sinf jamoasining jipsligi mustahkamlanadi.

Ta'limiy o'yinlarda, shuningdek, she'r, ertak, hikoya, topishmoh, tez aytishlar, turli rebus boshqotirma, jadvallardan ham unumli foydalansa bo'ladi.

O'yinni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim.

- o'yin qiziqarli, sodda, aniq bo'lsin;
- o'yin mavzuga mos chuqur mazmunli bayon etilishi lozim;
- o'yinda iloji boricha, ko'proq o'quvchi ishtirok etsin;
- o'yinda qiziqarli narsalar ko'p bo'lsin;
- o'yin o'tkazish tartibi, muddati aniq bo'lsin;
- o'yin o'quvchilarning muayyan malakalarini shakllantira olsin;
- o'yin g'oliblari rag'batlantirib borilsin.

O'yin turlarini mustahkamlanayotgan mavzuga muvofiq tanlab, belgilangan o'yin turlaridan mos shaklni tuzib, o'yin tartibini aniq belgilab olish lozim. O'yin uchun kerakli material imlo lug'ati, o'qish kitobi, bolalar jurnali, turli badiiy asarlar to'plamlaridan olinadi. Materialni ta'limiy o'yin shakliga solish uchun quyidagi ilmiy metodik va pedagogik-psixologik amal qilishi lozim.

- o'quv materialida mavzuga doir misol, iloji boricha, ko'p bo'lsin;
- material va o'quv shakli o'quvchi yoshiga mos, tushunarli, sodda va qiziqarli bo'lsin;
- shakli va material hajmi, dars tuzilishiga muvofiq bo'lsin;
- material va o'yin shakli o'quvchi nutqini o'stirish, imloviy savodxon savodxonligini oshirish imkoniyatini bersin;
- material va o'yin shakli o'quvchi dunyoqarashini o'stirsin, tarbiyaviy jihatlariga boy bo'lsin.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakldagi ta'limiy o'yinlarni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi ta'limiy o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini belgilab o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishini uni o'zi boshqarib borishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay kuzatib borishi kerak. O'qituvchi oxirida xulosa chiqarib, qo'yilgan ballarni izohlab, e'lon qiladi.

Ta'limiy o'yin o'quchini harakatga keltiradigan, uni o'quv faoliyatiga olib kiradigan vosita. Shuning uchun u ona tili ta'limida o'zining qonuniy o'rini egallamog'i kerak. O'zbek tili darslari va o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv-topshiriqlarning muhim xususiyatlari o'quvchida izlanishi, bilimdonlikni, topqirlikni va tezkorlikni tarbiyalaydi, ona tili darsining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Dars samaradorligini oshiradi.

O'yin-topshiriqlar va ularda foydalanish o'zbek tili o'qitish metodikasida yetarli ishlanmagan muammodir. O'yin topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u ko'pincha musovaqa tarzida tashkil etiladi o'quvchi yoki jamoaga ballar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qiyasova Q. Til darslarida o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. T., 2003 -yil, 5 –son
2. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009
3. Qosimova K., Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2006.

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILAR TAFAKKURI VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.**

**D.Mamarahmonova, Shahrixon tumani  
28-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada tafakkur orqali o'quvchilarda amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo'lishi, shuning asosida insoniy intellekt shakllanishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tafakkur, intellekt, shakllanish, fikr, ong, produktiv, reproduktiv, bilish, analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiya, aql, bilish, shaxs, nutq*

Tafakkur - inson ongining bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavxumlashgan aks ettirish shaklidir.

Shaxs o'z fikrini bayon etishi, boshqalarni tushunishida tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tafakkurning turlari: mantiqiy, nazariy. amaliy, konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazlini bilish, tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosalarni bilish, tafakkur operatsiyalari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirishni bilish zarur. Mustaqil fikrlash – talaba-yoshlarda atrof-borliq to'g'risida xolis va ob'ektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit bo'lib, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash muhimdir.

Tafakkurning ijodiyligi aqlning sertashbusligi, pishiqligi, va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqliy sertashbuslikda va erkin fikrlovchi shaxsning aqliy faoliyatini tashkil etishda o'quv faoliyatining individual, guruhiy usullarining o'zaro uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Mazkur faoliyatda kognitiv (bilish), motivatsion, konitiv (xulq-atvor) va fikr almashinuv singari qirralar birligi ta'minlanadi.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan

bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi raxbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslahatlashishadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash soralgan. Va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi.

Shaxs ma'naviy hayoti va faoliyatida tor doiradagi qarashlar hamda ilmiy ong o'rtasida doimo kurash ketadi. Faoliyat va munosabat sohasining kengayishi, insonning o'z ichki dunyosiga bo'lgan shaxsiy ehtiyojining ortib borishi, hayotida yangi hodisalar bilan ro'baro' bo'lishi bolalardan chuqur mushohada yuritishni, muammolarni hamma narsaga intilish orqali hal etishni talab qiladi. Paydo bo'layotgan savollarga, muammolarga javob izlash shunga olib keladiki, bolalarning ong zahirasi, qarashlari, tushuncha va dunyoqarashi, baho berishi, xulosa chiqarish imkoniyati yetarli emasligi ma'lum bo'ladi. Bu o'rinda shaxs ongiga yangi bilimlar, talablar, me'yor, qoida va qonuniyatlarni kiritishda o'qituvchi yordamga keladi. Anglab yetilgan va g'oyaviy asoslangan bilimlar esa o'quvchilarda qat'iy hamda o'ziga xos qarashlar va ishonch tizimining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo'ldan borishi mumkin. Bevosita yo'l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko'z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir.

Tafakkur deganda biz nimani tushunamiz. Kundalik hayotimizda tafakkur so'zi ostida so'z orqali fikr bildirish nazarda tutiladi. Psixologiya fanida esa bu chuqur va keng ma'noli tushunchadir. Psixologlar har qanday ruhiy jarayonni tafakkur atamasi ichiga kiritadilar, uning yordamida inson biron bir masalani yechimini izlaydi va hal etadi.

Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

**Taqqoslash** – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

**Analiz** – narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish – uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni bir-biridan ajratib olish mumkin.

**Sintez** – analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan

iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda birlashtirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi.

**Abstraksiya** – shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektдан ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar axloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nishonova.Z ,Alimova.G “Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi” T.,2006
2. G`oziev E.G`. O`quvchilarda umumlashtirish usullarini shakllantirish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent. 2001.
3. G`oziev E. G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 2002

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN KO'RGAZMALI VOSITALAR**

**M.S.Qobulova, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada, kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini o`stirish, fikrlashga undash va qiziqishlarini o`stirishda turli kartochkalar muhim ahamiyatga ega ekanligi, didaktik materiallardan foydalanish o`quvchining darslarga qiziqishini orttirib, bilim doirasini kengaytirishi haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so'zlar: Ko'rsatmalilik, kichik yoshdagi o`quvchi, ona tili, o`qish didaktik o`yinlar.*

Sinf xonasiga olib kirilgan har tomonlama go`zal, bola diqqatini o`ziga jalb qila oladigan har qanday ko`rgazma o`quvchini o`ylashga majbur etadi. Boshlang'ich sinf o`quvchilari uchun qo`lda tayyorlangan ko`rgazmali qurollardan foydalanish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o`qituvchilarining o`zlari turli mavzularda ko`rgazmali qurollar tayyorlashlari mumkin. Qo`lda ko`rgazmali qurollar yasash xilma-xildir. O`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirish uchun katta hajmdagi rangli rasmlar, bukletlar va tarqatma materiallar tayyorlanadi. Shuningdek, ona tili, o`qish, matematika darslari uchun turli maketlar va harakatlantiruvchi o`yinchoqlar hozirlashimiz mumkin.

Kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini o`stirish, fikrlashga undash va qiziqishlarini o`stirishda turli kartochkalar muhim ahamiyatga ega. Didaktik materiallardan foydalanish o`quvchining darslarga qiziqishini orttirib, bilim doirasini kengaytiradi. Ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalaydi, xotirasini mustahkamlab, o`rganilgan materialni uzoq vaqt esda saqlab qolishga yordam beradi. Bolaning idrok qilishi uchun iloji bo`lsa o`sha narsani ko`zi bilan ko`rib, qo`li bilan ushlab, hidi bo`lsa hidlab, imkoni bo`lsa, mazasini totib ko`rsa, o`sha predmet va uning belgi, xususiyatlari o`quvchining yodidan ko`tarilmaydi. Idrok qilishning bu turlarida o`quvchining ko`rish, hid bilish, sezish, maza-ta`m bilish sezgilari ishtirok etadi. Mohir o`qituvchi har bir darsda tarqatma so`zli, rasimli, didaktik materiallardan, bo`g`inli, so`zli, gapli kartochkalardan, harf, so`zli kassalardan keng foydalanadi.



Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish darslarida didaktik o`yinlar jarayonida ko`rsatmalilikni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Darsda o`rganiladigan mavzularning aynan o`ziga oid ko`rgazmalarni ko`rsatish, masalan, qushlar, hayvonlar, makiab, sinf, shaharlar va shunga o`xshash bevosita o`zini ko`rish mumkin bo`lgan narsalarni ko`rsatib, o`quvchilar bilimini puxta bo`lishini ta`minlaydi. Ko`rgan bilganlarini darsda eslatish, ularni savol-javoblar orqali o`rganilayotgan mavzu mazmuniga bog`lash mumkin.

2. O`rganilayotgan mavzu mazmuniga mos bo`lgan turli texnik vositalarning modellaridan foydalanish.

- Ayrim shahar va qishloqlar, umuman, ayni vaqtda ko`z bilan ko`rish mumkin narsalarga oid materiallarni o`rganishda rasmlardan foydalanish.

- Turli xildagi kartochnalardan foydalanish (Masalan, rasmlar tasvirlangan yoki turli xil meva, hayvonlar shaklida tayyorlangan bo`lishi mumkin). Bu ona tili va o`qish darslarida qo`llaniladigan ko`rgazmalilikning keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ko`rsatmalilik turlari xilma-xil bo`lib, uni yana davom ettirishimiz mumkin. Ko`rgazma vositalardan yana biri qo`lda yasalgan olma daraxtining maketidir. Daraxtda mevalar osilgan. O`yin jarayonida sinfni uch guruhga bo`lamiz. Har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqariladi. O`quvchilar mevalardan uzib, uning orqasidagi topshiriqni bajarishi kerak. Har bir mevalar orqasida mavzuga oid so`zlar berilgan bo`ladi. O`quvchilar shu so`z qatnashgan gap tuzib, uni doskaga yozishi kerak. O`yin shu tariqa davom etib, qaysi guruh ko`proq olma mevasini yig`sa shu guruh g`olib hisoblanadi. Ta`lim jarayonida qo`llaniladigan didaktik o`yinlarni mazmuniga va arnalgan oshirish shakliga ko`ra 2 xil tasnif qilish mumkin<sup>30</sup>. Shunday ekan, o`qituvchi o`quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg`uloti — o`yinni siqib chiqarimasdan, undan maqsadga muvoviq foydalanish bilan ta`lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

**Masalan, “Hikoya” didaktik o`yinini quyidagicha o`tkazish mumkin:**

Hikoya tuzish jarayonida o`quvchilarning lug`at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to`g`ri tuzish, tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O`quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag`batlantirilishi ularning o`ziga bo`lgan ishonchini orttiradi. Bu o`yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda, to`garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, yomg`ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o`rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

**Yoki “U kim, bu nima?” didaktik o`yinini quyidagicha o`tkazish mumkin:**

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo`yiladi. O`qituvchi shu predmetlardan birortasini ta`riflaydi. O`quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o`yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o`quvchilar diqqatini jamlash, qo`llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o`yin o`quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o`yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

---

<sup>30</sup> G`affarova T., Nurullayeva Sh. Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar. Toshkent “Ilm Ziyo”, 2004, 14-bet.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o`ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o`ynaydilar. (Javob: «Koptok»)

2-variant: U barcha o`quvchilarning o`rtog`idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko`radilar. (Javob: Kitob»)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi, xohlasak undan stol yoki stul ham yasash mumkin. (Javob: «Daraxt»)

Xulosa qilib aytganda, didaktik o`yinlar jarayonida o`quvchining rasm mazmunini gapirib berishi g`oyat foydalidir. Shuning uchun o`qituvchi rasm orqali adabiy tilda jonli, qiziqarli so`zlab, shaxsiy namuna ko`rsatishi kerak. Tarqatma materiallar, rasmlar va boshga ko`rgazmali qurollar o`quvchilar faolligini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G`affarova T., Nurullayeva Sh. *Boshlang`ich sinflar uchun ona tili va o`qishdan didaktik materiallar. Toshkent, "Ilm Ziyo", 2004, 14-bet.*

2. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. Toshkent "O`qituvchi" nashriyoti 1995.

3. Roziqov O., Maxmudov M. Ona tili didaktikasi. Toshkent "Yangi asr avlodi", 2005.

### 3-ШЎБА: БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ВА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ.

#### МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА КУРСЛАРИ О’ТИЛИШИНИНГ САМАРАСИ

**В.У.Олимов – педагогика fanlari nomzodi, dotsent**

**Д.В.Олимова – QDPI 2-bosqich talabasi**

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni aniq va tez hisob-kitob qilishga o’rgatish maqsadida mental arifmetika kurslarini tashkil etilishi bugungi kun uchun dolzarb mavzulardan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada bolalarda arifmetik hisob-kitoblarni tez va qulay usulda hisoblashni o’rgatishda “Maktabgacha ta’lim muassasalarida mental arifmetika kurslari o’tilishining samarasi” to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim-tarbiya, yetuk kadr, mental arifmetika, maktabgacha ta’lim muassasalari, hisob-kitob, ong, xotira, diqqat.

“Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to’g’ri keladi: ta’lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o’zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog’lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” [1].

Hozirgi globallashuv jarayonida barcha sohalar jadal sur’atlarda o’sib bormoqda. Texnika, sport, madaniyat, san’at va shu bilan birga ta’lim jarayonlari ham bugungi kunga hamohang ravishda rivojlanmoqda. Ta’lim jarayonlarini tashkil etishda, avvalo, maktabgacha ta’lim va boshlang’ich ta’lim muhim rol o’ynaydi. O’sib kelayotgan yosh avlod kelajakda o’zi tanlagan ma’lum bir sohaning yetuk mutaxassisi bo’lib yetishishi uchun uni yoshligidanoq ta’limning shu yo’nalishlariga qiziqтира olish maktabgacha va boshlang’ich ta’lim sohasi vakillarining muhim vazifasi hisoblanadi [2].



Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ong va ongosti faoliyatlarini o’stirish, xotirani mustahkamlash, aniq fanlarga nisbatan qiziqish uyg’otishda mental arifmetika kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bola bog’cha yoshida uning miya faoliyati juda tez ishlaydi, xotirasiga ma’lumotni oson saqlay oladi. Ayni shu davrda bolalarni matematika sohasiga qiziqtirib, ularda tez hisob-kitob qilish qobiliyatini oson rivojlantirish mumkin [3].

Mental arifmetika o’zi nima? Mental arifmetika fan sifatida bundan ikki ming yil ilgari Yaponiyada paydo bo’lgan. Bu usul miyaning har ikkala yarim sharini rivojlantirish maqsadida o’ylab topilgan. Bolalarning aniq bir metodika bilan shug’ullanishlari natijasida ularning xotirasi mustahkamlanib, diqqatining oshgani, ongdagi turli xil matematik hisob-kitoblarni tez sur’atlarda amalga oshirilishi, hatto, olimlarning ham hayratiga sabab bo’ldi. Mental arifmetika o’ziga xos dastur bo’lib, u insonning intellektual hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu orqali maxsus hisoblarni miyada bajarish osonlashadi [4]. Ushbu metodda ta’lim olish yoshi 4 yoshdan 16 yoshgacha etib belgilanganligi tufayli, shu bilan birga maktabgacha ta’lim tizimida 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni qamrab olinishi, aynan shu vaqtda mental arifmetikaning boshlang’ich tushunchalari berilishi ushbu kurslarning maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etilishini maqsadga muvofiqligini bir isbotidir. Bugungi kunda bu metod dunyoning 52 ta davlatida qo’llaniladi [5].


Maktabgacha ta’lim muassasalarida ushbu arifmetikani o’zlashtirish orqali bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, bola ixtiyoriy muammoli vaziyatlarda yagona haqiqiy yechimni ongli ravishda topishni o’rganadi [6]. Bolalarning, nafaqat, matematika sohasidagi, balki, boshqa sohalaridagi ijodiy qobiliyati ham namoyon bo’la boshlaydi. Bunday mashg’ulotlar bolalar bir-biri

bilan o'zaro muloqot qilish, raqs tushish va qo'shiq aytish kabilar orqali olib boriladi va shularning natijasida miyaning har ikkala yarim sharlarini doimiy rivojlanishi kuzatiladi [7].


Maktabgacha ta'lim muassasalarida 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni mental arifmetika kursidagi boshlang'ich tushunchalar dastlab abakus yordamida sonlarni hosil qilish, abakusda ko'rsatilgan sonni necha ekanligini aytirish kabilar orqali quyidagicha tanishtirib boriladi (1-2-rasm) [8]. Abakus donachalarining shakliga qarab berilgan sonlarning ishoralarini aniqlash ham mumkin (3-4-rasm) [8]:



1-rasm





2-rasm





3-rasm

Sonlarni shunday usulda joylashishini o'rganib olgandan so'ng bolalarda sonlar ustida qo'shish, ayirish kabi amallarni bajarishni abakus yordamida quyidagicha usulda amalga oshirish mumkin (5-6-rasm) [8]:

4-rasm



5-rasm



6-rasm

Shunday ketma-ketlikda asta sekinlik bilan bolalarni hisob kitob-qilishga o'rgatish orqali shu bilan bir vaqtda ularda mustaqil ravishda fotografik xotira va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, yuqori darajada diqqat-e'tiborni jamlay oladi [9].

Albatta, mental arifmetika kurslarini maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkillashda, kurslarda arifmetik tushunchalar berishda bu yoshdagi bolalarning psixologiyasi, beriladigan bilimlarning ko'lamini ham e'tiborga olish kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda matematik tassavurlarni shakllantirishda ularga quyidagi ko'lamdagi ma'lumotlarni berish tavsiya etiladi [10]:

- Bolalarda miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- Son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish;
- Bolalarda predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish;
- Vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

“Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi” [1].

Bolalar uchun aqliy arifmetikaning asoslarini o'rgatish ularning fikrlashlariga o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi. Biroq, shuni ham unutmash kerakki, bu kabi mashg'ulotlar mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi lozim.

#### Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 19.10.2019 kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
2. Bikbayeva N.U., Ibroximova Z.I., Qosimova X.I. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish”- T.: “O'qituvchi” 1995
3. A'zamov A, Haydarov B. Matematika sayyorasi. – T.: “O'qituvchi” 1993. 310
4. Столяр А.А. «Мakтабгача ёшдаги болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантириш». М.1988 й.
5. Метлина Л.С. «Болалар боғчасида математика». Т. «Ўқитувчи»— 1981 й.
6. Леушина А.М. «Формирование элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста». М., 1974 й.
7. Березина В. Л. «Формирование представлений величине предметов у детей дошкольного возраста». Дошкольное воспитание, 1970 г.

8. Ментальная арифметика для детей 4-6 лет. Учебник 70 б.
9. Arthur Benjamin, Michael Shermer. "Secrets of mental math" . 247
10. Барбара Оакли. Думай как математик: Как решать любые задачи быстрее и эффективнее. Москва 2015.

## **MALAKA OSHIRISH JARAYONLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**A.O.Nishonov, Farg'ona viloyati XTXQTMOHM  
masofadan o'qitishni hududiy muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i**

Annotatsiya:Maqolada,kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada samarali qo'llay olish qobiliyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kasbiy kompetentlik, kompetentsiya,kommunikatsiya, informatsion texnologiyalari,malaka.

Kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetentsiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetentsiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezonlari bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Hozirgi paytda malaka oshirish jarayonlaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- tinglovchi-pedagog tomonidan o'z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo'lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo'lish;
- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informatsion texnologiyalari va o'qitish vositalarining barcha turini qo'llay olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish;
- anglangan va mustaqil faoliyat (mustaqil fikr, maqsad qo'yish, o'quv adabiyoti va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalana olish);
- tashabbuskorlikda o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;
- tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;
- hamkorlik, o'zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o'rnatish;
- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish.

Malaka oshirish jarayonlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini quyidagicha tavsiflash mumkin: kasbiy layoqat, mas'uliyat, shaxsiy fazilatlar, bilim, ijodkorlik, izlanuvchanlik.

Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy bilimdonlik - dars mobaynida sinf bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, o'quvchilar bilan til topish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati; uslubiy bilimdonlik - barcha bilimlarini, hayotiy tajribalarini o'quvchilarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi; ixtisoslik bilimdonligi - o'z fani bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim. Bilish qobiliyati – ya'ni bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini keng va chuqur biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'ota bilishi lozim. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularni nimani bilishlari va bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi.

Kuzatuvchanlik kobiliyati - o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o'qituvchi o'quvchi ruhiyatndagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalashdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki baholayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi. O'z ishini tashkil etish deganda, ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his yetish - ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Obro' ortira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchilarning fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi asosida ham qozoniladi.

To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga - aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlariga ham ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zining egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan, uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste'dod”, 2008.
2. Nishonaliyev U.N., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S.. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2007.
3. Azizxodjayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T. : “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006.

**ДАРСЛИКЛАРДА БЕРИЛАДИГАН ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИНИ  
КОНЦЕНТРИЗМ ПРИНЦИПИ АСОСИДА СТРУКТУРАЛАШДА  
ТАЯНИЛАДИГАН ТАМОЙИЛЛАР**

**Ф.М.Қўчкарова, Андижон вилояти  
ХТХҚТМО худудий марказининг  
Мактабгача, бошланғич ва махсус таълим  
методикалари кафедраси мудири, PhD.,  
Х.З. Мухаммаджонов, ТАТУ Фарғона филиали 3-босқич талабаси**

Дарсликда ўқув материалларини тизимлаштириш ва структуралаштириш ўқувчиларнинг диққатини бошқариш, структуралаш методлари ёрдамида уни режалаштиришни таъминлайди. Бу, ўз навбатида, ўқувчиларнинг билиш қобилиятларини ривожлантириш, уларни яратувчиликка ундаш имконини беради, уларда билиш усулларини ҳисобга олиш кўникмаси ҳосил бўлади. Ақлий имкониятларга таянган ҳолда ўқув материали мазмуни ва иш шакллари танлаш лаёқати намоён бўлади. Ўқувчиларда ўқув материалларини ўзлаштириш тажрибаси, билиш майлларининг имкон қадар тўлиқ намоён бўлиши ўқув топшириқларини муваффақиятли ечиш омилдир.

Дарсликларнинг дидактик вазифаларини тизимлаштиришнинг моҳияти таълим жараёнига ахборот оқимларининг кўплаб жалб этилиши муносабати билан кучайиб бормокда. Бу эса ўқув материалларини интеграциялаш ва умумлаштиришни тақозо қилмокда. Ўқув материалларини танлаш ва структуралаш дарсликни лойиҳалашга алоқадор ҳолатдир. Бу эса таълим жараёнини лойиҳалаш асосида келиб чиқади.

Бугунги кунга келиб, ўқув материалларини концентризм принципи асосида лойиҳалаш масаласи илмий манбаларда етарлича асослаб берилмаган. Мазкур принцип ўқув материали ва таълим мазмуни қандай аниқлаш, баён этиш, такомиллаштириш лозимлигини ифодаловчи меъёрий асосдир.

Ўқув материалларини концентризм тамойили асосида структуралашда қуйидаги принципларга таянилади: бу жараёнлилик ва режалилик принципларидир.

Ушбу принципларни қўллашда асос сифатида концептуал ёндашувларга таянилади. Дарслик таълим жараёнининг сценарийси сифатида намоён бўлиши керак. Бир қатор дидактик ғоялар ўқув жараёни самарадорлигини оширишнинг умумий масалаларига бағишланган. Умумий ўрта таълим мактабларида мавжуд бўлган дарсликларнинг таҳлили шуни кўрсатмокдаки, уларнинг янги типлари ва моделларини ишлаб чиқишга кучли эҳтиёж мавжуд. Бундай эҳтиёж биринчи навбатда дарснинг таркибий қисмларини бойитишга бўлган дидактик зарурият сифатида намоён бўлмокда.

Ўқув материалларини танлаш ва структуралаштиришда жараёнлилик тамойили ўқув материалларининг ҳар бир бўлаги таълим мазмунининг барча элементлари билан боғлиқ ҳолда унинг таркибий қисми сифатида намоён бўлади ва бу, ўз навбатида, ўқувчиларнинг билимларни ўзлаштириш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади. Ўқув материалларининг муайян қисмини ўзлаштириш жараёнида унинг кейинги элементларини билиб олиш тақозо қилинади. Бунда ўқув материалларининг аниқ блокларга жамланиши муҳим аҳамият касб этади. Бу эса ўқувчиларнинг бутун ўқув материалларини кейинги синфларда ўтиладиган қисмларигача тўлиқ идрок этишларига имкон беради.

Жараёнли ёндашувнинг асосий жиҳатлари таниқли педагог Л.В.Занков томонидан ишлаб чиқилган эди. Мазкур ёндашувлар, айниқса, шахсга йўналтирилган таълим жараёнида қўлланиладиган дарсликларни яратиш ва унда тақдим этиладиган ўқув материалларини лойиҳалашда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу тамойил ёрдамида нафақат муайян ўқув предметининг ичида, балки ўқув предметлариаро боғланиш таъминланади. Бунда дарслик муаллифларининг эътибори ўқув материалларини блокларга ажратиш, улар орасидаги алоқадорликни таъминлаш, муайян концентрларга тақсимлаш, мақсадга мувофиқ тарзда лойиҳаланган, ўқувчиларнинг эътиборини эса ўзлаштирилган билимларга жалб этиш учун қулай шароит яратилади. Шу асосда ўқувчилар кенг қўламли такомиллашган билимлар ва ахборотларни ўзлаштириш жараёнига киришадилар.

Бошланғич синф Она тили ва Ўқиш дарсликларида ўқув материалларини структуралашда жараёнлилик тамойилига ҳам асосланилади. Бунда ўзлаштиришнинг босқичма-босқичлигини билимларни ўзлаштиришнинг асоси сифатида ажратиш, уларни истиқболда ривожлантиришнинг тадрижийлигига эътибор қаратилади. Бунда ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадал ривожлантириш имкониятлари кенгайтирилади. Ўқувчиларда ўқув материали матни билан боғлиқ ҳолда топшириқларни танлаш, уларни машқлар билан боғлаш, тизимлаштириш ва умумлаштириш кўникмалари ҳосил қилинади.



Таҳлиллар шуни кўрсатадики, ҳар бир матн кириш, асосий қисм, хулосадан иборат бўлиб, сарлавҳалар ва параграфлар орасида боғланиш таъминланган бўлиши керак. Матннинг бир қисми ўзлаштирилган билимларни умумлаштирган бўлиб, бу ўқувчиларнинг билимларини тизимлаштириш учун алоҳида аҳамиятга эга. Ушбу яхлит параграфлар ёки 2-3 гапдан иборат матнлар сифатида дарсликларда тақдим этилган ўқув материаллари таълим мазмунининг назарий қисмига алоқадор бўлиб, ўзлаштирилган билимларни мустаҳкамлаш ва тизимлаштириш учун муҳимдир. Такрорий-умумлаштирувчи матнлар ўзлаштирилган билимларнинг тадрижийлигини таъминлаш учун зарурдир. Бу эса, ўз навбатида, таълим мақсадига эришиш учун муҳим ҳисобланади. Ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган билимлар уларни чуқурлаштириш ва ривожлантириш учун муайян даражада аҳамият касб этади. Аксарият ҳолларда мазкур вазифани кичик матнлар бажаради. Бунда ўқувчиларга билиш жараёнининг тенг ҳуқуқли субъекти сифатида мурожаат қилиш учун қулай шароит яратилади.

Тушунтириш характеридаги матнларда нафақат ўқув предметининг мантиқи очилади, балки унинг мазмунини қисмлар, блоклар, параграфларга ажратиш имкониятлари таҳлил этилади. Шу билан бир қаторда ўқув предмети мазмунида мазкур бўлимнинг тутган ўрни очиб берилади. Тушунтириш матнлари ўқувчиларга ўқув материални мувофиқлаштирувчи ва тадрижий алоқадорлигини таъминловчи ҳолатлар ўқув курси ҳамда таълим мазмуни доирасида очиб берилади.

Ўзлаштириладиган билимлар ва ахборотларнинг матн доирасидаги алоқадорлиги унинг ўқув предмети, мазмуни ҳамда дидактик мантиқини ҳам ифодалайди. Ўқув воситалари сифатида умумлаштириш ва тизимлаштириш фаолияти матнга муаммоли топшириқлар, саволлар ҳам мужассамлаштириладики, уларга ўқувчилар индуктив ва дедуктив усуллар ёрдамида жавоблар излайдилар. Матнли топшириқлар ўқувчиларни таҳлил қилиш, қиёслаш, чоғиштиририш, умумий ҳолатларни қисмларга бўлиш, турли тушунчаларни ўзаро бир-биридан ажратиш, тизимлаштириш операцияларини бажаришга ундайди. Умумлаштирувчи матнлар ўқувчиларда воқеликни яхлит идрок этиш ва изчил мантиқий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади.

Режалаштириш тамойили ҳам ўқув материалларини структуралаштиришда ўз ўрнига эга. Чуқурлаштирилган таълим дастурларида таълим мазмунига асосланган лавҳаларнинг намоён бўлиши параграфлар, бўлимлар, ўқув курслари шаклида ифодаланади. Дарсликда таълим мазмунининг таркибий қисмлари ёрдамида кириш, асосий матнлар, мавзуларни ўрганиш режаси, таянч жадваллар ёрдамида ўқув материалларининг таркибий қисмлари, мазмуни ва структураси баён этилади. Ўқув предмети ичидаги ўқув курслари орасидаги алоқадорликни таъминлашда мазмунининг асоси, мавзуга доир асосий саволлар ҳамда билимларнинг турли элементларини ўзлаштириш ҳақидаги тахминлар:

- тушунчаларни ойдинлаштириш;
- қонунларни шакллантириш;
- далилий маълумотларни келтириш талаб этилади.

Билимларни тизимлаштириш қоидаларига онгли тарзда амал қилиш ўқув материалларини структуралаштириш самарадорлигини таъминлайди. Кўрсатилган ёндашувлар туфайли таълим мазмуни қисмларининг яхлитланишига эришилади.

Мазкур тамойил асосида танланган ўқув материалларида дарсликнинг қуйидаги қисмлари ўз аксини топиши керак: режалар, кириш матнлари каби. Мавжуд дарсликларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, уларнинг кўпчилигида кириш матнлари мавжуд эмас. Уларнинг бир хат бошидан иборат киришдан бутун бошли матнларгача муайян мантиқий асосга эга бўлган таркибий қисмлардан ташкил топмаганлиги аниқланди. Ўқув курси мазмунини баён этишда режалилик ўз аксини топмаган. Шунингдек, дарсликларда кириш матнлари жуда камдан-кам ҳолатларда берилган. Уларда ўқув матнини очишнинг мазмуни ва жараёнли кўрсаткичлари ифодаланмаган.

Режалилик тамойилини амалга ошириш натижасида таркибли кўргазмали чизмалардан ҳам фойдаланиш лозим. Уларда ўқув материални ўзлаштиришга

мўлжалланган олдиндан тахмин қилинган мантиқли-мазмунли, таркибли-функционал боғланишлар ўз аксини топади.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПЕРИОД ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ

И.Н.Эргашев, старший преподаватель АГУ  
Ш С. Илхомбекова, студентка АГУ

*Аннотация.* Эта работа посвящена проблемам формирования и развития творческих способностей учеников начальных классов в период обучения грамоте.

*Ключевые слова:* грамота, способность, методы, практика, размышление, учебник, педагог.

«Дети должны жить в мире красоты, игры, сказки, музыки, рисунка, фантазии, творчества. От того, как будет чувствовать себя ребенок, поднимаясь на первую ступеньку лестницы знаний, что он будет переживать, зависит весь дальнейший путь к знаниям.»

В.А.Сухомлинский.

ГРАМОТА - (от греческого “grammata” - чтение и письмо) это овладение умением читать и писать, излагать свои мысли в письменной форме, понимать при чтении не только значение отдельных слов и предложений, но и смысл текста, то есть овладение речью.[1, 47]

Навыки чтения и письма — это речевые навыки, так же как и чтение и письмо — виды речевой деятельности человека. И навык чтения, и навык письма формируются в неразрывном единстве с другими видами речевой деятельности — с устными высказываниями, со слушанием — слуховым восприятием чужой речи, с внутренней речью. [2,78]

И первой ступенью развития интеллектуальных способностей является школьное образование ребенка, которое начинается с обучения грамоте в 1 классе. Работа учителя начальных классов необычайно сложна, требует высокого педагогического мастерства, терпения и огромной любви к детям.

Новое содержание образования направлено на всестороннее воспитание учеников, их активизацию. В частности, обучение детей грамоте, обогащение словаря должно быть достигнуто посредством развития речи, овладения другими учебными дисциплинами.

Обучение грамоте является важным этапом в образовании, в этот период обучают грамоте. Разбор слова по буквам в словах, различение звуков по слогам и произношению обеспечивается тем, что в слове можно также научиться обращать внимание на чередование звуков. Особое значение имеет обучение детей работе с буквами при произнесении речи. С их помощью дети быстро учатся составлять слова. Они также тренируются составить предложение. Они учатся читать небольшие тексты, правильно и плавно, соединяя звуки. В этот период необходимо уделять особое внимание в связи с тем, что дети читают слова вслух.

После того, как ребенок сначала читает слоги внутри, чтение звуков происходит неразрывно с письменной речью, чтобы сказать слово целиком. Этот метод помогает развивать у детей грамотную речь.

На занятиях по чтению учащиеся учатся писать слова и предложения с заглавными буквами в алфавитном порядке. В период обучения грамоте также полезно научить детей писать печатными буквами в письменном виде, различая похожие стороны прописных букв с печатными, потому что они часто путают печатные буквы. При этом они должны уделять внимание к письменным образцам, добиваться того, чтобы их буквы были правильными и красивыми.

Для правильной организации работы по обучению грамоте необходимо обратить внимание на следующее:

1. Уделять внимание дидактическим аспектам образования, наполнять его последними достижениями;
2. Внимание к возрастным и физиологическим особенностям учащихся;
3. Широкое применение методов развития самостоятельной деятельности учащихся;
4. Внимание к совместимости чтения и письма;

Формирование устной и письменной речи учащихся в школе является основной задачей всех учителей начальных классов, особенно учителей родного языка. Формирование речи учащихся означает - обучение их литературному языку своего народа. Учитель родного языка должен приучать учащихся к разговору на литературном языке. Воспитательная работа учителя начинается с того дня, когда ребенок делает шаг первый в школу. Речевые навыки формируются только в результате последовательной практической работы. Поэтому учитель должен обратить внимание на развитие речевых навыков у учащихся, в основном по предмету, изложенному в учебнике по каждому разделу грамматики. Учитель должен уделять большое внимание правильному, выразительному, плавному произношению слов учащимися. Этот навык включает в себя, прежде всего, простое и легкое содержание речи. Поэтому развитие речи на каждом уроке грамматики и правописания должно оставаться в центре внимания учителя, приучать учеников к правильному произношению и расширять словарный запас как первоочередную задачу.

Развитию мыслительных способностей первоклассников уделяют внимание методисты, учителя-практики: А.З. Зак, В.Г. Горецкий, А.А. Люблинская, Д.Б. Эльконин, Н.М. Бетенькова, Д. С. Фонин и др.

Ученики быстро устают, если какой-то тип упражнений в воспитании речи ученика в грамотном образовании длится долго. Учитывая это, целесообразно изменить типы и методы упражнений. Также первые упражнения должны быть на высоком уровне с точки зрения выразительности и усидчивости. Потому что дети не могут сразу войти в умственную деятельность, как писать, так и читать.

В период обучения грамоте учитель должен предусмотреть использование методов и приемов обучения чтению, которые помогли бы учащимся преодолеть трудности перекодировки при чтении слогов разных структур. Научить детей читать по буквам невозможно. Дети, читающие «по буквам», допускают много ошибок. Их необходимо «переучить» - показать им приемы графического анализа слова и научить сливать звуки в слоги, то есть читать по слогам.[3,98]

Всё обучение грамоте строится таким образом, чтобы на уроках было интересно всем. Каждый урок включает задания для тех, кто только учится чтению слога, для тех, кто может читать слова, состоящие не более чем из двух слогов, для тех, кто может читать очень короткие предложения, и, наконец, тексты для тех, кто уже хорошо читает. При этом задания даются таким образом, чтобы ребенок с помощью учителя мог сам проанализировать причину своей ошибки и мог сам ее исправить.[4,69]

Литература:

1. Ожегов. С.Н.Ю.Шведова. Толковый словарь русского языка. стр.489
2. Рамзаева.Т.Г, Львов М.Р Методика обучения русскому языку и литературе в начальных классах.
3. Мали Л.Д. Методика обучения русскому языку и литературе в начальных классах.
4. Ашевская.Л.А. Русский язык в школе. «Развитие творческих способностей и личности учащихся».

## САМООРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ УЧЕБНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ УМЕНИЙ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Т.Султанов. ТГПУ

*Аннотация.* Мы рассматриваем высокая эффективность обучения обеспечивается при рациональном сочетании различных видов самоорганизации. Как отмечалось ранее, данные показатели являются проявлением умения самоорганизации знаний.

**Ключевые слова:** самоорганизация, эффективность, способность, творческого восприятия, технология, воспитания, форма и метод обучения, учебной деятельности.

Однако мы полагаем, что каждый из указанных терминов имеет самостоятельное значение, и поэтому нельзя рассматривать их как синонимичные. Самоорганизация является достаточно широким понятием, которое охватывает большой круг вопросов и проблем и реализуется в различных видах деятельности ребенка. Самоорганизация знаний, в нашем понимании, сводится к самостоятельной деятельности школьника, в то время как умение самоорганизации знаний представляется нам еще более узким определением, которое применяется конкретно к учебной деятельности школьника и реализуется в процессе усвоения знаний ребенка.

Таким образом, нами были введены определения «самоорганизация знаний» и «умение самоорганизации знаний» младшего школьника, сконструированные на основе терминов самоорганизация, знания, учебная деятельность.

Знания представляют собой результат педагогически направленного усвоения фактов, понятий, законов науки, в которой отражены закономерности развития природы и общества. Знания являются орудием мышления и преобразования мира .

Исходя из определений «самоорганизация» и «знания», под самоорганизацией знаний учащихся младших классов мы понимаем самостоятельную деятельность по систематизации знаний и самостоятельной организации процесса их усвоения.

Под умением самоорганизации знаний, мы подразумеваем, умение школьника самостоятельно организовывать процесс усвоения учебного материала, что в результате находит свое проявление в сознательных целенаправленных действиях: целеустремленности, активности и самостоятельности, мотивированности и планировании деятельности, быстроте принятия решения и ответственности, критичности оценки результатов действий и ответственности в процессе работы.

Данное определение позволило выделить критерии самоорганизации знаний школьника и в результате разработать показатели самоорганизации младшего школьника.

Критериями и показателями самоорганизации младшего школьника являются:

- учебная мотивация (стремится получить прочные знания, изучать весь материал, боится не плохой оценки, а пробела в знаниях, положительно относится к требованиям учителя, осознает их важность и необходимость).
- познавательная активность (интерес к заданию, любознательность ребенка, активность в процессе работы);
- произвольность учебной деятельности (способность удерживать цель деятельности, намечать план, выбирать адекватные средства, применять комплекс конкретных учебно-интеллектуальных умений в их логичной последовательности в процессе выполнения задания, преодолевать трудности в работе, доводить начатое дело до конца);
- познавательная активность (интерес к заданию, любознательность ребенка, активность в процессе работы);
- интеллектуальная активность (умение правильно определять содержание и смысл анализируемого, видеть и осознавать тонкие различия при сравнении, обнаруживать закономерные связи, потребность в помощи взрослого);
- самостоятельность в учебной деятельности (самостоятельность при

выполнении работы, потребность в дополнительных внешних стимулах, забота о качестве работы);

самоконтроль учебной деятельности (соответствие результатов усилий ребенка и поставленной цели, возможность сопоставления всех полученных результатов с поставленной целью, самостоятельность в исправлении ошибок).

Мы предположили определенную взаимосвязь проблем развития конкретных учебно-интеллектуальных умений, умения самоорганизации знаний и формирования синергетического стиля мышления школьников.

Таким образом, проведенный анализ показал, что в исследованиях по педагогике и психологии современной школы отмечается значимость овладения учениками способности самостоятельно организовывать свою деятельность, так как в конечном итоге это определяет развитие активности, самостоятельности и инициативности учащихся в процессе обучения. Проблема развития умения самоорганизации знаний у младших школьников является актуальной, хотя и остается спорной. Одним из основных путей ее решения, на наш взгляд, является формирование у учащихся конкретных учебно-интеллектуальных умений, в основе которых лежат мыслительные операции, мотивация и произвольность.

#### Литература

1. Постановление президента республики Узбекистан. О Государственной Программе “Год гармонично развитого поколения” “Учитель Узбекистана”, 29 января 2010. № 5 (2088), (1-4 стр)

2. Жумаев М. Humanization of the teacher’s personality development. XII-международной конференции «Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития». Санкт-Петербург. (ЛГУ) 31-май-1-июня 2014 г.

3. Жумаев М. Сравнительная характеристика традиционного и технологического подходов в обучении специалистов. Педагогика и психология в контексте современных исследований проблем развития личност VII Международная научно-практическая конференция. г.Махашкала-2015.

### **O’RTA MAXSUS TA’LIM TIZIMIDA DINAMIKA BO’LIMINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**U.Valiyev, katta o’qituvchi  
Andijin davlat universiteti**

O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida har bir mutasaddisi, pedagoglar va ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar oldiga avvalo o‘zi shug‘illanadigan ta’lim yo‘nalishidagi fanlarni chuqur bilishi zarurligini bosh vazifa qilib belgilab berilgan. Ikkinchi tomondan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining keyingi ikki yil davomida chiqargan buyruqlari bo‘lajak yosh pedagoglar oldiga ham qator vazifalarni qo‘ydi. Shu nuqtai nazardan bitiruvchi yosh mutaxassis-pedagoglar avvalo zamonaviy pedagogik va talim texnologiyalarini, innovatsion talim texnologiyalarini, innovatsion ta’lim metodlarini, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilib, ulardan amalda, pedagogik faoliyati davomida foydalana oladigan darajada malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab etmoqda. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishlarni bajarish va yozishda albatta ushbu ma’lumotlarni bilishi, tushunib yetgan bo‘lishi, xech bo‘lmaganda biror bo‘lim yoki paragrflarda bu boradagi o‘z bilimlarini bayon etishi xam talab qilinadi.

Dinamika asoslari, uning qonunlari va ularning mazmuni moxiyati akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardagi fizik ta’lim bosqichida o‘rganiladi. Umumta’lim maktablarida dinamika to‘g‘risidagi dastlabki boshlang‘ich tasavvurlarni olgan akademik litsey va kasb-xunar kollejlari talabalari dinamika qonunlari asolarini mukammalroq o‘rganadilar. Bu fizik ta’lim uzviyligi va izchilligini ta’minlashning muxim bosqichi xisoblanadi. Bu bosqichda dinamika qonunlarini amaliy tadbirlari borasida xam asosiy ma’lumotlar beriladi. Saqlanish qonunlariga soddagina

misollarda qo‘llash bo‘yicha xam tushinchalar bayon qilinadi. Mavzu dolzarb lekin dinamika qonunlari asoslarini o‘rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan emas. Dinamikani o‘rganish davomida o‘quvchi va talabalarda fizik o‘lchashlarning asosiy ko‘nikma va malaklari xosil bo‘ladi. Ular vaqt masofa, massani o‘lchash bilan bir vaqtda, kuch tushinchasi va uni o‘lchash yoki aniqlash xaqida ham dastlabki tushinchalar, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ushbu maqolada “Dinamika” bo‘limini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.

### **Darsning texnologik xaritasi**

**Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarda dinamika va uning asosiy qonunlari haqida bilimlarni shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarda dinamika qonunlaridan xayotiy muammolarni xal qilishda foydalanish ishtiyoqini uyg‘otish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilar dinamika qonunlaridan amalda, zarur o‘rinlarda foydalanishni, bu bilimlarini amalda qo‘llashni bilib oladilar.

**O‘qituvchi:** O‘quvchi va talabalarga mavzuda yoritilayotgan fizik jarayon va xodisalarning mazmun-mohiyatini ochib beradi va ularga doir olingan bilimlardan turmushda, xayotiy faoliyati davomida qaerda va qanday foydalanishi xaqidagi dastlabki tasavvurlar, malakalar va ko‘nikmalarni xosil qilishga erishadi.

**O‘quvchilar:** O‘quvchilar va talabalar esa o‘tilayotgan mavzuda yoritilayotgan fizik jarayonlar va xodisalarning mazmun-mohiyatini tushunib oladilar, so‘zlab beradilar va ularga doir olingan bilimlardan turmushda, xayotiy faoliyati davomida qaerda va qanday foydalanishi xaqidagi dastlabki tasavvurlar, malakalar va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Fizik jarayonlar va xodisalarning mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunib olishlari uchun masalalar ishlaydilar va mavzuga oid kattaliklarni o‘lchashlarni o‘rganib, laboratoriya ishlarini bajaradilar.

#### **Yangi mavzu bayoni:**

1. Dinamika bo‘limining mazmuni , vazifasi va maqsadlari.
2. Nyutonning 1- qonunining mazmuni va moxiyati.
3. Nyutonning 2- qonunining mazmuni va moxiyati.
4. Nyutonning 3- qonunining mazmuni va moxiyati.
5. Ishqalanish kuchlarining mazmuni va moxiyati. .
6. Gorizantga qiya otilgan jism harakati misoli

**Dars turi:** Aralash dars.

**Kerakli jixozlar:** Plakatlar, rasmlar, slaydlar, kodoskop, proektor, personal kompyuter, mavzuga oid multimedia dasturlari va internet ma’lumotlari .

**Dars metodi:** “Tez aytish” o‘yin darsi.

#### **Dars bosqichlari:**

1. Tashkiliy qism (3-5 minut)-salomlashish, davomat, auditoriyani darsga tayyorligini tekshirish.
2. O‘tilgan darsni takrorlash (15-20 minut)- Tez aytish o‘yin darsi shu bosqichdan boshlanadi.

**O‘yin dars tuzilmasi:** O‘qituvchi darsini takrorlash bosqichidan boshlab, yangi mavzu bayonini ichida ham, mustaxkamlash jarayonida ham o‘quvchilarga juda ko‘p savollar beradi. Savol ham, javob ham qisqa, lo‘nda bo‘lishi kerak. Savollarga eng tez javob beruvchi o‘quvchilarga guruh sardori yoki saylangan ekspert o‘quvchi rag‘bat kartochkalari berib boradi va ularni o‘zidagi jadvalda belgilab boradi. Bu jadval plakatga tayyorlanib, ko‘rinarli joyga ilinsa, yanada yaxshi bo‘ladi. Ba’zi darslarda doskadan kam foydalaniladi. Bunday darslarda jadvalni to‘g‘ridan-to‘g‘ri doskaga chizish mumkin.

Bu jadval ko‘rinishi quydagicha bo‘ladi.

	O‘quvchining ism va familiyasi	Savol nomeri					Rag‘bat	Baho
	Abdullaeva Karima						7	5

	Solieva Manzura						6	4
--	-----------------	--	--	--	--	--	---	---

Dars oxirida rag'batlar soniga qarab o'quvchilar baholanadilar.

#### **Metodning afzalliklari**

1. Savol qancha ko'p bo'lsa shuncha ko'p o'quvchi darsga tortiladi.
2. O'quvchilar ko'proq rag'bat olishga qiziqadilar, bu borada o'ziga xos musobaqa boshlanadi.
3. Bolalarni xozirjavoblikka o'rgatadi.
4. O'quvchilarning umumiy bilimlarini sinab turishga imkon bo'ladi. CHunki bunda mavzuga bog'lanuvchi avvalgi darslardan o'tilgan bilimlarini ham so'rash mumkin.

#### **Metodning kamchiliklari**

1. Savollar umumiy berilgani uchun ba'zi o'quvchilar "pana"da qoladi.
2. G'ala-g'ovur bo'ladi. Ba'zan ikki o'quvchi teng qo'l ko'taradi.
3. Ba'zan o'zaro tortishuvga borishi mumkin.

O'quvchilarning metodni puxta o'zlashtirishlari natijasida bunday kamchiliklar osongina bartaraf qilinishi mumkin.

#### **Takrorlash uchun nazorat savollari.**

1. Harakatning qanday turlari bor?
2. Tezlik nima?
3. Tezlanish nima?
4. To'g'ri chiziqli tekis harakat deb nimaga aytiladi?
5. Egri chiziqli tekis harakat deb nimaga aytiladi?
6. Aylanma harakat deb qanday harakatga aytiladi?
7. Erkin tushish nima?
8. Ko'chish deb nimaga aytiladi?
9. Yo'l deb nimaga aytiladi?
10. Erkin tushish tezlanishining son qiymati nimaga teng?
11. Tezlik formulasini ayting?
12. Tezlanish formulasini ayting?
13. Normal tezlanish deb nimaga aytiladi?
14. Normal tezlanishni hisoblash formulasi qanday?
15. Tangensial tezlanish nima?
16. Tangensial tezlanish formulasi qanday?
17. Aylanish davri deb nimaga aytiladi?
18. Aylanish davri formulasini ayting?
19. Aylashish chastotasi deb nimaga aytiladi?
20. Aylanish chastotasini hisoblash formulasi qanday?
21. Burchak tezlik deb nimaga aytiladi?
22. Burchak tezlikni hisoblash formulasini ayting?
23. Burchak tezlanish nima?
24. Burchak tezlanish ni hisoblash formulasi qanday?
25. YUqoriga tik harakatda tezlik formulasini ayting?
26. YUqoriga tik harakatda tezlanish qanday hisoblanadi?
27. YUqoriga tik harakatda bilandlik qanday hisoblanadi?
28. YUqoriga tik harakatda vaqt qanday topiladi?
29. YUqoriga tik harakatda eng katta balandlikni hisoblash formulasini ayting?

3. Motivatsiya bosqichi (5 minut)- hikoya:

1817 yilda Germaniyalik Fon Drez oldi g'ildirakdan harakatlanuvchi velosipedni kashf qildi. 20 yildan keyin SHotlandiyalik Makmillan boshqaruvni keyingi g'ildirakka o'tkazdi. 1869 yilda o'tkazilgan velosiped poygasida eng katta tezlik 15 km/soat bo'lgan, 1883 yili birinchi matotsiklni Gotlib Daymler tomonidan yaratilgan. Bug' mashinali birinchi avtomobil' 1770 yilda Fransuz Kuino tomonidan kashf qilingan. Samolyot 1882 yilda rus olimi A. F. Mojayskiy tomonidan yasalgan. SHunday qilib harakat tezligi ham, tezlanish ham keyingi 2 asrda juda tez

o'sib bordi. Raketani kosmosga chiqarish uchun kamida 7,8 km/sek tezlik berish kerak. Bu 29080 km/soat degan so'zdir.

4. Yangi mavzu bayoni (40 minut)-

O'qituvchi yangi mavzuni bayon etish asnosida, dars o'rtasida ham o'quvchilarga darsga bog'liq savollar bilan murojat etadi. Ya'ni tez aytish o'yini davom etadi, masalan dinamika ta'rifi yozilishidan oldin.

1. Mexanika nima?
2. Uning qanday yo'nalishlari bor?
3. Kinematika nima?-kabi savollar berishi o'rinli.

Nyutonning birinchi qonuni inertlik tushuntirilayotganda

1. Sanoq sistemasi nima?
2. Xalqaro birliklar sistemasi nima? Deb so'rash mumkin

Massa, kuchga ta'rif berish asnosida

1. SI da massa birligi nima?
2. Vektor kattalik nima?
3. Skalyar kattalik nima? deb so'ralsa yaxshi bo'ladi.

Nyutonning ikkinchi qonuni tushuntirilayotganda

1. Massa deb nimaga aytilar ekan?
2. Kuch deb nimaga aytilar ekan?

3. Tezlanishni aniqlashni yana qanday formulalarini bilamiz?-degan savollar bilan murojat etish bu tushunchalarning o'quvchilar ongida shakllanishini ta'minlaydi

Implus va uning o'zgarishini tushuntirishda esa,

1. Boshlang'ich tezligi  $V_0$  bo'lgan jism tezlanishi formulasini aytinglarchi.
2. Boshlang'ich tezligi  $V_0$  bo'lgan jism harakatida yo'l formulasi qanday bo'ladi?-kabi savollar o'rinlidir.

Kuchning ta'sir etuvchilari, markazga intilma va markazdan qochma kuchlar tushuntirilayotganda esa,

1. Burilish burchagi va yo'l orasida qanday bog'lanish bor?
2. Burchak tezlanish bilan tezlanish qanday bog'langan?
3. Burchak tezlik bilan tezlik qanday bog'langan?- deb so'rash mumkin.

Nyutonning 3 qonuni, ishqalanish kuchlari tushuntirilayotganda

1. Vektorlarni qo'shish qanday amalga oshiriladi?
2. Vektorlarni ayrish-chi?
3. Vektorlarni ko'paytirish-chi?
4. Vektorni n-ga ko'paytirish qanday bo'ladi?
5. Biror n-ga bo'lish-chi?-kabi savollar beriladi?

Gorizontga qiya otilgan jism harakatini tushuntirish vaqtida yuqoridagi kabi savollar mavzuga bog'lab berilaveradi.

5. Mustaxkamlash (10 minut)- Bunda ham o'yin davom etadi. O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan:

1. Nyutonning birinchi qonunini mazmuni qanday ekan?
2. Nyutonning ikkinchi qonunichi?
3. Nyutonning uchinchi qonunini kim aytadi?
4. Inersiya nima?
5. Ishqalanish nima?
6. Ishqalanish ko'effitsenti nimani bildiradi?

6. Xulosa (5 minut)-ekspert rag'batlar soni va baholarini o'qib beradi.

O'qituvchi o'quvchilarni savollariga javob beradi.

7. Uyga vazifa (2 minut)- Uyga topshiriq beriladi.

Shunday qilib, ushbu maqolada "Dinamika" bo'limini o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish usullaridan biri, ya'ni savol-javob o'yinidan foydalanish usullari ko'rsatildi.



## Adabiyotlar

- 1.Sivuxin D.V.Umumiy fizika kursi.1-3 jild.Mexanika.T.O'qituvchi,1981
- 2.Strelkov S.P.Umumiy fizika kursi.Mexanika.T.O'qituvchi.1977
- 3.Axmadjonov O.Fizika kursi.1-3 qism.T.1985

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH.

F.M Komilova– ADU, katta o'qituvchi.

*Annotatsiya:* Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida yoshlar tarbiyasida faollikning ahamiyati zamon talablaridan biridir. Ayniqsa, o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalashning zarurligi, tashkilotchilikning, pedagogik- psixologik jihatlari va uning mohiyati va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* tashkilotchilik, yetakchilik, faollik, layoqat, o'z-o'zini boshqarish, intellektual salohiyat, ishchanlik, jamoaviy birlik.

Jahon ta'lim tizimida shaxsning uzluksiz ta'limning muhim xususiyati sifatida yanada takomillashtirish, o'quvchilarning tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishning metodik kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada xalq ta'lim tizimida o'quvchilarining tashkilotchilik faoliyatining samaradorligini tayyorlashga erishish dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi.[1]

2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Res'ublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2019 yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bir qator vazifalar belgilandi.

Yoshlarning intellektual salohiyati ishchanlik, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Tashkilotchilik-bolaning qobiliyati, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda, jamoada hamkorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan olib qaralganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish pedagogik-psixologik jihatdan keng qamrovli maqsadlarga, ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. “Har bir bolaning iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash ro'yobga chiqarish nafaqat ota-ona, balki butun maktabning burchidir” deya ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki, qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligiga ham bog'liq. Tashkilotchilikning umumiy sifatleri deganda, aqlning amaliy va chuqur mulohaza yurita olishi, faollik va tashabbuskorlik, qo'yilgan maqsadga erishishda tirishqoqlik, murakkab vaziyatlarda o'zini qo'lga ola bilish, uyushtira olish, kuzatuvchanlik, muomalaga kirishuvchanlik kabilar tushuniladi. Tashkilotchilikning o'ziga xos sifatleri: ichki sezgirlik, xushyorlik, xissiy irodaviy ta'sir eta olish, tashkilotchilik faoliyatiga moyillikni o'z ichiga oladi. Pedagogik kasb va unga qo'yiladigan talablar o'zgarishsiz qoladi, deb bo'lmaydi balki, inson turli-tuman faoliyatlar ta'sirida shakllanib boradi.

Yangi avlod va uning rivojlanishi, ma'naviy ijtimoiy xayotga moslashuvi, o'zini va boshqalarning faoliyatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelishi va uning yechimini topishga doim tayyor turish bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yangi idrok, tafakkur bilan dunyoni his etish, ko'rish va anglab yetishning yangi sharoitlarini izlab topish va yo'lga qo'yish, tahlil etishi, baholay olishi zarur. Bu borada o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi, tashkilotchiligi

uning kasbiy layoqatida:

-tizimli dunyoqarash, modeli tafakkurida, pedagogik faoliyatdagi ijodkorlik;  
-yangi axborotlar bilan doimiy ravishda qurollanganligi, foliyatning samaradorligini egallashida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni mustaqil, ijodiy bilish jarayonini tashkil etish va yo'lga qo'yishda paydo bo'lgan maxsus, jumladan, tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalash, ijodiy guruh xarakterdagi vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan o'qituvchi faoliyatida yangi vosita, usul, shakllarni doimo izlab topishga ehtiyojni shakllantirish muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda:

-o'quvchining qiziqish doirasini kuzatish, tahlil qilish, o'stirish, yo'naltirish;  
-o'yun, o'qish, mehnat, faoliyatning turlarini o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi;  
-hissiy barqarorlik, o'quv-ijodiy topshiriqlarni bajarishga hohish, jamoada sardorlikka intilish va bor kuchini jamlash qobiliyatiga ahamiyat qaratish. Shuningdek,  
-beshta tashabbus orqali bolalarni iste'dodi va iqtidorini tizimli o'rganib borish;  
-o'z mehnatidan qoniqish hosil qilishga ko'maklashish;  
-ota-onalar hamkorligini to'g'ri yo'lga qoya olish, muvafaqqiyatlaridan quvonishi;  
-bolaga har bir topshiriqni bajarishda tushuntirish, mas'uliyat, burch hissining shakllanishi, jamoa a'zolariga ba'zan bo'ysunish, empatik holatlar, o'zaro yordamlashishga intilish, sinfdan tashqari ishlarda faol bo'lishga tayorlash;  
-o'qituvchining bolaga tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda pedagogik, metodik kreativ jihatdan to'g'ri yondasha olishlari maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сон Фармони Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон, 20-модда.

2. F. Komilova “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish” T.2010.

3. Komilova F.M. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat”. O'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: muammo va echimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T.; 2019.

## **ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**

**С.М.Гоипова, М.Т. Азимова,  
АДУ, ўқитувчилар**

Миллий дастурда чет тилларини ўқитишга чет тили ўқитувчиларининг тил малакаларини тили ўрганаётган мамлакатларда орттиришга катта эътибор берилган. Талаба-ўқувчилар тили ўрганилаётган мамлакатларда бир ойдан икки йилгача тил ўргатиш семинар ва курсларида ўз тил амалиётларини орттириб келаётгани, шу билан бирга аспирант, илмий ходим, магистрант, докторантларнинг ўз илмий изланишларини тили ўрганилаётган мамлакатларда амалга ошириши миллий дастурнинг амалда бажарилаётганига мисол бўла олади.

Барча лицей ва коллежларда, олий ўқув юртларининг барча турларида чет тилни ўқитилиши талабалар билим савияларини оширади, маданий, умуминсоний сифатларини бойитади. Ҳар бир янги тилни ўрганишлари билан янги бир олам кашф этилади.

Янги педагогик технологиялар томонидан чет тили ўқитувчиларидан инглиз, немис, француз тиллари каби чет тилларини яхши ўқитилишини талаб қилиниши давр тақазосидир.

Янги педагогик технологиялар ЮНЕСКО таърифи билан айтганда бу “таълим шакллари ва мазмунининг самарадорлигини оширишга қаратилган инсон омиллари ва техник воситаларидан оқилона фойдаланилган ўқитиш ва ўзлаштиришнинг тизимли услубиятидир”.

Демак, провард натижа мавзу талабалар томонидан яхши тушунилган бўлиши керак.

Чет тилларни ўқитиш жараёни яхши натижа бериши учун қатор муаммолар мавжудки, бу муаммоларнинг тўла ёки қисман бартараф қилиниши озми-кўпми муваффақиятлар гарови бўлиши мумкин:

1. Чет тили ўқитувчиси тили ўрганилаётган миллат вакили бўлмагани сунъийлик келтириб чиқаради, чунки фонетик, лексик, грамматик жиҳатдан чет тили она тилиси бўлган ўқитувчининг ўрнини бошқа ўқитувчи босиши амри маҳолдир – немис, инглиз, француз тилларини Германия, Англия, Франциядан Ўзбекистонга келиб ўз она тилисини ўқитилиши энг муваффақиятли ўқитиш технологияси ҳисобланади. Бу ҳол мавжуд, аммо денгиздан томчидир.

2. Чет тилини ўрганаётган талаба – ўқувчи чет тилини ўша мамлакатда, шу тилда сўзлашувчи одамлар қуршовида, табиий тил муҳитида ўрганса у талаба-ўқувчи қисқа вақтда каттамуваффақиятларга эришиши аниқ. Бу чет тилда тил ўргатишсеминар-курсларида қатнашиб келган талаба-ўқувчилар мисолида тасдиқланган.

3. Тил ўзгарувчи, бойиб борувчи ҳодисадир. Унинг луғат қисмида юз бериб турадиган ўзгаришлар бўлиб туришининг ўзи бир жараёндир. Оддий сўзларнинг маъноси, қўлланиши фан-техника, иқтисодиёт, ривожланиб бораётган ижтимоий ҳаёт тарзига мослашиб боради, ўзгариб боради. Чет тили сифатида ўрганилаётган мамлакатларда таржима луғатларининг чоп этилиши, янгиланиши кўп йилларни ўз ичига оладиган жараёндир. Бу муаммони бартараф этиш чет тили ўқитувчиларининг ҳаракатига боғлиқ. Бу борада чет тили ўқитувчиларига интернет маълумотлари яқиндан ёрдам беради.

4. Мафкурамиз мазмунига тўла жавоб бера оладиган дарслик ва ўқув қўлланмалари хали етарли эмас. Шунинг учун чет тили ўқитувчилари ўзлари ишлаб турган шароитдан келиб чиқиб ўзлари яратган ўқув адабиётидан фойдаланмоқдалар. Ваҳоланки, ҳар бир қўлланаётган ўқув адабиёти вазирлик томонидан тасдиқланган бўлиши мақсадга мувофиқ бўлади.

5. Янги педагогик технологиянинг таркибий қисмларини санаб ўтмоқчимиз: биринчи – ўқитувчи, иккинчи – ўқув юртидаги шароит, учинчи – талаба факторидир. Бизнинг фикримизча, талаба фактори янги педагогик технологиянинг учдан бир қисмини ташкил этади.

Нолисоний йўналиш ўқувчи – талабаларнинг бирламчи мақсадлари мутахассислик фанларига қаратилган бўлади.

– Уларнинг иқтидори асосан физика, химия, математика, геометрия, муҳандислик, техника, тиббиёт, юридика, педагогика каби фанларга қаратилган бўлади. Бу йўналиш талабаларига чет тили ўқитувчилари оз вақтда кўп нарсани ўргатиб улгуришлари керак. Шунинг учун янги педагогик технология тамойиллари сифатида тўғарак ишларидан унумли фойдаланишни тавсия этмоқчимиз.

Чет тили тўғаракларида иқтидорли талабалар, умуман талабаларга чет тили ўргатишда аудио, видео, теледастурлардан фойдаланиш мумкин. Тўғарак машғулотларига чет тилини қийин ўзлаштирадиган талабаларни ҳам

жалб қилиб, уларга ҳам топшириқлар бериб, уларнинг бажарилишини ўқитувчи тўла назорат қилиш имкониятига эга. Шундагина гуруҳларда чет тилини ўзлаштирмовчи талабалар бўлмади. Янги педагогик технология ҳар бир талабада фанларга озми-кўпми иқтидори борлигини ва чет тили ўқитувчиси талабалардаги ўша қобилиятни топиб ривожлантириши, такомиллаштириши керак деган вазифани қўяди.

#### Адабиётлар:

1. Алимов Ш.С. Замоनावий ўқитиш технологиялари фанидан маърузалар курси. Андижон-2009. Б.53-55
2. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили . Т. 2009.б.154
3. Harmer, J. (2001). *The practice of English language teaching*. Longman: Pearson.
4. Allen, V. F. (1983). *Techniques in teaching vocabulary*. New York, N.Y.: Oxford University Press.p.121

### DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

G. I.Jo'rayeva ADU, magistr

**Аннотация:** мақолда бoshlang'ich sinflarda o'quvchi shaxsini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaralari haqida bahs yuritilgan.

**Калит so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yin, bola psixikasi, o'yin turlari, o'yin g'oyasi, o'yin mazmuni.

Didaktik o'yin - boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yin hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yin bola psixikasida rivojlanishning yuqori bosqichiga o'tish uchun vosita sanaladi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi.

Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yo'nalishda: barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi.

Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad

qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas.

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo'lgan o'yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan bo'ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo'lgan o'yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi: o'yin g'oyasi va vazifasi o'yin ta'sirida amalga oshiriladi. O'yin g'oyasi va o'yin ta'siri o'yin mazmunini tashkil etadi; o'yin ta'siri va o'ynayotganlar munosabatlari o'yin qoidasi asosida boshqariladi. Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, so'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar.

So'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar. Bu o'yinlar guruhiga juda katta xalq o'yinlari, ya'ni "Zanjir", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Tez aytish", "Topishmoqlar", "Aytishuvlar" va shu kabi og'zaki nutq bilan bog'liq o'yinlar kiradi. Bunday o'yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o'quvchilarni fikrlarini to'plashga, tez fikrlashga, bog'lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. O'qituvchilar tajribasida qo'llaydigan ba'zi didaktik o'yinlardan misollar keltiramiz:

1. O'yin-mashq. Bu o'yin guruhda, yoki jamoada birgalikda qo'llanishi mumkin. Bu o'yin individuallashtirilgan. Ya'ni, har bir o'quvchining o'z bilimi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Bu o'yindan darsni mustahkamlash yoki o'quvchilar bilimini nazorat qilish maqsadida ham foydalanish mumkin. Masalan "Adashgan harf" ni, toping. Bir necha o'rganilgan harflar qo'yilib, orasida bitta o'rganilmagan harf ham aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar o'rganilgan harflarni ongida tiklab o'rganilmagan harfni topib o'qituvchiga ko'rsatadilar.

2. Ijodiy izlanish o'yini. Bunda o'qituvchi hikoyadagi noto'g'ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo'lmagan gapni topishni aytadi. O'quvchilar izlanadilar va bunday gapni topib, nega ortiqchaligini isbotlaydilar. Bunday o'yinlar ko'p vaqtni olmaydi, maxsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi.

3. O'yin-musobaqa. Bunda o'yinda qatorlararo musobaqalar tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, viktorinalar, turli konkurslar, olimpiadalar kiradi. Bunday o'yinlarni darsda va sinfdan tashqarida ham o'tkazish mumkin.

4. Mazmunli-rolli o'yinlar. Bu o'yin o'quvchilar darsda o'qituvchi belgilagan maqsadga muvofiq hikoyalar yoki ertaklardagi qahramonlar rolini o'ynaydilar, yoki davra stoli tashkil etib, turli rollarni bajaradilar. Masalan, muxbir, tarixchi, qishloq xo'jaligi xodimi va b.

5. Bilishga doir o'yinlar - sayohat. O'quvchilar O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda haqidagi bilimlarga ega bo'lganlaridan keyin bilimlar yurtiga "sayohat" o'tkazish mumkin. Bu mustahkamlash - umumlashtirish darslarida tashkil qilinsa yanada samarali bo'ladi.

Hamma o'quvchilarning ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Buning yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o'qituvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqtiradigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritishdir.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA IJODIY QAYTA HIKOYA QILISH USULIDAN FOYDALANISH**

**G. I. Jo'rayeva ADU, magistr**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda ijodiy qayta hikoya qilish usulidan foydalanish haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, nutqiy faoliyat, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, qayta hikoya, ijodiy hikoya.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

O'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish ona tili ta'limida muhim ahamiyatga ega. Chunki og'zaki va yozma nutqni yaxshi egallagan o'quvchi barcha fanlarni oson va to'liq o'zlashtiradi, unda bilim olishga va yangiliklarga intilish tobora kuchayadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rnini, o'z vazifasi bor. O'quvchilar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish, ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Bu narsa boshlang'ich sinflardanoq shakllantirilishi lozim.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maktab ta'limida yetakchi o'quv fanlaridan hisoblanagan ona tili o'quv faniga bevosita va bilvosita daxldordir. Ona tili mashg'ulotlari tilning butun go'zalligi, sehrini o'rganishga qiziqish uyg'otishi, hech qanday dastur bilan belgilab berib bo'lmaydigan qonuniyatlari bilan tanishtirishi zarurki, bu istiqbolli ta'limni yo'lga qo'yishdagi eng asosiy va eng muhim omil vazifasini o'tashi lozim.

Bola ijodiy hikoya tuzar ekan, uning mazmunini mustaqil o'ylab topishi, mazmuni tushunarli bo'lishi uchun zaruriy so'zlarni to'g'ri tanlashi va ularni mantiqan bir-biriga to'g'ri bog'lay olishi lozim. Yaxshi hikoya yoki ertak tuzish uchun zaruriy so'zlarini, uning kompozitsiyasini bilishi hamda katta so'z boyligiga ega bo'lishi zarur va uning mazmunini qiziqarli tuza olishi, o'zining fikrlarining aniq va tushunarli qilib bayon eta olishi muhim sanaladi. Bola doimiy mashq qilish orqali o'z fikrini bir-biriga bog'lab bayon eta olishi va hikoya, ertak to'qiy olishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishda taklif etilgan mavzu bo'yicha voqeani izchil davom ettirib, tugal mazmunli hikoya tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash, voqea sodir bo'lgan joy va vaqt tabiat manzarasini qisqacha tasvirlash, personajlar, ruhiy kechinmalarini ko'rsatishga ahamiyat berish darkor. Mustaqil tuzgan hikoyalardagi narsalarga qisqacha tavsif berishlariga, ularning xatti-harakatlarini baholashga o'rgatish, mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya aytilayotgan voqeaning izchilligiga, tugal mantiqqa ega bo'lishiga, tasviriy ifoda vositalariga ahamiyat berishga o'rgatish kabi vazifalar ham qo'yilgan.

O'quvchilar ijodiy qayta hikoya qilishlari uchun zaruriy so'zlarini, uning kompozitsiyasini bilishi hamda katta so'z boyligiga ega bo'lishi, uning mazmunini qiziqarli tuza olishi, fikrlarini aniq va tushunarli qilib bayon eta olishi kerak. Bola doimiy mashq qilish orqali o'z fikrini bir-biriga bog'lab bayon eta olishi va hikoya, ertak to'qiy olishi mumkin.

Ijodiy hikoyaning bir qancha turlari mavjud: o'qituvchi boshlagan ertak yoki hikoyaning oxirini o'ylab topish va oxiriga yetkazish; reja asosida hikoya va ertak tuzish; o'qituvchi tomonidan taklif etilgan mavzu asosida ertak o'ylab topish; mustaqil ravishda tanlangan mavzu asosida hikoya yoki ertak tuzish.

Ijodiy hikoyaning o'qituvchi tomonidan taklif etilgan mavzu asosida ertak o'ylab topish turi ijodiy hayolni rivojlantiradi, mustaqil fikr yuritishga katta yordam beradi, bola bu hikoya turida muallif sifatida hikoyaning mazmunini va uning shaklini mustaqil tanlaydi. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan mavzuning o'zi bolalarni hikoya topishga tayyorlashi kerak. Bolalar bu hikoya turi orqali narsa buyumlarni tasvirlashga, qahramonning his-tuyg'ularini, kayfiyatini bildirishga ular bilan bo'ladigan voqealarni bayon etishga, hikoyaning oxirini qiziq voqea bilan tugallashga o'rganadilar. Bolalar mustaqil ravishda hikoya yoki ertak o'ylab topishlari uchun turli xildagi mavzular berilishi mumkin. Masalan, "Ayiqning tug'ilgan kuni", "Qizchanning o'rmondagi bir kuni", "Maktabsiz bir kun".

Ijodiy hikoya turlaridan eng murakkabi bu mustaqil ravishda tanlangan mavzu asosida hikoya yoki ertak tuzishdir. Ijodiy hikoyaning bu turi muvaffaqiyatli chiqishi uchun o'qituvchi bolalarni qiziqтира olishishi, ularda emotsional kayfiyatni vujudga keltirishi, o'quvchilarning ijodiy hayolotiga ta'sir etishi darkor. Bu ijodiy hikoya turini "Kim qiziqroq ertak tuzadi?" shiori ostida o'tkazish mumkin. Bu hikoya turida bolalarni o'rtoqlarining tuzgan ertaklarini baholashga, hikoyadagi ijobiy yoki salbiy tomonlarini tahlil qilishga o'rgatish juda muhimdir. Buning uchun o'qituvchi baholashning namunasini beradi. Bolalar uchun ijodiy hikoyaning murakkab turi bu tabiat haqida tasviriy hikoya tuzish hisoblanadi. Bolalar bu hikoya turini tasvirchining aniq ko'rsatma berishi natijasida sekin-astalik bilan egallaydilar. Jumladan, yil fasllari to'g'risida hikoya tuzishdan avval o'qituvchi bolalarga biror faslga oid ob-havo, so'ngra o'simliklar va daraxtlar, hayvonlar haqida, bolalar qanday mehnat qilishlari to'g'risida gapirib berishlarini taklif qiladi.

Ijodiy qayta hikoya qilish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishda ham juda ahamiyatlidir.

## **BOLALAR NUTQINI RAVON O'SISHIDA OILA VA TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI.**

**T. Abdufattoyeva, Andijon davlat universiteti Chet tillar fakulteti  
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 1 kurs talabasi**

**G. Abdufattoyeva, Andijon davlat universiteti**

**Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1 kurs**

***Annotatsiya:** Ushbu maqola bolalar nutqini ravon etishida oilaviy muhit va ta'lim muassasalarining ahamiyati katta ekanligi va ota onalarning farzandlarini tarbiyasiga layoqat bilan qarashlarini qamrab oladi.*

***Tayanch so'zlar:** bolalar nutqi, oilaviy muhit, ta'lim muassasalari, ta'lim, tarbiya, odob-axloq.*

Oila muqaddas dargoh!

Oila-jamiyat uchun ma'naviy va jismoniy farzandlarni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas dargoh. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev sog'lom oilada sog'lom farzandlar dunyoga kelishi va jamiyatimizdagi oilalarga yaratib berilayotgan sharoitlar dunyo xalqlarini e'tiboriga sazovor bo'lmoqda.

Sog'lom oilada sog'lom farzandlar dunyoga keladi. Bolalar nutqini ravon bo'lishida oilani ro'li katta. Yurtimizda ziyoli oila farzandlarining nutqi ravon, dunyoqarashi keng, ma'nan yetuk bo'lib tarbiyalanayotganini ta'kidlash joiz.

Bola bilan kattalardek gaplashish kerak. Kattalarning nutqi to'g'ri va ravon bo'lishi kerak. Masalan ko'p oilalarda farzandini erkalab non o'niga „nanna“, choy o'niga „umma“ deb aytadi. Bu so'zlarni to'liq aytak bola bu so'zlarni kattalar tilida qaytadan o'rganmaydi. Bolalar nutqini shu tariqa ravon qilib borish kerak.

Bir oilada yashayotgan bir ota onaning bolalari ham turlicha harakterga ega bo'ladi. Ularning fikrlashi ham har xil bo'ladi. Katta farzandning nutqiga qarab keying farzandlarning nutqi katta farzand nutqiga qarab o'sadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, farzandlarimiz sog'lom oila, sog'lom muhitda tarbiyalanmog'I zarur. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan edilar „Bizni o'ylantirib kelayotgan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob –axloqi, yurish –turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyo qarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimanig hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan“. Prezidentimizning yuqoridagi fikrlaridan ko'rinib turibdiki, farzandlarimiz kelajagi porloq bo'lishi uchun ota-ona talim muassasalarining o'ni katta ekanligini, tarbiyaning birinchi ekanligini bilishimiz mumkin.

Maktabga yangi qadam qoʻygan farzandlarimizda yangi hayot boshlanadi. Taʼlim muassasalarida ayrim fikrini aytgani bolalar ham fikrini ayta oladiga boʻladi.

Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev ham har bir yosh avlod oʻz fikrini birovga tushuntirib bera oladigan va oʻzgalar fikrini toʻgʻri tushunadigan maʼnan yetuk yoshlarni tarbiyalamogʻimiz zarur deb taʼkidlaydi.

Zaminaviy oilalar mavjud jamiyat bilan uzviy bogʻlangandir. Yashash sharoitining yaxshiligi, oilaning inoqligi, farzandlarini nutqi ravon boʻlishini, barkamol shaxs boʻlib tarbiyalanishiga taʼsir qiladi.

Bolalarning pedagogik-psixologik jihatdan yaxshi tarbiya olishi uning oilaviy muhitini sogʻlomligi milliy qadryatlarimiz, ananalarimizga sodiqligidan bilishimiz mumkin.

Bolalarni rost soʻzlarga, yaxshi xayrli ishlarga undash, yosh xususiyatlari inobatga olinishi, yoshi kattalar yoshlarga oʻrnak boʻlishi, ota-ona va taʼlim muassasa vakillarining hamkorligi orqali farzandimiz toʻgʻri tarbiyali, toʻgʻri yoʻldan adashmaydigan boʻladi.

Bundan koʻrinib turibdiki ham maʼnaviy jihatdan, ham jismoniy jihatdan sogʻlom bola faqat sogʻlom oilada shakllanadi. Oiladagi sogʻlom muhit esa yurtimiz kelajagining ustuni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyoti poydevori.-T:”Sharq”nashriyoti. 1997.
2. I.A. Karimov”Yuksak maʼnaviyat- yengilmas kuch”T.:2008-yil.
3. Internet saytlari.

## **BOSHLANGʻICH TAʼLIMDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH YOʻLLARI.**

**D .Oripova, Namangan viloyati Norin tumani  
13-maktab oʻqituvchisi.  
G.Oripova ADU talabasi.**

**Annotatsiya:**Maqolada boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida huquqiy tarbiya, huquqiy bilim, madaniyat elementlarini shakllantirish, koʻnikma va malakalarni hosil qilishning oʻziga xos vazifalari bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** huquqiy taʼlim, tarbiya, huquqiy madaniyat elementlari,vazifalar, huquqiy savodxonlik, huquqiy meʼyorlar.

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy taʼlim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi roli ortib borar ekan, ulardan foydalanishning turli koʻrinishlari yuzaga kelmoqda. Shaxs ongiga axborot (gʻoya) yordamida taʼsir etishi uni boʻysundirishi va maʼlum izga solishda eng samarali yoʻl sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasida Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida 2018 yil 27-iyun PQ 3808, 2019 yil 7-fevral “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini taʼminlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar” toʻgʻrisidagi qarorida belgilangan bir qator vazifalar bugungi kunda taʼlim muassasalarida ham dasturilamal boʻlib kelmoqda.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga taʼlim-tarbiya jarayonida, sinfdan tashqari vaqtlarda huquqiy meʼyor, qonunlarni, ijtimoiy- huquqiy munosabatlar va ularning ahamiyati haqida maʼlumotlar berish, ayniqsa huquqiy savodxonlik, huquqiy maʼsullik, faollik, davlat Konstitutsiyasini, ramzlarni bilishida oʻz faoliyatlarini real baholashida ham koʻzga tashlanadi.

Xalqaro munosabatlar koʻlamining tobora kengayishi oʻzaro tenglik asosida hamkorlik qilish gʻoyasini ifoda etuvchi harakatlar bilan birga respublika xududiga mafkuraviy nuqtai-nazardan turli gʻoyalarning ham kirib kelishiga imkoniyat yaratildi. "Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, anʼana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni oʻz taʼsiriga olish, uning ustidan xukmronlik qilish, uning boyliklaridan oʻz manfaati yoʻlida



foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqqarar"<sup>31</sup>. Shu sababli har qanday jamiyat o'zining rivojlanish va istiqbol yo'lini belgilab beruvchi milliy g'oyaga ega bo'lishi zarur. Bu esa kichik maktab yoshi o'quvchilarida huquqiy bilimlarni tizimli amalga oshirilishi va ularda ma'naviy immunitetini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir.

Maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlardan o'tilayotgan mavzularini o'quvchilarga dars va darsdan tashqari jarayonlarda ham tizimli va ta'lim innovatsiyalari orqali berib borilishi bolalar qiziqishlari va dunyoqarshini o'stirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Res'ublikasi Konstitutsiyasi, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni haqida fikrlar, ularda nafaqat huquqiy ong va siyosiy bilimlarni o'stiradi. G'oya - (yunoncha "idea" obraz) - birinchi manzara, dastlabki - ob'ektiv borliq, mavjudlikning inson fikrida aks etish shakli. "G'oyada olamni bilish va amaliy jihatdan o'zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari haqida ma'lumotlar mujassamlangan, anglangan"<sup>32</sup> bo'ladi.

Bunyodkor g'oyalarning yetakchi asoslari: tinchlikni saqlash, urushning oldini olish, millat va elatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va hamkorlikni qaror to'tirgan, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarning tolerantlikka ega bo'lishlarini yoqlovchi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanishini targ'ib etishdir.

Buzg'unchi g'oyalarning yetakchi asoslari: terror, fanatizm (biror bir g'oyaga ko'r-ko'rona, o'zlikni unutish darajasida berilish), irqchilik, agressiv millatchilik, diniy adovat, ma'naviy buzg'unchilik, axloqsizliklar.

Boshlang'ich sinf o'suvchilari ongida huquqiy tarbiya va madaniyatni tushuntirishimizda ma'naviy immunitetga alohida to'xtalamiz.

"Immunitet"-tushunchasining tub asosi lotincha "immunitas" bo'lib, uning ma'nosi "biror narsadan xalos etish, ozod bo'lish" demakdir. Bu tushuncha tabbiyot sohasida keng qo'llaniladi va organizmning turli kasalliklardan o'zini o'zi himoyalash jarayonini anglatishga xizmat qiladi. Quyida kichik tajriba ishlarimizning dastlabki bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari bilan hiquqiy bilimlar mohiyatini qanday ekanligini o'rgandik. O'quv materiallarini o'zlashtirish orqali o'quvchilar quyidagi tushunchalarning mohiyatini anglab boradilar:

Asosiy tushunchalar	Ularning mohiyati
Vatanparvarlik	Tug'ilib o'sgan mahallasi, oilasi, yurtini avaylab-asrash, Prezidentiga sodiq bo'lish.
Baynalminal tarbiya	Har bir xalqni, millatni dini, tili, urf- doatlarini va o'zligini hirmat qilishga o'rgatish.
G'oyaviy immunitet	Shaxs yoki ijtimoiy guruh ega bo'lgan o'ziga xos, qat'iy, barqaror, sog'lom (yoki nosog'lom) g'oyaviy qarashning shakllanganligi
Terrorizm	Maqsadlariga erishish uchun shaxs hayoti, sog'ligiga xavf solish, moddiy ob'ektlarni yo'q qilish (shikastlash), zo'rvonlik ishlatish aholini qo'rqitish, jinoiy xatti-harakatlar.

<sup>31</sup> Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар / Ўрта махсус касб-хунар таълими муассасалари учун тажрибавий қўлланма. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. 176-бет.

<sup>32</sup>Фалсафа. Қискача изоҳли луғат.- Тошкент: Шарқ нашриёт- матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. 374-бет.

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'quvchilar va ota-onalar hamkorligi va ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda huquqiy mavzularda ma'ruzalar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy adabiyotlarni o'sishga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar haqida xodimlar bilan davra suhbatlarini o'tkazish, kinofilmlar namoyish etish ham ijobiy ta'sir etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар / Ўрта махсус касб-хунар таълими муассасалари учун тажрибавий қўлланма. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. 176-бет.

2. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат.- Тошкент: Шарқ нашриёт- матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2004. 374-бет.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INDIVIDUALLASHGAN TA'LIMNING AHAMIYATI.**

**Sh.Jo`rayeva Namangan viloyati  
Norin tumani 13- maktab o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:**Maqolada boshlang'ich ta'lim didaktikasida individuallashtirilgan ta'limning zaruriyati va o'rni haqida fikrlar bildirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga individuallashtirilgan ta'lim orqali bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirishning o'ziga xos yo'llari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** individual ta'lim, individuallashtirish, uslub, o'quv-metodik, pedagogik, tashkiliy boshqaruv, individual yondashuv.

Ma'lumki, mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim jarayoniga tatbiq etishning so'nggi bosqichi: sifat va samaradorlikni ta'min etuvchi eng mas'uliyatli davri davom etmoqda.

"Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2019 yil 11-iyuldagi 439-qarori, "Ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish" chora-tadbirlari to'g'risi" da 2020 yil 30-yanvardagi qarorlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimining o'ziga xos ko'rinishlari joriy etilmoqda. Ayniqsa, bolaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi unga bo'lgan e'tibor, individual ishlash bola ruhiyatini hisobga olgan holda ma'lum ijobiy natijalarga ega bo'lishi o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, ehtiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv – biluv jarayoniga shaxsiy xissa qo'shishi hisobga olinadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi o'quv-biluv jarayoni markazida bo'ladi. Shu o'rinda "Individual yondashuv" ga qisman to'xtalamiz.

1. Sinflarda ishlaganda, o'quv – tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda, har bir o'quvchi bilan yakkama – yakka ishlash, ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o'qituvchi diqqat markazida turishi hisobga olish;

2. Pedagog o'quvchi bilan muloqat jarayonida ham uning o'ziga xos xususiyatlari diqqat markazida bo'lishi;

3. Ta'lim jarayonida bolaning qobiliyati, intellekti va imkoniyatlarini hisobga olish;

4. Pedagogik jarayonda psixologik, fiziologik, metodik jihatlarning uyg'unligi o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini osishiga yordam beradi. Bu esa "Individuallashtirilgan ta'lim prinsiplari" o'ragnishimizga imkon beradi.

Individuallashtirish – o'quv jarayonining bosh strategiyasidir. O'quv jarayonini individuallashtirish orqali esa shaxsni rivojlantirishga xizmat qilgan holda har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Ayniqsa, o'qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti

yaratiladi. Boshlang'ich ta'limda individuallashtirilgan ta'lim o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlabgina qolmay balki, bilim ko'nikma, malakaga ega bo'lishida o'quvchining qiziqishi, mustaqil ishlay olishi ham umumiy o'quv-bilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bizningcha, individuallashtirilgan ta'limni olib borishda interfaol metodlarda dars jarayonini olib borilishi o'quvchilarda quyidagilar rivojlantirilishi mumkin:

-o'quvchini o'qitilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

-o'quvchilarni mustaqil ravishda taxlil qilish orqali uni o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishi shakllantiriladi. –kengroq fikr yurita olishga intilish va o'z fikrlarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi;

-4-sinfda esa o'quvchiga qisman bilimlar tayyor holda berilmasdan, ularni darsliklardan, axborot-resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi.

-o'quvchining darslik, kitoblar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, tushunganlarini yozish, qo'shimcha adabiytlardan foydalanib mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari darajasini o'sishiga, olgan bilimlarini kundalik hayotida foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi. Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda:

-o'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

-o'quv reja, dastur, ta'lim mazmuni, darslik, standart, me'yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi.

-ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

-o'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining extiyoji, hoxish, istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o'tayotganini bilmay qoladi. O'quv – biluv jarayonida o'quvchining shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko'taradi.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, bolalarga shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashtirish asosida, ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga barcha kuchlarini va e'tiborlarini qaratishni talab etadi. Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kirita olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli ham respublikamizda individuallashtirilgan ta'lim metodlarni o'quv jarayoniga qo'llashi ijobiy natijalarni beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "Ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish" chora-tadbirlari to'g'risi" da qarori 2020 yil 30 yanvar.

2. Mavlonova R. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. G'ofur Gulom nashriyoti. T.2013.

3. Xalimova M. Kichik maktab yoshi psixologiyasi. O'quv qollanma. A.:2011.

### **BOSHLANG'ICH SINF DASTURIDAGI FANLARDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLARNING DIDAKTIK TALABLARI**

**F.A.Usmonova Paxtaobod tumani  
37-DIM boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quv dasturida belgilangan fanlar o'rtasida integratsiyalashgan mashg'ulotlarni olib birish va bunda ahamiyat berilishi kerak bo'lgan jihatlar bayon etilgan.*

**Kalit soʻzi:** integratsion darslar, fanlar bogʻliqligi, hamkorlik, hamfikirlik, mutola, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, parrandalar.

Bizga maʼlumki, taʼlim-tarbiya ishi bugungi kunda oʻquvchining har tomonlama rivojlantirishni taʼminlovchi majmuaviy jarayon sifatida namoyon boʻlmogʻi kerak. Shuning uchun ham mazkur jarayon turli yoshdagi oʻquvchilarning aqliy rivolanishi, oʻquv-biluv jarayonida shaxsining faoliyati, tahsil olishi va rivojlanishining oʻzaro aloqadorligini taʼminlashga yordam bermogʻi lozim. Huddi shu borada integratsiyalashgan taʼlim orqali oʻquvchilarni bilim sifatini oʻzaro aloqadorlikda amalga oshirib borish koʻzda tutiladi.

Har bir oʻquvchining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni pedagogik qoʻllab-quvvatlash, qobiliyat va iqtidorlarini roʻyobga chiqarish, muayyan sharoitga moslashuvchanligini qaror toptirishga yoʻnaltirilgan maxsus oʻquv faoliyatida oʻquvchining maqbul rivojlanishini taʼminlash muhimdir. Agar oʻquvchiga taʼlim berish va rivojlanish muammosi uygʻunlashtirilsa, uning oʻziga xosligini pedagogik qoʻllab-quvvatlash, birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan mashgʻulotlarda didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda muayyan oʻquv predmeti doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda jamoa boʻlib olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida boʻlgan topshiriqlarning har tomonlama oʻylab, ishlab chiqilgan tizimi har bir mavzuning oʻzlashtirilishi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

Oʻquvchi oʻzini qiziqtiradigan, yechishga kuchi yetadigan topshiriqlarni aynan oʻzi tanlay olishi talab etiladi. Bunda oʻquvchining xohish va bilim sifatini hisobga olish muhimdir. Har bir oʻquvchini uzluksiz rivojlantirish gʻoyasi muayyan darsda unda hosil boʻlgan koʻnikmalarni muntazam qoʻllab-quvvatlashni anglatadi. Bu koʻnikmalarning bir qismi turli axborot manbalari bilan ishlash natijasida hosil boʻlsa, boshqa bir qismi integratsiyalashgan mashgʻulotlarda turli fanlararo berilgan bilimlar, badiiy asarlar kabilar bilan ishlash natijasida vujudga keladi.

Uzluksiz taʼlim jarayonida bilim, koʻnikma va malakalar oʻquvchilarni rivojlantirishning maqsadi emas, balki vositasi sifatida qaralishiga erishish lozim. DTSda koʻzda tutilgan taʼlim mazmunini barcha oʻquvchilar koʻnikma darajasida egallashlari shart. Shundan keyingina oʻquvchining individual imkoniyati va xohishini hisobga olgan holda bir qator murakkabroq oʻquv materiallarini taqdim etish, ular oʻquv materiallari maqbul oʻquv dasturlari, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarida oʻz aksini topmogʻi lozim. Bunda oʻquvchining bilim sifati va muayyan oʻquv predmetini oʻrganishga qoʻyiladigan talablar ham oshiriladi.

Oʻquvchilarning bilim darajasini oshirishda taʼlim mazmunini integratsiyalash, unda taʼlim mazmuniga singdirilgan barcha tushunchalarni tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy-gumanitar sohaga oid bilimlar sifatida taqdim etish muhimdir. Zero, integratsiyalashgan mashgʻulotlar oʻquvchilarda dunyoning yaxlitligi haqida bir butun tasavvur hosil qilishga koʻmaklashadi. Shuning uchun ham bir qator oʻquv fanlarini integratsiyalashga bugungi kunda kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Integrativ mashgʻulotlar oʻquvchilarda ishonch hissini qaror toptiradi. Oʻquv jarayonining muvoffaqiyati hamda bilimlarning yuqori sifatini taʼminlaydi, darslarda psixologik qulayliklarning oʻziga xos qirralari singdiriladi, oʻquvchi faoliyatini samarali tashkil qilishga yoʻnaltirilgan oʻquv mashgʻulotlari taqdim etiladi.

Ona tili va oʻqish fanini integratsiyalashda boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarni ogʻzaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy oʻrin tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bogʻliq boʻladi, chunki til hamma fanlarni taʼriflash uchun zarur vosita demakdir. Til orqali haqiqatning hamma tomonlari koʻrinadi. Tilni oʻrganmasdan turib, aqliy faoliyat qilish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan oʻquvchi bilim olishi shart boʻlgan sharoitlardan biridir. Ona tili maktab taʼlimida fan sifatida koʻp qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunangina emas.

Boshlangʻich sinflarda ona tili va oʻqish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari oʻrganib chiqiladi. Qoʻyilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli boʻlishi shart hisoblanadi. Mujassamlashgan darsda, mos mavzularni topish mushkul, lekin ona

tili darsidagi mashqlarni bajarilishini o`qish darsligidagi mos mavzularga uyg`unlashtirish mumkin bo`ladi.

O`qish va tabiatshunoslik integratsiyasi imkoniyatlari juda keng hisoblanadi, bu darslarining oldida turgan umumta`lim va tarbiyaviy darslarda o`quvchilar o`zining o`lkasi tabiati bilan tanishadi, tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlar, xonaki va yovvoyi hayvonlar, hasharotlar bilan tanishadilar. O`qish darsi tabiat darsiga nisbatan emotsional ranglarda qabul qilinishini shakllantiradi, o`quvchilarga o`zining tabiatga bo`lgan estetik munosabatini til vositasida ifodalashga o`rgatadi. Tabiat darslarida esa, ko`z bilan kuzatadi, qo`l bilan ushlab ko`radi.

Fanlararo umumiy mavzular mavjudligi aynan shu usullarni birlashtirib, o`quvchilarga kengroq holda yetkazishni maqsad qilib qo`yadi. Agar ikki fanni mujassamlashtirilsa, darsni shunday rejalashtirish kerakki, boshqa fanlardan olingan ma`lumotlar bir-biriga qo`shimcha bo`lib, o`sha ma`lumotlar yana chuqurlashtiriladi.

Ona tili va tabiatshunoslik darslarini integratsiyalashda tabiat hodisalarini ta`sirchan qabul qilish doimo bolalarning nutqini o`stirish ishlariga bog`liq. O`qituvchi o`quvchilarga o`simliklar, hayvonlar, odamning tana a`zolari to`g`ri aytishga o`rgatadi, kuzatish natijalarini aytib borishni taklif etadi. Ona tili darslarida yozilgan mashqlar tarkibining ko`p qismi tabiat voqea-hodisalariga bog`liq. Shu bois ham tabiatni e`zozlash to`g`risida va boshqalar haqida kichkina suhbatlar o`tkazish ham foydadan holi emas.

Ona tili darslarida nutqni rivojlantirish asosiy hisoblanishini unutmagan holda «matn» mavzusini o`rganganda insholardan foydalanish mumkin. Inshoni tanlashda esa, tabiatga xos bo`lgan, bolalarda tabiatga muhabbatini tarbiyalovchi mavzularni tanlash kerak bo`ladi. Bunday insholar 5-20 daqiqagacha, hajmi 5-15 gapdan iborat tarzda haftada bir marotaba o`tkazish mumkin. Insho bolalarda tabiatga bo`lgan muhabbatni tarbiyalaydi, ularga zamonning axloqiy talablarini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga rasm asosida hikoya yoki ertak yozishga o`rgatiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha yangi taxrirdagi o`quv dasturi, T. 2015
2. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish metodikasi, T. 2008.
3. Qosimova K va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent, Noshir nashriyoti. 2009.

### **ONA TILI DARSLARIDA SAVODLI YOZISHGA O`RGATISHNING ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARI**

**D. R.Xasanova Izboskan tumani  
45- maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi**

***Annotatsiya:** maqola boshlang`ich sinf o`quvchilarini savodli yozishga o`rgatishning ahamiyati hamda o`quvchilarni ongli tushunib to`g`ri yozishga erishishlarida ona tili fanining o`rni haqida yozilgan.*

***Kalit so`zlar:** o`zbek tili, til va nutq, yozma nutq, til birliklari va formalari, fonetika, leksikologiya, sintaksis, grammatika, orfografiya, morfologiya.*

Ona tili o`qitish metodikasining bosh vazifasi o`quvchilarning o`zbek tili lug`at boyligini to`liq o`zlashtirib olishlarini ta`minlash, o`zbek tili grammatikasi va imlo qoidalarini o`rganish va o`quvchilarni chiroyli va savodli yozishga o`rgatishni ta`minlashdan iboratdir. Ma`lumki, jamiyatda til kishilar o`rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi roli uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari va formalari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog`lash amalga oshiriladi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog`lanadi. Fikr nutqda shakllanadi va reallashadi. Tilni egallash va nutq o`stirish bilan o`quvchining fikrlash qobiliyati ham o`sadi. Maktablarda o`quvchilarning nutqini, jumladan, yozma nutqini o`stirishga alohida ahamiyat beriladi. Metodik fan sifatida ona tili o`qitish metodikasi boshlang`ich ta`lim standarti belgilab bergan vazifalarini amalga oshiradi, ya`ni

tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish metod va usullarini ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzidagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar. O'rgangan, o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tadbiiq etadilar. Boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirib beradi. O'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat xujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va shu asosida yaratilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» buning yorqin dalilidir. Ona tili o'qitish metodikasi bilish nazariyasidan tashqari psixologiya va pedagogika ma'lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi. Pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. U o'quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi, o'qitish jarayoning muvoffaqiyatligiga, pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga va o'quvchilar jamoasidagi munosabatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni, o'quvchilardagi individual-psixologik farqlarni, psixik rivojlanishda orqada qoluvchi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Bu bilan pedagogik psixologik metodikaga o'quv materialini tanlashda, boshlang'ich sinflarda ona tilining mazmuni va xajmini o'quv materialini aniqlashda hamda ularni sinflar bo'yicha taqsimlash muayyan izchillikda joylashtirishda yordam beradi. O'qitishning samarali usul va shakllarini belgilashga o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatining to'g'ri o'sishiga ko'maklashadi. Ona tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, «nutqni qabul qilish signallari» apparati haqida, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va prinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplarga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rsatmalilik, ongillik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining aktivligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu umladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham lozim. Haqiqatdan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobilyatlari o'sadi, ular aqliy, ahloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi. O'qituvchi pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga o'rgatishni ta'lim-tarbiya jihatidan foyda keltiradigan qilib uyushtira oladi. Grammatika o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim rol o'ynaydi, chunki grammatika so'z shakllarini to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni

uzaro to'g'ri bog'lash va gapni to'g'ri tuzishga o'rgatadi. To'g'ri yozuvga o'rgatish metodikasining rivojlanishida o'zbek tili orfografiyasi nazariyasini hisobga olish talab etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. T., 2009.
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova va boshqalar. Ona tili. T., 2008.

### **BOSHLANG'ICH SINFDA O'QUVCHILARNING BILIM OLIISHGA QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA TAFAKKURNING ROLI.**

**M. T.Ahmedova Buloqboshi tumani  
5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish qobiliyatlari va ijodiy potensialini o'stirishni muvaffaqiyatli hal qilish muhimdir. Buning uchun ularda bilim olishga qiziqish shakllantirilishi zarur, bu esa tafakkurning o'stirilishiga bog'liq. Tafakkurni o'stirish matematika fani hamda turli usullar bilan bog'liq.*

***Kalit so'zlar:** Qiziqish, tafakkur, matematika, analiz, sintez, taqqoslash, aqliy faoliyat, didaktik o'yinlar.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. O'quvchilarga ularning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon berish, mustaqilligini va ijodiy potensialini rivojlantirish boshlang'ich maktabning asosiy vazifasidir. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p tomondan o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning shakllantirilganligiga bog'liq.

O'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini rivojlantirishda tafakkur asosiy rol o'ynaydi.

Tafakkur bilan bir vaqtda va uning bilan bog'liq ravishda barcha bilim olish jarayonlari rivojlanadi. Tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda "fikran, sodda ishlarni rejalashtirish", o'zining harakatlarini baholash xususiyatlari rivojlana boradi.

Matematika tafakkurni rivojlantirish uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Tafakkurni rivojlantirishning konkret usullari mavjud emas. Biz o'quvchilar tafakkurini umuman o'stiramiz, matematika o'rgatish va h.k lar orqali.

Dastlabki matematik bilimlarni o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlariga mos ravishda bir-biri bilan bog'liq holda o'zlashtiradilar. Bunda ular tafakkurning ular bilimlarga mos darajasidagi amallari: analiz, sintez, taqqoslash, abstraktlashtirish, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya dan foydalanishadi, mulohazalar yuritishadi. Matematik bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Tafakkur amallarini bilib olish esa o'z navbatida yangi bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Real dunyo predmetlari va hodisalarni o'rganish uchun biz ularni xayolan (fikran) kichik qismlarga ajratamiz, ya'ni analiz qilamiz; qismlar yoki predmetlar va hodisalar orasidagi bog'lanishni o'rganamiz, ya'ni sintez qilamiz. Tafakkurning bu amallari o'zaro bog'liqdir.

Analiz va sintez amallari arifmetikani o'rganishda ham, mashqlar bajarilganda ham, masalalar yechilganda ham ishlatiladi. Birinchi sinfdayoq o'quvchi to'plam elementlarini real ko'rinishda qismlarga ajratadi, o'rganadi va ularni birlashtiradi. Keyinchalik esa u xayolda, fikran analiz va sintez amallarini bajara boshlaydi.

Matematikaning har qanday bo'limini o'rgatishda ham analiz va sintez amallaridan keng foydalaniladi. Bu amallar matnli masalalarni yechishda ham ishlatiladi.

O'qituvchi rahbarligida o'quvchi masalaning mazmunini analiz qiladi, uni sonli ma'lumotlarga ajratadi, berilgan qism va topilishi kerak bo'lgan noma'lumlarni aniqlaydi.

Murakkabroq arifmetik masalalarni yechishda murakkab hamda nozik analiz va sintez usullari ishlatiladi.

Boshlang'ich matematikani o'rgatishda taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Bunda berilgan arifmetik masalalardagi ob'yektlar va ularning qismlari o'zaro taqqoslanadi, o'xshash va o'xshash bo'lmagan xususiyatlar aniqlanadi.

Taqqoslash amali (usuli) orqali o'quvchilar "...ga ko'p(ortiq)" "...ga kam(oz)" "marta ko'p" "marta oz" kabi iboralarning ma'nosini bilib oladilar.

Taqqoslash analiz va sintezga asoslanadi: masalani dastlab bo'laklarga ajratib, so'ngra o'xshashlari birlashtiriladi va bunda ahamiyatli farqlar e'tiborga olinadi.

Ko'p xonali sonlar qatnashgan masalalarni yechishni o'rgatish uchun o'qituvchi kichik sonli o'xshash masalani yechishni taklif etishi mumkin, ya'ni analogiya usulini qo'llashi mumkin.

Turli usullarni qo'llash orqali o'quvchilar tafakkuri rivojlantiriladi.

Boshlang'ich sinfda bolalarning aqliy rivojlanishiga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasi va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar, mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan o'qitishning mazmunida muammolar yuzaga keladi. Bu bog'cha - maktablarda o'qitish orqali hal etiladi.

Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichda o'rgatish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Biroq bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan, balki u bolalarni matematikani o'rganishga yanada kengroq imkoniyatlar yaratdi. Bolalarni matematikani o'rganishga yanada kengroq ba har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi:

1) pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash;

2) matematika yo'li, ya'ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo, natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi. Toshkent „Ilm-ziyo“, 2005-yil. 208 bet.

2. Jumayev M.E va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish. Toshkent „T.D.P.U“, 2006-yil. 208 bet

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI**

**Z. M.Kenjaye va Andijon viloyati Ulug'nor tumani  
13-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya.** Zamonaviy o'qituvchining vazifasi o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik hissinin hosil qilish, ularning har biri uchun o'zining iqtidori va qiziqishini amalga oshira oladigan muhitni yaratish haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** media vositalar, fanlararo integratsiya, matematik ekskursiya, matematik kompetensiya.*

Ma'lumki, matematika fan va texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, fan, madaniyat va kundalik hayotimizda alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnikaning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishini, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187- qaroriga binoan xalqaro ta'lim standartlari me'yorlariga javob bera oladigan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi qabul qilinishi orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z ustilarida ko'proq ishlash, matematika fani bo'yicha yuzaki emas chuqur bilimlarga ega bo'lish, dars jarayonida zamonaviy ilg'or texnologiyalardan keng foydalanish talab etilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchilariga:



- boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

- boshlang'ich ta'lim fanlarni integratsiya qilish orqali ta'limda samaradorlikka erishish;

- o'qituvchilarni media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, axborot xavfsizligi, media-savodxonlikka rioya qilishga o'rgatish;

- o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun o'z ustida muntazam ravishda ishlashi va ijtimoiy tarmoqlardan ta'limga oid ma'lumotlar bazasini shakllantira olishi vazifalari yuklanadi.

Vaziyatni strukturalash, matematik bog'lanishlarni aniqlash, jarayonlarni matematik modellarini tuzish, ularni tahlil qilish va ko'rinishlarini o'zgartirish, olingan natijalar bo'yicha tegishli asoslangan va maqbul hulosalar chiqarish orqali ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyor bo'lish matematik kompetensiya asosini tashkil qiladi. O'quvchilarda matematik kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchi o'quvchilarga dars va darsdan tashqari faoliyatini matematika bilan bog'lashga o'rgatishi zarur. Masalan, o'quvchiga aniq hisob-kitoblarga tayangan holda kun tartibini tuzishga, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan diagramma, grafik ko'rinishdagi real sonli ma'lumotlarni tahlil etishga o'rgatish va hokazo. Shuningdek, o'qituvchi sinfdan tashqari mashg'ulotlarda matematik ekskursiyalarni tashkil etishi kerak. Bunda o'quvchilar banklarga, ishlab chiqarish korxonalariga, buxgalterlik firmalariga olib borilganida o'quvchi matematika fanining kelajagini, uning hayotdagi ahamiyatini ongli ravishda ko'radilar, his etadilar. Bu esa o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini, muhabbatini oshiradi. Fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash samarali usullardan hisoblanadi.

Matematika fanini o'rganish insonning ilmga bo'lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa o'qituvchidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rganish bo'yicha joriy etilgan xalqaro standartlardan ta'limda to'la foydalanishni talab etadi. TIMSS, PISA shular jumlasidandir. Masalan, matematika darslarini STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika) - zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarda muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash, dizayn asoslarini tushunish ko'nikmalarni rivojlantirishga va kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi. O'quvchilarda matematik kompetensiyalarni shakllantirishga ta'lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanmasdan turib erishib bo'lmaydi. Amaliy va nostandart xarakterdagi masalalarni yechimi darhol topilmasdan, bir necha urinishlar natijasidagina aniqlanishi sababli, bu maqsadga erishish uchun tirishqoq bo'lishni, ya'ni shaxsga irodalilik kabi juda ahamiyatli sifatlarni tarkib topishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qituvchining vazifasi o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik hissini hosil qilish, ularning har biri uchun o'zining iqtidori va qiziqishini amalga oshira oladigan muhitni yaratishdan iborat.

#### **Adabiyotlar:**

1. Bolotov V.A. Kompetentnostnaya model: ot idei k obrazovatelnoy programme/ V.A. Bolotov, V.V. Serikov// Pedagogika. - 2003. -№10. - 8-14.

2. Jumayev M., Yuldasheva M, Mingbaeva B., Mamatova G. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha O'QUV-USLUBIY MAJMUA – T.: —Nizmiy nomli TDPU huzuridagi XTXQTMOHM, 2017

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

I. S.Mullajonova Andijon viloyati Buloqboshi tumani  
27-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada bugungi kunda pedagoglarning oldida turgan dolzarb vazifa - asrlar davomida avlodlar o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, ajdodlar merosini o'quvchilarga o'rgatish haqida fikrlar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* pedagogik madaniyat, ma'rifat, qadriyat, barkamol shaxs

Bugungi kunda pedagogik madaniyat haqida tushunchaga ega bo'lish, nafaqat o'qituvchilar, tarbiyachilar, bo'lajak pedagoglar uchun, balki har bir kishi, ota-onalar uchun ham foydalidir. Zero, har bir kishi, ota-ona o'z bolasining va boshqa bolalar, o'zlari bilan muloqotda bo'luvchi, o'z – o'zini tarbiyalovchi o'smirlarning ham tarbiyachisidir.

Tarbiya va madaniyatning asrlar davomida sayqallanganligi va avlodlar o'tganligi tufayli bugungi yosh avlod madaniy, ma'naviy qadriyatlar haqida keng tasavvurga ega bo'lmoqda. Ma'lumki, jamiyat ham turli davrda shu zamondagi moddiy va ma'naviy hayotga muvofiq tarzda rivojlanib kelmoqda. Insoniyatning avlodlar o'tib kelayotgan xalq san'ati, urf - odatlari, an'analari bebaho va takrorlanmas boyligimizdir. Bu boylik komil insonni shakllantirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod bu boyliklardan bahramand bo'lib, yoshlikdan undagi hayotiy va axloqiy pand-nasihatlarini o'zlashtirib saqlab kelgusi avlodga qoldiradilar. Ming yillar davomida insonlar o'z faoliyatlari davomida bolalarni va o'smirlarni turli xil mehnatga jalb yetish, ularda birgalikda, hamjihatlikda harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish, bolalarda mustaqil harakat qilish, ko'zlagan maqsadni amalga oshirishga intilish tuyg'usini o'stirish zarurligini anglab yetdilar. Yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan sug'orishda ularni qadriyatlarga nisbatan e'tiqodli qilib tarbiyalash juda muhim vazifadir. Bizning asrlar davomida qadriyatlari qadr topib kelayotgan xalqimiz yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor bergan, ularni o'zlarining duo-yu, olqishlari orqali mehr-oqibatli, sabr-toqatli bo'lishga undagan. «Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi?!», «Boshing tosh, ostonang oltin bo'lsin», «Bizni hurmat qilganni, xudo yorlaqasin», «Boshing to'ydandan chiqmasin», «Oy borib, omon qayt» kabi o'git-u nasihatlar insonlarni bir-biriga mehri, oqibatli bo'lishlariga zamin yaratadi. Milliy qadriyatlarni o'rganish chog'ida «tabiat va jamiyat» mavzusiga ham ko'proq to'xtalib o'tish kerak, chunki ota-bobolarimiz bizlarga beqiyos tabiatni tuhfa etganlar. Ular tabiatning har bir g'iyohini behuda sarflamaganlar. Agar unlardan foydalanish zarurati tug'ilsa, eng avvalo ularning o'sishiga, ko'payishiga shart-sharoit yaratib, so'ngra unlardan foydalanganlar. Bu borada bobimiz Sohibqiron Amir Temur ham «Temur tuzuklari» asarida «Bitta ko'chat kestirsam, o'nta ko'chat o'tqazdim», -deb ta'kidlaganlar.

Xalqimiz tafakkuridagi ma'rifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish hislati bir necha ming yillar davomida shakllangan va sayqal topgan. Shuning uchun milliy qadriyatlarimizni unutishga haqqimiz yo'q. Vatanimizga, boy o'tmishimizga sodiq va munosib avlod bo'lishimiz kerak. Buning uchun esa, barkamol shaxsga qo'yiladigan talablarni har bir o'quvchi shaxsida tarbiyalash yo'llarini tadqiq qilishimiz, yoshlar ongiga milliy qadriyat to'g'risidagi tushunchalarni singdirib, shakllantirib borish zarur bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari".-T.: «O'zbekiston».1998.
2. A. Avloniy .Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «O'qituvchi» 1992. -160 bet.
3. Amir Temur tuzuklari (to'plam). -T.: «Navro'z», 1992.-64 bet.

## TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Z.X.Nuriyeva Andijon viloyati Buloqboshi tumani  
6- umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dars jarayonini samarali tashkil etish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash va shu orqali o'quvchilar bilimini oshirish masalalari borasida so'z yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsiya, motiv.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan buyon ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tib kelinmoqda. Bugunga kelib hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish asosiy o'rinni egallaydi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari nihoyatda yuqoridir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayoti bilan tanishtirib ularni shunga ko'niktirib boradilar, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos bo'lishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqin bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni puxta egallashga undaydi. Ushbu jarayonda esa interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim darajasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, qiziqarli, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish ijobiy samara beradi. Atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar ko'proq bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonining ketma-ketligini avvaldan mo'ljallash kerak. Bunda o'qituvchi predmetning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni o'rinli tanlashi va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.
2. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2009.
3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.

## БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА МУСИҚА ЎҚИТИШ ОМИЛЛАРИ

И.Рахматуллаев Термиз  
ихтисослаштирилган санъат мактаби

Бугунги кунда маънавий юксалиш ижтимоий-моддий мустақиллигимизнинг бош мезонилиги аёндир. Бунинг марказида миллий мактаб, унинг муаммолари турибди. Бу муаммоларни ҳал этишнинг олдинги сафида ўқитувчи, шу жумладан, мусиқа ўқитувчиси ва унинг ихтисоси туради.

Маълумки, мусиқа ўқитувчиси ўз ихтисоси буйича кенг билим доирасига эга булиши, унинг мусиқий, педагогик билим даражаси бугунги кун талабларига жавоб бериши лозим.

Мусиқа ўқитиш методикаси фани булажак мусиқа ўқитувчиларини тарбиялашда катта аҳамият касб этади. Мусиқа ўқитиш методикаси дейилишининг узи бу предметнинг мазмунини англатади, яъни болалар тарбиясини мусиқа воситалари оркали қандай амалга ошириш кераклиги ифодаланади.

Мусиқа ўқитиш методикасини мукамал эгаллаш учун мусиқанинг нима мақсадда мактаб дастурига киритилганлигини, мусиқа санъатининг тарбиявий имконияти канчалик катта ва муҳим эканлигини, тарбия объекти бўлмиш ҳозирги замон ўқувчиси ҳақида купгина нарсаларни аниқ тушуниш талаб этилади.

Мусиқа ўқитиш методикасини эгаллаш – мусиқа ўқитувчисининг келажакдаги ижодий ишини муваффақиятли булишининг гаровидир.

Мусиқа ўқитиш методикаси педагогик фанлар тизимига кириб, унда узининг нисбатан алоҳида мустақил урнига эга. У мусиқа ўқитиш қонуниятларини урганиб, мазмун ва методларини такомиллаштириб боради. Методика фани буйича изланишлар ва ҳулосалар эстетика, мусиқашунослик, психология, мусиқа ўқитувчиларининг умумлашган педагогик тажрибаларига асосланади.

Мусиқа ўқитиш методикасининг аҳамияти мусиқа санъатининг болалар тарбиясидаги бекиёс моҳиятидан келиб чиқади, яъни ёш авлодининг халқ мусиқа меросини чуқур биладиган ҳамда умумжаҳон мусиқа бойлигини идрок эта оладиган маданиятли инсон даражасида вояга етказишдан иборатдир.

Мусиқий таълим-тарбия тизимининг шаклланиши тарихи шуни курсатадики методиканинг фан сифатида ривожланиши жамиятнинг, маданиятнинг, мусиқа санъати ва умуммактаб ривожланиши билан боғлиқдир.

«Тарбия», «тарбиялаш» сузи асосида чуқур фикр ётади. Педагогикада тарбия деганда болалар, усмирлар, ёшларнинг жисмоний ва манавий кучларни ривожлантириш, уларнинг дунёқарашини шакллантириш, билим, малака ва кўникмаларга эга қилиш тушунилади.

Шуни доимо эсда тутиш лозимки, ўқувчи – бу тингловчи, ижрочи (билими ва тажрибаси ўқитувчиникидан жуда оз бўлса ҳам) бўлиб, у мусиқага уз муносабатини билдиради. Унга фақатгина мусиқа ҳақида билим бериш малака ва кўникмалар ҳосил қилиш билан кифояланиш камлик қилади. Энг муҳими, ўқувчиларда мусиқани севишни ижодий активликни уйғотишдир.

Мусиқа ўқитиш методикаси педагогика кафедраси сифатида унинг умумий қонуниятларига бўй сунади ва дидактик принципларга асосланади. Тарбияловчи таълим принципи; илмийлик ва материалнинг болалар ёшига мослиги; кўрғазмалилик; билим малака ва кўникманинг мустаҳкамлиги; ўқувчилар мусиқа фаолиятининг активлиги, уларнинг мустақиллиги; мусиқий тарбиянинг ҳаёт билан, болаларнинг кизиқиши билан боғлиқлиги - бу принципларнинг ҳаммаси мусиқа ўқитиш методикасининг асосини ташкил этади.

Шу билан бир каторда мактаб "Мусиқа" предмети хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, мусиқа ўқитиш методикаси узининг хусусий принципларини олдинга суради: эмоционаллик ва онглиликнинг бирлиги, бадиийлик ва техниканинг бирлиги, ладни,

ритмик хиссиётни ва шаклни хис этишни ривожлантиришнинг бирлиги. Бу принциплар мусикий қобилиятларни, мусиқага кизиқишни, дид ва мусиқа маданиятни ривожланишга қаратилган.

Тарбиянинг мураккаб ва қуралли вазифаларини хал этиш учун методика фани мусиқа факультети ўқув режасида кўзда тутилган бошқа предметлардан олинган билимлардан кенг фойдаланилади. Тарихий-назарий предметлар мазмунини узлаштириш ўқувчиларга мусиқа санъати хусусиятларини етказиш йулларини топишда, уларга ҳаётнинг мусикий образларида акс этиши, мусиқа ифода воситаларини тушунтира олишда ёрдам беради.

Мусиқа тарихи, асосий йуналишлар, стиль ва жанрларнинг ривожланиши, йирик композиторларнинг хос ижод йули ҳақидаги билимлар мактаб ўқувчиларининг мусикий дидини тарбиялаш, уларнинг дунёқарашини кенгайтиришга асос беради.

Ҳар бир ижрочилик синфи – яққа қуйлаш, дирижёрлик, мусиқа асбоби – фақатгина ижрочи мусиқачини тайёрлабгина қолмай, балки ўқувчилар билан ишлашда улар овозини саклаш ва ривожлантириш, хор билан ишлаш, мусикий асарни ижрода қурсатиш ва таҳлил қилиш бўйича методикага уз хиссасини қўшади.

Рухшунослик, педагогика, методологик фанларининг роли жуда катта. Улар ҳозирги пайтда жамият олдида турган вазифалар, умумтаълим мактаблари ва ўқитувчилар олдида қўйиладиган талаблар, ўқув тарбиявий жараён тузулишининг принциплари ва шакллари, ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари, мактабда мусикий тарбиянинг мақсади вазифаларини аниқлашга, тушунишга ёрдам беради.

Мусиқа ўқитиш методикаси педагогикага асосланиб, тарбияни қўллаган факторларга боғлиқ жараён деб ҳисоблайди. Инсоннинг мусиқа маданияти фақатгина мактаб таъсири остида шаклланибди. Бунда оиланинг, кенг ахборот воситаларнинг ва бутун социал муносабатлар тизимининг роли каттадир. Шу билан бирга аввало мактаб ўқувчиларда мусиқа кизиқишлар мусикий маданиятнинг асослари шаклланишида хал қилувчи аҳамият касб этади.

Мусиқа ўқитиш методикаси ўз методларини ҳам педагогикага асосланган ҳолда илгари суради. Методларнинг ишлаб чиқилиши қўйидаги муаммоларга боғлиқ: Мусиқа ўқитишнинг мазмунига, ўқувчиларда мусикий ва ижодий қобилиятларнинг ривожланишини, мусикий эшитув ва овозларнинг ёш ва индивидуал ривожланиш хусусиятига, ўқувчиларнинг ривожланишида турли мусикий фаолиятларининг имкониятларига ва х.к.

Мусиқа дарси, факультатив мусикий машғулотлар, синфдан ва мактабдан ташқари машғулотлар каби ўқув тарбия жараёнининг турли шаклларини такомиллаштириш ҳам методиканинг вазифаларидан биридир.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. А.Г.Дмитриева, Н.Н.Черноиваненко «Методика музыкального воспитания в школе» М. 1989
2. Умумий таълим мактаблари мусиқа дастури «Ўқитувчи» 1992
3. Умумий таълим мактаблари мусиқа дастури «Ўқитувчи» 1996
4. В.Петрушин «Музыкальная психология» М. 1997

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NOAN'ANAVIY DARSLARNI TASHKIL QILISHDA YANGI PEDAGOGIC TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

**N.T.Raxmonova Izboskan tumani  
3-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

**Аннотация:** Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning faolligini, erkin fikrlashni yanada rivojlantirish maqsadida o'quv jaroyoniga noan'anaviy ta'lim usullari taqdim etilgan. Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jaroyoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanmoqda.

**Kalit soʻzlar:** pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, texnologik xarita, interfaol metodlar, noanʼanaviy dars.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar oʻqituvchi oʻz ustida ishlab, oʻquvchilarni oʻz ustida ishlab, oʻylashga, izlanishga, mustaqil fikrlashga undashni oʻz oldiga maqsad qilib olishi zarur. Oʻqituvchi oʻquvchini toʻgʻri yoʻnaltira oladigan boʻlsa, oʻquvchilar egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib tahlil qilishlariga va hattoki xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqargan holda oʻz-oʻzini oldindan baholay olish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi va oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda oʻquvchining rivojlanib borgan holda shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik va yoʻnaltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Dars jarayoniga yondoshuv uning mexanizmini yoki boshqacha qilib aytganda darsning texnologik xaritasini tuzishdan boshlanadi. Dars jarayoning har bir bosqichida bir necha interfaol usullardan foydalanish mumkin. Faqat interfaol usulning shu vaqtga mosligini inobatga olmoq zarur. Shu tariqa dars tashkil etiladi. Dars mashgʻulotlarining bir-biri bilan uygʻun boʻlishiga alohida eʼtibor qaratiladi. Darsda ishlatiladigan interfaol usullar oʻqituvchining taqvim - mavzu rejasida aks etmogi lozim.

Noanʼanaviy darslarning tashkil etilishi dars turlarining rang-barang boʻlishiga olib keladi. Darslar noanʼanaviy usullar: guruhlar musobaqasi, konferensiya, baxs-munozara, oʻylab top (evrika), aqliy hujum, davra suhbat, yoʻnaltiruvchi matn, muammoli vaziyat, loyiha va shu kabi boshqa usullarda tashkil etilsa, oʻquvchilarning fanga qiziqishi oshadi, oʻz ustida ishlash imkoniyatlari mavjudligini anglab yetadi, shuning bilan birgalikda darsning samaradorligi ortadi. Noanʼanaviy usulda dars berish jarayoni oʻqituvchidan pedagogik mahorat, ijodkorlik, bilim salohiyati va malakani talab etadi. Shuning bilan birgalikda oʻqituvchi bu usullar nechogʻlik samaradorligini bilishi va uni miqdoriy jihatdan baholay olishini idrok etgan holda navbatdagi darsga tayyorgarlik olib boradi.

Oʻquvchida fundamental bilimlarning boʻlmasligi interfaol usullarning samara bermasligiga olib keladi. Bunday hollarda oʻqituvchi oʻquvchi qaysi joyda qiynalayotganligini va dars jarayonida qaysi qismni kengroq yoritish kerakligini aniqlab, axborot texnologiyalarini toʻgʻri tanlagan holda interfaol usullarni qoʻllash maʼqul boʻladi.

Biz quyida oʻqitish jarayonida qoʻllash mumkin boʻlgan baʼzi bir texnologiyalarga tavsifnoma berib, baʼzilarini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida tavsiya berib oʻtamiz:

«TARMOQLAR» metodi - oʻquvchi- talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni oʻrgatishga qaratilgan. Bu metod biron mavzuni chuqur oʻrganishdan avval oʻquvchilarning fikrlashi faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, oʻtilgan mavzuni mustaxkamlash, yaxshi oʻzlashtirish, umumlashtirish xamda oʻquvchilarni shu mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«3x4» METODI - oʻquvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli gʻoyalarni bera olishi, taʼlim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, taʼrif bera olishiga qaratilgan.

«BLIS-OʻYIN» metodi - xarakterlar ketma-ketligini toʻgʻri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, oʻrganayotgan predmeti asosida koʻp xilma-xil fikrlardan, maʼlumotlardan kerakligini tanlab olishni oʻrgatishga qaratilgan.

«INTERVYU» texnikasi - oʻquvchi-talaba savol berish, eshita olish, toʻgʻri javob berish, savolni toʻgʻri tuzishni oʻrgatishga qaratilgan.

«AQLIY HUJUM» metodi - biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni toʻplab, ular orqali maʼlum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin. U toʻgʻri va ijobiy qoʻllanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga oʻrgatadi.

«BUMERANG» texnikasi - oʻquvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, oʻrganilgan materialni yodida saqlab qolish, soʻzlab bera olish,

fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baxolay olishga qaratilgan.

«TUSHUNCHALAR TAHLILI» texnologiyasi - o'quvchilarning mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

Xuolsa qilib shuni aytish mumkinki, darslarni davr talabiga moslab, ya'ni interfaol metodlar asosida o'tish bilan darslarda o'quvchining passiv qatnashchi bo'lishidan faol ishtirokchiga aylantirish, shaxsiy sifatlari namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratish, olgan bilimni tahlil qila olish va hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Olimov. Q.T., Sayidahmedov N.S., Jalolova D.F., Bozozrova M.Q., Boltayeva M.Q., Alimov A.A. Pedagogik texnologiyalar. T.: "Fan va Texnologiya", 2011-yil

2. Sayidahmedov N.S. Ochilov A. Yangi pedagogic texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. RTM 2000-yil

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA O'QITUVCHINING O'RNI**

**G.O.Soliyeva Andijon viloyati Jalaquduq tumani  
22 -maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslar jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o'qituvchining o'rni haqida so'z borgan.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: Qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, oila, ta'lim, odob, ahloq.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonning rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalab yetishtirishga bog'liq. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur masalani hal etishda muhim bosqich hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan to'la bahramand bo'lmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Shuning uchun ham ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularning kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazish jamiyat har bir a'zosining vazifasi va vatan oldidagi burchidir. Mazkur burchni shakllantirishda boshlang'ich ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ma'lum tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyat nima? "Qadriyat" so'zining mazmuni sodda va aniq bo'lib hayotda odamlar qadrlaydigan narsadir. Bular atrofimizdagi predmetlar, voqea va hodisalar bo'lib, odamlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan masaladir. Biz kundalik amaliy faoliyatimizda atrofimizdagi predmetlar dunyosi bilan munosabatga kirishar ekanmiz, u yoki bu predmetga, hodisa yoki voqeaga ularni biz uchun qadrli yoki qadrsiz ekanligiga qarab baho berishimiz, ularning talab ehtiyojlarini qanchalik qondira olish xususiyatiga ega ekanligini aniqlaymiz. Bu hol umuminsoniy xususiyatdir.

Qadriyatlar so'zining mazmuni, ahamiyati, xususiyati jihatdan

1. Moddiy,

2. Ma'naviy.

3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga bo'linadi.

Bular hayotda milliy va umuminsoniy shaklda bo'lib shaxsiy, oilaviy, kollektiv, sinfiy ko'rinishlarga ega. Ma'naviy qadriyatlarning inson va insoniyat jamiyati uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligining mezon tubandagicha: fanda bu mezon haqiqatdir, axloqda yaxshilik va ezgulik, san'at uchun esa go'zallikdir. Shaxs hayotida oila a'zosi, millat, ijtimoiy sinf va biror mehnat jamoasining a'zosi bo'lganligi uchun qadriyatlar ham ijtimoiy hayotimizda shaxsiy, oilaviy, milliy, sinfiy, jamoaviy, umuminsoniy qadriyat shaklida mavjuddir. Shaxsiy qadriyatlar deganda, faqat biron-bir shaxsnigina tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lgan

zaruriy, foydali, yoqimli, moddiy va ma'naviy predmetlar, voqea va hodisalar, g'oyaviy axloqiy qarashlar, badiiy prinsiplar va ideallar tushuniladi.

Oilaviy qadriyatlar esa oilaning barcha a'zolari uchun u yoki bu darajada umumiy bo'lgan, ularning real yoki orzu umidga asoslangan hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositalaridir. O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan dastlabki paytlaridan boshlab ko'p ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Hayotimizga yangi so'zlar, tushunchalar kirib keldi. Ularning mazmuni va mohiyatini tushunish, jamiyatdagi voqea va hodisalarni to'g'ri anglash va baholash fuqarolar dunyoqarashi va ma'naviyatini yanada shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham ijtimoiy siyosiy, ham ijtimoiy pedagogik jihatlarga ega.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy sub'yekti o'qituvchi. Shu sababli maktab "ma'naviy-axloqiy ishlar tizimi"ni maktab tarbiyaviy ishlar tizimining boy g'oyasi sifatida tushunish mumkin. Shu sababli yuqoridagi fazilatlarini shakllantirish uchun ma'suliyatning asosiy yuki uning zimmasiga yuklanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilaridan, maktab jamoat orasida o'z bilimi, ma'naviy axloqiy fazilatlarini bilan boshqalarga o'rnatilgan bo'lishlari, shaxsni hurmat qilishlari, ma'naviy tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashlari; o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni bir birini tushunish, xalqlar, millatlar va el-elatlar o'rtasida tinchlik, ahillik va inoqlik ruhida tarbiyalashlari va ularni zo'ravonlikning barcha ko'rinishlaridan himoya qilishlari va boshqalar talab etiladi. Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalanadi, qo'llaydi, bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va butun sinf jamoasining sifatlarini ko'zlab biron-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni hisobga oladi. O'qish va odobnoma darslarida axloqiy odatlarni hosil qilish uchun odob normalarini, ma'naviy, axloqiy jihatlarni, o'qish darslarida turli xil ertaklar, rivoyatlar, maqollar, hikmatli so'zlar bilan o'quvchilar dars jarayonida mavzuga qiziqtirish yo'llari va usullarini o'qituvchi ishlab chiqishi kerak. Jumladan 3-sinf o'qish kitobida berilgan go'zal fazilat inson husni bo'limida bir qator ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan mavzular mavjud. Shundan "Onani rozi qilish haqida", H.Hakimzodaning "Otamiz", "Onamiz" she'rlari, "Ona mehri" ertagi, "Besh baho" hikoyasi va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarni yaratganlar, shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashning asosi- kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Umarova M, Hamraqulova X, Tojiboyeva R. "O'qish" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik "Oqituvchi" nashriyot-matbaa 2019

2. Shayxova X, Nazarov Q. "Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot"-T, "O'zbekiston", 2002

## НОАНЪАНАВИЙ ДАРС, УНИНГ АНЪАНАВИЙ ДАРСДАН АФЗАЛЛИГИ

Г.М.Турсунматова Олтинкўл тумани  
4-умумий ўрта таълим мактаби бошланғич синф ўқитувчиси

*Аннотация:* Бошланғич таълим жараёнини ривожлантиришда ўқитувчининг касбий компетентлиги ва ўқимшишлик даражаси, болалар психологияси, ҳозирги замон бошланғич таълим педагогикаси ва бу соҳадаги илгор тажрибалар, шахсга йўналтирилган таълим концепцияси ва компетенциявий ёндашув асосларини билиши бошланғич таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.



**Калит сўзлар:** таълим жараёни, метод, педагогик технологиянинг интерфаол усуллар, дедуктив усули,

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни ҳамда Бошланғич таълим концепциясида таъкидланганидек, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатувчи, ижодий тафаккурни ривожлантирувчи усулларни қўллаб, уларга фан асосларидан чуқур билим бериш ҳозирги замон бошланғич таълимининг асосий вазифаларидан ҳисобланади. Мазкур вазифани амалга ошириш учун эса янги педагогик технологияларни таълим жараёнига олиб кириш лозим.

Бунинг учун бошланғич синф ўқувчиларида юқори даражадаги ўқиш майллари шакллантирилиши лозим. Маълумки, барча болалар ўзига хос иқтидорга эга бўладилар. Болаларнинг иқтидорлилик даражалари ҳақида гапирилганда тенгдошларига нисбатан юқори идрок этиш, ижодий фикрлаш даражасига эга бўлган болалар тушунилади. Улардаги иқтидорни юзага чиқишида ўқитувчи маҳорати, дарсларни ноанъанавий усулда ташкил этилиши муҳим ўрин тутди.

Азал-азалдан комил инсон ғояси халқимизнинг эзгу орзуси бўлиб келган. Шу сабабли бугунги кунда ҳам жамиятимизда соғлом авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор берилмоқда.

Таълим тизимидаги ислохотлар ва уларнинг ижроси сифат босқичига кўтарилиб, самарадорлик асосий ўрин эгаллапти. Шу жиҳатдан мустақил фикрли шахсни камолга етказиш миллий мафкурамизнинг бош ғояларидан биридир. Жамият тараққиёти, комил инсон тарбияси тизимдаги ислохотлар билан узвий боғлиқдир.

Маълумки, инсоннинг имконияти ҳар бир фанни маълум даражада ўзлаштиришга етарли. Фақат унга тизимли равишда билим бериш ва ўзлаштириши учун яхши раҳнамолик қилиш лозим.

Ўқувчида ҳар қанча иқтидор бўлмасин, у ўқитувчи томонидан рағбатлантирилмас экан, ундан бирон ижобий натижани кутиш амри маҳол. Шунингдек, ўқувчилар ҳам ўзи қизиққан фан билан ҳар қуни шуғулланиши, изланиши зарур. Шу сабабли, болаларнинг ёшига, фикрлашига, иқтидорига қараб мисол, масалалар берамиз ва болалар билан янада яқинроқ ва яхшироқ муносабатларни ўрнатишга ҳаракат қиляпмиз.

Дарс мазмуни ва самарадорлигини оширишда ноанъанавий дарс услублари яхши натижа берапти. Бу билан сифат самарадорлиги 70 – 75 фоизга ошмоқда. Масалан, “Ақлий ҳужум” усули ўқувчиларда қўлланилганда яхши самара беради. Бу усул бирор муаммони ечишда гуруҳ қатнашчилари томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келинадиган самарали усулдир. Айниқса, мантиқий масалаларни ечишда жуда яхши самара берапти.

Юртимизда ёш истеъдодлар кўп. Биз педагогларнинг асосий вазифаси уларни кашф қилиб, эл-юртга нафи тегадиган баркамол авлод қилиб тарбиялашдир. Зеро, болаларни изланишга ўргатсак, бу иштиёқ уларни комилликка етаклайди.

Маълумки, умумтаълим мактабларида фанларни ўқитишнинг эскича усуллари замон талабига тўла жавоб беролмай қолди. ўқитувчиларнинг ўқитиш тизимидаги ўрнини белгилаш ҳозирги куннинг муҳим масаласидир. Ҳозирги замон мактаб ўқитувчиси мумкин қадар мустақил, эркин фаолият кўрсатиш йўлидан бормоғи лозим. Бунинг учун унда чуқур билим, тажриба, иқтидор ва шу билан бирга, болаларга билимни етказа олиш маҳорати бўлиши зарур. Зеро, «биз ўз истеъдодли, фидойи болаларимизга, фарзандларимизга билим ва касб чўққиларини забт этиш учун қанот беришимиз керак». Бошқача айтганда, ўқитувчи замон билан ҳамнафас фаолиятда бўлмоғи муҳим. Бироқ бугунги кунда мутахассис кадрларни тайёрлаш, таълим ва билим бериш тизими ҳаётимизда, жамиятимизда бўлаётган ислохот, янгиланиш жараёнлари талаблари билан яқиндан боғланмаганлиги ҳар томонлама сезилмоқда.

Маълумки, таълим жараёнининг субъекти ва объектини белгилаш доим турли баҳсларга сабаб бўлган. Илгари амалда бўлган дастур ва дарсликларда ўқитишнинг **дедуктив усули** устун турарди, яъни қоидадан таҳлилга, умумийликдан

хусусийликка бориларди. Бу усул тил материалларини ниҳоятда ихчам шаклда баён қилиш имкониятини яратса-да, ўқувчиларни пассив ҳолатга қўярди. Бу ҳол, шубҳасиз, болани таълим жараёнининг субъекти, яъни фаол ишловчисига эмас, балки объекти, яъни тингловчисига айлантириб қўяди.

Бугунги кунда амалда бўлган ўзбек тили дарсликлари эса ўқувчини *индуктив усулда* ўқитишга асосланган, яъни ҳар бир хулоса, қоида, таъриф ўқувчиларнинг шахсий тажрибасига таянган ҳолда, хусусий мисоллар асосида чиқарилади, ўқувчи “ўзини ўзи ўқитади”. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, ўқувчини фаоллаштириш бебош дарёни ўзанидан чиқариб юбориш эмас, балки қатъий ва пухта ишланган режа асосида ўқитишдир. Ўқитувчи бунда томошабин эмас, шу жараённинг фаол ташкилотчиси, раҳбаридир. Бу ҳолат ўқитувчининг ўз касбига нисбатан масъулиятини бир неча марта оширади, ундан кучли билимдонлик, педагогик маҳорат талаб этади.

Шу ўринда одатдаги анъанавий ва ноанъанавий дарс атамаларидан воз кечиш лозимлиги, ҳар кунги дарс ноанъанавий тарзда ўтиши зарурлигини таъкидлаш жоиз. Бунда ноанъанавий дарсда анъанавий дарсларга хос қолип, яъни босқичларнинг кетма-кетлиги қатъий белгиланмайди, шу билан бирга, дарсни тартибсиз, режасиз ўтказиш мумкин деган хулоса келиб чиқмайди.

Умумтаълим мактабларнинг она тили ва адабиёт дарсларида кичик ва нисбатан йирик мавзулар ўтилади. Дарс мавзусидан, синф ўқувчиларининг тайёргарлик даражасидан келиб чиқиб, дарс тури танланади. Йирик мавзуларни ўтишда дарсларнинг мақсадига кўра белгиланган қуйидаги таснифидан фойдаланилади:

Янгиланган таълим мазмуни янги дастур ва дарсликларда ўз аксини топди. Бугунги кунда она тили дарсликлари тил таълимига жадал кириб келаётган коммуникатив (функционал-семантик) тамойилга асосланган.

Дарсликлардаги машқлар ҳам ўрганиш жараёнини самарали ташкил этишга хизмат қилади. Улар 3 хил бўлиб, миқдори ўқув мавзусининг ҳажми, тури ва синфнинг тайёргарлик даражасига мувофиқ тарзда белгиланади. Маълумки, мактабда адабий меросни ўрганиш шонли тарихимиз, кўп асрли маданиятимизнинг узвий бир қисми бўлган бадиий ҳазинамизнинг ўзига хос гўзалликлари, буюк ижодкорларимиз даҳосининг юксак нафосати, безавол дурдона асарларнинг халқимиз маънавиятини камол топтиришдаги улкан аҳамиятини, адабиётимиз босиб ўтган кўп асрли тараққиёт йўлининг хусусиятларини ўзлаштириш, фидойи шоиру носирларимизнинг шарафли ҳаёти ва ижоди, беназир бадиий дурдоналаримиз воситасида ёш авлодни ҳар жиҳатдан баркамол инсонлар қилиб етиштириш мақсадини кўзлайди. Бу адабиётни ўрганишнинг услубий йўналиши эса ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш, уларда мустақил тадқиқот малакаларини шакллантириш ва ривожлантириб боришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонун –Тошкент Ўзбекистон 1997-йил
2. Н.Х Авлиёкулов . Замонавий ўқитиш технологиялари- Тошкент 2001-йил
3. Н.Н. Азизхўжайев . Замонавий - Тошкент 2002- йил

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI.**

**Y. Abdullayev, O.To'ychiyeva talabalar, ADU**

***Annotatsiya:** Maqolada loyihali ta'limning mohiyati, mazmuni va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan. Kasbiy faoliyatimiz davomida loyiha asosida o'qitish orqali, bolaning mustaqil faolliklarini rivojlantirish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda keng joriy qilish tavsiya etiladi.*

***Kalit so'zlar:** loyiha, mustaqil fikrlash, pedagogik faoliyat, yakka ishlash, juft bo'lib ishlash, kichik va katta guruhlarda ishlash.*

Loyiha – ko'pincha iqtisodiy – ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qo'llanilgan. Bu atama pedagogika faniga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bu yo'nalishdagi o'qitish loyiha asosida istiqbolli o'qitish metodi deb qaralmoqda. Loyiha asosida o'qitish- o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi mustaqil o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar fikr almashadilar, ijodiy izlanadilar, hamkorlik, hamijodkorlikda yechim qidiradilar va yechimni topadilar.

Loyiha asosida mashg'ulotlar quyidagi turlarda olib boradilar: yakka ishlash, juft bo'lib ishlash, kichik guruhlarda ishlash, katta guruhlarda ishlashlarga bo'linadi.

Umuman dars loyihalari ko'pincha individual va guruhlariga mo'ljallab tuziladi. Yakka shaxsga qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki, umum o'quv – biluv ko'nikmalarini egallashda o'quvchining o'quv mehnatiga shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning natijasi o'quvchi shaxsining o'zigagina bog'lanib qoladi. Loyihali o'qitish faoliyati o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

1. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o'quvchilari tomonidan to'la bajarilishi ko'zda tutiladi.

2. O'quv loyihalari oldindan ishlab chiqarilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin. Loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi.

3. Loyiha asosida o'quv faoliyatini tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi. Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlariga qaratilgan bo'ladi.

4. Loyiha topshiriqlarini aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli, aniqlangan, o'quvchilar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari keltirilgan bo'ladi. Ayrim hollarda yuqori sinf o'quvchilarining hoxish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

5. O'quv yili davomida o'rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferentsiyalarda, pedagogik kengashlarda, metod birlashmalarda o'tkazish, himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o'tkazish mumkin. Dars jarayonini loyiha asosida tashkil etish bosqichlari.

1. O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash, darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish, darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish, beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash;

2. O'quvchi tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalarni ifoda etish;

3. Darsning shakli, metod va vositalarini tanlash, arsning tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini belgilash, har bir bosqich natijalarini olish, mashq va misollar tizimini yaratish. Dars maqsadini belgilash va uni amalga oshirishda quyidagicha ish yuritish maqsadga muvofiq:

- o'quv materialini tanlash, uni didaktik talablar asosida tashkil etish, foydalaniladigan metodlar asosida o'quv jarayonini jihozlash;

- o'z faoliyatini funktsional tashkil eta olish; o'quvchi shaxsi va guruhlarda ish faoliyatini tashkil etish. Loyiha asosida guruhlariga bo'linib, darslarni tashkil etishda ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik, samimiylik va do'stona munosabatlarda ish yuritiladi hamda ishni bunday holatda tashkil etishda dars sifati va samaradorligi sermahsul bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'quvchining ichki qobiliyatini ishga soladi. Loyiha yechimini topishga birgalikda faol qatnashadilar. Dars loyihalari uning davomiyligiga qarab:

- kichik loyihalar (bir soatli);
- qisqa muddatli loyihalar;
- haftaga mo'ljallangan loyihalar;
- uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari qo'shimcha ta'limni olishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar boshlang'ich sinf o'qituvchisidan darsni tashkiliy jixatdan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak. Loyihali darslarni tashkil etish juda murakkab jarayon, bunda har bir o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etishi jumladan: yoshiga, shaxsiy xarakteriga, moyilligiga, istak – hoxishlariga, ilgari loyiha asosida ishlagan -ishlamaganligiga, loyiha mazmunining murakkabligiga, guruhlarda ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatiga bog'liq bo'ladi. Demak, loyiha asosidagi darslarning maqsadi, mavzu mazmuni dars jarayonidayoq to'la o'zlashtirib olinishi kafolatlanadi. Darslarda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malaka va tayanch tushunchalarning o'zlashtirib olinishiga erishiladi. Iloji boricha o'quvchini o'zlashtirishi DTS talablari asosida bilim, ko'nikma, malakalarini montironi, baholab borish nazarda tutiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Mavlonova R.Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. G'ofur Gulom nashriyoti. T.: 2013.

2.Jumaniyozova M. "Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari". p.f.n. dis. T.: 2007. 186 b.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATNI MUXOFAZA QILISH MALAKA VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**

**G.T. Yuldasheva, Paxtaobod tumani  
23-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Аннотация:** ушбу мақолада бошлангич синф ўқувчиларини она тили, ўқиш, меҳнат, табиатга доир олган назарий билимларини она табиат бойликлари ҳақида қандай йўллар билан амалга ошириш мумкинлигини атрофлича очиқ беришга ҳаракат қилинган.*

Hukumatimiz o'sib kelayotgan yosh avlodga yangicha ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, ularni o'zi o'sib ulg'ayayotgan mahalladan boshlab, Vatanimiz tabiiy boyliklarini ko'paytirish, bu tabiiy boyliklarni muhofaza etishga o'rgatish biz pedagoglarning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Boshlang'ich sinflarni atrof-muhit bilan tanishtirish orqali tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish, dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartiga muvofiq birinchi sinfda atrof-olam bilan tanishtirish, o'quvchilarni tabiatni sevish, uni ehtiyot qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Birinchi sinf o'quvchilari xonaki o'simliklarni parvarish qilish, tagini yumshatish, o'simlik barglarini artish, bog' o'simliklari, sabzavotlar, uy hayvonlarini parvarish qilish, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, sinf xonasidagi o'simliklarning rivojlanish sharoiti, maktab oldi uchastkasidagi va maktab atrofidagi o'simliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, jonli burchakdagi parranda va hayvonlarni parvarish qilish, mahalladagi ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol ishtirok etish zamirida tabiat go'zalligini ehtiyot qilish kabi ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun zamin bo'ladi. Tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish birinchi sinf o'quvchilarining atrofidagi hayot, tabiiy hodisalar haqidagi tushunchalarini boyitish, ularni tabiat moddiy boyliklaridan ehtiyotkorona foydalanish xususidagi axloqiy tajribalarini boyitish, o'zni bo'shab qolgan tabiiy boyliklarning o'rnini to'ldirish kabilarni o'z ichiga olish bilan birga, tabiatga g'amxo'rona munosabati, jonajon o'lka va ona tabiatga muhabbati ortadi. Bu esa bolalarda jonajon ona-tabiat haqidagi bilimlarini yanada boyitadi. O'qituvchi mashg'ulotlarda suhbat, ko'rsatmalilik, mustaqil ishlardan unumli foydalanishi zarur. Masalan, –Atrofimizdagi dalaning ko'rinishi qanday? Siz ko'rib turgan tabiatda qanday o'simliklar bor? Bog'da, poliz maydonlarida hozir qanday ishlar olib borilmoqda? Tabiat xaqida, hayvonlar haqida qanday shehr, xikoya va ertaklar bilasiz?–, kabi topshiriqlarni muntazam ravishda berib boradi. Bu usullar o'quvchilarning bilim va malakalarini yanada kengayishiga olib keladi. SHuningdek, sinfda taniqli shoir va olimlarning tabiatga oid shehr, topishmoq, qiziqarli hikoyalarini to'plash, sinfdan tashqari o'qish jarayonida materiallardan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Masalan, o'qituvchi

tevarak atrof bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotning

1-2-3-variantlarini, 18-25 mashg'ulotlarni uyushtirgan bolalarga mehnat darsida rangli qog'ozlardan daraxt va o'simliklarning kuzdagi ko'rinishi haqida har xil applikasiyalar tayyorlash, kuzgi uzum, olma, behi va boshqa mevalar ko'rinishiga baxmal qog'ozlardan illyustratsiyalar tayyorlash, terak, tol, chinor, qayrag'och, uzum, olma, nok daraxtlarining barglaridan gerbariyalar to'plash kabi topshiriqlarni bajartirish lozim. Birinchi sinf o'quvchilarining tabiatni muhofaza qilish xususidagi bilim, ko'nikma malakalarini yanada rivojlantirish maqsadida yuqori sinflarda tashkil etilgan "Yosh bog'bonlar", "Yosh parranda boqarlar", "Yosh gulchilar", "Tabiat chekmasin aziyat" to'garaklari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga tabiat boyliklariga doir qisqa metrajli diafilmlar, teleko'rsatuvlarning namoyish qilinishi, ekologik tarbiya beruvchi o'yinlar bolalarda ona tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari, bilimlarini yanada kengayishida, barkamol inson bo'lib yetishlarida katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalarni boshlang'ich sinfdan boshlab jonajon ona - tabiatni sevish, uni muhofaza qilishlarida faol qatnashishlarini tashkil qilish uchun ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilinishi yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni 1-sinfdanoq ekologik olam bilan tanishtirishni bunday usullar bilan amalga oshirish bolalarning tabiat haqida olayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Bolalarga kichik yoshdanoq tabiatni sevish, uni ardoqlashga o'rgatish o'quvchilarni tabiat haqidagi bilim va malakalarini yanada rivojlantiradi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat haqida aniq tasavvur, idrokning hosil bo'lishini osonlashtiradi, materialni ongli o'zlashtirish, tabiatni sevish, avaylab-asrashga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016.-488 b.

2. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T.: ILM-ZIYO, 2013, 184 b

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

**M.U.G'ofurov, Farg'ona viloyati XTXQTMOHM  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim  
metodikalari kafedrasida o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada, Ona tili darslari orqali, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish omillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur, ona tili, ta'lim, kuzatish, taqqoslash.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'quv fanining tabiati ko'proq bolalardan ijodiy xayolni talab etadi. Chunki berilgan rasmlar yoki biror bir mavzu asosida og'zaki hamda yozma matn tuzishi, biror harakatni bildiradigan predmetning nomini yoki belgisini bildiradigan, uning son-sanog'ini, miqdorini bildiradigan so'zlarni o'zaro qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashma va xulosalar chiqarish ijodiy xayol mahsuli hisoblanadi.

Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. "Tafakkur – deb qayd qiladi psixolog M.T. Davletshin, - kishi aqliy faoliyatining yuksak formasi bo'lib, real borliqning bilvosita va umumlashgan intiqosi, borliqdagi buyumlar hamda hodisalar o'rtasidagi aloqa – munosabatlar va ularning umumiy xossalarning aks etish jarayonidir". Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri maktabga kelganga qadar ancha shakllangan bo'lib, u maktabda o'qish jarayonida takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarning idroki va xotirasi ustida ishlash tafakkurining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu davrda bolalardagi idrok va xotira sifat jihatdan qayta o'zgarishga uchraydi, ya'ni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanadi. O'qishning dastlabki paytlarida bolalar konkret tafakkur

qilishadi. Ta'lim ta'siri bilan asta-sekin ularda tahlil qilinayotgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarning mohiyatini anglash muhim xususiyat va belgilarning tafakkurda aks etishi bilan boshlandi.

Ma'lumki, psixologlar tafakkurining ikki darajada namoyon bo'lishini qayd qiladilar: 1) reproduktiv (tasavvur etish) tafakkur; 2) ijodiy tafakkur. Reproductiv tafakkur o'quvchining tayyor bilimlar olishi va ularni tushunib olib, og'zaki yoki yozma ravishda eslab qolishi bilan xarakterlanadi. Ijodiy tafakkur jarayonida o'quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda, aqliy faoliyat usullarini ishga solgan holda egallaydi. Bir soatlik dars mashg'ulotida o'qituvchi o'rnini kelganda reproduktiv tafakkurga, o'rnini kelganda esa ijodiy tafakkurga tayanib ish ko'radi.

Ta'limning samaradorligi o'quvchilardan hukm va xulosalar chiqara olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ona tili mashg'ulotlarida hukm va xulosalar chiqarish; unli va undosh tovushlarni, so'z va qo'shimchalarni, gap qurilishlarini o'zaro qiyoslash; ularning o'xshash- farqli tomonlarini aniqlash; uyadosh so'z va qo'shimchalar ro'yxatini tuzish; ularni muayyan belgilariga qarab guruhlash singarilar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf oquvchilarini bu aqliy faoliyat usullarini bajarishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o'zaro chambarchas bog'langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta'lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e'tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko'zlagan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi. Masalan, "Shaxsning xususiyatini ifodalovchi so'zlar" mavzusini o'rganishda insonning xususiyati, uning belgilarini ifodalovchi so'zlar aralash holda berilgan mashqdan faqat insonning xususiyatini bildiruvchi (chiroyli, xushmuomala, serjahl, bosiq, samimiy, o'jar v.h) so'zlarni bir uyaga guruhlash topshiriladi. Ayniqsa, namuna sifatida bir uyaga mansub 3-3 ta so'zni berib, bu so'zlar ro'yxatini mustaqil davom ettirish, bolalarda aqliy faoliyat usullarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish va undan kelib chiqqan holda ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash quyidagi natijalarga erishishga ko'maklashadi:

1. Ona tili ta'limi mazmunini o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqlashtirish. "Ona tili darsligida beriladigan o'quv topshiriqlari, tushuncha va qoidalar sharhi yoki o'qituvchi tomonidan tanlanadigan qo'shimcha o'quv materiallari bolalarning yosh xususiyatiga qancha muvofiq kelsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyati va ona tilini o'rganish imkoniyatlarini aniqlash dars mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish, pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi bolalarning yoshini hisobga olsa, darsni to'g'ri tashkil etadi, o'qitishning maqsadga muvofiq metodini tanlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini aniqlamay turib, "O'quvchi + o'quv topshirig'i + o'qituvchi" o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri belgilash mumkin emas. O'qituvchi o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi bilan aloqa bog'laydi. Bolalarning yoshini bilish o'qituvchi va o'quvchi orasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishga keng imkoniyat yaratadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi. Topshiriqlar

o'quvchilarning bilim sa'viyasiga mos bo'lsagina u samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995.
2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA BAYON YOZDIRISH VA TEKSHIRISH METODIKASI.**

**G'.Avliyayeva, Xo'jaobod tumani  
4-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda bayon yozdirish va tekshirish metodikasi va usullari. Bayon tekshirilganda o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolari tahlil qilinadi, tipik xatolar aniqlanadi va bu xatolar sinfda o'quvchilar bilan ishlash orqali bartaraf qilinishi ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Bayon, hikoya, stilistik xatolar, o'quvchi, orfografik grammati.*

O'quvchilarning yozgan bayonlari ham ularning boshqa yozma ishlari kabi tekshiriladi. Bayon tekshirilganda o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolari tahlil qilinadi, tipik xatolar aniqlanadi va bu xatolar sinfda o'quvchilar bilan ishlash orqali bartaraf qilinadi.

Har qanday yozma ishdan ma'lum maqsad ko'zlanadi. Bayonni tahlil qilishda dastavval ana shunga e'tibor qilinadi.

Barcha bayonlar quyidagi umumiy reja asosida tahlil qilinadi:

- a) o'qilgan matnning asosiy mazmuni o'zlashtirilganmi? Nimalar tushunilmasdan qolgan?
- b) hikoyaning rejasiga rioya qilinganmi?
- v) gaplar to'g'ri tuzilganmi? (Xato ishlatilgan gaplar, so'z va iboralar aniqlanadi.)
- g) bayonda matndagi qaysi obrazli ifodalar saqlangan va qanday yangiliklar kiritilgan?
- d) sarlavha to'g'ri topib qo'yilganmi?

Bayonda yo'l qo'yilgan orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolar tuzatilishi kerak.

Ma'noni buzib, noto'g'ri ifodalash, asosiy faktlarni tushirib qoldirish, voqyea-hodisalarni, izchillikka rioya qilmay, palapartish ifodalash kabi hollar ma'no jihatidan yo'l qo'yilgan xatolardir.

Mazmun jihatidan yo'l qo'yilgan xatolar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, asarning mazmunan muhim bo'lgan o'rinlarini tushirib qoldirish, matnga aloqasi bo'lmagan yangi tafsilotlarni kiritish, matn yoki uning ayrim qismlarini ortiqcha qisqartirish, narsalarning yoki hodisalarning belgi va xususiyatlarini bayon qilishda izchillikka rioya qilmaslik, uni buzish, noto'g'ri fikrlarni kiritish va dalillarni tushirib qoldirish ana shunday xatolardandir. O'quvchilarning yozma bayonida so'zlarni noto'g'ri tanlash va noto'g'ri ifoda qilish kabi uslubiy xatolar, ayrim so'zlarni noto'g'ri yozish, tinish belgilarini o'z o'rniga qo'ya bilmaslik kabi orfografik va tinish belgilariga oid xatolar ham sodir bo'lishi mumkin. Bu xatolarni ko'rsatish uchun o'qituvchi ishlatadigan shartli belgilar bo'ladi. Bu belgilar bilan o'quvchilar ham tanish bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning qilgan xatolarini aniqlash maqsadida daftar chetiga savol belgisini qo'yadi, so'ng yozma ish sinfda tekshiriladi. Stilistik xatolar to'lqinli chiziq (~) bilan, orfografik xatolar ikki chiziq (=) bilan, punktuatsion xatolar bir chiziq (-) bilan ko'rsatilishi mumkin.

Bu uch turdagi xatoni tuzatish usullariga kelganda, mavjud metodika tegishlicha javob beradi. Uslubiy xato jamoa bo'lib sinfda tuzatiladi. O'qituvchi daftarga qo'ygan belgilariga asoslanib, xatolarni taxminan sistemalashtiradi, eng yaxshi ishlar sinfda o'qib beriladi, tipik xatolar tekshiriladi va bu xatolar sinfda o'quvchilar ishtirokida tuzatiladi.

Xatolar ustida o'quvchining o'zi ham ishlaydi. Bunda o'quvchilarning o'zlariga xatolarining sababini yozma va og'zaki izohlatish, qaysi qoidada xato qilingan bo'lsa, unga mos so'zlar toptirish usulidan keng foydalanish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozdirish usulidan ham foydalanadilar. Lekin bu hamma vaqt ham samarali natija beravermaydi. Bu usuldan yozilishi ma'lum qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatishda foydalanish mumkin.

O'quvchilardan vaqti-vaqti bilan qaysi qoidada xatoga yo'l qo'yganligini, buni tuzatish sohasida nimalar qilganligini so'rab turish mumkin.

Ba'zan bir o'quvchining daftarini ikkinchi o'quvchiga tekshirtirish usulidan ham foydalaniladi. Bu o'quvchilarning qiziqishini orttiradi. Shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchi ma'lum bir so'zni xato yozadi-yu, lekin o'rtog'ining daftarida shunday yozilgan so'zning xato ekanligini topadi.

Tajribala o'qituvchilar ishning bu shakliga katta e'tibor beradi. Ularning ta'kidlashicha, savodsiz kishini savodli kilishning eng qulay usullaridan biri ma'lum bir so'zning xato va to'g'ri yozilgan shaklidan to'g'ri yozilganini ajrata olish malakasiga ega qilishdir.

Shunga ehtiyot bo'lish kerakki, o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzataman deb, boshqa xatoga yo'l qo'ymasinlar, daftarlarini bekorga bo'yamasinlar. O'quvchi u yoki bu so'zning xato yozilganligiga to'la ishonsagina, uni to'g'rilash kerakligini anglasin.

O'quvchilar daftar tekshirayotganida, o'qituvchi sinfda aylanib yurib, ayrim o'quvchilarga maslahatlar beradi. Tekshirish uchun berilgan muddat tugagach, o'quvchilar topgan xatolarini aytadilar. O'quvchi xato yozilgan deb hisoblagan so'zini alohida qog'ozga yozadi, oxirida o'qituvchi ishtirokida buni aniqlab, keyin uni tuzatadilar.

Xatolarni tugatishda o'quvchining uyda mustaqil ishlashi juda katta ahamiyatga molikdir. Yo'l qo'yilgan xato bilan bog'liq qoidani o'qib kelish, unga mos mashqni bajarish, diktantni qayta ko'chirib yozish kabi ishlar uyga vazifa qilib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva SH., SHodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., "O'qituvchi", 2012
2. Jalilova M. Ona tili darslarida o'qitishning zamonaviy usullari. " Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2009, 2-son
3. Masharipova U. Oquvchi nutqini o'stirishda innovatsion usullardan foydalanish. "Boshlang'ich ta'lim"jurnali, 2014 -yil, 1-son
4. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009

## **SINF DAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA YANGI USLUBLARDAN FOYDALANISH**

**G.G'oziyeva Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi  
44-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirib borish pedagoglar oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Ularni umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun sinfdan tashqari o'qish darslarida bir qancha metodlardan uy`gunlashgan tarzda yangi uslubni tavsiya qilmoqchiman.

Ma'lumki, STO` soatlarida darslikdan chekinib, bolalar adabiyotining keng tur va janrlaridan foydalanish imkoni bor. Boshlang'ich sinf o'qish kitoblarining taqvimiy-mavzuiy ish rejasidan kelib chiqqan holda o'rganilgan bo`limni mustahkamlash va bilimlarni kengaytirish uchun shu mavzu asosida umumiy ma`lumotlar beriladi. O'quvchilarning o`z tasavvurlari asosida suhbat o`tkaziladi. Internet tarmog`idan mavzuga oid bir qancha rasmlar yuklab olinadi. Dars paytida televizor yoki proektor ekranida rasmlar navbati bilan namoyish etiladi. Har bir surat yuzasidan o'qituvchining izoh va tushuntirishlari berib boriladi. Namoyish yakunlangach o'quvchilar bilimni mustahkamlashning ham quyidagi bir necha turidan foydalanish mumkin:

Savol-javob o`tkazish;

Qayta og`zaki hikoya qilish;

Yozma hikoya qilish;

Material asosida rasm chizish;



Plastilin yoki rangli qog`ozdan foydalanib dars g`oyasini ifodalash.  
 Quyida bir necha mavzuda rasmlar ketma-ketligini keltirib o`tiladi:  
 “Tabiatni asrang” bo`limi yuzasidan takrorlashda STO` soatida foydalanish uchun  
 rasmlar



Bu rasmlarda darslikda berilgan bilimga qo`shimcha tarzda ekologik ma`lumotlar beriladi. Dunyo miqyosida insoniyatga xavf solib, iqlimning keskin tarzda noxush o`zgarishlariga sabab bo`layotgan global muammolar haqida o`quvchilarda tushuncha shakllanishiga sabab bo`ladi.

Bilim olishga targ`ib qilish, Vatan, maktab va kitobga muhabbatni tarbiyalash, dunyo xalqlari farzandlarining bilim olish jarayoni bilan tanishish hamda o`z hayotidan minnatdorlik tuyg`ularini shakllantirish maqsadida quyidagi rasmlar to`plamidan ham foydalanish mumkin:





Bu rasmlar dunyodagi qashshoq va rivojlanmagan davlat xalqlari ham farzandlarining bilim olishi uchun barcha imkoniyatdan foydalanishini ko`rsatadi. O`quvchilarga o`rnak sifatida shunday mamlakatlarda ham bolalarning qanchadan-qancha qiyinchiliklarga qaramay katta qiziqish bilan o`qishlari, ota-ona va ustozlarning ham ta`lim ishiga o`ta mas`uliyat bilan yondashishlari tushuntiriladi.

Bunday uslubdagi darslarda o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlari-PISA, PIRLS kabi test imtihonlariga ham tayyorlab borish maqsadida osondan murakkabga tomon tuzilgan 5 balli savollar ketma-ketligidan foydalanish mumkin. Bu savollarda eng oson, faqatgina eslab javob beriladigan 1 balli savollardan tobora murakkablashib, mantiqiy fikrlab ijodiy yondashish asosida javob beriladigan 5 balli savollar ketma-ket beriladi. Chunonchi yuqoridagi rasmlar yuzasidan quyidagi savollarni berish mumkin:

- 1) Rasmlar nima haqida ma'lumot beryapti?
- 2) O'quvchilar shu qiyin sharoitda ham nima uchun bilim olish uchun harakat qilishyapti deb o'ylaysiz?
- 3) Bu maktablarni o'z maktabingiz bilan taqqoslang va farqlarni tushuntiring.
- 4) Shukronalik qanday ma'noni bildiradi?
- 5) Butun dunyoda bolalar qoniqarli sharoirlarda bilim olishi uchun kattalar nima qilishlari kerak deb hisoblaysiz?

O`quvchilarga rasmlar namoyish qilingach, ularning o`z taassurotlari va bilimlari asosida mavzuni kengroq yoritishlariga erishish ularda o`z fikrini har xil usullar bilan bayon eta olish ko`nikmasini rivojlantirib boradi. Sinfdagi o`quvchilar bilan shunday darslar tashkil etganda ularning katta qiziqish bilan mavzuni o`rganib, turli manbalardan ko`proq ma`lumot to`plab faollik bilan uni namoyish etish malakasi mustahkamlanganligi qayd etildi. Nisbatan past o`zlashtiradigan va kam qatnashadigan o`quvchi ham noodatiy uslub hamda real ma`lumotni ko`rib turgandan keyin albatta qiziqishi oshishi, o`z tushunchasini izohlashga urinishi namoyon bo`ldi.

## TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TA'LIMYIY DIKTANTLARNI TASHKILLASH YO'LLARI.

M.Xo'jaqova Xo'jaobod tuman 19-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, tekshiruv diktant orqali dars jarayonida o'rganilgan orfografik-grammatik bilimlarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirgani, ularni yozuv jarayonida tezgina idrok qilib, yozuvda qo'llay olishlari, nazariya bilan amaliyani taqqoslab bir-biriga bog'lay olish ko'nikmalari sinab ko'riladi. Diktant orqali o'quvchilar bilimining puxta tomonlari bilan bir qatorda ularning bilimidagi bo'sh tomonlar ham o'rganish yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'limiy diktant, orfografik xato, ko'ruv diktant, eshituv diktanti

Ta'limiy diktantlar orqali o'qituvchi o'quvchilarga turli tomondan yondoshadi, ularning ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, tartibga soladi, bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Ta'limiy diktantlarning asosiy vazifasi ona tili darolarida olgan orfografik bilimlarni mustahkamlash, tartibga solish, avtomatik xatosiz yozishga o'quvchilarni tayyorlashdan iborat. Shuning uchun ham 1-sinfdan boshlab, 4-sinfgacha ta'limiy diktantlardan sistemali foydalanib turish maqsadsadga muvofiqdir. Biroq ta'limiy diktantning xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir sinfda bu diktantlardan turlicha foydalaniladi.

Ko'ruv diktantlari 1–4-sinflarda erkin qo'llanishi mumkin. Biroq quyi sinflarda tarkibidagi hamma yoki ko'pchilik so'zlarning tuzilishi ko'rsatilsa, 4-sinfdan o'quvchilarga ko'rsatiluvchi so'zlar kamayadi. O'quvchilar so'zshakllarini to'liq tasavvur etishda qiynaladigan yangi so'zlargina ko'rsatiladi.

Eshituv diktanti tovushga qarab shaklini tasavvur qilishni bolalardan talb qilganligi uchun uchun ham ko'ruv diktantidan murakkabroqdir. Shu jihatdan diktantning bu turini 1–2-sinflarda sistemali qo'llab borish talab qilinmaydi. Imlosi ko'rsatilgan zarur so'zlarni bolalar qanchalik yozishni o'rganganliklarini bilish uchun, o'quvchilarning eshituv sezgisini tarbiyalash uchun diktantning bu turidan foydalanish xoli emas. Biroq 3-4-sinflarda eshituv diktanti sistemali o'rkaziladi. Eshituv diktantidan yuqori sinflarda ham so'zlarning grammatik shakllarini yozuvga singdirib borish maqsadida foydalanish yaxshi natija beradi.

Sharhli diktant o'zining o'tkazish metodi, ko'zlagan maqsadiga muvofiq boshqa diktantlardan farq qiladi. Shuning uchun ham 1-sinflarda o'tkaziladigan sharhli diktant keyingi sinflarda diktantning bu turini erkin qo'llashga o'quvchilarni hozirlaydi. Bu diktantni 2-3-sinflarda sistemali o'tkazib borish tavsiya qilinadi, 4-sinfdan ayrim so'zlar imlosi o'rganilgan orfografik-grammatik tushunchalar asosida sharhlanadi.

Suhbat diktanti o'quvchilarni mustaqillikka, o'zlari ikkilangan ayrim so'zlar imlosini aniqlab olishga o'rgatadi. Shuning uchun bu diktantni 4-sinfdan boshlab hamma sinflar o'tkazish mumkin.

Lug'at diktanti hamma sinflar uchun zarur. Bu diktant vositasida bolalar nutqi yangi so'zlar bilan boyib boradi. O'qituvchi imlosi bilan tanishtirtlayotgan so'zning ma'nosini ham izohlab borishi lozim. Ma'nosi o'rganilgan so'zlarning hammasi o'qituvchi o'zi uchun to'plab borsa, shu sinfning orfografik so'z minimumi tayyor bo'ladi, bu keyingi o'quvchilari uchun eng muhim material bo'ladi.

Nutq o'stirishda, bolalar nutqiga tasvir elementlarini singdirishda ijodiy diktant ahamiyatlidir. Ijodiy diktantning sodda formalaridan hatto 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Yuqori sinflarga ko'tarilgan sari bu diktant metodi ham, bolalarga qo'yiladigan talab ham murakkablashib boradi. Ijodiy diktantning turli formalarini 3-4-sinflarda tez-tez o'tkazib turish maqsadga maqsadga muvofiqdir. Chunki ijodiy diktant vositasida bolalarning yozma nutqlari rivojlanadi.

Bundan tashqari, o'qituvchi turli ko'rinishdagi ta'limiy diktantlar yordamida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantiradi. Ularni o'z fikrini yozma ravishda ixcham, aniq, asosli, to'g'ri bayon qilishga o'rgatadi. Diktant xarakteridagi bunday mashqlar tilimizdagi so'zlarning ko'p qirrali tomonlari bilan o'quvchilarni tanishtiradi, o'quvchilar o'z yozuvlarida bu



soʻzlardan oʻrinli foydalanishga oʻrganadilar. Demak, oʻquvchilar oʻz nutqlariga badiiy boʻyoq berish yoʻllari bilan tanishadilar.

Tekshiruv diktant orqali dars jarayonida oʻrganilgan orfografik-grammatik bilimlarni oʻquvchilar qay darajada oʻzlashtirgani, ularni yozuv jarayonida tezgina idrok qilib, yozuvda qoʻllay olishlari, nazariya bilan amaliyani taqqoslab bir-biriga bogʻlay olish koʻnikmalari sinab koʻriladi. Diktant orqali oʻquvchilar bilimining puxta tomonlari bilan bir qatorda ularning bilimidagi boʻsh tomonlar ham oʻrganiladi.

Diktant yozish jarayonida oʻquvchilardan kuchli va barqaror diqqat talab etiladi. Atoqli pedagog K.D.Ushinskiy: «Diqqat tashqi olamdan ruhimizga kirib keladigan hamma narsalarning eshigidir»<sup>33</sup>, — deb taʼriflaydi.

Tekshiruv diktant oʻquvchilar bilimini sinab koʻrishdan tashqari, ularda imlo koʻnikmalarini hosil qiladi: tekshiruv diktantdan avval bu diktant maqsadi qaratilgan mavzu yuzasidan oʻquvchilarda hosil qilingan bilim va iqtidor turli usullar bilan ogʻzaki suhbat, taʼlimiy xarakterdagi turli yozma ishlar oʻtkazish yoʻli bilan sinab koʻriladi. Agar oʻquvchilar bilimining zaif tomonlari sezilsa, uni mustahkamlash uchun tadbiriy choralar izlanadi. Agar diktant xatolarini tuzatish darsigacha boʻlgan davrda bajarilgan ish turlari tekshiruv diktantning sinov xarakterini belgilasa, xatolarni yoʻqotish choralari koʻriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromova R., Gulomova X., Yoʻldosheva SH., SHodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., “Oʻqituvchi”, 2012
2. Jalilova M. Ona tili darslarida oʻqitishning zamonaviy usullari. “ Boshlangʻich taʼlim” jurnali, 2009, 2-son
3. Masharipova U. Oquvchi nutqini oʻstirishda innovatsion usullardan foydalanish. ”Boshlangʻich taʼlim”jurnali, 2014 -yil, 1-son
4. Qosimova K. va b. Ona tili oʻqitish metodikasi. T., “Noshir”, 2009

## **BOSHLANGʻICH SINFLAR BOGʻLANISHLI NUTQ OʻSTIRISH VA UNI EGALLASH USULLARI.**

**M.Yuldasheva, Xoʻjaobod tuman  
4-umum taʼlim maktabi boshlangʻich sinf oʻqituvchisi.**

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada, boshlangʻich sinflar bogʻlanishli nutq oʻstirish va uni egallash usullari.SHu bilan birgalikda oʻuvchularning bilimlarini shakllantirish koʻrsatib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Bayon, sintaktik,bogʻlanishli nutq,ogʻzaki nutq, oʻquvchi,orfografik.grammatika.

Respublikamizda “Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili toʻgʻrisida”gi qonunning joriy etilib, oʻzbek tilini hayotimizning tarkibiy qismiga aylanishi yangi milliy siyosatimizning gʻalabalaridan biridir. Unga ogʻishmay rioya qilish davlat tilida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni amalga oshirish har bir jamiyat kishisi oldiga masʼuliyatli vazifalar yuklaydi.

Til – millatning tengi yoʻq milliy boyligidir. Til mavjud ekan, millat ham zavol koʻrmaydi. Bu haqda Yusuf xos Xojib shunday deydi:

Tilingni avayla – omondir boshing,

Soʻzingni avayla, uzayar yoshing.

Taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning soʻzi bilan aytganda: “Toki tili bor ekan, xalqning umri boqiydir”. Til soʻzlash vositasi nutq sifatida koʻringandagina maʼlum vazifani bajaradi. Xalq maʼnaviy qadriyatlarini tiklanishi va ravnaq topishida hamda boy va goʻzal ana shu qadriyatlar asosida yosh avlodni tarbiyalashda tilning ahamiyati beqiyosdir.

---

<sup>33</sup> К. Д. Ушинский. Танланган педагогик асарлар, Т., 1959, 357-бет.

Ammo fikrlashish, birgalashib ishlash uchun berilgan tilimiz bir necha yillar davomida ko‘rinmas zanjir bilan bog‘lanib kelindi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘nggina, o‘zbek tiliga e‘tibor kuchaytirildi, uning qo‘llanish doirasi kengaydi.

Yoshlar o‘qishda va mehnat jarayonida nimagaki erishsalar, aql-zakovat, kuch va bilim bilan olg‘a intilish tufayli erishadilar. Shubha yo‘qki, bunda nutq odobi, ona tiliga e‘tibor va hurmat asosiy o‘rinni egallaydi. Negaki, bebaho va go‘zal merosimiz, tariximiz butun jahonga ona tili orqali ko‘zko‘zlanadi. Til vositasida kishining odob-axloqi, madaniyati, kamoloti aks etadi. Shunday ekan, ta‘lim-tarbiya maskanlarida davlat tili orqali yoshlarni bugungi kunimizga mos odobli, yuksak madaniyatli qilib, ona Vatanga, ona tiliga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik jamoalarning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Bayon matnini tanlash prinsiplari.

Bayon uchun matn tanlanganda matnning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatiga, mavzusiga alohida e‘tibor berish zarur. O‘qituvchi bayon matnini badiiy asarlardan tanlashi, Vatan, yil fasllari, ijtimoiy mehnat va uning qahramonlari, bolalar va maktab hayoti, tinchlik uchun kurash, Vatan mudofaasi kabi mavzulardan foydalanishi lozim. Bayon uchun tanlangan matnlar ma‘lum darajada soddadan murakkabga o‘tib, rivojlanib borishi kerak.

Mustaqilligimiz qurilishning dongdor kishilari, shonli Vatanimiz fani va san‘atining mashhur namoyondalari va boshqalar hayotidan olingan materiallar va biografik ocherklar, o‘zbek kishilarining qahramonona mehnati, botirligi, jasurligi va fidokorligini o‘zida aks ettirgan badiiy asar va ilmiy ommabop maqolalar o‘quvchilarda bayon yozishga zavq-shavq uyg‘otadi. Ma‘lumki, tasviriy xarakterdagi matnlar rivoya turidagi matnlarga nisbatan qiyinroqdir. I-IV sinflar uchun bayon matnlari tanlashda bu qiyinchiliklarni, bu matnlarning bolalar yoshiga mos yoki mos emasligini, g‘oyaviy, mavzutik mazmunini, hajmini, leksik tuzilishini, janr xususiyatini nazarga olish kerak. IV sinf uchun tanlanadigan bayon matni syujetli hikoyalar yoki badiiy asardan olingan kichik parchalar bo‘lishi ma‘quldir.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma‘noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi.

Bog‘lanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o‘qituvchi bergan savolga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini aktivlashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob – havo kundaligini yuritish;
- 4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi;
- 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
- 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she‘r, hikoya tuzish;
- 8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy – ommabop matn asosida bayon yozish;
- 9) o‘qituvchi bergan matnni og‘zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilari);
- 10) har xil turdagi yozma insho, boshqa ijodiy ishlar.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi, o‘rgatiladi.

Bog‘lanishli nutqqa oid asosiy ko‘nikmalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni o‘stirishdan quyidagi ko‘nikmalarni bilib oladilar:

Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi. Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi.

Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish.

Materialni sistemaga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi.

Fikrni adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi.

Matnni og'zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi.

Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi.

Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqni o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva SH., SHodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., "O'qituvchi", 2012
2. Jalilova M. Ona tili darslarida o'qitishning zamonaviy usullari. " Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2009, 2-son
3. Masharipova U. Oquvchi nutqini o'stirishda innovatsion usullardan foydalanish. "Boshlang'ich ta'lim"jurnali, 2014 -yil, 1-son
4. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSION DARSLAR ORQALI O'QUVCHILAR DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH**

**N.To'ychiyeva Farg'ona shahar  
14-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun integrirlashga e'tibor berish shart. E.Smirnova «Bo'lmasdan egalik qil» maqolasida shunday deydi: «Birinchida quyidagi fanlarni integrirlash mumkin: o'qish, yozuv, tasviriy san'at va mehnat. Faqat o'qish va faqat yozish bolani juda charchatadi va unda salbiy tuyg'ularni uyg'otadi. 1-sinf o'quvchisida birinchi darslardayoq o'qishga bo'lgan istak yo'q bo'lmasligi kerak. Uning ko'zlaridagi uchqun o'chmasligi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan fanlarni tartiblashda o'quvchining o'rganish jarayonini, qiziqishini ushlab turish, faollashtirishga e'tibor beriladi». 2-sinfda o'qish, ona tili, tabiatshunoslik va tasviriy san'at fanlarini integrirlash mumkin. 3-sinfda fanlarni integrallash imkoni bor variantlaridan foydalanish mumkin. Ta'lim tizimida ilgari integrirlangan kurslar borligini unutmaslik kerak. Savodxonlik darslari o'qish va yozuv K.D.Ushinskiy davridanoq integrirlanib o'tiladi. Hozir 1-sinfda yarim yillikda o'qish va yozuvga o'rgatiladi. Sinfdan tashqari o'qish ham integrirlangan. Bunda bir butun jarayon: kitob-o'qish jihozi sifatida, darsda olgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, matn - so'z san'ati sifatida, nutqning rivojlanishi, kitob olami, suhbatdoshlar doirasi sifatida. Azaldan tabiatshunoslik integrirlangan: tabiatshunoslik va geografiya. Matematika asli arifmetika, algebraning elementlari, geometriya, arifmetik materiallar yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga algebrani, geometriyani, mehnat ta'limi o'rganishga asos soladi. Yuqorida aytilgan integrar kurslarni o'qish - ona tili, o'qish - tabiatshunoslik, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tasviriy san'at, o'qish - tabiatshunoslik - tasviriy san'at, ona tili - o'qish -tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — mehnat, ona tili -tabiatshunoslik - tasviriy san'at kabilarga birlashtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi, mavzu

asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolaning mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ona tili, o'qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, "Kuz" mavzusi o'tilsa, mavzu o'qiladi, tushuntiriladi, hosil yig'ib olishga doir masalalar yechiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Masalan; Bog'da o'quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo'lib necha kg olma terishdi?  $35+45=80$  javob: 80 kg. Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o'zida kuz haqida o'rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizadilar, kuz mevalari haqida masala yechadilar. Shunday qilib, o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo'lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol yechish, narsalar yasash - bularning hammasi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi ( mavzu jihatdan ) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integrirlangan darslarga o'tish oson, chunki bir o'zi hamma fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang'ichda integratsiya imkonlari chegaralangan. Boshlang'ich ta'limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish kerak. Boshlang'ich ta'limda integratsiya «oz - oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi. Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Lekin 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Chunki integratsiya mavjud mavzuni kengaytiradi, chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, ularning bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O'quvchilar mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi yetmasligi mumkin. O'z navbatida o'qituvchiga juda ko'p talablar qo'yiladi. Integrirlangan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003 y.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000 y.
3. Yo'ldoshev J. Xorijda ta'lim. Integratsiyalashgan va maxsus kurslar. T, «Sharq» 1995.
4. Asqarova O'., Egamberdieva G. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. Namangan-2007 y.
5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi., T: "ILM ZIYO" 2009 y.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI O'STIRISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

**N.Tojimatova, Qo'rg'ontepa tuman  
33-maktab ingliz tili o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Bolalar nutqi, og'zaki nutq, faol lug'at, adabiy til normasi, tasavvur, tushuncha, lug'at.

Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv demakdir. Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini tarbiya jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining sub'ekti ya'ni faol ishtirokchisi, o'qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o'quvchi faol ishlovchi shaxs bo'lib, u butun mashg'ulot jarayonida egallangan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo'llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma'lumdan noma'lumga qarab boradi.

Pedagogik texnologiya ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o'tishda eng asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitishda quyidagilar ta'limning asosiy parametrlari hisoblanadi:

1. Butun o'quv vaziyati boshqarish ob'ekti sanaladi.
2. Ta'limni boshqarish maqsadli bo'lib, o'quvchining mohiyatli, ma'naviy va ruhiy kuchlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.
3. Ta'lim jarayoni demokratik, rag'batlantiruvchi uslubda bajariladi.
4. Ta'lim jarayonining zaruriy sharti o'quvchining shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi shaxsining ochiqligi, ularning hamkorligi, o'zaro ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

1. Muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.
2. Umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmeti modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish.
3. Modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish.
4. Maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarini belgilab olish.
5. Dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritilmoqda.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni



rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Uning asosiy (texnologiyasi) g'oyasi o'quv topshiriqlar va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechimiga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish darsda erkin bahs munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllarini, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llab borishi lozim. Masalan, "Qadam-baqadam" dasturi asosida haftada 2-3 marotaba mujassam darslarini tashkil etish mumkin. Mujassam darsda bir nechta fan qo'shib bitta mavzuga yo'naltiriladi. O'quvchilar bu darsda har bir markazda aylanib ishlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qiyasova Q. Til darslarida o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. T., 2003 -yil, 5 -son
2. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009
3. Qosimova K., Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2006.

## TA'LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNING MOHIYATI

O.M. Nizomova Paxtaobod tumani  
4- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* mazkur maqolada boshlang'ich sinf dars jarayoniga texnologik yondashuv mohiyati, xususan multimedia, multipedagogika atamalarining kirib kelishi, ulardan o'rinni foydalanish, taqdimotlarni rejalashtirish, ishlab chiqish, sinab ko'rish haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* multimedia, multipedagogika, "POWER POINT" dasturi, taqdimotlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekistan Respublikasida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish muammosi chusur tahlil etilib, pedagogik texnologiya nazariyasining metodologik va umumiy asoslari ishlab chiqildi. Xususan, ta'lim jarayoniga texnologik, tizimli hamda innovatsion yondashuv tamoyillari, turlari, bosqichlari, mazmuni; pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari va vositalari; o'quvchi shaxsini faollashtiruvchi texnologiyalar; ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyalari; loyihalash strategiyalari; interfaol metodlar va ularning tavsifi; fanlarni o'qitish va tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash kabi yo'nalishlarda qator ilmiy tadqiqotlar, amaliy ishlar olib borildi. Ushbu jarayon ayni vaqtda ham davom etmoqda Bugungi kunda ta'lim tizimiga multimedia, mediapedagogika atamalari kirib kelmoqda. Multimedia (inglizcha multimedia, lotin tilidagi multum - ko'p va media, medium — vosita) — bir necha xil ko'rinishlarga ega elektron axborot (matn tasviri, animatsiya, audio hamda video tasvir)lar majmuasidir. Mediapedagogika yangi pedagogik texnologiyadir, u ommaviy axborot vositalari yordamida o'quvchilarni axborotni qiyoslab mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Mediapedagogika resurslariga multimedia, kompyuter, internet, TV va radio, kino, video, audio fayllar, elektron taqdimotlar kiradi. Internet bepoyon axborot ummoni bo'lib, yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlari majmuidir.

Davrimiz jadal rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiya-larining fan-texnika, iqtisodiyotning turli sohalariga keng tatbiq etilayotganligi bilan xarakterlanadi. Ta'lim tizimida turli fanlar qatori ona tili va o'qish darslarida ham taqdimot texnologiyalaridan keng foydalansa bo'ladi. Axborot texnologiyasi vositasida dars o'tishning ushbu turi eng oddiy va qulay usulda, ya'ni mashg'ulotda ko'rgazma sifatida taqdim etishni nazarda tutadi. Bu usulda dars o'tish uchun o'qituvchi kompyuter, multimedia proektori, AKTning —POWER POINT dasturi asosida yaratilgan slaydlar kerak bo'ladi. Pedagogik faoliyatda slaydlarni tasniflash lozim. Taqdimotni yaratish uch bosqichdan: rejalashtirish, taqdimotni ishlab chiqish va uni sinab ko'rishdan iborat. Yuqoridagilarning barchasi dars turidan, ya'ni darsning mustahkamlovchi yoki yangi bilim beruvchi ekanligidan kelib chiqadi. Taqdimotni rejalashtirish — bu maqsadni aniqlash, foydalaniladigan materiallarni o'rganish, materialning mantiqiy jihatlari ustida ishlash, taqdimot tartibini aniqlashni o'z ichiga olgan bir necha bosqichli jarayondir. Taqdimotni ishlab chiqish — matn va grafik ma'lumotlarning mazmuni, mohiyatini aniqlash, tahlil etish hamda taqdimot slaydlarini tayyorlashning metodologik xususiyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Slaydlarni axborotlar bilan to'ldirishda, materialni yaxlitlikda ko'rsatish uchun material qismlarini muhimlik darajasiga ko'ra muayyan ketma-ketlikda ko'rsatish ko'zda tutiladi. Taqdimotni sinab ko'rish - bu yaratilgan —mahsulotni tekshirish va kamchiliklarini to'g'rilashdan iborat. Bunda materialni qanchalik muvafaq-qiyatli rejalashtirib, slayddan slaydga mazmuniy jihatdan qanchalik to'g'ri o'tkazilgani tekshiriladi. Taqdimotning samaraliligi belgilangan maqsadga qanchalik erishilayotganligi bilan belgilanadi.

Taqdimotni tayyorlashda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- maqsadni aniqlash;
- foydalanuvchilarning bilish darajasiga qarab taqdimotning asosiy g'oyasini aniqlash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni tanlash; taqdimot tuzilmasini tuzish;
- materialni foydalanuvchiga yetkazish mantig'ini aniqlash;
- xulosani tayyorlash.

O'qituvchilar ko'pincha taqdimotni tayyorlashda asosiy e'tiborni taqdimotning mazmuniga qaratib, uning maqsadini e'tibordan chetda qoldiradilar. Masalan, 3-sinfda "Ot" mavzusini o'tib bo'lgach, elektron taqdimotni ikki xil yo'nalishda o'tkazish mumkin:

1) birinchi taqdimotni "Ot" mavzusi bo'yicha grammatik topishmoqlar asosida tuzish mumkin. Unda ot so'z turkumi haqidagi topishmoqlar beriladi va o'quvchilar taqdimotdan topishmoqni o'qib javobini topadilar. Bu taqdimot slaydlari o'quvchilarning bilish darajasi va qiziqishlariga qarab tayyorlanadi.

2) Ikkinchi taqdimot esa "Savolnoma" deb nomlanib, uni taqdim etish jarayonida o'quvchi bevosita ham ishtirokchi, ham baholovchi sifatida qatnashadi. Bunda avval slaydda savollar chiqadi, o'quvchi javob berib bo'lgach esa javoblar chiqadi. o'quvchi nechog'liq to'g'ri javob berganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu taqdimot olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlariga bag'ishlangan bo'lib, u 6 slayddan iborat. Ko'rinib turibdiki, taqdimot jarayonida o'quvchi namoyish qilish metodining faqat tomosha qiluvchisigina emas, balki mushohada qiluvchi ishtirokchisi, baholovchisi hamdir. Bunday taqdimotni o'tkazish dars sifatining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. 2003 yil. Toshkent.
2. Boychiboyeva M. Boshlang'ich sinflarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish —Xalq ta'limi jurnali. №: 1.2018 yil.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: Moliya, 2003-
4. Saidov T. Ilg'or pedagogik texnologiyaning mazmun- mohiyatini —Aqliy hujum usuli bilan o'qitish texnologiyasi. Toshkent, 2003 yil.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSION DARSLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

F.M.Qo'chqarova,  
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
33-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshirish, vaqtdan unumli foydalanish, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. boshlang'ich ta'limda bolalarga so'z birikmasini o'rgatish, fikr elementi ustida ishlash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Integratsiya, boshlang'ich ta'limda, modernizatsiyalash, fanlararo aloqalar, ona tili, o'qish, matematika.*

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Integratsiya jarayonini o'rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quidagi fikrlarni bildirgan: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, huddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Yuqorida aytilgan integrar kurslarni o'qish — ona tili, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — tasviriy san'at, ona tili — o'qish — tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — mehnat, ona tili — tabiatshunoslik — tasviriy san'at kabilarga birlashtirish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi, mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolaning mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ona tili, o'qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, "Kuz" mavzusi o'tilsa, mavzu o'qiladi, tushuntiriladi, hosil yig'ib olishga doir masalalar yechiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Masalan; Bog'da o'quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo'lib necha kg olma terishdi?  $35+45=80$  javob: 80 kg. Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o'zida kuz haqida o'rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizadilar, kuz mevalari haqida masala yechadilar. Shunday qilib, o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo'lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol yechish, narsalar yasash - bularning hammasi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi ( mavzu jihatdan ) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integrirlangan darslarga o'tish oson, chunki bir o'zi hamma fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang'ichda integratsiya imkonlari chegaralangan. Boshlang'ich ta'limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish kerak. Boshlang'ich ta'limda integratsiya «oz - oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi. Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Lekin 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Chunki bolaning bilim zapasi ko'p emas, grammatik, matematik va texnik ko'nikmalari shakllanib ulgurmagani. Chunki integratsiya mavjud mavzuni kengaytiradi, chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, ularning bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O'quvchilar mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi yetmasligi mumkin. O'z navbatida o'qituvchiga juda ko'p talablar qo'yiladi. Integrirlangan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matонат, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003 y.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000 y.
3. Yo'ldoshev J. Xorijda ta'lim. Integratsiyalashgan va maxsus kurslar. T, «Sharq» 1995.
4. Asqarova O', Egamberdieva G. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. Namangan-2007 y
5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi., T: "ILM ZIYO" 2009 y.

## **BOSHLANG'ICH SINFD A INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO'NALISHLARI.**

**M.S.Qoraboyeva**

**Andijon viloyati Asaka tuman 49-umumta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Bilganlarimizning cheki bor,  
bilmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q.  
P.Laplas*

*Maqolada boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning yo'nalishlari haqida so'z borgan.*

*Tayanch so'zlar va tushunchalar: integratsiya, fanlararo integratsiya, qobusnoma.*

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatda bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'lida. Mustaqil fikrlash esa kata boylikdir. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun zamon talablariga javob bera oladigan oliy ma'lumotli o'qituvchilarini malakasini oshirish uzluksiz ta'limning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantirish ko'p jihatdan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, ayniqsa, uni integratsiyalashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtirish, o'zi va o'rganuvchilar uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va

vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda o'quv jarayoni samaradorligini integratsiyalashtirilgan ta'lim orqali rivojlantiradi. O'quvchilarni fanlararo aloqadorlikka, mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishishga harakat qiladi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan korishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o'quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarni ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi Integratsiyalab o'qitish o'quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobilyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni o'tkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich sinf darslaridayoq amalga oshirishi kerak. Endi boshlang'ich sinf darslari misolida ko'rib chiqsak. Inson va jamiyat. Inson va jamiyat sohasiga Odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya. bu fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Nutq o'stirish -harflari to'g'ri talaffuz etish va yozish, so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon obrazli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o'qib tushuna olish kabi talablarni o'z ichiga oladi. Deyarli har bir darsniig maqsadi nutq o'stirishga qaratilgandir. Asosan ona tili va o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar nutq o'stirish bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lsalar, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida uni mustahkamlab, to'ldirib boradilar. Tabiatshunoslik darsida ya'ni-fanida 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O'zbekistonning geografik o'rni, o'rmonlari, hayvonot olami, er osti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi

Masalan, 3-sinfning odobnoma darsida 4-darsning mavzusi «Qarilik donolik» (1 soatlik) berilgan. Bu darsda o'qituvchi «Qobusnoma» kitobini ko'rsatib, undan qariyalar haqida, «Qarilik va yigitlik sifati zikrida» bobi o'chib beriladi va muhokama etiladi. Xalq maqollaridan misollar keltirib, ahloqiy tarbiya beriladi. O'qish darsligining deyarli ko'p mavzulari ahloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 - sinfning o'qish darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom-salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavrida salomlashish kerak, deb so'rasalar, yetti holatda deb javob bergin. Avvalo yoru do'stlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni ko'rganda salom berishing lozim deb ko'rsatib o'tilgan 4-sinf matematika darsligini ko'rib chiqsak, bunda matematik terminlar orqali, o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki demak fanlararo integratsiya mavjud, ya'ni fanlararo uzviylik bog'liqlik mavjud. Chunki, har bir fanning maqsadi, shuki bolalardagi nutq o'stirish, ahloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya kabi ijobiy sifatlar barcha fanlarda o'z aksini topgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova M, Hamraqulova X, Tojiboyeva R. "O'qish" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik "Oqituvchi" nashriyot-matbaa 2019
2. M.Holiqova,SH.Ergasheva "Odobnoma" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik "Toshkent" 2019

## **BOLALARDA VATANPARVARLIK, INSONPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH**

**F.M.Qurbonova**

**Buloqboshi tumani 43-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularda ulug' ajdodlarimizga nisbatan faxr va iftixor tuyg'ularini o'stirish borasida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, ajdodlar, davlat ramzlari.*

O'zbek xalqi o'z mustaqilligiga erishganidan buyon yoshlarimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanga etiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz mazmuniga aylanmoqda. Bu borada ota-bobolarimiz ishlaridan faxrlangan holda, ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq qilish, puxta o'rganish, hayotimizga tabiiq qilish muammosi qad ko'tarib turibdi.

Insonda eng yuqori ma'naviy hislardan bo'lgan, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bularni bir-biridan ajratib qarash qiyin. Bular bir-birining zamirida paydo bo'luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi omillar hisoblanadi.

Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr – muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Bolalarga Vatan tushunchasini singdirish orqali vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy qismidan biri bo'lib hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik-insonparvarlik tuyg'ularini o'stirish va shakllantirishning qator shakl va metodlarini ko'rsatish mumkin:

- Vatanga mehr-tuyg'ularini shakllantirishda qator o'zbek adiblarining asarlari, she'rlari va xalq og'zaki ijodi, ya'ni xalqimizning ma'naviy ijodidan foydalanish mumkin. Masalan: "Bo'taloq" (M.Muhammad), "To'ng'iz nima deydi" (O. Abdurahmonova), "Ayiqcha" (A. Bartov) "Adajon hormang", "Uch yoshlilar" (A.Obidjon), xalq og'zaki ijodidan "O'tirsin-o o'tirsin", "Barmoqchalar", "G'ozim bor-g'ozim bor" "Buvijonim" kabi she'rlarini yodlatish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

- Millatimiz va vatanimiz buyuk siymolarining suratlarini ko'rsatish (A.Navoiy, Z.M.Bobur, A.Temur, M.Ulug'bek, J.Manguberdi ) va ular haqida bolalarga so'zlab berish. Ularning Vatanimiz ozodligi, obodligi yo'lida qilgan samarali mehnatlari, mashaqqatlari haqida so'z yuritish orqali bolalar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, fahr-iftixor tuyg'ularini shakllantirish;

- Bolalarda harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda milliy armiyamiz va O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi, gerbi, bayrog'i, bir so'z bilan aytagan davlat ramzlari haqida so'zlab berish, suratlar, qisqa video roliklarni amalda qo'llanilishi.

Xulosa sifatida yuqoridagi mulohazalarni umulashtirsak, mazkur yosh davrida bolada sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, xotira kabi bilish jarayonlari rivojlana boshlaydi bu yoshda biz bolani ichki dunyosini qanday boyitsak, u shu olamda yashaydi va kamol topadi. Shunday ekan kelajagimiz egalari bo'lmish beg'ubor bolalarimizning kelajagi qanday shaxs bo'lib voyaga yetishiga befarq bo'lmasak, ularning ma'naviy dunyosini boyitib kamolga yetkaza olsak, biz har tomonlama yetuk, intellektual, vatanparvar, barkomol shaxslar bo'lib yetishishiga erishgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mutaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. Toshkent. Sharq nashriyoti 1998-y. 198 bet
2. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. Toshkent.Sharq nashriyoti. 1998-y

## INTERFAOL METOD VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.

**Z.Rahimova**

**Jalaquduq tumani 1-umumta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

***Annotatsiya:** Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohatlarimizning markazida o'quvchining ta'lim jarayonining sub'ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta interfaol usullarni qo'llash orqali erishiladi. Interfaol usullar bu - o'quvchi va o'qituvchi hamda o'quvchilar aro o'zaro birgalikdagi harakatdir.*

***Kalit so'zlar:** Interfaol metod, innovatsion texnologiya, shaxsning rivojlanishi, samaradorlik, guruh, hamkorlik.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy shaxsga aylanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda darslarning samaradorligini oshirishda zamonaviy o'qitish usuli hisoblangan interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Interfaol ta'limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta'limning interfaol metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi.

Interfaol ta'lim asosini o'quvchilarning guruhlarda hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etish bilan bog'liqlikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnologiyasini tarkib toptirish muammosining ijobiy hal etilishi – ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati borasida ma'lumotlarga qanchalik egaligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatining shakllanganligi, shuningdek, mazkur umumiy ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirilishiga nisbatan e'tiborning qaratilayotganligiga bog'liqligi va bu muammo hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mana shu masalalardan kelib chiqqan holda quydagicha xulosalarga kelindi:

Birinchidan, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy zarurat hisoblanib, bu jarayondaboshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar alohida o'rin tutadi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llash kutilgan natijalarni beradi.

Uchinchidan, boshlang'ich sinflarda olib boriladigan mashg'ulotlarda noan'anaviy shakl, metod va vositalardan muntazam foydalanish boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llash, jarayonida o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

Beshinchidan, o'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi. O'quv jarayonida - o'quvchining o'z -

o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

Oltinchidan, har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilish imkonini beradi.

Keltirilgan fikrlarga asoslanib, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- o'qituvchi, o'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;

- o'quv jarayonida o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlar doimiyligini ta'minlashi;

- o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- jamiyatning sog'lom, raqobatbardosh va ijtimoiy faol yoshlarga qo'yayotgan talablari asosida boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarni qo'llashning maqbul tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;

- maktab o'qituvchilari jamoasida ustoz-shogird tizimini rivojlantirish asosida tajribalar almashish;

- ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida tadqiqot doirasida maxsus eshittirishlar, video roliklar, ijtimoiy loyhalarni ishlab chiqish va namoyish etish;

- pedagog va o'quvchi, talabalarning doimo hamkorlikdagi faoliyati tashkillashtirilishi borasidagi mavjud mazmunini, shakl va metodlari tizimiga innovatsion o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Avliyokulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.

2. Azizxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama -rejalar). – Toshkent, 2002

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIA FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Sh. I. Sherqo'ziyeva**  
**Marxamat tumani 16- maktab**  
**boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada multimedia vositalaridan foydalanib kompyuter asosida o'qitish, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili qilish, animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi haqida fikr bildirilgan.*

Jahonda zamonaviy ta'limning xarakterli tomoni shundaki ta'limni axborotlashtirish va axboriy jamiyatning ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi ta'limida ham ro'y bermoqda, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati «axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jaxon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan».

Ushbu holatlar kadrlarni tayyorlash tizimida informatika fanining o'rnini muhimligini ko'rsatib beradi. Informatikaning asosiy tushunchalaridan biri – bu axborot- kommunikatsiya texnologiyasidir. Texnologiya grek tilidan (techne) tarjima kilganda san'at, maxorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni davomida kompyuter jihozlarni joriy etish faol ravishda olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish yanada jozibador va qiziqarli bo'lib kelmoqda. Kompyuter va multimediali vositalar ularni yangi bilimlarga ega bo'lishga intilishga



ilhomlantirishi va rag'batlantirishi uchun mo'ljallangan. Axborot texnologiyalari, o'quv ma'lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi, bolaning motivatsiyasini kuchaytirishga imkon beradi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish (ranglar, grafikalar, audio, zamonaviy video uskunalari) turli vaziyat va muhitlarni simulyatsiya qilishga imkon beradi.

Multimedia dasturlariga kiritilgan o'yin tarkibiy qismlari talabalarning bilim olishlarini faollashtiradi va o'rganishni kuchaytiradi. Interaktiv va multimediali vositalar taqdim etilayotgan bilimlardagi materiallarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi, bolaning yangi bilimlarni egallash uchun motivatsiyasini oshirishga imkon berdi. Axborot texnologiyasi bu - ob'ekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagib ma'lumotlarni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatdan mutlaq yangi ko'rinishga bkeltiruvchi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, uzatishning vosita va usullaridan foydalanish jarayonidir. Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- ichki omillar - axborotning paydo bo'lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborot bilan turli amallarni bajarish, uni jamlash, uzatish, saqlash va hokazo;

- tashqi omillar - axborot texnologiyasining texnik-uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyasining mazmunini quyidagi oddiy misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Siz biror ma'lumot haqida boshqa bir viloyat (respublika, qit'a)da yashovchi o'rtog'ingiz bilan fikr almashmoqchisiz deylik.

Buni turli yo'llar orqali amalga oshirishingiz mumkin. Siz o'rtog'ingizga o'z fikringizni (o'z navbatida, o'rtog'ingiz ham sizga javoban) quyidagi usullar orqali yetkazishingiz mumkin:

- 1) aloqa bo'limi orqali (yozma ravishda);
- 2) telefon tarmoqlari orqali (og'zaki, yozma (SMS, faks));
- 3) zamonaviy elektron vositalar (Internet) orqali.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu usullardan foydalanish natijalari turlicha bo'ladi va natijalarga qarab qaysi usuldan foydalanishni o'zingiz belgilab olasiz. Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

Hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda:

- o'rganish ob'ekti sifatida;
- o'qitishning texnik vositalari sifatida;
- ta'limni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchilar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umarov T. Kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiiq qilishda duch kelinadigan qiyinchiliklar. Xalq ta'limi. 2006 yil.5-son.
2. Xayitov A. Ta'limni sinf-dars tizimi asosida kompyuterlashtirish. —Xalq ta'limi 5-son 2006 yil.
3. Shodiev R. Axborotlashtirish jarayoni va uning ta'limdagi o'rni. —Xalq talimil 5-son 2006 yil.

## **BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT BILAN BOG'LIQLIGI**

**M.M.Siddiqova**

**Baliqchi tumani 13-umumta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib kelganligi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit sozlar:** *alla, maqol, topishmoq, tez aytish, ertaklar.*

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor berib, mana bunday deb yozadi, - Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin, - deydi va u o'z fikrini davom ettirib yozadi, - Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviy chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qavm-qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng... Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, o'qib, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi bilan yozma adabiyotdan ajralib turadi.

Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchog'lari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovunmachog'lar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi.

Bolalar adabiyoti, nazarimizda, hayotning o'zi qadar qadimiy bo'lib, onaning birinchi bolasiga aytgan ilk allasidan boshlanib, xalq og'zaki ijodida bolalarning tili burro bo'lishiga yo'naltirilgan tez aytishlar, fikrini, zehni charxiashga yo'naltirilgan topishmoqlar, o'yin qo'shiqlaridan masallar-u enaklargacha bo'lgan qanchadan qancha aynan bolalarga mo'ljallangan janrlar tarzida namoyon bo'ladi. Aslida esa ularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamoloti manfaatlariga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotimizda ham. garchand, bizning bugungi "bolalar adabiyoti" tushunchamizga u qadar mos kelmasa-da, farzand ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan "pandnoma" janrining ko'plab namunalari azal-azaldan mavjud. Zero, bola bor ekan, uning komil inson bo'lib yetishuviga xizmat qiladigan adabiyot ham bo'lmog'i aniq.

Ma'lumki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib. ular. dastavval, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa ijodkordan ulkan mahoratni talab qiladi va, shu boisdan ham, barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Ungacha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida. jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlar tavsiya qilingan.

Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. YAxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi.

Alisher Navoiy «Mahbubul qulub»da tilni «ko'ngil xazinasining qulfi», deb ta'riflaydi. Buyuk shoir kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir.

Demak, bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi. 1977
2. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – T.: «Fan», 2004.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – T.: O'qituvchi, 2006.

### **3-SINFLARDA SO'Z TARKIBINI O'RGANISHDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

**D.M. Sotvoldieva, D.A. Qo'shmaqova - Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani 1-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

**Annotatsiya:** Maqolada, O'quvchilarni so'z yasash xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ko'rsatmalilik, kichik yoshdagi o'quvchi, ona tili, o'qish didaktik o'yinlar.*

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so'zning morfemik tarkibi 3- sinfda o'rganiladi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi. Avvalo, til materialini o'rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini o'rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o'zaro bog'lanishdagi bilimlar yig'indisini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So'zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim so'z yasashiga oid va grammatik bilimlarni o'zlashtirish:

- a) dastur materialini o'rganish tizimida so'zning morfemik tarkibini o'rganishning o'rni bilan;
- 2) “o'zak”, “o'zakdosh so'z”, “so'z yasovchi qo'shimcha”, “shakl yasovchi qo'shimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan;
- 3) so'zning morfemik tarkibi va so'z yasashining o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi bilan;
- 4) morfemalarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bog'liqligini belgilab beradi.

O'quvchilarni so'z yasash xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi *chegara* otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (*chegarachi*). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'quvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, *balig* so'zidan –*chi* qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash (*baligchi*), uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday ma'no anglatishi va qaysi so'z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasashi usuliga asoslaniladi. Masalan:

1. O'zakdosh so'zlari bo'lgan matnni leksik – so'z yasashi tomonidan tahlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn diktovka bilan yozdiriladi:

*Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek ochiladi.*

O'qituvchi rahbarligida bir o'zakdosh so'zdan boshqasi qanday morfema yordamida yasalgani, u qaysi so'z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan soʻzni oʻzakdosh soʻz bilan almashtirish.

*Topshiriq.* Ajratib koʻrsatilgan soʻzga oʻzakdosh boʻlgan bir soʻz toping. Uning qaysi soʻz turkumiga kirishini ayting va uni soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling.

– Olma daraxti koʻp joy (*Olmazor*)

– Bogʻ yaratadigan va uni parvarish qiladigan kishi (*Bogʻbon*)

– Gul solib qoʻyiladigan idish (*Guldon*)

Oʻquvchilar oʻqituvchi yordamida shu soʻz qaysi soʻzdan va qanday qoʻshimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil soʻz turkumiga kiradigan oʻzakdosh soʻzlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. Soʻz yasashga doir vazifalar:

– *Oq, ish* soʻzlaridan *-la, -chi* qoʻshimchalari yordamida yangi soʻzlar yasang. Berilgan va siz yasagan soʻzlar qaysi soʻz turkumiga kirishini ayting va fikringizni asoslang.

– *Ish, suv* otlaridan oʻzakdosh otlar yasang. Soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz soʻzning qaysi qismidan foydalandingiz?

– *chiz, oʻr* feʼllaridan oʻzakdosh otlar yasang. Otlarni soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling. Feʼldan ot yasash uchun qanday qoʻshimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar oʻquvchilardan soʻz yasalishi xususiyatlariga, soʻzlarning morfemik tarkibiga eʼtibor berishni talab etadi va soʻzning morfemik tarkibi shu soʻzning muayyan bir soʻz turkumiga oid ekani bilan bogʻliqligini aniqlashga qaratiladi. Boshlangʻich sinflarda u yoki bu soʻz turkumining yasalishini kuzatish propedevtik xarakterda boʻladi, uning natijasi mashqning mavzuni oʻzlashtirish maqsadiga qaratilishi, darsda faol va individual ishlarni toʻgʻri uyushtirish, foydalanilgan leksik materialning oʻquvchilar saviyasiga mosligi va koʻrgazmalilikka bogʻliq.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning biror morfemani qay darajada oʻzlashtirganini ularning morfemik tarkibi bolalar saviyasiga mos soʻzlardagi morfemalarni ajratish koʻnikmasiga, oʻzak va shakl yasovchi qoʻshimchadan yo oʻzak va soʻz yasovchidan, yoki oʻzak, soʻz yasovchi va shakl yasovchidan tuzilgan soʻzlarni mustaqil tanlay bilishiga, soʻzdagi morfemalarning rolini soʻz bilan tushuntirish koʻnikmasiga, gapda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni toʻgʻri ishlatish koʻnikmasiga qarab aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich taʼlimda 3-sinflarda soʻz tarkibini oʻrganishda topshiriqlar bilan ishlash dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Topshiriq oʻquvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni mehnat faoliyati va mustaqil turmushga tayyorlashda muhim rol oʻynaydi. U topshiriq orqali oʻquv qiyinchiliklarini sabot va matonat bilan yengishga, mustaqil ishlash va oʻz bilimini mustaqil oshirib borishga oʻrganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gʻulomova X., Yoʻldasheva Sh. Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi. Maʼruza matnlari T., 2006.

2. Qilichov A. Oʻqitishning samarali usuli // Boshlangʻich taʼlim jurnali, 2017-yil, № 3.

## **BOSHLANGʻICH TAʼLIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

**I.I.Toʻraqulov, Fargʻona viloyati XTXQTMOHM**

**Maktabgacha, boshlangʻich va maxsus taʼlim metodikalari kafedrasi oʻqituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada, Boshlangʻich taʼlimning asosiy vazifalaridan biri oʻquvchilar nutqini oʻstirishdir. Nutq oʻstirish uch yoʻnalishda: soʻz ustida ishlash, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash, bogʻlanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** *Bolalar nutqi, ogʻzaki nutq, faol lugʻat, adabiy til normasi, tasavvur, tushuncha, lugʻat.*

Bugungi kunda taʼlim sifatini oshirish, boshlangʻich taʼlimni oʻqitish metodikasini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmonida

“uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash” vazifasi alohida ahamiyatga ega. Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz.

Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil tarif berilganligi ma’lum. Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimiy uslubidir». Pedagogik texnologiyaga olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni umumlashtirsak, pedagogik texnologiyaning metodologik sifatleri sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: texnologik sxema, ilmiy asos, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, takrorlanuvchanlik.

Sharqda buyuk alloma Ibn Sino ta’lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi:

- o‘qitishda oddiydan murakkabga qarab borish; bolaning qobiliyat va mayllarini e’tiborga olish;

- bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish; ta’limni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borilishi.

Bolaga ta’lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog‘lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo‘lmog‘i lozim. «Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi»da boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qiyofasi quyidagicha ta’riflanadi: «...eng muhimi balalarda o‘qish, o‘rganishga chinakkam xavas, ishtiyoq uyg‘otuvchi, e’tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o‘rin tutadi.....O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo‘lishi; bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi; nutqi ravon, xalq tili boyligi ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me’yorini to‘la egallagan bo‘lishi» zarur. Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun yetarli bo‘lib kelgan.

Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi qoniqarsiz deb baholangan. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta’rif va tavsiflarning noaniqligi, ta’lim jarayonlarini tavsiflovchi ba’zi kategoriyalarning yetishmasligi, ta’lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o‘qitish vositalari o‘rtasida o‘zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan «metodika» tushunchasi yuqori darajadagi sub’ektivlikka ega ekanligi ta’kidlanadi. Haqiqatda esa ta’lim natijalari o‘quvchining pedagogik jarayonlaridan muvaffaqiyatli «o‘tganligi» bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonning mohiyati - o‘qituvchi hamda o‘quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o‘quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalandi. Pedagog axborotlarni e’lon qilish, ko‘rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo‘naltirish, haqqoniy lashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rinishlarda yordam beradi. O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin: dastlab o‘quv materiali mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (o‘zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etiladi. So‘ngra, o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o‘qitish vositalarining ro‘yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta’lim vositalarining yaxlit tizimi Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga

yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma‘lum tartibga solingan to‘plami sifatida aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki, natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta‘limning zamonaviy texnik vositalari va ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo‘lib, ikkinchi talqin, ta‘lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolatlangan natijaga erishishini ta‘minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A., Ishmuxamedov R., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste‘dod, 2008.

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil.

3. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. Metodik uslubiy qo‘llanma – T.: 2017 y.

### **BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI.**

**M.M.To‘rayeva Asaka tumani**

#### **56-umumta‘lim maktabi Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida tadbiiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar ta‘lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogic texnologiya, motiv, didaktik o‘yin.

Yurtimizda ta‘lim mazmuniga alohida e‘tibor qaratilib, yangi tahrirdagi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o‘quv dasturi bo‘yicha o‘quvchilarda bir necha hil kompetensiyalar shakllantirilishi talab etilmoqda. O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birgalikda o‘quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar ta‘lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi.

Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta‘lim davri ta‘lim jarayonidagi eng mas‘uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta‘lim jarayonini qiziqarli, ta‘sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya‘ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta‘lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta‘lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi. o‘qish motivlari ta‘lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi.

Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta‘limning samarali borishiga o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya‘ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bolgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bolishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir korsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u

Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha- sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ziyomhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya. T., 2009-yil
2. Tolipov O', M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005-yil.

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANISHIGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI**

**A.N.Toshpo'latova**  
**Paxtaobod tumani 18-umumta'lim maktabi**  
**boshlang'ich sinf o'qituvchi**

*Annotatsiya; Darslarda ijobiy emotsional holat – bu yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va rivojlanishidagi asosiy faktorlardan biridir. O'quvchilarda bunday qobiliyatlarni*

*rivojlantirilish muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalarni ado etishda turli mashqlardan foydalanish yaxshi natija beradi.*

**Kalit so'zlar:** mantiqiy tafakkur, xotira, emotsiya

Bolalarning xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo'ljallangan bir nechta mashqlarni quyida keltirib o'tamiz. O'quvchilarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirilishi o'quv matnlarini ma'no jihatidan qayta ishlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Matn rejasini tuzish uchun, uning har bir qismidan asosiysini ajrata bilish, mazmunini topish, ularni eslab qolish kerak.

Bunday mashqlarni turli darslarga kiritish mumkin, ular ko'p vaqtni olmaydi. Lekin ularga shu darsning o'zida yoki keyingi darsga qaytish lozim bo'ladi. Bolalar nima o'ylab topganlarini eslashlari va yana bir marta o'z javoblarini daftarlariga yozishlari kerak bo'ladi, xotira shu tarzda rivojlantiriladi.

Holatdan kelib chiqib, bu mashqlarni bajarishda musoboqa elementini kiritish ham mumkin: masalan, kim ko'p to'g'ri javobni keltirdi, kim tog'ri hisobladi va shu kabilar. Buni faqat ehtiyotlik bilan olib borish kerak: oldingi o'rinda har doimgi bolalar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bolalarni erishgan yutuqlarini taqqoslashga o'rgating, bolani har bir oldinga qarab siljishini u sezilarli bo'lmasada qayd eting. Bolalar uchun har doim muvaffaqiyatli holatni tashkil etish lozim.

Darslarda ijobiy emotsional holat – bu yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va rivojlanishidagi asosiy faktorlardan biridir.

Turli mashqlar asosida o'quvchilarning faolligi oshadi va ularda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

#### **“Tanish maqol” mashqi**

O'quvchilarga shifrlangan maqollar taklif etiladi: unda har bir maqol ikkita qismga ajratilgan, ularning har birining o'z kaliti mavjud. O'quvchilar maqolni to'liq aniqlab, shifrlarini ochishlari kerak bo'ladi. Duskada kalit yozilgan.

Kalit:

0 – bir kes...

1 – nima eksang...

2 – sanaydilar...

3 – oltin hisoblanavermaydi...

4 – temirni ...

5 – jo'jani kuzda...

6 – issig'ida bos...

7 – shuni o'rasan...

8 – hamma yaltragan narsa...

9 – yetti o'lchab...

O'qituvchi. Yana bir marta sizlar bilan biz shifrlarni ochishga harakat qilamiz. Dastlab siz bu yerda qanday maqollar shifrlanganligini bilishingiz. Har bir maqol ikki qismdan iborat, shu sababli ikkita raqam bilan shifrlangan bo'lishi kerak. Maqolni ikki xonali son ko'rinishida shifrlang. Bu raqamlarni daftaringizga yozing. Bu topshiriqni bajarishingiz uchun sizlarga uch minut vaqt ajratiladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarishadi, so'ngra javoblar muhokoma qilinadi. Albatta maqollarning ma'nosiga to'xtalib o'tish lozim, ularni birgalikda tushuntirish kerak. O'qituvchi bu sonlarni eslab qolish kerakligini aytadi.

To'g'ri javoblar: 17, 46, 52, 83, 90.

Darsning so'ngida o'qituvchi bolalardan dastlab ikki xonali sonni, so'ngra shifrlangan maqolni eslashlarini so'raydi.

#### **“Antiqa misollar” mashqi.**



Bu mashqda ham bundan oldingi jadval-kalitdan foydalaniladi. U doskada yozilgan bo‘lishi kerak. Bolalar noodatiy holda yozilgan misollarni yechishadi.

Nima eksang+issig‘ida bos = ?

Yetti o‘lchab : oltin hisoblanavermaydi = ?

Temirni issig‘ida x nima eksang = ?

10: jo‘jani kuzda = ?

Temirni issig‘ida bos – Hamma yaltiragan narsa oltin hisoblanavermaydi = ?

Yetti o‘lchab bir kes – jo‘jani kuzda sanaydilar = ?

O‘qituvchi. Siz shifrlangan misollarni yechishingiz kerak. Dastlab uni kalit yordamida shifrini ochib, so‘ngra yeching. Javoblarni daftarlaringiz yozing.

Bolalar topshiriqni bajarishib, javoblarni tekshirishadi. O‘qituvchi javoblarni eslab qolishlarini so‘raydi. Shu darsning oxirida yoki kelgusi darsda ular to‘g‘ri javobni eslashadi.

### **“Asosiy belgi” mashqi.**

Bolalarga doskada yozilgan o‘nta so‘zdan belgi-so‘zni tanlash taklif qilinadi.

O‘qituvchi. doskada turli o‘nta so‘z yozilgan. Ularni o‘qing va har biriga to‘g‘ri keladigan belgi-so‘zni tanlang. Belgi-so‘z predmetning xossasini aniqlaydi va qanday? - degan savolga javob beradi. Masalan, qum sariq, issiq, mayda va boshqa bo‘lishi mumkin. sizningcha eng yaqin bo‘lgan belgi-so‘zni tanlang va uni chiziq tagiga yozing.

Daftarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: so‘zlar juftligi kasr shaklda yozilib – tepada o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlar, pastda – o‘quvchi tomonidan taklif etilayotgan so‘zlar. O‘qituvchi bitta misolni muhokoma qiladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi. So‘ngra o‘quvchilar yozgan so‘zlar muhokoma qilinadi. Sinf bilan birgalikda belgi-so‘zlar to‘g‘ri tanlanganmi yoki yo‘qligi muhokoma qilinadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga bu so‘zlarni va ularga tanlangan belgi-so‘zlarni eslab qolish haqidagi topshiriqni beradi.

Keyingi darsda o‘qituvchi so‘zlarni juft-jufti bilan va ularga tanlangan belgilarni eslashni, ularni daftarga yozishni, so‘ngra oldingi darsda yozgan yozuvlari bilan solishtirishni so‘raydi.

Shu bilan birga ta’kidlashimiz joizki, ta’limning vositasi sifatida o‘yinning samaradorligi quyidagi qator talablarga amal qilinishiga bog‘liq: o‘quvchilar harakat va tasavvur qiladigan holatni, rejani mavjudligiga; bolalar tomonidan o‘yin natijasini, o‘yin qoidasini albatta anglanilishi. O‘yin – jamoaviy birgalikda amalga oshiriladigan jarayon. Bu barcha ta’limdagi vazifalarni oshirishdagi asosiy usul, shu sababdan: bola ilgari bilmagan va o‘yin davomida o‘zlashtiradigan bilimi uchun qanday ko‘nikma va malaka talab qilinishini aniq bilishi hamda o‘yin o‘quvchini tafakkur qilishga majbur etishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998. B. 20-29.

2. Ahmedova M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf uchun darslik. “Turon-Iqbol” 2014.

3. Abdurahmonova N., O‘rinboyeva L. Matematika 2-sinf uchun darslik. “Yangiyo‘l Poligraf Servis”. 2014y

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH**

**X.Usmonova Asaka tuman**

**39-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi**

*Annotatsiya: aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarashini shakllantirish haqida fikr yuritilgan..*

**Kalit so'zlar:** *Aqliy ta'lim, aqliy tarbiya, qobiliyat, tafakkur, ilmiy dunyoqarash, bilim, fikr, shaxs, ma'naviyat, axloq, ijtimoiy, ong.*

Dunyo, inson, aql-zakovat, ma'naviyat- bular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Dunyo bunyod bo'libdiki, inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zini inson sifatida anglabdiki, u o'zini borliqning eng mukammal mavjudoti sifatida aql-zakovati bilan tanib keladi. Inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati tufayli shunday ustunlikka egadir. Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotda yashashdan ma'no izlaydi va shu narsa uning hayoti mazmunini tashkil etadi. Insonlar bor, dunyoga keladilaru ketadilar, ulardan nom-nishon qolmaydi, hayotning ma'nosiga, qadriga yetmaydilar. Insonlar bor – mana shu kelishi bilan ketishi o'rtasidagi “umr” deb atalmish vaqtga chaqmoqday chaqnaq, o'zlarining yorqin izini qoldiradilar. Bu iz o'chmasdir. Mana shunday aql-zakovati bilan o'zidan keyin yaxshi ot qoldiruvchilar ma'naviy yuksak insonlardir. Ma'naviy komil insongina shunday yuksaklikka, avlod-ajdodlar qalbida zamonlar osha, asrlar osha yashashday sharafga sazovordir.

**Aqliy tarbiya** o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

#### **Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:**

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
4. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

**Aqliy ta'lim va tarbiya** birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

*Abu Nasr Forobiyning* e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Aqliy tarbiya insoniyat paydo bo'lgandan boshlab tarbiyaning ustuvor vazifasi bo'lib kelgan. Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aql, zakovat jihatdan yetuk bo'lmagan inson hech qahon o'z Vatanini, o'z dinini, eng asosiysi o'zligini anglay olmaydi, o'zligini anglamagan inson esa manqurtga aylanib qoladi. Bu esa ertangi porloq kelajagimizning halokatidir. Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma'naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istiqboli uchun qayg'uradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol zarur.

Bolalarning aqlli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqlli bolalar qayerda bo'lmasinlar doimo ehtiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni ko'rgan, suhbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishda uning tarixiy ildizlariga nazar tashlab, bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borish, o'z o'rnida innovasion metodlardan foydalanish o'quvchilarda ko'p narsani bilishga havasini orttiradi.

Demak, inson o'z hayoti va faoliyatini mazmunli o'tkazish uchun avvalo o'zini o'rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo'lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muxim o'rin tutishi, aql-idroktufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo'ylik, to'g'rilik, uzoqni ko'ra bilish, nafsning ko'yiga tushmaslik kabi hususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalqimizning "Aql insonning ko'rki", "Aql suvdan tiniq, oynaday ravshan" kabi naqlar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun g'oyat oliy ne'matdir. Aql bilan ilm-ma'rifat egallanadi, kasb xosil qilinadi, dunyo sirlari o'rganiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz-2017
2. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma -T.: Turon-Iqbol, 2006.
3. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.G` M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007

### **INTERFAOL USULLAR VA ULARDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**S.Vahobova, Asaka tuman  
56-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Bugungi kunda ekstrakfaol, faol va introfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi, ularning samarali kechishini ta'minlash haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** interfaol, ekstrakfaol, faol, metod, ta'lim, tarbiya, fikr, didaktika, texnologiya, akt, o'yin, usul, taxlil, o'qituvchi, o'quvch, bilish.*

Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, bayon qilish usullari takomillashadi.

Ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, taxlil qilishi va umumlantirishi, amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Amaliyotda "introfaol" (ta'sirning tashqariga yo'naltirilishi) ta'limda asosan bolalarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. Ya'ni ta'lim o'quvchilar jamoasi tomonidan tashkil etilib, ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar.

"Interfaol", ya'ni o'zaro ta'sir, o'zaro faollik, o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchi-o'quvchilar, o'quvchilar-o'quvchilar, o'quvchilar-o'quvchi o'rtalarida o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Interfaol" so'zi (ruscha "interaktiv") ingliz tilidan olingan bo'lib, «inter» - o'zaro, "akt" - faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi. O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi o'zaro ta'sirli faoliyat kuzatiladi.

Interfaol metodlar yordamida uyushtiriladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi.

O'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorligini yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat interfaol ta'lim deb yuritiladi. Interfaol ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchilar o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro munosabat odatda u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlarni qabul qilish to'g'risidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qarorning qabul qilinishini ifodalaydigan munozara shaklida namoyon bo'ladi.

Interfaol metodlar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. Biroq o'quv materialini samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar asosiy o'rin tutayotganligining sababi shuki, ular hozirgi kunda ta'lim samaradorligini ta'minlashning eng optimal yo'lidir.

Interfaol ta'lim muhitida ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro sheriklik munosabatlarining teng huquqlilik asosiga qurilishi, "shu yerda va hozir" qayta aloqaning yuzaga kelganligi, ma'lum muammo bo'yicha ko'plab fikrlarning jamlanganligi umumiy aloqa muhitini hosil qiladi. Ilmiy bilimlarning muayyan tizimga asoslanganligi ta'lim jarayonida ham ularni muayyan tartibga yetkazib berilishini taqozo qiladi. Shunga ko'ra o'qituvchi bu jihatni e'tibordan qochirmasligi maqsadga muvofiqdir.

Interfaol ta'limning eng muhim jihati pedagogik jarayonning bola shaxsiga yo'naltirilganligidadir.

Tashkil etilishi nuqtai-nazaridan interfaol texnologiya ta'lim ishtirokchilarining shaxsiy qiziqishlari asosida hosil qilinuvchi muloqot jarayonidir.

Interfaol metodlar: "Klaster", "6x6x6", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "Aqliy hujum", "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Qora quti", "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha", "3x3" ("4x4", "5x5", ...), "Rasmlarni to'g'ri joylashtir", "Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash", "Videotopishmoq", "Yumaloqlangan qor o'yini", "Zakovatli zukko", "Qarama-karshi munosabat", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Zig-zag strategiyasi", "Ven diagrammasi", "Insert strategiyasi" va hokazolardan maxsus ta'lim amaliyotida samarali foydalanish mumkinligi ko'p yillik tajribalar asosida aniqlandi.

Hozirgi kunda aksariyat pedagoglarning zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida faol va samarali qo'llanilayotgan interfaol metodlarning ko'plaridan xabardorligi va asosan, quyidagi interfaol metodlardan keng foydalanilayotganligi aniqlandi:

- rolli o'yinlar, quvnoq o'yinchoqlar, rasmlar o'rtasidagi bog'liqlik, refleksiya, ishbilarmonlik o'yinlari, debatlar, amaliy treninglar, dasturiy ta'lim, bahs-munozaralar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ("Case study" - "Papkani o'rganish"), namoyish yoki himoya (prezintatsiya), videotahlil, intervyu va turli nomlar bilan nomlanuvchi interfaol metodlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke | uchitelya. Tashkent, 2000.

2. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. G` M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007

## **O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAHKAMLASHDA MAVZUGA OID MASHQLAR BAJARISHNING USULLARI**

**B.Xakimova, Paxtaobod tuman,  
4-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga mavzuga oid mashqlar mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida mavzuga oid grammatik tushuncha o'quvchilarga o'rgatilgandan so'ng mavzuga oid mashqlar bajarilmasa, o'rgatilgan qoida va grammatik Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid mashqlarni bajarish afzalliklarini tekshirish, tahlil qilish uchun tajriba sinfda mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng, uni mustahkamlash maqsadida ikkita oid mashqlarni bajarib ko'rdik. Mavzu o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirildi. Nazoratga olgan sinfimizga mavzuga oid grammatik tushunchalarni ayrim misollar orqali tushuntirdik, biroq mavzuga oid mashqlar bajartirmadik.

Natijada mavzuga oid qoidani o'quvchilarga tushuntirishimiz biroz qiyin bo'ldi. Grammatik tushunchalarni berish jarayoni bir muncha vaqtni sarflashni talab qildi. Demak, yangi mavzuni o'zlashtirishda va o'quvchilar tomonidan mustahkamlashda, albatta, mavzuga oid mashqlar bajarilishi kerak.

O'quvchilarda yangi mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid mashqlar bajartirganimizda quyidagi natijalarga erishdik;

1) yangi mavzu o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirildi;

2) nazariya amaliyotga sinab ko'rishdi;

3) nazariya amaliy mashq bilan bog'lanmoqda;

4) amaliy mashqlar bajarish orqali o'quvchilarda shakllangan, Grammatik tushunchalar mustahkamlanmoqda;

5) o'quvchilarning mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllandi;

6) uyga berilgan mashqlarni qanday bajarish haqida o'quvchilarda ko'nikma paydo bo'ldi. Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni o'zlashtirish va mustahkamlashda mavzuga oid mashqlar bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilar dastlab o'qituvchi nazorati ostida mashqlar bajarishlari lozim. Chunki mavzuga oid mashq ilk marta bajarilayotganda o'quvchilar mashqni notog'ri bajarib qo'yishlari mumkin. Birinchi va ikkinchi mashqlar o'qituvchi nazorati ostida, ba'zan uning ko'magi bilan bajarilsa, mashq to'g'ri bajariladi, mashqdagi so'zlarga savol berib qoidalar chiqariladi, amaliy mashq nazariya bilan bog'lanadi.

Mashqlar bajarishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatlarini oshiradi, mashqlar bajarishga qiziqishlarini oshiradi. Asosiysi o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllanib borishi rivojlanadi.

O'quvchilar darsda mashqlar bajarishi jarayonida erkin harakat qiladilar, erkin fikrlaydilar, bajarilayotgan mashqqa o'zlarining erkin ravishda munosabatlarini ifodalay oladilar. Biz

malakaviy ishimizni yozish mobaynida tajriba qoʻtkazayotgan sinfimizda yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlashda bajariladigan mashqlarni interfaol usullardan foydalanib bajarishni sinovdan oʻtkazib, ushbu interfaol usullarni mashqlar bajarishda ulkan samaralar berishini yoritishga harakat qildik. Tajriba olib borayotgan sinfimizda quyidagi interfaol usullardan foydalandik:

- 1) aqliy hujum metodi;
- 2) muammoli taʼlim metodi;
- 3) kichik guruhlarda ishlash metodi

Ushbu noanaviy interfaol usullar yordamida oʻquvchilarga mashqlar bajartirganaimizda oʻqish-oʻrgatish jarayonini yaxshi oʻzlashtirishga olib keldi.

Oʻz vaqtida aloqani tikladi. Motivatsiya yuqori darajada boʻlishini taminladi, oʻtilgan materialni puxta xotirada saqlab qolishga imkon berdi. Mustaqil fikrlay oladigan oʻquvchining shakllanishiga yordam berdi. Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda oʻquvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib oʻquvchilar aqliga hujum qildik, oʻquvchilarga fikr va gʻoyalarni tugʻuldi. Bu fikr va gʻoyalarni umumlashtirib, yagona, toʻgʻri xulosani chiqardik. Oʻquvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni soʻraganimizda, ular nuqtalar oʻrniga gap mazmuniga mos soʻzni qoʻyib, biz oʻrtaga tashlagan muammoni bartaraf eta oldilar. Ushbu interfaol metod oʻquvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini oʻylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, oʻz fikr va muloxazalarini erkin muloxazalay olishga katta yordam berdi. Kichik guruhlarda ishlash interfaol metodidan tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida kengroq foydalandik. chunki ushbu metod oʻquvchilarni dars davomida quvnoqroq boʻlishiga, kayfiyatlarini yuqori boʻlishini taminladi. mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid mashqlar bajarishdan oldin, sinf oʻquvchilarini uch kichik guruhlariga boʻlib oldik. Oʻquvchilarning taklif, istak va talablarini hisobga olgan holda kichik guruhlariga nomlab oldik. Oʻquvchilarga ushbu kichik guruhlar oʻrtasida —Kim yengil, chaqqon va bilimdon, deb nomlangan musobaqa oʻynashimizni aytib, musobaqa shartini ularga tanishtirdik, soʻng doskaga har bir kichik guruhdan bittadan oʻuvchini doskaga chiqarib, berilgan mavzuga oid mashqni shartiga koʻra bajarishni buyurdik. Mashq bajarib boʻlingandan soʻng gʻolib va magʻlub jamoalarga tegishli ballarni qoʻyib, ushbu ballarni izohladik.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari kichik guruhlarda ishlash interfaol usuli yordamida mavzuga oid mashqlar bajarganlarida erki harakat qildilar, jamoalar gʻalabasi uchun kurashdilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qildilar.

Boshlangʻich sinflarda mavzuga oid mashqlar bajarish ayniqsa, mashqlarni interfaol dars metodlari yordamida bajarish oʻquvchilarni mavzuni puxta egallashlariga, oʻzbek tilining oʻziga xos grammatikasini oʻrganishda juda ham katta ahamiyatga ega, degan tilshunos pedagog olimlarimiz fikrlariga qoʻshilamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003-yil.
2. Matchonov S., va boshqalar. Oʻqish kitobi. 4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Oʻqituvchi". 2017-yil

### **BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QOʻSHIMCHA MASHGʻULOTLARNING OʻRNI.**

**M.A.Xomidova Asaka tumani  
56-umumtaʼlim maktabi boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi**

*Annotatsiya: Taʼlimga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan —bilim, koʻnikma va malakani oʻzlashtirish kontseptsiyasiga qarshi oʻlaroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli koʻrinishdagi malakalarni oʻquvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi.*

*Kalit soʻzlar: kompetensiya, hayotiy koʻnikmalar, malakalar, shaxs.*

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashtirish, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, barcha fanlarga oid bilim, ko'nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim.

Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Inson qaysi kasb sohibi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham bolalarni sevsa, tarbiyalasa, o'zi ham ulg'ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O'qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qolida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlovchi "to'ti"ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishllovchi, o'z g'alar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Ta'lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylangach, boshlang'ich ta'lim rivojiga alohida ehtibor qaratildi. «Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi»da o'qituvchining vazifalari aniq belgilanib qo'yildi. Asosiy maqsad: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlashga, nutq madaniyatini o'stirishga, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga qaratilar ekan, albatta, o'qituvchi zimmasiga katta mashuliyat yuklanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rish bilan birgalikda, o'quvchining darsdan keyingi faoliyatini mazmunli o'tkazishi ta'lim samaradorligini oshirish, davomatni yaxshilash hamda pirovard ijobiy natijaga erishish imkonini beradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish boshlang'ich ta'limning kompetentsiyaviy yondashuv asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Ish tajribamdan kelib chiqib hafta kunlariga qo'shimcha mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqdim:

Dushanba – kommunikativ kompetensiya – fikrni og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, hamkorlikda ishlash, muomila madaniyatiga rioya qilishga o'rgatish maqsadida «Oltin baliqcha» tanlovi (kim ko'p kitob o'qigan?);

Seshanba – «Kim chiroyli yozadi?» – o'quvchilarning chiroyli yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish;

Chorshanba – axborot bilan ishlash – mavjud axborotlarni izlab topish, kompg'yuterda testlarni yechish;

Payshanba – ijodiy ishlar bajarish. Bu kuni o'quvchilar turli mavzularda ijodiy ishlar bajaradilar;

Juma – shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish – olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish maqsadida «Taqdimot» tayyorlash. O'quvchi taqdimot uchun mavzu tanlaydi va juma kuni

namoyish etadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi – sinf, guruh mavqeini ko'tarishga o'z hissasini qo'shishi, darsda faol ishtirok etishi;

Umummadaniy kompetentsiya – Vatanga sodiqlik, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ehtiqlik bo'lish; odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Shanba – Matematika fanidan test yechish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan bilimlarga ega bo'lish.

O'tkaziladigan qo'shimcha mashg'ulotlar 35–45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, bu o'quvchilarda ortiqcha zo'riqishni hosil qilmaydi. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishidagi bo'shliqlarni to'ldirib boradi. Bu ishlar bilan o'qituvchi o'zining pedagogik yuklamasida belgilangan vazifani bajargan hisoblanadi. Yuqoridagi ishlarni amalga oshirgan o'qituvchi zamonaviy o'quvchini yuqori bilim va saviyaga ega bo'lishiga,

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187 sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat Ta'lim standartlari va o'quv dasturi.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI**

**M.T. Xudoyberdiyeva– Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
38-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:**Maqolada,o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, didaktik o'yin ,*psixologiya,tasavvur,tafakkur, fikrlash qobiliyati,o'quvchilarning tafakkuri.*

Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi deb qaramay, unga ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir. Ilmiy adabiyotlarda didaktik o'yinlarni uyushtirishda darsning asosiy didaktik maqsadini, hisobga olish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. O'yindan darsning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Agar 1-sinfda o'quvchilarni o'yin ko'proq qiziqitirsa, keyingi sinflarda o'yinning mazmuni, natijasini anglashga ehtiyoj tug'iladi. Ular o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rsatish imkoni bo'lgan o'yinlarda ishtirok etishga intila boshlaydilar.

Didaktik o'yinlar quyidagi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni darsgacha bo'lgan vaqtda tayyorlaydi. Tayyorgarlik shundan iboratki, o'quvchilar darsga kerakli o'quv qurollarini oldindan tayyorlaydilar, mavzuga oid materiallar bilan mustaqil tanishadilar, darslik va boshqa nazariy materiallarni ko'zdan kechiradilar.

2-bosqich: Bu bosqichda o'quvchilarga o'yin mohiyati tushuntiriladi, rollar bo'lib beriladi, manbalar bilan tanishtiriladi va o'yin amalga oshiriladi.

Didaktik o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchining o'rni juda muhim. O'qituvchi o'yin va uning qonun-qoidalarini o'quvchilarga tayyor holda yetkazadi va o'yinda bevosita ishtirok etib ular bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi, turli talablarni bajarishda namuna bo'lib xizmat qiladi, ma'lumotlar berib boradi. O'qituvchi didaktik o'yinlarni o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida quyidagi talablarga rioya qiladi:

- tanlangan didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi;
- har bir o'yin pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam berishi;
- bir xildagi o'yinlarning ko'p takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'yinni o'tkazishdan avval o'qituvchi ham, o'quvchilar ham puxta



tayyorgarlik ko‘rishi;

- o‘yin yakunida g‘olib va bilimdon o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida uyushtiriladigan didaktik o‘yin turlariga quyidagilar kiradi:

«O‘zim tekshiraman» didaktik o‘yini o‘tkazishda kichik hajmdagi diktant matni tanlanadi va u darsning kirish qismida uyushtiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmda diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko‘rsatadi. Mabodo diktant oldin xattaxtaga yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa unga qarab o‘zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avvaliga faqat harflardan, so‘ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo‘g‘inlardan iborat quyidagicha turli variantlarda diktant yozdirsa, o‘quvchilarning o‘quv-biluv malakalari shakllana boradi.

1-variant: O,o, I,i, U,u, A,a, o‘,o‘.

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

Yoki «Hikoya» didaktik o‘yini orqali o‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Shu jarayonda ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchining vaqti-vaqti bilan rag‘batlantirishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi. Bu o‘yindan darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda ham foydalanish mumkin. Masalan, Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

«Topag‘on» didaktik o‘yinida esa o‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘zida aks ettirgan predmetlar nomlarini aytadilar. Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni o‘tkazish o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari, hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi. Savol: Nima oq rangda? Javob: qog‘oz, daftar, bulut, parda, qor, buvimning sochlari, ..

«Zanjir» didaktik o‘yini o‘tkazishda o‘qituvchi o‘yin boshida o‘quvchilarga bitta so‘z aytadi. O‘quvchilar bu so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so‘zni topib aytadilar. So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi. Bu o‘yin 1-sinflarda so‘zlar, yuqori sinflarda esa maqollar, tez aytilishlar, hikmatli so‘zlar yoki she‘riy baytlar vositasida o‘tkazilishi mumkin. Bunday o‘yinlarning o‘tkazilishi o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bu o‘yindan ona tili va o‘qish

darslarida dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan avval o‘quvchilar diqqatini to‘plab olish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan: Tabiat, taom, maymun, nok, kitob, botir, rayhon, ... .

Biz yuqorida misol tarzida keltirgan didaktik o‘yinlar barcha qonun-qoidalar va prinsipial talablarga rioya qilib o‘tkazilsa, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv asosida o‘rgatish samarali ta‘sir qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. “Interfaol ta‘lim sifat kafolati” (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta‘lim). – T.: 2008-y. – 172 b.

2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, Nasaf, 2000-y. –79 b.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2009-y. – 492 b.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA BILIM BEFRISHDA SINTAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.

S.Yuldasheva, Jalaquduq tuman  
31-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning nutqini o'stirish didaktik o'yinlarning ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada, o'quvchilar zo'r qiziqish bilan ishtirok etadigan bir nechta didaktik o'yinlar haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'limiy o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, nutq o'stirish, grammatik didaktik, sintaktik.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishda yod oidirish, so'larning ma'nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo'lgan o'yinlardan foydalanish, ko'zlangan, yuqori natijalarni qo'lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rin egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, bog'lanishli nutqni o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Darsda o'quvchilar zo'r qiziqish bilan ishtirok etadigan bir nechta didaktik *sintaktik* o'yinlarni ko'rishimiz mumkin.

### **Gapning turini aniqla o'yini.**

Boshlang'ich sinflarda gapning maqsadga ko'ra turlari o'rganiladi. O'quvchilar ushbu gaplarning mazmunini o'zlashtirish davomida darak, so'roq, buyruq gaplarni bilib olishadi. Bu gaplar yuzasidan o'quvchilar ma'lum darajada bilimga ega bo'lganlaridan keyin turli grammatik o'yinlar o'tkazish mumkin. Gapning grammatik maqsadga ko'ra turlarini aniqlashda o'quvchilar taqqoslash metodidan foydalanishadi. gapni taqqoslash jarayonida esa mantiqiy fikr yuritishadi. Bu o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilar maxsus tayyorgarlik ko'rishadi. Ular uch guruhga bo'linadi. Har bir o'quvchi o'ziga quyidagicha kartochkalar tayyorlab olishadi.

D .g

S .g

B .g

.

?

.

O'qituvchi o'zi tayyorlab kelgan gaplarni o'qiydi. Darak gaplarni o'qiganda birinchi guruh, so'roq gaplarni o'qiganda ikkinchi guruh, buyruq gaplarni o'qiganda uchinchi guruh o'quvchilari o'zlariga tegishli kartochkalarni va unda ishlatiladigan tinish belgilari bilan birga ko'tarishadi. Buyruq gaplardan o'qituvchi faqat nuqta ishlatiladigan turlarini olishi zarur. O'qituvchi o'qiydigan gaplar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Tamanno she'rni juda mayin, juda shirin ovoz bilan o'qiydi.
2. Siz yozda qanday dam oldingiz.
3. Turmushda faqat o'z manfaatingnigina o'ylama, boshqalarga ham yordam ber.
4. Senga toychoq olib beraymi?
5. Qo'lingdan keladigan ishga urun. Qo'lingdan kelmaydigan ishga urinma.

6. Poytaxtimiz Toshkent kundan- kunga go`zallashmoqda.

Xuddi shunday o`yinni buyruq gaplar yuzasidan ham o`tkazish mumkin. Chunki bu gaplar buyruq, maslahat, iltimos kabi ma`nolarni bildiradi. Ba`zan nuqta, ba`zan undov belgisi qo`yilishi ham mumkinlari tushuntiriladi.

### *So`zlardan gap tuz o`yini*

Bu o`yin ham "Kerak so`zni tanlab ol" o`yiniga o`xshaydi. Biroq kerak so`zini tanlab ol o`yinida so`z birikmasi tuzilsa ustida mashg`ulot o`tkazilsa, so`zlardan gap tuz o`yini berilgan so`zlardan gap tuzish bo`yicha grammatik o`yin o`tkaziladi. Har ikkalasida ham berilgan so`zlardan foydalaniladi. Gap tuzish o`yinida berilgan so`zlardan bir guruhi albatta harakat bildirgan (fe`l)so`zlar bo`lishi zarur. Chunki har qanday gapni ham shakllantirish markazi kesimdir. Kesim esa ko`pincha fe`l so`z turkumi orqali ifodalanadi. Bu o`yinni ikkinchi sinfda shaxs, narsa- buyum, belgi va harakat bildiruvchi so`zlar o`rganilgandan keyin o`tkazish mumkin. O`yinni o`tkazish uchun xattaxtaga yoki ko`chma xattaxtaga ikki qator qilib quyidagi so`zlar yozib qo`yiladi.

qish	ko`kardi
Bahor	Tugadi
Quyosh	Boshlandi
Qor	Ochildi
Maysalar	Eridi
Gullar	Qizdirdi

O`yinning sharti: ushbu so`zlar ishtirokida birinchi qatordagi so`zlarga (otlarga) ikkinchi qatordagi so`zlardan mosini tanlab gap tuzing va tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozib oling, berilgan so`zlar ishtirokida tez va to`g`ri gap tuzgan guruh g`olib hisoblanadi. O`quvchilarning bilim darajasini hisobga olib so`zlar sonini ko`paytirish mumkin. O`quvchilart taxminan quyidagi gaplarni tuzadilar.

*Qish tugadi. Bahor boshlandi. Quyosh qizdirdi. Qorlar eridi. Maysalar ko`kardi. Gullar ochildi.*

Bu o`yin o`quvchilarni so`z birikmasi bilan amaliy tanishtiradi. Garchi bu sinflarda so`z birikmasi yuzasidan nazariy bilim berilmasa ham, u haqida o`quvchilar bir qator ma`lumotlar oladi. Amalda so`z birikmasi tuzadilar. Ushbu o`yinni o`tkazish uchun o`qituvchi ko`chma xattaxtaga so`zlarni ikki ustun qilib yozib keladi. O`quvchilar xattaxtaga so`zlar bilan tanishadi, keyin chap tomondagi so`zlardan mosini qo`yib ko`chirish topshiriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez va to`g`ri bajarsa, g`olib hisoblanadi. O`yin bolalarning ijodiyliigni tarbiyalaydi, o`quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova., S.Matjonov., X.G`ulomova., Sh.Yo`ldosheva., Sh.Sariyev."Ona tili o`qitish metodikasi".-T.,2009.
2. N.Egamberdiyeva., S.Zohidova."Nutq o`tirish usullari-interfaol ta`lim strategiyalari vositasi sifatida".-T.,2016

## **OILADA VA MAKTABDA KITOBXONLIK VOSITASIDA O`QUVCHILAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Z.Mannobjonova, Qo`rg`ontepa tuman  
34-maktab ingliz tili o`qituvchisi.**

**Annotatsiya:** *Maqolada, Kitobxonlik insonni ma'naviy boyitib, uni ma'rifiy kamolot sari etaklashi, oilada va maktabda kitobxonlik vositasida o`quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning o`ziga xos xususiyatlari, haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit soʻzlar:** Kitobxonlik, Oʻquvchi, maʼnaviyat, kitob, yosh avlod.

Kitobxonlik insonni maʼnaviy boyitib, uni maʼrifiy kamolot sari etaklaydi. Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi maʼnaviy tafakkur ilganining qanchalik chuqur va mustahkamligiga bogʻliq. Bu mustahkamlik esa kitob oʻqish, oʻqigan kitobining eng muhim nuqtasini ilgʻab olishdan iboratdir.

Kitob yosh avlodga taʼsir etishning eng qulay vositasidir, u inson his-tuygʻusiga, axloqiga, hatti-harakatiga, dunyoqarashiga taʼsir etadi, ayniqsa, oʻquvchi yoshida, yaʼni uning shakllanish davrida alohida mavqega ega. Badiiy adabiyot, turli fanlarga doir qiziqarli kitoblar, lugʻatlar, maʼlumotnomalar bolalar maʼnaviyatini shakllantirishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilik yoshida qiz va oʻgʻil bolalar mustaqillikni xohlayganlar. Ularga ilgari gidek, bolalardek muomala qilishni yoqtirmayganlar, oʻzlari bilan kattalardek, tengdoshdek muomalada boʻlishni istayganlar. Bu borada ota-onadan engan ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu mustaqillik zamirida ularning barcha yaxshi xislatlarga ega boʻlish istagi, uning ideallari mavjud boʻlib, tashqi qiyofasidagi nomutanosiblik, ovozidagi oʻzgarishlardan qutilish, erishish qiyin boʻlgan orzu-istaklar yotadi. Ayniqsa, jinsiy balogʻatga etayotgani uning hayotida ijobiy tomonga oʻzgarish oʻrniga salbiy hatti-harakatlar qilishga ham ulardagi fiziologik va psixologik omillar turtki boʻlishi mumkin.

Lekin oʻquvchilar maktabda oʻqiydi, ota-ona bilan bir qatorda oʻqituvchi ham unga taʼsir etishi mumkin. Agar oʻqituvchi bolalarda oʻziga ishonch ruhini singdira olsa, bu uning kattagʻalabasidir. Kitobxonlik – ana shu ishonch tuygʻusini uygʻotuvchi muhim vosita. Kitobxonlik oʻquvchilarning boshqa oʻquv fanlarini oʻzlashtirishidagina emas, umuman shaxs sifatida shakllanishida ham katta ahamiyatga ega. Lekin bunga faqat oʻquvchining aqliy shakllantirishnigina hisobga olmay, uning butun maʼnaviy qiyofasini oʻzgartirishga ham yordam berishi kerak.

Oʻquvchilar maʼnaviyati tadrijiy rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga eʼtibor berishlari lozim:

1. Oʻquvchilarda kitob oʻqish ishtiyoqini hosil qilish. Bu masala nihoyatda murakkab boʻlib, oʻquvchilarning kitobxonlikka boʻlgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, oʻquvchilarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yoʻli ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda oʻqituvchi, uyda ota-ona bolada kitob oʻqish koʻnikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, yaʼni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos boʻlgan kitoblar tanlash qoʻl keladi. Sharq mutafakkirlarining tajribasiga koʻra, kitobxon (oʻquvchi) qaysi mavzuga qiziqsa shu mavzudagi kitobni taqdim qilish kerak. U kitob oʻqishga koʻnikma hosil qilgach, asta-sekin unga ixtisoslashgan kitoblar taqdim qilib boriladi.

2. Kitob tanlashda oʻquvchining maʼnaviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning oʻquvchida kitob oʻqish koʻnikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlab berishdir. Ularning saviyasiga mos boʻlgan adabiyotlarni keng targʻib qilish oʻquvchilarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning etuk, barkamol insonlari boʻlib etishishi uchun va maʼnaviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Kitob tanlashda kitobxonning (oʻquvchining) maʼnaviy darajasini hisobga olish birmuncha murakkab omildir. Oʻquvchilik yoshi haqida yozuvchi Xudoybergan Toʻxtaboev shunday deydi: «13-15 yosh oʻrtasida oʻquvchi quvnoq, betashvish bolalik bilan xayrlashib oʻquvchilik davriga qadam qoʻyarkan, uning psixologiyasida, fiziologiyasida katta oʻzgarishlar yuz beradi, kuchiga kuch, gʻayratigagʻayrat qoʻshiladi. Bu hollarda, bolaligi oʻtgan maktab va Oilada va maktabdan iborat dunyo torlik qilib qoladi, unga. Kengroq dunyoga qadam qoʻygach, shu keng dunyoning siru asrorini bilgisi kelib qoladi. Baland qoyalarni zabt etgan alpinistlar bilan dengizlarda boʻronlarga qarshi koʻkrak kergan jasur kishilar bilan, bir oʻzi oʻnlab dushman bilan jang qilolgan qahramonlar bilan uchrashgisi keladi. Jumboqlarni echgisi, jumboqlarni oson echgan kishilar bilan suhbatlashgisi kelib qoladi. har qanday qiyin sharoitda ham oʻzini yoʻqotmaydigan, jasur, matonatli kishilar oʻquvchi ruhiga tinchlik bermay qoʻyadi. Oʻzi ham jasuri, matonatli boʻlgisi, qiyin jumboqlarni echib, oʻzini shu qiyofada koʻrgisi kelib qoladi oʻquvchining. Xuddi shu pallada

o'quvchilar sarguzasht asarni axtarib qoladi, qahramonning faoliyatida bola o'zining orzu-istaklarini, o'zligini axtaradi. Bolalarning va o'quvchilarning sarguzasht asarlarga o'chligi shundan. Afsuski, bu janrdagi asarlar bizda barmoq bilan sanarlidir» Kitob tanlashda o'quvchining ma'naviy darajasiga tayanish uning intellektual o'sishiga olib keladi. Kitob tanlashda o'quvchining yosh xususiyatini hisobga olish o'quvchining ratsional o'sishiga olib kelsa, ma'naviy darajasini hisobga olish esa intellektual rivojlantiradi. Bu esa ratsionallikdan ko'ra keng qamrovli va samaralidir. Shuning uchun butun Oilada va maktabda kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak. Bunda Oilada va maktabdagi kitobga bo'lgan munosabat, birinchi navbatda ota-onaning kitobga bo'lgan munosabati katta rol o'ynaydi. Oilada va maktabda kitobxonlik ruhi bo'lsa, bu bevosita bola ruhiyatiga ham ta'sir etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunda ilk tavsiyani badiiy adabiyotdan boshlab, keyinchalik ixtisoslar bo'yicha kitoblarni tavsiya etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. -80 b.
2. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). Vatan, 1996. - 20 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: O'qituvchi, 1992. -160 b.
4. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashridan tarjima. - Toshkent: O'qituvchi, 1988. -272 b.

## **BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISHDA MATNLAR USTIDA ISHLASH**

**M.X.Abdugodirova,**

**Musayeva Sevaraxon Tojimahmatovna,**

**28-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

*Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda matnlarni tahlil qilish usullari haqida bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, nutq o'stirish, mustaqil ish, tahlil.*

Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlari qanday bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning shartlaridan biri topshiriqlarini to'la „eslab qolib“ bajarishlaridir.

Butunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarning topshiriqni tez, to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so'z boyligi yetarli emas.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zlarini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag'batlantiruvchi so'zlarini ishlatish foydalidir. Masalan, „O'roq va Kombayn“ masalasi yuzasidan: O'roq nega afsuslandi? Kombayn unga nima dedi? kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e'tibori tortiladi har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o'rgatiladi.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan bola mamnun bo'lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi.

Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma tarzda bo'lishi mumkin.

Bola yozishdan oldin o'ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so'ng uni yozishga kirishadi. O'z fikrini bayon qilish yoki qo'yilgan biror savolga yo masala yuzasidan mushohada yuritish uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi.

Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o'z-o'zicha gapiradi (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishining dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Mustaqil ishlar o'quvchilarni toliqtirmasligi, zerikib ishdan ixloslari qaytmasligining oldini olishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Mustaqil ishlarga sarflanadigan vaqt 10—15 daqiqi bo'lishi, iloji boricha shu muddat ichida ham dam olisri daqiqalari o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqishini uyg'ota olsin;

- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

- ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;

- mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz)!

- topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

- topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

- ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

- topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

- darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha, sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan so'ng (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bolib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkaib, unda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi.

Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

Hozirgi kunda maktablarda iqtidorli bolalar soni tobora ortib boryapti. Bunday bolalar bilan alohida ishlagan ma'qul. Topshiriq turlarini bolalarning imkoniyatlariga qarab almashtirish, masalan, bir hikoya yoki she'rni ichda o'qitib, o'qitib mazmuni yuzasidan savollarga javob berishni mashq qildirish maqsadga muvofiqdir (matn oxirida berilgan savollar o'qituvchi tomonidan avvaldan doskaga yozib qo'yilgan bo'lishi kerak).

Mustaqil ish turlaridan yana biri tanlab o'qishdir. Bu o'qish turi o'quvchiga ancha yengillik beradi. Chunki o'quvchi oson, goh murakkab parchani tanlaydi. Harqalay, o'z kuchiga ishonib ish tutganligining o'zi uning mustaqilligidan dalolat beradi.

Asarda ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini tushunib olishda ham tanlab o'qish juda katta yordam beradi.

Bunda o'quvchilar matndan asarda ishtirok etgan qahramonlarni tasvirlovchi materiallar tanlaydilar. Ularning tashqi ko'rinishlarini tasvirlovchi yoki ichki kechinmalarin ifodalovchi jumalarni topadilar.

Tanlab o'qish va badiiy matn ustida ishlash bolalarni ko'pgina boshqa qiziqarli ishlarga, jumladan, ifodali o'qishga yo'llaydi. O'qituvchi bolalarga biror asardan ayrim qismini tanlab o'qish topshirig'ini beradi. O'quvchilar topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi ular bilimni tekshiradi va:

-Bolalar, endi shu matnni ifodali o'qishga tayyorlaning,- deb topshiriq beradi.

Bolalar bu topshiriqni astoydil bajarishga urinadilar, lekin ifodali o'qish ular uchun ancha qiyinlik qiladi, Shuning uchun o'qituvchi bu o'qish turining ba'zi unsurlarinigina shakllantiradi va asta-sekin takomillashtirish boradi. Shunday qilinganda bolalar bu o'qish turini o'zlashtirishga, o'z o'qishlaridan bahra olishga odatlanadilar.

## SO'Z TARKIBINI O'RGATISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

D.Arziqulova

### Xo'jaobod tumani 19-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zlarning tarkibini, so'z yasashni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan ta'limiy o'yinlar haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** oan tili, so'z tarkibi, ta'limiy o'yin, o'zak, qo'shimcha.

Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, ularda grammatik tushunchalarni shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llaniladigan usullar, mashqlar variantlari ko'p bo'lib, belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarning boshqa mashq turlari (ko'chirib yozuv, tahlil, diktant, bayon, insho)dan farqi shuki, bunda, bir tomondan, o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham berilsa, ikkinchi tomondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi. O'yin jarayoni o'quvchining yoshiga mos bo'lib, o'yin shartidagi vazifani bajarish jarayonida ba'zi o'quvchilardagi tortinchoqlik, uyatchanlik kabi holatlar chetlashib, o'quvchi bevosita o'yinga berilib ketadi. Buning natijasida o'quvchilarning hammasi mavzuni ongli o'zlashtirib olishlari uchun imkoniyat tug'iladi. "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusini mustahkamlash uchun quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### "O'zakni top" o'yini

O'yin tartibi: Doskaga ikki ustunda o'zakdosh so'zlar yozilgan bo'lib, ikki guruhda tizilgan o'quvchilar musobaqa tarzida birin-ketin o'zaklarni belgilaydilar. Shartni oldin bajargan guruh rag'batlantiriladi.

O'yin uchun so'zlar:

Gulchi	ishchi
Ishla	guldon
Suvsiz	suvla
Paxtakor	bog'bon
Temirchi	sinfdosh

#### "Tartibga sol" o'yini

O'yin tartibi: Doskaga o'zak va o'zakdosh so'zlar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar shu so'zlarning ichidan o'zak va o'zakdosh so'zlarni topib o'zakni bir ustunga, o'zakdosh so'zlarni ikkinchi ustunga tartib bilan yozib chiqadilar. Shartni to'g'ri bajargan guruh ragatlantiriladi.

O'yin uchun so'zlar: sinf, bosh, sinfdosh, gul, tunuka, do'st, temirchi, paxta, temirchilik, do'stlik, bog', suv, bog'bon, boshliq, gulli, suvchi, temir, tunuka, paxtakor, suvsiz.

Namuna: o'zak

*sinf*

*bosh*

*gul*

*tunuka*

o'zakdosh so'zlar

*sinfdosh*

*boshliq*

*gulli*

*tunukachi*

#### "So'z yasa" o'yini

O'yin tartibi: O'yinda boshlovchi va 3-4 nafar o'quvchi ishtirok etadi.

1-variant. Boshlovchi o'zakni aytgach, o'quvchilar navbati bilan so'z yasaydilar.

2-variant. Boshlovchi har bir o'quvchiga yasovchi qo'shimchalardan birini aytadi, o'quvchi mustaqil holda bu qo'shimchaga mos o'zakni qo'shib so'z yasaydi. So'zlarni yasay olmagan o'quvchi o'rnini boshqa o'quvchi egallaydi.

**“Qo'shimchani top” o'yini**

O'yin tartibi: Doska oldida 5-6 kishilik o'quvchilar guruhi tiziladi: boshlovchi har bir bolaga navbat bilan bittadan so'z birikmasini qo'shimchasiz holda aytib beradi; o'quvchilar esa birikmalarni mos qo'shimchalar bilan shakllantirib boradilar. Qo'shimchani noto'g'ri topgan yoki umuman topa olmagan o'quvchi joyiga o'tiradi. O'yin 2-3 o'quvchi qolgunga qadar davom ettiriladi.

O'yin uchun birikmalar:

Nodir kitobi (Nodirning kitobi)

O'rtog'im ko'rdim (o'rtog'imni ko'rdim)

Gullar sug'ordim (gullarni sug'ordim)

Maktab keldim (maktabga keldim)

Vatan sevaman (Vatanni sevaman)

**“So'zni to'g'ri tanla” o'yini**

O'yin tartibi: O'qituvchi stoli ustiga 20 tacha so'z yozilgan varaqalar qo'yiladi. Bu varaqalardagi so'zlarning ba'zilariga –li, -siz, -dor qo'shimchalarini qo'shish mumkin emas. O'quvchilar 2 guruhga bo'linib, musobaqa tarzida birin-ketin mos so'zlarni olishib, ularga sifat yasovchi qo'shimchalarni qo'shishib, yasalgan so'zlarni doskaga yozishadi. Mos so'zni tanlashda yanglishgan, oxirida qolgan guruh yutqazadi.

O'yin uchun so'zlar:

-li: suv, ish, gul, baland, oq, chiroy, tuz, aql, sariq, go'zal...

-siz: savol, javob, baho, ong, hisob, katta...

-dor: gul, go'sht, bog'...

Bu o'yin davomida o'quvchilar bu qo'shimchalarni boshqa shu kabi shakli bir xil bo'lgan qo'shimchalardan farqlashga ham o'rganadilar. Masalan, -dor qo'shimchasi orqali chorvador, sarmoyador kabi shaxs otlari yasalishini; -siz qo'shimchasi esa fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga qo'shilib, harakatning shaxs-sonini ifodalashga xizmat qilayotganini esga tushiradilar.

Demak, ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimlarinigina mustahkamlash bilan chegaralanmay, bu mavzularni boshqa mavzular bilan uzviylikda o'rganish, ularni bir-biridan farqlash imkoniyatini ham yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Yunusov Q. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. Andijon, 2006.
2. Yunusov Q. Ona tilidan ta'limiy o'yinlar. Andijon, 2006.
3. Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya. Andijon, 2006.

## **БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАР УЧУН ЎҚУВ –ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ**

**3.3.Ашурова**

**Андижон вилояти Асака тумани**

**49-умумтаълим мактаби бошланғич синф ўқитувчиси**

*Аннотация. Мақолада бошланғич синфларда ўқув-тарбия жараёнида инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш ҳақида сўз борган.*

**Калит сўзлар:** инновация, технология, маъсулият.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунида таъкидланганидек, “Бошланғич таълим” концепциясида эътироф этилганидек ўқувчини мустақил фикрлашга, фаолликка ўргатувчи илғор таълим усуллари кўллаб, уларнинг нутқини ўстириш ҳозирги замон бошланғич таълимнинг энг асосий вазифаларидан биридир. Бу вазифани удалаш учун барча фанларда бирдек ҳаракат қилиш мақсадга мувофиқ бўлади. Маълумки, бошланғич таълим умумий таълимнинг асосий пойдевори ҳисобланади. Шу сабабли



бошланғич синфларда бериладиган билимлар ҳар жиҳатдан пухта ўйланган, ўқувчиларни қизиқтирадиган бўлиши ва дарслар ўйин машғулотларини ўз ичига олиб, ўқувчига маънавий озуқа берадиган тарзда амалга оширилиши талаб этилади. Кичик ёшдаги ўқувчиларга билим беришда кўзланган ижобий мақсадга эришиш учун аввало дарснинг технологик харитасини тўғри белгилаб олиш зарур. Шундагина ўқув-тарбия жараёнини самарали бошқаришга йўналтирилган педагогик технологиялардан унумли фойдаланиш мумкин экан. Чунки, янги педагогик технологиялар, хусусан, дарс беришнинг интерфаол усулларига дарҳол ўрганиш, дарров киришиб кетиш осон эмас. Бу жараён бошланғич синф ўқитувчисининг ўз устида жиддий ишлашни, изланишни, янги талабларга кўникишни талаб этади. Таълимни амалга оширишда асосий ва ҳал қилувчи жараён дарс ҳисобланади. Боланинг ақлий тарбияси, фантазияси ва ривожлантирувчи тафаккур олами шу жараёнда шаклланади. Шунинг учун дарсларда педагогик ўйинлардан мақсадли фойдаланиш зарур. Педагогик ўйинли машғулотлар ўқув усули сифатида қуйидаги вазифаларни бажаради:

1. Ўргатувчи: Маҳоратни шакллантириш, ижодий қобилиятни ўстириш; шу жумладан, янги вазиятларни тушунтириш, аниқлаш ва таҳлил қилиш.

2. Тарбиявий: масъулиятни, коммуникативни шакллантириш.

3. Ривожлантирувчи: Мантиқий тафаккурни, нутқни, атроф-муҳит шароитини ўрганиш қобилиятини ўстириш. Ўйин усулларини амалга ошириш куйидаги йўналишлар бўйича содир бўлади: - дидактик мақсад - ўқув фаолияти - ўқув материали - дидактик вазиятнинг муваффақиятли бажарилиши ўйин натижасини белгилайди. Бошланғич синфларда ўқув-тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишда мавзу асосида тайёрланган кичик тестлардан ҳам фойдаланиб бориш керак. Чунки бунда ўқувчи саволни ўқир экан бир вақтнинг ўзида ҳам нутқи ўсади, ҳам фикрлай бошлайди. Бу эса ўқувчини фаолликка ундайди. Қуйида педагогик технологиялар элементлари асосида қўлланиладиган ўйинлар ҳақида мисоллар келтираман: ”Бу нима?” ўйини. Ўйиннинг мақсади: Ўқувчиларга буюмларни қайси гуруҳга киритишни, уларнинг хусусиятига қараб бир-биридан фарқлашни ўргатиш.

”Нима ўзгарди?” ўйини. Ўйиннинг мақсади: Ўқувчиларда таққослаш, солиштириш қобилиятини шакллантириб бериш. “Ҳарфларни эсда сақла” ўйини. Бу ўйиндан савод ўргатиш даврида кўпроқ фойдаланиш мумкин. Ўйиннинг мақсади: Ўқувчиларни товушларни тўғри талаффуз этиш ва эсда сақлаб қолишга ўргатиш. Бошланғич синфларда замонавий педагогик технология усулларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг дунёқарашини, салоҳиятини ошириб, Давлат таълим стандартларини бажаришда қўл келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бошланғич таълим журнали, 2002 йил

2. Р.Ишмухаммедов, М.Юлдашев “Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар”

## СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРДА ЎҚУВЧИ МАЪНАВИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШ

Г.Мамазоитова, Қўрғонтепа туман  
34-мактаб инглиз тили ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада ўқувчиларни синфдан ташқари ишларда ўқувчилар маънавиятини тарбиялаш ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** Мактаб, тарбия, ўқувчи, маънавият, ўқитувчи, таълим, синфдан ташқари ишларда.

Фуқаролик фаолияти ўз давлати олдидаги ҳуқуқ ва бурчларини тан олишни, жамият белгилаган яшаш ва ахлоқ меъёрларига онгли риоя этишни, меҳнат ва жамоада фаолликни, маънавий етукликни барқарор этади:

– ислохотларнинг тақдири ва самараси учун жавобгар, юртимизнинг эртанги кунни ва истиқболи учун фидойи шахсларни шакллантириш борасида устувор давлат сиёсати юритувчи;

– сиёсий онглилик ва ижтимоий фаоллик, яъни давлатнинг ички ва халқаро сиёсатини тушуниш ва идрок қилиш. Ватанпарварлик ва байналмилалликни ҳис этиш, ижтимоий сиёсий ҳаётда фаол қатнашишга шай туриш;

– халқ, давлат олдидаги фуқаролик бурчи, яъни қонунчилик тамойилларини, ўзининг Ватан, маҳалла, оила олдидаги ҳуқуқ ва бурчларини билиши, уларга қатъий амал қилиши. Қонунчиликнинг бузилишига мурасасиз муносабатда бўлиш;

Жамоат ташкилотлари ўқувчилар билан дарсдан ташқари вақтларда олиб бориладиган хилмағхил машғулотларни ўқитувчилар ёрдамида ташкил қиладилар. Синфдан ташқари ишлар ўз мазмунига кўра жуда хилма-хил: ижтимоий-сиёсий, илмий, ижтимоий фойдали, бадан тарбия-соғломлаштириш ишлари бўлади. Синфдан ташқари ишлар уч хил формада: оммавий, тўғарак ва индивидуал формаларда ташкил қилинади.

**Оммавий** : Эрталиклар, мактаб кечалари, болалар байрамлари, кўриклар, қувноқлар ва топқирлар тўғараги, сайр, синф ки мактаб музейлари, болалар ишларининг кўргазмалари в ҳоказолар.

**Тўғарак ишлари**: мактабдаги ҳар бир тўғарак ўзининг доимий иш кунлари ва соатларига эга бўлиши лозим. Тўғаракда қатъий интизом бўлиши: тўғарак аъзолари машғулотларига кечикмасдан келишлари, тўғарак топшириқларини батартиб бажаришлари, тўғаракнинг моддий бойликларини эҳтиёт қилишлари керак.

**Синфдан ташқари индивидуал иш**: ҳар бир ўқувчи майл ва қобилиятларининг ривожланишига рдм беради. Бу ишд синфдан ташқари ўқиш катт аҳамиятга эга. Мактабда ҳар бир синф учун синфдан ташқари ўқиш дстури бор. Ўқувчининг нима ўқиётгани ва ўқиган нрсаларини қандй идрок қилаётганини ўқитувчи билиши жуда муҳим. Шунинг учун ўқитувчининг синфдан ташқари ўқишга раҳбарлиги энг яхши китобларни тарғиб қилиш ва ўқувчиларда ўқилган дарсликларни тўғри, чуқур идрок этишни ривожлантиришдан иборат.

Индивидуал топшириқларнинг турлари жуда кўп бўлиб, ўсимликлар ўстириш, гуллар, сзвотлар етиштириш ҳам ана шундай топшириқлар жумласига киради. Индивидуал топшириқларда ҳар бир ўқувчининг имконият ва қизиқишлари ҳисобга олинса, улар болаларнинг қобилиятлари, истеъдодларини ўстиришга ёрдам беради.

Ўқитувчи таълим жараёнида болаларнинг маданий эҳтиёжлари ва камолот даражаларини аниқлаш билан шуғулланади. Уларга мувофиқ тарзда айрим ўқитувчилар, гуруҳ ёки бутун синф билан олиб бориладиган синфдан ташқари ишларни режалаштириш.

Тарбия ҳақида Шайх Саъдий узининг «Гулистон»асарида шундай деб ёзган эди: «Кимда - ким ёшлиқдан тарбия олмаса, катта булгач бахтли була олмайди.Хўл новданинг эса факат оловда тоблаб тўғирлаш мумкин ».

Тарбия ҳақидаги бу ғоя авлод аждодларимиздан бизга етиб келган буюк мерос бўлиб, у комил инсонни вояга етказишда муҳимдир.Тарбия туғулгандан бошланмоги лозим.

Тарбия-тарихий ва ижтимоий ходисадир.Тарбия инсонларнинг фаолияти жараёнида уларнинг онги ва иродасини устиришга хизмат қилади. Шу билан биргағтарбия ижтимоий ходиса булиб,инсоният таракқиётининг турли босқичида узига хос мазмун ва амалга ошириш шаклига эгадир.

Юкоридаги омиллар бйр-бири билан боғланган булиб,у А.Авлоний айтганидек: «Агар инсон яхши тарбия топиб,бузуқ хулқлардан сақланиб,гўзал хулқларга одатланиб катта бўлса,харким қошида мақбул бахтиёр бир инсон чикар...».Шу сабабдан А.Авлоний тарбиянинг инсон ҳаётида зарурлигини назарда тутиб «Тарбия ҳаёт ё мамот» деб таъкидлаган эди.

Тарбиявий жараён онгли маъсулиятли фаолият бўлиб,унга тарбияланувчиларни комил инсон килиб тарбиялашда ҳар томоналма таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни: Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ, 1997.-20-29 -бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»: Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ, 1997.-31-61 -бетлар.
3. Абдуазизов А. Соҳибқирон жаҳон кўзгусида. Ғғ Халқ сўзи, 1996.-14 февраль.

## **BOSHLANG'ICH O'QUVCHILARINI MA'NAVIY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBİYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH.**

**F.Jumaboyeva, Buloqboshi tumani  
18- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodining eng ommabop janrlaridan biri bo'lmish ertaklar orqali o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, insoniy fazilatlarini shakllantirish va ertaklar orqali barkamol shaxsni tarbiyalash borasidagi fikrlar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, og'zaki nutq, barkamol shaxs, ma'naviy yetuklik.*

Boshlang'ich ta'lim yurtimiz kelajagini yuksak darajalarga ko'taradigan komil shaxsni yaratishda mustahkam poydevor rolini o'ynaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashdagi muhim vazifalarning salmoqli qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, o'qish darslarida xalq og'zaki ijodining eng ommabop va qiziqarli bo'lgan janrlaridan biri bo'lgan ertaklarni o'quvchilar katta qiziqish bilan o'qiydilar va o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xalq og'zaki ijodi namunalaridan dastlab ertak janri bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarining barchasiga ko'plab ertaklar kiritilgan.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, oilaga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O'quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida bilim berish.
3. O'quvchilarda ertak materiallarini o'qishga qiziqish uyg'otish.
4. O'quvchilarning o'qish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish.
5. Texnika vositalaridan foydalanishga malaka hosil qilish.

Ertaklarni o'qish darslaridan ko'zlangan asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qish orqali o'quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, o'rtoqlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o'zini tuta bilish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, o'qishga ongli munosabatda bo'lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozim.

Har qanday ma'naviyatli inson avvalo rostgo'y, halol va mehnatsevar bo'lishi lozim. O'zbek xalq ertaklarida ham ana shunday fazilatlar ulug'lanadi. Yolg'onchilik, baxillik, hasad va dangasalik kabi illatlar qoralanadi. Ana shunday mazmundagi ertaklar boshlang'ich sinflarda o'qib-o'rganilganda, o'quvchilarda yuqorida ta'kidlangan insoniy fazilatlar kamol toptirilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar juda ta'sirchan bo'ladilar, ular ertaklarda berilgan ezguliklardan quvonadilar, yovuzliklardan esa nafratlanadilar. Ana shu jarayonda o'quvchilarda komillik xislatlarini shakllantirish ayniqsa alohida o'rin tutadi.

O'quvchilarga ertakda berilgan har bir ezgu fazilatga o'zlari tanigan, bilgan odamlardan misollar keltirish topshirilsa, ularda ana shunday fazilatli insonlarga havas uyg'onadi. Ularning o'zlari ham shunday bo'lishga astoydil harakat qiladilar. Zero, ertakni o'qitishdan ham maqsad shu edi aslida.

Boshlang'ich sinf "O'qish" darsliklarida berilgan har qanday ertakning zamirida o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shu g'oyani ilg'agan tarzda o'z darslarini rejalashtirsa va tashkil etsa o'z pedagoglik vazifasini ado

etgan bo`ladi. Zero, ma`naviyati yuksak, har tomonlama rivojlangan komil shaxsgina yurtimiz kelajagini yuksaltira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Anorboyev A. Badiiy asar- ma`naviy boylik// Boshlang`ich ta`lim, 2018, 6son.
2. Farsaxonova D. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari // Boshlang`ich ta`lim, 2019, 6-son.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi.- Toshkent: "O`qituvchi", 1990.

## **BOSHLANG`ICH SINFLARDA LATIFALARNI O`RGANISH ORQALI O`QUVCHILARDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH.**

**Sh.Jumayeva Buloqboshi tumani**

**18-umumta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi.**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda xalq og`zaki ijodining latifa janrini o`rganishda ahamiyatli jihatlar, latifa orqali o`quvchilarni yaxshilikka, ezgulikka chorlash masalalari haqida so`z yuritilgan.*

***Kalit so`zlar:** kinoya, qochirim, lutf, latif, xalq og`zaki ijodi.*

Latifa xalq og`zaki ijodining ommaviy janrlaridan biri bo`lib, nozik kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyadir. Latifa atamasining kelib chiqishi arabcha latif va lutf so`zlaridan olingan bo`lib, ko`p ma`noli so`z, qochirimlardan iborat bo`lgan kulgili hikoyani anglatadi. Latifalar yagona qahramon (Nasriddin Afandi) bilan bog`liq holda yaratiladi. Latifalarning eng muhim xususiyatlaridan biri uning hamma vaqt hayot bilan hamnafas, hamqadam borishidir.

1-sinf „O`qish kitobi“ darsligida «Uyqum qochib ketdi», «Tuya eshikdan sig`maydi» kabi latifalar keltirilgan bo`lsa, 3-sinfda «Latifalar» mavzusi ostida bir nechta latifalar berilgan. Latifa matni ustida ishlashda hikoya matni ustida ishlashda qo`llangan usullardan foydalanish mumkin. Lekin bunda latifa janrining o`ziga xos jihatlari ham ahamiyat qaratish lozim bo`ladi. Boshlang`ich sinflarda latifalar ustida ishlaganda ularda tanqid qilingan illatlar haqida alohida to`xtalib o`tish, suhbatlashish, bu illatlarning mohiyati ochilgan holda o`quvchilarga yaxshi fazilatli bo`lish kerakligini uqtirib o`tish kerak. Xususan, 1-sinfda „Tuya eshikdan sig`maydi“ latifasida Afandining aldoqchi kishiga munosabatini izohlash orqali uning o`ta aqlliligiga, so`zamol ekanligiga diqqat qaratiladi. Afandini yosh bola bilib, uning nonini tortib olmoqchi bo`lgan kishi haqida suhbatlashiladi. Bunda bu kishi sizga yoqdimi? Unga qanday munosabatda bo`lish mumkin? Siz Afandining javobidan qoniqdingizmi? savollari beriladi. O`quvchilar bunday kishilardan nafratlanish, uzoqroq yurish kerakligini, u kishi aldoqchilik yo`li bilan yosh bolaning nonini yemoqchi bo`lgani salbiy holat ekanligini bilib oladilar. Hayotda shunday kishilar ham borligini, ammo ularga aldanib qolmaslik lozimligini, xuddi Afandiday aql-farosat bilan ish ko`rish zarurligini o`zlashtiradilar. Bu latifani o`qish orqali o`quvchilarda aldoqchi kishilarga qarshi nafrat va aldoqchilikning yomon illat ekanligi haqidagi tasavvurlar paydo bo`ladi. 3-sinf darsligida ham „Xalq og`zaki ijodi“ bo`limida uchta latifa berilgan bo`lib, ularni o`qib-o`rganish jarayonida ham o`quvchilarda latifada tanqid ostiga olingan illatlardan saqlanish, aksincha bunday illatlarga qarshi kurashish tuyg`ulari uyg`otiladi. „Hushtakka tugma“, „Afandi mergan“, „Gap bitta“ latifalarining ham qahramoni Afandidir. Har bir latifada uning turli insoniy fazilatlarini namoyon bo`ladi. O`qituvchi ana shu qirralarning mohiyatini o`quvchilar ko`z oldida shakllantira olsagina, latifalarni o`qishdan ko`zlangan tarbiyaviy maqsadga erishilgan bo`ladi. Masalan, „Hushtakka tugma“ latifasida maqtanchoqlik kulgiga olinadi. Ushbu latifa o`qilganda maqtanchoqlikning yomon illat ekanligiga alohida urg`u beriladi. Uning mohiyatiga mos ravishda „Maqtanma g`oz, hunaring oz“, „Kamtarga kamol, manmanga zavol“ kabi maqollardan ham foydalaniladi. Zero, kamtarlik insonni yuksaklikka eltishi, maqtanchoqlik esa uning zavoliga sabab bo`lishi tushuntiriladi. 3-sinfda „Afandi mergan“ va „Gap bitta“ latifalarini o`qib-o`rganishda ham o`quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlar shakllantirilishiga e`tibor beriladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinadiki, latifalarni o`qish orqali boslang`ich sinf o`quvchilari ko`pgina illatlarni kuzatish orqali insoniy fazilatlarining mohiyatini bilib oladilar, unga hayotlari davomida rioya qilsihlari lozimligini anglaydilar. Demak, boshlang`ich sinf o`quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalashda latifalarning ham alohida o`rni borligini, ularni o`rganish darolarida o`qituvchi buni hisobga olishi zarurligini e`tirof etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.

2. Anorboyev A. Badiiy asar- ma'naviy boylik// Boshlang`ich ta'lim, 2018, 6-son,

## **SINFDAN TASHQARI ISHLAR ORQALI O`QUVCHILARNI IJODKORLIKKA O`RGATISH**

**B.Gulbahor – Asaka tumanidagi**

**9-umumta'lim maktabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi**

*Maqolada boshlang`ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar orqali o`quvchilarni ijodkorlikka o`rgatish xususida fikr yuritilgan, o`quvchilarning ijodkorligini oshirish haqida mulohazalar ifodalangan.*

*Kalit so`zlar: sinfdan tashqari ishlar, ijodkorlik, to`garaklar*

Sinfdan tashqari ommaviy ishlar turlari ichida to`garak mashg`uloti muhim rol o`ynaydi. To`garak mashg`ulotlari turli mavzularda o`tkazilib, o`quvchilarda badiiy ijodga qiziqish uyg`otishda, ularning fikrlash qobiliyatini kamol toptirish va dastur materiallarini puxta o`zlashtirishlarini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. O`quvchilarda badiiy adabiyotga, yozuvchining ijodiga qiziqish uyg`otish va o`stirish, ijodkorlik qobiliyatini o`stirish, tarbiyalash va rivojlantirish to`garaklar oldiga qo`yilgan asosiy vazifadir. To`garak mashg`ulotlarida ifodali o`qish, adabiy ijodkorlik, adabiy o`lkashunoslik faoliyatlarini o`stirishga e'tibor beriladi.

Maktabda tashkil etiladigan to`garaklar ifodali o`qish, adabiy-ijodiy va drama to`garaklaridan iborat bo`ladi. Bu to`garaklar boshlang`ich sinflarda alohida nom bilan, "Ertaklar olamiga sayohat", "Ertaklar olami", "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" nomlari bilan yuritiladi.

"Ifodali o`qish" to`garagida o`quvchilarning xotirasini mustahkamlash, ularning og`zaki nutqini o`stirish, nutqinng ravon bo`lishiga erishish asosiy masala hisoblanadi. Shu jihatdan bu to`garakda ertaklar bilan bir qatorda, she'rlar bilan ishlashga ham katta e'tibor beriladi. She'riyat ham ertaklar kabi o`quvchini o`ziga bir zumda jalb qiladigan alohida ahamiyatga ega. Bu xususiyat uning tantanavorligi, musiqiyiligi, jo`shqinligi hamda she'rda ifodalangan g`oyaviy mazmunga bog`liqdir. She'r ustida ishlashda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish o`qituvchidan katta e'tiborni, mas'uliyatni talab qiladigan vazifadir. She'r o`quvchi xotirasini mustahkamlash, chiroyli so`zlash, biyron, burro gapirishga o`rgatibgina qolmay, balki ularda nafasat tarbiyasini ham shakllantiradi. Bolalar boshlang`ich sinflarda, asosan, kichik hajmli she'rlar bilan tanishadilar. To`garak mashg`ulotlarida ham she'rning hajmi hamda uning bola ruhiyatiga mosligi hisobga olinadi. Bolaning qalbida adabiyotga bo`lgan mehrning shakllanishida boshlang`ich sinf o`qituvchisining, boshlang`ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarning roli va o`rni nihoyatda kattadir. Zero, adabiyotga oshno qalb ezgulikka yo`g`rilgan bo`ladi, yovuzlik ko`chasidan o`tmaydi, insoniy fazilatlariga boy bo`ladi.

Ommaviy ishlarni tashkil qilish, tayyorlash, senariylar tuzish, o`quvchilarni ommaviy ishlarda qatnashishga tayyorlashda boshlang`ich sinf o`qituvchisi markaziy o`rinda turuvchi asosiy figuradir. Chunki boshlang`ich sinf o`quvchilarida hali ommaviy ishlarni tashkil qilish va o`tkazish uchun yetarli ko`nikma shakllanmagan bo`ladi. Sinfdan tashqari ishning hamma turida o`qituvchi muhim rol o`ynaydi va asosiy figura sanaladi. O`qituvchi o`quvchilarning o`zaro hamkorligiga boshchilik qiladi, taassurotlarni yakunlaydi, o`quvchilarning ijodiy ish bilan shug`ullanishlariga rahbarlik qiladi, endigina ijodiy ishga kirishgan o`quvchilarga ijod sirlarini o`rgatadi, shu yo`l bilan ularda mustaqil fikrlash ko`nikmalarini o`stirib, taraqqiy ettiradi.

To`garak ishtirokchilari hayotda ko`rganlarini, hayotiy voqea va bilgan kishilari to`g`risida ertak, hikoya, she'r, insho, ocherk kabi yozma ishlar yozishlari mumkin. Albatta, bu yozma ishlar

kichik hajmli bo‘ladi. Shunday vaqtlarda o‘qituvchi ularda ijodga qiziqish hissini o‘stirib borish bilan birga, ularni asta-sekin badiiy so‘z olamiga olib kiradi. Ba’zi hollarda o‘qituvchilar bolalar bilan adabiy-ijodiy to‘garaklar tashkil qilishni yuqori sinflar uchun zarur deb o‘ylashadi. Bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki boladagi ijodiy qirralar, uning tabiat va jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan sinchkovligi, boladagi bu voqeani ravon so‘zlab berish qobiliyati va imkoniyati, ularning so‘zamolligi, ba’zan katta yoshdagi kishilarning ham esiga kelmaydigan fikrlarni topib ayta olish xususiyati juda erta uyg‘ongan bo‘ladi. O‘qituvchi esa boladagi bu qirrani kashf eta bilishi, yoshligidan unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata bilishi, ruhlantira olishi kerak.

To‘garak ishtirokchilarining o‘zlari yashab turgan qishloq, tuman, shaharlarda xalq maqollari va topishmoqlar, qo‘shiq, ertaklarni o‘rganib, keyin to‘plam holiga keltirishlari (albatta, sinf o‘qituvchilari yoki to‘garak rahbarlari yordamida) ham muhim ishlardan biridir.

Shuni aytib o‘tish kerakki, jurnal yoki to‘plam uchun o‘quvchilar tayyorlagan materiallar saviyasi uchun sinf o‘qituvchisi mas’ul bo‘ladi va bu narsa o‘qituvchidan katta mehnatni talab qiladi. Chunki bu ish o‘quvchilar tayyorlagan ishlarga qo‘shimcha ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarni uzluksiz izlanishga rag‘batlantirish, ular bilan jonli va mustahkam aloqa o‘rnatgan holda do‘stlik va o‘zaro samimiy munosabatni shakllantirish va mustahkamlashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari ishlarni yuqori saviyada tashkil etish bilan o‘qituvchi o‘quvchilarning badiiy didini, adabiy faoliyatini, intellektual qobiliyatlarini o‘stiradi, sinfda bergan bilimlarining puxta o‘zlashtirilishiga erishadi, o‘quvchilarda adabiyotga havas, qiziqishni o‘stiradi. Bu ishlarni samarali amalga oshirishda asosiy omil o‘quvchilarning o‘z mehnatlari samarasini, go‘zalligini ko‘rishlari, his qilishlaridir. Bu – o‘quvchilarni o‘zbek xalqining madaniy boyligini oshirish, madaniyatini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shish ruhida tarbiyalashda eng muhim masaladir.

Har bir to‘garakning yashashi va rivoji o‘quvchilarning o‘z xohishi bilan qilgan tashabbuskorligiga bog‘liq bo‘lib, ularda tashabbuskorlikni kamol toptirishda o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi. Chunki bolalarning qiziqishlari beqaror bo‘ladi, ularning diqqatini asosiy maqsadga qaratuvchi shaxs – o‘qituvchidir.

Maktabda ona tilidan sinfdan tashqari ishlar, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan qiziqishlari, hurmatini shakllantiribgina qolmay, balki ularda jamoatchilik, do‘stlik, hamjihatlik, ziyaraklik, shijoatkorlik, ijodkorlik tuyg‘ularini shakllantiradi, kamol toptiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo‘l polygraph service”, 2010. 16-bet.
2. Qosimova K va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T.: “Noshir”, 2009.

### **O‘QISH DARSLARIDA ERTAKLARNI O‘RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

**B.Y. Mamadaliyeva Qo‘rg‘ontepa tumani  
27-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

*Annotatsiya.* Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ertaklarni o‘rganiish jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash imkoniyatlari haqida bayon etilgan, qo‘llanilgan metodlardan misol va dars ishlanmasi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish darsi, ertak, interfaol metod.

Bugungi kunda o‘quvchilar radio, televizor, gazeta-jurnallar, kompyuter, internet tarmog‘i, turli muloqotlar orqali ko‘plab axborot oladilar. Shu sabab ular fikrlash borasida hatto o‘zlariga bilim beruvchi ba’zi o‘qituvchilardan ham o‘zib ketishi mumkin. Bu hol esa o‘qituvchidan izlanuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi. Yangi usullar bilan dars o‘tish, o‘quvchilarni ko‘proq erkin fikrlashga o‘rgatishga da’vat etadi.

Interfaol usullar asosida dars o‘tish o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va ularning faolligini oshiradi. Natijada o‘zlashtirish darajasi ortadi.

Mashg'ulotlardagi interfaol faoliyat quyidagi 5 asosiy elementlarda yig'iladi: pozitiv o'zaro qaramlik, shaxsiy mas'uliyat, ko'mak beruvchi o'zaro hamjihatlikda harakat qilish, birgalikda ishlash va guruhlarda ishlash ko'nikmalari bilan bog'liq bo'ladi. Buning uchun mashg'ulotlarda yakka tartibda juft-juft bo'lib va guruh bo'lib ishlash tashkil qilinadi, tadqiqot loyihalari asosida rollar taqsimlangan o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va turli-tuman informatsiyalar manbalari bilan ishlar olib boriladi, ijodiy ishlar qo'llanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash”, “Miya jangi”, “Kim oshdi savdosi” “Reklama” “Rolli o'yinlar”, “Munozaralar” kabi interfaol o'qitish usullaridan foydalanib o'tkazilgan darsda o'quvchilar uchun avvalgi mashg'ulotlarda yoki hayot tajribalarida o'zlashtirilgan birlamchi bilimlar va tasavvurlar asosida umumiy muammolar muhokama qilinadi va bunday mashg'ulotlar yuqori samara beradi.

Bunday ijodiy ishlar o'qituvchidan o'z ish faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o'ylash va izlanishga yo'naltiruvchi lingvodidaktik va lingvopsixologik topshiriqlar bilan to'yintirish, lozim bo'lsa, shunday yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z mashg'ulotlarida qo'llashni taqozo etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo'naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda va sinfdan tashqari dars mashg'ulotlari ushbu metodda tashkil etilganda o'quvchilar erkin fikrlaydi, munozara-bahs yuritadi. Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson kechmaydi. Bunda o'qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, nazokat va muloqatga kirishuvchanligi hamda boshqa xususiyatlari qo'l keladi.

**Mavzu:** “Chaqimchiga “mukofot” (Ertak).

**Yangi mavzu bayoni.**

– Bugun sizlar bilan “Chaqimchiga “mukofot” ertagi bilan tanishamiz. O'quvchilar ketma-ket matnni o'qiydilar. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar.

**Lug'at ishi:**

**shikor** – ov **voqif** – bilib qoldi, ogoh bo'ldi

**xiyonat** – va'dasini buzdi **tazarru** – tavba qildi

Mavzu yuzasidan **“Mosini top” o'yini** o'tkaziladi.

hokim	Jilovdor
saxiy	Landavur
ziyrak	Baxil
oqko'ngil	vafodor
bevafo	ichi qora

O'quvchilarga “Chaqimchiga “mukofot” ertagini “Ichda o'qish” usulida o'qitiladi va qayta hikoya qildiriladi.

Quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Hokim otboqardan nimani iltimos qildi?
2. Chaqimchilik qanday odat ekan?
3. Hokimning ukasi qanday yo'l tutdi?
4. Chaqimchi otboqar qanday jazo oldi?
5. Chaqimchilik haqida o'z fikringizni bayon eting.

**“T-chizma” metodi** orqali qahramonlarga tavsif beriladi.

Bu metod muammoli xarakterdagi mavzuni yakunlashda qo'llaniladi. O'quvchilarda tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, hamda o'z g'oyalarini va fikrlarini yozma yoki og'zaki bayon etish, ularni himoya qilishga imkon beradi. Dastlab o'quvchilar qoidalar bilan tanishtiriladi. “Chaqimchiga “mukofot” ertagining g'oyaviy yo'nalishini aniqlashda yoki qahramonlarga ta'rif berishda bu metod aniq tasavvur xosil qilishga yordam beradi.

Savol: Chaqimchilik haqida o'z fikringizni bayon eting.

Afzalliklari

Kamchiliklari

---

O'rganilganlar yuzasidan savol-javoblar o'tkaziladi.

1. Salbiy odatlar aks etgan yana qanday ertaklarni bilasiz?

2. Chaqimchilik haqida maqollar bilasizmi?

Dars xulosalanib, faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Boshlang'ich sinflar darslarida interfaol mashg'ulotlarni o'tkazishdan asosiy maqsad bolalarda mustaqil fikrlash, to'g'ri so'zlash, jonivorlar, narsa-buyumlarni to'g'ri nomlash, sanoq va miqdorni, katta va kichikni taqqoslash va farqlash, ular orasidagi o'zaro o'xshashlik va farqni ko'ra bilish, ularning lug'aviy ma'nolarini sharhlash kabi nutqiy-tafakkuriy ko'nikmalarni, ravon og'zaki nutqni hosil qilishdan iborat. Bu esa bolani intellektual rivojlanishga yo'naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashga odatlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.

2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. o'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.

## **ERTAK G'OYASINI ANIQLASHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH**

**F.M. Mamatisaqova Shahrixon tumani  
22-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida ertaklarni o'rganish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qish darsi, ertak, ta'limiy o'yin.*

Kundan kunga rivojlanib borayotgan Mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish va jamiyatni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishi ta'lim tizimiga qaratilgan.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosh g'oyasi – komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bu g'oya jamiyatni rivojlantirishning o'stuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, Mustaqillikning ilk kunlaridan beri hukumat diqqat markazida turibdi. “Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi.” [1]

Ona tili ta'limi tizimida o'qish darslari alohida o'rin egallaydi. O'qish darslari savod o'rgatish davridan boshlanib, bu darslarda o'quvchilar xalqining boy adabiy merosi bilan tanishadilar.

O'qish darslarida o'quvchilarning yaxshi o'qish sifatlari: ongli, to'g'ri, ifodali, tez va ichdan o'qish malakalarini shakllantirish usullari ko'p va ular ustida ishlashda o'qituvchi bir qator ta'limiy vositalarni qo'llaydi. Ana shu vositalardan biri va muhimrog'i ta'limiy o'yindir. Ta'limiy o'yin boshlang'ich sinflarda quyidagi ahamiyatlarga ega:

1.O'yin darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi, mashg'ulot qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

2.Darsda o'quvchilarning zerikishi, sustkashligi barham topadi, bolalarning o'qilayotgan matnga qiziqishi ortib boradi.

3.O'quvchining fikrlash darajasi kuchayib boradi. U o'yin davomida qo'yilayotgan topshiriqni mantiqiy xulosa chiqarish yo'li bilan bajaradi.

4.O'quvchida mustaqil fikrlash kuchayib boradi.

5.O'quvchida o'z jamoasi muvaffaqiyati uchun kurashish hissi tarkib topadi.

6.Matnlarni ongli o'qish rivojlanib borgan sari bola xarakteridagi fazilatlar ko'payib boradi.



Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida har qanday matn ustida ishlashda ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin.

### **«Burchaklar» o'yini**

Xonaning to'rt burchagiga asar qahramonlari nomlari yozilgan plakatlar ilib qo'yilgach, o'quvchilardan o'zi xohlagan burchakka o'tishi so'raladi.

Har bir burchak a'zolari o'zlari tanlagan burchakdagi qahramonni himoya qilib, dalillar asosida so'zlaydilar. Shundan keyin o'zaro savollar beriladi, ya'ni savol-javob o'tkaziladi.

Asosli dalillar, mulohazalar tufayli o'quvchilar o'z «tanlov»ini o'zgartirishi, boshqa burchakka o'tishlari mumkinligi aytiladi.

Bu o'yinni darsning fikrlash bosqichida qo'llash mumkin. Asar matni o'rganib bo'lingach, qahramonlarni baholash, ularni ta'rif - tavsiflash uchun bu usul qo'llanadi. Bu orqali o'quvchilarning tanlash, fikrlash, baho berish, o'z fikrlarini yorqin va ravshan yetkazib berish qobiliyati rivojlanadi. Asar qahramonlaridagi ijobiy xislatlarni o'zlashtirishga, komillikka yetaklaydi, o'quvchilarni ziyraklikka, e'tiborli bo'lishga o'rgatadi.

### **«Zarbulmasal» o'yini**

Biror asar mazmuni o'rganilgach, asar mazmuniga mos maqollar topish vazifasi so'raladi. Masalan: 4-sinfda «Olti yuz so'm» hikoyasini o'qigandan so'ng o'quvchilar «O'g'ri bo'l, insofli bo'l» tarzidagi maqollarni aytib, izohlab beradilar. Yoki 3-sinfidagi «Qoida» hikoyasini o'qigan o'quvchi «qilmish-qidirmish», «Yaxshiga yondosh, yomondan qoch», «Yaxshining sharofati, yomonning kasofati tegar», «Yaxshidan bog', yomondan dog' qolar» kabi maqollarni aytib, asar g'oyasiga mos izohlar beradi. Bu o'yin o'quvchilarning xalq og'zaki ijodiga qiziqishini oshiradi, fikr doirasini kengaytiradi, nutqini o'stiradi.

**“Hunarsiz kishi o'limga yaqin” ertagini o'rganishda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin:**

**“Hunarlarni top” o'yini.** O'quvchilar 4 kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhga ma'lum bir hunar beriladi. Har bir guruh o'ziga berilgan hunarga ta'rif beradi. Eng yaxshi ta'rif bergan guruh g'olib bo'ladi.

**“Kim topqir” o'yini.** O'quvchilar ekranda berilgan ertak voqealari ketma-ketligini aniqlashadi. Voqealar o'ziga mos raqamli gulning ustiga tartib bilan joylash lozim bo'ladi. Kim to'g'ri va tez topsa, g'olib bo'ladi.

Javoblar:

1. Podshoh ovga chiqdi.
2. Podshoh go'zal qizni sevib qoldi.
3. Qiz sovchilarga rad javobini berdi.
4. Podshoh muallim bilan kengashdi.
5. Podshoh gilam to'qishni o'rgandi.
6. Qiz to'yga rozilik berdi.

**“Harfdan gapgacha” mashqi.** O'quvchilar berilgan harflardan birini tanlaydilar va sxemalar asosida avval shu harf ishtirok etgan so'zni, so'ng shu so'z qatnashgan gapni topib, o'qiydilar.

**Yerto'la.** Yerto'lada podshohdan boshqa bir necha odamlar ham bor ekan.

**Kabobchi.** Kabobchilar gilamni podshohning o'rdasiga olib bordilar.

Topshiriqni faol bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Ta'limiy o'yinda ishtirok etish o'quvchilarda shiddat bilan harakat qilishni tarkib toptiradi. Shuning bilan birgalikda o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida jiddiy o'zgarishlarni yasaydi: diqqati kuchayib boradi, faoliyati rivojlanadi, qiziqishi ortib, nuqsonlari yo'qolib, xotiralari mustahkamlanib boradi. Matnlar mazmunini idrok eta olish qobiliyati kuchayadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
2. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Toshkent. 2001.

## BOSHLANG'ICH SINFLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI.

**B. Marasulov Andijon viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi**

*Annotatsiya: Maqolada, Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, o'quv faoliyati, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, motiv.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qollanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bolishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u

Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

— ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

— loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha-sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o'stirishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
4. Azizxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**

**Z.Nosirova Buloqboshi tumani**

**18-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatishda yuqori samaradorlikka erishish uchun darsni qanday tashkil etish, qanday metod va usullardan foydalanish, darsga barcha o'quvchini barobar jalb qilish borasida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim mazmuni, hamkorlikda o'qitish, guruhlarda ishlash metodlari, yozma bahs usuli.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonining mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida savodxon, bilimli, nazariyani amaliy ishlarda bimalol tushuntira oladigan, o'quvchi o'z ehtiyoji talab qilgan darajadagi o'quv materialini o'zlashtiradigan darajada tarbiyalab berishni talab etmoqda.

O'quvchilarni faollikka undash va bilimlarni puxta o'zlashtirishida darsda interfaol usullardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchi nuqtai-nazaridan turib yondashish o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyati mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalardan amaliy faoliyatlarida albatta foydalanadilar. Mashqlarni aniq bajarish usullari va texnikalarini chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan amaliy mashq usullaridan bir bu yozma bahs usulidir. Bunday usulda muloqot o'rnatish natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash va o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi. Og'zaki muloqot jarayonida bayon qila olmagan fikrlarini bimalol yozma shaklda bayon qilish uchun sharoit yaratiladi. Ona tili darslarida so'z turkumlarini chuqur o'zlashtirishda hamkorlikda o'qitish usullari bizga yaqindan yordam beradi. O'qituvchi o'quv

dasturidan o'rin olgan «Ot» mavzusini o'rgatishda o'quvchilar guruhi uchun mustaqil ishlab o'rganishlariga imkon beradigan o'quv topshiriqlarini tuzadi.

Ona tili darsini boshlashdan oldin o'quvchilarni bir necha guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etishi mumkin. Har bir topshiriq bo'yicha alohida savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholanib boriladi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish usulidan foydalanib, o'tiladigan dars jarayonini quyidagicha loyihalash mumkin:

I. Tashkiliy qism:

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash:

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzu bayoni: A) o'quvchilarni guruhlariga ajratib, guruh a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda tartibli bajarilishiga erishish: B) o'quv materialini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan guruhlararo savol-javob, o'quv bahsi o'tkazish orqali mavzuni mustahkamlash.

VI. Mavzu matnida berilgan o'quv mashg'ulotini uyushtirish.

VII. Test savollari yordamida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.

VIII. Yangi mavzu ustida qayta ishlash va yakunlash.

IX. Uyga vazifa berish. Guruhlar o'rtasidagi o'quv bahsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o'quvchilarni va ularning jamoasini tegishli ballar bilan rag'batlantirish bilan darsni yakunlash.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1995.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009. 14.
3. Qosimova K. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. 10-nashr. –T.; —O'qituvchi 2010
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O'qituvchi».

#### 4–ШЎБА: БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ.

##### BOSHLANG'ICH BOSQICHDA O'QUVCHILARNI CHET TILI DARSLARIDA O'QISHNI O'RGATISH

M.M.Asranova o'qituvchi, ADU

*Anotatsiya:* Maqolada boshlang'ich bosqichda chet tili darslarida o'qitishga eng samarali usullari xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari kichik yoshdagi bolalar bilan dars jarayonini qiziqarli olib borish va ularni qiziqishlarini hisobga olish yuzasidan tavsiyalar ham beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'qish, intellektual, xotira, nutqiy faoliyat, og'zaki muloqot

Boshlang'ich bosqichda ham bolalarni chet tilida o'qish jarayoniga bevosita o'rgatish ham ijobiy bahoga ega. Uning afzalliklarini sarhisob qilganda shuni ta'kidlash mumkinki, bilvosita aloqa shakli sifatida chet tilida o'qishni boshlang'ich maktab yoshidan boshlang'ich qobiliyatidan qat'iy nazar barcha bolalar uchun foydalidir. Bu bolaning aqliy funktsiyalarining rivojlanishiga shubhasiz ijobiy ta'sir ko'rsatadi: uning xotirasi, e'tibor, fikrlash, idrok, tasavvur va hk. O'qishni o'rganish bolaning umumiy nutq qobiliyatiga ta'sir qiladi. Chet tilida o'qishni erta o'rganish birinchi xorijiy tilni bilish sifatini oshirish nuqtai nazaridan katta amaliy samara beradi, uni boshlang'ich maktabda o'qishni davom ettirish uchun zamin yaratadi.

Dastlabki bosqichda chet tilida o'qishni o'rgatish yosh maktab o'quvchilarini ular uchun yangi til dunyosi bilan tanishtirishga yordam beradi va bolalarda chet tilida gaplashish istagi va uni yanada o'rganishga ijobiy munosabat shakllanadi. Bu sizga yosh o'quvchilarni xorijiy tengdoshlar dunyosi, xorijiy qo'shiq, she'riyat va ertak folklori, shuningdek, o'rganilayotgan chet tilidagi bolalar badiiy adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga imkon beradi. O'qishni o'qitish jarayoni ona tili va xorijiy tillarda kuzatiladigan ba'zi universal lingvistik tushunchalarni yaratishga imkon beradi va shu bilan o'quvchilarning intellektual, nutqiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich maktab yoshida talabalar hali ham chet tilini o'rganishda psixologik to'siqlarga duch kelmaydilar. Aksincha bolajonlar kerakli ko'nikmalarni ancha tezroq o'zlashtiradilar. Ular quloq tovushlari, so'zlar, iboralar va xorijiy tillarning jumllarini talaffuz qilishni va farqlashni, jumllarning asosiy turlarining intonatsiyasini kuzatishni o'rganadilar.

Bolalar o'rganilayotgan tilning asosiy grammatik toifalari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar, o'qish va tinglashda o'rganilgan lug'at va grammatikani taniydilar va og'zaki muloqotda foydalanadilar, ovoz chiqarib o'qish texnikasini o'zlashtiradilar, kirish va o'qishni o'qitish usullaridan foydalanib, o'zlariga tushunrali bo'lgan yengil asl matnlarni o'qiydilar.

O'qitishning muvaffaqiyati va talabalarning fanga bo'lgan munosabati ko'p jihatdan o'qituvchining darslarni qanchalik qiziqarli va hissiy jihatdan o'tkazishiga bog'liq.

Boshlang'ich bosqichda chet tilida o'qishga o'rgatish tabiatan mustaqil bo'lishi kerak, zo'ravonlik ostida amalga oshirilmasligi kerak, lekin bolalarning qiziqishi bilan birga bo'lishi kerak. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar orasida nutq faoliyatining ushbu turiga qiziqish juda past. Nutqiy faoliyatning bu turi maktab o'quvchilari uchun ma'lumot olish, madaniy darajani ko'tarish yoki shunchaki zavqlanish manbai emas, balki ular sof tarbiyaviy vazifa sifatida qaraydi.

O'quvchilarning bilim qiziqishini rivojlantirishga hissa qo'shishi uchun chet tilida o'qish uchun bolalarning bilim ehtiyojlarini, yoshini va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ainiqsa to'g'ri tanlangan matnlar va ularga berilgan topshiriqlar bolalarning chet tilida o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida nutq faoliyatining ushbu turini muvaffaqiyatli o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bolalarning chet tillari darsida va mavzu bo'yicha darsdan tashqari ishlarida kognitiv qiziqishlariga mos ravishda tanlangan matnlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning ushbu mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, o'qish uslubini takomillashtirish va chet tilidagi matnlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Lekin shuni hisobga olish kerakki o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ko'p qiyinchiliklarni yengish kerak.

Birinchidan, bu ona tilidan farq qiladigan grafik belgilar tizimini assimilyatsiya qilish, tovush-harf va harf-tovush korrelyatsiyasi, sintagmatik o'qish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga olgan o'qish texnikasini o'zlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Retseptiv mahoratning shakllanishi samarali faoliyat bilan qo'llab-quvvatlansa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi, shuning uchun bolalarga yozuvningning ikkita ko'rinishini: yozma va bosma shaklda o'rgatish tavsiya etiladi. Ovoz chiqarib o'qish texnikasini sinchkovlik bilan o'rganish kerak, chunki o'quv faoliyati avval tashqi nutqda shakllanadi, so'ngra ichki tekislikka tarjima qilinadi.

Ammo chet tilida o'qishga o'rgatishdagi ayrim qiyinchiliklar o'qish texnikasini rivojlantirishda bunga to'sqinlik qilishi mumkin. bularga Nemis, frantsuz va ayniqsa ingliz tillarida turli xil harf birikmalarida bir xil harfni talaffuz qilishda nomuvofiqliklar, shuningdek, bir xil tovushning turli grafik tasvirlari holatlari mahalliy va xorijiy tillarning grafematik fonemalari tizimlari o'rtasidagi tafovutlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shu bilan birga, ingliz tilidagi ko'plab so'zlar qoidalarga muvofiq o'qilmaydi, bu odatda o'quvchilarni haddan tashqari ko'p o'qish qoidalarini yodlashga va ular uchun istisnolarni, shuningdek o'quv materialini takroriy o'rganib chiqishga to'g'ri keladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. A.A.Miroljubov, M.V.Raxmonov, A.S.Setlin. «O'rta maktablarda chet tili o'qitishning umumiy metodikasi».
2. U.X.Xoshimov, I.YA.Yokubov. «O'rta maktablarda ingliz tili o'qitish». Toshkent 1993
3. J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 1996
4. R.A.Zaripova. "Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma". 1986

### **ЧЕТ ТИЛИ ЎРГАТИШДА ТЕХНИК ВОСИТАЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ**

**М.Т.Азимова, М.М.Асронова,  
АДУ ўқитувчилари**

Ҳозирги пайтда таълим самарадорлигини оширишдаги муҳим омилларидан бири чет тили ўргатишда техник воситалардан фойдаланишдир. Бугунги кунда ўқитувчининг турли техник воситалардан фойдаланиш имкониятлари жуда катта. Бу оддий проекцион аппаратдан тортиб, компьютер ва видеолардан унумли фойдаланишни ҳам ўз ичига олади. Бу эса ўз навбатида тил ўрганишга нисбатан қизиқишни ва ўтилаётган дарсларнинг сифатини оширади, ўқувчиларнинг дарс жараёнидаги фаоллигини таъминлайди.

Маълумки, “педагогик технология” терминидаги “технология” тушунчаси техник фанларга тегишли бўлиб, замонавий технологияларнинг педагогика фани жаҳаларига кириб келганлигини англатмоқда. Педагогика фанига асос солинган Ян Амос Каменский давридан бошлаб таълим мақсадларини педагогик усуллар билан аниқлаш қийин масала бўлиб келган. Педагогик жараёнларга технологик тушунчаларнинг кириб келиши таълим мақсадларини педагогик усуллар билан аниқлаш қийин масала бўлиб келган. Таълим жараёнлари натижаси энди фақатгина ўқитувчи шахсига боғлиқ бўлиб қолмай, балки ўқитиш жараёнларини лойиҳалаш технологияларига ҳам боғлиқ бўлиб қолмоқда. Замонавий педагогик технологияларнинг куйидаги қоидалари мавжуд: илмийлик, лойиҳалашга мослик, тизимлик, мақсадларга йўналганлик, фаолиятнинг ёндашишидир, бошқаришга мослик, қайта тиклашга мувофиқлик, самарадорлик.

1. Илмийлик қоидаси ҳар бир ўқитилаётган предмет мазмуни замонавий фан ютуқлари асосига қурилишини ва улар албатта ўқув дастурларида,

дарсликларда, ўқув кўлланмаларида акс этишини тақазо этади. Илмий тушунчаларнинг қисқа ва аниқ сўзларда акс эттиришишни эътиборда тутлади.

2. Лойиҳалашга мослик қоидаси педагогик технологиянинг асосий қоидаларидан бўлиб, ўқув-услубий хужжатларнинг тартибли бўлиши, ўқув жараёни графиги, ишчи ўқув режаси, ишчи ўқув предмети дастурининг боблар бўйича мақсадлари, таянч тушунчалари, ўқув жараёни технологияси, билим, кўникма, малакаларни баҳолаш мезонлари бир-бирларига монанд бўлишини, уларнинг бошқалар томонидан ҳам қайта тиклаш мумкинлигини тақазо этади.

3. Тизимлилиқ қоидаси. Педагогик технологияларнинг барча таркибий элементлари бир-бирлари билан боғлиқ, ўзаро ҳамкорликдадир, бир элементдаги ўзгариш иккинчи бир элементдаги ўзгаришга олиб келади. Педагогик технологияни лойиҳалаштириш, уни амалга ошириш бир бутун тизим сифатида амалга оширилади.

4. Мақсадга йўналганлик қоидасига кўра, фаннинг мақсади, предметнинг мақсади, ҳар бир боб, бўлим, мавзу, қисм, элемент, тушунчалар мақсадларининг бир-бирларидан келиб чиқиши, тизимлилиги ва уларнинг ҳамкорлиги, оҳир-оқибат аниқ натижага олиб келишин назарда тутилади.

5. Фаолиятий ёндашиш қоидаси психология фанининг шахс-фаолият концепциясига асосланади. Уни педагогик технология жараёнига тадбиқ этсак, берилаётган билим, кўникма ва малакалар, улар билан шахсан ўзаро муносабатлар жараёнида ўзлаштириб олиниши эътиборда тутилади.

6. Бошқаришга мослик қоидаси педагогик диагностика, режалаштириш, моделлаштириш, проектлаштириш, амалиёт, коррекция, баҳолаш ва қайта баҳолаш жараёнларининг бир-бирлари билан омехталиги, бир-бирларидан келиб чиқиши, натижаларнинг бир-бирларига боғлиқ эканлигидан келиб чиқиб педагогик жараённи ташкил этишни тақазо этади.

7. Ишлаб чиқаришда бир хил технологияга риоя қилиниб, бир хилдаги натижа олинади. Ана шу маънода педагогик технологияга қайта тиклашга мослик қоидаси киритилган.

8. Самарадорлик қоидасига кўра, ишлаб чиқаришда махсулот сифати юқори бўлгани каби, педагогик технологияни лойиҳалаштириш натижаси ҳам юқори сифатли, самарали бўлиши назарда тутилади.

Шундай қилиб, коллежларда, олий ўқув юртларида таълим жараёнини режалаштириш, лойиҳалаштириш ҳамда коррекциялашда берилган таълим мазмуни асосида талабаларда ижодий, мустақил, танқидий фикрлашни тарбиялаш учун педагогик технологияларнинг янги қоидасидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

#### **Адабиётлар:**

1. Al-Musawi, A. S. (2007). Current status of educational technologies at Omani higher education institutions and their future prospective. P. 395-410.

2. Ertmer, P. A., & Hruskocy, C. (1999) Impacts of a university-elementary school partnership designed to support technology integration. P. 81-96.

3. Gavrilov B.V. (2006) Pluses and minuses of the computer-controlled teaching foreign languages // Foreign languages at school // P. 34-132.

4. Glatthorn, A. (1995) Teacher development. International encyclopedia of teaching and teacher education. London: Pergamon Press, P. 41-45

## BOSHLANG'ICH BOSQICHDA TIL O'RGANISHNING SAMARALI YO'LLARI

L.T.Jo'rayeva o'qituvchi, ADU

*Anotatsiya:* Maqolada boshlang'ich bosqichda xorijiy til o'rganishning eng samarali usullari xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari kichik yoshdagi bolalar bilan dars jarayonini qiziqarli olib borish va ularni qiziqishlarini hisobga olish yuzasidan tavsiyalar ham beriladi.

**Kalit so'zlar:** topishmoqlar, amaliy mashqlar, qo'shiqlar, she'rlar yangiliklar

Til o'rganish ayniqsa boshlang'ich ta'limda juda samarali hisoblanadi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan ishtiyoq, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi sababligidandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar inglizcha so'zlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini grammatik tushunchalardan boshlash ozgina murakkabroq. Bu esa chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirishga olib keladi.

Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va yanada mas'uliyatli hamdir. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish osonroq bo'ladi.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlarni dars jarayonida qo'llanilishi bolalarni yanada faol bo'lishga undaydi. Ayniqsa yosh bolalar multfilmlarni juda yaxshi ko'rishadi agar qisqa metrajli multfilmlardan dars jarayonida foydalanilsa ular til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'ldir.

Boshlang'ich bosqichda til o'rgatishning samarali yo'llaridan yana biri topishmoqlardir. Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytisada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi.

Boshlang'ich ta'limda til o'rganishning eng samarali usuli esa amaliy mashqlardir. Bunga misol qilib psixologlarning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnatilgan qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va, hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak». Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta'mi shirin(tasty) yoki nordon(sour), xushbo'y(aromatic) hidi haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini so'rash bolalarda darsga nisbatan yanada qiziqishini orttiradi bundan tashqari amaliy dars davomida o'rganilgan so'zlarni yoddan chiqarish extimoli kamroq bo'ladi. Qachonki o'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.

Lekin shuni hisobga olish kerakki darslarni har doim ham amaliy tarzda olib borishni imkoni yuq, qolaversa bir hilda olib borilgan darslardan bolalar zerikib qoishi mumkin. Shuning uchun darslarni zerikarli bo'lmasligi uchun yangiliklardan ham foydalanish mumkin. Bunda bolalar televizorda ko'rgan yoki bir biridan eshitgan yangiliklar haqida aytib berishni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ularga o'sha yangiliklar haqida so'rab, ayrim so'zlarini inglizcha aytishini talab qilinsa, yoki uni dars jarayonida yangi so'z boyligi sifatida o'rgatilsa, bolalar qachon yangilik eshitganda inglizchada qanday bo'lishi haqida o'ylab yana izlanishda davom etadi.



Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich bosqichda til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi juda muhim.

Adabiyotlar:

1.Henniger, M.L. (2002) Teaching young children.

2.Larsen-Freeman, D. 2000. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.

## THE IMPORTANCE OF VOCABULARY IN TEACHING ESL

**D.A.Kadirova, KSPI teacher**

The article is dedicated to the analyzing vocabulary instruction with the study of effective ways of teaching vocabulary in English which presents a certain interest both for the theoretical investigation and for the practical language use.

Статья посвящена анализу словарного обучения с изучением эффективных способов преподавания словарного запаса на английском языке, что представляет определенный интерес как для теоретического исследования, так и для практического использования языка.

Maqola ingliz tilida lug'atni o'qitishning samarali usullarini o'rgangan holda lug'at darsligini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, bu nazariy jihatdan ham amaliy tilda ham qiziqish uyg'otadi.

Vocabulary learning is an essential part in foreign language learning as the meanings of new words are very often emphasized, whether in books or in classrooms. It is also central to language teaching and is of paramount importance to a language learner. Recent research indicates that teaching vocabulary may be problematic because many teachers are not confident about best practice in vocabulary teaching and at times don't know where to begin to form an instructional emphasis on word learning.

Vocabulary knowledge plays an important role in language learning. It can be easily proved by taking sample from the intellectual development of a child. What do the children begin learning the surroundings with? First of all, they start to learn the names of objects and subjects around, i.e. they learn vocabulary of their parents. Vocabulary is the first essential element of communication.

Thornbury stated as follows: "If you spend most of your time studying grammar, your English will not improve very much. You will see most improvement, if you learn more words and expressions. You can say very little with grammar, but you can say almost anything with words."<sup>34</sup>

Vocabulary is one of the significant aspects in language teaching and learning, above and beyond grammar and pronunciation. A good vocabulary and the ability to use word correctly and effectively can be the passport to the worlds of interesting and exciting information.

Vocabulary is needed for expressing meaning and in using the receptive (listening and reading) and the productive (speaking and writing) skills. It should be considered as an internal part of learning a foreign language since it leads the way to communication.

The main aim of teaching vocabulary is assimilation of the meaning, form of the words and its usage in oral and written speech – that is formation of lexical habits. People can have many aptitudes, but without a large and precise English vocabulary to express them, they cannot take full advantage of these abilities. Unlike aptitudes, vocabulary is *not* a natural ability; it can be improved if one is willing to make the effort to do so.

It will enable us to understand the others' ideas better and to have the satisfaction or getting our thoughts and ideas across more effectively. While there are not any magic shortcuts to learning

---

<sup>34</sup>[Scott Thornbury](#) How to Teach Vocabulary Paperback – 18 Feb 2002 ., p.97

words, the larger our vocabulary becomes, the easier it will be to connect a new word with words we already know, and thus remember its meaning.

Vocabulary knowledge is often viewed as a critical tool for second language learners because a limited vocabulary in a second language impedes successful communication. Underscoring the importance of vocabulary acquisition, emphasizes that “lexical knowledge is central to communicative competence and to the acquisition of a second language”.

Many students can serve a good level of memorization of teaching material but in the end of teaching learning process, they actually do not understand it at all. Teaching and learning processes have to make it possible for the students to understand the meaning of their learning material. Students as the learning subject are the starting point in teaching and learning, which measure the success of the teaching learning process. Teaching and learning can be successful when the students can directly feel the advantages of learning materials by experiencing and learning it.

Beside the above techniques, there are also, vocabulary learning strategies that teachers can take into account. They can train their students to use these strategies. Schmitt and McCarthy propose strategies to learn vocabulary as follows:

- (1) guessing from context,
- (2) using word parts and mnemonic techniques to remember words,
- (3) using vocabulary cards to remember foreign language-first language word pairs.

An attempt is made to review the trends in the area of teaching vocabulary through various techniques ESL/EFL teachers use when teaching. Before presenting the meaning or form of vocabulary items, teachers need to notice the type of the vocabulary, the students' level and characteristics, and also the value of the techniques for the learners. In other words, students' age, level of education as well as English proficiency...etc. may affect their learning, so teachers need to be aware of these differences when applying their teaching techniques. They can further provide their students with vocabulary learning strategies with opportunities to encounter words repeatedly and in more than one context.

#### **References:**

1. [Scott Thornbury](#) *How to Teach Vocabulary* Paperback – 18 Feb 2002 ., p.97
2. Nation, P. *New ways in teaching vocabulary*. Alexandria, VA.: TESOL. 1994., p. 890

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA “TO HAVE” FE'LINI O'QITISH METODIKASI**

**S.S. Jiyanbekov Paxtaodod tumani  
17-umumta'lim maktabi oliy toifali o'qutuvchisi**

Til bilgan el biladi deganlaridek, bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj toboro kuchayib bormoqda. Til bilmoqlik zamon talabi. Aynan shuni anglagan yoshlar bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanib, til o'rganishga astoydil kirishganlar. Albatta chet tilini o'rganish ham o'rgatish ham oson ish emas. Lekin yurakdan yonsak maqsadimiz tomon tashlagan qadamimiz shaxdam bo'lsa, hammasi ko'ngildagidek bo'ladi.

Har narsaga qiziquvchan shu bilan birgalikda juda sho'x bo'lgan jajji erkatoylarimizga ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tili ya'ni ingliz tilini o'rgatishga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda asosan asta-sekin soddadan murakkabga tomon o'rganishni va o'rgatishni oson yo'llarini izlab topmoq lozim. Darsni tashkil etganimizda ham har narsadan tezda zerikib qoluvchi bolalarimizga darsni o'yin tarzida olib bormog'imiz maqsadga muvofiq. Hususan, lug'at yodlash chet tilini o'rganishning birlamchi omillaridan biri hisoblanadi. Agar o'qituvchi kitobiy so'zlarni yoki bir oilaga mansub so'zlarni yodlashga bersa o'quvchi zerikib qolishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni lug'at yodlashga qiziqtirish uchun turli usullarni ko'rib chiqamiz. Agar o'qituvchi o'quvchilarga lug'at yodlashni vazifa qilib, o'quvchining ko'ziga ko'rinib turgan jamiyki narsalar

va kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni topshiriq qilib bersa, bevosita o'quvchi qarasaki, atrofidagi barcha narsani va ishlatayotgan deyarli so'zlarini ingliz tilida bemalol ayta olishidan behad quvonib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va lug'at yodlashga bo'lgan katta qiziqish paydo bo'ladi. Yana bir usul tilni yodlashni osonlashtiradi. Ya'ni bu boshlang'ich sinflarga dars o'tish jarayonida, har bir o'tmoqchi bo'lgan mavzusiga moslab lug'atdagi so'zlarni tanlab yodlashga bersa, birinchidan bu tilni o'rganishni osonlashtiradi, ikkinchidan so'zlar bir-biriga uyg'unlashadi. Masalan, o'qituvchi "To have" fe'li mavzusini o'tsa, ushbu mavzuga oid gap tuzishga kerak bo'ladigan so'z turkumiga oid so'zlarni yod olishga berishsa, gap tuzib mavzuni o'rganish yanada osonlashadi. Demak o'quvchilar *to have* fe'lini mavzu qilib o'tayotganda ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bilan ko'proq ishlaydi. "Can" modal fe'lini o'tganlarida asosan fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bilan ko'proq ishlaydi va yodlaydi. Agar yangi mavzu "To be" fe'li bo'lsa, unda ko'proq sifat va ot so'z turkumlariga oid so'zlarni yod olishlari kerak. Albatta o'qituvchi endi mavzularni qanday qilib oson va samarali tushuntirib olishlari haqida o'ylaydi. Asosan bunda o'qituvchi mavzuni ko'p qoidali emas, ma'no shu qoidadan kelib chiqadigan qilib boshlang'ich sinf qiziqadigan holda mavzuga formula tuzib olishi kerak. Bu formula shu darajada oson bo'lsinki, mavzuni o'rganish uchun o'quvchi qiynalmasin, ortiqcha bosh qotirmasin, oddiy signal so'zlardan tuzilgan formulani yodda saqlasa kifoya.

Misol uchun, "There is/ are" mavzusini olaylik:

***There are flowers on the table.*** Stolni ustida gullar bor.(turibdi) Men asosan yordamchi so'z qilib "turibdi" ni olaman. Demak oson formula tuzaman:

"Turibdi" + "kim? yoki nima?" + "qayerda"

Demak, savol berish va javob topish orqali gap tuzildi.

Turibdi + nima + qayerda



***There are flowers on the table***

Shu tarzda gap tuziladi. Mavzuni o'rganish ham uni yodda saqlash ham osonlashadi.

Bola psixologiyasida shunday narsa borki, ular biror bir ishni qiyin deb tushunib qolsa, u uchun bu yetib bo'lmas orzu bo'lib ko'rinadi. Unga hatto qiziqmaydi ham. Tabiiyki, chet tilini o'rganish ham shunday, ya'ni umuman bilmaydigan tilni o'rganish dastlab juda ham qiyindek tuyuladi. Biz pedagoglar aynan o'sha vaqtda yuqorida keltirganimizdek faoliyatni osonlashtiradigan metodlardan foydalangan holda ularning ongiga bu juda oddiy, o'rganishga esa oson deya o'tayotgan mavzuyimizga bo'lgan munosabatimiz orqali o'quvchilar ruhiyatiga asta kirib borib bir muncha qiyin mavzularni o'yinlar vositasi va yuqoridagidek o'rganishga va o'rgatishga qulay bo'lgan usullardan o'ylab topib, ular orqali tushuntirishimiz kerak. Bu orqali biz o'quvchilarni fanga bo'lgan muhabbatini uyg'otgan va uning bilim saviyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lamiz. Zero, bilim bermoq burchimiz, albatta ushbu burchimizni nafaqat o'zimiz uchun balki, o'quvchilar uchun ham oson va samarali qilib ado etish har tomonlama biz pedagoglarga bog'liq!

## **BOSHLANG'ICH BOSQICHDA TEXNIK VOSITALARNING CHET TILI O'QITISHDAGI O'RNI VA ROLI.**

**G.Jo'rayeva Andijon tuman  
25-maktab o'qituvchisi**

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich bosqichda chet tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishga asoslangan turli hil nazariyalariga to'xtalib o'tamiz. Bundan tashqari texnik vositalarning chet tili o'qitishdagi muhim o'rni va kasb etuvchu zaruriy ahamiyati, ularning turlari va ulardan foydalanishda qo'yilgan asosiy talablar xususida malumotlar taqdim etiladi.*

***Kalit so'zlar: multimediya, interaktiv vositalar, kompyuter grafikasi, video***

O'zbekistonning milliy taraqqiyotida har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy masalalardan biridir. Hozirgi kunda o'qitishning zamonaviy interaktiv vositalari, multimediyaviy ta'lim mahsulotlari va multimediya ilovalarining chet tillarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining samarasini bermoqda. Ular til o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda asosiy vositalar qatoridan o'rin olmoqda.

Ilgari darslarda slayd va magnitafon tasmalaridan foydalanilsa bu dars multimediyalik hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda bu dars multimediyalik hisoblanishi uchun unga maxsus kompyuter dastur, proektor, video va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishni o'z ichiga olish kerak bo'ladi.

Texnika jadal ravishda rivojlanib borayotgan bir davrda multimediya ayniqsa boshlang'ich sinflarda talim oluvchilar uchun eng samarali usullardan hisoblanadi. U ta'lim jarayonini boyitib uning samaradorligini oshiradi, til o'rganuvchilarning faolyatini oshiradi, yangi ma'lumot olishni bir necha bor tezlashtiradi. Bundan tashqari kichik yoshdagi bolalar multafilmlar, ertaklar va qo'chirchoq teartlarini tomosha qilishga juda o'ch bo'lishadi. Shuning uchun hozirgi kunga kelib, dars jarayonini bu vositalarsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Multimediya darsining asosiy vazifalariga barcha o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, berilgan yangi darsni o'quvchilarga turli hil vositalar orqali chuqur singdirish va ularda tilga bo'lgan ko'nikmalarini shakllantrish sanaladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda chet tillarini o'rgatishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Davlat aloqa axborotlashtrish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston milliy axborot agentligi, bolalar va yoshlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda, televideniya, shu jumladan, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa halqlarning tarixi va madaniyati, urf-odatlariga bag'ishlangan ilmiy ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borilishini yuqoridagi fikrlarimizga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari hozirgi kundagi chet tili amaliy darslari o'quv xonalarida zaruriy texnik jihozlarning mavjud bo'lishi dars sifatini oshirgani kabi uyda mustaqil ravishda ingliz tilida olib borilgan ko'rsatuvlarni tomosha qilish orqali o'quvchilar chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytradi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki yaxshi multimediyali dasturlarni to'g'ri maqsadga yo'naltirilishi zarur, chunki o'quv materialini aniq bir mavzuni yoritib olishi, dastur o'quv jarayonining barcha komponentlarini qamrab olishi shart. Chunki bugungi kun yoshlari ta'lim beruvchining ma'lum bir ma'lumotni tayyorlab o'quvchilar e'tiboriga yetkazishini passiv holda kutib o'tirmaydi, aksincha u bu ma'lumotni ta'lim beruvchidan avvalroq egallab olgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas, shuning uchun ta'lim beruvchi darsga kirishdan avval har tomonlama tayyorgarlik ko'rib, yangi innavatsion texnologiyalarni mukammal egallab kirmog'i darkor. Qolaversa o'qituvchi bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, texnik vositalar orqali o'rganiladigan materiallarni yangi dars jarayoniga olib kirishdan oldin ular bilan o'rganiladigan mavzu haqida qisqacha suhbat olib borsa, o'quvchilarning bu mavzuga bo'lgan ishtiyoqi yana ham oydinlashadi, shunda mavzuni o'qitish davomida o'qituvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi.

O'quvchi yoshlar qaysi sohada o'qimasinlar chet tillarni zamonaviy texnik vositalar orqali o'rganish ularning oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishda intensiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ularning til o'rganish tezligi yanada ortadi, bu esa o'quvchilarning nafaqat birgina chet tili, balki ularda yana boshqa qo'shimcha tillarni o'rganishga qiziqishi ortadi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarga hulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda horijiy tillarni, hususan ingliz tilini ta'limning barcha bosqichlarda yuqori saviyada o'qitish pedagoglar oldiga qo'yilgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Ingliz tilini o'rgatishda texnik vositalardan, hozirgi zamon

yangi pedagogik texnologiyalardan, ko'rgazmali qurollardan va turli metodlardan foydalanib darsni tashkil qilish dars sifatini oshirib, o'quvchi qoboliatini oshishiga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Alimov SH. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noannanaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlarlar. Andijon 2009
2. Hoshimov O', Yoqubov I. "Inliz tili o'qitish metodikasi", Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati Toshkent-2003.
3. Saidumar Saidaliyev "Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar". Namangan- 2004.
4. Sattarov T. "Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantrish texnologiyasi" Toshkent-2003.

## CHET TILLARNI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

M.Tojiyeva, Xo'jaobod tumani

4- umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Chet tillarni o'qitishda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va samaradorligi mavzusida bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavzularni o'quvchilarga singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darslarni yanada qiziqarli tashkil qilish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Chet tillar, kommunikatsion texnologiyalar yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrda PQ 1875 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda,

jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an'anaviy usul hisoblanadigan; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

## МУНДАРИЖА

### 1-ШЎБА: БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ОНА ТИЛИ ВА МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ.

<b>A.Sh.Sobirov.</b> POYDEVOR MUSTANKAM VO‘LSA, BINOLAR VOQIY YASHAYDI.....	3
<b>Б.С.Абдуллаева, Б.К.Мамадалиев.</b> МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА МАНТИҚИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАР ЕЧИШ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	5
<b>М.Жумаев.</b> ЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНИ.....	7
<b>Д. А. Набиева, Д. А. Нурманова.</b> ФОНЕТИК ТРЕНАЖЁРЛАР НУТҚ ЎСТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА.....	9
<b>Ш.Х.Шаҳобиддинова, Ш.Х.Юлдашева.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ЛИСОНИЙ ОНГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	11
<b>М.А.Ҳамраев.</b> КЎРСАТИШ ОЛМОШЛАРИ АСОСИДА ҲОСИЛ ҚИЛИНАДИГАН ФОРМАЛАРНИНГ АНАФОРИК АМАЛЛАРИ.....	12
<b>Б.Қурбонова.</b> ОНА ТИЛИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР.....	14
<b>Z.A.Djurabayeva.</b> BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNI MATN TUZISHGA O‘RGATISH.....	17
<b>Ф.М. Юнусов, Ф.Халилов.</b> ПРИМЕНЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ.....	18
<b>D.M. Jamoliddinova.</b> ODIL YOQUBOV ASARLARIDA QO‘LLANGAN TERMINLARNING O‘ZIGA XOSLIGI.....	21
<b>М.И.Тошпулатова.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МАТЕМАТИКА МАЗМУНИГА ОИД УМУМИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ТИМСС ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ.....	22
<b>D.T.Aytbayev, B.G‘anibayeva.</b> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OMONIMIYANI O‘QITISHNING ANAMIYATI.....	25
<b>Т. Ғаниев.</b> КЕЛИШИКЛИ ВА КЎМАКЧИЛИ КОНСТРУКЦИЯЛАР СИНОНИМИЯСИ.....	27
<b>Т. Ғаниев.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ТАЪЛИМИЙ МАШҚ БАЖАРИШ ЖАРАЁНИДА БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ БАЪЗИ ЙЎЛЛАРИ.....	28
<b>H.Zakirova, S.Nazarova.</b> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING TECHNOLOGIK XARITASI.....	30
<b>G.G.Ismanova, S.Sh.Ihombekova.</b> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH.....	31
<b>N.Jo‘rayeva.</b> BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MA‘NODOSH SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH.....	33
<b>А.Сотволдиев, М.Саттаров.</b> ДАРСДА ЎТКАЗИЛАДИГАН ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ.....	35
<b>I.Ubaydullayev.</b> BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISHDA TOPISHMOQLARNING O‘RNI VA ANAMIYATI.....	37
<b>И.Н.Эргашев, Г.И.Иномжонова.</b> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	38

<b>О.А.Хайдарова.</b> Л.Н. ТОЛСТОЙ, ПРОИЗВЕДЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ.....	40
<b>О.А.Хайдарова.</b> РАЗВИТИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ.....	42
<b>S.Ismoilova, Sh.Sobirova, G.Oripova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR LUG'AT BOYVLIGINI OSHIRISH.....	45
<b>S.Ismoilova, M.Abdualiyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI SHE'RIY ASARLARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISH.....	47
<b>С.Исмоилова.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФ ўқувчиларининг луғат бойлигини оширишда эртақлардан фойдаланиш.....	48
<b>S.A.Jo'raxonova, M.Jo'raqo'ziyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O'RGATISH.....	50
<b>S.Jo'raxonova, D.Ne'matova.</b> MATN TUZISHGA O'RGATISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	51
<b>I.Abdullayev.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIGA MASALALAR YECHISH REJASINI IZLASH USULLARI VA UNI BAJARISHGA O'RGATISH.....	54
<b>D.A.Nurmanova, Sh.Xusanboyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIGA MATN TUZISHNING BIRLAMCHI VOSITALARINI O'RGATISH.....	55
<b>G.G'Ismanova, N.M.Rustamjon qizi.</b> MENTAL ARIFMETIKANING BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'ZLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	57
<b>Н.Абдуллаева, О.Сатторова.</b> ГЕОМЕТРИК ХОССАЛАРНИ ўрганишдан - ҳисоблашга, ясашга ва ўлчашга, қўлда ясаладиган асбобларга ўтиш.....	59
<b>N.Abdullayeva, D.Toshmurodova.</b> KASR KO'RINISHIDA BERILGAN UZUNLIK O'LCHOV BIRLIKLARINI HISOBLASH USULLARI.....	60
<b>N.Abdullayeva, N.Olimova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI.....	61
<b>I.Xoldarova.</b> BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI MAKTABDA EGALLASH...	62
<b>M.Kodirova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSIDA MATEMATIK DIKTANTNING ROLI.....	64
<b>G.Teshaboyeva, E.Tojjiyeva.</b> XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARINING FONETIK XUSUSIYATLARI.....	66
<b>G.Teshaboyeva, F.Temirova.</b> O'QISH DARSLARIDA SO'ZLARNING MA'NO VA SHAKL MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARINI O'RGANISH.....	67
<b>D.A. Sobirova, G.B.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH.....	69
<b>D.A. Sobirova, G.B.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARGA SHE'RIY ASARLARNI O'RGATISHNING AHAMIYATI.....	70
<b>D.A. Sobirova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA FE'LNING GRAMMATIK BELGILARI USTIDA ISHLASHDA MUAMMOLI TA'LIM VA KO'RGAZMALILIKDAN FOYDALANISH.....	71
<b>L.A.Muydinov, F.S. Hakimov.</b> XX ASRGACHA O'RTA OSIYO MADRASALARIDA MATEMATIKA FANINING O'QITILISHI.....	73
<b>M.Toshpo'latov, G.Nosirova.</b> O'QUVCHILARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIK EKSPERIMENTLARNING ROLI.....	74
<b>M.Bekiyeva.</b> ONA TILI O'QITISH METODIKASINING ASOSIY O'RGANISH OBYEKTI.....	76



<b>R. Kazimirova, O.Salimboyeva.</b> GEOMETRIK SHAKLLARNI BOSHLANG'ICH SINFLARGA O'RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI.....	77
<b>Н.Нормуродова.</b> БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ САВОД ЎРГАТИШГА КАСБИЙ-МЕТОДИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	78
<b>D.A. Qodirova.</b> THE COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PROVERBS.....	79
<b>O'.Mamajonov, M.Nasriddinov.</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIMY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	81
<b>G.Shermatova.</b> PAYT MA'NOLI SO'ZLAR HAQIDA (TAFSIRI HILOL MISOLIDA) .....	82
<b>G.Q.Isakova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORFOGRAFIK MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH.....	83
<b>S.Nazarova.</b> ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISH.....	84
<b>G.N.O'ktamova, N.K.Isaqova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	86
<b>M.Yusupov.</b> MATEMATIKA DARSLARIDA BILISHNING TURLARI VA XULOSA CHIQRISH METODLAR.....	88
<b>Д.Ўрмонова, Г.Фахриддинова.</b> МУМТОЗ МЕРОСНИНГ МАСИҲАЛФОЗ МИСРАЛАРИ.....	89
<b>I.Yoqubboyeva.</b> ONA TILI O'QITISH METODIKASINING TEKSHIRISH USULLARI.....	91
<b>M.Z.Mirzayeva, D.P.Yoqubaliyeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHLARIDA "MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI" FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	93
<b>D.P.Yoqubaliyeva, M.Jo'rayeva.</b> 1-SINF "ALIFBE" DARSLIGIDA O'QUVCHILAR UCHUN TUSHUNARSIZ SO'ZLARNI IZOHLASH.....	95
<b>G.A.Sobirova.</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA KURSIDA GEOMETRIK MATERIALNI O'RGATISHDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH.....	96
<b>N.K.Razokova, G.B.Kuzmanova.</b> UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'RGATISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH.....	97
<b>F.Qarshiyev, N.Razokova, N.Ergashev.</b> MATEMATIK SOFIZMLAR.....	99
<b>N.Raxmonqulova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALGEBRA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	100
<b>G.A.Ergasheva.</b> O'QUVCHILARNI GEOMETRIYADAN MASALALAR YECHISH JARAYONIDA KONSTRUKTIV BILIM BERISHGA O'RGATISH.....	101
<b>M.K.Akbarova, S.A.Akbarova, J.Dehqonova.</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KUNDALIK HAYOTIDA UCHRAYDIGAN RASMLI VA AMALIY MASALALARDAN FOYDALANISH.....	103
<b>M.K.Akbarova, S.A.Akbarova, J.Dehqonova.</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIGA QIZIQTIRISHDA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	104

<b>D.P.Sayfutdinova, M.N. Xalilova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	106
<b>Д.П.Сайфутдинова, Ш.Н.Якубова.</b> РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В МЛАДШИХ КЛАССАХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ СКАЗОК.....	108
<b>З. Т.Холматова.</b> БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ГЕНДЕР МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИ.....	110
<b>D.M.Halilova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA FONETIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILARNI TO'G'RI TALAFFUZGA O'RGATISH.....	112
<b>M.Mamadaliyeva.</b> MANTIQIY VA QIZIQARLI MASALALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH.....	114
<b>M.M.Mahmudova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZID MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASHDA TA'LIMY O'YINLARIDAN FOYDALANISH....	115
<b>M.N.O'lmasova.</b> BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASH.....	117
<b>D.G. Qodiroxunova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LAB O'QITISH METODIKASI.....	118
<b>Z.Sh. Ismoilova.</b> SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARIDA TABIATNI ASRASH HAQIDAGI HIKOYALARIDAN FOYDALANISH.....	120
<b>D.A.Abdullayeva.</b> ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM RO'LI.....	121
<b>H. S.Azimova.</b> O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.....	123
<b>D.A.Aliqulova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR BILAN ISHLASH VA TAHLIL QILISHGA O'RGATISH USULLARI.....	124
<b>M.U.Ahmedbayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINF RUS TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	126
<b>G.Isroilova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	127
<b>L.M. Isroilova.</b> ONA TILI DARSLARIDA NOAN'ANAVIY DARS USULLARINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH.....	129
<b>U.Karimova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	130
<b>G.Z.Madaliyeva.</b> NUTQ - O'QUVCHILARNING FAOL FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY MANBA.....	131
<b>S.X.Normatova.</b> BOSHLANG'ICH SINFDAN ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH.....	132
<b>R.A. Saidova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH MALAKALARINI HOSIL QILISH USULLARI.....	134
<b>M.J.Sulaymonova.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XATOLAR USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH USULLARI.....	136
<b>Н. М.Турғунова.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА МУСТАҚИЛ СЎЗ ТУРКУМЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	137
<b>Д.Х.Турсунова.</b> БОШЛАНҒИЧ СИНФ МТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА МУЛОҲАЗА ВА МАНТИҚ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.....	138
<b>D.Xayitova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING MAQSADI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.....	141
<b>Z.Nurmonova, N.T.Xusanboyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR USTIDA ISHLASH.....	142

<b>I.Abdujalilova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z MA'NOLARINI QIYOSLASH TAHLILI ORQALI O'RGANISH.....	143
<b>M.Arslonova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA VAQT O'LCHOVLARINI O'RGATISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH.....	145
<b>K.G'. Asqarova</b> ALISHER NAVOIYNING IJODI.....	146
<b>F.S.Astanaqulova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH TARIXI.....	148
<b>Z.O'.Mirzayeva, K.K.Foziljonova.</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ALGEBRA ELEMENTLARINI O'RGATISHDA TURLI O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	149
<b>A.Azimov, Sh.Sotvoldiyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ADABIY ERTAKLARNING AHAMIYATI.....	151
<b>D.O.Badalova.</b> BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	152
<b>D.T Umurzakova.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ERTAK O'RGATISHNING METODLARI.....	153
<b>G.Q.Dehqonova, O.A.G'ofurova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ O'STIRISHGA OID ISH TURLARI.....	155
<b>N.A.Erkaboeva, M.V.Axmedova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI.....	156
<b>G.M.Erkaboyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI BOYITISH OMILLARI.....	158
<b>Sh.S.Ermatova, A.A.Yoqubova.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH USULLARI.....	160
<b>G.Mahkamova.</b> XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI.....	161
<b>F.M.Holmatova.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI "OT" SO'Z TURKUMI BILAN TANISHTIRISH.....	163
<b>M.T.Imomova.</b> YOSH AVLOD TARBIYASIDA MAQOLLARNING O'ZIGA XOS O'RNI.....	165
<b>M.Yuldasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR BOG'LANISHLI NUTQ O'STIRISH VA UNI EGALLASH USULLARI.....	167
<b>X.V.Maxmudova, D.M.Xotamova.</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR.....	168
<b>N. Sh. To'lanova.</b> O'QISH DARSLARIDA SINFDAN TASHQRI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	170
<b>G.Q.Nabiyeva.</b> BOLALAR ADABIYOTI VAKILI SAFAR BARNOYEVNING POETIK MAHORATI.....	172
<b>D.S.Nasriddinova, M.S. Barakayeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	173
<b>N.Nizomova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZAK VA O'ZAKDOSH SO'ZLAR MAVZUSI USTIDA ISHLASHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIMY O'YINLAR.....	175
<b>G. Norqo'ziyeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH USULLARI.....	176
<b>D.M.Otajonova, M.N.Raximova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SAVOD O'RGATISH MASHQLARINING ASOSIY TURLARI.....	178
<b>M.A.Qambarova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGATISHNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
<b>N.Y. Qo'shaliyeva, M.R.Alijonova.</b> ONA TILI TA'LIMDA AFFIKISATSIYA USULIDA SO'Z YASASH USTIDA ISHLASH.....	181

<b>Y.T.Qo'ldasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI.....	184
<b>K.Qodirova.</b> O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI O'RGANISH VA XATOLARINI TUZATISH.....	185
<b>M.V.Qodirova, Z.V. Maxmudova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z BIRIKMASI USTIDA ISHLASH USULLARI.....	187
<b>S.Rahmatullayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TIL KONPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	188
<b>K.S.Rasulova.</b> 2-SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	190
<b>Z.K.Sayifdinova.</b> GULHANIYNING “ ZARBULMASAL “ ASARINING TAHLILI.....	192
<b>D.X.Tillaboyeva.</b> BADIY ASARLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH.....	193
<b>N.B.Tursunova.</b> X DEB YOZAYMI, YOKI H?.....	195
<b>D.Y.Yusvaliyeva.</b> ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN NOAN'ANAVIY USULLAR.....	197
<b>N.X.Abdulazizova.</b> O'QISH DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM METODIDAN FOYDALANISH.....	198
<b>M.O.Abdullayeva.</b> BOLALAR ADABIYOTINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	200
<b>B.Zaynobidinova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLARDAN FOYDALANISH.....	201
<b>M.M. Islomova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....	203
<b>Z.Shonazarova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI.....	204
<b>M.Ahmedova.</b> ONA TILI DARSLARIDA BO'G'IN KO'CHIRISH QOIDASI USTIDA ISHLASHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	205
<b>M.M. Мамадалиева.</b> ЎҚУВЧИЛАРНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДА МАСАЛАЛАР ЕЧИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	207
<b>M.Y.Otaxonova, M.M. Umarova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI.....	209
<b>S.Vohidova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH.....	211
<b>M.Y.Sayidaliyeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH USULLARI.....	212

**2–ШЎЪБА: БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ: ТАЛАБАЛАРНИНГ МЕТОДИК, ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРЛИГИДА УЙЎНЛИК МУАММОЛАРИ.**

<b>Д.Т.Айтбаев.</b> ДИСКУРСДА СОЦИОЛОГИК ФАКТОР.....	215
<b>N.Abdullaeva, A. Jo'rayev.</b> GLOBALLASHUV MIQYOSIDA TA'LIM ROLINING ORTISHI.....	217
<b>N. Abdullaeva, N. Karimova.</b> SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	219
<b>N. Abdullaeva, X.Orzuqulov.</b> BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KONPETENTLIKNING NAZARIY VA AMALIY KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISH.....	221
<b>N.J. Abdullaeva, SH. Abdurazzoqov.</b> O'SMIRLARDA SOG'LOM E'TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	224

<b>N. Abdullayeva, M. Islomov.</b> O'QUVCHILARNI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT TARBIYASINI O'RNI.....	226
<b>М.М.Джумаева.</b> ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ДАРСЛИКЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	227
<b>A.F.Qayumov.</b> O'QUVCHILARNI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI.....	230
<b>N.Abdunazarova, Muxtorova M, Pхomova B, Qodirova Z.</b> RAISING CHILDREN'S SPEECH THROUGH PRE-SCHOOL EDUCATION TECHNOLOGY...	232
<b>N.Abdullayeva, G.Nasirdinova,</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHINING VA'ZI BIR KAMCHILIKLARI.....	233
<b>С.Исмоилова, М.Усмонова.</b> БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ ВА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.....	234
<b>M.Kodirova, M. Roziqova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS TAHLIL QILISHNIG AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI.....	236
<b>Sh.Q.Naymanbayeva.</b> BOLA KAMOLOTI TARAQQIYOT XIZMATIDA.....	238
....	
<b>O.Mamajonova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIK VA EVRISTIKANING UYG'UNLIGI.....	239
<b>M.Ismoilova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIMNING O'RNI.....	241
<b>X.Olimova, O.Ergasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING ZARURLIGI.....	242
<b>D.X.Umarova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI..	244
<b>N.B.Valiyeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ERKIN FIKRLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.....	245
<b>D.O.Karimova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR QADAM QO'YGAN O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK HOLATI VA TAFAKKURI.....	247
<b>Sh.H.Qurbonova.</b> O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.	248
<b>И.Ё.Холматова, Ф.С.Мамасалиева.</b> ПРОБЛЕМА ЗДОРОВОГО ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЛЯ ДЕТЕЙ.....	250
<b>O.Ergasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AHLOQIY RUHDA TARBIYALASH.....	252
<b>M.Xasanova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMIY O'YNLARNING AHAMIYATI.....	253
<b>D.Mamarahmonova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILAR TAFAKKURI VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.....	254
<b>M.S.Qobulova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN KO'RGAZMALI VOSITALAR.....	256

**3-ШЎБА: БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ  
ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ВА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.**

<b>B.U.Olimov, D.B.Olimova.</b> МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ MUASSASALARIDA MENTAL ARIFMETIKA KURSLARI O'TILISHINING SAMARASI.....	259
---	-----

<b>A.O.Nishonov.</b> MALAKA OSHIRISH JARAYONLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	262
<b>Ф.М.Кўчкарова, Х.З.Мухаммаджонов.</b> ДАРСЛИКЛАРДА БЕРИЛАДИГАН ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИНИ КОНЦЕНТРИЗМ ПРИНЦИПИ АСОСИДА СТРУКТУРАЛАШДА ТАЯНИЛАДИГАН ТАМОЙИЛЛАР.....	263
<b>И.Н.Эргашев, Ш.С.Илхомбекова.</b> РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПЕРИОД ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ.....	266
<b>Т.Султанов.</b> САМООРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ УЧЕБНО--ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ УМЕНИЙ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ.....	268
<b>U.Valiyev.</b> O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDA DINAMIKA BO'LIMINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH...	269
<b>F.M Komilova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	273
<b>C.M.Гоипова, M.T.Азимова.</b> ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.....	274
<b>G.I.Jo'rayeva.</b> DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI.....	276
<b>G.I.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA IJODIY QAYTA NIHOYA QILISH USULIDAN FOYDALANISH.....	277
<b>T. Abdufattoyeva, G.Abdufattoyeva.</b> BOLALAR NUTQINI RAVON O'SISHIDA OILA VA TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI.....	279
<b>D.Oripova, G.Oripova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	280
<b>Sh.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INDIVIDUALLASHGAN TA'LIMNING AHAMIYATI.....	282
<b>F.A.Usmonova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR DASTURIDAGI FANLARDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLARNING DIDAKTIK TALABLARI..	283
<b>D.R.Xasanova.</b> ONA TILI DARSLARIDA SAVODLI YOZISHGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI.....	285
<b>M.T.Ahmedova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARNING BILIM OLISHGA QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA TAFAKKURNING ROLI.....	287
<b>Z. M.Kenjayeveva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA MATEMATIKA FANINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI.....	288
<b>I.S.Mullajonova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH.....	290
<b>Z.X.Nuriyeva.</b> TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.....	291
<b>И.Рахматуллаев.</b> БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА МУСИҚА ЎҚИТИШ ОМИЛЛАРИ.....	292
<b>N.T.Raxmonova.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NOAN'ANAVIY DARSLARNI TASHKIL QILISHDA YANGI PEDAGOGIC TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	293
<b>G.O.Soliyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA O'QITUVCHINING O'RNI.....	295
<b>Г.М.Турсунматова.</b> НОАНЪАНАВИЙ ДАРС, УНИНГ АНЪАНАВИЙ ДАРСДАН АФЗАЛЛИГИ.....	296
<b>Y. Abdullayev, O.To'uchiyeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI.....	298

<b>G.T. Yuldasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATNI MUXOFAZA QILISH MALAKA VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH.....	300
<b>M.U.G'ofurov.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	301
<b>G'.Avliyayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA BAYON YOZDIRISH VA TEKSHIRISH METODIKASI.....	303
<b>G.G'oziyeva.</b> SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA YANGI USLUBLARDAN FOYDALANISH.....	304
<b>M.Xo'jaqova.</b> TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TA'LIMYIY DIKTANTLARNI TASHKILLASH YO'LLARI.....	307
<b>M.Yuldasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR BOG'LANISHLI NUTQ O'STIRISH VA UNI EGALLASH USULLARI.....	308
<b>N.To'ychiyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSION DARSLAR ORQALI O'QUVCHILAR DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH.....	310
<b>N.Tojimatova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI O'STIRISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	312
<b>O.M.Nizomova.</b> TA'LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNING MOHIYATI.....	313
<b>F.M.Qo'chqarova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSION DARSLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI.....	315
<b>M.S.Qoraboyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO'NALISHLARI.....	316
<b>F.M.Qurbonova</b> BOLALARDA VATANPARVARLIK, INSONPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH.....	318
<b>Z.Rahimova</b> INTERFAOL METOD VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.....	319
<b>Sh.I.Sherqo'ziyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIA FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	320
<b>M.M.Siddiqova</b> BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT BILAN BOG'LIQLIGI.....	321
<b>D.M.Sotvoldieva, D.A.Qo'shmaqova.</b> 3-SINFLARDA SO'Z TARKIBINI O'RGANISHDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	323
<b>I.I.To'raqulov.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	324
<b>M.M.To'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI.....	326
<b>A.N.Toshpo'latova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANISHIGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI.....	327
<b>X.Usmonova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH.....	329
<b>S.Vahobova.</b> INTERFAOL USULLAR VA ULARDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	331
<b>B.Xakimova.</b> O'QUVCHILAR BILIMINI MUSTAHKAMLASHDA MAVZUGA OID MASHQLAR BAJARISHNING USULLARI.....	333

<b>M.A.Xomidova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHIMCHA MASHG'ULOTLARNING O'RNI.....	334
<b>M.T.Xudoyberdiyeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	336
<b>S.Yuldasheva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA BILIM BEFRISHDA SINAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	338
<b>Z.Mannobjonova.</b> OILADA VA MAKTABDA KITOBXONLIK VOSITASIDA O'QUVCHILAR MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	339
<b>M.X.Abduqodirova.</b> BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISHDA MATNLAR USTIDA ISHLASH.....	341
<b>D.Arziqulova.</b> SO'Z TARKIBINI O'RGATISHDA TALIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	343
<b>З.З.Ашурова.</b> БОШЛАНГИЧ СИНФЛАР УЧУН ЎҚУВ –ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....	344
<b>Г.Мамазютова.</b> СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРДА ЎҚУВЧИ МАЪНАВИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШ.....	345
<b>F.Jumaboyeva.</b> BOSHLANG'ICH O'QUVCHILARINI MA'NAVİY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH.....	347
<b>Sh.Jumayeva.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA LATIFALARNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH.....	348
<b>B.Gulbahor.</b> SINFDAN TASHQARI ISHLAR ORQALI O'QUVCHILARNI IJODKORLIKKA O'RGATISH.....	349
<b>B.Y.Mamadaliyeva.</b> O'QISH DARSLARIDA ERTAKLARNI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	350
<b>F.M.Mamatisaqova.</b> ERTAK G'OYASINI ANIQLASHDA TALIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	352
<b>B. Marasulov.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR DARSLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI.....	354
<b>Z.Nosirova.</b> BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	355

#### **4-ШЎБА: БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ.**

<b>M.M.Asranova.</b> BOSHLANG'ICH BOSQICHDA O'QUVCHILARNI CHET TILI DARSLARIDA O'QISHNI O'RGATISH.....	357
<b>M.T.Азимова, М.М.Асронова.</b> ЧЕТ ТИЛИ ЎРГАТИШДА ТЕХНИК ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	358
<b>L.T.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH BOSQICHDA TIL O'RGANISHNING SAMARALI YO'LLARI.....	360
<b>D.A.Kadirova.</b> THE IMPORTANCE OF VOCABULARY IN TEACHING ESL.....	361
<b>S.S.Jiyanbekov.</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA "TO HAVE" FE'LINI O'QITISH METODIKASI.....	362
<b>G.Jo'rayeva.</b> BOSHLANG'ICH BOSQICHDA TEXNIK VOSITALARNING CHET TILI O'QITISHDAGI O'RNI VA ROLI.....	363
<b>M.Tojiyeva.</b> CHET TILLARNI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI....	365



